O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 23.00.04.

Xushvaqt ABDULLAYEV,
JIDU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:abdullaevkhushvaqt@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi STIBOM dotsenti siyos.f.n B.A.Xo‘janov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYODAGI DOLZARB MUAMMOLAR ANKLAV/ESKLAV MASALALARIGA TAHLILIY YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi dunyoda regional va global masshtabdagi tahdidlar manbalari ko‘payib borayotgan bir davrda Markaziy Osiyo hududiy xavfsizligini ta’minlash mintaqa davlatlarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biriga aylanganligi xususida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada davlatlar o‘rtasida siyosiy-ijtimoiy, xavfsizlik va barqarorlikni taminlash, davlat chegaralariga doir masalalarni yakuniga yetkazish, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash kabi yo‘nalishlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: Mintaqa davlatlari, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, chegaralar daxlsizligi, anklav/eksklav va chegara muammolari, mintaqaviy xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, konstruktiv yoki dekonstruktiv siyosiy harakatlar.

АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМАМ АНКЛАВОВ/РАБНИЦ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Абстракт

Актуальность темы данной статьи заключается в том, что в современном мире, в условиях увеличения источников региональных и глобальных угроз, считается, что обеспечение территориальной безопасности Центральной Азии стало одной из основных задач, стоящих перед странами область. В данной статье основное внимание уделяется обеспечению политико-социальной безопасности и стабильности между странами, решению вопросов, связанных с государственными границами, укреплению дружбы и добрососедских отношений.

Ключевые слова: Региональные государства, политико-экономические процессы, нерушимость границ, анклавно-экклавные и пограничные проблемы, региональная безопасность, региональное сотрудничество, конструктивные или деконструктивные политические действия.

ANALYTICAL APPROACH TO ENCLAVES/SLAVES IN CENTRAL ASIA

Abstract

The relevance of the topic of this article lies in the fact that in the modern world, in the face of increasing sources of regional and global threats, it is believed that ensuring the territorial security of Central Asia has become one of the main tasks facing the countries of the region. This article focuses on ensuring political and social security and stability between countries, resolving issues related to state borders, strengthening friendship and good neighborly relations.

Key words: Regional states, political and economic processes, inviolability of borders, enclave-exclave and border problems, regional security, regional cooperation, constructive or deconstructive political actions.

Kirish. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda dunyo xaritasida 50 dan ziyod anklav/esklav atamasi bilan aytiladigan hududlar mavjuddir. Ayni chog‘da mavjud ushbu anklav va esklavlarning o’ndan ziyodi bizning Markaziy Osiyo mitaqasida joylashgan.

Xususan, O‘zbekiston to‘rtta esklav hududga ega bo‘lib, ularning hammasi Qirg‘iziston territoriyasi bilan o‘rab olingan. Ularga quyidagi nomlar bilan ataluvchi ko‘p ming sonli aholi istiqomat qiluvchi hududlar kiradi;

1. So‘x.
2. Shohimardon.
3. Cho‘ng‘ara.
4. Jangayl (Toshtepa).

Shuningdek, bizning hududda bitta anklav mavjud bo‘lib, Sarvak nomli aholi istiqomat qiladigan ushbu tog‘li maskan O‘zbekiston ichida joylashgan bo‘lsa-da, ma’muriy-hududiy jihatdan Tojikistonga tegishlidir.

Dunyo xaritasiga nazar solsak, aynan mavjud ushbu anklav/esklavlar va ko‘p holatlarda ular bilan bog‘liq muammolarning yetarli darajada hal etilmagani bois hali-hanuz jahon geosiyosiy maydonida o‘ziga xos tarang vaziyatlar yuzaga kelib chiqmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi anklav/eksklavlar hamda ular bilan bog‘liq dolzarb masalalar, ushbu regionda joylashgan davlatlarning o‘zaro munosabatlariga ba’zan pozitiv, ko‘p hollarda esa o‘zining negativ ta’sirini o‘tkazmoqda. Albatta bu masala mintaqadagi davlatlar ushbu munozarali territoriyalardagi muammolar yechimiga qay yo‘sinda yondashayotganligiga bog‘liq bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi Markaziy Osiyo hududida o‘tgan asrning 20-yillari o‘rtalariga kelib sovetlar o‘z hokimiyatlarini to‘laligicha o‘rnatib bo‘lishgach, ushbu mintaqada o‘ziga xos va ularning fikricha mintaqa xalqlari xohish istaklariga mos bo‘lgan milliy-hududiy admininstrativ chegaralash siyosatini boshladilar. 1924-yilning mart oyida boshlangan ushbu qizg‘in jarayonga 1924-yilning 27-oktyabrida sobiq SSRI Markaziy Ijroiya qo‘mitasining ikkinchi sessiyasida yakuniy qaror qabul qilindi[1].

1-jadval

Oqibatda qabul qilingan qarorga ko‘ra, o‘sha paytda de- fakto va de- yuri mavjud Turkiston ASSR hamda Xorazm va Buxoro SSR hududida – O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, shuningdek, Tojikiston ASSR (O‘zbekiston SSR tarkibida), Qoraqalpoq AO -QASSRga qarashli va yana Qora-Qirg‘iz AO tashkil topgan edi. Keyinchalik, Qoraqalpog‘iston ASSR deya nomlanib, O‘zbekiston SSR tarkibiga kirgan. Tojikiston ASSR esa 1929-yildan TSSR maqomini olgan. 1936-yildan QASSR va Qora-Qirg‘iz AO esa sobiq SSRIning to‘laqonli respublikalariga aylantirilganligi tarixdan ko‘pchiligimizga yaxshi ma’lumdir. Bizning ushbu tarixiy-tadrijiy jarayonlarga e’tiborimizni qarayotganimiz boisi shuki, aynan 1924- yildan boshlanib, toki sobiq Sovet Ittifoqi to‘la shakllangunga qadar davom etgan chegaralarni ichki admininstrativ delimitatsiya va demarkatsiyalash jarayoni Markaziy Osiyodagi hozirgi beshta mustaqil davlatlar hududida anklav yoki esklavlarning vujudga kelishiga asosiy sababdir.

Sovet davrida ko‘p hollarda bir tomonlama yondashuv yoki mazkur muammoga yetarlicha chuqur e’tibor berilmasdan o‘tkazilgan chegaralar o‘rnatilganining negativ oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida ayni chog‘da mintaqa mamlakatlari qanday pozitiv natijalarga erishmoqdalar degan savol yuzaga kelishi tabiiydir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumotlarga tayangan holda shuni aytish kerakki, mazkur jumboqli masalalar yechimini topishda Mustaqillikning ilk yillaridanoq O‘zbekiston hamma tomonlar manfaatini o‘ylagan holda ratsional siyosat olib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ta’kidlab o‘tgan quyidagi fikrlari buning tasdig‘idir: «O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir…Tinch, osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir»[2]. Davlatimiz rahbarining bu mantiqli so‘zlari O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi uchun mas’uliyatning katta bir qismini o‘z zimmasiga olayotganidan darak beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, aynan shu minbardan turib, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbusining ilgari surilishi ham muhim tarixiy voqelik bo‘ldi. Ushbu fikrlarimizning tahliliy davomi o‘laroq o‘zbek–qozoq yoki o‘zbek–tojik munosabatlari dinamikasiga bir razm solsak, masala kunday oydinlashadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bundan yigirma yillar muqaddam O‘zbekistonning chegara va chegaraoldi hududlariga oid munosabatlarida Qozog‘iston va Tojikiston bilan kichik anklav hamda shu maqomga yaqin terminlar bilan atalishi mumkin bo‘lgan munozarali hududlar bo‘lgan edi. Hozirda esa mamlakatimizning Qozog‘iston va Tojikiston bilan munosabatlarida territorial munozarali masalalar deyarli 100% yechimini topgan desak haqiqatga yaqin bo‘ladi. 2010-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston rahbariyatining o‘zaro kelishilgan hatti-harakatlari tufayli Jizzax viloyati hududidagi Arnasoy anklavi masalasi ijobiy hal etildi.

Ya’ni, 1 km kvadrat umumiy maydonga ega mazkur anklavda yashagan 1000 ga yaqin aholi o‘z roziligiga ko‘ra to‘liq Qozog‘istonga ko‘chirildi. O‘zbek tomoni esa ushbu hududga tutash bo‘lgan Qozog‘istonda joylashgan Chordara suv omboriga olib keluvchi yagona tor yo‘lni O‘zbekiston hisobidan kengaytirilishiga rozilik bildirdi. Ikki tomonlama o‘zaro manfaatlarga mos amalga oshirilgan harakatlar ijobiy samarasi o‘laroq munozarali Arnasoy anklavi tugatildi[3].

Mamlakatlarning chegara va chegaraoldi masalalaridagi eng oxirgi muhokama va munozaralariga 2021-yili oxirgi nuqta qo‘yildi. Bu haqda O‘zbekiston va Qozog‘iston hukumatlarining tegishli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlarga muvofiq:

2002-yilda O‘zbekiston va Qozog‘istonning birinchi prezidentlari o‘zbek-qozoq davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi ikki tomonlama imzolagan shartnomalariga asoslanib, Bog‘is qishlog‘i va beshta aholi punktiga ega Arnasoy to‘g‘oni O‘zbekistondan Qozog‘istonga o‘tkazildi[4]. Shu jumladan Qozog‘istonga Xiyobon qishlog‘i hukumatlararo komissiyaning 2004 yildagi bayonnomasiga asosan o‘tkazilgan, deya aniqlik kiritdi «Nigoh» telegram kanali[5].

O‘zbekistonga chegaralarni aniqlashtirish ya’ni demarkatsiyalash jarayoning yakuniy xulosasiga ko‘ra to‘rtta aholi yashash punkti: Qizilo‘rda viloyatining Qoraqalpoq rayonidagi aholi istiqomat qilayotgan Nsan-1, Nsan-2 va Boymurot qishloqlari, shuningdek, Toshkent viloyatiga yaqin joylashgan, muqaddam munozarali hisoblangan Turkistonlik qishlog‘i ham O‘zbekistonga tegishli deya e’tirof etilgan[6].

Ikki davlat hukumatlari mamlakatlar manfaatlariga xilof bo’lmagan qarorlar ijrosi natijasida, ayni paytda 2356 km ga cho‘zilgan chegarada delimitatsiya va demarkatsiya ishlarini deyarli 100 % tugallashga muvaffaq bo‘lindi. Qayd etish lozimki, mazkur nizoli masalalarning ijobiy yechimini topishda bundan o‘n yillar muqaddam mustahkam poydevor qo‘yilgan edi. Bu o‘rinda 1998-yilda imzolangan «Abadiy do‘stlik» va 2013-yildan kuchga kirgan «Strategik hamkorlik» shartnomalarini nazarda tutilmoqda.

Ma’lumki, 2018-yilning 15-martida Ostona shahrida ilk marotaba Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi. Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning o‘zbek –qozoq xalqlari do‘stligi haqida bildirgan ushbu fikrlarini quyida havola etmoqni maqsadga muvofiq deb bildim: «Yaratganning o‘zi bizga qo‘shni bo‘lishdek bebaho ne’matni ato etgan. Bizning donishmand ota-bobolarimiz hovli olma, qo‘shni ol, deb bejiz aytishmagan. Bizning azaldan ildizlarimiz bir »[7].

Yuqorida aytilgan do‘stlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan yana bir o‘ta muhim siyosiy voqea O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning 2022 yilning 21-22 dekabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘lgan chog‘ida amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmas; Chunki ikki tomonlama bo‘lib o‘tgan muzokaralar natijasi o‘laroq; O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tarixiy hujjatlar – Ittifoqchilik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida shartnoma va O‘zbekiston-Qozog‘iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to‘g‘risida shartnomani imzoladilar[8].

“Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini tashkil etish to‘g‘risida, Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida, Oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar, 2000-yil 7- iyuldagi Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketish shartlari to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida bayonnoma shular jumlasidandir.

Shuningdek, strategik islohotlar, elektron savdoni rivojlantirish, o‘rmon xo‘jaligi, davlat xizmati sohalarida memorandumlar, Toshkent va Turkiston, Navoiy va Qizilo‘rda, Jizzax va Turkiston viloyatlari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga oid “yo‘l xarita”lari, energetika, kimyo sanoati, transport va logistikada loyihalar amalga oshirish bo‘yicha bitimlari qabul qilindi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ikki davlatning do‘stona siyosiy odimlari xalqaro maydonlarda ham o‘z isbotini topib kelayotir.

2-jadval

Xuddi shu qabilda O‘zbekiston hukumati qo‘shni Tojikiston bilan ham yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida keng qamrovli siyosiy-iqtisodiy hamkorlikka tayanadigan munosabatlarni olib bormoqda. Diplomatik aloqalar o‘rnatilgan 1992-yildan buyon ikki mamlakat o‘rtasida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada 200 ga yaqin shartnoma hamda kelishuvlar imzolangan. Bu hujjatlar hamkorlikning muhim yo‘nalishlarini qamrab oldi hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa sohalarda birgalikdagi harakatlarni mustahkamlash uchun asosga aylandi. Ayniqsa, 1993-yil 4-yanvarda imzolangan “Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik“ to‘g‘risidagi shartnoma hamda “Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma» (2018-yil, 17-avgust, Toshkent) va “Abadiy do‘stlik shartnomasi” (2000-yil 15-iyun, Dushanbe) ahamiyatlidir. Bu imzolangan shartnomalar mustaqillik va davlat suverenitetini o‘zaro hurmat qilish, teng huquqlilik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, davlat darajasida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida ham o‘zaro manfaatli iqtisodiy sherikchilik aloqalarini o‘rnatishga intilishni huquqiy asosini ta’minlab berishga xizmat qiladi. Shu yo‘sinda ushbu kutilmagan vaqtda ob'ektiv va sub'ektiv omillar oqibatida mojaroga olib kelish ehtimoli bo‘lgan yarim-anklav/esklav masalalarida ham o’zaro yondashuvda pozitiv qarash mavjud. Shu o’rinda birgina misolni keltirish fikrimizning isboti desak mubolag’a bo’lmaydi: Zero, O‘zbekiston hududida bugunga kelib yagona hisoblangan Sarvak nomi bilan ataluvchi anklavning Tojikistonga tegishli ekanini O‘zbekiston tomoni hech qachon shubha ostiga olgani ham yo‘q.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd qilinganidek, ayni chog’da 2356 km ga cho‘zilgan O’zbekiston-Qozog’iston chegarasida delimitatsiya va demarkatsiya ishlarini deyarli 100 % tugallashga muvaffaq bo‘lindi. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, O‘zbekiston tomoni qariyb 1332,9 kmga cho‘zilgan o‘zbek-tojik chegarasida bir vaqtlar ikki mamlakat o‘rtasida ancha tarang siyosiy vaziyatlar yuzaga kelgan chog‘da ham tinchlikni asrab qolishga erishishda salmoqli hissa qo‘shdi. Bu shak-shubhasiz O‘zbekistonning obdon o‘ylab olib borgan yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan siyosati natijasidir. Vaholanki, O’zbekiston tomoni mustaqillikka erishganidanoq qo‘shni davlatlar bilan oqilona hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat olib borishga amal qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. SSRI Markaziy ijroiya qo'mitasining 1924-yilning 27-oktabrdagi qarori
2. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqi
3. Kaznews info ma’lumoti
4. «Deutsche Welle»
5. Nigoh telegram kanali
6. Kaz News Info
7. SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 15-martdagi Ostona shahridagi nutqi
8. Prezident SH.M.Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev 2022-yilning 21-22- dekabrdagi Toshkentdagi uchrashuvi

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 37.013.(42)

Наргиза АБДУЛЛАЕВА,
докторант Ургенчского государственного университета
E-mail: nargisa.abdullayeva@mail.ru

Рецензент: п.ф.д., доц. Ходжаниёзов С.У.(УрГУ)

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE INFLUENCE OF TOURISM ACTIVITIES ON THE IMPROVEMENT OF THE MORAL AND AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS

Abstract
This article analyzes the ways and possibilities of improving the moral and aesthetic education of student youth through tourism activities.
Key words: Tourist activity, youth tourism, moral and aesthetic education, cultural and educational tourism, tolerance, creative thinking, responsibility, personality, aesthetic culture, beauty of nature.

O‘QUVCHILARNING AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA TURIZM FAOLIYATINING TA’SIRI VA UNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada turistik faoliyat orqali talaba-yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasini takomillashtirish yo‘llari va imkoniyatlari taxlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Turistik faoliyat, yoshlar turizmi, axloqiy-estetik tarbiya, madaniy turizm, tolerantlik, ijodiy tafakkur, mas’uliyatlilik, shahs, estetik madaniyat, tabiat go‘zalligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация
В данной статье анализируются пути и возможности совершенствования нравственно-эстетического воспитания студенческой молодежи посредством туристской деятельности.
Ключевые слова: Туристская деятельность, молодежный туризм, нравственно-эстетическое воспитание, культурно-познавательный туризм, толерантность, творческое мышление, ответственность, личность, эстетическая культура, красота природы.

В настоящее время туризм стал важнейшей и успешной сферой экономического развития, занимая 2-место во всём мире по доходности после нефтеперерабатывающей отрасли. Туризм , по сути, является одним из значимых факторов экономического, социально-культурного и научно-образовательного прогресса современного общества и, считается сферой человеческой деятельности, имеющей большой педагогический потенциал [1].

Как известно, активное и систематическое участие в туристической деятельности оказывает положительное влияние на процесс нравственно-эстетического воспитания студентов. Вот несколько способов, которыми туризм может повысить нравственно-эстетическую культуру студентов:

1. Расширение культурного кругозора и мировоззрения - туризм предоставляет студентам возможность познакомиться с различными культурами, искусством и историческими достопримечательностями, что позитивно влияет на развитие их эстетического восприятия.

2. Формирование толерантности и уважения к другим культурам - путешествия помогают студентам лучше понять и уважать различия между людьми и культурами, что, в свою очередь, способствует развитию их нравственных качеств.

3. Осознание и понимание социальной ответственности – занятия активными видами туризма дают возможность студентам осознать свою социальную ответственность и влияние их действий на окружающую среду, что, в свою очередь может привести к развитию их нравственных качеств.

4. Совершенствование эмоционального интеллекта - путешествия могут помочь студентам развить свои эмоциональные навыки и научиться лучше управлять своими эмоциями и чувствами.

5. Развитие лидерских качеств – участие студентов в туристской деятельности способствует развитию их лидерских качеств, таких как коммуникативные навыки, способность к принятию решений и управлению группой.

6. Поощрение творческого мышления – активное вовлечение в различные видя туристской деятельности может стать источником вдохновения и помочь студентам развить творческие навыки.

Таким образом, туризм оказывает значимое влияние на педагогический процесс нравственно-эстетического воспитания студентов, что приводит к их развитию как личностей и повышению культурного уровня общества.

Среди многообразия методов и средств эстетического воспитания средствами туризма можно выделить следующие:

а) Экскурсии являются одним из наиболее популярных и достаточно распространённых средств туризма в процессе эстетического воспитания студентов. Они позволяют познакомиться с различными культурными и историческими достопримечательностями, а также с местными традициями и обычаями [2].

б) Посещение культурных мероприятий, таких как выставки, концерты, театральные представления, также

может помочь студентам развить их эстетическое восприятие, содержательно обогатить эстетическую культуру.

в) Посещение музеев может помочь студентам расширить свой кругозор и развить свое эстетическое восприятие. Музеи являются отличным местом для знакомства с искусством, историей и культурой различных стран и народов. Ряд исследователей подчеркивают особую значимость такого рода туристических мероприятий в процессе совершенствования эстетической культуры и повышения привекательности туристических дестинаций [3].

г) Фотоискусство даёт студентам возможность по-новому взглянуть на красоту местных достопримечательностей, а также сохранить память о поездке, что также может способствовать развитию творческих навыков.

д) Чтение исторических и художественных произведений, книг о культуре, истории и искусстве стран, которые студенты планируют посетить в будущем, поможет им более глубоко понять местную культуру и традиции, а также развить свое эстетическое восприятие.

е) Общение с местными жителями также способствует осознанию и пониманию студентами особенностей местной культуры и традиций, а также развитию у них устойчивого чувства толерантности и уважения к другим культурам и языкам.

Таким образом, туризм, несомненно, может стать эффективным средством эстетического воспитания студентов, если правильно использовать методы и средства, описанные выше.

Одной из практических педагогических моделей нравственно-эстетического воспитания студентов средствами туризма является модель "Туризм и культурное наследие". Она основана на дидактической идее о том, что туризм может служить педагогически эффективным инструментом для воспитания эстетического и нравственного развития личности студента. Основные принципы этой модели включают в себя следующие положения:

1. Формирование и развитие эстетического восприятия. Модель предполагает, что студенты в процессе туристических поездок должны иметь возможность воспринимать культурные ценности разных народов, понять и осознать их историю, традиции, мировоззрение, искусство и архитектуру. В результате студенты могут развивать свои эстетические вкусы, правильно оценивать красоту и гармонию в природе и культуре.

2. Развитие нравственных качеств. Туризм предоставляет студентам возможность взаимодействия с другими людьми, понимания и уважения их традиций и культурных особенностей. Это способствует формированию и развитию у студентов таких нравственных качеств, как терпимость, доброжелательность, уважение и открытость.

3. Мотивация саморазвития и самореализации. В процессе туристических поездок студенты могут узнавать больше о своих интересах, талантах, способностях и личностных качествах. Это может помочь им в выборе профессии и личностном развитии. Таким образом, туризм должен стать инструментом для саморазвития и самореализации студентов.

4. Формирование творческой личности. Данное положение предусматривает, что туризм должен быть организован таким образом, чтобы студенты могли проявить свои творческие способности. Например, студенты могут делать фотографии, писать заметки, создавать видео и другие творческие проекты, чтобы зафиксировать свой опыт путешествия.

5. Развитие социальных навыков. Активное участие в туристской деятельности предоставляет студентам возможность развивать свои социальные навыки и коммуникативные способности.

Содержание и нормы эстетических ценностей, формируемых в процессе туристской деятельности студентов, могут варьироваться в зависимости от контекста и культуры, однако в общих чертах можно выделить следующие главные эстетические ценности:

а) Красота - одна из основных эстетических ценностей, которая фиксирует выражение чувство удовлетворения и восхищения от определенной формы, цвета, звука, текстуры и т.д.

б) Гармония – одна из важнейших эстетических ценностей, которая описывает согласованность, симметрию и пропорции в различных аспектах жизни и искусства.

в) Оригинальность - эстетическая ценность, отражающая уникальность, неповторимость и индивидуальность как качества, которые могут вдохновить, заинтересовать и привлечь внимание.

г) Экспрессия - эстетическая ценность, отражающая выразительность, эмоциональность и чувственность в искусстве и в жизни в целом.

д) Нравственность также представляет собой уникальную эстетическую ценность, ярко и глубоко выражающую внутреннюю взаимосвязь эстетического и нравственного восприятия и выражения, а также важность сохранения и распространения моральных ценностей через искусство и культуру.

При этом, необходимо особо подчеркнуть важность ценностно-ориентированного подхода к реализации педагогического содержания и дидактических возможностей туристской деятельности, так как именно в рамках данного подхода предоставляется выбор ценностей, которые человек ставит выше всего, и ориентацию на них в своих действиях и поведении.

Немаловажной особенностью является также обеспечение доступности и понятности произведений искусства и культурных объектов для всех слоев населения в целях совершенствования нравственно-эстетического воспитания.

Туризм может оказывать положительное влияние на эстетические ценности различными способами, к числу которых можно отнести:

- Исследование и познание культурных достопримечательностей. Туристская деятельность позволяет студентам познавать новые культуры, традиции, искусство и архитектуру, а также укреплять уважение и понимание культурных различий, поощрять на поиск красоты и гармонии в различных формах.

- Общение и взаимодействие с разными людьми. Участие студентов в туристской деятельности позволяет развивать и совершенствовать коммуникативные и социальные навыки, прививать способность правильно воспринимать другую культуру общения, прислушиваться к разнообразным мнениям, а также привносить новые идеи и взгляды на искусство и культуру.

- Взаимодействие с природой. Вовлечение студентов в такие виды туризма, как экотуризм, агротуризм, организация экскурсий на природу могут укрепить уважение и любовь к окружающей среде, а также поощрять творчество студентов, вдохновленное созерцанием природных ландшафтов.

- Развитие творческого мышления. Путешествия, знакомство с новыми местами, природой и культурно-

историческими ценностями могут инициировать процессы расширения художественного воображения и творческого мышления, вдохновляя на создание новых идей и произведений различных жанров произведений.

Освоение новых знаний. В ходе туристской деятельности студенты узнают новые факты и истории о различных объектах и местах, которые могут расширить их эстетические знания и уважение к общечеловеческим и национальным духовным и культурным ценностям.

Приобретение нового эстетического опыта. Многие виды туризма и участие в туристской деятельности могут предоставить студентам возможность посещать музеи, выставки, фестивали и другие культурные мероприятия, где они могут приобрести новый эстетический опыт, развить художественно-эстетический вкус и узнать о новых тенденциях в искусстве и культуре.

Заключение. Таким образом, активное вовлечение студенческой молодёжи в туристскую деятельность способствует формированию нравственно-эстетических компетенций будущих специалистов, а также привитию уважения к культурным различиям и природной красоте, росту творческих способностей и креативных качеств, вдохновению в поисках проявлений прекрасного и гармоничного в окружающей действительности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Нафасов Д.Ш. Совершенстование педагогических механизмов развития социально-культурной компетентности студентов в туристической деятельности. Автореферат дисс. на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по педагогическим наукам, Чирчик, 2021, с.33.
2. Ухтинская М. В. Экскурсионный туризм как ведущее средство воспитания духовно-нравственной культуры учащихся средних классов средних общеобразовательных учреждений // Вестн. С.-Петерб. ун-та культуры и искусств. – 2012. – Вып. 3. – С. 51.
3. Kirillova K., Fu, X., Lehto, X., and Cai, L. (2014). What makes a destination beautiful? Dimensions of tourist aesthetic judgment. Tour. Manag. 42, 282–293. doi: 10.1016/j.tourman.2013.12.006;
4. Koya K., and Chowdhury, G. (2020). Cultural heritage information practices and iSchools education for achieving sustainable development. J. Assoc. Inf. Sci.Technol. 71, 696–710. doi: 10.1002/asi.24283;
5. Palmer C. (1999). Tourism and the symbols of identity. Tour. Manag. 20, 313–321. doi: 10.1016/S0261-5177(98)00120-4;
6. Rancière J. (2009). The aesthetic dimension: Aesthetics, politics, knowledge. Crit. Inc. 36, 1–19. doi: 10.1086/606120;
7. Wei C., Zhao, W., Zhang, C., and Huang, K. (2019). Psychological factors affecting memorable tourism experiences. Asia Pac. J. Tour. Res. 24, 619-632. doi: 10.1080/10941665.2019.1611611

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 32.(327)

Bobur ABDULXAKIMOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ozodbek.radjabov.94@inbox.ru

O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi professori T.Tursunmuratov taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF CYBER SECURITY IN THE DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUNG PEOPLE

Annotation
It has been a long time since cybercrime, which is mentioned with new types, entered the list of global problems of the 21st century. It is known to us to distribute virus programs, hack passwords, embezzle funds from credit cards and other bank details, as well as illegal information over the Internet, in particular, defamation, moral We can't ignore the fact that spreading misinformation is putting the lives of humanity at great risk.
Key words: Ideological immunity, cyber security, Cisco organization, system, network, cyber crime

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В РАЗВИТИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЕЖИ

Аннотация
Прошло уже много времени с тех пор, как киберпреступность, упоминаемая с новыми видами, вошла в список глобальных проблем 21 века. Нам известно о распространении вирусных программ, взломе паролей, хищении средств с кредитных карт и других банковских реквизитов, а также незаконной информации через Интернет, в частности, клеветы, моральных Мы не можем игнорировать тот факт, что распространение дезинформации ставит жизнь человечества подвергается большому риску.
Ключевые слова: Идеологический иммунитет, кибербезопасность, организация Cisco, система, сеть, киберпреступность.

YOSHLARNI MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA KIBERXAVFSIZLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya
XXI asr asrning global muammolari qatoriga yangidan-yangi turlari bilan tilga olinayotgan kiberjinoyatchilik kirib kelganiga ham ancha bo‘ldi. Uning bizga ma’lum bo‘lgan virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag‘larni o‘zlashtirish talon-toroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo‘hton, ma’naviy buzuq ma’lumotlarni tarqatish bilan bashariyat hayotiga katta xavf solayotganidan ko‘z yuma olmaymiz.
Kalit so’zlar: Mafkuraviy immunitet, kiberxavfsizlik, Cisco tashkiloti, tizim, tarmoq, kiberjinoyatchilik

Kirish. Kiberxavfsizlik - bu aql-idrokka erishish uchun tenglik mavjud bo‘lgan yangi maydon. Kiberxavfsizlik hozirda yangi kirib kelgan tushunchalardan biri bo‘lib, unga berilgan turlicha ta’riflar mavjud. Xususan, CSEC2017 Joint Task Force manbasida «kiberxavfsizlik – hisoblashlarga asoslangan bilim sohasi bo‘lib, buzg‘unchilar mavjud bo‘lgan sharoitda amallarni to‘g‘ri bajarilishini kafolatlash uchun o‘zida texnologiya, inson, axborot va jarayonlarni mujassamlashtiradi. U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlillash va testlashni o‘z ichiga oladi. Kiberxavfsizlik ta’limning mujassamlashgan bilim sohasi bo‘lib, qonuniy jihatlarni, siyosatni, inson omilini, etika va risklarni boshqarishni o‘z ichiga oladi” deya ta’rif berilgan[1].

Tarmoqlar sohasida faoliyat yurituvchi yana bir Cisco tashkiloti esa kiberxavfsizlikka – tizim, tarmoq va dasturlarni raqamli hujumlardan himoyalash amaliyoti bo‘lib, ushbu kiberhujumlar odatda maxfiy axborotni boshqarish, almashtirish yoki yo‘q qilishni, foydalanuvchilardan pul undirishni, normal ish faoliyatini buzishni maqsad qiluvchi faoliyat deb hisoblaydi. Shuningdek, hozirgi kunda samarali kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish insonlarga qaraganda qurilmalar soni va turlarining kattaligi hamda buzg‘unchilar salohiyatini ortishi natijasida amaliy tomondan murakkablashib bormoqda deya tasniflaydi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kiberxavfsizlik bilim sohasining zaruriyati sifatida birinchi meynfreym (katta universal yuqori unumdor, nosozliklarga chidamli server) kompyuterlar ishlab chiqarilgandan boshlab paydo bo‘la boshlagan. Bunda mazkur qurilmalarni va ularning vazifalari himoyasi uchun ko‘p qatlamli xavfsizlik choralari amalga oshirilgan. Milliy xavfsizlikni ta’minlash zaruriyatini oshib borishi kompleks va texnologik murakkab ishonchli xavfsizlik choralarini paydo bo‘lishiga olib keldi.

Kiberxavfsizlik esa elektron shakldagi axborotni (barcha holatlardagi, tarmoqdan to qurilmagacha bo‘lgan, o‘zaro birga ishlovchi tizimlarda saqlanayotgan, uzatilayotgan va ishlanayotgan axborotni) himoyalash bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, hukumatlar tomonidan moliyalashtirilgan hujumlar va rivojlangan doimiy tahidlar (Advanced persistent threats, APT) ham aynan kiberxavfsizlikka tegishlidir. Bular o‘z navbatida, qisqacha aytganda, kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligining bir yo‘nalishi deb tushunish uni to‘g‘ri anglashga yordam beradi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Kiberjinoyatchilik bu – kompyuter yoki boshqa qurilmalarga qarshi qilingan yoki kompyuter va boshqa qurilmalar orqali qilingan jinoiy faoliyat turi bo‘lib, uning eng keng tarqalgan turlari - kompyuter qaroqchiligi, onlayn firibgarlik, kompyuter tizimlariga hujum qilish, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash va noqonuniy yoki

taqiqlangan ma’lumotlarni tarqatish kabilardir. Kiberjinoyat turlarini qat’iy bir tasniflashning imkoni yo‘q. Quyida kriminologiya sohasida aloqador holda kiberjinoyatlarning turlari keltirilgan: iqtisodiy kompyuter jinoyatchiligi, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga qarshi qaratilgan kompyuter jinoyatchiligi, jamoat va davlat xavfsizligiga qarshi kompyuter jinoyatchiligi[4].

Tahlil va natijalar. Kiberjinoyatlarning yana bir turi inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga qarshi jinoyatlar - “kompyuter qaroqchiligi”dir. Ushbu jinoyatlar dasturiy ta’minotni noqonuniy nusxalash, ishlatish va tarqatishda namoyon bo‘ladi. Bu dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazasini yaratish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarga ya’ni mualliflik huquqiga jiddiy zarar yetkazadi. Bundan tashqari, dasturiy ta’minot kompaniyalariga katta moliyaviy yo‘qotishlarni olib keladi. “Maykrosoft Armaniston” kompaniyasining direktori Grigor Barsegyanning takidlashicha, “kompyuter qaroqchiligi” ning ishlab chiqaruvchilarga yetkazgan zarari yiliga 66 milliard dollarni tashkil qiladi. Uning so‘zlariga ko‘ra armanistonlik istemolchilar o‘zlarining moliyaviy resurslarini tejash uchun viruslarni yuqtirish xavfi yuqori bo‘lgan dasturlardan ongli ravishda foydalanadilar[5].

Kiberolam yoshlar mafkuraviy dunyosiga kuchli ta’sir etib bormoqda. Telefon hanuzgacha tashkilotlar ichida va ular o‘rtasidagi aloqaning eng keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun, u sotsial injineriya uchun samarali vosita bo‘lib qolmoqda. Telefonda gaplashayotganda, suhbatdoshning shaxsini tasdiqlashning imkoni yo‘q. Bu hujumchilarga xodimga, xo‘jayinga maxfiy yoki muhim tuyuladigan ma’lumotlarga ishonish mumkin bo‘lgan har qanday shaxsni o‘rniga bo‘lish imkonini beradi. Bunda, zo‘ravonlik qurbonini “yordam berishdan” boshqa imkoni qolmaydi. Hattoki, uyushtiriladigan suhbat ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan taqdirda ham. Uyali telefondan foydalanuvchilardan pul o‘g‘irlashga qaratilgan firibgarlikning turli usullari mavjud. Bunga qo‘ng‘iroqlar yoki lotereyalardagi yutuqlar, SMS-xabarlar, xatolar orqali pulni qaytarish to‘g‘risida so‘rovlar yoki jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari muammoga duch kelganligi hamda ma’lum miqdordagi pulni zudlik bilan o‘tkazish kerakligi haqidagi xabarlarni keltirish mumkin.

«Kiberjinoyatchilik» tushuchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, ma’lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o‘g‘irlash (fishing va farming) va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko‘lami ham oshib borayotganini ta’kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiberhujum) - komp’yuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan yoki potensial xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, moddiy ob’ektlarga katta zarar yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning boshlanishi yoki maqsadi bo‘lgan siyosiy sababdir. Zamonaviy terrorchilar uchun kibermakondan foydalanishning jozibadorligi kiberhujumni amalga oshirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmasligi bilan bog‘liq[6].

Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra, bu rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyotiga ko‘maklashish, umuminsoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish niqobi ostida fuqarolar ongiga ta’sir o‘tkazish, ularni turli yo‘llar bilan o‘z maqsadlari sari bo‘ysundirish orqali amalga oshirilmoqda.

Afsuski, bu jarayonda kiberhujumlarni uyushtirish, bu yo‘lda internet global tarmog‘ining mislsiz imkoniyatlaridan «samarali» foydalanishga urinishlar tobora avj olmoqda.

Internetda mavjud ijtimoiy tarmoqlar, ularning ishlab chiqaruvchilari va homiylarining suveren davlat ichki ishlariga “aralashishlari” qanday rol o‘ynashi mufassal o‘rganilmaganligi bois ba’zan bunday “aralashuv” mazkur davlatga qarshi ekanligi hali hanuz e’tirof etilgani yo‘q.

Ijtimoiy tarmoqlar egalari uchun ushbu tarmoqlar sahifalarida davlat tuzumini ag‘darishga da’vat qilingani uchun javobgarlikka tortilishining xalqaro miqyosdagi huquqiy asoslari yaratilmagan. Vaholanki, har bir qilingan jinoiy hatti-harakat yoki harakatsizlik mazmun-mohiyatiga ko‘ra, albatta, javobsiz va jazosiz qolmasligi kerak.

Mazkur internet saytlari to‘satdan paydo bo‘lib, ko‘pincha formatini, so‘ngra manzilini o‘zgartiradi. Shu bois ayrim ekspertlar internetning butkul ochiqligi kabi dastlabki konsepsiyalardan voz kechib, uning yangi tizimiga o‘tishni taklif etmoqda.

Yangi modelning asosiy mohiyati tarmoqdan foydalanuvchilarning anonimligidan voz kechishdir. Bu tarmoqning jinoiy tajovuzlardan yanada ko‘proq himoyalangan bo‘lishini ta’minlashga imkon berdi. Misol tariqasida, yopiq tarmoq tizimiga o‘tgan Xitoy davlatini va bunday jarayonga tayyorgarlik ko‘rayotgan Rossiya davlatini keltirishimiz mumkin.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashayotgan mamlakatimizda axborot kommunikatsiya aloqalari, axborot tizimlari va zamonaviy komp’yuter texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha izchil davlat siyosati olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, fuqarolarimizga qator qulayliklar va imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mazkur jarayon bilan bir qatorda, yaratilayotgan raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining xavfsizligini ta’minlash muammosi ham mavjud, albatta.

Bu eng dolzarb masalalardan biri - kiberxavfsizlikni ta’minlash, sodir etilishi mumkin bo‘lgan kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi hisoblanadi.

Kundan-kunga takomillashib borayotgan kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashda quyidagi asosiy talablarni bajarish orqali ulardan himoyalanish, ya’ni kiberxavfsizlikni ta’minlashimiz mumkin. Bular yoshlarga axborot xavfsizligi asoslarini o‘rgatish, foydalanayotgan dasturiy mahsulotlarning zaifliklarini doimiy sinovdan o‘tkazib turishni anglatish, ishonchli antivirus dasturlaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, litsenziyalangan rasmiy dasturlardan, axborot tizimlarini himoyalashda ko‘p faktorli autentifikatsiyadan foydalanish, parollardan foydalanishda kuchli parolni saqlash siyosatiga rioya qilish; muntazam ravishda komp’yuter qattiq disklaridagi ma’lumotlarni shifrlash kabilar shular jumlasidandir[7].

Shu o‘rinda, mamlakatimizda kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashni olib boruvchi vakolatli davlat idoralariga ham muayyan vazifalar yuklanishini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, ular kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi va uning xalqini axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari orqali amalga oshirilayotgan shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi tushunchasini yanada kengroq targ‘ib qilishi lozimligi bugungi kun haqiqatiga aylanib bormoqda. Davlat xavfsizligini tashqi hamda ichki kibertahdidlardan himoya qilinishini ta’minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish kabi vazifalarni amalga oshirish har doimgidan dolzarblashib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarni tergov qilish, ularni aniqlash, bartaraf etish hamda oldini olish bo‘yicha zarur qarorlar qabul qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, kiberterrorizm, kiberekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kiberxavfsizligiga tahdid soluvchi kiberhatarlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, kiberjinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o‘tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajarishlari lozim. Shu bilan birga, dunyoda axborot xavfsizligi muammolari sezilarli darajada yomonlashdi, bu sohada kiber jinoyatlar, turli xavf-xatarlar va tahdidlar darajasi keskin oshdi, bu esa noto‘g‘ri ma’lumotlar va soxta dori-darmonlarni, onlayn firibgarlik va xakerlik hujumlarining turli shakllarini tarqatishdan iborat. Internet axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, davlat infratuzilmasining muhim ob’ektlari, shuningdek, yoshlarning shaxsiy hayotiga aralashuvini buzish uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ushbu tahdidlarning transchegaraviy tabiati esa Milliy sa’y-harakatlarni mintaqaviy va xalqaro miqyosda jamoaviy harakatlar bilan to‘ldirish zarurligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Information Technology Security Evaluation Criteria (ITSEC), Provisional Harmonized Criteria (1991) Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 1991 ISBN 92-826-3004-8, Catalogue Number: CD-71- 91-502-EN-C © ECSC-EEC-EAEC, Brussels • Luxembourg.
2. National Information Systems Security (InfoSec) Glossary (2000) National Security Telecommunications and Information Systems Security Committee. National Security Agency US
3. Xasanov P.F., Xasanov X.P., Axmedova O.P., Davlatov A.B. “Kriptotahlil va uning maxsus usullari” elektron o‘quv qo‘llanma. 2010. 14 b.
4. Ganiev S.K., Khudoykulov Z.T., Islomov Sh.Z., Selection suitable biometrics for cryptographic key generators // TUIT Bulletin, Tashkent, 2016, №4 (40), – P. 80-92.
5. S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T.: «Aloqachi», 2020, 260 b.
6. Ganiyev S.K., Karimov M.M., Xudoyqulov Z.T., Kadirov M.M. Axborot xavfsizligi bo‘yicha atama va tushunchalarning rus, o‘zbek va inliz tillaridagi izohli lug‘ati // Toshkent 2017, B. – 480.
7. Stamp M. Information security: principles and practice // John Wiley & Sons, 2011, -P. – 606.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 327.8

Javlon ABDURASULOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti
E-mail: abdurasulovj1402@gmail.com

Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti direktor o‘rinbosari, s.f.d (PhD) A.A.Umarov taqrizi asosida

ZAMONAVIY AFG‘ONISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY KESKINLASHUVIGA QO‘SHNI DAVLATLARNING MUNOSABATI (XITOY VA POKISTON MISOLIDA)

Annotatsiya

Afg‘onistondagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik nafaqat unga qo‘shni davlatlarining iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga balki, butun dunyoning rivojlanishiga salbiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Ushbu maqolada Afg‘onistonda 2021-yil avgustda hokimiyat o‘zgarganidan so‘ng Xitoy va Pokiston davlatlarining ushbu holatga iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy munosabatlaring o‘zgarish vektori turli rakurslardan tahlil qilingan. Shuningdek, Afg‘on muammosini hal qilishda ushbu davlatlarning ro‘li muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Markaziy Osiyo, «Tolibon» harakati, iqtisodiyot, geosiyosat, siyosiy choralar, chegara davlatlar, arab davlatlari, g‘arb davlatlari.

THE REACTION OF NEHGBOUR COUNTRIES TO THE SOCIO-POLITICAL SITUATION IN MODERN AFGHANISTAN(FOR EXAMPLE CHINA AND PAKISTAN)

Annotation

Political and economic instability in Afghanistan has impacting on not only developments of neighboring countries and region, but also the whole world. In this article analyzes the vector of changes in the economic, political and geopolitical relations of China and Pakistan from different points of view after the change of power in Afghanistan in August 2021. As well, discussed their role in solving the Afghan problem.

Key words: Afghanistan, Central Asia, "Taliban" movement, economy, geopolitics, political measures, border countries, Arab countries, Western countries.

РЕАКЦИЯ СОСЕДНИХ СТРАН НА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ В СОВРЕМЕННОМ АФГАНИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ И ПАКИСТАНА)

Аннотация

Политическая и экономическая нестабильность в Афганистане оказывает влияние не только на развитие соседних стран и региона, но и всего мира. В данной статье анализируется вектор изменения экономических, политических и геополитических отношений Китай и Пакистан с разных точек зрения после смены власти в Афганистане в августе 2021 года. Также рассматривается их роль в решении афганской проблемы.

Ключевые слова: Афганистан, Центральная Азия, движение «Талибан», экономика, геополитика, политические меры, приграничные страны, арабские страны, страны Запада.

Kirish. Afg‘onistondagi siyosiy beqarorlik qariyb yarim asrda buyon Markaziy Osiyo (MO)ga, balki butun dunyo xavfsizligiga tahdid solayotgan asosiy muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Jahon hamjamiyati uzoq yillar davomida ushbu mamlakatning turli ko‘rinishdagi mutaassib shaxslar, ekstremist va terrorchilar uchun poligonga aylanayotganiga befarq qarab keldi.

1-rasm. Afg‘oniston va unga chegaradosh davlatlar

Hozirgi kunga kelib dunyodagi geosiyosiy balans sezilarli o‘zgardi. Afg‘oniston bilan 2640 km umumiy chegaraga ega Pokiston Janubiy Osiyo mintaqasida liderlikka intilayotgani, Afg‘onistonda siyosiy barqarorlik o‘rnatilishida uning ro‘lini oshirib yubordi. Buni birgina 2021-yilda hokimiyat tepasiga Toliblar harakati kelganda migratsion, ijtimoiy-siyosiy, sanoat va oziq-ovqat xavfsizligi sohalarda namoyon bo‘ldi Shuningdek, 2021-yilning avgustidan so‘ng Afg‘onistonda Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati faollashgani bilan ajralib turibdi. Xitoy va Afg‘oniston o‘rtasida 92 km uzunlikdagi chegaraga ega bo‘lib, bevosita iqtisodiy sarmoyalar kiritish orqali Afg‘onistondagi jarayonlarga ta’sir etmoqda. Afg‘onistonda joriy va kelajakdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga Xitoy va Pokistonning ta’siri va ishtiroki ortib borayotgani xalqaro maydondagi siyosiy voqealar namoyon etmoqda. Ushbu davlatlarning ishtiroki va ta’sirini siyosiy tahlillari Afg‘on muammosini ijobiy hal qilishda tinchlik, siyosiy barqarorlik o‘rnatishda va iqtisodiy taraqqiyot jarayoniga katta ahamiyat ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Afg‘onistondagi mavjud holatni o‘rganish bo‘yicha jahonda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ushbu mamlakatdagi mojaroli vaziyatni barqarorlashtirish istiqbollari, uning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka salbiy ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan Rashidov R.R. 2018-yilda “Afg‘on davlatchiligi shakllanishiga xalqaro va mintaqaviy jarayonlarga ta’siri”

mavzusida tadqiqot olib bordi. Ushbu tadqiqotda Rashidov Afg‘onistondagi davlatchilik asoslarni turli rakurslardan tahlil qilgan. Mintaqada tinchlik va barqarorlik o‘rnatishda tarixiy jarayonlarni tahlili natijasida bir qancha takliflarni ilgari surganni diqqatga sazovor. Ushbu tadqiqotchining izlanishlarida Afg‘onistondagi Xitoy omili nazariy jihatlari eslatib o‘tilgan ammo, zamonaviy holati tahlil qilinmagan. Shuningdek, Umarov A.A. 2017-yilda “Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligida Afg‘oniston faktori” mavzusida bir qancha ilmiy qarashlarini ilgari surdi. Ushbu tadqiqotchi doimiy siyosiy jarayonlarga mos ravishda ko‘proq Afg‘oniston va Markaziy Osiyo mintaqasiga bag‘ishlangan maqolalar, monografiyalarda o‘zining qarashlari va takliflarini chop etib boradi. Xorijiy tadqiqotchilardan Ahmad Shayeq Qassem, Muhammad Fahim Khan, Jennifer Brick Murtazashvili, Kamran Bokhari, Dipanjan Roy Chaudhury, Arne Strand, John F. Sopko kabilar Afg‘onistondagi iqtisodiy-siyosiy vaziyatga ilmiy xulosalarini maqollar va monografiyalar ko‘rinishida chop etib kelmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotchilarning aksariyat qarashlari 2021-yil avgustdan so‘ng bir muncha o‘z ahamiyatini kamayishiga olib keldi. Hozirgi Xalqaro maydondagi geosiyosiy o‘zgarishlar Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatishga Xitoy va Pokiston ro‘lini oshirib yubordi va bu borada tahliliy izlanish olib borish uchun ehtiyoj borligini ko‘rsatib qo‘ydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani to‘g‘ri tashkil qilish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ilmiy tadqiqot metodlarining quyidagi turlaridan foydalanildi: tarixiy, umumiylashtirish, statistik, tizimli tahlil, taqqoslash, kuzatish, analiz va sintez.

Tahlil va natijalar. Umumiy tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, «Tolibon» qisqa muddatda, bir necha hafta ichida deyarli butun Afg‘onistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Qiziq jihatlaridan biri shuki, AQSh va G‘arb davlatlari bu jarayonga deyarli aralashmadi. G‘arb mamlakatlarining ba’zilari o‘z tashqi ishlar mahkamalari orqali muammo tinch yo‘l bilan hal qilinishi bo‘yicha chaqiriqlarini e’lon qilishdi. Lekin real ishlaydigan mexanizmlardan foydalanilmadi. Masalan, AQSh bu jarayonni to‘xtatish niyatida bo‘lganida «Tolibon»ga nisbatan keskin pozitsiyasini e’lon qilishi va turli sanksiyalar yoki «Tolibon»ni qo‘llab-quvvatlashi gumon qilinadigan mamlakatlarga qarshi iqtisodiy va siyosiy choralar belgilashi ham mumkin edi[1]. Bu esa jarayonni to‘liq to‘xtata olmasa ham, sekinlashtirgan bo‘lardi.

Qo‘shma Shtatlarda ham baribir «Tolibon» Afg‘oniston hududining katta qismini egallashi bo‘yicha kutilmalar bor edi va bu jarayon 4-5 oy ichida amalga oshirilishini taxmin qilishgandi, ammo o‘zlari uchun ham bu hodisa bir necha hafta ichida ro‘y berishi kutilmagan holat bo‘ldi. Shu sabab savol paydo bo‘lishi mumkin, bu jarayon qanchalik tabiiy ro‘y berdi? Balki, biz hali ilg‘amayotgan, ko‘rmayotgan kelishuvlar bo‘lishi mumkin va bular yaqin orada asta-sekin ma’lum bo‘la boshlaydi.[2].

Xitoy. G‘arb davlatlari chiqib ketishi bilan “Tolibon”ning o‘zlari ham oxirgi chiqishlarida ta’kidlayaptiki, ular Pokiston, Rossiya va Xitoy bilan hamkorlik o‘rnatgan va yaxshi aloqalarga ega. Rossiyada hali ham “Tolibon” taqiqlangan guruh bo‘lishiga qaramay, bu ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishini cheklamayapti.



1-jadval. Xitoyning Afg‘onistonga eksport ko‘rsatkichi AQSH dollar miqdorida[4]

Ushbu masalani ikkita jihatiga e’tibor berish kerak. Birinchidan, AQSH va uning ittifoqchilari bu hududdan qo‘shinlarini olib chiqqani bilan ta’sirini va imkoniyatlarini yo‘qotadi, deb bo‘lmaydi. Ya’ni ular endi bu hududga umuman qiziqish bildirmaydi degani emas. Hozirgi jarayon bugungi kunda AQSH olib borayotgan keng qamrovli global siyosatga borib taqaladi. Bayden administratsiyasi Rossiya va Xitoy bilan harbiy raqobatda yutqazmaslik uchun o‘z resurslarini tiyishga harakat qilmoqda. Bu o‘zgarishlar AQSHning yangi global siyosati prinsiplari doirasida amalga oshirilmoqda. Takidlanganidek, harbiylarni olib chiqib ketish bu hududga nisbatan siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan ularning qiziqishlarini kamaytirmaydi. Bunda ular Yaqin Sharqdagi imkoniyatlarini ishga solishi mumkin[3].

Ikkinchidan, Rossiya va Xitoy nuqtai nazaridan qarasak, ushbu davlatlarda bu vakuumni to‘ldirish uchun qanchalik xohish borligini geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqib tahlil qilish mumkin. Afg‘oniston hududiga kirmoqchi bo‘lgan davlat bu yerdagi ko‘plab muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Bu narsalarga Xitoy tomoni qanchalik tayyorligi ham o‘ziga yarasha noaniq holat[5].

AQSH o‘z harbiylarini saqlab turishning o‘zigagina 4-5 mlrd dollardan ziyod pul sarflagan. Bu faqatgina shu yo‘nalishning o‘ziga. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarini rivojlantirishga ham anchagina mablag‘ yo‘naltirilgan. Agar kimdir Afg‘onistonda dominant kuch bo‘laman desa, shu jihatlarni ham hisobga olishiga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda Pokiston ham, Xitoy ham bundan to‘liq manfaatdor emas. Xitoy o‘z manfaatlarini hal qilish uchun ko‘proq “Tolibon” bilan kelishib, muzokaralar yordamida bunga erishishga intiladi.

«Tolibon» Xitoyni «qudratli va mustahkam» davlat sifatida ko‘rishini va Afg‘onistonga nisbatan ijobiy siyosatidan va gumanitar yordam ko‘rsatishidan minnatdorligini ma’lum qilgan. Shuningdek, Pekin ulardan «Sharqiy Turkiston islomiy harakati» bilan aloqa qilmaslik bo‘yicha bayonotlarni ham olmoqda, garchi Shinjonda undan ham qattiq metodlar orqali o‘zi uyg‘urlar va boshqa xalqlarni «qayta tarbiyalash lagerlariga» tiqib qo‘ygan bo‘lsa ham.

Xitoy yangi Afg‘onistondagi eng yirik investorlardan bo‘lishi kutilmoqda. Donald Trampning masxaraomuz qabul qilingan «Xitoy Afg‘onistonning mineral resurslarini oladi» degan gaplari haqiqatga aylanishi ehtimoli yuqori. Pekin Afg‘onistonning infratuzilmasiga ham pul tikib, o‘zining oxirgi yillarda dolzarbligini yo‘qotib qo‘yayotgan yirik xalqaro transport loyihalariga qo‘shishi ham mumkin.

Xitoyning afg‘on siyosati haqida so‘z yuritilganda esa uning yondashuvini «faol kuzatish» taktikasi deb atash mumkin. Pekin Afg‘onistonda tezroq tinchlik va barqaror rejim o‘rnatilishi tarafdori. Ammo, hokimiyatning diniy radikal guruhlar qo‘liga o‘tishi va buning orqasidan kelajakda uyg‘ur va boshqa musulmonlar yashaydigan Shinjondagi vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfi paydo bo‘lishi mumkinligi Xitoy tarafini jiddiy o‘ylantirib qo‘ymoqda. Aynan shu jihatdan XXR va G‘arb davlatlari yondashuvida o‘ziga xos yaqinlik mavjud. Ammo keyingi paytlarda Xitoy diniy, shu jumladan, islomiy rejimlar bilan muloqot qilish va ular bilan ish olib borishda ancha tajribaga ega bo‘ldi. Masalan, Pekin yaqindagina Eron ruhoniy rahbarlari bilan kelishgan holda ushbu davlat iqtisodiyotiga 25 yil muddat ichida 400 milliard dollarlik sarmoya kiritish haqida qaror qabul qildi. Shuningdek, xitoyliklar allaqachon toliblar bilan ham aloqa o‘rnatgan. Ayni paytda Xitoy O‘zbekiston olg‘a surayotgan Trans-afg‘on temir yo‘li loyihasini moliyalashtirishga ham qiziqish bildiryapti. Boz ustiga, xitoy kompaniyalari allaqachon Afg‘onistonda ish olib bormoqda. Va ular ushbu mamlakat hududida joylashgan qazilma

boyliklari haqida yetarlicha ma’lumotga ega va kelajakda ularni o‘zlashtirishda qatnashish rejalari ham yo‘q emas[6].

Pokiston. “Tolibon”ni legitimlashtiradigan hukumat tuzilishi Afg‘oniston atrofidagi mintaqaviy va mintaqalararo munosabatlarda birinchi navbatda Pokistonning rolini oshirib yuboradi. Hozirgacha eng ko‘p afg‘onistonlik qochqinlarni qabul qilgan Pokiston. Binobarin, Pokiston maxsus xizmatlari 1990- yillarda “Tolibon”ni qo‘llab-quvvatlash orqali ko‘zlagan yuqori mavqega erishishi maqsadlariga endi yetishi imkoniyati ancha baland. Zero, oradagi 20 yil davomida qanchalik paradoksal tuyulmasin Afg‘oniston hukumati Pokiston bilan deyarli dushman sifatida gaplashdi (bunga haqqi ham bor edi), hattoki ikki mamlakat o‘rtasidagi chegara britaniyaliklar tomonidan o‘rnatilgan Dyurand chizig‘ini tan olmay keldi. Endi esa Pokiston o‘ziga osib olgan «nohaq jabrdiyda» maqomidan chiqishiga va yetakchi rol o‘ynashiga imkon bo‘ladi.

Pokiston tomoni ham Afg‘on mojarosi tufayli yuzaga kelayotgan muammolar va xavf-xatarlardan charchagan. Jumladan, Pokistonning shimoliy hududlarida davom etayotgan notinchlik va terroristik harakatlar tufayli rasmiy Islomobod hozirgi kunga kelib “Tolibon”ga nisbatan o‘z yondashuvini o‘zgartirgan. 80-90 yillarda ushbu harakatni har taraflama quvvatlagan Pokiston ham bugungi kunda tezroq tinchlik o‘rnatilishi tarafdoriga aylangan[7].

Pokistonni ko‘p marta “Tolibon”ni qo‘llab-quvvatlashda ayblashadi o‘zi bu juda keng tarqalgan qarash. Nafaqat ayblashadi, balki Pokistonni “Tolibon”ni tuzgan va boshqarib kelayotgan kuch deb ham bilishadi. Albatta, Pokiston 90- yillarda “Tolibon” shakllanishida katta rol o‘ynagan, uning rahbariyatini tayinlash, mafkurasini ishlab chiqishda bevosita ta’sir ko‘rsatgan. “Tolibon” paydo bo‘lgan davrdan beri 27 yil o‘tib ketdi. Hozirgi “Tolibon” o‘sha 90-yillardagi kuch emas, ma’lum transformatsiya jarayonlari ro‘y berdi. Ular oxirgi paytlarda ko‘plab davlatlar bilan rasmiy uchrashuvlar ham o‘tkazdi. Shu sabab “Tolibon”ni Pokistonga to‘liq bog‘lanib qolgan kuch sifatida e’tirof etish biroz bo‘rttirish[8].

Ikkinchidan, “Tolibon”ning ichida ham bo‘linishlar mavjud. Harakat tarkibida ta’sirga ega bo‘lgan rahbariyatdagilar ma’lum hududlarda o‘z ta’siri va ofislariga ega. Hozirda ularning tasdiqlanganlari 3 ta: Peshavor shu’basi, Kvetta shu’basi (bular Pokistonda) va Mashhad shu’basi (2010- yilda Eron hududida ochilgan). Bulardan tashqari “Tolibon” ichida harbiy operatsiyalarga javob beradigan, bu ishlarga jalb qilinadigan, Haqqoniy boshchiligidagi guruh mavjud. Bu guruh ham harakat doirasida o‘z avtonomiga va so‘ziga ega. Ko‘pchilik manbalarga ko‘ra, aynan Kvetta shu’basi va Haqqoniy boshchiligidagi guruh bevosita Pokiston bilan aloqalar o‘rnatgan. Shuni unutmaslik kerakki, “Tolibon” harakati shakllanishidan bugungi kundagi faoliyatigacha Pokiston juda katta ta’sirga ega, lekin uni to‘liq nazorat qiladi, degan qarashlarida noaniqlikni ko‘rishimiz mumkin. Sababi, “Tolibon”ning ichida ham bo‘linishlar bor, harakat vertikal iyerarxiya emas, balki gorizontal iyerarxiya. Bu shuni anglatadiki, ma’lum bir rahbariyat bor, lekin ular markazlashtirilgan boshqarish qobiliyatiga ega emas [9].



3-rasm. Xitoy va Pokistonning Afg’onistonga eksportning tahliliy ko‘rsatkichi [11]

Bundan tashqari, Pokiston rahbariyati O‘zbekistonning Afg‘onistonga tegishli tinchlik tashabbuslarini yuqori baholaydi va ayniqsa, Trans-afg‘on temir yo‘li loyihasini qizg‘in qo‘llab-quvvatlamoqda. Ya’ni ekspertlar fikriga ko‘ra, ushbu loyihaning Pokiston iqtisodiy salohiyatining bir necha barobar o‘sishiga olib kelishi istiqbolini fahmlab, rasmiy Islomobod unga o‘ta jiddiy yondashmoqda. Shu tufayli, Qobulda kim hukmronlik qilishidan qat’iy nazar, Pokiston bu qo‘shni davlatdagi siyosatida ana shu loyihani ilgari surishi aniq bo‘lmoqda. Bu esa Islomobodni O‘zbekiston bilan doimiy do‘stona aloqada bo‘lib, o‘zbek tarafi bilan muntazam siyosiy va iqtisodiy maslahatlar o‘tkazib turishga undaydi.Xullas, hozirgi kunda ekspertlar dunyodagi deyarli barcha manfaatdor yirik kuch markazlarining Afg‘onistonda tezroq tinchlik va barqarorlik yuzaga kelishidan manfaatdor ekaniga ishora qilishmoqda[10].

2021-yilda Xitoy va Afg’oniston o‘rtasidagi umumiy savdo aylanmasi 474 million AQSh dollarga, Pokiston va Afg‘oniston bilan esa 833 million AQSh dollarga yetd. 2023-yilgi tendensiyalarga qaraydigan bo‘lsak Xitoy va Afg’oniston o‘rtasidagi umumiy savdo aylanmasi 816 million AQSh dollarga, Pokiston va Afg‘oniston bilan esa 1.513 million AQSh dollarga yetdi. Hozirgi kunda eng ko‘p savdo aylanmasini Pokiston bilan tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. «Tolibon» boshqaruvda, ayniqsa, davlatning byurokratik mashinasini yuritishda kerakli tajribaga va ko‘nikmalarga ega kadrlari mavjud emasligini o‘zi ham yaxshi biladi. Shu sababli ham davlat idoralarida ishlab kelgan xizmatchilarga o‘z ishlariga qaytib vazifalarini davom ettirish bo‘yicha chaqiriq qilingan. Ushbu omillarning barchasini inobatga olib, ko‘pchilik ekspertlar e’tirof etayotgan yechim desentralizatsiya ham ichki, ham tashqi kuchlarni qoniqtirishi va davlatni samarali boshqarishga yordam berishi mumkin. Biroq afsuski «Tolibon» bunday o‘ylamaydi. So‘nggi yillarda «Tolibon» bir necha marotaba mintaqa mamlakatlariga ekspansiya qilish rejasi yo‘qligini ta’kidlagan edi. Biroq, mintaqa chegaralaridagi harbiy to‘qnashuv (yuzaga kelgan taqdirda) har doim destabilizatsiya qiluvchi omil.Shuningdek, Toliblarning yagona tuzilma ekanligi haqidagi gaplar shubha uyg‘otadi. Tarix bir necha marotaba ushbu harakatning turli guruhlarida bir-biridan farq qiluvchi rejalar borligini ko‘rsatgan. Ularning rejalar o‘zgarmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Qurollangan radikal olomonga to‘laqonli ishonish juda sodda g‘oya.Afg‘onistonda qanday hukumat tuzilishidan qat’iy nazar aql bilan, uzoqni ko‘zlab qaror qabul qilsa siyosiy barqarorlikka erishadi. Xalqaro maydanda takliflar va mulohazalar juda ko‘p bo‘lishi mumkin, ularni qog‘ozlarda qolib ketmasdan amaliyotga joriy etish va ijrosini ta’minlash iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kafolatidir. Pokiston va Xitoy hukumati iqtisodiy ustunliklaridan o‘zinig siyosiy manfaatlari yo‘lida foydanalanishida Afg‘oniston xalqining milliy

manfaatlarini inobatga olinsa ko‘zlangan masadga erishishga ishonchim komil.

Afg‘onistonda siyosiy tuzum o‘zgarishi, boshqaruv turli guruhlar va shaxslar qo‘liga o‘zgarishi mumkin. O‘zbekiston uchun Afg‘onistonni qo‘shni davlat maqomini hech qachon o‘zgartirib bo‘lmaydi. O‘zbekiston har qanday vaziyatda ham kuchli diplomatik salohiyatini namoyon etib umumiy muloqot yo‘lini topish zarurati kun tartibidagi asosiy vazifa bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. “Конфликт в афганистане: история, современность и перспективы урегулирования» конфликт в афганистане: история, современность и перспективы урегулирования» Москва 2021 ст-36
2. Глобальные процессы и их влияние в центральную азию” (Сборник тезисов научно-практической конференции 5 мая 2022 года) Ташкент 2022 ст- 142
3. Неъматов К, Первый заместитель директора при Президенте Республики Узбекистан “Роль стран Центральной Азии в установлении прочного мира на афганской земле” 14.07.2021 ст-8
4. To‘ychiyeva R “Hindiston tashqi siyosati: Xitoy bilan munosabatlar dinamikasi” 2021 B-16
5. Umarov A.A «Faktor afganistana v regionalnoy bezopasnosti sentralnoy azii v nachale xxi veka» Tashkent -2016 st-36
6. ” Elizabeth Threlkeld and Grace Easterly “Afghanistan-Pakistan Ties and Future Stability in Afghanistan United State institute of peace press 2021p-31
7. Ground truth solution, OECD, UKaid “Afganistan: field perspectives on the grand bargain” 01.03.2012 P-48
8. Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat va kutilmalar. «Tolibon»ning qo‘shnilarga ta’siri haqida ekspert bilan suhbat. Kun.uz 24.08/2021 B-6
9. Shershax A.M.X «Afganistan v sisteme mejdunarodnыx otnosheniy. 2021 st- 33
10. “Globalnыe protsessы i ix vliyanie v sentralnuyu Aziyu” (Sbornik tezisov nauchno-prakticheskoy konferensii 5 maya 2022 goda) Tashkent 2022 st-194
11. Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat va kutilmalar. «Tolibon»ning qo‘shnilarga ta’siri haqida ekspert bilan suhbat. Kun.uz 24.08/2021

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378

Abdushukur ABDURAKHMANOV,
Senior teacher Chirchik State Pedagogical University
E-mail:abdushukur1969@mail.ru

Professor of the National University of Uzbekistan, D.K. Tishabaev based on reviews

THE USE OF MATHEMATICAL PACKAGES IN TEACHING STUDENTS OF ECONOMICS

Anatation

The role of application packages in education is great, including in the study of mathematics. By facilitating the solution of complex problems, they remove the psychological barrier in the study of mathematics and make this process interesting and simpler. With proper application of them in the educational process, the packages provide an increase in the level of fundamentality of mathematical education. The article discusses the use of the Maple mathematical package in solving economic problems.

Keywords: mathematical packages, Maple, percentages.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПАКЕТОВ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Анатация

Велика роль пакетов прикладных программ в образовании, в том числе, при изучении математики. Облегчая решение сложных задач, они снимают психологический барьер в изучении математики и делают этот процесс интересным и более простым. При грамотном применении их в учебном процессе пакеты обеспечивают повышение уровня фундаментальности математического образования. В статье рассматривается применение математического пакета Maple в решении экономических задач.

Ключевые слова: математические пакеты , Maple , проценты.

IQTISODIY IXTISOSLIK TALABALARIGA DARS BERISHDA MATEMATIK PAKETLARDAN FOYDALANISH

Anatatsiya

Ta'limda matematikani o'rganishda amaliy dasturlar paketlarining o'rni katta. Murakkab masalalarni yechishda yordam berish orqali ular matematikani o'rganishdagi psixologik to'siqni olib tashlaydi va bu jarayonni qiziqarli va sodda qiladi.O'quv jarayonida to'g'ri qo'llash bilan matematik paketlar matematik ta'limning fundamentallik darajasini oshirishni ta'minlaydi. Maqolada iqtisodiy masalalarni yechishda Maple matematik paketidan foydalanish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: matematik paketlar, Maple, foizlar.

Introduction. From targeted training and education to the comprehensive preparation of the student for professional activities and self-realization. Mathematical programs make it possible to implement by standard means the most important principles from a didactic point of view "From simple to complex" and "Maximum visibility and convenience of work." These principles develop and form in students the skills of independent cognitive activity necessary for further education at a university. Let us consider in more detail on the example of an economic problem.

Literature review. Information culture includes knowledge of sciences that allow developing and adapting available information to a certain type of activity. A mandatory attribute of information culture is knowledge of modern information technologies, the ability to use them to perform both monotonous actions both in automatic mode and in non-standard situations. ([2], p. 3)

The study of information culture helps a person to truly realize his purpose in this world. Experts are of the opinion that in order to achieve a high level of information culture, it is not necessary to focus on memorizing information. ([3], p. 1)

It is more important to help create a new specialist for the information society who has certain skills: to find important information, to form criteria for data analysis, to use them correctly. Until now, there were no flagship Uzbek universities that create modern trends in the field of scientific methodology and education, leading other universities of higher education. ([4], p. 73)

At the stages of development of the higher education system, the demand for "third generation" universities (business ecosystems, promising technology markets and ensuring the competitiveness of our national economy at the international level) is growing. ([5], p. 28)

To this end, it is planned to gradually introduce the concept of "University 3", which provides for the interdependence of commercialization of the results of education, science, innovation and research in higher education universities.

Research Methodology. Let's say you opened a bank account and deposited a certain amount, called the principal amount or capital. If the contribution is made for a certain time - a period, then after this time the income from capital, called interest money or interest, is added to the principal amount. If the deposit is made for an indefinite period, then capital income is accrued all the time, but the methods of accrual depend on the agreement with the bank.

The ratio of interest to principal is called the rate of interest. This value is most often expressed as a percentage.

According to similar rules, not only bank deposits can grow, but also other values, for example, population. Therefore, we will consider the situation with finances in more detail. (for example, month, quarter, or year). Let P_0 be the principal amount of the bank deposit, R the rate of interest for one period

Interest that is calculated only on the principal amount and is paid at the end of the period is called simple interest. In this case, the contribution is always increased by the amount of P0R/100, i.e. at the end of the first period it will be

$P_1=P_0+P_0$ R/100 $=P_0$ (1+R/100)

after two periods

$P_2=P_1+P_0$ R/100 $=P_0$ (1+R/100)$+P_0$ R/100 = P_0 (1+2R/100).

After n time periods, the contribution will increase to the value

$P_n=P_0$ (1+nR/100)

The essence of compound interest calculations is that the interest accrued in the current period will be added to the principal amount in the next period, as a result, interest will be accrued both on the principal amount and on the money added in the previous period.

Let's assume that the bank put P_0 sum., And R is the rate of compound interest for one period (month, quarter, year). Then the contribution at the end of the first period will be

$P_1=P_0+P_0$ *R/100=P_0(1+R/100)

after two periods

P2 = P1+P1*R/100= P1(1+R/100)= P0(1+R/100) (1+R/100)= P0(1+R/100)^2 etc.

After n time periods, the contribution will increase to the value

$P_n=P_0$(1+R/100)^n

The resulting equation is called the compound interest formula.

From this relation we can find P_0 , n , R

Consider the problem

You have a choice: put 1,000,000 sum. on a deposit with a simple interest (at a rate of 12%) or compound (at a rate of 10%). Which investment is more profitable?

The growth of the contribution over, for example, the next six periods, we calculate according to the corresponding formulas (1) and (2):

```
> restart:
> СложныйПроцент:=(P0,r,n)->P0*(1+r/100)^n;
  ПростойПроцент:=(P0,r,n)->P0*(1+(r/100)*n);
```

$$СложныйПроцент := (P0, r, n) \rightarrow P0 \left(1 + \frac{1}{100} r\right)^n$$

$$ПростойПроцент := (P0, r, n) \rightarrow P0 \left(1 + \frac{1}{100} r n\right)$$

```
> seq(СложныйПроцент(1,10,i),i=1..6):
  evalf(%,8);
```

1.1000000, 1.2100000, 1.3310000, 1.4641000, 1.6105100, 1.7715610

```
> seq(ПростойПроцент(1,12,i),i=1..6):
  evalf(%,8);
```

1.1200000, 1.2400000, 1.3600000, 1.4800000, 1.6000000, 1.7200000

Analysis and results. We see that the first four periods bring a large profit from a contribution with a simple interest, and starting from the fifth - with a complex one.

For clarity, let's use Maple to plot graphs of functions that determine simple (12%) and compound (10%) interest:

```
> with(plots):
  gr1:=plot(СложныйПроцент(1,10,n),n=0..8,color=red):
  gr2:=plot(ПростойПроцент(1,12,n),n=0..8,color=blue):
> display([gr1,gr2],view=[0..8,1..2],axes=boxed,
    thickness=2,axis=[gridlines=[10,color=green,linestyle=3]]);
```



Conclusion. The corresponding conclusion can be drawn from the graph.

We see that the first four periods bring a large profit from a contribution with a simple interest, and starting from the fifth - with a complex one. The use of mathematical packages for students of economics should be a necessity in the educational process.

REFERENCES

1. Абдурахманов А.Г. «Использования информационных технологии в образовании».VI-международная конференция «Нелокальные краевые задачи и родственные проблемы математической биологии информатики и физики» 5-9 декабря 2021г материалы Нальчик стр 22-23
2. Melnikov O. I. M801. Mathematical modeling using the MAPLE system. - Minsk:, 2009. - 100 p. ISBN 985-435-850-X
3. Abdurahmanov AG. "The use of modern information technology in solving non-standard problems." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.12 (2020).
4. Круподерова Е.П., Кулиш А.М. Проектирование информационно-образовательной среды преподавателя вуза на основе профессионального стандарта//Педагогический вестник. 2018. № 2. С.47-49
5. Будовская Л.М., Тимонин В.И. Использование компьютерных технологий в преподавании математики. Инженерный журнал: наука и инновации, 2013, вып. 5. URL: http://engjournal.ru/catalog/pedagogika/hidden/736.html
6. Вержаковская М. А., Аронов, В. Ю., & Рогачева, Ю. И. (2022). Математические пакеты, области их применения и определение наиболее оптимальных для применения. In Проблемы и перспективы внедрения инновационных телекоммуникационных технологий (pp. 212-220).
7. Стародубцев В.А. Создание персональной образовательной среды преподавателя вуза. Томск: Изд-во Томского политехнического университета. 2012. 124 с
8. Абдурахманов А. Г. "Применение математических пакетов в образовании на примере математического пакета maple." Экономика и социум 3-2 (2021): 761-768.

9. Котюргина А. С., Никитин Ю. Б., Федорова Е. И. Использование программы Maple в курсе высшей математики // Научно-методический электронный журнал ««Концепт». - 2018. - № V12. - 0,2 п. л. - URL: http://e-koncept.ru/2018/186119.htm.
10. Semarkhanova E.K., Bakhtiyarova L.N., Krupoderova E.P., Krupoderova K.R., Ponachugin A.V. Information technologies as a factor in the formation of the educational environment of a university // Advances in Intelligent Systems and Computing. 2018. Vol. 622. Pp. 179-186
11. Usmonov B.Z., G.Sh.Togayeva, M.A.Davlatova "O‘zgarmas koeffitsientli ikkinchi tartibli bir jinsli differentsial tenglamalarini o‘qitishda matematik paketlarni o‘rni"./Academic research in educational sciences volume 2 | Issue 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
12. Abdurahmanov AG, “Application of mathematical packages in mathematical modeling” O‘zMU xabarlari Вестник НУУз ACTA NUUz FALSAFA 1/5/1 2022

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDC:37 .012

Sherjaxon ABDUFATAYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: Sherjahonjon07@gmail.com

GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida

THE UPBRINGING OF A PERFECT GENERATION AS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Annotation
In the article, the mature generation should not be consumers, but creators and devotees of our modernized society, the main tasks of pedagogues and thoughts on conducting training on the process of personal development with students are described.
Key words: Happiness, positive virtue, ideal person, perfect person, sense of pride, intelligence, growth, reading, new way of thinking, comfortable living in new Uzbekistan.

ВОСПИТАНИЕ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Абстракт
В статье зрелое поколение должно быть не потребителями, а творцами и подвижниками нашего модернизированного общества, описаны основные задачи педагогов и мысли по проведению тренингов по процессу личностного развития со студентами.
Ключевые слова: Счастье, положительная добродетель, идеальный человек, совершенный человек, чувство гордости, интеллект, рост, чтение, новое мышление, комфортная жизнь в новом Узбекистане.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya
Maqolada barkamol avlod – yangilanayotgan jamiyatimizni iste’molchisi emas, balki yaratuvchisi va fidoyisi bo‘lishi kerakligi, bunda pedagoglarning asosiy vazifalari va o‘quvchilar bilan shaxsni barkamollashtiruv jarayonini mashg‘ulotlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi fikrlar bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: Baxt-saodat, ijobiy fazilat, ideal inson, barkamol inson, g‘urur hissi, aql –zakovat, yuksalish, kitobxonlik, yangicha tafakkur, yangi O‘zbekistonda farovon yashash.

Kirish. Bugungi yoshlar nafaqat moddiy, avvalo, ma’naviy jihatdan erkin bo‘lishi, do‘stni dushmandan ajratishi, milliy g‘oya bilan birga umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashishi, shakllantirishi uchun ularning aql - zakovatini, tafakkurini, ma’naviyatini muntazam shakllantirib borish lozim. Ma’naviyat, odob-axloq, ibratli qadriyatlar, oliyjanob fazilatlar esa avvalo, oilada shakllanadi. Oila, farzand tarbiyasi, oilada ota-onaning o‘rni xususida gap ketganda, o‘zbek xalqining chinakam insoniy fazilatlarini o‘zida ifoda etgan durdona asar «O‘tkan kunlar» romani bosh qahramoni Yusufbek hojining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo‘lib ketgan emas" - degan gapida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassamligini teran anglaymiz. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o‘zlarining oxiratlarini obod etuvchi (yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallimga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb -xunarli qilish, oilali, uyli - joyli qilish kabi) qarzlari bor.

Ular o‘z burchlarini ado etish bilan farzandlariga namuna ko‘rsatadilar, shuningdek, barkamol avlodni tarbiyalash orqali jamiyatda munosib o‘rin topish mumkinligini namoyon etadilar. Ushbu holat bir qarashda oddiy ko‘rinadi, lekin hayotda o‘chmas iz qoldirgan buyuk insonlar oddiy oilada kamtar insonlar qo‘lida kamol topishini inobatga olsak, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Barkamol avlod orzusi», «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» va «Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir» kabi asarlarida oilaning jamiyatdagi o‘rni beqiyos ekaniga bejiz to‘xtalmaganliklariga ishonch hosil qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz rejalarimizning samarasi, taqdiri barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligi barchamizga kundek ravshan. Zero, inson qalbiga yo‘l, avvalo, ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim-tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash yurtning istiqbolini belgilab berishi jahon tajribasida o‘z isbotini topgan.

Azaldan ota-bobolarimiz, komil ustozlarimiz ushbu usuldan ehtiyotkorona va mohirona foydalanganlar. Ular, shogird kamoli yo‘lida ko‘p yillik tajribadan kelib chiqib, tarbiyaviy vosita - bilimlar orqali tafakkur bulog‘i bilan to‘yintirilgan sharqona hayot maktabini yaratishgan.

Bu amaliy tajriba maskani dunyoga Muso Al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Hakim at-Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Aziziddin Nafasiy, Abu Mansur Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiydek allomalar-u ma’rifat ahlini, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mard va jasur sohibquron-u sarkardalarni, noyob aql sohiblarini yetkazib berdi.

Barkamol inson – yangilanayotgan jamiyatimizni faqat iste’molchisigina emas, balki yaratuvchisi va fidoyisi ham bo‘lishi kerak. Shuning uchun mustaqil davlatimizda ta’lim

tarbiyani tubdan o‘zgartirishga davlat siyosatininig ustuvor yo‘nalishi deb qaralmoqda.

“Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatimizni safarbar etsak, yuritmizda yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi”, deydi Prezidentimiz SH.Mirziyoyev.

Biz, pedagoglarning asosiy vazifamiz yosh avlodni ezgu ishlarni amalga oshirishga o‘rgatish, odatlantirish, ularni yomonlikdan va nomaqbul ishlardan qaytarish ekan, bu yo‘lda milliy ta’lim - tarbiya an’analari, buyuk allomalarning asarlari, xalq hikmatlari, bobolarimiz, momolarimiz o‘gitlaridan foydalansak, shubhasiz mehnatimiz unumli va samarali bo‘ladi. Zero, Qur’oni Karimda “Odam bolasini hamma narsada mukarram etdim” deyiladi. Hadisda “ Kimgaki aql – idrok berilsa, u najot topadi deyiladi.

Komil inson g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan g‘oyadir. Bu g‘oya nafaqat alohida shaxslar, balki butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilgan, avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarmiz bo‘lib, bu yo‘nalish axloq ilmini egallashga undaydi.

Har bir inson bir olam bo‘lgani kabi uning axloq – odobi ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning zoxiriy va botiniy olamini, ayniqsa qalb olamini o‘rganish, bu ruhiyat bilan bog‘liq holatdir.

F.Attor “Ruh odamning ichidadir, shuning uchun sen o‘z ichinga safar qilmog‘ing kerak” deganidek komil inson o‘z “men” ini ichki dunyosidan axtarishi kerak. “Oddiy inson ham komillik darajasiga yetishishi mumkin. Uning manbai ilmdir”, deydi Imom G‘azzoliy.

O‘zligini tushunishdagi chuqur ongli yondashuv o‘z – o‘zini tarbiyalashni kuchaytiradi. O‘z - o‘zini tarbiyalash inson shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir. O‘z – o‘zini ongli ravishda boshqara olish qalb, vujudning sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi. “Insoniy vujuddan maqsad – eng oliy baxt – saodatga erishuvdir; avvalo u baxt – saodat nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar. Ushbu bitiklarga asosan “Go‘zal xislatlar inson kamoloti asosi” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma Guliston shahar 16 – umumta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilaridan olindi. So‘rovnoma savollari quyidagicha:

Baxt - saodatga erishish deganda nimani tushunasiz?

Qanday ijobiy fazilatingiz va salbiy xislatlaringiz bor?

Atrofdagilar sizga qanday baho beradilar?

Salbiy sifatlaringizni yo‘qotish uchun nima qilgan bo‘lardingiz?

Barkamol inson bo‘la olasizmi?

So‘rovnomalar tahlil qilinganda, o‘quvchilar baxt – saodatga erishish borasida o‘z fikrlarini bayon qilganlar va ijobiy fazilatlari haqida ma’lumot berganlar.

Atrofdagilar ularga yaxshi baho berishlarni aytishgan. Ikki nafari jahli tezligi va shu tufayli atrofdagilarni xafa qilib qo‘yishini bildirgan. Uch nafari tevarak atrofdagi odamlarning ularga qanday baho berishlarini bilmasliklarini bayon qilgan.

O‘quvchilar salbiy sifatlarini yo‘qotishi kerakligi va bu borada qanday choralar ko‘rishini bilmasliklarini yozishgan.

Ularning ko‘pchiligi ideal inson sifatida ota - onalarini ko‘rsatganlar. O‘quvchilar savollarga samimiy javob berdimi? O‘quvchilarning javoblari qay darajada haqiqatga yaqin? Hazrati A.Navoiyning “Noqis uldirkim isbot aylagay” degan misralarining mazmun mohiyati tushuntiriladi.

Treningdan maqsad: Noxush holatlarda maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, psixologik zo‘riqishlardan oqilona chiqish, unutish va kechirish, samarali muloqot o‘rnata bilishga samimiylik, do‘stona munosabat, hamkorlikka o‘rgatiladi.

Vazifa.

Shaxsini korreksiya qilish:

Ijodiy motivatsiyalarni shakllantirish:

Kutilayotgan natija:

O‘quvchilardagi kamchiliklar, salbiy hislatlarni bartaraf etish:

O‘quvchi shaxsini barkamollashtirish:

Trening o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ushbu treningdan psixologlar, sinf rahbarlari o‘quvchilarning psixokorreksion tadbirlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Uslublar:

Trening emblemasi.

Treaning shiori.

Xalq hikmatlari.

“Burgut tarixi” videorolik namoyishi.

“Mening idealimdagi inson” essesi.

Treningning borishi.

Kirish qismi.

Trening qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish.

Treningda o‘tkaziladigan metodika va mashqlar bilan tanishtrish;

Qoidalari:

Faollik;

Ko‘ngilli ishtrokchi;

Vaqtga rioya qilish;

Boshqalar fikrini hurmat qilish;

Trening emblemasi belgilanadi. “Quvnoq nota”.

Trening shiori: “Baxt – istiqbolni izlasangiz topa olmaysiz, zimmangizdagi insoniy vazifalarni ado eting baxt – iqbol o‘zi sizni izlab keladi”.

Xalq hikmatlari (sharhlanadi).

O‘tgan ish uchun hasrat va nadomat chekish aqlli odamning ishi emas.

Yuzning nuroniy bo‘lishi kishi tabiatidagi to‘g‘rilikdan bo‘ladi.

Mol-dunyosi ko‘p odam emas, nafsi to‘q odam badavlatdir.

Mehnat odamni uch balodan asraydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilish, muhtojlikdan.

Birovni yomon ko‘rishdan yaxshi ko‘rish oson, badbaxt bo‘lishdan ko‘ra baxtli bo‘lish oson.

Kimki ota – onasiga yaxshilik qilsa, Alloh uning umrini ziyoda qiladi.

Musibatlarning eng kattasi vaqtni behuda ketkazmoqlikdir.

Kuchli odamlar hamisha oddiy bo‘ladilar.

Kimning intilishi baland bo‘lsa, uning tashvishi ham ko‘p bo‘ladi.

Ma’nosiz poyma-poy so‘zlashdan ko‘ra, sukut saqlay olish ham nodir fazilatdir.

Yiqilish ayb emas, yiqilganda turolmaslik ayb.

Qulflar uchun kalit bo‘lganidek, muammolar uchun ham albatta yechimlar bo‘ladi.

4. “Berkut” tarixi videorolik namoyishi mavzusida esse yozish. Uyga vazifa.

Ishtirokchilar: 9-sinf o‘quvchilari.

Trening davomiyligi: 40 daqiqa.

Yakuniy qism: trening yakunlanadi va umumiy xulosalar aytiladi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar o‘z oldiga maqsad qo‘yish, orzu sari intilish, mas’uliyatli bo‘lish, xato va kamchiliklarni ko‘ra olish, salbiy sifatlarni tarbiyalashga

o‘rganadilar. Salbiy sifatlarni tan olgan va undan xalos bo‘lishga intilgan o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi. Treningda o‘quvchilarga go‘zal xislatlarga ega bo‘lish, o‘zining yurish-turishini boshqara olish, foydali tashabbus ko‘rsatish, qat’iyatli bo‘lish, ko‘zlagan maqsadiga erishishiga yordam beriladi. Bu yo‘nalish o‘quvchining o‘zini tushunishdagi chuqur ongli yondashuviga sabab bo‘ladi.

Bunday ijtimoiy illatdan qutulishning tabiiy omili insonning asl mohiyatini ochishdir. Ma’naviy – axloqiy omil inson hayotining mazmunini anglab olishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida ayrim psixologik, ruhiy kasalliklar oldini oladi, insonlar hayotiga sog‘lom, jo‘shqin hayotiy mazmun baxsh etadi.

Insonlardagi noyob insoniy fazilatlarni asrab – avaylash va yanada takomillashtirish dolzarb masala. Farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il - qizlari, etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etishi lozim.

Sog‘lom avlodni shakllantirish davlatning ustuvor siyosatiga aylangan muhim jarayondir. Endilikda mustaqil respublikamiz sharoitida tarbiyaviy vositalar ta’lim muzmuniga tatbiq etilmoqda.

Aslida ta’lim mazmuniga ega bo‘lgan fan asoslarini o‘qitishga qaraganda tarbiyaviy yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish qiyin. Shuning uchun bu borada o‘ziga xos usul, vositalar ham to‘liq shakllangan emas.

Jamiyat ma’naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutmoqda ekan.

Fuqarolik jamiyatida inson qadr-qimmati, aql-zakovati, axloqiy sifatlari yuksak qadrlanadi.

Farzandlarimizning yaxshi, odobli, mehnatsevar, sog‘lom va har tomonlama salohiyatli bo‘lib o‘sishi ko‘p jihatdan ularning ota-onalariga bog‘liq bo‘ladi. “Hech bir ota-ona o‘z farzandiga go‘zal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi” (Termiziy rivoyati).

Ota-onalar bolaning tabiati, xulq-atvori shu oiladagi muhitga qarab shakllanishini esdan chiqarmasliklari zarur. Ularning vazifasi xuddi tajribali tabibning bemorga nisbatan munosabatiga o‘xshash bo‘lishi kerak. Ma’lumki, solih farzandlar ota-ona nazoratida oilada tarbiyalanib, voyaga yetishadi. Bolalar tarbiyasiga ular yosh vaqtlarida beparvo bo‘lish, yomon kishilarga aralashib yurishlariga yo‘l qo‘yish zararli oqibatlarga olib keladi. Sodda qilib aytsak, bola qalbi har turli yozuv yozish mumkin bo‘lgan bir oq qog‘ozga o‘xshaydi. Unga mumkin qadar yaxshi yozuvlar yozish kerak. Ular tarbiyasiga astoydil kirishish, yaxshi kishilar bo‘lib yetishishlari uchun butun imkoniyatlarni ishga solish zarur. Shubhasiz, ota-ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni chiroyli odob-axloq, yaxshi ta’lim-tarbiya asoslarida voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala ekani har birimizga yaxshi ma’lumdir.

Xususan, yurtimizda sog‘lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida juda ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilayapti. Barcha ezgu niyatlarimiz zamirida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom o‘stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko‘rish orzusi yotibdi.

Aziz farzandlarimiz dunyoviy bilimlar bilan barcha yuksak ma’naviyatimiz, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asoslarini ham puxta egallashlari kerak. Xalqimizda bir maqol bor: “Olim bo‘lish oson, lekin odam bo‘lish qiyin”. Demak, ilmu fan yutuqlarini qo‘lga kiritib borishlik bilan birga farzandlarimizni insonparvar, mehr-u oqibatli va axloqiy barkamol etib tarbiyalashga intilib borishimiz lozim ishlardandir.

Komil farzand tarbiyasi o‘zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

E’tiqodiy tarbiya – imonli bo‘lishlikni, halol va xaromni ajrata bilishni o‘rgatish.

Axloqiy tarbiya – chiroyli odob, kamtarlik, rostgo‘ylik, mehr-shavqatlilik, omonatdorlik kabi go‘zal axloq va fazilatlarni shakllantirish.

Jismoniy tarbiya – to‘g‘ri ovqatlanish, sport bilan shug‘ullanishni o‘rgatish, spirtli ichimlik iste’mol qilish, sigareta chekish kabi zararli odatlardan qaytarish.

Aqliy tarbiya – zamonaviy ilmlar va jamiyatga foydali kasb-hunarlarni o‘rgatish.

Mana shunday yoshlar mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi, ishonchi va davomchisi bo‘la oladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi ta’lim tizimi va tarbiya tizimini maqsadga muvofiq tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish zarur.

Tarbiya tizimini nazariy asosi sharqona va milliy qadriyatlardan tashkil topkan bo‘lishi kerak. Zero tarbiya sohasi islohati bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Bizning boy ma’naviy merosimiz bugun qo‘lga kiritadigan yutuqlarimiz, ertaga erishajak g‘alabalarimizning hayotbaxsh asosi bo‘lishi kerak. Jamiyatimizda yangicha tafakkur yuritmoq uchun albatta o‘tmishni bilish darkor. Shunday qilgandagina, mutafakkirlarimiz orzu qilgan komil insonni shakllantirish va qolaversa hozirgi davr talabi darajasidagi yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim va zarur qadam qo‘ygan bo‘lamiz.

Bu borada quyidagi tarbiyaviy tamoyillar tavsiya etiladi:

Ta’lim tarbiya jarayonida o‘quvchilarni buyuk mutafakkirlarimizning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish;

O‘quvchining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni rejalashtirishda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish;

Ta’lim oluvchilarning yuksak hulq-odob fazilatlarini tarbiyalashda psixologik korreksion teninglar o‘tkazish;

Yosh avlodni ma’naviyatini yuksaltirishda kitobxonlikni targ‘ib qilish;

O‘quvchilarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda tarbiyaviy soatlarni mazmunli o‘tkazish.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.A. “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muxim vazifalar” mavzusidagi videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. “Halq so‘zi” gazetasi, 2019 yil 20 mart.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod buyuk kelajakning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marrosimdagi nutq. “ Ma’rifat” gazetasi. 2018 yil 8 dekabr.
3. Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri. – T .: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 yil. – 189 bet.
4. Alimxodjayeva S.N., Haydarov F.I. Psixologik treninglar ishlanmasi. Metodik qo‘llanma. 2-qism.- T ., 2009. – 10 –bet.
5. Bahodir Karim “O‘tkan kunlar ibrati” Xalq so‘zi gazetasi 12.25.2019

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:8.81-22

Jaxongir AVEZMETOV,
Uzbekistan state world languages university English language department of applied disciplines 1
E-mail: mrjahongir87@gmail.com

Under the review of B.G.Kulmatov PhD pedagogy of UzSWLU

THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN SUCCESSFUL MASTERING OF THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

The article discusses the role of the use of computer technology in the successful mastery of the English language. To achieve this goal, the following tasks were solved in the article: how to identify the psychological and pedagogical characteristics of children at the middle stage of education; show the role of the computer in the modern communicative technology of teaching foreign languages; reveal the variety of forms of using a computer, and in particular Internet resources in foreign language lessons.

Key words: Computer technology, psychological and pedagogical features, language teaching, Internet resource, foreign language lesson.

РОЛЬ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСПЕШНОМ ОВЛАДЕНИИ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ

Аннотация

В статье рассматривается роль применения компьютерных технологий в успешном овладении английским языком. Для реализации этой цели в статье решено следующие задачи как выявить психолого-педагогические особенности детей на среднем этапе обучения; показать роль компьютера в современной коммуникативной технологии преподавания иностранных языков; раскрыть многообразие форм применения компьютера, и в частности Интернет-ресурсов на уроках иностранного языка.

Ключевые слова: Компьютерные технологии, психолого-педагогические особенности, преподавания языков, интернет ресурс, урок иностранного языка.

INGLIZ TILINI MUVAFFAQIYATLI O‘ZLASHTIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada ingliz tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning roli muhokama qilinadi. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi vazifalar hal qilindi: ta’limning o‘rta bosqichida bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini qanday aniqlash; xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy kommunikativ texnologiyalarida kompyuterning rolini ko‘rsatish; chet tili darslarida kompyuterdan, xususan internet resurslaridan foydalanish shakllarining xilma-xilligini ochib berish.

Kalit so‘zlar: Kompyuter texnologiyasi, psixologik-pedagogik xususiyatlar, til o‘rgatish, internet resurs, chet tili darsi.

Introduction. Recently, a dangerous tendency has been revealed to reduce the interest of students in foreign language classes. The use of traditional forms of education has led to the fact that children have become bored with learning, they do not have the opportunity in the learning process to realize their needs for self-expression, self-knowledge and self-affirmation. The lesson is aimed mainly at passive assimilation of the material offered by the teacher, memorization of the rules, without taking into account the abilities, inclinations, interests of students.

The formation of an active personality is impossible without activity in mastering knowledge. Much here depends on the skill of the teacher. Freed from the template, you can create interesting examples of non-standard forms of learning, which will return the lost interest in learning a foreign language. The teacher needs to move away from the standard lesson to some extent, to introduce something new that could attract attention, intensify the activity of students, make them think, search, act. In recent years, the question of the use of new information technologies in high school has been increasingly raised. These are not only modern technical means, but also new forms and methods of teaching, a new approach to the learning process.

The relevance of the application of new information technologies is dictated, first of all, by the pedagogical needs to improve the effectiveness of developing learning, in particular, the need to form skills for independent learning activities, a research, creative approach to learning, the formation of critical thinking, a new culture. The use of new technologies in teaching English is due not only to the desire for novelty, this training also allows you to implement a student-centered approach.

Literature review. To date, in the teaching of English, trends are emerging that correspond to the current level of technological progress. The effectiveness of the use of computer technology in English lessons is no longer in doubt.

Apatova N.V., Olkhovskaya L.I., Rudakova D.T., Silaeva A.G., D.Sh. Matros were engaged in the study of this topic.

Among the students in his class, each teacher can mark those who have a conscious motivation to learn English, show diligence in learning it, but have a satisfactory mark on the results of studying the subject. The practical application of computer technology can help improve the quality of education of such students.

However, the computerization of learning does not mean a simple introduction of a new tool into an already established process; it is necessary to design a new educational process based on modern psychological and pedagogical theory.

In the aspect of technologization of the learning process, the problem of taking into account the laws of

cognitive processes in this process is of particular relevance. Therefore, before building the educational process in a new way, it is necessary to diagnose the cognitive processes of students, highlighting in them those patterns that are of particular interest to the teacher in the application of computer learning technologies. In the organization of perception, it should be borne in mind that, according to their modality, students are conditionally divided into visuals, auditory and kinesthetics. Visual - a person who perceives most of the information with the help of vision. An auditory person is one who receives basic information through hearing. Kinesthetic - one who perceives information through other sensations (smell, touch, etc.) and with the help of movements. There is also a fourth type - discrete. This is a person whose perception of information occurs through logical comprehension, with the help of numbers, signs, logical arguments. This category of people is the least common, and children, including schoolchildren, are usually not typical at all. The B.A. Lewis and F. Pukelik.

Why is it important to know how a student perceives information?

In the lesson, the teacher can present information to children using all channels of perception: vision, hearing, and the kinesthetic channel. Then each of them has a chance to assimilate at least part of these messages. This is usually what happens. This chance increases significantly if, for example, both the teacher and the student are visual (or auditory). Unfortunately, there are few kinesthetics among teachers, and there are practically none in middle and high school (except for physical education and labor teachers). The mastering of many important skills depends on which channel the child has. For example, reading or writing. Features of mental work differ significantly (for example, the level of distractibility, features of memorization, etc.).

Using computer technology, the teacher will take into account these characteristics of children and provide information in the form in which they will better absorb it.

Determine the style of learning and thinking of students, i.e. to identify their dominant hemisphere, the Paul Torrance test to determine the functional asymmetry of the hemispheres will also help. It is also necessary to study the typology of students according to the psychophysiological characteristics of M.K. Akimova and T.V. Kozlova, which is based on the dynamic components of the student's behavior, due to the properties of the nervous system, such as strength (the degree of endurance, performance of the nervous system, its resistance to various kinds of interference); mobility (speed of switching and speed of getting used to changing conditions) and lability (speed, pace of performing various activities). In accordance with this criterion, two main types of students are defined: with a “strong” and “weak” nervous system. It is noted that these characteristics of students are innate.

The diagnostic data show that those students who wish but cannot have a good mark in English belong to the type of students with a “weak” nervous system, left hemisphere, have a visual modality. For them, conditions are optimal that require monotonous, monotonous work. They experience certain difficulties in situations where long hard work is required (a difficult lesson, a test, writing an essay in two lessons, a long school day, etc.). They quickly get tired, lose their efficiency, start to make mistakes, by the end of 6-7 lessons their productivity drops significantly, they slowly learn the material, and begin to feel tired. They like consistent, planned work. It is easier to act according to a template, according to a scheme, while completing the task in detail, systematically. They successfully perform those types of tasks that require preliminary preparation. They tend to plan upcoming activities in order to evenly distribute their forces between its individual stages; tend to carefully monitor the implementation of training tasks and check the results. When answering or mastering the material, it is necessary to use external supports for them; graphs, drawings, diagrams, tables facilitate their learning activities.

Serious difficulties for them are created by work in a situation that requires the distribution of attention or its switching from one type of activity to another (for example, when, while explaining a new topic, the teacher simultaneously conducts a survey on the material covered, attracts a variety of didactic material - maps, slides, a textbook, forces make notes in a notebook, mark on the map, follow the textbook, etc.). It is difficult for such students to perform tasks effectively and productively in a noisy, turbulent environment. The number of errors increases sharply, and fatigue quickly sets in. They are also limited in the amount of perceived information, so it is difficult for them to learn a large volume and diverse material in the lesson. Sensitive to emotional stress, in connection with which, responsible work that requires emotional, neuropsychic stress, especially if limited time is allotted for it, causes great difficulties and discomfort. Students begin to rush, but this does not lead to acceleration of their actions, but, on the contrary, to inhibition, mistakes. In training work, they are less likely to make mistakes. These students become flustered and flustered when the teacher asks an unexpected question and requires a verbal answer, so they need time to think. The best option for them is a written response, not an oral one. In addition, they are very sensitive to their failures, they are characterized by increased emotional sensitivity to the teacher's comments and negative assessments, lack of confidence in their abilities, their knowledge.

Research Methodology

The use of a computer in teaching a foreign language significantly affects the effectiveness of the educational process.

The computer is a multifunctional technical training tool. It allows you to store a significant amount of language material in memory, find information of interest and present it on the screen in a user-friendly form.

There are two main areas of application of computers in teaching activities: computer support for traditional learning and computer-assisted learning.

A personal computer can be used by a teacher to solve personal didactic tasks during the lesson:

• presentation of information in various forms;

• formation of students' general and special knowledge and skills in the subject;

• control, evaluation and correction of learning outcomes;

• organization of individual and group training;

• management of the learning process.

The computer can be used at all stages of the learning process: when explaining new material, consolidating, repeating, controlling.

The computerization of education has a significant impact on all components of the modern educational system and, in particular, on the subject of "Foreign language": its goals, objectives, content, methods, technology.

Learning a foreign language using a computer has a number of advantages:

students' interest in the computer leads to a high motivation of the learning process;

students willingly conduct a dialogue with a computer, their general, computer and language culture increases;

individualization of education;

the ability to provide direct feedback;

the computer does not show negative emotions when repeating errors:

objectivity of the mark;

ensures effective exercise and training.

At the same time, the activity of the teacher becomes dependent on the capabilities and flawless functioning of the computer. You should also pay attention to the fact that when using it, you cannot lose the collective and competitive nature of learning, that is, students should be able to compare their progress with the achievements of their classmates.

Characteristic shortcomings of learning with the help of a computer: abuse of computer effects, redundancy of colors; ready-made educational computer programs on the subject are very difficult to adapt to a traditional lesson, since they do not always correspond to the school curriculum, methodological goals and didactic principles in teaching.

The specificity of the subject "Foreign language" lies in the fact that the leading component of the content of teaching a foreign language is not the basics of science, but methods of activity - teaching various types of speech activity: speaking, listening, reading, writing. You can teach speech activity only in live communication, and for this, you need a partner. A computer program, a CD, no matter how interactive they are, can only provide communication with the machine. The only exception is telecommunications, when the student enters into a live dialogue (written or oral) with a real partner - the carrier language.

It follows from this that in computer technologies the teacher is not the only carrier and owner of information, he is left with the author's approach to its interpretation. The focus of goals is shifting towards the formation of schoolchildren's skills to work with information, the formation of research skills. With traditional teaching, the communicative aspect of teaching a foreign language is implemented more effectively, so it is necessary to combine teaching a foreign language using a computer and traditional teaching.

Computer programs should be used as an important but complementary component of the curriculum, on par with traditional materials and methods. When working with a computer, one inevitably has to change the entire structure of the lesson and, in general, its competence. It is necessary to specifically determine the appropriate role and place of the computer in the educational process, to clarify and determine the basic concepts, to introduce methodological and technical aspects.

When building an educational process using computer training programs, you should select a specific section from the curriculum; design a set of tasks; choose software for the selection of tasks; conduct an examination of selected computer tasks; develop methodological recommendations for the student.

By the beginning of lessons with the use of computer-based training programs, students should know:

• safety regulations;

• the concepts of "information", "computer", "program", "menu", "desktop", "icon", "graphic editor";

• that the input devices are keyboard and mouse;

• basic text editor tools;

• basic tools of the graphic editor.

Students should be able to:

• use alphabetic and numeric keyboard blocks;

• use the "mouse" manipulator;

• work with commands, open and close the file menu;

• create and edit simple graphics and text images using the tool menu.

• When working on a computer, students follow these guidelines:

• occupy only the workplace assigned by the teacher to the student;

• comply with safety regulations when working on a computer;

• turn on and off the computer and devices connected to it only with the permission of the teacher;

• connection to the work of CDs for educational purposes and setting up programs is carried out only by the teacher.

• the total time of work should not exceed 20 minutes, that is, less than half of the lesson. It is possible to use computer fragments for 5–7 minutes;

• at the end of work, perform exercises to relieve tension from the eyes.

Computer based training programs have many advantages over traditional teaching methods. Their potential lies in the fact that they allow you to train various types of speech activity and combine them in different combinations; help to understand linguistic phenomena; to form linguistic abilities; create communicative situations; automate language and speech skills; and also provide the ability to take into account the leading representative system; implementation of an individual approach and intensification of the student's independent work; contribute to the increase of cognitive activity, motivation and quality of knowledge of trainees.

Analysis and results. The use of computer technology in foreign language classes can be presented in various forms. Disks that exist today allow displaying information on a computer screen in the form of text, sound, video, and games. Learning with the help of a computer makes it possible to organize the independent work of each student. Integrating a regular lesson with a computer allows the teacher to transfer part of his work to the computer, while making the learning process more interesting and intense. At the same time, the computer does not replace the teacher, but only complements it. The selection of training programs depends, first, on the current educational material, the level of training of the trainees and their abilities.

Working with a computer not only contributes to an increase in interest in learning, but also makes it possible to regulate the presentation of educational tasks according to the degree of difficulty, encouraging correct decisions. In addition, the computer allows you to eliminate one of the most important causes of a negative attitude to learning - failure due to a lack of understanding of the material or a problem in knowledge. The authors of many computer-training programs provide this aspect. The student is given the opportunity to use various reference manuals and dictionaries that can be called up on the screen with a single click on the mouse. Working on a computer, the student gets the opportunity to complete the solution of the problem, relying on the necessary help.1

Significant progress in the development of personal computers and computer technologies leads to changes in the process of teaching foreign languages. The active and appropriate use of a computer in an English lesson seems possible and appropriate based on the specifics of the subject itself. The leading component of the content of teaching a foreign language is teaching various types of speech activity - speaking, listening, reading, writing. When teaching listening comprehension, each student gets the opportunity to hear foreign language speech. When teaching speaking, each student can say phrases in English into a microphone. When studying grammatical phenomena, each student can perform grammatical exercises, has the opportunity to solve crosswords, chainwords, search for words, and perform game exercises.

In the practice of using a computer in the educational process, its teaching function is especially emphasized, and the computer is a tool that organizes and manages the independent work of students, especially in the process of training work with language and speech material.

The scope of the computer in teaching foreign languages is unusually wide. The computer can be effectively

used to be acquainted with new language material, new patterns of statements, as well as with the activities of communication in a foreign language. At the training stage and at the stage of applying the formed knowledge, skills, abilities, the computer can be used in a wide variety of communicative tasks and situations, taking into account the personal characteristics of the trainees.

He can create optimal conditions for the successful mastering of the program material: at the same time, a flexible, sufficient and feasible load of exercises for all students in the class is provided. In addition, it is difficult to overestimate the role of the computer as a means of exercising control over the activities of students by the teacher, as well as a means of forming and improving self-control. In difficult cases, the computer allows the student to obtain the necessary information of a reference nature in a short period, to present him with certain “keys” for successfully solving the task.

An important feature of a computer in the teaching and upbringing process in a foreign language is that it can be a student’s “interlocutor”, that is, it can work in a communicatively oriented interactive mode and in a certain way, for example, with graphic tools, a speech analyzer and synthesizer, make up for the lack natural interlocutor, modeling and imitating his non-verbal and verbal behavior.

The computer allows you to present on the display screen elements of a country-specific nature, features of the environment and environment, which can be used as a background for the formation of students' speech activity in a foreign language. The computer has great potential for constructing color images that can be transformed within the given limits.

The noted capabilities of the computer make it an excellent technical tool for various kinds of explanations and generalizations of the phenomena of language, speech, and speech activity.

Now in all schools there is an early teaching of foreign languages to students. Often in foreign language lessons, the process of involving students in oral speech on various topics is uninteresting. When working with the use of computers, this is impossible, since the visualization required in the lessons and the situations on the monitors are quite real - the “images” move, speak English, ask questions, etc. Some teachers may ask: won't the lesson turn from creative work into something entertaining? No, because in order to get a good grade when working with a computer, the student has to work creatively. He does everything with joy, and the teacher has to purchase the necessary electronic textbooks and make a selection of the necessary situations from them, as well as print out additional questions and texts and transfer them to all computers so that at a certain point in the lesson, students can sit down at certain computers, find and open the desired folder in “My Documents”, perform, for example, a listening or reading test. It's a lot of work, but it pays off. The joy of learning - that is what gives the use of computers in the classroom. In addition, this, in turn, along with the development of thinking leads to the development of initiative speech.

Each child has an internal motive aimed at cognitive activity. The task of the teacher is to contribute in every possible way to the development of this motive, not to let it fade away.

The program “Professor Higgins. English without an Accent” and also a number of other multimedia textbooks. Sounds, words, phrases and sentences are perceived by students by ear and visually. Students have the opportunity to observe articulation movements on the computer screen and perceive the correct intonation by ear. At the same time, due to the rather high imitative abilities of students, the correct samples are imprinted in their memory.

Working on phonetics with the help of a computer program forms skills such as inference, comparison, logic, develops phonemic hearing, a hearing-distinctive skill, and helps to evaluate oneself adequately. The computer allows the student to hear their mistakes, not just see them. This leads to an improvement in the quality of pronunciation of students. Programs used to teach vocabulary use visual presentation of words; provide the development of both productive and receptive lexical skills; contribute to the formation of independent work skills in students; help to create combined exercises for a particular student, based on a computer grade book, by which the teacher determines in which operation the student makes mistakes; help to organize the control of vocabulary at all stages of its study. Working with a computer program, students master the components of communicative competence, which include not only the ability to choose lexical and grammatical means adequate to communication situations, but also their appropriate intonational design. Computer training programs have huge databases, provide high manufacturability of individual training exercises, make it possible to most optimally combine methods of analysis and simulation based on consciousness, orient the student to a free pace of learning, individual logic of cognition.

The computerization of our society is calling for life and the emergence of more and more people who want and can use these smart machines in everyday life. Computers make life easier and more interesting. After all, if with the help of this machine within an hour or two you can attend training courses on the Internet in any subject of the school and extracurricular programs, see the world in its current state and diversity, communicate with a huge mass of different people and gain access to libraries, museums and exhibitions that one can only dream of, then there really is no better means for self-development and individual education and self-education.

Conclusion and recommendations. There are fears that technology could replace teachers. Some teachers are skeptical about this technique, wondering why this is necessary, because there are many new teaching aids, audio and video programs, and no one can teach better than the teacher himself can. Perhaps they are right. Nevertheless, no one says that a living teacher should be replaced with an electronic one. As an aid to teaching a foreign language, computer programs have their advantages. They allow for an individual approach to students, computers are engaged with each as much as necessary. Special attention to children who are lagging behind in their studies. Multimedia tools allow the teacher to adjust the curricula based on the interests and capabilities of individual students. Students can use multimedia elements in their homework by transferring them electronically on a floppy disk or over the Internet.

The tasks of education modernization cannot be solved without the optimal implementation of information technologies in all its spheres. The use of information technology gives impetus to the development of new forms and content of traditional activities of students, which leads to their implementation at a higher level. Working with a computer should be organized in such a way that from the very first lessons of the initial stage of education it becomes a powerful psychological and pedagogical means of forming a motivational plan for the activity of schoolchildren, a means of maintaining and further developing their interest in the subject being studied. Properly organized work of students with a computer can contribute, in particular, to the growth of their cognitive and communicative interest, which in turn will contribute to the activation and expansion of students' opportunities for independent work in mastering the English language, both in the classroom and outside of school hours.

The use of computer technology provides an opportunity to free the teacher from a significant part of routine work, such as checking the performance of individual exercises, frontal questioning, presenting a large amount of language material and other routine activities. The use of computer technology makes the lesson attractive and truly modern, individualization of training takes place, and control and summing up are carried out objectively and in a timely manner.

In modern conditions, ever-higher requirements are placed on the process of teaching foreign languages. The volumes of information are growing rapidly, and modern methods of their storage, transmission and processing are no longer effective. In addition, computer technologies present a wide range of opportunities for increasing the productivity of learning.

REFERENCES

1. Akimova M.K., Kozlova V.T. Psychophysiological features of the individuality of schoolchildren: Accounting and correction. - M., Publishing Center "Academy", 2002. - 160 p.
2. Apatova N.V. Information technologies in school education. - M.: RAO publishing house., 1994.- 228 p.
3. Voronina T.P., Kashitsina V.P., Molchanov O.P. Education in the era of new information technologies (methodological aspects) - M.: Publishing house "Informatik", 1995. - 224 p.
4. Gromov G.R. Essays on information technology. - M. Eksmo, 2003. - 157p.
5. Dmitrieva E.I. Didactic possibilities of computer telecommunication networks for teaching foreign languages // Foreign languages at school. - 1997. - N4. - P. 22-26.
6. Informatization of general secondary education: Scientific and methodological manual / Ed. D.Sh.Matrosa.- M.: Pedagogical Society, 2004.- 384 p.
7. Karamysheva T.V. Learning foreign languages using a computer / T.V. Karamyshev. - St. Petersburg: Soyuz Publishing House, 2001. - 192 p.
8. Pechersky A.V. The Internet teaches a new language // Computerra, 1999. - No. 27-28. - p.36.
9. Pocheptsov G.G. Communication technologies of the twentieth century - M., 2000. - 356 p.
10. Uvarov A.Yu. Computer communication in modern education // Informatics and education. - 1998. - N4. - P. 65-77.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:1(091)

Sitora AZAMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:azamovasitora04 @gmail.com

Falsafa fanlari doktori O‘.Tilovov taqrizi ostida

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada, ekologik globallashuv sharoitida ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Inson ekologik madaniyatini shakllantirishda obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning mazmun-mohiyati, yo‘nalishlari va asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik globallashuv, ekologik muammo, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik, ekologik ong, ekologik munosabat, obyektiv rivojlanish, subyektiv omillar.

ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье размышляет о возможностях развития экологической культуры в условиях экологической глобализации. Раскрывается содержание, направления и основные задачи объективных условий и субъективных факторов при формировании экологической культуры человека.

Ключевые слова: Экологическая глобализация, экологическая проблема, экологическая культура, экологическая ситуация, экологическая безопасность, экологическое сознание, экологическое отношение, объективное развитие, субъективные факторы.

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Annotation

The article reflects on the possibilities of the development of ecological culture in the conditions of ecological globalization. The content, directions and main tasks of objective conditions and subjective factors in the formation of human ecological culture are revealed.

Key words: Ecological globalization, ecological problem, ecological culture, ecological situation, ecological safety, ecological consciousness, ecological attitude, objective development, subjective factors.

Kirish. Insoniyatning tabiat bilan o‘zaro aloqadorlik munosabatlari uning yashash uchun kurash jarayoni davridan boshlab davom etib kelmoqda. Inson hayoti faoliyatining yer kurrasida davom etishi tabiatni asta-sekinlik bilan o‘zgartirib, unga yangicha qiyofani shakllantirdi. Jarayon ilk boshlanish davrlarda ijobiy munosabatlar asosida kechdi. Tabiat insonga o‘z tuhfasini, inson ham tabiatga munosib tuhfasini in’om eta boshladi. Munosabatlar o‘zro ikki hamkorlikning munosib ifodasi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Yillar, asrlar, ming yillar o‘tishi insonning tabiatdan asta-sekin talab etadigan o‘ziga xos madaniyati shakllana boshladi. Bu madaniyat inson uchun mislsiz imkoniyatlarni, tabiat uchun ko‘plab yo‘qotishlarni olib keldi. Tabiat bir tomondan sayqallashib, chiroy ochib borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan mislsiz salbiy inqiroz sari odimlay boshladi. XIX asrning oxirlarida ekologiya atamasi iste’molga kirib keldi va yangicha ekologik qarashlar shakllandi. XX asrning birinchi yarmida ekologik munosabatlar o‘z relesidan chiqib, global tus oldi va inson-jamiyat-tabiat formulasi meyoriy iste’moli keskin oshib ketdi. Natijada, ekologik globallashuv dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shu jihatdan ekologik madaniyatning rivojlanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy asoslash ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifasiga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuning turli jihatlari jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi, ekologik vaziyatning keskinlashgani, ekologik munosabatlar xarakterining o‘zgargani, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani mutaxassislarning mavzuga e’tiborini nihoyatda kuchaytirdi va ko‘plab ilmiy-nazariy asarlar yaratildi. Masalan: ekologik munosabatlarni globallashuviga, I.Arsentyeva, R.S.Gaysina [2, 3, 13], ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlar va ta’lim tarbiyaning roli B.Omonov, F.Qilichev, O‘.G‘.Tilavov, G.A.Ochilova, Kh.SH.Nomozov, Y.Kh.Manzarov, B.A.Ochilov [4, 5, 6, 8, 12], suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuvga doir manbalar B.Omonov, S.Mamashakirov [7,9] tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Inson ekologik madaniyatini shakllantirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlarni kompleks amalga oshirishga alohida e’tibor berilgan. Ekologik vaziyat, ekologik munosabatlar va ekologik muammolarning globallashuvi ekologik madaniyatga bo‘lgan ehtiyojning ortayotgani alohida tahlil obyekti sifatida qaralgan. Yoshlarni tabiatga munosabatini ratsionallik asosida takomillashtirib borishning mexanizmlari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Tarixiylik uslubiga ko‘ra, ekologik madaniyatning rivojlanish bosqichlari inson hayot faoliyatini boshlaganidan tabiat bilan o‘zaro aloqadorlikda kechmoqda. Tabiatning insonga yaratgan imkoniyatlari va insonning tabiatga ko‘rsatgan ijodkorligi o‘zaro munosabatlarda aks etdi. Tabiat va inson umumsayyoraning tarkibiy bo‘laklari hisoblanib, doimiy almashinuvda bo‘ldi. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlari asrlar davomida ham ijobiy, ham salbiy natijalar asosida davriylikdan kelib chiqib o‘zgarib turdi. Mana shu

jarayonlarda insonda ekologik madaniyat shakllanib, rivojlanib bordi. Insonning ongli hayotga o‘tishi tabiatni asrash shartligini aniq namoyon qilgan edi. Insoniyatning mislsiz ehtiyojlari tabiatga, aniqrog‘i ekologiyaga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Endilikda, inson jamiyatda o‘ziga ma’qbul bo‘lgan ijtimoiy hayotini ekologik vaziyat, ekologik munosabatlar, ekologik muammolar fonida taqsimlab bormoqda [11;15].

Tahlil va natijalar. Ekologik madaniyat inson faoliyati davomida doimiy haraktda, ma’lum xususiyatlarga ko‘ra rivojlanib boradigan jarayon bo‘lib, ijtimoiy madaniyatning tarkibiy qismidir. Inson ekologik madaniyatini shakllantirish global jamiyatda muhim ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Jahonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar ekologik munosabatlarga ham alohida ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi mintaqalarda ekologik inqiroz tobora kuchayib, inson hayoti va tabiatning rivojlanish mexanizmlariga jiddiy zarar yetkazishga ulgurdi. Ekologik inqirozning jadal quloch yoyib borishi bir tomondan obyektivlik xususiyatini namoyon qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan insonning subyektiv noreal munosabatlarining natijasida sodir bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa, umuminsoniyat ekologik madaniyatini shakllantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Inson uchun ekologik madaniyatni shakllanishi obyektiv munosabatlar tarkibini tashkil etsada, xalqaro geosiyosiy jarayonlarning olamshumul tus olishi subyektiv munosabatlar tarkibida mustahkamlanib borishini ta’minlamoqda. Ekologik inqirozning kengayishi insonning hayotini saqlash uchun, tabiatni asrab-avaylash zarurligini ko‘rsatdi. Endilikda inson tabiatni tabiat uchun emas, o‘zi uchun asrashi kerakligini aniq his qildi. Tabiatning ayovsiz ishg‘ol etish, inson hayotidagi katta mudhish xatoligini namoyon etdi. Ekologiyaga bo‘lgan munosabat endilikda bitta davlat, bitta mintaqa yoki ma’lum hududlarni tartibga solish bilan belgilanmayapti. U xalqaro tus olib ekologik munosabatlarni integratsiyalashuviga yo‘l ochmoqda.

Qadimgi va o‘rta asrlar sharoitida ekologik inqirozni keltirib chiqargan hududlarni alohida davlat chegaralari yoki mintaqalar kesimida qamrab olib, chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati biroz soddaroq shaklda bo‘lgan. Masalan, yonib ketgan o‘rmonlar o‘rniga yangisini barpo etish, epidemiya tarqalgan hududlarga boshqalarni yaqinlashtirmaslik, sel kelishi va suv toshqinidan zarar yetgan joylarni tozalash, yaroqsiz bo‘lib qolgan yerlarni oziqlantirish, botqoq yerlarni o‘zlashtirish kabi muammolarni hal qilish osonroq jarayonni tashkil etgan. Shu sababli ekologik muammolar global darajaga ko‘tarilmagan. Suv, tuproq, atmosferani avaylash o‘sha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan. Aholining ekologik madaniyatini shakllantirib borishi odatiy jarayonga aylangan. Bu ekologik madaniyatni shakllanish darajasining obyektiv asosini ta’minlagan. Ekologik muammolarning globallashuvi davriga kelib, ekologik inqiroz xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi. Boshqa hududlar ekologik muammolari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikkinchi yoki barcha hududlar kesimiga ham ta’sir eta boshladi. Masalan, 2019 yilning oxirida Xitoyda tarqalgan “Korona virus” 2020 yilda dunyoning barcha hududlariga tarqaldi. Dunyo mamlakatlari ommaviy virusni o‘z hududlariga kiritmaslik choralarini ko‘rsa-da, huddasidan chiqish imkoniyatini qilolmadi. Azon qatlami yemirilishi oqibatida kelayotgan muammolar yer kurrasining qaysi hududida bo‘lmasin barcha hududlarga ta’sir qilishini oldini olish imkoni topilmayapti. Iqlim isishining meyor darajasidan ko‘tarilib borayotgani xalqaro hamjamiyatning xavotirlariga sabab bo‘lmoqda. Muzliklarning jadal erish xavfi ortmoqda. Dunyoning ko‘p mintaqalarida cho‘llashish davom etmoqda. Ekologiya kundan-kunga yomonlashmoqda. Ekologik muammolarning bu ko‘rinishlari obyektiv boshqa hududlarga ta’sir etmoqda. Aholi ham bu muammolarga shunchaki qarab turgan emas. Uning chorasini ko‘rishga intilmoqda, ammo ekologik muammolarning obyektiv ta’sirini oldini olish bitta yoki bir nechta mintaqalarning harakati bilan amalga oshmayapti. Bu esa, xalqaro hamjamiyatning birgalikda harakatlanishi asosida yechim topish imkonini yaratmoqda.

Insonning tabiatga subyektiv noreal munosabatlari asrlar davomida yig‘ilib juda katta ekologik inqirozni keltirib chiqardi. Tabiatga ayovsiz munosabat kuchayib bordi. Iste’mol ehtiyoj meyoridan ortib ketdi. Imkoning borida foydalanib qol nazlidagi dunyoqarash inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni izdan chiqardi. Endilikda inson tabiatga subyektiv ta’sir etib bordi. Bu ta’sir avvaliga dunyoning turli hududlarida turlicha davom etdi. XIX asrning oxirlari XX asrning boshlaridan ekologiyaga ta’sir ko‘rsatish diyarli barcha hududlarda bir xillikni tashkil etdi. Bu vaqtda dunyoning barcha hududlarida texnika inqolib yuzaga kelgan edi. Jahonda insonning ekologiyaga bo‘lgan munosabati tabiat resurslaridan kengroq foydalanish asosida kechdi. Asosiy e’tibor ishlab chiqarishga qaratildi. Xom ashyoni yetkazib berish qizg‘in tusga kirdi. Texnologik inqilob insonning mehnatini bir necha barobarga yengillashtirib, ishlab chiqarish unumdorligini bir-necha o‘n barobarga ko‘paytirdi. Bu jarayonlar insonning tabiat resurslaridan yanada ko‘proq foydalanish ishtahasini ochib yubordi. Natijada, yer yuzi bo‘ylab harorat o‘rtcha 0,9 daraja ilidi. Dunyo okeani 15 santimetr ko‘tarildi. Tog‘lardagi muzliklar 50-70 foiz kamaydi. Shimoliy muz okeani va antaraktidagi muz qoplamasi yupqalashdi. Yer yuzining umumiy manzarasi o‘zgardi. O‘tgan asrning so‘ngi 40 yilida Afrika 28 foiz, Lotin Amerikasi 38 foiz o‘rmonidan mahrum bo‘ldi. Tuproqning zaharlanishi va erroziyasi kuchaydi. Dunyo okeani tobora ifloslanib, unga yil sayin 12-15 million tonna neft chiqindisi to‘kilib, 150 million kvadrat kilometrdagi suv yuzasi qora parda bilan qoplandi. Agar dunyo okeani 361 million kvadrat kilometrdan iboratligi nazarda tutilsa, bu fojia ko‘lami nechog‘lik kattaligi ayon bo‘ladi. 1970 – 2002 yillar oralig‘ida dunyo okeanidagi jonzotlar turi taxminan 500 taga kamayib ketdi. Chuchuk suv havzalaridagi jonzotlar turi ham sezilarli qisqardi. Yer yuzidagi barcha parrandalar va sut emizuvchilarning to‘rtdan bir qismi yo‘q bo‘lib ketish arafasida [10;24]. Bundan ko‘rinib turibdiki, ekologik muammolar insonning global muammosiga aylangan. Inson ekologik muammolarni bartaraf etish borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Aks holda insonning hayoti xavf ostida qoladi.

Ekologik muammolarni bartaraf etishning asosiy yo‘llaridan biri insonning ekologik madaniyatini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishishi ilmiy adabiyotlarda o‘z isbotini topgan. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin [1]. Shunga ko‘ra, ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar asosida amalga oshadi. Mazkur obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar mazmunining talqini, uning ta’siri xarakteri va ko‘lami tahlili, birinchidan, ekologik madaniyatning dinamik xususiyatlari va undagi qonuniyatlarning o‘ziga xos jihatlarini ilg‘ab olish imkonini beradi. Ikkinchidan esa, mazkur yondashuv konkret jamiyatdagi ekologik madaniyat modelining shakllanganligi darajasini aniqlashda nazariy asos vazifasini o‘taydi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning obyektiv asoslari: tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy shart-sharoitlar asosida kechadi. Ekologik madaniyatning obyektiv shart-sharoitlari jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari asosida rivojlanishda davom etadi. Jamiyat taraqqiyoti bir tomondan inson hayotini yashilasa, ikkinchi tomondan inson uchun

xavfli vaziyatlarni ham yuzaga kelishiga zamin hozirlab boradi. Jamiyat taraqqiyotga erishgan sayin, ekologik muammolar shunga hos tarzda shakllanib, global tus oldi. Jamiyatning o‘zgarishi tabiatni kambag‘allashuviga, tabiatning kamabag‘allashuvi insonning farovonlashuviga sabab bo‘ldi. Natijada, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar nomutanosib shakllandi. Bu esa, ekologik madaniyatni obyektiv rivojlanishi uchun sharoitni yaratdi. Kelajakda ham jamiyat taraqqiyoti ekologik madaniyatni obyektiv rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ekologik madaniyatni rivojlanishining subyektiv omillariga: siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, estetik, mehnat tarbiyasi kiradi. Inson tarbiya jarayonida shaxs bo‘lib kamolga yetadi. Insonning intelekti obyektiv rivojlanishiga qaraganda subyektiv takomillashtirilgani ko‘proq natija beradi. Subyektivlik asosiga ko‘ra inson professionallashadi. Shu sababli ham tarbiyaning inson ekologik madaniyatini shakllantirishda o‘rni nihoyatda katta. Ekologik madaniyat tarbiya jarayonida takomillashib boradi. Ekologik madaniyatning shakllanishi faqatgina ekologik bilimlarni egallashi bilan to‘liq rivojlana olmaydi. Uni rivojlantirish kompleks qamrab olishni talab etadi. Ekologik bilimlar asosida insonda tabiat va atrof muhit haqida tushunchalar, ularni yuzaga kelishining ilmiy-amaliy ko‘nikmalari, bartaraf etishning ekologik yo‘nalishlariga doir tafakkur tarzi rivojlanadi. Ekologik muammolarga qarshi amaliy faoliyat yuritishida ijobiy siljishlar yuzaga keladi. Lekin, bugungi kunda ekologik globallashuv jarayonlari faqatgina ekologik bilimlar bilan kifoyalanib qolish to‘liq samara berolmasligini ko‘rsatmoqda. Ekologik madaniyat to‘la rivojlanishi uchun inson siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, estetik bilimlarni ham puxta egallashi zarurligini namoyon qiladi. Chunki, ekologik muammolar jadallashuvining huquqiy va ma’naviy asoslari, siyosiy, diniy hamda estetik oqibatlarini hisobga olish har qachongidan ham muhim bo‘lib bormoqda. Insonda qachonki ekologik madaniyatning mana shu sohalariga doir bilim va ko‘nikmalari shakllanib amaliy faolitiga ko‘chmasa, uni to‘laligicha rivojlantirib bo‘lmaydi. Yangi ming yillikda ekologik madaniyatni kompleks rivojlantirish choralarini ta’minlash allaqochon ustuvor vazifalar qatoriga kirgan. Shu jihatdan ham O‘zbekiston fuqarolarida ekologik madaniyatni shakllantirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmoqda. Ekologik bilimlarni yoshlikdan singdirib borish maqsadida barcha ta’lim muassasalari o‘quv adabiyotlariga atrof-muhit va uni asrashga doir bilimlar, tushunchalar, ular keltirib chiqaradigan xavf-xatarlar haqida mavzular kiritilgan. Ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekiston Konstitutsiyasi loyihasida aks etayotgan ekologiya to‘g‘risidagi modda va normalarda: har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega deb, mustahkamlab qo‘yilayotgani fuqarolarimiz ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ekologik muammolarni oldini olish, inson ekologik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga bog‘liq. Inson ekologik madaniyatini rivojlanish imkoniyatlari obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar asosida amalga oshadi. Shunga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, insonlarni ekologik madaniyat tarixiy merosi asosida tarbiyalashda, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning ta’sir yo‘nalishlari ko‘p bosqichli, kompleks jarayon hisoblanadi; ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-aqloqiy sohalarning nisbatan mustaqil rivojlanishi ekologiyalashuvda namoyon bo‘lmoqda; uchinchidan, ekologik madaniyat rivojlanishi obyektiv hodisa bo‘lsa ham, unda inson omilining roli o‘sib borishi qonuniyatdir; to‘rtinchidan, ekologik madaniyat tarixini o‘rganish, undan saboq olishning mukammal institutsional tizimini shakllantirish davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2022. 440 b.
2. Арсентьева И.И. Глобализация и перспективы мирового развития// Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2008, №8.
3. Гайсина Р.С. Экологическая ситуация: взгляды на сущность, образование и пути решения// Концепт, 2013, №6.
4. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. https://conferencepublication.com
5. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2022.
6. Tilavov O‘.G‘. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2021.
7. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680
8. Omonov B.N., Ochilova G.A., Nomozov K.S., Manzarov Y.K., Ochilov B.A. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System.https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583
9. https://www.scopus.com/sourceid/21100216519 984-989
10. Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.
11. Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari//Tafakkur jurnali. 2014/1. –B.24-35.
12. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. –T.: “Voris – nashriyot”, 2021. 136 b.
13. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. ttps://elibrary.ru/tjvied
14. Ochilova C.A., Amonov B.N., Azamova S.A, Manzarov Y.K. Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373: 371

To‘lqin ANOROV,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

O‘zMU pedagogik fanlari doktori, professor X.Xudoyqulov taqrizi asosida

O‘QUVCHILARNING TA’LIM NATIJALARINI BAHOLASHGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy va fan kompetentsiyalarini baholashda test texnologiyalaridan foydalanishning umumiy muammolari ochib berilgan. Test texnologiyalaridan foydalangan holda individual fanlarni o'rganish jarayonida o'rta maktab o'quvchilarida ularning ta'lim xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetentsiyalarni shakllantirish darajasini aniqlashga oid alohida masalalar ko'rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Boshlang'ich sinf, kompetentsiya, nazorat faoliyati, baholash, test texnologiyalari, pedagogik an'ana, ko'p o'lchovlilik, integral, meta-predmetli, fanlararo kompetentsiya.

КОМПЕТЕНТНЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье раскрываются общие проблемы использования тестовых технологий при оценке базовых и предметных компетенций учащихся начальных классов. При изучении отдельных предметов с использованием тестовых технологий были рассмотрены специальные вопросы, связанные с определением уровня сформированности компетентности старшеклассников с учетом их образовательных особенностей.

Ключевые слова: Начальная школа, компетентность, контрольная деятельность, оценивание, тестовые технологии, педагогическая традиция, многомерность, интегральная, метапредметная, межпредметная компетентность.

COMPETENT APPROACH TO ASSESSMENT OF LEARNING OUTCOMES OF STUDENTS

Annotation

The article reveals the general problems of using test technologies in the assessment of basic and subject competencies of primary school students. During the study of individual subjects using test technologies, special issues related to determining the level of competence formation in high school students, taking into account their educational characteristics, were considered.

Key words: Elementary school, competence, control activities, assessment, test technologies, pedagogical tradition, multidimensionality, integral, meta-subject, interdisciplinary competence.

Kirish. Ta'limning zamonaviy paradigmasi ta'limga shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlarga asoslanadi. Mamlakatimizda o‘quv materialini o‘zlashtirishda shaxsiy omil rolining kuchayishi nafaqat ta’lim mazmunini, balki o‘quvchilar ta’lim yutuqlarini kuzatish va baholash texnologiyalarini ham qayta ko‘rib chiqishga olib keldi[1].

Hozirgi vaqtda o'qituvchining nazorat va baholash faoliyati mavzuga yo'naltirilgan o'quv natijalaridan faoliyatga yo'naltirilgan va sub'ektdan tashqariga aylantirilmoqda. Bunday sharoitda o'quv jarayoni o‘quvchilarning asosiy va predmetli kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan, ya'ni ularning hayotiy faoliyatining haqiqiy namoyon bo'lishida duch keladigan turli muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati - ta'lim, kasbiy, ijtimoiy. , va boshqalar. Bunda asosiy e'tibor fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashdan faoliyatga asoslangan yutuq - o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorligi va qobiliyatiga o'tadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'limda kompetentlik yondashuvining rivojlanish tarixida bir necha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Boshida, 20-asrning 60-70-yillarida “kompetentlik” va “kompetentlik” so‘zlarini ilmiy muomalaga kiritish uchun terminologik shart-sharoitlar yaratildi. Inson faoliyatining turli tomonlarini tadqiq qilib, olimlar ularning kontseptual mohiyatini, xususan, nutq kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari sohasida ochib berdilar[2]. Keyinchalik 70-90-yillar bu tushunchalar shaxsiy kompetentsiya modeli sifatida baholandi [3], xususan, mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasining turli jihatlari o'rganildi.

XXI asr boshlarida. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) loyihalari tufayli YUNESKO, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining ko‘plab hujjatlarida o‘z aksini topgan ta’lim sohasida kompetensiya yondashuvini keng joriy etish amalda boshlanadi. Ta'lim ekspertlar hamjamiyati "asosiy ko'nikmalar" tushunchasidan kompetentsiya yondashuvi toifalariga o'tadi, uning asosiy tushunchasi "asosiy vakolatlar" tushunchasi bilan belgilanadi. 2004 yilda YuNESKOning Norvegiyada ushbu masalaga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyasida Evropa Ittifoqi ekspertlari kompetentsiya tushunchasini ijtimoiy kontekstda va kasbiy faoliyatda boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni o'z ichiga olgan vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilish bo'yicha kelishib oldilar [4].

Hozirgi vaqtda sakkizta asosiy kompetensiya belgilangan:

ona tilida muloqot qilish; chet tilida muloqot qilish (chet tilida muloqot qilish);

matematik savodxonlik va fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiya (matematik savodxonlik va fan va texnologiya bo'yicha asosiy kompetensiya);

AT kompetensiyasi (raqamli kompetentlik);

o'rganish qobiliyati yoki ta'lim kompetensiyasi (o'rganish uchun);

shaxslararo va fuqarolik kompetensiyasi (shaxslararo va fuqarolik kompetensiyasi);

tadbirkorlik qobiliyati (tadbirkorlik);

madaniy kompetensiya (madaniy ifoda).

Dastlab, asosiy kompetensiyalar jamiyatning har bir a'zosi uchun o'zini o'zi anglash, sotsializatsiya va ish bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarning moslashuvchan tizimi sifatida qabul qilingan. Keyinchalik, bu kontseptsiyani bunday tushunish chuqurlashtirildi va quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'ldi:

ko'p funktsionallik - inson shaxsiy va ijtimoiy hayotning turli sohalarida hal qila oladigan muammolar doirasini kengaytirish;

fanlararo va sinfdan tashqari - olingan bilim, ko'nikma va tajribani hayotning turli sohalarida usul sifatida qo'llash;

ko'p o'lchovlilik - inson faoliyatining turli tarkibiy shakllarini qamrab olish (bilimlar, ko'nikmalar, qiymat yo'nalishlari, faoliyatning aqliy strategiyalari va algoritmlari, hissiy va irodaviy aktivlar va boshqalar);

refleksivlik - o'z-o'zini bilish va ijodkorlikni, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi baholashni ta'minlash.

Tahlil va natijalar. Ta'lim faoliyatida asosiy vakolatlar yosh avlodni kundalik hayotda ishtirok etishga tayyorlash bilan bog'liq maxsus funktsiyalarni oladi. Bu, birinchi navbatda, o'rganuvchilarning kognitiv faoliyati tajribasida takrorlanadigan, shaxsan o'zlashtirilgan bilimlarni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Shaxsiy bilimlar samarali bo'ladi, turli hayotiy vaziyatlarda amaliy foydalanishga tayyor ko'nikma shaklida bo'ladi. Biroq, ta'limda kompetentsiya yondashuvi bu bilan cheklanmaydi. Buning yordamida o‘quvchilarning o'z faoliyatining shaxsiy va ijtimoiy natijalariga qimmatli munosabati rivojlanadi. Masalan, o'quvchilarning ekologik tarbiyasi natijasida atrof-muhitni muhofaza qilish xulq-atvori.

Ta'lim amaliyotida kompetentsiya yondashuvini amalga oshirish inson hayotining zamonaviy sharoitida uning shaxsiy maqomini belgilovchi bir qator omillar bilan belgilanadi. Xususan, o‘rta maktab bitiruvchisi endilikda uning bugungi globallashgan axborot jamiyatida harakat qilishga tayyorligini belgilovchi asosiy va predmetli kompetensiyalar tizimiga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni, u bilimli, malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, bugungi dinamik jamiyatda harakatchan va moslashuvchan, shaxsiy hayotida o‘zini-o‘zi ta’minlay oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Buning uchun u o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash uchun zarur bo'lgan fazilatlarni namoyon qilishi kerak, xususan:

turli manbalardan ma’lumot olish, uni tahlil qilish va qo‘llay olish, individual rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun o'rganish;

tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish, yangi g'oyalarni yaratish, nostandart qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishning muqobil usullarini tanlash, ular uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

olingan bilim va tajribadan turli hayotda foydalana olish, qiyin vaziyatlarda, hayotiy muammolarga munosabat ko'rsatish;

muloqot madaniyatiga ega bo'lish, jamoada ishlashni bilish, bag'rikenglik va nizolardan qochish;

umr bo'yi o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligini ko'rsatish va o'z-o'zini takomillashtirish;

umumiy turmush madaniyatiga ega bo‘lish, ijtimoiy amaliyot va shaxsiy hayotning turli sohalarida o‘z faoliyatini tashkil eta olish[5].

Ta'lim mazmunini predmetga yo'naltirilgan o'zlashtirish sharoitida ham, kompetentsiya yondashuvi sharoitida ham ta'limning yakuniy natijasi maktab o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini - ularning dunyoqarashi, axloqiy e'tiqodlari, qadriyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va nihoyat, shaxsiy bilimlarni shakllantirishning kognitiv tajribasi. Farqi bu fazilatlarni rivojlantirish metodologiyasida. An'anaviy ta'lim jarayonida "qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi" tamoyili bo'yicha o'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-kognitiv faoliyati tufayli o'qiyotganlarning shaxsiy rivojlanishi ta'minlanadi.

Ta'limga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv sharoitida o‘quvchilar real hayotiy muammolarni mustaqil hal qilish tajribasiga ega bo'ladilar va hayotning turli sohalariga munosabatini qadrlashadi. Bunday tajriba o'quvchilar tomonidan o'rganilgan bilim va qadriyatlar tizimiga qo'shimcha rol o'ynamaydi, uni amalda mustahkamlash kerak, balki o'quv jarayonini qurishda asosiy, hissiyot yaratuvchi omil hisoblanadi. Shunday qilib, o'rganishga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o‘quvchilarning bilim va ko'nikmalarini "o'lik yuk" ga aylanishi mumkin bo'lgan eng katta hajmdagi bilim va ko'nikmalarni egallashga qaratmaydi, balki ularning qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy harakat qilishni, atrofdagi hayotga qimmatli munosabatni ochib berishni, olingan bilim va kognitiv faoliyat tajribasini real hayotiy vaziyatlarda, kasbiy faoliyatda, ijtimoiy amaliyotda qo'llashni o'rganadiganlar.

Ta'limga kompetent yondashuv turli mamlakatlarda ta'limning pedagogik nazariyalari tomonidan belgilangan ta'lim tizimlari va an'analari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ta'limga kompetentsiyani baholashni joriy etishning uchta asosiy yondashuvini ajratib ko'rsatish mumkin:

amaliy, Amerika pedagogik an'analariga xos;

funksional, ingliz maktabiga xos xususiyat;

integral yoki ko'p o'lchovli, nemis va frantsuz an'analari asosida qurilgan pedagogik tizimlarga xosdir[6].

Shunday qilib, amerikalik testerlar bixeviorizmning falsafiy an'analariga sodiq qolgan holda, kompetentsiyani baholashda muayyan vaziyat sharoitida muayyan harakatlar to'plamini bajarish qobiliyati uchun maxsus testlardan foydalanadilar. Bunday malaka testlari ta'limni tugatgandan so'ng ma'lum bir faoliyat turi, asosan, kasbiy faoliyat samaradorligini bashorat qilish imkoniyatini beradi. Tayyorlangan testlarning yuqori sifati va ularning har tomonlama tasdiqlanishi testning statistik ishonchli prognostik asosliligi bilan tasdiqlanadi. Ya'ni, bunday test-baholash natijalariga ko'ra, haqiqiy hayotiy vaziyatlarda - ishlab chiqarishda, ta'limda, ijtimoiy amaliyotda va hokazolarda sinovdan o'tishi kerak bo'lganlarning keyingi faoliyatining muvaffaqiyatini yuqori ehtimollik bilan taxmin qilish mumkin.
.

Bunday baholashga ko'ra, kasbiy kompetentsiya, qo'shimcha ravishda, o'zlashtirish darajasi kasbiy faoliyatning turli sohalarida muvaffaqiyatni tavsiflovchi kompetentsiyalarning o'ziga xos turlariga bo'linadi. Masalan, bo'lajak menejerlar uchun umumiy tashkiliy daraja (fikrlash strategiyasi, boshqaruv strategiyasi), boshqaruv darajasi (rejalashtirish va jarayonni boshqarish) va individual daraja (mehnat samaradorligi, qobiliyatni baholash) farqlanadi.

Britaniya olimlari ta'lim natijalarini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvda ko'proq bilimlarning yaxlitligiga, o'rganilgan materialni tushunishga va kasbiy faoliyatga qimmatli munosabatga e'tibor qaratadilar. Ularning kompetentsiyani baholashning integratsion modeli [2] kognitiv, funktsional, shaxsiy, axloqiy va tashkiliy-boshqaruv jihatlarini aks ettiruvchi beshta kompetensiyadan iborat. Ta'lim natijalarining amaliy xususiyatlariga, ya'ni kasbiy faoliyatning muayyan vaziyatida shaxs qanday harakat qilishiga yo'naltirilgan baholashning Amerika modelidan farqli o'laroq, Britaniya modeli o'zining potentsial imkoniyatlarini tavsiflovchi funktsional kompetentsiyalarni ham qamrab oladi. ishlab chiqarish faoliyatidagi shaxs.

Frantsiya va Germaniyaning pedagogik tizimlariga xos bo'lgan ta'lim natijalarini baholashga yaxlit yoki ko'p qirrali yondashuv bipolyardir:

bir tomondan, u har bir shaxsga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlarni, masalan, umumiy savodxonlik, ma'lumot va boshqalarni aks ettiradi. muloqot qobiliyati va boshqalar;

ikkinchi tomondan, u shaxsning guruhlarda ishini tashkil etish va jamoaning har bir a'zosining bunday ishda ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan "kollektiv" kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

U yoki bu qutbda joylashgan kompetentsiyalarning xilma-xilligi shaxsning kompetentsiyasini sub'ekt, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar majmui sifatida yaxlit ko'rib chiqish tufayli birlashtirilgan. Ularning barchasi faoliyat yondashuvining toifalarida shakllantirilgan bo'lib, ular maqsadlilik asosida insonning harakatlarni amalga oshirish va amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatini bashorat qiladilar.

Umumiy kognitiv kompetensiyalar fan kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos sifatida qaraladi. Kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarga asoslangan shaxsiy kompetensiyalar, jumladan, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash qobiliyati, ijobiy "o'zini o'zi tasavvur qilish", axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga oladi.

Xorijiy mamlakatlarning kompetentsiyani baholash tajribasini sarhisob qilsak, ta'lim natijalarini baholashning yagona shkalasini qurish uchun mo'ljallangan bir o'lchovli model (masalan, xulq-atvor yondashuvi) dastlab ijobiy rol o'ynaganligini ta'kidlash mumkin. ta'lim natijalarini baholashga kompetentsiya yondashuvini shakllantirishda. Biroq, vaqt o'tishi bilan funktsional va ko'p o'lchovli yondashuvlar samaradorligini isbotladi va bir necha xil shkalalarni qurish zarurati bilan murakkab bo'lsa-da, shaxsning kompetentsiyasini ifodalashning yaxlitligi tufayli bir o'lchovli modeldan ustun ekanligini ko'rsatdi.

Shu sababli, OECD ekspertlari tomonidan taklif etilgan sakkizta asosiy vakolatlar ba'zan tadqiqotchilar tomonidan ushbu muammoni turlicha izohlaydi. Misol uchun, Rossiyada ko'plab o'qituvchilar A.V.Xutorskiyning asosiy kompetentsiyalar tasnifidan foydalanadilar [7], bu ularni kommunikativ, axborot, ta'lim-kognitiv, ijtimoiy-mehnat, umumiy madaniy, qadr-qimmatli va shaxsiy o'zini-o'zi takomillashtirishga ajratadi. Umumiy o'rta ta'limning davlat standartini tayyorlash jarayonida ukrainalik olimlar asosiy vakolatlarning Evropa tasnifini yana bitta - salomatlikni saqlash bilan to'ldirishdi.

So'nggi paytlarda test texnologiyalarining joriy etilishi munosabati bilan ba'zi tadqiqotchilar nazoratning prognostik funktsiyasiga ham ishora qilmoqdalar, buning yordamida o‘quvchilarning o'rganishdagi potentsial imkoniyatlarini oldindan aytish mumkin [8].

O'qituvchining nazorat va baholash faoliyatiga test texnologiyalarini joriy etish o‘quvchilarning ta'lim yutuqlarini imtihon oluvchining sub'ektiv "o'lchovlari" bo'yicha taqqoslashdan ta'lim natijalarini ob'ektiv o'lchashga, ya'ni miqdoriy korrelyatsiyaga o'tishga imkon berdi. o'lchov birligi sifatida qabul qilingan etalon bilan o'qitish natijasida olingan ma'lum o‘quvchi xususiyatlari. Pedagogik o'lchov jarayonida bunday xususiyatlar bilim, ko'nikma, malaka, ko'nikma va boshqalar bo'lishi mumkin va baholash etaloniga ta'lim mazmunining muayyan elementini aks ettiruvchi nazorat vazifalari kiradi. Bunday taqqoslashning eng adekvat tartibi pedagogik test bo'lib, u so'nggi paytlarda o'qituvchilarning nazorat va baholash faoliyatida tobora kengayib bormoqda.

Natijalarni talqin qilishda u yoki bu yondashuvni tanlash testning maqsadi aniqlangandan boshlab amalga oshirilishi kerak, chunki unga qarab me'yoriy yoki mezonli test tanlanadi. Bu unchalik muhim emasdek tuyulishi mumkin, chunki asosiysi uni amalga oshirish tartib-qoidalariga rioya qilishdir. Afsuski, bu noto'g'ri tushuncha bo'lib, ko'pincha test natijalarining informativligini yo'qotishga va ularni talqin qilishda noaniqlikka olib keladi. Bundan tashqari, bu turli yo'nalishdagi testlarni qurishda bir qator farqlar tufayli qabul qilinishi mumkin emas. Ular mazmunni tanlash usuli, empirik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari, testlarni qurish va test topshiriqlarini tanlash usullari va nihoyat, eng muhimi, natijalarni tahlil qilish va sharhlashda farqlanadi.

Xususan, mezonga asoslangan testning mazmuni etarli darajada to'liq bo'lishi kerak, o'zlashtirish uchun dastur tomonidan taqdim etilgan o'quv materiali miqdori bo'yicha deyarli yuz foiz. Testni bajarish uchun ko'proq yoki kamroq mos keladigan chegara mezonini belgilash uchun (qoida tariqasida, o‘quvchilarning 10% dan ko'pi testdan o'ta olmasligi kerak), undagi vazifalarning asosiy qismi oson bo'ladi. Misol uchun, agar 70% mezon belgilansa, ya'ni ijobiy natija uchun topshiriqlarning kamida 70% bajarilishi kerak bo'lsa, u holda testda kamida 70% oson topshiriqlar bo'lishi kerak, shunda o‘quvchilarning 90% bajara oladilar. ularni to'g'ri. Qolgan vazifalar (30%) murakkabroq bo'lishi mumkin.

Normativ yo'naltirilgan testning mazmuni parcha-parcha bo'lishi mumkin, u faqat o'quvchilarni ta'lim yutuqlari darajasiga ko'ra taqqoslash va farqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Ularning topshiriqlarining yarmidan ko'pi o'rtacha qiyinchilikda bo'lishi kerak, shunda ularni sinovdan o'tadiganlarning yarmi bajarishi mumkin. Masalan, bunday testda quyidagilar bo'lishi kerak: 25% oson vazifalar, 50 - o'rtacha murakkablik va 25% murakkablik.

M. B. Chelyshkova o`qituvchining nazorat-baholash faoliyatining vazifalariga qarab pedagogik testlarni o`qitish boshlanishidan oldin qo`llaniladigan kirish testlariga, o`quv jarayonida o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan formativ va diagnostik testlarga va yakuniy testlarga ajratadi [8]. Kirish testlari yoki pretestlar o‘quvchilarning fanni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarga egalik darajasini aniqlashga yoki o'quv materialini o'rganishning boshida ularning kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, nafaqat pedagogik test o'quvchilarning ta'lim yutuqlarini ob'ektiv baholashga qodir. Eng yaxshi natijalarni o'qituvchi olishi mumkin, u mashg'ulot samaradorligini aniqlash uchun turli xil ma'lumot manbalaridan qachon foydalanadi. Asosiysi, o‘quvchilarni baholashning tanlangan vositasi operatsion jihatdan samarali va pedagogik o'lchovlar nazariyasi tamoyillariga mos keladi.

Xulosa va takliflar. So'nggi paytlarda o'quv jarayonida o'quvchi yoki o‘quvchi tomonidan javob mazmunini faol qurish bo'yicha topshiriqlar, o'quvchilarning integral, meta-predmetli va fanlararo kompetentsiyalarini baholash uchun qo'llaniladigan kompetentsiya testlari, boshqa innovatsion tadbirlar. kompetentsiya (portfolio, vaziyat o'lchovlari, amaliyotga yo'naltirilgan faoliyat testlari, anketalar va boshqalar). Ya'ni, javobni tanlash bilan bir qatorda o'qituvchilar javobni mustaqil qurishning test shakllaridan, har jihatdan pedagogik o'lchovlar nazariyasiga mos keladigan vaziyatli test topshiriqlaridan foydalana boshladilar va shuning uchun ularning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11- maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Леончик Е. Кластерный анализ. Терминология, методы, задачи [Текст] / . Ю. Леончик. – Одесса : ОНУ им. И. И. Мечникова, ИМЭМ, 2011. – 67 с.

3. Richards J. C. The Language Teaching Matrix / J. C. Richards. – Cambridge : Cambridge University Press, 1999. – 200 p.
4. Principles and Practice of Language Testing: Materials of training in the Principles and Practice of Language Testing / Delaso. – 20−22 February 2006: UK Ltd., 2006.
5. Коккота В. А. Лингводидактическое тестирование: науч.-теорет. Пособие [Текст] / В. А. Коккота. – М. : Высш. шк., 1989. – 123 с.
6. Голуб Г. Б. Оценка уровня сформированности ключевых профессиональных компетентностей выпускников УНПО: подходы и процедуры [Текст] / Г. Б. Голуб, Е. Я. Коган, И. С. Шишман // Вопросы образования. – №2. – 2008. – 312 с.
7. Mc Namara T. Language Testing / T. McNamara. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – 156
8. Мерзляк А. Г. Математика : підруч. для 5 кл. загальноосвіт. навч. Закладів [Текст] / А. Г. Мерзляк, В. Б. Полонський, М. С. Якір. – Х. : Гімназія, 2013. – 352 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.03

O‘tkirbek ARZIQULOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail:Oarzikulov@gmail.com

PhD Sh.Raximov taqrizi asosida

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSALARI TALABALARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASI MUAMMOSINING DOLZARBLIGI VA ILMIY O‘RGANILISHI DARAJASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalarida o‘quv motivatsiyasining namoyon bo‘lishining aktual tomonlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Motivatsiya, talaba, ta’lim, tibbiyot, o‘quv motivatsiyasi, kasbiy motivatsiya, motiv, maqsad, ehtiyoj, kasbiy tayyorgarlik.

АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОБЛЕМЫ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ И УРОВЕНЬ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные аспекты проявления учебной мотивации у студентов медицинского вуза.

Ключевые слова: Мотивация, студент, образование, медицина, учебная мотивация, профессиональная мотивация, мотив, цель, потребность, профессиональная подготовка.

VALIDITY OF THE PROBLEM OF STUDY MOTIVATION IN STUDENTS OF MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND LEVEL OF SCIENTIFIC STUDY

Annotation

This article discusses the actual aspects of the manifestation of educational motivation in students of a medical university.

Key words: Motivation, student, education, medicine, educational motivation, professional motivation, motive, goal, need, professional training.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lmish, oliy ta’lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir [1]. Jumladan, tibbiyot oliy ta’lim muassalariga ko‘rsatilayotgan e’tiborni tasdiqi sifatida 09.07.2020 yil holatiga kelib, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat tibbiyot oliygohlari soni 11 tani tashkil etilganligi e’tiborga molikdir [7]. Ularda ko‘plab bo‘lg’usi shifokor o‘g’il–qizlar ta’lim olyapti va ular bugungi Yangi O‘zbekistonni qurishda o‘zining bor kuchi hamda imkoniyatlarini safarbar qilgan holda, o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida motivatsiyani o‘rganishga qiziqish yuqori darajadagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lib, ushbu kasbni o‘zlashtirishning murakkabligi bilan bogliq muammolar ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarida qayd etilganligi ahamiyatlidir [4].

Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalarining bilim olishi tibbiyot va umuman sog'liqni saqlashni rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biridir. Bo‘lajak shifokorlar orasida eng yuqori motivatsiya klinik bo‘limlarning yuqori kurslarida o‘qiyotganda, talaba kelajakdagi kasbiga “yaqinroq” bo‘lganda kuzatiladi. Bu borada talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir qilayotgan muammolar ham mavjuddir. Ulardan biri sifatida past darajali o‘quv motivatsiyasini misol qilishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, “motivatsiya” tushunchasining psihologik mohiyatiga to‘xtalib o‘tsak, to‘g’ri bo‘ladi. Psixologiyada inson hulq-atvoridagi qo‘zg‘atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo‘llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy bo‘lib hisoblanadi.

«Motivatsiya» atamasi «motiv» atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. «Motivatsiya» - hozirgi zamon psixologiyasida hulq-atvorni determinatsiyalovchi omillardir. Bunga, xususan, ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa ko‘pchilik) tizimini belgilovchi va hulq-atvor faolligini ma’lum darajada tutib turuvchi, rag‘batlantiruvchi jarayon xususiyati sifatida ikkilangan ma’noda qo‘llaniladi. Biz motivatsiya tushunchasini birinchi ma’noda qo‘llaymiz. Demak, motivatsiya inson hulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo‘lgan sabablar yig‘indisi sifatida belgilash mumkin.

Motivatsiya – ehtiyoj yoki istak, stimullashtirilgan va yo‘naltirilgan xulq - atvordir. “Motivlar – insonni u yoki bu faoliyat bilan shug’ullanishga majbur etuvchi ichki turtki kuchi”dir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg’atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar [2].

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakalarni ongli tarzda bajarish bilan bog’liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin tibbiyot oliy o‘quv yurti

talabalarining insonlar salomatligini tiklash yoki tibbiy jihatdan yordamni adekvat tashkil etish bilan bogliq faoliyatni amalga oshirishlariga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo'lib, bu sabablarni - faoliyat motivlari deb aytiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida birinchi o‘rinda talabaga faqat ma’lum ko‘nikma, bilim va malakalarni o‘rgatish emas, balki ta’lim jarayonining natijasini aks ettiruvchi shaxsning xususiyatini va individualligini shakllantirish [5], shaxsning ehtiyojlari va motivlari tizimini ishlab chiqish zarur bo‘lib, bu o’z navbatida ta'lim sifatining ko‘rsatkichinidir [6].

Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalari [10] kelgusi kasbiy faoliyatning motivatsiyasini shakllantirishga ilmiy yondashuvga binoan motivatsiyning ichki salbiy ta’siri [8] va ijobiy ta’siri[9]ga oid ma’lumotlar mavjudligi mazkur maqolada ko’rilayotgan mavzunung naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga kasbiy motivatsiyaning xususiyatlarini ochib beruvchi qarama-qarshi yondashuvlar ushbu yo‘nalishda yangi tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Yani, alohida jihati bo‘lajak shifokorlarda talabalarning muvaffaqiyatiga qarab ichki va tashqi kasbiy motivatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash muammosini dolzarblashtiradi.

Motivatsiyaning ichki turida faoliyat shaxsning o‘zi uchun muhim bo‘ladi. Tashqi kasbiy motivatsiyada faoliyatning mazmuniga nisbatan boshqa tashqi ehtiyojlarning qondirilishi istagini tushuniladi (ijtimoiy obro‘ - e'tibor, ish haqi va boshqalar), ular o’z navbatida: tashqi ijobiy va tashqi salbiy turlarga bo‘linadi. Tashqi ijobiy motivlar, tashqi salbiy motivlarga qaraganda har tomonlama samaraliroq va istalgan bo’lishi shubhasizdir [2].

Bizga ma’lumki, talabalardagi o‘quv motivatsiyasi yondosh tushunchalardan bo’lgan kasbiy motivatsiya bilan ham bog’liq bo’lib rivojlanadi. Ya’ni yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasi o‘z navbatida kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi muammosi zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Buning bir misoli etib insoniyat umri va hayoti uchun ta’sirli bo’lgan koronavirus infektsiyasi bo’lgan Covid–19ning asoratlarini bartaraf etishda tibbiyot sohasida raqobatbardosh yangi kasblar va mutaxassisliklarning paydo bo‘lishi zarurati ko’rsatadi. Kasbning rivojlanish mantig’i shundaki, u boshlanishida odamlarning ma'lum bir talablaridan paydo bo'ladi. Keyin amaliy tajribani yig’ish va uni chuqur mulohaza qilish orqali amalga oshiriladi [2].

Psixologiyada shaxsning kasbiy motivatsiyasini o‘rganish, birinchi navbatda, motivatsiya psixologiyasining umumiy nazariy yondashuvlariga asoslangan; ikkinchidan, kasbiy va mehnat faoliyati nazariyalarining kontseptual asoslariga asoslangan.

Kasbiy motivatsiyani tushuntirishda xorij olimlari tomonidan quyidagi nazariyalar taqdim etilgan: F.Herzbergning ikki omil nazariyasi (1959); S.R.Alderferning ERG nazariyasi (1972); K.Levinning kutish nazariyasi (2001); A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi (2003); D.Mc.Clellandning orttirilgan ehtiyojlar nazariyasi (2007); D.Mc.Gregorning maqsadlarni belgilash nazariyasi (1985); V.H.Vroomning mehnat motivatsiyasining “paternalistik” kontseptsiyasi(1964); J.S.Adamsning tenglik/adolat nazariyasi (1965) va boshqalar. Masalan, biogenetik nazariya namoyondasi Uilyam McDugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan o‘z qarashini isbotlash uchun tug’ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog’lab tushuntirishga harakat qilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy motivatsiyaning xorijiy nazariyalari aksariyat holda boshqarish psixologiyasiga mos ravishda ishlab chiqilgan (Xekxauzen H.,2003; Kixler E., Roder K., 2003; Shults D., Shults S., 2003; Muchinski P., 2004; Nutten J., 2004; Ritchi Sh, Martin P., 2004), ya’ni, ularning ta’limotlari asosan sub'ekt tomonidan bevosita bajariladigan mehnat faoliyati va kasbiy majburiyatlarga tegishlidir.

Shahsning kasbiy motivatsiya darajasiga bir nechta tashqi va ichki ijtimoiy – psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Oliy o‘quv yurti talabalarida ham kasbiy motivatsiyaning turlicha bo‘lishi ham aynan yuqoridagi omillarga bog’liq bo‘lishi mumkin. Ammo oliy o‘quv yurtiga qabul qilingan va kasbiy motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda keyinchalik, yuqori bosqichlarga o‘tgan sari kasbiy motivatsiya darajasi birmuncha pasayish hollari uchraydi[3].

A.K.Markova fikriga ko‘ra, ta’lim motivatsiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo‘lishiga asoslangan to‘g'ridan-to‘g'ri rag'batlantiruvchi motivlar;

2) umumiy bilimning va xususan, predmetning ahamiyatini tushunishga asoslangan o‘quv faoliyatining istiqbolli motivatsion motivlari;

3) bilish jarayonining o‘zidan qoniqishga asoslangan aqliy motivatsion motivlar [14].

E.Yu.Patyaeva ta’lim motivatsiyasi o‘quv vaziyatlari asosida turlicha namoyon bo’lishini ajratadi: berilgan ta'lim uchun motivatsiya; spontan o‘qitish motivatsiyasi; motivlar va his-tuyg'ular to‘qnashuvi sharoitida qaror qabul qilish; o‘z pozitsiyasini shakllantirish, uni asoslash va himoya qilish, turli pozitsiyalarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish, harakat qilish qobiliyatini o‘z ichiga olgan o‘z-o‘zini o‘zi belgilaydigan o‘quv faoliyati uchun motivatsiya va boshqalar [14].

Oliy o‘quv yurtlari talabalarining ta'lim motivatsiyasi muammosini qarasak, mazkur muammoning ko‘p o‘rganilgan jihatlari quyidagilardir: B.G.Ananiev, T.A.Matis, V.A.Yakunin va boshqalar talabalarning motivatsion sohasi tuzilishidagi aloqa motivatsiyasining o‘rnini; M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, S.L.Kandibovich, L.F.Jeleznyak va boshqalar ta'lim samaradorligi va kelajakdagi kasb talablariga muvofiq ijtimoiy qadriyat motivlarini rivojlantirish o‘rtasidagi bog'liqlikni; S.V.Bobrovitskaya, A.N.Pechnikov, G.A.Muxina, M.V.Vovchik-Blakitnaya va boshqalar universitet, institutelarga kirish motivlari va o‘qish jarayonida motivlarning o‘zgarishi dinamikasini; A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.I.Meshkov va boshqalar talabalarning turli o‘quv fanlariga munosabatini; I.R.Altunina, R.I.Tsvetkova, R.S.Nemov va boshqalar talabalarning xulq-atvoriga, o‘quv kasbiy va kasbiy faoliyatiga ta'sir etuvchi motivatsion omillar va mexanizmlarni; P.S.Vaysman, O.N.Arestov, P.R.Bibrich, M.G.Rogov va boshqalar o‘quv jarayonida yutuq motivining rolini; S.A.Gaponova, E.P.Ilin va boshqalar kursantlarni tayyorlash jarayonini motivatsion qo‘llab-quvvatlash masalalarini ilmiy tadqiq etganlar.

E.P.Ilinning ta’kidlashicha, Institutga kirish, ta’lim olish sabablarini aniqlash amaliy ahamiyatga ega, yani – bu hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar bilan belgilanadi. Muallifning ta’kidlashicha, shunga qaramay, ijtimoiy-hayotning boshqa ko‘rinishlarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan doimiy ravishda namoyon bo‘ladigan motivlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Institutga kirishning asosiy motivlari: talaba yoshlar davrasida bo‘lish istagi, kasbning katta ijtimoiy ahamiyati va uni qo‘llash doirasining kengligi, kasbning qiziqish va mayllarga muvofiqligi, ijodiy imkoniyatlarini izlash.

E.P.Ilinn bu borada qizlar va o‘g’il bolalarda motivlarning ahamiyatidagi farqlarni ta’kidlaydi: qizlar ko‘pincha kasbning katta ijtimoiy ahamiyatini, uni qo‘llash doirasining kengligini, yirik shaharlarda va ilmiy markazlarda ishlash imkoniyatini, talabalarning badiiy havaskorlik faoliyatida ishtirok etish istagini va kasbning yaxshi moddiy ta'minlanganligini inobatga olishlari [12], lekin bizning

mentalitetimizda qizlarga ko‘proq kasb bo‘yicha topiladigan ishning o‘zi yashab turgan mintaqada ish topishning osonligi, qulayligi, yaxshi moddiy ta'minlanganligi, o‘zi yashab turgan oilaning ijtimoiy muhitiga mos kelishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, yigitlar ko‘pincha tanlangan kasbi ularning qiziqishlari va moyilliklariga, oilaviy an'analarga ham mos kelishi muhimdir.

M.V.Gamezo, E.A.Petrova, L.M.Orlovaning ta’kidlashicha, talabalarning o‘qitish motivlari bevosita kasbiy tayyorgarlik sifati shakllanishiga ta’sir qiladi. Mualliflarning ba’zilariga mazmunli tavsif beradilar: shaxsiy obro‘- e’tibor motivi, mavqeni saqlash va ko‘tarish motivi, o‘zini o‘zi anglash motivi, o‘zini o‘zi anglash motivi, tasdiqlash, moddiy motivlar va boshqalar [11].

Xulosa. Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalari o‘quv motivatsiyasi bo‘yicha nazariy va amaliy o‘rganishlar asosida hamda mutaxassislarning ta’riflariga asoslanib talabalarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

Talabalar institutga nima uchun va nima sabab kirganliklarini imkon qadar erta tushunishlari, ushbu harakatning muhimligini anglab etishlari va yanada muvaffaqiyatli o‘qishga harakat qilishlari uchun ularning o‘quv faoliyatida pragmatik va rag’batlantiruvchi motivlarning ahamiyatini baholash zarur.

Institutda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor berish muhim bo‘ladi:

a) talabalar bilan ishlash (talabalarga kerakli mutaxassislar haqida ma'lumot berish, kasbiy yo‘nalishni shakllantirish, ta'lim faoliyati uchun muhim motivlarni va o‘qishga ongli qiziqishni shakllantirish, ijtimoiy va kasbiy mavqeini aniqlashga yordam berish va boshqalar);

b) o‘qituvchilar bilan ishlashning ijtimoiy - pedagogik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ijtimoiy-pedagogik yordam berish, o‘quv jarayonini tashkil etishda uslubiy yordam berish va boshqalar;

c) ota-onalar bilan ishlash (ularga farzandlari o‘qishlarida qanday yordam berishni o‘rgatish va boshqalar.

3. Tibbiy yonalish maskanlarining yetakchi mutaxassislari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari tomonidan elektiv kurslarni joriy etish;

4. Turli treninglar, tanlovlar, loyihalar va boshqalarni tashkil etish va o‘tkazish;

5. Fan va kompleks olimpiadalarni tashkil etish, unda turli mutaxassislik va kurs talabalari imkon qadar ko‘proq jalb etilish maqsadlidir.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirishda talabalarning ta’lim motivatsiyasini oshirishdagi qiyinchiliklar va muammolar to‘g'risida o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlar dolzarb bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 –sonli Qarori //http://lex.uz.
2. Karimova V.M., Akramova F.A. va boshqalar. Psixologiya. Darslik. - T.: TDIU, 2012. - 387 b.
3. Рахимов Б.А. Психология фанида талабалар касбий мотивациясини ўрганишга қаратилган тадқиқотлар таҳлили // “Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий семинари материаллари. Тошкент-2020. 84-85 б.
4. Башмаков О.А., Петросов С.Н., Гурдус В.О., Соловьев В.В. Профессиональная деятельность современного врача: ее особенности и мотивация // Вестник Всероссийского общества специалистов по медикосоциальной экспертизе, реабилитации и реабилитационной индустрии. – 2014. – № 2. – С. 90-94.
5. Долганов Д.Н., Законнова Л.И., Седовских М.Е. Мотивационная готовность и отношение студентов технического ВУЗа к осуществлению научно-иссследовательской деятельности // Вестник Кузбасского государственного технического университета. – 2015. – № 3(109). – С.172-181.
6. Черных А.В., Косянчук Н.М. Динамика учебно-профессиональной мотивации студентов-медиков // Педагогическое мастерство и педагогические технологии. – 2015. – № 3 (5). – С. 123-125.
7. https://oliygoh.uz/post/tibbiyot-sohasidagi-oliy-talim-muassasalari
8. Ковалевская А. В. Влияние учебной мотивации на успеваемость подростков // Научно-методический электронный журнал «Кон-цепт». – 2015. – № S1. – С. 126–130. – URL: http://e-koncept.ru/2015/75026.htm.
9. Соловьев В.Н. Влияние адаптации и мотивации учебной деятельности на успеваемость студентов // Фундаментальные исследования. – 2004. – № 5. – С. 81-83.
10. Луцкова Л.Н., Русина Н.А. Исследование факторов, влияющих на учебную мотивацию студентов медицинского вуза // Медицинская психология в России: электрон. науч. журн. – 2012. – № 1. URL: http://medpsy.ru (дата обращения: 12.07.2018).
11. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. М., 1988.
12. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2002.
13. Маркова А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. М.: Просвещение, 1990.
14. Патяева Е.Ю. Мотивация учения: заданное, стихийное и самоопределяемое учение. Современная психология мотивации/ под ред Д.А. Леонтьева. М.: Смысл, 2002. 343 с. С.289-314.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:364.3(575.1)

Irodaxon BADALBAYEVA,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining “Gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: egamberdiyevoybek60@gmail.com

Pedagogika va iqtisodiyot institutining “O‘zbek tili va pedagogika” kafedrasi dotsenti B.Yarkinova taqrizi asosida

THE CONCEPT OF GENEROSITY AND ITS PHILOSOPHICAL CONTENT

Annotation
This article discusses the concept of generosity and its philosophical meaning, the role of generosity in the development of man, society and the state, the history of our people, setting noble goals, relying on their own strengths and capabilities, and experiencing difficult and trial days together, and their essence.
Key words: Generosity, fortitude, consequence, fidelity, solidarity, new Uzbekistan, Uzbek virtue, national interest, morality, human perfection, tradition, charity, need, generosity, kindness, humanism, kindness.

КОНЦЕПЦИЯ ЩЕДРОСТИ И ЕЕ ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ

Аннотация
В данной статье рассматривается понятие великодушия и его философский смысл, роль великодушия в развитии человека, общества и государства, история нашего народа, ставящего благородные цели, опирающегося на собственные силы и возможности, и переживающего трудные и пробные дни вместе, и их суть.
Ключевые слова: Великодушие, стойкость, следствие, верность, солидарность, новый Узбекистан, узбекская добродетель, национальный интерес, нравственность, человеческое совершенство, традиция, благотворительность, нужда, великодушие, добро, гуманизм, доброта.

SAHOVAT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY MAZMUNI

Annotatsiya
Mazkur maqolada sahovat tushunchasi va uninng falsafiy mazmun mohiyati hamda inson, jamiyat, davlat rivojida sahovatning o‘rni, xalqimizning o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘yib, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og‘ir va sinovli kunlarda ham hamjihatlik bilan o‘tib borish tarixi, ularning mohiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: Sahovat, matonat, oqibat, sadoqat, hamjihatlik, yangi O‘zbekiston, o‘zbekona fazilat, milliy manfaat, ahloq, inson kamoloti, an’ana, xayr-ehson, muhtojlik, saxiylik, ezgulik, insonparvarlik, muruvvat.

Kirish. Bugun tarixiy davrning yangi bosqichi-xalqimizning o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘yib, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og‘ir va sinovli kunlarda ham-hamjihatlik bilan taraqqiyot sari odimlab borayotgan pallada yashamoqdamiz. Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki quruq gap emas yoki bir subyektiv xodisa ham emas, chuqur tarixiy merosga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, halqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Tarixdan ma’lumki, xalqimiz ko‘p sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tgan. Ota-bobolarimiz azaldan og‘ir kunlarda ahil va hamjihat bo‘lgan. Har bir qarori, harakatida ajdodlarimiz tomonidan meros bo‘lib qoldirilgan mo‘tabar manbalar, sog‘lom aqlga tayanib ish qilganlar.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqyealar va sinovli kunlarni halqimizga xos va munosib tarzda yengib o‘tishda Prezidentimizning har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari, halqimiz o‘rtasidagi mehr-oqibat, oliyhimmatlik muhiti muhim omil bo‘lmoqda. Qalbida imon-e’tiqodi mustahkam halqimizning naqadar saxovatli ekanligiga tarix guvohdir.

O‘zbek xalqi ongiga bu an’analar azal-azaldan singdirilgan bo‘lib, xayru-sahovat, muxtojlar va yetimlarga yaxshilik qilish, kechirimlilik, yaxshi qo‘shnichilik, bemorlarni ziyorat qilish, ilm olishga harakat qilish va yoshlarni ilm olishga chorlash, jamiyatda tinchlik-xotirjamlikni ta’minlashda faol bo‘lish har bir vaqtda amalga oshirilib kelinmoqda.

“Muruvvatga mushtoq ko‘ngillarni ziyorat qilish - bir yaxshilik. “Savob ishni har kim, har kuni qilishi lozim” – degan naql ostida o‘zgalarga yaxshilik ulashgan har bir insonda haqiqiy insoniylik sifat namoyon bo‘lib boradi”. Xayr-sahovat, mehr-oqibat, siylai-rahm kabi ulug‘ fazilatlar doimo o‘z sohibiga ziynat bo‘lib kelgan. Bunday oliyjanob xislatlarni o‘zida mujassam eta olgan insongina el-yurtning og‘irini yengil qila oladigan fazilatli shaxs hisoblanadi. Yetim-yesir, beva-bechora, nogironlar, musofirlarga muruvvat ko‘rsatish, sidqidildan beg‘araz yordam berish kabi fazilatlar qon-qonimizga singib ketgan. Ulamolar aytganidek, aqlning qadri odob bilan oshadi, boylik qadri – sahovat bilan. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, demakki, do‘stlarning ko‘payishiga imkon yaratuvchi xususiyat bo‘lib, inson uchun sahovatdan yaxshiroq va azizroq yoqimli sifat yo‘q.

Xayr-ehsonning yaxshisi bu qiyinchilik va muhtojlik vaqtda qilinganidir. Birgina ko‘z zngimizda bo‘lib o‘tgan 2019-2020 yillarda butun dunyoga katta tashvish va muammo bo‘lib turgan koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash bo‘yicha davlatimiz rahbarining bevosita boshchiligida tizimli ishlar amalga oshirildi. Hukumatimiz tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rildi. O‘z navbatida, yurtimiz aholisi tomonidan ham ushbu xastalikni insoniyat boshidan aritish yo‘lida birdamlik, ahil-inoqlik namunalari ko‘rsatildi bundan tashqari, yurtimizda sodir bo‘lgan birgina “Sardoba” suv omborining o‘pirilish fojeasini eslasak, bizni halqimiz ana shunday xayr-sahovat, yaxshilik va ehson qilguvchi ekanligi

bizni quvontiradi. Ana shunday jahon miqyosida keng tarqalib, global muammoga aylangan pandemiya davrida, shuningdek, turli tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar tufayli el-yurtimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashda, ularning oqibatlarini bartaraf etishda mardliy va jasorat namunasini ko‘rsatgan, milliy qadriyat va an’analarimizni munosib davom ettirib, mehr-oqibat, sahovat, himmat va oliyjanoblik fazilatlarini ulug‘lab kelayotgan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-kuvvatlash va ularga beminnat ko‘mak berish borasidagi ishlarni umumhalq harakati darajasiga ko‘tarishga katta xissa qo‘shgan, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, birlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda faol ishtirok etib, beg‘araz homiylik yordami hamda ezgu ishlari bilan ko‘pchilikka alohida o‘rnak bo‘lgan yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehr-sahovat” ko‘krak nishoni ta’sis etilishi, bu boradagi islohotlarning davlat darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

“Agar yaxshilik qilgan insonga yaxshilik qilinsa, bu-vafodorlik, Agar yaxshilik qilmagan kishiga yaxshilik qilinsa, bu-sahovatdir. Agar yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qilinsa bu-ayni musulmonchilikdir” xikmat zamirida ham ulkan ma’no mujassam.

Zaxmatkash halqimiz sahovatli inson boy bo‘lsa ham, kambag‘al bo‘lsa ham sahovat qilishga oshiqadi. Shu bilan birga menga yaxshilik qilgani uchun yaxshilik qilaman deb kutib turmaydi. Jamiyatdagi har bir insonga nisbatan hamisha yordamga tayyor bo‘ladi. Shuning uchun, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, ezgulik, xayr-sahovat va shukronalik tuyg‘ulari xalqimizning ma’naviy hayoti, milliy qadriyat va an’analarimizning ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Yetim-yesir, beva-bechora, nogironlar, musofirlarga muruvvat ko‘rsatish, sidqidildan beg‘araz yordam berish kabi fazilatlar qon-qonimizga singib ketgan. Ulamolar aytdagidek, aqlning qadri odob bilan oshadi, boylik qadri – saxovat bilan. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, demakki, do‘stlarning ko‘payishiga imkon yaratuvchi xususiyat bo‘lib, inson uchun saxovatdan yaxshiroq va azizroq sifat yo‘q.

Donishmand xalqimiz “sahovat” tushunchasi to‘g‘risida juda ko‘p hikmatli iboralarni ishlatganlar. Jumladan,

- Sahovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir;

- Sahovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to‘lqinli dengizning bebaho gavharidir. Sahovatsiz odam yong‘insiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushk-anbarga o‘xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u , o‘tin ham bir; yong‘insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir.

- Sahovatsiz odamdan ichida gavhari bo‘lmagan sadafning farqi yo‘q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog‘ining farqi yo‘q…

- Sahiy bulutdir, xirmon-xirmon don xosili, balki xazina beradi;

- Himmat ahlining ixtirosi saxovatdir; bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir.

- Odam bir badan bo‘lsa, saxovat uning jonidir; saxovatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi.

- Sahovatsiz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hyech kim tirik demas kabi iboralaridan ulkan falsafiy g‘oyalar mujassam.

Shuningdek, O‘rta Osiyoda sahovatli, qo‘li ochiq kishilarga nisbatan “hotamtoy” iborasi ishlatiladi. Har bir so‘zning o‘ziga yarasha falsafiy negizi va tarixi bo‘lganidek, bu atama ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Muruvvatpeshaligi bilan shuhrat qozongan Hotami Toyidan qolgan bu nom bora-bora sahovatpesha insonlarga nisbatan ishlatiladigan iboraga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turli afsonalar va falsafiy ma’no mujassam mazkur ibora manbalarda Abu Safona Hotam ibn Abdulloh binni Sa’d bo‘lgan tarixiy shaxs bilan bog‘liq bo‘lib, milodiy VI-VII asrlarda yashab o‘tgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bizgacha uning she’rlari ham yetib kelgan.

Sharq falsafasida Hotam saxiylikning eng oliy timsoli sanaladi. Sharqning ko‘plab mutafakkirlari Hotam nomini xurmat bilan tilga oladi. Hatto Alisher Navoiy ham o‘zining “Hayrat ul abror” dostonida ham u haqida ibratli hikoyalar keltiradi. “Emishki, Hotamdan o‘zingizdan ko‘ra himmati baland odamni ko‘rganmisiz?” deb so‘rashganida u bir o‘tinchi cholni aytadi. “Bir paytlar butun sahro ahlini chaqirib katta ziyofat bergandim. Yuzta tuya, minglab qo‘y-qo‘zilarni so‘yib, qozonlar osildi, avji ziyofat paytida ko‘nglim tanholikni tusab, sahroga chiqdim. Qarasam bir chol beli bukilib, o‘tin orqalab ketyabdi. Ey, benavo, Hotam butun sahro ahlini chorlab katta bazm berayotir, sen ham yelkangdagi tikanni tashla, borib, kayf-safo qilsang-chi? Shunda chol menga qarab, ey ta’magir inson, sen mehnat bilan topilgan non lazzatini bilmaysan. Mashaqqat chekib topilgan bir-ikki biram pul, Hotam bergan xazinadan ham ko‘ra a’loroqdir dedi. Uning hikmati menikidan ko‘ra yuqori edi”.

Rivoyatlarga ko‘ra, u umrini odamlarga yaxshilik qilishga bag‘ishlaydi. Bugun boyligini xayr-ehson yo‘lida xarjlasa-da, uning davlati borgan sari ortib boravergan. Aytishlaricha, uning qasrida yetmish ikki darvoza bo‘lib, xajattalab kishi ularning barchasiga birma-bir kirib o‘tsa-da, hyech biridan qupuq chiqmas ekan. Hotam dunyodan o‘tgach, uning o‘rnini egiz birodari egallamoqchi bo‘ladi. Onasi unga e’tiroz bildiradi.

Bugungi tinch va osuda hayotimizning qadriga yetish kabi insoniy fazilatlarni mustahkamlash, odamlarni bir-biriga yaxshilik qilishga, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilguvchilar ham sahovatli insonlardir.

Jumladan, XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor Rossiyasining siyosiy vakillar tazyiqi bilan mahalliy xonliklar va amirlik hokimiyati cheklanish bilan birga, o‘rus va ovrupa sarmoyador vakillarining mahalliy hudud imkoniyatlaridan foydalanishga sharoit yaratildi. Bunday munosabat mahalliy halq talab va ehtiyojlarining cheklanishiga, udum va an’analarning, tarixiy e’tiqod va diniy dunyoqarashning toptalishiga hizmat qildi.

Poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj olib, milliy ma’rifat targ‘iboti, madrasa va maktablar faoliyati cheklandi. Ruscha atama va mazmunga ega bo‘lgan yevropacha urf-odatni ifodalagan rasm-rusumlar, shuningdek, din ulamolarini xristianlik ta’limotiga yetaklash kabi jirkanch voqyeiliklar avj oldi. O‘sha davr ijtimoiy muhiti Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamlangan “Xitobnoma” asarida tasvirlab berilgan.

Milliy ozodlik yo‘lida taraqqiyparvarlar xalq vakillari –hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar va ziyolilar avvalambor, chorizmga qarshi kurashni, xalq ongida erk va vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishni — ijtimoiy, siyosiy hamda ma’rifiy jabhalardan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakatining falsafiy g‘oyalari ana shunday ijtimoiy-tarixiy sharoitda Turkiston o‘lkasida iqtisodiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyot uchun qulay muhitni vujudga keltirdi.

Jadidchilikning harakatining asosiy maqsadi Turkiston o‘lkasini o‘rta asrdagi feodalizm sarqitganga xos bo‘lgan qoloqlik va diniy aqidaparastlikdan ozod qilish, shariat qoidalarini tubdan isloh etish, xalqni ma’rifatli qilib ularni zamonaviy bilimlar egasi qilish, Turkiston Muhtoriyati, Buxoro va Xivada konstitusiyaga asoslangan demokratik respublika davlat boshqaruvini o‘rnatib, erkin jamiyat barpo

etish, barqaror milliy pul birligini joriy etish yo‘lida aziz jonlarini fido etdilar.

“Har bir millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va xavoiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasiga bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar. Hukumatni o‘rta va oliy maktablariga o‘qiydurg‘on o‘z millat bolalariga ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablariga berub, o‘z xarajatlari ila o‘qitadurlar”.

Bundan tashqari, zahmatkash halqimizning naqadar hayr-sahovatli ekanligi insoniyat boshiga og‘ir musibat keltirgan tarixiy davrlarda ham o‘z isbotini topgan. Ikkinchi Jahon urushi davrlarida ham jasorat hamda matonat ko‘rsatgan ota-bobolarimiz qahramonliklarini hyech qachon unutmaymiz.

Fashistlar hamda yapon militaristlarini tor-mor etishda molini, ham jonini ham tikib, topgan bitta nonini ham to‘rtga bo‘lib, bir burdasini o‘ziga, qolganini bevosita frontga, so‘ng yurtimizga ko‘chirib keltirilganlarga, jangga ketganlarning oilalariga, harbiy gospitallarga, fashistlardan ozod qilingan hududlarning och-nohor aholisi bilan baham ko‘rgani, jonajon farzandlarini Vatan ozodligi yo‘lida boy berganiga tarix guvohdir. Shuningdek, o‘zbek halqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko‘chirib keltirilgan o‘n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik ko‘rsatib, jang bo‘layotgan hududlardan ko‘chirilgan bir million shaxslarga boshpana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta’minlashi, minglab yetim bolalarni o‘zbek oilalari o‘z qaramog‘iga olishlari, farzandlaridan kam ko‘rmay tarbiyalashi yuksak saxovat na’munasidir.

Ikkinchi Jahon urushi davrida insonparvarlikning yuksak na’munasi sifatida turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka olib, ta’lim-tarbiya bergan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova katta jasorati va qahramonligini tarix hyech qachon unutmaydi. Ular boshpanasiz qolgan, turli millat vakillari bo‘lgan 14 bola va urushdan so‘ng yana 3 bolani o‘z tarbiyalariga olishgan. Ular sharafiga poytaxtimizning markazida majmua qayta tiklandi. Bu esa Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “... bag‘rikenglik va hamjihatlik, sahovat va oliyjanoblik fazilatlarining yorqin namunasi bo‘lib qoladi”.

Shafqatsiz urush tufayli o‘zining navqiron 5 o‘g‘lidan ayrilgan Zulfiya Zokirovaning hayotini olaylik, “Yovuz urush tufayli ayaning to‘rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo‘lib qoldi. Uning o‘zi esa bir umr motamda yashadi. Ammo hyech qachon umidsizlikka tushmadi, o‘g‘illarining so‘nmas xotirasi, yorug‘ kunlar yodi bilan, kelinlari, nabiralarining hayoti, orzu-umidlari bilan yashadi.”

Urush yillari alp qomat besh o‘g‘lidan birin-ketin ayrilgan ona oydin kechalari tinimsiz mehnat qilib, kechalari dalalarga bug‘doy o‘rgani chiqishadi. Chunki, texnika yo‘q, erkaklar frontga ketgan, qo‘l mehnati ustun edi. Bechora ayollar ertasiga o‘rilgan g‘aramlarni yanchib don qilishadi. Keyin qoplarga joylab, frontga jo‘natishadi. Bir siqim bo‘lsada g‘allani olib qolishni o‘ylamagan sahovatpesha insonlar g‘alladan bo‘shagan yerlarga sabzi, piyoz, karam, kartoshka, oshqovoq ekishadi. Hosil yetilgach Zulfiya aya boshchiligidagi ayollar meva-sabzavotlarni yuvib, tozalab, to‘g‘rashadi. Paxta sushilkalarida quritib, maxsus qoplarga solishadi. Keyin ot aravalarga yuklab vokzalga olib borishar, vagonga ortishib frontga jo‘natishadi. Besh o‘g‘ildan ayrilgan bo‘sh qolgan bag‘ir umrining oxirigacha joynamoz ustida shahid ketgan o‘g‘illari haqqiga duo qilib o‘tadi.

Matonatli o‘zbek ayolining Vatan himoyasi, uning kelajagi yo‘lida farzandlaridan judo bo‘lgani, sabr-bardoshi mamlakatimizdagi har bir oila uchun katta ibrat maktabidir.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan “G’alaba bog‘i”da Zulfiya Zokirova timsolida o‘zbek onalarining sabr bardoshi, matonati, mujassam bo‘lgan “Matonat madhiyasi” yodgorlik majmuasi o‘rnatildi.

“O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga asosan “Ezgu film” kinostudiyasi tomonidan “Ilhaq” badiiy filmi tasvirga olindi. Bu o‘zbek onasi barchamizga matonat, iroda va sahovat timsoli bo‘lib qolajak.

Bu esa Prezidentmiz ta’biri bilan aytganda, “…o‘zbek ayolining, o‘zbek halqining haqiqiy jasorati va matonati! Mana, sevgi va sadoqat madhiyasi, uning yengilmas kuch qudrati! Mana yoshlarimiz, farzandlarimiz kimdan namuna va o‘rnak olishlari kerak!”.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehr-sahovat” ko‘krak nishoni ta’sis etish to‘g‘risidagi farmoni. PF-5999-son. 2020 y. 26 may.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”. 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T., “O‘qituvchi” 2021 yil.
4. Alisher Navoiy “Hayrat ul abror” II qism.
5. Mahmudxo‘da Behbudiy “Odob ahloq kitobi”. “Yangi asr avlodi”
6. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. T., “O‘zbekiston” II tom. 2018 yil 1999 y
7. Mirziyoyev Sh. 9-may “Xotira va Qadrlash kuni” dagi nutqidan. 2019 yil 9 may
8. Mirziyoyev Sh. Ikkinchi Jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 75 yilligiga bag‘ishlangan “Xotira va Qadrlash kuni”dagi so‘zlagan nutqidan. 2019 yil 9 may
9. Muhammal Ali Eshon “Xitobnoma” tanlangan asarlari “Yangi asr avlodi” 1999 y.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:-37.01.B.81

Рано БОЙКУЗИЕВА,
Фар П.И. - преподаватель кафедры «Общественные науки и спорт».
E-mail: ranoboykuziyeva@gmail.com

П.ф.д., по рецензии Н. Темирова

КУЛЬТУРНО-ДУХОВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ЭНЦИКЛОПЕДИЙ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье раскрываются возможности культурно-педагогического наследия мыслителей Восточного Ренессанса в познавательной деятельности студентов. Анализируются и показаны методы формирования познавательной активности как важной компетенции современного специалиста.

Ключевые слова: Национальные культурные ценности, педагогические взгляды, мыслители Востока, вузовская практика, познавательная активность, компоненты, функции, комплекс, мотивация, портфолио.

O‘RTA OSIYO ENSIKLOPEDISTLARI PEDAGOGIK MEROSINING MADANIY-MA’NAVIY POTENSIALI O‘QUVCHILAR KOGNITIV FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining madaniy-pedagogik merosining o‘quvchilarning bilish faoliyatidagi imkoniyatlari ochib berilgan. Zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyasi sifatida kognitiv faoliyatni shakllantirish usullari tahlil qilinadi va ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniy qadriyatlar, pedagogik qarashlar, Sharq mutafakkirlari, universitet amaliyoti, bilish faoliyati, tarkibiy qismlar, funktsiyalar, kompleks, motivatsiya, portfolio.

Введение. В настоящее время получение образования, профессиональных навыков в системе образования Узбекистана тесно связывается с необходимостью воспитания специалистов на основе национального культурного наследия в целях формирования всесторонне развитой личности гражданина - знающего, понимающего ценность современных и исторически сложившихся и созданных национальных ценностей в виде культурных объектов, ритуалов, этических правил и особенностей межличностной коммуникации.

В Указе Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан на период до 2030 года» от 8 октября 2019 года № УП-5847, Постановлении Президента Республики Узбекистан, № ПП-4307 о дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы от 03.05.2019 г. , Законе Республики Узбекистан « Об образовании» ЗРУ-637 от23.09.2020. указывается на необходимость дальнейшего развития деятельности по укреплению духовно-нравственного содержания, патриотического воспитания молодежи на основе уважения национальных ценностей, гуманизма и высоких духовных идей, формирования иммунитета молодежи к чуждым идеям и идеологиям в высшем образовании [1,2,3].

Особое значение имеет использование в учебно-образовательном процессе произведения идей, учений и педагогических взглядов мыслителей средневекового Востока, которые не только способствуют формированию национального самосознания, но и являются наглядным примером обогащения педагогической практики современного образования. Педагогические взгляды великих энциклопедистов актуальны по настоящее время, так как не только наполняются новым современным содержанием, но и являются важнейшим компонентом национального культурного наследия. В трудах Фараби, Бируни, Ибн Сины, Алишера Навои заложены основы ведущих принципов образования и воспитания личности – гуманизм, гармоничное развитие, формирование богатого внутреннего мира обучающихся, вовлечение в трудовую деятельность, субъект-субъектные отношения между учителем и учениками, индивидуальный подход, постоянный поиск и обновление эффективных приемов и методов обучения и др.[4,6].

Таблица 1

Основные педагогические идеи мыслителей Востока

ФАРАБИ	БИРУНИ	ИБН СИНА	АЛИШЕР НАВОИ
Нравственное воспитание и развитие, сотрудничество обучающего и обучающегося	Построение обучения на принципах наглядности, системности, формирование познавательных интересов и познавательной активности	Педагогические идеи в трудах, «Книга исцеления», «Книга о душе», «Книга знаний». Идея всестороннего воспитания и развития через приобщение к научным знаниям и нравственным ценностям	Гуманизм в обучении и воспитании, коллективный, коммуникативный характер обучения, диалогичность общения между учителем и учеником

Более подробное рассмотрение педагогических идей Абу Али ибн Сины показывает, что особое значение мыслитель придавал интеллектуальному развитию, подготовке детей и подростков к жизни. Обязательной составляющей воспитания и образования он считал введение учеников в мир поэзии, музыки, философии. Он предполагал, что приемы коллективного обучения, формирование разноуровневых групп создают ситуации здорового соперничества и творчества и дают хорошие результаты.

Целью воспитания и обучения мыслитель считал подготовку детей к жизни, получению ими профессии, которая должна начинаться как можно раньше – после овладения подростками чтения и письма ему можно поручать несложные операции – работу с документами, систематизацию информации и деловых бумаг и.т.д. Прохождение этого этапа облегчит вхождение молодого человека в конкретную профессию, создание материальной базы своего существования [5,7].

Все ученые-энциклопедисты достигли высот познания не только благодаря таланту, но и путем неустанного, титанического труда, самостоятельной упорной работы ученого-исследователя. Все они являются ярким примером целеустремленности, воли и активной позиции в познании окружающего мира. Всестороннее проявление познавательной активности обучающихся является сегодня одним из важнейших направлений подготовки специалистов в вузе.

В педагогической науке, школьной и вузовской практике процесс формирования познавательной активности исследовался в основном применительно к преподаванию конкретных предметов – преимущественно точных и естественных наук.

Между тем, национальное культурное наследие, отличающееся особым богатством и разнообразием в историческом, художественно-эстетическом, жанровом, социально-традиционном, ритуальном, этически-воспитательном смысле может играть значительную роль в формировании познавательной активности в силу следующих причин:

- обладает большим познавательным потенциалом, так как охватывает массу культурных понятий и объектов, дает возможность проследить развитие научной, эстетической, культурно-исторической мысли на протяжении многовековой истории Узбекистана и понять ее значение для настоящего времени;

- требует больших интеллектуальных усилий, развитие способности глубоко проникать в содержание и духовный смысл изучаемых предметов, фактов, событий, явлений, ситуаций, обстоятельств;

- тесно связано с повседневной жизнью студентов – семейным укладом, обычаями и традициями, архитектурными сооружениями, памятниками, музейными историческими, художественными, научно-познавательными экспонатами, с которыми они сталкиваются в местах проживания или в ходе целенаправленного посещения культурных объектов.

Генеральной целью всех этапов развития познавательной активности обучающихся выступает развитость всех ее структурных компонентов.

Однако изучение автором научной литературы [8,9] и собственный опыт привел нас к выводу о существовании и необходимости понимания и учета двусторонности (преподаватель-студент) процесса формирования познавательной активности студентов (табл.2).

Таблица 2

Функции преподавателя и студентов в процессе формирования познавательной активности

РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	РОЛЬ СТУДЕНТА
Управление процессом познавательной активности	Развитие и совершенствование познавательной активности
Внешнее управление процессом	Самоуправление процессом познавательной активности
Личностно-ориентированные технологии обучения	Актуализация собственного опыта, рефлексия
Постановка репродуктивных и репродуктивно-творческих задач	Переход к творческому решению познавательных задач
Инструкции, педагогическая поддержка	Самоорганизация, рефлексия, самоконтроль

Поэтому технологии развития познавательной активности студентов предполагают применений целого комплекса форм, методов, средств, этапов и уровней рассматриваемого процесса, инициирующих активность студентов в обучении. К ним относятся:

- вовлечение студентов в учебные ситуации:

- нестандартные познавательные задачи;

- выявление и актуализация личностных качеств студентов, способствующих развитию познавательной активности (четкое осознание своих целей и интересов, наличие навыков работы и отбора качественной информации, преодоление пробелов в знаниях);

- участие студентов в поисковых играх, проблемных проектах, эвристических беседах, дискуссиях и т. д.;

- развитие и поощрение процессов рефлексии, контроля и самоконтроля студентов.

Основной задачей первоначального этапа работы со студентами является формирование мотивационных установок, стимулирующих активное личностное отношение к содержанию занятий. Для этого необходимо активизировать рефлексивно-личностный опыт, который имеется у каждого обучающегося. Решающим моментом на данном этапе выступает:

- «переведение» этого опыта из жизненного в профессионально-ориентированный, формирование устойчивой потребности использования последнего;

- установки на самоактуализацию студентов в процессе познавательной деятельности.

Данные требования могут быть реализованы путем составления студентами удобной и результативной формы - портфолио, которое позволяет решать целый спектр педагогических задач:

1) развивать навыки самооценки, самокритики, перспективного планирования устранения недостатков и совершенствования самообразовательных умений ;

2) иметь возможность и студентам, и преподавателям наблюдать и контролировать процесс развития познавательной активности, вносить необходимые коррективы и увеличивать возможности обучающе- самообразовательной деятельности;

3) дополнять учебный процесс новыми элементами мотивации на основе изучения данных портфолио (особенности личности студента, аксиологические и акмеологические аспекты его образовательной программы, индивидуальные методы самостоятельной познавательной деятельности);

4) измерять и давать конкретную оценку образовательным результатам, определять степень проявления познавательной активности;

5) определять динамику познавательной активности в учебной деятельности;

6) устранять трудности и в усвоении учебного материала;

7) руководить метапознавательной, межпредметной деятельностью студентов;

8)дополнять традиционное преподавание.

Оценивание реальных достижений учащихся с последующим нахождением (самостоятельно или с преподавателем) более рациональных активно-познавательных способов действий способствуют развитию самостоятельности в учебной и профориентационной профессиональной деятельности, формированию культуры учения и мышления, умений аналитически подходить к проблеме, обобщать, классифицировать и систематизировать. Успехи в учебной деятельности стимулируют и мотивируют

студентов к дальнейшему совершенствованию познавательной деятельности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан на период до 2030 года» от 8 октября 2019 года № УП-5847
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, № ПП-4307 дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы от 03.05.2019 г.
3. Закон Республики Узбекистан « Об образовании» ЗРУ-637 от23.09.2020.
4. Абдунабиев А.Г. Вклад в мировую цивилизацию (из истории зарождения, становления и развития материальных и духовных культур в Узбекистане). – Ташкент: Ўзбекистон, 1998.
5. Ибн Сино. Избранные философские произведения. – М., 1980.
6. Насиров К.Ж. Идеи мыслителей Средней Азии ИХ-Х веков о нравственном воспитании (на примере произведений ал-Бухари и ал-Фараби): Автореф. дис. … канд. пед. наук. – Ташкент, 2000.- 24 с.
7. Эшонкулов Ш.У., Номозов О.Э. Роль восточных мыслителей в современном образовании\\ Жоурнал оф Инноватион ин Примарй Эдусатион. Вол. 2, Жуне – 2021. С. 31-38.
8. Аликариева А. Н., Социальные проблемы активизации познавательной деятельности студенческой молодежи\\ бюллетень науки и практики. 2019. №.9.
9. Умаржонова Г. М. Формирование познавательной активности студентов во внеаудиторной работе / Г. М. Умаржонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 21 (207). — С. 492-495.
10. Хайдаров М. У. Пути повышения активности студентов в учебном процессе \\Проблемы педагогики. 2021. № 1 (52). С.35-36.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 37.026

Sayyora BOYNAZAROVA,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: sboynazarova@123gmail.com

TerDUning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD M.Djumayeva taqrizi asosida

EDUCATIONAL PARADIGMS - AS A METHODOLOGICAL DETERMINING FACTOR OF TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation

In this article, the situation in the education system today, the ideas from the concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "Preschool, general secondary, special secondary, "Measures to improve the procedure for the certification of teaching staff of professional and non-school educational organizations" contains opinions and comments about the aspects of the tasks specified for the teaching profession, as well as a number of forms of education.

Key words: Knowledge, education, competence, competence, educational paradigms, dual education.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПАРАДИГМЫ - КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация

В данной статье ситуатsiя в системе образования на сегодняшний день, идеи из концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года Кабинета Министров Республики Узбекистан «Дошкольное, общее среднее, среднее специальное , «Мероприятия по совершенствованию порядка аттестатsii педагогических кадров профессиональных и внешкольных образовательных организатsiй» содержит мнения и комментарии по аспектам задач, предусмотренных для педагогической профессии, а также ряду форм обучения.

Ключевые слова: Знание, образование, компетенция, компетенция, образовательные парадигмы, дуальное образование

TA’LIM PARADIGMALARI – O‘QITUVChI KASBIY KOMPETENTLILIGINI METODOLOGIK BELGILOVChI FAKTOR SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim tizimidagi holatlar, O‘zbekiston Respublikasining Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidan keltirilgan fikrlar, O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarni atestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorda belgilangan vazifalarni o‘qituvchi kasbi uchun keltirilgan jihatlari, hamda ta’limning bir qator shakllari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bilim, ta’lim, kompetentlik, kompetensiya, ta’lim paradigmalari, dual ta’lim.

Kirish. Yangi taraqqiyot yo‘lida rivojlana borayotgan jamiyatda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga intilish, intellektual imkoniyatlarini kengaytirish kabi ijtimoiy ehtiyojlarining aniq bilimlarni o‘zlashtirish va ko‘nikmalar orttirish singari ehtiyojlardan ko‘ra ahamiyatliroq bo‘la borayotganligini ko‘rish mumkin. Keyingi 30 yil ichidagi jamiyatdagi ta’limiy ehtiyojni o‘rganish asnosida shuni kuzatish mumkinki, dastlabki o‘n yilda – “Nimani qay darajada o‘rganish”, navbatdagi o‘n yilda – “Nimani qanday o‘rganish” tartibi asosida o‘quv jarayonlari tashkil etilgan bo‘lsa, oxirgi o‘n yilda “Nimani qayday maqsadda o‘rganish lozim”lik masalasi ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda [5]. Ya’ni an’anaviy ta’limda “bilim” faktoriga ko‘proq e’tibor berilgan bo‘lsa, ta’lim tizimiga yangi texnologiyalar joriy etila boshlangan, binobarin, o‘qitish metodlarini yangilash va metodikani takomillashtirishga qaratilgan istiqlolning dastlabki yillarida “bilim olish, mahorat oshirish, ko‘nikmalarni shakllantirish usullari”ga ko‘proq urg‘u berildi.

Tahlil va natijalar. Keyingi besh yil davomida esa bilim olish usullarini takomillashtirish barobarida maqsad faktori ustivorlik kasb etdi. Mazkur fikrlarni yuqoridagi manba [5, 69-b] bilan bir qatorda muallifning shaxsiy tajribasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinganlik zarurati bilan ham asoslash mumkin. Xalq ta’limiga bo‘lgan talablarning mazmunan yangilanganligini yaqqol namoyon etuvchi eng asosiy omil shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosatida amal qilinadigan tamoyillar soni 1997 yili qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda 9 ta punktdan iborat etib ko‘rsatilgan bo‘lsa [1], 2020 yil qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda mazkur tamoyillarni 16 ta punktdan iborat [1] etib belgilash zarurati paydo bo‘ldi.

Shuningdek, keyingi 5 yil ichida respublikamiz milliy ta’lim tizimida ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish, inklyuziv ta’lim, eksternat tartibidagi ta’lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash kabi ta’lim shakllarining joriy etilishi [1] jamiyatda ta’lim tizimiga nisbatan yangilanayotgan talabga mutanosib ravishda ta’lim paradigmalari tub yangilanishlarga yuz tutayotganidan guvohlik beradi. Bu voqeliklar esa o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini tubdan o‘zgartirish, kasbiy mahorat turlarini oshirish, umumiy tarzda esa kasbiy kompetentlilik va kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Biroq mamlakatimiz ta’lim tizimidagi mavjud holat ta’limga bo‘lgan ijtimoiy talablar va joriy yangilanishlar

o‘rtasida uzviylik hamda mutanosiblik zarur darajada emasligini, binobarin, bu sohada bir qator dolzarb muammolar paydo bo‘lganligini ko‘zga tashlanmoqda. Bu muammolar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da o‘z aksini topgan[2]. Biz mazkur hujjatda ko‘rsatib o‘tilgan xalq ta’limi tizimi sub’ektlarini boshqarish sohasiga oid muammolarga emas, pedagog-kadrlarning salohiyati, kompetensiyasi, kasbiy kompetentliligi va umuman, yangi davr o‘qituvchilarining kasbiy sifatlari bilan bog‘liq muammolarni metodika va pedagogika sohasidagi tadqiqotlar doirasida hal etish mumkin deb hisoblaymiz. Ularga, bizning nazarimizda, quyidagilar kiradi:

-pedagog kadrlarni ishga qabul qilishda ularning kasbiy sifatlarini to‘liq o‘rganish va loyiqlik darajasini aniqlash uchun talablar tizimi mavjud emas[2];

-ta’lim muassasasi rahbarlari (direktor va o‘rinbosarlari) pedagog-kadrni ishga qabul qilishda faqat OTMni tugatganligi haqidagi diplom hamda o‘qituvchining ish staji kabi faktorlar bilan cheklanish hollari doimiy andaza ko‘rinishini olgan. Holbuki, zamonaviy o‘qituvchining egallashi lozim bo‘lgan kasbiy sifatlar bu andazalarda o‘z aksini topmaydi;

-o‘qituvchilarga toifalar berish tartibida hamon pedagogning mutaxassisligi bo‘yicha fan hamda ijtimoiy-siyosiy sohalarga oid bilimlari, ta’lim sohasiga oid qonunchiliklardan xabardorlik darajasi, kompyuter savodxonligi kabi omillar ustivor qilmoqda: holbuki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 572-sonli “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog-kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida[3] belgilangan vazifalar o‘qituvchilarga toifa berish tartibiga to‘liq joriy etilmagan (tadqiqotlarimizning keyingi fasllarida mazkur qaror talablariga mufassal to‘xtalamiz);

-o‘qituvchilarning malakasini oshirish muassasalarida tashkil etiladigan jarayonlar zamonaviy ta’lim talablariga, binobarin, o‘qituvchining ehtiyojlariga javob bera olmaydi: xususan, malaka oshirish kurslarida mazmunan eskirgan metodlar va mundarijaviy jihatdan talab darajasida bo‘lmagan vositalarning qo‘llanilishi, zamonaviy ta’lim shakllarini tashkil etish metodikalari keng tatbiq etilmasligi[2];

-o‘qitishning zamonaviy metod va metodikalarini o‘z faoliyatiga tatbiq etgan, yuksak darajada kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar ingliz tilini bilmasligi, kompyuter savodxonligiga ega emasligi sababli attestatsiya talablariga javob bera olmaslik holatlari sodir bo‘lmoqda.

Mazkur muammolar o‘qituvchilarning yangilangan ta’lim paradigmalari sharoitida o‘z faoliyatlarini tashkil etishlari, o‘z kompetentliliklari va kasbiy kompetensiyalarini namoyon qilishlarida qator nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi. Bu hol esa mamlakatimiz xalq ta’limi sohasidagi pedagog-kadrlar faoliyatiga oid yuqorida sanab o‘tilgan muammolar yangilangan ta’lim paradigmalari bilan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlanganligi, ya’ni ta’limga bo‘lgan zamonaviy talablarga javob beradigan kasbiy xususiyatlarga va kompetensiyalarga ega bo‘lganlik darajalari o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rganish etarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan, degan xulosa chiqarishga undaydi.

Yuqoridagi muammolar hamda ularga oid xulosalardan kelib chiqib, quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. O‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan talablar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishlari uchun lozim bo‘lgan eng muhim kasbiy sifatlarining mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan variativ majmuasi ishlab chiqilishi zarur va mazkur majmuaga:

-o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan uzluksiz rivojlantirish sohasida amalga oshirgan ishlarining natijasi;

-o‘z kasbiy kompetentliligi va kompetensiyalarini rivojlantirish vositalaridan foydalana olganlik darajasi;

-kasbiy kompetentligi, kompetensiyalari va kasbiy sifatlarini o‘z shaxsiy jihatlari bilan uyg‘unlashtira olish[4] kabi kasbiy sifatlar kiritilishi lozim.

Mazkur majmuaga kiruvchi sanab o‘tilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quv faoliyatining har xil turlarini (o‘quv-bilish, loyihalash, o‘quv-tadqiqot) o‘quv jarayonida uyg‘unlashtirib, o‘z funksiyalarini kengaytirib va takomillashtirib boradi. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi bir dars jarayonida bayon etuvchi, darsni boshqaruvchi, o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘libgina qolmay, maslahatchi, loyiha tashkil etuvchisi, o‘quv-tadqiqot ishi rahbari, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini rag‘batlantiruvchi, o‘quvchilarning barcha faoliyat turlaridagi ishonchli hamkor vazifasini ham muvaffaqiyatli bajara oladi.

2. O‘qituvchining o‘quv jarayonida namoyon etadigan eng muhim, tayanch kompetensiyalari, kompetentlilik darajasi va boshqa kasbiy sifatlarini monitoring qilish mexanizmi takomillashtirilishi va bunda quyidagi omillar inobatga olinishi lozim:

-Xalq ta’limi tizimiga qo‘yiladigan Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlariga muvofiq keladigan talablar;

-umumiy o‘rta ta’lim sohasiga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmaning tarkibiy mundarijasi;

-yangi ta’lim paradigmalari sharoitida o‘zgargan va tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq keladigan talablar.

Zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan o‘qituvchining kasbiy xususiyatlarga va kompetensiyalarga ega bo‘lganlik darajasi o‘rtasidagi muvofiqlikni tadqiq etishda, birinchi galda o‘qituvchining ta’limdagi innovatsion jarayonlarning resurslar bilan ta’minlanishidagi asosiy faktor sifatidagi roli, o‘qituvchining kasbiy sifatlariga bo‘lgan talabning dinamik tarzda o‘sib borish qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Bunday yondashuvda tadqiqot oldida turgan ikkita vazifani hal etish lozim bo‘ladi:

a) o‘qituvchining kasbiy jihatdan rivojlanishi, uning kasbiy kompetensiyalari va kompetentlilik darajasini oshirishga qaratilgan ishlarni zamonaviy ta’lim paradigmalari uchun negiz bo‘lgan talablardan kelib chiqqan holda tashkil etish;

b) yangilanayotgan ta’lim paradigmalari sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari va kompetentlilik darajasini doimiy monitoring qilib borish jarayonini modellashtirish[6].

Xulosa. O‘qituvchi kasbiy sifatlariga bo‘lgan talabning dinamik tarzda o‘sib borish qonuniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlarda o‘qituvchining kasbiy jihatdan mukammal bo‘lishini ta’minlovchi sifatlar majmuasida etishmaydigan elementlarini “to‘ldirish” usullarini o‘rganish va ularni o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarining mundarijasiga joriy etishdan iborat maqsad belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bu maqsadga erishishish uchun esa o‘qituvchining kompetensiyalari va kasbiy kompetentligini monitoring qilish mexanizmi ishlab chiqilishi hamda bu mexanizmni amaliyotda qo‘llash vositalari taqdim etilishi lozim. Shu o‘rinda tadqiqot ishimiz mavzusida keng qo‘llaniladigan “Ta’lim paradigmalari”, “kompetensiya”, “o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi”, “o‘qituvchi kasbiy faoliyatini va kompetentliligini monitoring qilish” kabi zamonaviy tushunchalarning talqinlariga to‘xtalib o‘tish zarurati paydo bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g‘risida” gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O‘zRQ-637 son.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Оъзбекистон Республикаси халq таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тоъg‘рисида”ги ПФ-5712-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маһкамасининг 17.09.2021 йилдаги 572-сонли “Мактабгача, умумий оърта, оърта махсус, профессионал ва мактабдан ташқари таълим ташкилотлари педагог-кадрларини аттестатсиядан оътказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тоъg‘рисида”ги Қарорида.
4. Чечева Н.А. Мониторинг как инструмент поддержки профессионалного развития педагога Электронный ресурс.
5. Абдусаматов А. Бошланғич синф оъқувчиларини оъқув-билиш фаолиятини моделлаштириш асосида такомиллаштириш методикасини диссертатсияси 2023.й
6. Темняткина О.В. Современные подходы к оценке эффективности работы учителей. Обзор зарубежных публикатсий [Текст] / О.В. Темняткина, Д.В. Токменинова // Вопросы образования. - 2018. - № 3. С. 180-195.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378.014.132

Shaxzod G‘ANIEV,
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o’qituvchisi

NamDU dotsenti p.f. d (DSc) T. Ismoilov taqrizi asosida

ELEKTRON TA’LIM VOSITALARINI QO‘LLASH ORQALI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo’lajak o’qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uning mazmun-mohiyati, ularning kasbiy faoliyatga tayyorlashda elektron ta’lim resurslarining o’rni va ahamiyati, elektron ta’lim resurslarining asosida fanlardan bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish, masalalar yoritib berilgan. Bo’lajak mutaxassis kasbiy-kompetentligini takomillashtirishda o’z ustida ishlash bosqichlari, o’zini-o’zi rivojlantirish elektron ta’lim resurslaridan foydalanishnig ahamiyati keltirib o’tilgan. Kasbiy-pedagogikkompetentlikni takomillashtirish elektron ta’lim resurslarining zarurati bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar taqdim qilingan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak o’qituvchilar, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, elektron ta’lim resurslari, bilim, ko‘nikma, malaka.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПУТЕМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ЭЛЕКТРОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье освещены формирование профессиональной компетентности будущих учителей и ее содержание, роль и значение электронных образовательных ресурсов в подготовке их к профессиональной деятельности, формирование знаний, умений и компетенций по предметам на основе электронных образовательных ресурсов. данный Отмечается важность этапов саморазвития и использования электронных образовательных ресурсов саморазвития в повышении профессиональной компетентности будущего специалиста. Разработаны предложения и рекомендации о необходимости электронных образовательных ресурсов для повышения профессионально-педагогической компетентности, представлены выводы.

Ключевые слова: Будущие учителя, компетентность, профессиональная компетентность, электронные образовательные ресурсы, знания, умения, компетентность.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS BY USING E-EDUCATION TOOLS

Annotation

This article highlights the formation of professional competence of future teachers and its content, the role and importance of electronic educational resources in preparing them for professional activities, the formation of knowledge, skills and competencies in subjects based on electronic educational resources. The importance of the stages of self-development and the use of electronic educational resources of self-development in increasing the professional competence of a future specialist is noted. Proposals and recommendations on the need for electronic educational resources to improve professional and pedagogical competence have been developed, and conclusions have been presented.

Key words: Future teachers, competence, professional competence, electronic educational resources, knowledge, skills, competence.

Kirish. Hozirgi kunda ta’limning mazmuni va sifatini takomillashtirish masalalariga respublikamizda alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, dunyoning rivojlangan mamlakatlari singari ta’limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo’llari izlanmoqda, ta’limga axborot texnologiyalarini joriy etish yo’nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar takomillashtirilmoqda, ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiyasi texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish jadal tus olmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining eng asosiy maqsadi ta’lim sifatini ta’minlash, ya’ni sifatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Axborotning tezkor yangilanishi davrida xar bir oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifati masalasi, ta’limning so‘nggi yangiliklari, texnik vositalar va texnologiyalar bilan boyitilishi, ta’limning zamonaviy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etmohda. Ta’lim sifatini ta’minlashning eng asosiy komponentlaridan biri bu professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini ta’minlashdir. Ta’lim tarakkiyotining keyingi istikboli kup jixatdan ta’lim beruvchilarning kasbiy kompetentligi masalasi bilan boglik bo’lib bormokda. Axborot asri xar bir pedagogdan AKT bo’yicha yetarli bilim va mapakaga ega bo’lishni talab etmokda. Globallashuv va axborot lmashinuvijadal borayotgan sharoitda jaxon tajribasida uzini oklagan ta’lim modellarida ta’lim sifatini ta’minlashga karatilgan usullarni urganish va ularni milliy ta’lim tizimiga muvofiklashtirish bo’yicha izlanishlarni amalga oshirish xozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Har qaysi davlat o’z rivojlanish yo’lini ilm fansiz tasavvur eta olmaydi. Shuningdek bizning mamlakatimizda ham ilm fanni rivojlantirish, malakali teran fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.

Dunyo pedagoglarining eng katta muammolaridan biri o’qitish jarayonini soddalashtirish, o’quvchilarning bilim darajasini yuksaltirish, ularning fanni chuqur o’zlashtirish

uchun ko’plab ta’lim shakllari hamda metodlar ishlab chiqilmoqda.

Umumta’lim maktablarida faoliyat yurituvchi fan o‘qituvchilar axborot texnologiyalarini qo‘llash va foydalanish bo‘yicha quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim [1]:

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning turlarini;
- multimedia va uning tashkil etuvchilarini;
- virtual borliq va unda qo’llanadigan texnologiyalarni;
- kompyuter tarmoqlarini va uning turlarini;
- internet tarmog’ining asosiy xizmatlarini;
- multimedia va uning texnik-dasturiy vositalarini;
- mobil ta’lim va ommaviy onlayn ochiq kurslarni bilishi;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o’quv jarayonida foydalanish;
- multimedia va uning texnik-dasturiy vositalarida ishlay olish;
- internet tarmog’ining asosiy xizmatlari va resurslaridan foydalana olish;
- ziyonet.uz ta’lim portalida va ta’limga oid internet saytlarida ishlash ko’nikmalarga ega bo’lishi
- o’quv jarayonida o’z mutaxassisligi bo’yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- dars ishlanmalarini yaratishda multimedia imkoniyatlarini qo’llash;
- mashg’ulotlarni tashkil etishda internet tarmog’ining asosiy xizmatlaridan foydalanish;
- multimedia va uning texnik-dasturiy vositalaridan foydalanish;
- ziyonet.uz ta’lim portali va ta’limga oid internet saytlari imkoniyatlaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish malakalarga ega bo’lishi;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va amaliyotda qo’llay olish kompetensiyalariga ega bo’lishi lozim.

Shu nuqtai nazardan umum ta’lim maktablari o‘qituchilarining pedagogik faoliyatda amaliy dasturiy vositalardan foydalanib, elektron o’quv va didaktik tarqatma materiallarini yaratish ko’nikma hamda malakalarini rivojlantirish lozim. Ushbu ko‘nikma, malaka va komptensiyalarni oliy talimda bo’lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida shakklantirib va rivojlantirib borish lozim.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o’zini o’zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to’liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o’rganilgan2.

U kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo’naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, professional jihatdan muhim psixofizologik xususiyatlarini ifodalaydi[2].

T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida o’qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning yondashuviga ko’ra o’qituvchilik kompetensiyasi o’qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo’lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi [3].

V.N.Vvedenskiyning fikricha, “kasbiy kompetensiya” tushunchasi tarkibining kengligi, “professionallik”, “malaka”, “kasbiy malakalar” kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Biroq, u konsepsiya bilan birgalikda ko’rib chiqilayotgan konsepsiyani identifikatsiyalash hollari hali ham tez-tez “kompetentlik”dir. Kompetentlik – bu shaxsiy ususiyatga ega, va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir [4].

M.I.Lukyanova o’qituvchining psixologikpedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o’quv jarayonida talabalar bilan samarali o’zaro munosabatlarga ega bo’lgan shaxsning o’ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo’nalishlarning bloklarini ko’rib chiqadi [5].

A.V.Xutorskoy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini “sinonim ishlatilgan” tushunchalari orasidagi farqni ko’rsatadi. Kompetensiya – shaxsning o’zaro bog’liq xususiyatlarini (bilim, ko’nikma, faoliyat metodikasi), ma’lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifat jihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan kompleks [6].

G.M.Kodjaspirova “o’qituvchi malakali o’qituvchi bo’lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo’lishi kerak”, deb hisoblaydi[7].

Asosiy qism. Inglizcha “competence” tushunchasi lug’aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatadi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi[8].

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

D.O. Ximmataliev [9] tomonidan Kasbiy kompetentlik negizini tashkil etuvchi quyidagi sifatlardan iborat ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bu sifatlarga: 1) ijtimoiy kompetentlik; 2) maxsus kompetentlik; 3) shaxsiy kompetentlik; 4) texnologik kompetentlik; 5) ekstremal kompetentlik4lar kiradi.

Kompetensiya tushunchasi ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, malakani, shaxsiy fazilatlarni6 va amaliy tajribani qo’llash qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Kompetensiya – bu ta’lim orqali olingan bilimlar va tajribaga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko’nikmaga tushmaydi; kompetentlik – bu olim yoki o’qimishli odam degani emas.

Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalari belgilab qo’yilgan.

Bugungi kunda mehnat bozorida kardlarga bo’lgan ehtiyoj to‘yinib borayotganligi, hamda ularga qo‘ladaigan talab oshayotganini hisobga olib bo‘lajak o’qituvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bilan bir qatorda kasbiy kompetetnligiga e’tiborni kuchaytirish lozim ekanligi yaqool ko‘zga tashlanib qoldi.

Shunigdek, oliy ta’lim muassasalari oldida bugun axborot texnologiyalari va ularni ta’lim jarayoniga samarali qo‘llash usullarini ishlab chiqish vazifasi yuzaga keladi.

Kasbiy kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilimlarni doimo o‘rganib borishi, axborotlarni izlashning zamonaviy usullarinini o‘rganishi, zamon talablarini anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni kayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishini takozo etadi.

Jadal rivojlanishda davom etayotgan tarakkiyotga hamnafas tarzda milliy ta’lim tizimi va uning sifatiga qat’iy mezon va talablar kuchaytirib boriladi. Zamon talablariga mos holda qadam tashlab borish ko‘p jihatdan AKT imkoniyatlaridan keng foydalanishni takozo etadi. Elektron ta’limni resurslari takomillashtirish, bu boradagi eng muhim omillardan biri sanaladi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga alohida talablar qo‘yiladi. Zamonaviy pedagog kadrlardan INTERNETning axborot resurslaridan maqsadli foydalana olish, mustaqil bilimlarni olishlari jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishi talab etiladi.

Texnologiya tarakkiyotining izchil rivoji, ta’lim jarayonida masofadagi farkni tamomila sezmaslik, o‘quvchi, talaba yoki tinglovchini huddi auditoriya ichida xis kiladigan darajadagi dastaklarni ta’minlab berishi lozim. Bu vazifani amalga oshirishda electron va raqamli ta’lim resurslarini takomillshtirish va amaliyotdagi o‘rnni mustaxkamlash lozim.

Raqamli ta’lim resursi – bu kompyuter qayta ishlashni talab qiladigan ta’lim maqsadlarida ishlatiladigan mahsulot. Jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalari ta’lim jarayoni uchun yangi, samarali qo’shimcha an’anaviy vositalarni taqdim etib, ko’plab o’qituvchilar o’zlarining metodik tizimida qo’llashmoqdalar. Raqamli ta’lim resursidan foydalanish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun tubdan yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli ta’lim resursi o’qitishda tezkor aniqlik vositasi, talabalarning amaliy ko’nikmalarini ishlab chiqishda, so’rovlarni tashkil etish va o’tkazishda va talabalarni kuzatishda hamda uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, simvollar va boshqalar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrir qilishda va talabalar ijodiy ishlaridagi xatolarni tuzatishda keng foydalaniladi.

Raqamli resurslar – o’quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo’lgan va muayyan darslik mazmuniga muvofiq tanlangan, darsni rejalashtirish bilan "bog’langan" va zarur metodik tavsiyalar bilan ta’minlangan rasmlar, videokliplar, modellar, rolli o’yinlar, kartografik materiallar, dasturiy, texnik, tashkiliy-metodik vositalar majmuasi yordamida ta’limiy, ilmiy aloqalar, axborotlardan tezkor foydalanishni ta’minlaydigan, axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiradigan faoliyatning zarur vositasi ekani aniqlandi.

Elektron ta’lim resurslari undan foydalanuvchilarni uzluksiz ta’limni odatiy, kundalik hayot tarziga aylantirish imkonini beradigan qulay va samaradorligi yuqori bo‘lgan yechimlardan biri xisoblanadi. Elektron ta’lim resurslari bilan ihtiyoriy vaqt va joyda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va yangi malakalarni xosil kilish imkoniyati yaratiladi.

Oliy ta’limda kredit-modul tzimiga o‘tilganligi. Ushbu tizimga me’yoriy asolariga ko‘ra talaba yuklamasining 40 % auditoriya mashg‘ulotlariga, 60 % esa mustaqil o‘zlashtirish soatlari to‘g’ri kelishi ta’lim tizimiga electron ta’lim resurslarini keng targ‘ib qilishga zarurat keltirib chiqaradi.

Oliy ta’lim tizimida elektron ta’lim reurslari orkali kasbiy kompetentlikni ta’minlash, birinchi navbatda oliy ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, moliyaviy axvoli, mavjud AKT ta’minoti, axborot resurslari, elektron ta’lim vositalariga bog‘lik.

Bu jarayonda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy malakalari, bilim saviyalari, saloxiyati va ularning o‘zlashtirishi, sifat ko‘rsatkichlari, mutaxassis darajasida hosil qilinadigan ko‘nikmalari, tayyorlangan mutaxassisga talabning yuqoriligi qo‘yilgan masalani dolzarb ekanligini yana bir bor asoslaydi.

Xozirgi vaqtda globallashuv jarayoni ta’lim sifatini oshirishda elektron ta’lim imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanishni talab etmokda. Elektron ta’lim jarayoni ta’lim tizimida o‘z o‘rnini ega bo‘lib bormoqda.

Xulosa. Bo’lajak o’qituvchi kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan individual rivojlantirish dasturlarida pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirish elektron ta’lim resurslari keng qo‘llash zarurati mavjud. Bu o’z navbatida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo’lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko’rinadi va bu uni rivojlantirishga turtki beradi. Kasbiy pedagogik kompetentligi ta’lim beruvchi tomonidan olib boriladigan o’quv-tarbiya jarayonlarida elektron ta’lim vositalarini qo’llanilganida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni ta’lim oluvchini yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish talabalarning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo’lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo’lib xizmat qiladi, zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash kelgusida intellektual salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mingboev U.X., Qodirov B.N., O‘quv jarayonida axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalarini qo’llash (Umumiy fanlar bo’yicha)//Ma’ruza matni, Jizzax-2020 y, 64-b.
2. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo obrazovaniya. – M.: «Akademiya», 2013.
3. Sorokina T.M. Razvitie professionalnoy kompetensii budущego uchitelya sredstvami integrirovannogo uchebnogo soderjaniya. // Nachalnaya shkola. – 2004. – №2. – S. 110-114.
4. Vvedenskiy V.N. Modelirovanie professionalnoy kompetentnosti pedagoga. // Pedagogika. – 2003. – №10. – S. 51-55.
5. Lukyanova M.I. Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelya. // Pedagogika. – 2001. – №10. – S. 56-61.
6. 6. Xutorskoy A.V. Klyuchevые kompetensii kak komponent lichnostno- orientirovannoy paradigmы. //“Narodnoe obrazovanie” jurnali. – 2003. – № 2. – S.58-64.

7. Kodjaspirova G.M.. Pedagogika. Uchebnik dlya studentov vыsshix uchebnыx zavedeniy. – M.: “Gardariki”, 2004. – 528 s
8. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /O’quv-metodik qo’llanma– Toshkent, 2015. –120 bet.
9. D.O. Ximmataliev Bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi // Zamonaviy ta’lim-2020. 7(92). 16-26 B.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.026

Nodira GAPPAROVA,
O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi
E-mail: n.gapparova@bk.ru

O‘ZDJTU falsafa doktori (PhD) N.A Maxmudova taqrizi asosida

NOFILOLOG OLIY TA'LIMLARIDA NEMIS TILI GAPIRISH KO'NIKMASINI O'RGATISH

Annotatsiya

Maqolada metodik va pedagogik tadqiqotlar tahlili natijalariga asoslanib, uni asosiy darajada biladigan nolingvistik universitetlar talabalari uchun chet tilida auditoriya va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Chet tillarini o‘qitish metodikasi; madaniyatlararo ta'lim; elektron kurslar; axborot texnologiyalari; interaktiv texnologiyalar; Eshitish darslari; talabalarning mustaqil ishi; o'quv jarayonini optimallashtirish; muvaffaqiyat holati; talabalar; universitetda chet tillari metodikasi; xorijiy tillar; lingvistik bo'lmagan universitetlar.

ОБУЧЕНИЕ НАВЫКУ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ В СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ВУЗЕ

Аннотация

По результатам анализа методологических и педагогических исследований в статье выделяются проблемы методики проведения аудиторных и внеаудиторных занятий по иностран- ному языку у владеющих им на базовом уровне студентов неязыковых вузов.

Ключевые слова: Методика преподавания иностранных языков; межкультурное обучение; электронные курсы; информационные технологии; интерактивные технологии; аудиторные занятия; самостоятельная работа студентов; оптимизация учебного процесса; ситуация успеха; студен- ты; методика иностранных языков в вузе; иностранные языки; неязыковые вузы.

TEACHING THE SKILL OF SPEAKING GERMAN IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION

Abstract

The article singles out the issues of the methods of conducting classes and out-of-class activities in a foreign language with the base level students of non-linguistic universities based on the results of analysis of methodological and pedagogical studies.

Key words: Methods of teaching foreign languages; intercultural teaching; electronic courses; information technologies; interactive technologies; classes; independent work of the students; optimization of the learning process; situation of success; students; methods of teaching foreign languages at a higher edu- cation institution; foreign languages; non-linguistic universities.

Kirish. Chet tilini bilish nafaqat barcha darajadagi mutaxassislar uchun ustuvor mahorat, balki ilm-fan va texnologiya rivojining zamonaviy sharoitida ham zaruratga aylanib bormoqda. Turli darajadagi ko‘plab ko‘rgazmalar o‘tkazish, xorijiy loyihalarga sarmoya kiritish va boshqa mamlakatlar kapitalini jalb qilish orqali rag‘batlanayotgan texnologiyalar almashinuvi mutaxassislar o‘rtasida tarjimonlar orqali emas, balki muloqot qilish zaruratini tug‘dirmoqda. Shunga ko'ra, qabul paytida chet tilini bilish majburiy bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda ko'plab sohalar sanoat va milliy iqtisodiyotlar «optimallashtirish» kabi tushunchaga duch kelmoqda. Xuddi shunday vazifa oliy o‘quv yurtlarida ham qo‘yildi. Agar ilgari bizda nolingvistik yo‘nalishlar bo‘yicha bir semestrda chet tilidan 68-72 soat vaqt ajratilgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 46-54 soat atrofida o‘zgarib turadi, ikkinchi kursda esa hatto 30-36 soatni tashkil etadi. Ta'lim jarayoniga joriy etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish o'qitishni tashkil etish sifatini oshirish, o'quv materialini taqdim etish samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish orqali o'quv soatlarining qisqarishini qoplashi mumkinligi taxmin qilinmoqda. elektron o'quv qurollari.

Bunday sharoitda oliy o‘quv yurtlarining nolingvistik mutaxassislik talabalari o‘rtasida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sinfda darslar uchun ajratilgan soatlarning cheklangan soniga qo'shimcha ravishda, muammo ikki omil bilan yanada kuchayadi.

Akademik guruhda boshlang‘ich til tayyorgarligi turli darajadagi talabalar bor. Ular universitetga tanlov tanlovidan o'tish uchun zarur bo'lgan fanlarga e'tibor berishadi. Universitetga abituriyentlar til o‘rgatish sifati yetarlicha bo‘lmagan kichik shaharlar va qishloq maktablaridan ham keladi. Shunday qilib, birinchi va ikkinchi semestr davomida akademik guruh talabalarining bilimini to'g'rilash, ya'ni "til jihatdan zaif talabalarni kuchlilar darajasiga etkazish" kerak.

Guruhdagi talabalar soni 20 kishidan ortiq. Agar ilgari, 1980-1990-yillarda talabalarning akademik guruhi asosiy chet tillari (ingliz, frantsuz va nemis) o'rtasida deyarli teng taqsimlangan kichik guruhlarga bo'lingan bo'lsa, hozirgi bosqichda ingliz tili kirib keldi. inson faoliyatining barcha sohalariga kirib, xalqaro muloqot tiliga aylandi. Odamlarning nemis va fransuz tillariga bo‘lgan qiziqishi keskin tushib ketdi. Maktablarda qisqartirish, ko'pincha nemis va frantsuz tillarini o'qitishni yo'q qilish bor. Shu sababli, universitetlarda biz talabalarning asosiy qismi ingliz tilini o'rganishiga duch kelamiz. Zamonaviy nolingvistik universitetda kichik guruhlarga bo'linish sodir bo'lmaydi, chunki bu o'qituvchilarga o'quv yukini oshirishni talab qiladi.

O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun biz quyidagi usullarni taklif qilamiz.

Kirish va tarbiyaviy o'qish uchun matnlar bilan ishlash

O'quv matni bilan og'zaki ish, standart komponentlar to'plamiga qo'shimcha ravishda (o'qish, tarjima, lug'at bilan

ishlash va boshqalar) ijodiy komponent bilan to'ldirilishi mumkin.

O‘qitishning interfaol usullaridan, masalan, rolli o‘yinlardan foydalanishga asoslangan. Shu maqsadda talabalarga juftlik yoki guruhlarda topshiriq berish taklif etiladi: dialog tuzing, matn ma'lumotlari asosida sahna ko'rinishini namoyish qiling va shu bilan birga fotosuratlar, rasmlar, videolar kabi mavjud illyustratsiya vositalaridan foydalaning. va Internetdan audio materiallar va boshqalar.

Misol uchun, bir akademik guruhda talabalarga bug 'turbinasi tasvirlangan ingliz tilidagi matn taklif qilindi. Matn bilan ishlash natijalariga ko'ra, o'rganilgan terminologiyani mustahkamlash va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun talabalar ingliz tilida "fikrli" korxonalar nomidan turbinalarning bir qator texnik ishlanmalarini taqdim etishlari kerak edi. Barcha taqdimotlardan so'ng ular "raqobatchilarga" savollar berishdi, o'zlarining "texnik noto'g'ri hisob-kitoblarini" ko'rsatishdi va o'z mahsulotlarining ustuvorligini isbotladilar. Barcha kerakli illyustratsiyalar (fotosuratlar, chizmalar va boshqalar) Internetda erkin mavjud bo'lib, bu bayonotlarni diversifikatsiya qilish, ularni vizual va idrok etish uchun tushunarli qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tayyorgarlik vaqti darsning kutilayotgan davomiyligiga qarab o'zboshimchalik bilan belgilanishi mumkin. Bizning holatda, 15 daqiqa vaqt berildi, chunki matn bilan asosiy ish oldingi sinflarda allaqachon olib borilgan. Ushbu topshiriq uchun test munozarada bevosita ishtirok etgan, ya'ni chet tilini bilgan talabalarga topshirildi. Natijalarga ko'ra, guruhdagi o'quvchilarning 95 foizi topshiriqni engishdi. Qolgan talabalar og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muqobil topshiriqlarni oldilar (monolo- mantiqiy bayon, matnga savollarni og'zaki shakllantirish va boshqalar).

Talabalarni tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagicha:

- xato va kamchiliklarni aniqlash, ayrim muammoli fikrlarni tushuntirish maqsadida o‘quvchilarning guruhda muhokamasini diqqat bilan tinglash;

– ishda ishtirok etmayotgan, “jim bo‘luvchi” o‘quvchilarni aniqlash, ularni ijodiy jarayonga jalb etishga harakat qilish;

- qo'shimcha vazifalar qo'ying yoki suhbatga o'zgartirishlar kiriting, shunda munozara yanada mazmunli va mazmunli bo'ladi;

● o‘quvchilarning savollariga javob berish va ularni o‘quv materialida yo‘naltirish;

● muvaffaqiyat vaziyatini yarating.

Talabalarning o'zlari bu topshiriqni ijobiy qabul qilishdi. Raqobat kurashi, raqobat ruhi bu ishga foydali ta’sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar mutaxassislik bo'yicha kasbiy bilimlarni egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Keyinchalik, o'quvchilarning o'zlari ijodiy qobiliyatlarini ko'proq namoyon qilgan holda, guruhlarga bo'lingan holda matn ustida og'zaki ishlarni bajarishni taklif qilishlarini payqadik. Talabalar og'zaki bayonotning individual taqdimotini ham diversifikatsiya qilishga harakat qilishdi. Keling, ikkita ajoyib misolni ko'rib chiqaylik.

Tahlil va natijalar. Darsda vaqtni tejash maqsadida talabalarga uy vazifasi sifatida “Gonkong” matnini og‘zaki qayta aytib berishni videoga yozib olish, so‘ngra o‘qituvchi tomonidan tekshirish uchun fayllarni tarmoq diskiga yuklab olish taklif qilindi. Bu topshiriqda talabaning monolog nutqi bevosita baholandi. Shunga qaramay, o'qituvchi uchun kutilmaganda bu topshiriq ham o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini va jamoaviyligini ko'rsatdi. Shunday qilib, matnni qayta hikoya qilishda nutq mavzusida so'zlovchining orqasida jim sahna o'ynadi.

O'qituvchi bunday "ijodkorlikka" ijobiy baho berdi, chunki:

– natija vazifaga mos keldi (monologik nutqning videoyozuvi olindi);

- vazifa individual edi, lekin talabalar guruhda ishladilar, ya'ni ular qiyin daqiqalarda maslahatlar bilan yordam berishlari va nutqdagi noaniqliklarni tuzatishlari mumkin edi;

- mashg'ulot zerikarli va muntazam emas edi, talabalar ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lishdi, bu esa topshiriqni bajarishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Talabalarda ijobiy fikrlarni rag'batlantirish va rivojlantirish maqsadida ushbu videorolik o'quv guruhlarida o'qituvchining ijobiy bahosi bilan namoyish etildi.

Shunday qilib, ijodkorlikning namoyon bo'lishiga erkinlik berish orqali biz ijobiy natijalarga erishdik, chunki o'quvchilarda u yoki bu topshiriqni bajarish istagi paydo bo'ldi, bu ular tomonidan odatiy hol sifatida qabul qilinmadi. Ijobiy his-tuyg'ular, muvaffaqiyat holatlari o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Natijada, oradan ma’lum vaqt o‘tgach, topshiriqlar sifati yuqori bo‘lib, o‘zlashtirmagan o‘quvchilar soni kamaydi.

Suhbat mavzusidagi nutq o'rganilgan o'quv materialining natijasi bo'lishi va dunyoqarashni namoyish qilishi kerak. Biroq, hozirgi tendentsiya o'quvchilar tayyor matn va mavzularni yodlab olishadi, keyin ularni o'qituvchiga takrorlaydilar. Bayonotga nazorat savollari yordamida ko'pincha talaba nima haqida gapirayotganini tushunmaydigan, oldindan o'rganilmagan yangi gap tuza olmaydigan holatlarni aniqlash mumkin, ya'ni. chet tilida ravon gapira olmaydi. Suhbat mavzulari semestrning yakuniy ishi hisoblanadi, shuning uchun talabalar, qoida tariqasida, ularni sifatli tayyorlashga vaqtlari yo'q. Natijada, topshiriqning bajarilishi kerakli darajada bajarilmaydi, nutqning taqdimoti rasmiy xarakterga ega.

Xulosa. Ta’kidlash joizki, tajriba-sinov guruhlari talabalari o‘z faoliyatlarini rejalashtirish qobiliyati bilan ajralib turishdi, mas’uliyat va intizomning ortganligini namoyish etishdi.

ADABIYOTLAR

1. Jeltova E.P. Chet tilini o'rganish jarayonida texnik universitet talabalarining madaniyatlararo kompetentsiyasini rivojlantirish [Elektron resurs]: dis. ... qand. ped. Fanlar. - Magnitogorsk, 2006. - 228 p. — Kirish rejimi: http://www.dissercat.com/content/razvitie-mezhkulturnoi-kompetentsii-studentov-tekhnicheskogo-universiteta-v-protsesse-izuche (kirish sanasi: 18.09.2018).
2. Jeltova E. P. Texnik universitetda chet tilini o'qitishning situatsion usullari: amaliy jihat. Oliy ta'limda kasbiy kompetensiyalar: jamoa. monografiya. / javob. ed. A. Yu. Nagornova, T. B. Mixeeva. - Ulyanovsk: Zebra, 2018. - S. 294-301. - 414 b.
3. Kabanov A. M. Elektron darslik texnik universitetda chet tilini o'qitish sifatini oshirish vositasi sifatida: muallif. ... qand. ped. Fanlar. - Yekaterinburg, 2009. - 22 p.
4. Kabanov A. M. Elektron darslik texnik universitetda chet tilini o'qitish sifatini oshirish vositasi sifatida: dis. ... qand. ped. Fanlar. - Yekaterinburg, 2009. - 192 p.
5. Kabanov A. M., Ruban G. A. [va boshqalar]. Pedagogik ishning zamonaviy jihatlari: jamoa. monografiya. : 3 ta kitobda. / ed. S. V. Kuprienko. - Odessa: SWorld, 2013. - Kitob. 1. - C. 18-141.

6. Loginova L. G. Bolalar uchun qo'shimcha ta'lim natijasining mohiyati: 11-stajyorning materiallari. ilmiy-amaliy. konf. / ed. A. V. Kislyakova, A. V. Shcherbakova. - Chelyabinsk: CHIPPCRO, 2015 yil.
7. Chet tillari haftaligi [Elektron resurs] // YouTube. - 2018 yil - 16 aprel. — Kirish rejimi: https://youtu.be/BYcweyUrefY.
8. Yusupova L. G. Chet tilini o'qitish jarayonini modellashtirish [Elektron resurs] // Ta'lim va amaliy psixologiya bo'yicha 2-Evropa konferentsiyasining Universitet materiallari II "Sharqiy G'arb" Ilg'or tadqiqotlar va oliy ta'lim assotsiatsiyasi. - GmbH. Vena, 2014. - P. 298. - Kirish tartibi: https://elibrary.ru/item.asp?id=22562240.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.013.04

Alijon GULIYEV,
Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: Alijon199019@mail.ru

JDPI “Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri, p.f.n., dots.Kushvaqtov N.H. taqrizi ostida

BO‘LAJAK TEXNOLIK MUHANDISLARNING KASBIY SIFATLARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya
Ushbu maqolada bo‘lajak texnolik muhandislarning kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy faoliyatning uslubiy ko‘nikmalarini, harakat tamoyillari, metodlari va usullarini o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirish ochib berilgan. Shuningdek, o‘zgaruvchan kasbiy faoliyat sharoitlariga tez moslashuvchan yosh mutaxassislarni tayyorlash yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, strategik yo‘nalishlar, zamonaviy talablar, innovatsion texnologiyalar, tashkiliy-texnik muammolar, intellektual tayyorgarlik.

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ КАЧЕСТВАМ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНИКОВ

Аннотация
В статье описаны современные требования к профессиональным качествам будущих инженеров, формирование умения овладевать методическими навыками, принципами, методами и приемами профессиональной деятельности. Он также обучает молодых специалистов быстро адаптироваться к меняющимся профессиональным условиям.
Ключевые слова: Профессиональная компетентность, профессиональная деятельность, стратегические направления, современные требования, инновационные технологии, организационно-технические проблемы, интеллектуальное обучение.

MODERN REQUIREMENTS FOR PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE ENGINEERING TECHNICIANS

Abstract
This article describes the modern requirements for the professional qualities of future engineers, the formation of methodological skills of professional activity, the ability to master the principles, methods and techniques of movement. It also trains young professionals to adapt quickly to changing professional conditions.
Key words: Professional competence, professional activity, strategic directions, modern requirements, innovative technologies, organizational and technical problems, intellectual training.

Ilm-fanning so‘nggi yutuqlariga asoslangan chuqur fundamental ta'lim, asosan, o‘zbek muhandislik ta'limining dunyoda tan olinishi va yuksak nufuzini oshiradi. Muhandislar va olimlar fandagi kelajakdagi tadqiqotlar chegaralarini aniqlaydigan texnika va texnologiyalarni yaratayotgani sababli, muammo yanada dolzarb bo‘lib qoldi. Ilmiy-texnikaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fan-texnika taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichi texnologiya rivojlanishining ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

V. M. Jurakovskiyning ta'kidlashicha: "Globallashuv sharoitida eng qiyin muammolarni hal qilish kerak va ta'lim mamlakatimizga sanoatlashgan jamiyatda munosib o‘rin egallashga yordam beradigan sohadir. Albatta, ilmiy tadqiqotlar, ta'limning o‘zi, amaliy mashg‘ulotlar va, albatta, ta'limning uzviy uyg‘unligi tufayli kadrlar tayyorlashning yuqori darajasini ta'minlash milliy an'analarini saqlab qolish uchun texnik ta'lim oldida jiddiy vazifalar turibdi” [1].

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlahstirish va texnologik qayta qurish bilimlarni doimiy ravishda to‘ldirish yoki yangilash zarurligini his qiladigan mutaxassisning faoliyat tizimini qayta qurish qobiliyatini anglatadi. Bunday sharoitda texnika oliy ta’lim muassasalarida (OTM) muhandis tayyorlashdan maqsad bilim va ko‘nikmalarni an'anaviy egallash bilan birga faoliyatning uslubiy ko‘nikmalarini, harakat tamoyillari, metodlari va usullarini o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirishdir.

Ta'limni qayta tashkil etishning strategik yo‘nalishlari quyidagilar: mutaxassislar tayyorlashning yangi darajasini ta'minlash va turli sohalardagi mutaxassislarni jamiyatning zamonaviy talablariga javob beradigan, o‘zgaruvchan kasbiy faoliyat sharoitlariga tez moslashuvchan qilib tayyorlash tizimini shakllantirish, ya'ni, yosh mutaxassislarning butun hayoti davomida bilimlarini kengaytirish va to‘ldirish qobiliyatidan iborat [2].

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgarishlar muayyan ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoatlari ishlab chiqarishlari va texnologik jarayonlari;
- texnik tizimlar, yuqori unumdorlikka ega texnologik jarayonlar, apparatlar va jixozlar;
- texnologik jarayonlar va ularni nazorat qilish, nazorat-o‘lchash asboblari va avtomatika vositalari;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari;

- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni rostlash va boshqarish tizimlari;

- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridan foydalanish, ularni sozlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish usullari va vositalari, shuningdek nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarining loyixa, ilmiy ishlab chiqarish faoliyatini texnik ta’minlash vositalari, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarishning raqobatbardoshligi va bu soxani rivojlantirish jarayonlari.

Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda ularga qo‘yilgan malaka talablarida texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’yektlari, kasbiy faoliyatlarining turlari hamda bakalavrlarning kasbiy vazifalari keltirib o‘tilgan.

Quyidagi rasmda bo‘lajak texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish muhandislarining kasbiy sifatlariga va kasbiy kompetensiyalar qo‘yiladigan zamonaviy talablar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yilgan talablar

Umumiy kompetensiyalar	Kasbiy kompetensiyalar
- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qila olish; - xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar moxiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi xamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish; - axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish; - yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; - sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.	- namunaviy va nostandart Texnologik jarayonlarni va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini, ularning elementlari va qurilmalarini, nazorat-o‘lchash asboblarini, qismlari va detallarini loyixalash; - bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq etish; - loyixaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish, kobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak. - texnologik jarayonar va ishlab chiqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari, nazorat va rostlash konturlari, axborot-boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash; - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni boshqarishning intellektual tizimlari ishlashini o‘zlashtirish; - texnologik jarayonar va ishlab chiqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari, texnologik jixozlarni tayyorlashda texnik xujjatlar (ishlarni bajarish grafiklari, yuriqnomalar, rejalar, smetalar, material va jixozlarga byurtmalar) ishlab chiqish; - Texnologik jarayonar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarishda usta, katta usta, tsex operatori, operator-despetcher, metrolog, sistema-texnik faoliyatlarini olib borish; - kasbiy etika kodeksiga rioya qilish, kobiliyatlariga ega bo‘lishi; - ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq ishlab chiqarish vazifalariga moslashtirish orqali ishlab chiqarishni tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda mikdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; - ishlab chiqarish korxonasiining ichki xujjat aylanish tizimining ishlashi tug‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyixalar ishtirokchilariga axborot ta’minotini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; - ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi; - konstruktorlik byurosi, yig’ish, sinash ishlab chiqarish tsexi faoliyatini sifatini boshqarish; - ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish; - ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

Yuqoridagi malaka talablaridan kelib chiqqan holda axborot jamiyatida ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonlardan ilm-fanni talab qiluvchi, innovatsion, intellektual ishlab chiqarishga e'tibor o‘zgarganda, muhandislik ishining tabiati va shunga mos ravishda mutaxassislarga qo‘yiladigan talablar o‘zgaradi. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda zamonaviy mutaxassis ushbu talablarga javob berishi kerak:

• chet tili muhitida ta’limni davom ettirish va kasbiy faoliyat yurita olish;

• tafakkur madaniyatiga ega bo‘lish, uning umumiy qonuniyatlarini bilish, yozma va og‘zaki nutqda uning natijalarini to‘g‘ri (mantiqiy) shakllantira olish;

• fan taraqqiyoti va ijtimoiy amaliyotning o‘zgarishi sharoitida to‘plangan tajribani qayta ko‘rib chiqish, o‘z imkoniyatlarini tahlil qila olish; kuchli va zaif tomonlaringizni bilish, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga ega bo‘lish;

• o‘z bo‘lajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini, uning faoliyatining muayyan sohasini belgilovchi fanlarning asosiy muammolarini tushunish, ularning o‘zaro bog‘liqligini yaxlit bilimlar tizimida ko‘rish;

• tizimli yondashuv asosida kasbiy sohada loyiha faoliyatini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi, turli hodisalarni tavsiflash va bashorat qilish uchun modellarni qurish va ulardan foydalanish, ularning sifat va miqdoriy tahlilini amalga oshirish;

• muammoni ko‘ra bilish, kasbiy vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq maqsad va vazifalarni shakllantirish, ularni hal qilishda o‘zi o‘rganayotgan fanlarning usullaridan foydalana olish;

• hamkasblar bilan hamkorlik qilishga va jamoada ishlashga tayyor bo‘lish, boshqaruv usullarini bilish, ijrochilar ishini tashkil etish, turli fikrlar sharoitida boshqaruv qarorlarini topish va qabul qilish;

• o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartirishga, fanlararo loyihalar ustida ishlashga uslubiy va psixologik jihatdan tayyor bo‘lish;

• kasbiy muammolarni hal qilishda ijodiy yondoshish qobiliyatlari, vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati rivojlangan; muammolarni, vaziyatlarni, vazifalarni tahlil qilish va harakat rejasini ishlab chiqish;

• rejani amalga oshirishga tayyor bo‘lish va uning bajarilishi uchun javobgar bo‘lish.

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fanlar dasturlariga qo‘yiladigan quyidagi umumiy talablar mavjud.

O‘quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o‘quv jarayoni grafigi, xaftalar kesimida o‘qish vaqti, attestatsiyalar, amaliyotlar, tatillar, semestrlar bo‘yicha o‘tiladigan “Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar”, “Umumkasbiy fanlar”, “Ixtisoslik fanlar”, mashg‘ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko‘rsatiladi. O‘quv rejalarga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan xamkorlikda tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan belgilanadi [4].

Ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan tashqari, bo‘lajak muhandis rahbar, murabbiydir. Samarali boshqaruvni amalga oshirish, qulay psixologik muhitni yaratish uchun u jamoa a'zolarining shaxsiy fazilatlarini o‘rganish uchun turli xil texnika va usullarga ega bo‘lishi, turli ishlab chiqarish vaziyatlarida tarbiyaviy ish usullarini egallashi, o‘z qo‘l ostidagilar uchun bir qator o‘qitish usullari: tushuntirish, ko‘rsatish, materialni og‘zaki taqdim etish, ma'ruzalar bilan gapirish usullaridan foydalanishga ega bo‘lishi kerak [5].

Har qanday mutaxassisning, bu holda bo‘lajak muhandislarning jamiyatdagi o‘rni fan va texnika madaniyati yutuqlarini mustaqil ravishda olish, o‘zlashtirish, ulardan foydalanish va uzatish qobiliyatining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Muhandisining intellektual va kasbiy harakatchanligiga qo‘yiladigan talab juda dolzarbdir.

Zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, kasbiy va intellektual harakatchanlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalari va tadqiqot tajribasini egallash talabga ega bo‘lib, ularga faoliyatning yangi yo‘nalishlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishga imkon beradi [6].

Kasbiy, intellektual kompetentsiyani shakllantirishda uning shakllanishi talabalarning ta’limning umumiy fan mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o‘zlashtirishiga zamin yaratadi; turli xil hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, stereotiplar va fikrlash shakllarini yengish; joriy voqealarni moslashuvchan o‘zgaruvchan idrok etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish, samarali faoliyat va raqobat muhitida muvaffaqiyat tajribasini aks ettirish va mustahkamlash tayanch vazifasini bajaradi. Aynan intellektual kompetentsiyada umumiy ta'lim qobiliyatlari: doimiy ravishda ma'lumotlarni qidirish, tanlash va qayta ishlash qobiliyati; axborotning o‘zaro ta’siri usullari, axborotni o‘zlashtirishning yangi usullaridan foydalanish istagi, samarali muloqot va hamkorlik; o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil o‘rganishga tayyorlik, kasbiy harakatchanlikni rivojlantirish mujassamlanadi [7]. Shunday qilib, intellektual kompetentsiya muhandisning eng qobiliyatli fazilatlaridan biri bo‘lgan kasbiy kompetentsiyaning muhim elementi hisoblanadi.

Texnologiyalarni jadal rivojlantirish va yangilash kasbiy faoliyat sifati va shartlarini doimiy ravishda o‘zgartirib, mutaxassisni butun umri davomida kasbdagi faoliyatning yangi usullari va turlarini qayta-qayta o‘zlashtirishga, malaka va ta'lim darajasini oshirishga, ish joyini o‘zgartirishga majbur qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy qarama-qarshiligining keskinlashuvi, ma'lumotlarning tez o‘sish sur'ati va ularni individual shaxs tomonidan o‘zlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyat davom etmoqda. Bu holat pedagogik nazariyani intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning individual psixologik mexanizmlarini faollashtirishning samarali usullarini izlashga tobora ko‘proq e'tibor berishga majbur qiladi.

Xulosa. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy faoliyatning uslubiy ko‘nikmalarini, harakat tamoyillari, metodlari va usullarini o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirish ochib berildi. Shulardan kelib chiqib bo‘lajak muhandislarda quyidagi kasbiy kompetensiyalar shakllanishi zarur deb hisoblaymiz:

- chet tillarini bilish;
- o‘z bilimlarini namoyon qilish texnikasiga ega bo‘lish;
- kompyuterda ishlash, ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklaridan foydalanish qobiliyati;
- ishlab chiqarish qurilmalarini qismlari va detallari va yig’ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish qobiliyatlari;
- texnologik qurilmalarini ishchi parametrlarini aniqlash bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish qobiliyati;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va xisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlarini o‘zlashtirish.
- muxandislik ishi jabxasidagi ob’yektlar, jarayonlar, tizimlar, jixozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo‘llash;
- uskuna va texnologiyalarning uzluksiz rivojlanishi, ularning eskirishi, asbob-uskunalar dasturiy ta'minotining doimiy yangilanib turishi bo‘lajak muhandislardan o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi;
- ilg‘or texnologiyalarni yaratuvchi muhandislik jamoalarida zamonaviy amaliyot shakllanishi va aynan shu tajriba muhandisni tayyorlash uchun asos bo‘lishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Жураковский В.М.Современные задачи российского инженерного образования / В.М. Жураковский // Инженерное образование в 21 веке. - Тамбов : Изд-во ТГТУ, 2001. - С. 11 -16.
2. Лаврентьев Г.В. Инновационные обучающие технологии в профессиональной подготовке специалистов. Часть 2 / Г.В. Лаврентьев, Н.В. Лаврентьева, Н.А. Неудахина Н.А. - Барнаул : Изд-во Алтайского государственного университета , 2004. - 182 с.
3. Крутов СВ. Производство + Психология / СВ. Кругов. - Режим доступа : http : //psyfactor.org/lib/krutov43.htm (09.06.08)
4. 60711400 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati)bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari // Toshkent-2022. 17- bet.
5. Гончарук Н. П. Развитие интеллектуальной компетентности и профессиональной мобильности научно-педагогических кадров в условиях информационного общества / Н.П.Гончарук. - Казань : Изд-во МОиН РТ, 2011.- 224с.
6. Гончарук Н.П. Формирование научно-исследовательской компетенции будущих специалистов/ Н.П. Гончарук, Г.С.Сагдеева.// Вестник Казанского технологического университета. Казань: КГТУ,№3, 2013. -С.315-321.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - № 5.-2003.-С. 34-42.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 37.013.

Gulnoz GULYAMOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Urganch davlat universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)Q.Qobulov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE TRADITIONS OF THE UZBEK PEOPLE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG EMPLOYEES OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotatsiya
This article discusses the importance of the traditions of the Uzbek people in the life of society, the role of these traditions in the spiritual and moral education of young employees of the internal affairs bodies.
Keywords: patriotism, faith, tolerance, courage, discipline and a sense of personal responsibility, moral values, sincerity, justice, attitude, enterprise, initiative, optimism.

РОЛЬ ТРАДИЦИЙ УЗБЕКСКОГО НАРОДА В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЫХ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация
В данной статье рассматривается значение традиций узбекского народа в жизни общества, роль этих традиций в духовно-нравственном воспитании молодых сотрудников органов внутренних дел.
Ключевые слова: патриотизм, вера, толерантность, мужество, дисциплина и чувство личной ответственности, нравственные ценности, искренность, справедливость, отношение, предприимчивость, инициатива, оптимизм.

O‘ZBEK XALQI AN’ANALARINING YOSH ICHKI ISHLAR XODIMLARINING MA’NAVIY VA AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya
Mazkur maqolada o‘zbek xalqi an’analarining jamiyat hayotidagi ahamiyati, mazkur an’analarning yosh ichki ishlar xodimlarining ma’naviy va axloqiy tarbiyasidagi o‘rni masalari muhokama qilinadi.
Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, e’tiqod, bag‘rikenglik, mardlik, intizom va shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usi, axloqiy qadriyatlar, samimiyat, adolat, muomala, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, optimizm

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doimo e’tibor markazida. Bu umumta’lim maktablarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ommaviy tadbirlar, ma’rifiy va targ‘ibot tadbirlari bevosita yoshlarning ma’naviy, jismoniy va psixologik tayyorgarligini ta’minlash, ularda Vatanga, ona zaminga mehr-muhabbatini oshirishga, milliy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylashga qaratilgan.

O‘zbekiston ichki ishlar tizimida vatanparvarlik, e’tiqod, bag‘rikenglik, mardlik, intizom va shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usi kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash muqaddas burch va sharafdir.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Modernizatsiya qilish, xalqaro konvensiyalar doirasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashda professional chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati, O‘zbekiston Respublikasining jinoyatdan xoli hududi tamoyilidan kelib chiqadigan vazifalarni lozim darajada bajarish, murakkab geosiyosiy mintaqada joylashgan Vatanimiz xavfsizligini ta’minlash, yoshlarda davlatga sadoqat bilan xizmat qilish g‘oyasini shakllantirish Ichki ishlar vazirligi tizimida barcha sohalarni o‘z ichiga olgan tuzilmani yaratish zarur.

- **Tadqiqot metodologiyasi**. Ichki ishlar organlari xodimlarini axloqiy tarbiyalash muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimida ustuvor o‘rinni egallaydi. Amalda madaniyat muassasalarida ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash uchun maqbul pedagogik sharoitlar yaratilmaganligi bilan bog‘liq. Amaliyotda ilmiy yondashuvlar ko‘p jihatdan tugaydi va tezkor faoliyatning borishi va natijalariga, ichki ishlar organlari xodimining munosib ma’naviy qiyofasini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining me’yoriy hujjatlarida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi, xususan, axloqiy tarbiya uchun maqbul pedagogik shart-sharoitlarni yaratish imkoniyati mavjud bo‘lgan madaniyat muassasalarida tarbiyaviy ishlarni yaxshilash zarurligi ta’kidlangan. aksiologik yondashuvga asoslanadi.

- **Tahlil va natijalar**. Ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini ta’minlaydigan pedagogik shartlar quyidagilardan iborat: axloqiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi ijtimoiy-madaniy dasturlarni rejalashtirish va o‘tkazish, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibini badiiy havaskorlik bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirish. madaniy, ilmiy va jamoat tashkilotlari vakillarini ushbu jarayonga faol jalb qilgan holda madaniyat muassasalarining guruhlari, qiziqish klublari, havaskorlar uyushmalari.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson omili bilan bog‘liq muammolar o‘z ko‘lamiga ko‘ra ijtimoiy falsafa sohasining muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir” [1]. Bundan xulosa qilgan holda, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrashga, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon

unutmasligimiz kerak” [1]. Shu boisdan ham yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongni yanada yuksaltirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va shuning uchun ham Prezident ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish hamda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha besh muhim tashabbusni ilgari surdi (birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish; ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish; uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish; to‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish; beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash).

Ma’naviy-madaniy vaziyatni o‘rganish texnologiyasi samarali uslublar (hujjatlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, aholi so‘rovi, taqqoslash, kuzatish, tahlil va sintez uslubi va hokazolar), prinsiplar (obyektivlik, sistemaviylik, tarixiylik va dialektik ziddiyat, mavhumlikdan konkretlikka borish, mantiqiylik va tarixiylik birligi prinsipi va hokazolar), zamonaviy vositalar va materiallar asosida o‘tkazilganidagina zaruriy natijalarga olib keladi.

Har qanday boshqaruv sohasida axloqiy asoslarga tayanish, jamoa fikrini e’tiborga olish yohud jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko‘rsatish o‘ziga xos qadriyatga aylansa, bizning fikrimizcha, harbiy jamoani boshqarishning axloqiy asoslari to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘ladi. Chinakam rahbar yengil-yelpi shuhratga, quruq dabdabaga uchmaydi. U o‘z qadrini bilishi barobarida o‘zgalarning ham qadriga yetadi. Rahbar odamlarga ishonishi kerak. O‘z o‘rinbosarlariga, o‘z yordamchilariga ishonib, ularning har biri o‘z sohasida mustaqil tarzda ish yuritishiga imkon berishi zarur. Aks holda, hamma vazifa va burchlarni bitta o‘zi zimmasiga olib asosiy yo‘nalishdan chalg‘iydi, diqqati bo‘linadi, mayda-chuyda tashvishlarga ko‘milib qolib, umumiy rahbarlik jilovini qo‘ldan chiqarib qo‘yadi. “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa-da, dong‘i chiqmas”, degan naql bor.

Ichki ishlar xodimlari jamoasini boshqarishning axloqiy asoslari murakkab tizim bo‘lib, bu jarayon har ikki tomonning ya’ni rahbar va uning atrofidagi jamoaning o‘z faoliyatlari davomida namoyish etadigan odob–axloq darajalari bilan belgilanadi. Zero, bu o‘rinda “Qars ikki qo‘ldan” degan naqlni eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Boshqaruvda rahbarning axloqi uning o‘zishiga bo‘lgan burchi, mas’uliyati, fidoiyligi, adolatparvarligi, barchaga barobar munosabat va muomala qila olish singari axloqiy hislatlar bilan belgilansa, rahbar qo‘lostidagi jamoaning axloqiy kamoloti esa, avvalambor, o‘z rahbariga nisbatan holis, manfaatsiz hurmatning mavjudligi, berilgan ko‘rsatmalarni o‘z vaqtida va ayni paytda to‘la–to‘kis bajarish, mavjud barcha imkoniyatlarini safarbar etib, jamoaning istiqbolining yanada ravnaq topishi uchun harakat qilish singari hatti–harakatlarni qamrab oladi.

Demakki, ichki ishlar xodimlari jamoasini boshqarishning axloqiy asoslari jamoa fikri va rahbar faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, bunda, ayniqsa, rahbar qobiliyatining birlamchi ahamiyat kasb etishini e’tirof etib o‘tish lozim.

Ichki ishlar xodimlari jamoasini boshqarish ham alohida san’at bo‘lib, boshqaruv rahbardan o‘ziga hos qobiliyat, malaka,ko‘nikma, iste’dod talab etadi. Qobiliyat o‘zi nima? Lug‘atlarda qobiliyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: qobiliyat–insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin ravishda farqlanadi, chunonchi bilim bu mutolaa natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Barcha qobiliyatlilar uchun tayanch xususiyat–bu kuzatuvchanliklarda, ya’ni insonni fahmlash, obyektdan u yoki alomatlarni ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir. Qobiliyat ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik majmuasining mahsulidir. Iste’dod esa qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanganligi. Iste’dod, odatda, barcha qobiliyatlarning emas, bir yoki bir necha qobiliyatning yuqori darajada rivojlanganligini anglatadi [2]. Darhaqiqat, boshqaruv jarayonini maksadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qati nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Rahbar o‘zining shaxsiy fazilatlari, mustahkam xarakteri, kuchli irodasi, barqaror hissiyoti, barcha narsalarga va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyatlari bilan muayyan sohani boshqara oladi, xolos. Chunki fan va texnikaning rivoji, odamlarda onglilik darajasining yuksak ko‘rsatkichi, ijtimoiy tajribalarning ta’sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi rahbarning komil inson kamoloti pog‘onasiga ko‘tarilishini taqozo etadi. Bu o‘rinda Forobiyning rahbar qobiliyati to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovordir: shaxsning rahbarlik qobiliyati uning bolaligidan boshlanib, uzoq davr mobaynida shakllanadi va mutlaqo tabiiylashgan bo‘ladi hamda barcha davrlarda chuqur o‘zgarishlarsiz saqlanadi. Shunga ko‘ra rahbarlik qobiliyati rahbarlik davrida tartibga solinadi va muvofiqlashtiriladi, bunda faqat ayrim juz’iy o‘zgartishlar qilinishi, boshqaruv ishi bilan bog‘liq ba’zi yangi bilimlar o‘rgatilishi mumkin. Kasbiy qobiliyat esa amaliy faoliyat o‘zgarishi bilan o‘z mohiyatini o‘zgartiradi. Xullas, Forobiy fikriga ko‘ra fozil jamiyatning adolatli boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi rahbarlarni tanlashda avvalo uning shaxsiy xarakter sifatiga doir belgilar birinchi darajali bo‘lmog‘i lozim. Tanlashning xuddi mana shu belgilardan boshlanishi uning mohiyatini ham ochib beradi.

Ichki ishlar xodimlari jamoasini boshqarishda rahbar qobiliyati rahbardan bir qancha uning o‘ziga hos bo‘lgan individual xususiyatlari va jihatlarini qamrab oladi. Rahbarning qobiliyati, avvalambor, rahbarning o‘z ishiga va atrofidagilarga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi. Rahbarning qobiliyatini namoyon eta olishi bevosita rahbarlik mahoratiga bilan bog‘liqdir. Rahbarlik mahoratining amalda namoyon bo‘lishi rahbarlik qobiliyati mavjudligini namoyon etib beradi. Zero, rahbarlik mahorati rahbarning boshqaruv san’ati sirlarini bilishi, xodimlarni tanlashdan tortib, ular bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlarda oqilona yechim topa olishi, o‘zi mas’ul jabhada yuksak mehnat samaradorligiga erishish uchun jamoaning bunyodkorlik kuchlarini safarbar eta olishi, tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo‘lishi. Rahbarlik mahoratining muhim jihati uning muomala madaniyatida aks etadi. Sababi aniq, har bir sohaning sir-asroridan tashqari rahbarlik uchun muloqot ustasi, kishilarni tushunish qobiliyati, muloqot va muomala sirlarini ham bilmoq kerak [3]. Samimiyat, adolat, muomala, ishbilarmonlik, asosiy muammo bilan ikkinchi darajali vazifalarni o‘z vaqtida farqlay bilish, tashabbuskorlik, optimizm - rahbar mahoratini tashkil etuvchi omillardir.Bu omillar esa o‘z navbatida rahbarlik qobiliyati mavjudligidan dalolat beruvchi rahbarlikka hos bo‘lgan xususiyatlar hisoblanadi. Rahbarning uzoqni ko‘ra bilishi, pirovard maqsad va vazifalarni teran anglashi, hayot va ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmasdan noan’anaviy, kutilmagan yechimlar o‘ylab topishi, jamoadagi har bir xodim, ishchi ko‘ngliga yo‘l topa bilishi, barchaga “o‘ziniki” bo‘lib ko‘rinishga erishish ham rahbarlik mahoratining namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Ya’ni, jamoada haqiqiy rahbar ruhiy ko‘tarinki kayfiyat bilan ish olib bormog‘i va yashamog‘i lozim. Rahbar hamisha jamoa a’zolarining quvonch va tashvishlari bilan yashashi kerak.

Rahbar hayotining ko‘pgina unutilmas lahzalari jamoa muhitida shakllanadi, tarbiyalanadi. Shu tarzda rahbarning eng yaxshi tashkilotchilik, tadbirkorlik fazilatlari shakllanib, mukammallashib boradi. Boshqarish, eng avvalo, kishilar bilan ishlashdir. Hamma ham notiqlik mahoratiga ega bo‘lavermaydi, lekin rahbar tushunarli, ifodali va ta’sirchan, ishonarli va da’vatkor ruhda gapirishga o‘rganishi kerak. Rahbarning tinglash mahorati masalasini bugungi kunda hayotning o‘zi har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylantirib qo‘ymokda. Mutaxassislarning fikricha, rahbarlar ish vaqtning 45 foizini o‘zgalarni tinglashga sarf qilar ekan. Muomala qilishning eng qiyin sohalaridan hisoblangan ayni shu jihat rahbarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun nemis faylasufi A. Shopengauer “Odamlarning o‘zingiz to‘g‘ringizda yaxshi fikrga ega bo‘lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang” degan edi. Demak, rahbarning tinglash mahorati ko‘pchilik tasavvur qilgani kabi uncha ham passiv jarayon emas. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, ruhlantiradi. Shu tariqa yangi fikrlar, g‘oyalarning shakllanishiga sharoit tug‘iladi. Rahbar qalbi toza, shijoatli, ishbilarmon, mustaqil fikrlab ishlaydigan, ruhan tetik, davr talabini ongli his etadigan, rahbarlik faoliyatida to‘qnash kelgan har bir salbiy yoki ijobiy xatti-harakatlarga o‘zida shakllangan salohiyat kuchi bilan javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Muayyan masalada o‘z fikriga ega bo‘lish mustaqil dunyoqarashni bildiradi. Rahbar shaxs esa “keng fikrlashi, uzoqni ko‘ra bilishi qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi” va bu uning mustaqil dunyoqarashga egaligidir dalolat beradi.

- **Xulosa va takliflar**. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ichki ishlar xodimlarini ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish bo‘yicha bir qator huquqiy xujjatlar ishlab chiqilgan, bo‘lib ular asosida hozirgi kundalik faoliyatda keng foydalanib kelinmoqda va ta’lim jarayoni shu asosda tashkillashtirilmoqda. Bu esa ichki ishlar xodimlarini tarbiyalashning bugungi holatini baholashda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar xodimlarini tayyorlashning ma’naviy-axloqiy asoslarini o‘rganish bilan bir qatorda, mazkur yo‘nalishni yagona tizim sifatida tadqiq etish hamda tizimga qo‘yilgan talablarni, shuningdek, tizim elementlari, tag tizimlarni va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni va tizimning bugungi kundagi holati, uni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omil va muammolarni tahlil etish muhim bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 88.
2. Муаллифлар жамоаси. Фалсафа энциклопедик луғат. ЎзР ФА, Иброҳим Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Тошкент:2010 – Б.329
3. Йўлдошев М., Н.Назарзода. Раҳбарлик психологиясида ахлоқ. Т, 2010

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.026

Javohir ZOKIROV,
Termiz davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: zjavohir6@gmail.com

TerDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Sh.Yakubov taqrizi asosida

USE OF COGNITIVE-PRAGMATIC METHOD IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Abstract
The article discusses the use of elements of the cognitive-pragmatic method in the process of primary-grade mother tongue education, the development of students' thinking in mother tongue classes, and its directions.
Key words: Continuity of native language education, content of native language education, students' thinking, phonemic listening, orthographic skills, prosodic skills, creative tasks, speech culture.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО МЕТОДА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация
В статье рассматривается использование элементов когнитивно-прагматического метода в процессе начального обучения родному языку, развитие мышления учащихся на занятиях по родному языку, его направления.
Ключевые слова: Преемственность родного языка, содержание родного языка, мышление учащихся, фонематический слух, орфографические навыки, просодические навыки, творческие задачи, культура речи.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA’LIMIDA KOGNITIV-PRAGMATIK USULDAN FOYDALANISH

Annotatsiya
Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlaridan foydalanish, ona tili darslarida o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish va uning yo‘nalishlari xususida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Ona tili ta’limi uzluksizligi, ona tili ta’limi mazmuni, o‘quvchilar tafakkuri, fonematik eshitish, orfografik malaka, prosodik malaka, ijodiy topshiriqlar, nutq madaniyati.

Kirish. Ta’limga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda, buning natijasida o‘quvchilarga qulaylik yaratish uchun yangi innovatsion darsliklar ishlab chiqilmoqda. E’tiborlisi shundaki, ona tili ta’limining samaradorligini oshirish tadqiqotchilarning diqqati markazida turgan, ammo bilimni o‘quvchiga yetkazishda qanday yo‘l tanlash, o‘quvchini ijodkor shaxs etib tarbiyalash muammosiga yetarli ahamiyat berilmagandek tuyuladi. Jumladan, uzluksiz ta’limning o‘rta bosqichida ona tili ta’limini induktiv mohiyatli kognitiv-pragmatik metodga asoslanib o‘qitish allaqachon yo‘lga qo‘yilgan. Ammo boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘ini hali ham deduktsiyaga tayanadigan retroskopiya (reproduktiv, ko‘rgazmali bayon) usulida qolib ketmoqda. To‘g‘ri, savod, imlo, bilim va zamonaviy fanlar alifbosini beradigan boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘inida retroskopik usul yetakchilik qilmog‘i shart. Biroq, nazarimizda, ta’limda uzluksizlikni ta’minlash uchun boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarga kognitiv-pragmatik metod asosida o‘rgatishning elementlaridan foydalanib borish vaqti keldi deb o‘ylaymiz. Chunki o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta’limning bosh maqsadi sanaladi. Bu talab dastur va DTSda ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa amaldagi darsliklar mazmunini qisman yangilash vazifasini qo‘yadi. Hozirgi kunda ozirgi kundaH boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi mazmuni to‘rt yo‘nalishdagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

Birinchi yo‘nalish. Ona tili qurilish birliklari haqida elementar bilimlarni o‘zlashtirish. Bunda o‘quvchilar nutq tovushi va harf to‘g‘risidagi dastlabki bilimlarni, unli va undosh tovush, jarangli va jarangsiz undosh, bo‘g‘in, ochiq va yopiq bo‘g‘in, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga oid axborotlarni o‘rganadi. SHuningdek, so‘z va uning ma’nolarini farqlashga oid, so‘z ma’nolari va so‘roqlariga ko‘ra guruhlash - ot, sifat, son, fe’l so‘z turkumlari haqida ilk tasavvurlarga ega bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Ona tilidan ilk ilmiy axborotlarni o‘zlashtirish nutq ko‘nikmalarini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda o‘rgatiladi. Ona tilida so‘zlash va aytilganlarni yozuv vositasida qayd etish, gapirish va eshitish, fikrni nutq vositasida ro‘yobga chiqarish ehtiyoji o‘quvchilarda turli nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni malaka darajasiga ko‘tarish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida ona tili o‘qitish metodikasi fani beqiyos darajada rivojlandi. Shu yillar ichida ona tili o‘qitish metodikasidan qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Bu tadqiqotlarda ona tili o‘qitish metodikasiga oid muammolar nazariy va eksperimental o‘rganilgan: A.Ya.Bobomurodova(1)ning olib borgan izlanishlarida ona tili ta’limida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish, T.U.Ziyadova(2)ning dissertatsiyasida ona tili ta’limining o‘quvchilar nutqini o‘stirish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Ona tilidan o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishga oid tadqiqotlar ham mavjud. M.S.Saidov(3) bolalar tafakkuriga mo‘ljallab tuzilgan o‘quv topshiriqlarini ona tili ta’limiga tatbiq qilish yo‘llarini o‘rgandi, bu yo‘nalishda aniq tavsiyalar berdi. T.T.G‘aniev(4) ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish masalasini tahlil qilgan.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinflarning ona tili o‘quv predmeti bo‘yicha hosil qilinadigan ko‘nikma-malakalar quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilinadi.

1.Fonematik eshitish malakalari–nutq tovushini so‘z tarkibida to‘g‘ri ijro etish va eshitish, nutq tovushlariga ko‘ra so‘z ma’nolarini farqlash, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni talaffuz qilish, so‘zlarni bo‘g‘inlar ketma-ketligida aytish va eshitish layoqatlari.

2. Grafik malakalar-har bir nutq tovushini o‘ziga xos harf va belgilar bilan yozish demak.

3. Orfografik malakalar – so‘z va uning tarkibiy qismlari – o‘zak va negizni, yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo‘shimchalarni, ajratib va qo‘shib yoziladigan so‘z, so‘z birikmalarini, atoqli otlarni orfografik qoidalar asosida yozish.

4. Uslubiy malakalar –so‘z va uning tarkibiy qismlarini matnda ortiqcha takrorlamasdan, gap tarkibida gap bo‘laklari tartibiga rioya qilib, matnni shakllantirish.

5. Tinish belgilarini yozma nutqda to‘g‘ri ishlatish malakalari – boshlang‘ich sinflarning dasturlari hamda Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan nuqta (.), so‘roq (?), undov(!), vergul (,) kabi belgilarni matnda to‘g‘ri ishlatish va matnni jonlantirish, ya’ni o‘qish paytida ularga rioya qilgan holda faoliyatni amalga oshirish.

6. Prosodik malakalar – nutq tempi, ovozning past-balandligi, diktsiya, ohangga rioya qilib o‘qish, gapirish malakalari.

Uchinchi yo‘nalish. Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish. Bola ona tili vositasida ijtimoiy tajriba va uni o‘zlashtirish vositalarini egallaydi.

To‘rtinchi yo‘nalish. Tilga, til orqali til ijodkori bo‘lgan – xalqqa munosabatni shakllantirish. Bu yo‘nalish boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida yetakchi bo‘lib, bolalarda til bilimlari asosida dunyoqarashni, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarni tarbiyalashni taqozo qiladi.

Yuqorida izohlangan yo‘nalishlarga rioya qilib, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi mazmunini ijodiy o‘zlashtirish jarayonini boshqarish mumkin. Buning uchun boshlang‘ich sinf ona tili predmeti mazmunini tahlil qilishga ehtiyoj tug‘iladi. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish muammosi haligacha nazariy va amaliy jihatdan maxsus o‘rganilmagan. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi jarayonini kognitiv-pragmatik usul elementlari asosida tashkil etishning maqsadi, vazifa va imkoniyatlari haligacha tahlil qilinib, kompleks o‘rganilmagan; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish imkoniyatlariga mos va boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi mazmuniga muvofiq ijodiy topshiriqlarning samaradorligi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinmagan. Ona tili ta’limida ijodiy va noijodiy o‘quv topshiriqlarini o‘zaro farqlash imkoniyatlari mavjudmi? Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish orqali o‘qitishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

1. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlari asosida o‘qitish — o‘ziga xos nazariy va amaliy asosga, ya’ni o‘z maqsadi, tamoyillari, usullariga ega mustaqil tizim.

2. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish asosida o‘qitish bolalarning ichki affektlari—emotsiya, motiv, qiziqishlarini rag‘batlantirishga mo‘ljallab o‘tkaziladi.

3. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish o‘quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o‘stirishning yetakchi vositasidir.

4. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limiga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish ta’lim jarayoni samaradorligi, bolalar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi.

Maktabda ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o‘ziga xosligi, ma’no jihatidan aniqligi, so‘zlarning rang–barang, turli–tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og‘zaki shakli adabiy tilning orfoepik me’yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub kabi me’yorlariga mos bo‘lishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy til me’yorlari ustida o‘quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e’tirof etilgan, shu tilda so‘zlovchilarning barchasi rioya qilishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar adabiy til me’yorlari hisoblanadi. Adabiy til me’yorlariga ma’lum tilda mavjud so‘zlar, so‘zlarning qurilishi, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish modellari, so‘z birikmasi, so‘zni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalari kiradi.

Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi–gapiruvchi va qabul qiluvchi–tinglovchi ishtirok etadi.

Nutq faoliyati jarayonida so‘zlovchi ham, tinglovchi ham so‘z, so‘z birikmasi va gapga tayanadi. So‘z, so‘z birikmasi va gapning “aytilish” xususiyati so‘zlovchiga, “eshitilish” xususiyati tinglovchiga xizmat qiladi. “Aytilish” va “eshitilish” ma’noli jarangdorlik bo‘lib, u tilning birinchi shakli – og‘zaki nutqdir. So‘zning ko‘riladigan (yozuv) va o‘qiladigan xususiyati tilning ikkinchi shakli–yozma nutqdir.

Ta’limda og‘zaki va yozma nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning o‘zaro aloqadorligiga rioya qilish nihoyatda zarur. Grammatika mashg‘ulotlarida nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish, so‘zlarning ma’nolarini ochish orqali bolalar to‘g‘ri nutq tuzish sirlarini egallay boradilar. O‘quvchi nutq maqsadiga muvofiq so‘zlarni qancha tez tanlay olsa, nutq faoliyatida shuncha faol qatnashadi. Maktab grammatikasini izchil o‘rganish natijasida o‘quvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishlarini ta’minlaydigan nutq qobiliyatlari tarkib topadi. Nutq qobiliyati nima? Hozirgi zamon psixologiyasi o‘rganayotgan muammolardan biri shaxs qobiliyati masalasidir. Shaxs psixologiyasiga ko‘ra, qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning ansambli yoki sintezidir. Nutq qobiliyati inson qobiliyatining bir ko‘rinishi sanaladi. Tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarni o‘rganib chiqish va shu qobiliyatlar rivojiga bevosita ta’sir etadigan o‘qitish tizimini yaratish ona tili ta’limi sohasida eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonini kognitiv-pragmatik usul elementlari ijodiy ta’lim kontekstida tashkil etish talab etiladi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shunga qaramasdan, fan mutaxassislari, shuningdek, maktab o‘qituvchilari orasida ijodiy ta’limni noijodiy ta’limdan farqlash sohasida tushunmovchiliklar, ularning o‘zaro tafovutlarini ajratishda kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. SHundan bo‘lsa kerak, o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlarning barchasi ijodiy ish sifatida qabul qilinadi. Yana bir munozarali muammo – ijodiy ishni noijodiy ishdan farqlash masalasidir. Bulardan ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish metodik hodisadir. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlarini qo‘llash - bu:

-ta’limda o‘quvchi maqomini o‘zgartirish, uni ta’lim jarayoni sub’ektiga aylantirish;

-ta’limni me’yoriy ta’limlar doirasidan chiqib o‘tkazish,

-o‘quvchilar faoliyatini bilim, ko‘nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar kompleksiga yo‘naltirish;

- ta’limni o‘ziga xos maqsad, vosita, natija, motivlarni ko‘zlab tashkil etish;

-ta’limni tafakkurga mo‘ljallab o‘tkazish;

-o‘quvchilar o‘zlashtirishini istiqbol (kelajakda ijodiy tafakkuri rivojlangan shaxs bo‘lib yetishishi)ga yo‘naltirish demakdir.

Xulosa. Kognitiv-pragmatik ta’lim usulida ta’lim jarayoni sub’ekti – faol o‘rganuvchisi, ta’lim tizimi markazi - o‘quvchi. O‘quvchiga o‘rgatilmaydi, u o‘rganadi va ta’lim jarayonining hamma tarkibiy qismlari mana shunga muvofiqlashtirilishi lozim. Demak, ona tili darslari ham tafakkur, fikrlash darslari, bilim durdonalarini olishga ehtiyoj – izlanish, topish, tahlil qilish va qo‘llash – foydalanish darslari bo‘lmog‘i zarur. Kognitiv-pragmatik ta’lim usuli elementlaridan boshlang‘ich sinf ona tili darslarida foydalanish kerak. Bu 7-11 yoshli bolalarda ijod va bunyodkorlikka alohida qiziqish bilan ona tilining ichki imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash, izlash, topish va topganlaridan sharoitga mos va samarali ravishda mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati bilan uzviy bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish – bu o‘quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqilligi va fikrlashiga asoslangan ongni rivojlantirishga qaratilgan, ijodiy fikrlaydigan va o‘z fikrini ravon bayon qiladigan shaxsni shakllantiradigan ona tili ta’limini joriy qilish demakdir.

ADABIYOTLAR

1. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертатsiя. –Т.: 1996. -145 б.
2. Зиядова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1995. -161 б.
3. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фанл. ном. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2000. -147 б.
4. Ғаниев Т.Т. Она тилидан машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1991. -194 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 159.9

Maftuna IMONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Dilnoza TOJIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: imonovamaftuna949@gmail.com

TerDPIning psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) O.E.Eshmuradov taqrizi asosida

LAWS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF NATIONAL EDUCATION IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract

In this article, the pedagogical and psychological development of national education in primary grades, the factors influencing the education of the young generation, the development of polite, intelligent, honest, well-educated people in society, the use of modern innovative pedagogical technologies in the education of a well-rounded person, the national thoughts and opinions about how to inculcate our customs and traditions, our Uzbek national education, which is rooted in our rich spiritual heritage, into the minds of the future generation.

Key words: Personality, education, national education, tradition, heritage, values, knowledge, skills, psychological laws.

ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ У МЛАДШИХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье педагогико-психологическое развитие отечественного образования в начальных классах, факторы влияющие на воспитание подрастающего поколения, формирование в обществе вежливых, умных, честных, образованных людей, использование современных инновационных педагогических технологий в воспитание всесторонне развитой личности, национальных мыслей и мнений о том, как привить нашим обычаям и традициям, нашему узбекскому национальному воспитанию, уходящему корнями в наше богатое духовное наследие, в сознание подрастающего поколения.

Ключевые слова: Личность, образование, национальное воспитание, традиция, наследие, ценности, знания, умения, психологические законы.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY TARBIYANI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishini, shakllanib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar, jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo‘lishlari, barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, milliy urf-odat va an’analarimiz, boy ma’naviy merosimizga yo‘g‘rilgan o‘zbekona milliy tarbiyamizni kelajak avlod ongiga singdirib borish haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, tarbiya, milliy tarbiya, urf-odat, meros, qadriyat, bilim, malaka, ko`nikma, psixologik qonuniyatlar.

Kirish. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo‘lishligi yoshlik paytidanoq bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar, xulq-atvor, qadriyatlar insonga butun umri davomida hamroh bo‘ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo‘lishlari uchun harakat qilinadi.

Mustaqil yurtimiz milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari qadam qo‘ydi. Har bir davlatning rivojlanishi uchun oldiga qo‘ygan maqsadiga, albatta, yosh avlodiga bergan mukammal bilimi, milliy tarbiyasi bilan erishadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida: “Yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi”, deya yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan betakror fikrlarini bildirganlar. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning xarakterida, psixologik qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmayapti, mazkur fazilatlarga nisbatan amaliy odatlar sifatida shakllanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigitqizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy va salbiyga bo‘linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini, qiyomatgacha boqiy qoluvchi, barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodati yo‘lini ko‘rsatib beruvchi dini — Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko‘plab oyat va hadislar vorid bo‘lgan. Mana shu oyat hadislarga og‘ishmasdan, to‘laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiqi bilan, o‘sib o‘nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyali bo‘lib o‘sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mamnun bo‘ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo‘lishadi. Islom diyni hech kimni hech qachon yomonlikka

chaqirmaydi balki doimo yaxshilik qilishga, go‘zal xulqlar bilan xulqlanishga, halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko‘rinishi. Buni ijobiy tarbiya deyiladi.

Endi salbiy tarbiya qanday bo‘ladi, nimadan kelib chiqadi? Salbiy tarbiya bu ijobiy tarbiyaning aksi bo‘lib, uning salbiy ekanligi faqatgina ta'lim orqali bilinadi. Uning kelib chiqishi johillik sababidan, qaysarlik va bo‘yinsunmaslikdan, havoi nafsga berilib ketishdan kelib chiqadi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida, yoshlar orasida mashhurlik darajasiga erishgan «Ommaviy madaniyat» deb ataluvchi ofat yoshlarning orasiga chuqur singib ketgan bo‘lsa-da, uning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirlari mana endi endi muhokama qilinmoqda. «Ommaviy madaniyat»ni yoshlarning yurish turishida, salomlashishida, ayniqsa kiyinishida yaqqol ko‘zga tashlansa-da, ko‘pchilik bunga oddiy holdek yondoshib, «bu moda, zamonning talabi shunday» deb bahona izlashadi.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish/ko‘rsatish/o‘rgatish/namuna bo‘lish kabi ta’sirchan pedagogik-psixologik usullarni isloh qilish va shu orqali milliy, ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari inson e’tiborini tortadi. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lutolar ilmiy asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, uning psixologik qonuniyatlarini bilmaslik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati bir qator qarorlarda jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli [2], 2019 yil 3-maydagi PQ- 4307-sonli[3], 2021 yil 26 martdagi PQ- 5040-sonli Qarorlari[4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31- dekabrdagi 1059-sonli[5] qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi pedagogik, psixologik omillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, mazkur tahdidlarga nisbatan psixologik-g‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Respondentlardan “Ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz? deb berilgan so‘rovnomaga ko`ra “Ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi mas’uliyatini anglamaydi” javobiga viloyatlar kesimida Buxoro 44 % , Toshkent 50 % , Samarqand 53 % , Sirdaryo 57%, Jizzax 57,4 %, Navoiy 60 % natijalarni ko`rsatgan. Oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik tahdidi aholi orasida boshqa tahdidlarga nisbatan xabardorligi pastligi bo‘yicha 55% ya’ni salbiy ko‘rsatkichga ega. Bu aholining oilada yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya bilan bog‘liq ishlarda sustkashliklar ko‘p ekanligini, yoki tarbiya masalasiga past munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Bu illatning salbiy oqibatlaridan ko‘pchilik behabar.

Qolaversa ota-onalarni farzand tarbiyasi mas’uliyati to‘g‘risida Konstitutsiyamizning 64-moddasida ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar.

Muqaddas islom diynimizda “Ey iymon keltirganlar! O‘zingizni va ahlingizni yoqilg‘isi odamlaru toshdan bo‘lgan o‘tdan saqlang…”. (Tahrim 6) deb bayon qilinadi. Oyati karimada Alloh taolo insonni avvalo o‘zini to‘g‘rilab olmoqligini va shundan so‘ng ahliga ta'lim va odob berishligini bayon qilmoqda. Shunday ekan o‘sib kelayotgan yosh avlodni, ularning ongiga ta'sir qiluvchi har qanday salbiy holatlardan himoya qilish iymonli kishilarning burchi ekan.

Ibn Mas'ud r.a dan rivoyat qilinadi : Nabiy s.a.v dedilar: “Qiyomat kuni odam bolasining qadami to undan besh narsa haqida: umrini nimaga sarflagani, yoshligini nimaga ketkazgani, molini qayerdan kasb qilib olgani va qayerga sarflagani, bilganiga qanday amal qilgani haqida so‘ralmagunicha, Robbi huzuridan uzilmaydi”. Termiziy rivoyat qilgan.

Boshlang‘ich ta’lim o‘zuvchining shakllanishi, rivojlanishi uchbun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaga berilgan bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda olib borish bevosita yangi talablar asosida yaratilayotgan darsliklarga ham borib taqaladi. Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarning darsliklarida berilgan mavzular o‘quvchilarda milliy tarbiyaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarining milliy tarbiyasida uning muomala odobi, tarbiya qoidalariga rioya qilishi hamda boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Maktabda milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida boshlang‘ich o‘quvchilarining axloqiy sifatlari tarkib topadi va ilk axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Jumladan, odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, g‘oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi, mehr-oqibatlilik, muomala. Shu sifatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirishda turli xil usul va vositalarni ishlab chiqib, ta’lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, unga mos ishlanmalar yaratish, milliy tarbiyalashda bolalarning yoshini hisobga olgan holda didaktik materiallar tanlash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos holda pedagogik va psixologik ta’sir ko‘rsatish usullarini tanlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, milliy urf-odat va an’analarimiz, boy ma’naviy merosimizga yo‘g‘rilgan o‘zbekona milliy tarbiyamizni kelajak avlod ongiga singdirib borish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu narsa ahamiyatliki, milliy tarbiya xususiyati tarbiyada rag‘batlantirishning ustuvor bo‘lishini taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy tarbiyalash metodikasida uch masala – tushuntirish, rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. Bularga amal qilmasdan kutilgan samaraga erishib bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich sinfda asosiy masalalardan biri o‘quvchilarning og‘zaki savodxonligini o‘stirish va nutqini ravon qilish hisoblanadi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim va ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi.

Xozirgi kunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni milliy tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashuv metodologik samaradorlikni oshirish taqozo etadi. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga xos bo‘lgan shakllarini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarimiz ongiga singdirib borishimiz zarur. Eng muhimi yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda milliy tafakkur, milliy ong, milliy mafkura, o‘zligimizga bo‘lgan hurmat, milliyligimizning bugungi ko‘rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko‘plab jarayonlarni amalga oshiramiz.

Maktabda milliy tarbiyaning tub mohiyatini yetkazib berish hamda bunyodkor g‘oyalarga undovchi milliy mafkuramizni rivojlantirish biz pedagog kadrlarning asosiy vazifamiz deb hisoblaymiz. Zero, o‘zlashtirishning pastligi o‘qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa. Oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo‘g‘rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo‘laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma’nan, ruxan sog‘lom, o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli//https://lex.uz/docs/3360950.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori https://lex.uz/docs/4320700.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 qarori. https://lex.uz/docs/5344692
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori
6. Quronov M. “Har bir ota-ona pedagog bo‘lish kerak” maqola. http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.Oila.2016.pdf.
7. Jabborov X. “Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari”. Psixologiya ilmiy jurnali, 2021 yil 3-son. B.110-118.
8. Tursunmurodova G. M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy ongni shakllantirish usullari” “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali № 16 B 92-94.
9. Jabborov X.X. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari” “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:378:745/749

Ma’suda IRGASHEVA,
K.Behzod nomidagi MRDI “Libos dizayni” kafedrasi o’qituvchisi
E-mail:Dizayin1987@mail.ru

TDPU (PhD), dotsenti G.Sh.Sharipova taqrizi asosida

MODA SOHASI TA’LIMINING FUNDAMENTAL VA INNOVATSION O’QITISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada dizaynning aktual yo’nalishlaridan biri bo’lgan libos dizayni sohasining fundamental hamda innovatsion bilim va ko’nikmalari asosidagi rivojlantiruvchi mexanizmlari atroflicha tadqiq etilgan. Shu bilan bir qatorda maqolada O’zbekiston moda sanoati ravnaqiga xissa qo’shuvchi yosh dizayner kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalari yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: utilitar va estetik funktsiyalar, libos dizayneri, moda tendentsiyalari, kostyum kompozitsiyasi, funktsional xususiyatlar, estetik qadriyatlar, kontseptual moda, onlayn va offlayn marketing qonuniyatlari.

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБУЧЕНИЯ ДИЗАЙНУ ОДЕЖДЫ

Аннотация

В статье подробно исследуются механизмы развития, основанные на фундаментальных и инновационных знаниях и навыках в области дизайна одежды, которая является одним из актуальных направлений дизайна. Кроме того, в статье выделены приоритетные задачи подготовки молодых дизайнеров, вносящих вклад в развитие фэшн-индустрии Узбекистана.

Ключевые слова: утилитарно-эстетические функции, модельер одежды, модные тенденции, композиция костюма, функциональные характеристики, эстетические ценности, концептуальная мода, законы онлайн- и офлайн-маркетинга.

FUNDAMENTAL AND INNOVATIVE MECHANISMS OF TEACHING CLOTHING DESIGN

Annotation

The article examines in detail the development mechanisms based on fundamental and innovative knowledge and skills in the field of fashion design, which is one of the current areas of design. In addition, the article highlights the priority tasks of training young designers who contribute to the development of the fashion industry.

Keywords: utilitarian-aesthetic functions, fashion designer, fashion trends, costume composition, functional characteristics, aesthetic values, conceptual fashion, online and offline marketing

Kirish. Ma’lumki, san’at asaridagi go’zallik insonga ijobiy hissiy-emotsional ta’sir etish xususiyati bilan ajralib turadi, ayniqsa ma’naviylik bilan yo’g’rilgan san’at asari [1]. Dizayn sohalaridagi oliy ta’lim tizimlari doirasida yaratiladigan har bir buyum yoki maxsulot o’zining utilitar funktsiyalari bilan bir qatorda estetik funktsiyalarga ham mos kelishi ya’ni, san’at asari darajasiga loyihalanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ayniqsa, “Libos dizayni” sohasi ta’lim jarayonlari mobaynida shakllantiriladigan har bir libos to’plami, bitiruv malkaviy ishlari insonlarni atrof muhit o’ziga xosliklaridan himoya qilishi talablari bilan bir qatorda, ularning obro’- e’tibor qozonish, qomatlaridagi yutuqlarni ko’rsatib, kamchiliklarini yashirish, ya’ni funksional va estetik talablarga birdek javob bera olgandagina ularni muvaffaqquyatli deb atashimiz mumkin.

Sababi, ta’lim jarayonlari mobaynida tayyorlanadigan kostyum kolleksiyalari loyihalari o’zining estetik xususiyatlari bilangina e’tiborli bo’lishi, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq etilishida zarur bo’lgan iste’mol qiymatiga ega bo’lmasligiga omil bo’ladi. Bu jihat, bo’lajak dizaynerlarning sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan haridorgir liboslar dizayn-loyihalarini shakllantirish bo’yicha bilim va ko’nikmalarining yetarli bo’lmasligiga ta’sir ko’rsatadi.

Mavzuga oid adabiyorlar tahlili. Talabalarning professor-o’qituvchilar tomonidan taqdim etiladigan bilim va ko’nikmalar asosida estetik, funktsional va zamonaviy marketing talablariga mos bo’lgan kostyum to’plamlarining dizayn – loyihasini yaratishlari o’ziga xos ma’suliyatni talab etadi. Xususan, bu jarayonda pedagog mutaxassislar kasbiy malakalarining yuqoriligi talabalar ya’ni, bo’lajak libos dizaynerlarning moda olamida e’tirof etiladigan libos hamda aksessuarlar namunalarini yaratishlariga zamin bo’ladi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar Ye.Abroze, T.Melaya, K.Shverova, X.Kamilova, F.Ataxanova, G.Hasanbayevalar tomonidan olib borgan tadqiqotlarida o’z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, liboslar dizayneri - jamiyat a’zolarining go’zal va qulay liboslar kiyishlariga bo’lgan ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida loyihalanadigan libos va aksessuarlarning yangicha ko’rinishdagi shaklini yaratuvchi rassomdir.

Ushbu natijaga erishish uchun talabalar libos dizayni ta’limida fundamental hisoblangan quyidagi amaliy-ijodiy jarayonlar bo’yicha bilim va ko’nikmalarni puxta egallashlari muhim sanaladi:

- libos dizayni sohasining asosi bo’lgan *kostyum kompozitsiyasi* qonuniyatlaridan xabardor bo’lish va ulardan to’g’ri hamda samarali foydalana olish;

- *kostyum konstruksiyasini qurish* ko’nikmasiga ega bo’lish va uning inson qomati o’ziga xosliklari bilan mutanosibligi jihatlari asosida libos shakllarini yaratish;

- *moda tendentsiyalari* va *moda uslublari* haqida bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish, ulardan yaratilishi ko’zda tutilgan kolleksiyaning umumiy talablari asosida foydalanish;

- liboslarni sanoat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan *texnologik* va *dekorativ* o’ziga xosliklar haqida yetarli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish;

- *gazlamalar turlari* va *rang yechimlaridan* samarali foydalanish kabi bilim va ko’nikmalarni shular jumlasiga kiritish mumkin. Yuqorida sanab o’tilgan bosqichma-bosqich amaliyotga tadbiq etiladigan amaliy jarayonlar natijasida talabalar o’zlarining san’at asari darajasidagi libos modellarini loyihalaydilar.

Moda sohasi shakllanishining ilk davrlaridan shu kunga qadar rivojlanish bosqichlarini bosib o’tgan liboslar dizayn-loyihalarini yaratish jarayonlari kiyim-kechak va ular bilan qo’llaniladigan aksessuarlarning yangidan yangi dizayndagi namunalarini ishlab chiqarishni ko’zda tutar ekan, avvalo kiyim nima va uning qanday vazifalarga ega ekanligi haqida to’laqonli ma’lumotlarga ega bo’lish muhim hisoblanadi. “Kiyimning asosiy vazifasi inson tanasini tashqi omillardan muhofaza qilishi bilan birga estetik funktsiyalar vositasida jamiyat a’zolarining o’ziga xos xususiyatlarini, qiyofa - imidjlarini namoyon qiluvchi tikuv buyumlarining majmui hisoblanadi” [1].

Oliy ta’lim tizimlaridagi o’quv jarayonlari mobaynida talabalar «kostyum» va «kiyim-kechak» tushunchalarining mazmun – mohiyatini to’g’ri anglagan holda ularning farqli jihatlariga oid xususiyatlarini ham bilishlari talab etiladi. O’z o’rnida kiyimlarning barcha turlari – ko’ylaklar, kofta va yubka, shim; ustki kiyimlar – pidjak, plash, palto singari kiyim turlari aksessuarlar (bosh kiyim, oyoq kiyim, sumkalar, sharf va h.k.) bilan birgalikda insonlarda yaxlit assortiment ma’nosini, ya’ni kostyum xususiyatini namoyon etadi. O’zbek tilidagi “libos” iborasi mazmunan kiyim-kechakdan farqli tarzda fransuz tilidagi “kostyum” iborasiga mos holda ifodalanadi, masalan - shohona libos, ziyolilar libosi, din ulamolari libosi va h.k., ya’ni yaxlit - kostyum ma’nosida poyafzaldan tortib bosh kiyimigacha bo’lgan - individual qiyofa yaratishni o’z ichiga oladi. Kostyum ma’lum bir jamiyat yoki guruh doirasida odat va urf, ya’ni jamiyatda qabul qilingan holatlar va e’tiborlilikning tashqi ko’rinishidir [1]

Ma’lumki, libos dizayni sohasi doirasidagi oliy ta’lim tizimlarida talabalarga beriladigan ilk saboqlar kostyum kompozitsiyasi va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlarni tashkil etadi. Sababi, san’at va dizayn sohalarida yaratiladigan har bir asar yoki buyumlar uning maqsadlari, shakli va o’lchamlar mutanosibligiga asosli yondoshilgandagina isonlar e’tirofiga sazovor bo’ladi. Liboslarni badiiy loyihalashda “kompozitsiya” – kostyum qismlarini joylashtirish, mutanosiblik vositalari orqali tarkibiy yaxlitligini shakllantirishdan iborat. Loyihalashda kompozitsiya nazariyasi quyidagicha talqin etiladi:

- Kompozitsiya so’zi mazmunan yaratish jarayonlarini anglatib, tasviriy san’at sohalarida biror-bir yangi badiiy asar, liboslarda esa uning tarkibiy qismlarini bir - biri bilan o’zaro estetik uyg’un holda qo’llash orqali yaratiladi. Foydalanish uchun qulay bo’lgan tikuv buyumlarining shaklini hosil qilish jarayonlarida uning funksional xususiyatlari, konstruktiv va estetik qadriyatini ham hisobga olish loyihalashning muhim jihatlaridan hisoblanadi [1].

- Liboslarni loyihalash jarayonlarida kompozitsiyaning vazifasi, ularning inson hayoti, turmush tarzi, e’tiqodi, qaddi - qomati, yosh xususiyatlari kabi bir qator muhim omillarga bog’liq xoldagi yechimida namoyon bo’ladi. Kompozitsion vositalarni o’z o’rnida qo’llash orqali libosning uyg’un holdagi ifodaliligi yaratiladi.

Libos dizayni sohasida kompozitsiya qonuniyatlari mazkur sohaning fundamental bilimlari sifatida e’tirof etilsa, uning zamon talablaridan kelib chiqadigan innovatsion xususiyatlariga moda sanoatidagi rivojlanish mexanizmlari javob beradi. Jahon moda sanoatining hozirgi kundagi aktual mexanizmlari:

- *moda sanoatida ustuvorlik kasb etayotgan “konseptual moda” tamoyillari* – kontsetual (lot. rationis – fikr, sabab). Libos dizaynida konseptualizm, avangard uslubining kichik bir ko’rinishlaridan biri bo’lib, o’zida moda tendensiyalari hamda dizaynerlarning texnik imkoniyatlari bilan bir qatorda g’oya va falsafiy qarashlarni ham aks ettiradi. Konseptual moda asosida yaratilgan kostyum to’plamlarda o’zgacha ma’no va dizayner ongidagi qarashlar tizimi ham namoyon bo’ladi. Shu bilan bir qatorda konseptual moda o’zida - g’oyaning shakldan ustunligi, individuallik, chuqur fikrlar majmui va dizaynerning o’ziga xos jasoratini ham aks ettiradi [2]. Hozirgi kunda konseptual moda an’analari sekin-astalik bilan bo’lsa-da yurtimiz moda sohasi doirasida yaratilayotgan kostyum kolleksiyalarida ham o’z aksini topib kelmoqda;

- *zamonaviy ilm-fan yutuqlari natijasida yaratilayotgan “aqlli gazlamalar”* (yuqori sifatli va yuqori samarali tola ishlab chiqarish, yuqori sifatli to’qimachilik maxsulotlarini innovatsion metodlar asosida ishlab chiqarishni o’z ichiga oluvchi moda brendlarining faoliyatini qamrab oladi). Jahon modasida “aqlli matolar” to’qimachiligi passiv, aktiv va ilg’or aqlli matolar turlariga ajratilgan holda ishlab chiqarilmoqda [3]. O’z rangini o’zgartira oladigan, iqlim sharoitlariga moslasha oladigan, inson organizmidagi o’zgarishlarni aniqlaydigan, suv o’tkazmaydigan gazlamalar nafaqat sog’liqni saqlash, sport va dam olish, hamda aerokosmik faoliyat turlarida balki, jahon moda sanoatida rivoji uchun ham beqiyos imkoniyatlar taqdim etmoqda;

- *moda sanoatiga kiritilayotgan zamonaviy texnogiyalar* - asrimizning so’nggi o’n yilligi moda sanoatidagi rivojlanish tendensiyalari sohaga kiritilayotgan zamonaviy texnologiyalar asosida dizaynerlarga beqiyos imkoniyatlar taqdim etib kelmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, liboslarni 3D texnologiyalar asosida ishlab chiqarish, aqlli matolar, mobil kommersiya, virtual reallik, blokcheyn singari innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko’rsatkichlarining kun sayin oshib borayotgani ularning moda sanoatidagi ahamiyatini ko’rsatmoqda [4];

- *ishlab chiqarilgan kiyim-kechaklarni xaridorgirligiga xizmat qiladigan samarali onlayn va oflayn marketing qonuniyatlari* – moda sohasining mamlakatlar iqtisodiyoti rivojidagi ulushining yuqoriligi soha rivojining jamiyat uchun nechog’lik ustuvor vazifalardan ekanligini anglashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda esa biror bir sohaning rivojini marketing instrumentlarisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Libos dizayni sohasida ham samarali marketing instrumentlari haqidagi bilim va ko’nikmalar nafaqat marketolog mutaxassislari balki, libos dizaynerlari uchun aktuallik kasb etmodqa. O’zbekistondagi libos dizayni bo’yicha ta’lim tizimlarida samarali reklama va marketing bo’yicha talabalar ya’ni bo’lg’usi dizaynerlarga bilim va ko’nikmalar berilayotgani mamlakatimizda soha doirasida qo’lga kiritilayotgan yutuqlarni yanada yuksalishiga xizmat qilishini qayd etish mumkin.

Aytish joizki, yuqorida sanab o’tilgan libos dizayni sohasining fundamental va innovatsion bilim va ko’nikmalari soha doirasida yaratiladigan liboslar dizayn-loyihalari mahsuli hisoblangan kiyim-kechaklarning insonlar kundalik hayotiy faoliyatlari bilan chambarchas bog’liq ekanligi, bu esa o’z navbatida ta’lim tizimlarida ushbu ko’nikmalarning ahamiyatini nechog’lik katta ekanligini ko’rsatmoqda. Xususan, moda sanoatiga kiritiladigan yangiliklar o’z davrining dizayn sohalari doirasida mavjud bo’lgan talablarga mos keladi va jamiyat a’zolarining turmush tarzidagi o’zgarishlarning umumiy tendensiyalari bilan bog’liq bo’ladi. Ushbu tenedensiyalarni vaqtida anglash va ularni o’quv jarayonlariga kechiktirmay tadbiq etish oliy ta’lim dargohlari oldida turgan ustuvor vazifalar qatoriga kirmoqda.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda libos dizayni sohasidagi yuqorida ta’kidlab o’tilgan ustuvor vazifalar ijrosi Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn instituti

“Libos dizayni” kafedrasi o’quv jarayonlarida o’z aksini topib kelmoqda. Kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan ishlab chiqilayotgan fan dasturlari, zamonaviy darsliklar va o’quv-uslubiy qo’llanmalar asosida “Dizayn obyektini kompyuterda modellashtirish", "Feyshn illyustratsiya va gazlamalar dizayni”, “Zamonaviy moda va uslublar tarixi”, “Libos dizaynida vizual konseptsiyalar” kabi aktual fanlarni samarali o’qitish orqali ta’lim tizimlarining ishlab chiqarish bilan uzviyligi ta’minlanmoqda. Bu esa o’z navbatida, bo’lajak dizayner mutaxassislarning sanoat korxonalarida faoliyat olib borishlarida avvallari mavjud bo’lgan muammolarni bartaraf etilishiga zamin bo’lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Asadiy F. Milliy, etnografik va badiiy liboslarni loyihalash. T.: “Exstremium press”, 2016
2. Elektron resurs. https://dress-mag.com/style/conceptualism
3. Elektron resurs. https://fashionstudies.ru/tendencii-v-texnologiyax-menyayushhix-modu-2021/
4. Elektron resurs. https://www.testextextile.com/ru
5. Петров Л.В. Мода как общественное явление / Л.В. Петров. Л.: Знание, 1974 г.
6. Козлова. Основы теории проектирования костюма. -М.: Легпромбытиздат, 1988 г.
7. К.И.Рождественский и др. Художник, вещь, мода. М.: «Советский художник», 1988 г.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 1751

Maxzuna ISMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori professor I.M Tuxtasinov taqrizi asosida

INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KOUCHING TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Kouching texnologiyalari universaldir, shuning uchun ta’lim tashkilotida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan innovatsion fikrlash shakllantiriladi. Maqolada ta’lim-tarbiyada kouching fenomenini ko‘rib chiqamiz. Bulardan tashqari, maqolada ingliz tili mutaxasislarini tayyorlashda kouching texnologiyasining o‘rni va ahamiyatini o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: Kouching texnologiyasi, ta’lim texnologiyalari, jahon tajrimasi, ta’lim tizimi, pedagoglar.

ОСОБЕННОСТИ КОУЧИНГОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Абстрактный

Коучинговые технологии универсальны, поэтому инновационное мышление формируется у будущих педагогов в образовательной организации. В статье мы рассматриваем феномен коучинга в образовании. Кроме того, в статье рассматривается роль и значение коучинговых технологий в подготовке специалистов английского языка.

Ключевые слова: коучинговые технологии, образовательные технологии, мировой опыт, образовательная система, педагоги.

PECULIARITIES OF COACHING TECHNOLOGY IN TRAINING ENGLISH LANGUAGE SPECIALISTS

Abstract

Coaching technologies are universal, so innovative thinking is formed by future teachers in an educational organization. In the article, we consider the phenomenon of coaching in education. In addition, the article examines the role and importance of coaching technology in the training of English language specialists.

Key words: Coaching technology, educational technologies, world experience, educational system, pedagogues.

Kirish. Pedagogik kouching – bu norasmiy texnologiya va savol berish san’ati bo‘lib, motiv san’ati tushuniladi. Tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarini yaratish pedagogik qo‘llab-quvvatlash texnologiyasini ishlab chiqish, diagnostika va monitoring qilish imkonini beradi [10]. 10 ta xalqaro kouching maktablari amaliyotga joriy etilgan:

1. Xalqaro kouching Erikson universiteti;
2. Xalqaro kouching akademiyasi;
3. Yevropa kouching biznes markazi;
4. Nova Terra Coach Training & Corporate Development;
5. Xalqaro chuqurlashtirilgan transformatsiya akademiyasi;
6. GlobaL Coaching xalqaro universiteti;
7. ICP Centre xalqaro kasbiy kouching markazi;
8. OMEGA – Coacning centre;
9. OOO Pricewaterhouse Coopers Advisory;
10. Team Practicum [12].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘qituvchining maqsadi ta’lim oluvchiga o‘rganish, o‘zgartirish va maqsadlarga erishishda yordam berish bo‘lsa, talabaning maqsadi aniq vazifalarni hal qilish va oldindan aytib berishga erishadi. O‘qituvchi buyurmaydi, yo‘naltirmaydi, ko‘rsatma bermaydi, maslahat bermaydi, bir so‘z bilan aytganda, bosim, ta’sir o‘tkazmaydi. O‘qituvchi faqat tinglaydi, tushuntiradi, mulohaza yuritadi, umumlashtiradi, savollar beradi, xabardorlikni uyg‘otadigan takliflar beradi, taqdim etadi. Asosiysi, talaba (guruh, uyushma) hal qilishiga ishonch hosil qilish kerak. Ta’limning o‘zaro hamkorlik turli modellari mavjud:

takrorlash “Men aytaman – siz qilasiz”;
ustoz-talaba “Men kabi qil!”;
shaxsga yo‘naltirilgan model “Ijodiy tandem” o‘qituvchi-talaba teng shartlarda muloqot qilish, birgalikda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishishadi [10].

Kouching texnologiyasini qo‘llashda quyidagi natijalarga erishiladi:

kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish o‘z o‘quv faoliyatilarini bashorat qilish va loyihalashga erishiladi;

vaqtni samarali boshqarish, tahlil qilish, jamoada ishlash, muammoli tezkor qarorlar qabul qilish, vaziyat, nizolarni bartaraf etish, o‘z yutuqlariga e’tibor qaratish kabi maqsadlarni belgilash va muvaffaqiyatga (natijalarga) erishiladi [10]..

Li Linsun tadqiqotida kouching texnologiyasi qoidalari ta’lim-tarbiyaga joriy etilgan, talabalarning hissiy intellektini rivojlantirishga qaratilgan kouching texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan, musiqiy obraz bilan o‘zaro ta’siri, idrokning hissiy tomonining asosi sifatida ahamiyati hissiy va musiqiy aqlni shakllantirish uchun aniqlangan [9]. N.A.Ziryanovo fikricha, ta’limda kouching maqsadi talabalar faol va ongli o‘rganishga yordam berish, mustaqil bilim olish, ularning niyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatiga yordam berish, ko‘nikmalarni rivojlantirish, yaxshi ilmiy vazifalarini amalga oshirish va kerakli natijalarga erishishdan iborat [3].

Ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda “Yetti qadamli self-coaching strategiyasi” texnikasi, «Model GoMAD» texnikasi va «Donishmand bilan muloqot» texnikasi kabi kouching texnologiyalarini tavsiya qilamiz.

“Yetti qadamli self-coaching strategiyasi” texnikasi yetti bochqichlarda loyihalandi [13; 37-39 c.] (1.8-jadvalga qarang):

1.8-jadval.

“Yetti qadamli self-coaching strategiyasi” texnikasi

Qadamlar	Qadamlar mazmuni	Beriladigan savollar
1-qadam	Hayotingiz uchun javobgar-likni o‘z zimmangizga oling!	1) siz faqat hayotingizda sodir bo‘lgani uchun mas’ul bo‘lasizmi? 2) siz yashayotgan dunyoni o‘zing yarata olasizmi?
2-qadam	O‘zingizni bilib oling!	Qanday hayot kechirishni istardingiz? Nega siz haliyam shunaqa yashamaysiz? Hozir bu hayot sari qanday qadam tashlay olasiz? Nimani o‘zgartirishim kerak? Nima qo‘shishim kerak?
3-qadam	Bugungi kunda yashang!	1) Bugunga qayting va atrofga qarang sizning hayotingizda nima yaxshi? 2) Hozir nimani yaxshilash mumkin?
4-qadam	O‘tmishni tozalang!	1) Tugallanmagan ishingiz bormi? 2) Munosabatlar? 3) Tugallanmagan suhbatlar?
5-qadam	Yurakdan yashang!	1) Siz unga qanday prinsiplarni kiritasiz?
6-qadam	Nima istayotganingizni hal qiling!	1) Bu dunyoda Siz nima uchun yashaysiz? 2) Sizning qarashingiz qanday? 3) Siz bu dunyoga qanday muhim narsalarni keltirasiz? 4) Shaxsiy maqsadlaringiz ushbu dunyo bilan qanday bog‘liq?
7-qadam	O‘zingizni mustahkamlang!	1) Siz nima qilasiz? 2) Qanday? Qachon? Siz nimani o‘rganishingiz kerak? 3) Boshqalarga nimani namoyish qilish kerak?

«Модель GoMAD» техникаси сўзма-сўз инглиз тилидан “ақлдан озмоқ” деб таржима қилинади. Бироқ, моделнинг тўлиқ номи “Go Make A Difference” бўлиб, “Боргинда фарқни аниқла” деб таржима қилинади. Бошқача айтганда, ўсиш шахсий самарадорликда ташқарига чиқиш натижаси сифатида қаралади, ўзини стереотиплардан халос қилиш, намуналардан воз кечиш ва одатий фикрлашга эришилади [13](1.9-жадвалга қаранг):

1.9-жадвал.

«Model GoMAD» texnikasi komponentlari

№	«Model GoMAD» texnikasi komponentlari	«Модель GoMAD» техникаси компонентларининг мазмун-моҳияти
1.	Sababini aniqlash!	Ushbu komponent modelning qolgan qismlari uchun asos bo‘ladi. Sabab ta’lim oluvchining maqsadi, vazifasi yoki loyihasi uchun qiymatlaydi. Agar sabab mavjud bo‘lsa, unda maqsad sari harakat ongli va g‘ayratli bo‘ladi. Agar sabab bo‘lmasa, maqsadlarni belgilash, rejalar tuzish, harakatlarni tashkil qilish va hokazolarda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi
2.	O‘zinga ishon!	Ushbu noaniq jihatni o‘lchash juda qiyin, chunki o‘ziga ishonish nomoddiydir. Ammo boshqa tomondan, ushbu elementning mavjudligi imkon beradi siz boshqalarning qo‘llab-quvvatlash topish, maqsadga juda tez harakat qilish. O‘ziga ishongan inson bu ishonchni tarqatadi, shunday qilib, uning g‘oyasini amalga oshirishda boshqalarni jalb qiladi
3.	Maqsadni aniqlang!	Har qanday muvaffaqiyatli odam sizga to‘g‘ri, “aqlli” (SMART) maqsadlar juda samarali odamlarning hamrohi ekanligini aytishadi. Bu natijani batafsil tavsiflashda juda muhim hisoblanadi
4.	Ustuvorliklarni belgilang!	Har kuni bizga tushadigan ma’lumotlarning zamonaviy hayotning yuqori sur’atlari bilan tanishtirishga yordam beradi. O‘z faoliyatini rejalashtirish va topshiriqlarni “feys-nazorat qilish” orqali fan ustuvorliklari aniqlanadi. Katta maqsadlarlarga “zamin” bo‘lishida har bir burilish va muhimlik darajasini belgilaydigan vazifalar belgilandi
5.	Boshqalarni jalb qiling!	Biror ishni qilayotganda insonning o‘ziga bo‘lgan ishonch paydo bo‘ladi, maqsadga yo‘l rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin. Biroq, boshqa odamlarni o‘z rejalarini amalga oshirishga jalb qilish talab etiladi. Vazifalar yoki loyihalar ro‘yxatini yangi a’zolar bilan to‘ldiriladi. Ammo kerakli odamni guruhga qo‘shish mo‘ljallangan natijalarni erishishga imkon beradi
6.	Shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmangizga oling!	Shaxsiy javobgarlik – bu maqsad yo‘lidagi muqarrar to‘siqlarga qarshi kurashishga yordam beradi. Mo‘ljallangan maqsadga erishishda vazifalarning bajarilishi va nazorat qilishiga imkon beradi
7.	Harakatlaning va natijalarni tahlil qiling!	GoMAD modelining natijasi komponentlarning o‘zaro aloqadorligiga bog‘liq. Harakatlarsiz natijalar faqat orzuga aylanib qoladi

Muhokama va natijalar. *«Donishmand bilan muloqot» texnikasi. Eng dono odam – bu insonning o‘zidir. O‘zi haqida insondan ko‘proq bilishni boshqa hech kim qila olmaydi. “Kuchli” savollarga javob berish bu o‘zingiz uchun foydali bo‘lishi mumkin. “Kuchli” savollar quyidagilardan iborat:*

Qanday ichki to‘siqlar maqsadga erishishga to‘sqinlik qiladi va qanday qilib ularni motivatorlarga aylantirish mumkin?

Natijaga erishish uchun sizni nima to‘xtatmoqda?

Eng jiddiy to‘siqlar nima?

Maqsadda nimani chalg‘itishi mumkin?

Maqsadga erishishga nima xalaqit beradi?

Sizning nazorat sohangizda nima bor?

Sizning nazoratingizdan tashqarida nima bor?

Natijani tashqaridan yana kim nazorat qiladi va qay darajada?

Natijani shaxsan qancha nazorat qila olasiz?

Maqsadga erishish uchun kim javobgar?

Maqsadga erishishda shaxsan siz nimaga javobgarsiz?

Sizga yordam kerakmi? Yana nima? Agar javobni bilsangiz, nima deysiz?

Ushbu texnikada “kuchli” savollarning afzalliklarini tushunish muhimdir. Ular quyidagicha yordam beradi:

fikrni muammodan uning yechimiga o‘tkazishga;

har qanday vaziyatga nisbatan kuchliroq va konstruktiv his yetishga;

o‘zingizning ijodingizni ochish va tanlash uchun variantlar topishga;

muammo yoki imkoniyat sifatida biror narsani o‘zgartirishga;

muammolar haqida shikoyat qilishdan ularni hal qilishga o‘tishga [13; 40-c.].

Kouching samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi sifatida talaba rivojlanishiga qo‘shgan hissasida baholanadi. Oldindan kelishilgan aniq belgilangan maqsadlar va o‘lchanadigan mezonlar mavjud bo‘lsa, kouching samaradorligini kouching mashg‘ulotlari orqali erishilgan natijalarni baholash mumkin. Kouching samaradorligini miqdoriy va sifat mezonlari bilan baholash mumkin. Har bir talabaning o‘z vazifalari borligi sababli, samaradorlikni baholashning standart mezonlari mavjud emas, ammo kouchning professionalligi ularni yaratishda yordam beradi. Samarali kouching mashg‘ulotini o‘tkazish uchun kouchlar maslahatchisi yaxshi kouch sifatlariga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. Bu yerda, masalan, faqat ba’zi mezonlarni keltirish mumkin [14] (1.10-jadvalga qarang):

1.10-jadval.

Kouching samaradorligini baholash mezonlari

№	Miqdoriy ko‘rsatkichlar	Sifat ko‘rsatkichlari
1.	Muayyan ish oqimiga sarflangan vaqt	Ish jarayonidan qoniqish
2.	Talabaning ma’lum birliklarda o‘lchanadigan mahsuldorligi (yozilgan maqolalar soni, yaratilgan slaydlar, o‘rganilgan so‘zlar va h.)	Ishni bajarish uchun motivatsiya darajasi va ishda kasbiy salohiyatni to‘liq ochib berish

3.	Qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlar soni	Qabul qilingan qarorlarning sifati va barcha tomonlarning ish jarayonidan qoniqishi
4.	Sizning talabalarga investitsiya qilingan vaqt	Talabalarning hissiy reaksiyasi va ularning motivatsiyasini oshirish
5.	Hal qilingan nizolar soni	Jamoadagi psixologik muhitni o‘zgartirish
6.	Muvaffaqiyatli taqdimotlar soni	Taqdimot sharhlarining mazmuni
7.	Jalb qilingan talabalar soni	Yangi talabalar bilan munosabatlarning chuqurligi va rivojlanish istiqbollari
8.	Murabbiy bilan ishlab chiqilgan xatti-harakatlarning yangi usullari tufayli olingan komissiya miqdori	Foydali natijalar va harakatlardan qoniqish hissi

Tadqiqotchi Lidham tomonidan to‘rt darajani o‘z ichiga olgan kouching ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi:

- asosiy ko‘rsatkichlar: kouching jarayoni, kouching usullari, kouching mahorati, kouching maydoni;

- talabaning ichki o‘zgarishlari: aniqroq ko‘rish va talabaning maqsadlariga e’tibor qaratish; ishonch va motivatsiya;

- талабанинг ташқи ўзгаришлари: олинган кўникмалар ва хулқ-атвор ўзгаришлари;

Тадқиқотчилар Лоуренс ва Уайт томонидан эса ташкилий коучингни баҳолаш моделини ишлаб чиқилди ва улар “Ташкилотнинг юқори мансабдор шахсларининг коучингини баҳолаш учун соат минораси модели” (Clocktower Model of executive coaching evaluation) деб номладилар. Моделни пастдан юқорига қараб таҳлил қилиш керак. Миноранинг биринчи “қавати” – бу ташкилотнинг бизнес мақсадлари билан боғлиқ бўлган коучинг мақсадлари даражаси. Коучингнинг дастлабки босқичларида мақсадларни яраштириш аллақачон коучингни баҳолаш усули ҳисобланади, чунки коучинг натижаси ва унинг ташкилот учун қиймати мақсаднинг қанчалик аниқ шаклланишига боғлиқ. Коучинг манфаатдор томонлар, албатта, бу жараёнда иштирок этади. Иккинчи даража – коучнинг мотивацияси ва унинг коучинг жараёнига жалб этилиши. Учинчи даража — коучинг методологияси — коучинг воситалари ёрдамида коуч учун махсус ривожланаётган муҳитни яратишни ўз ичига олади. Тўртинчи даража – хатти-ҳаракатлар аллақачон ташқаридан кузатиладиган ва баҳоланадиган мезон ҳисобланади. Моделнинг бешинчи даражаси – бу ташкилотнинг натижалари. Олтинчи даража – ROI, бу кўрсаткич махсус формулалар ёрдамида ташкилотда коучингни қўллашнинг молиявий самарадорлиги ҳисобланади [11]. Коучинг технологияси самарали мақсадга эришиш учун CSMARTE мезони таклиф қиламиз. Мазкур мезон қуйидагича мазмуни таҳлил қилинади:

– – ижобий маънодаги терминларни шакллантириш;

C (ontrolable) – назорат босқичи;

S (pecific) – махсус;

M (easurable) – ўлчанадиган;

A (ttainable) – самарали;

R (elevant) – келишилган;

T (imed) – муайян вақт оралиғида;

E (cological) – экологик [7].

CSMARTE мезони жадвали асосида касбий соҳага оид терминлар лойиҳалаштирилади (1.11-жадвалга қаранг):

1.11-жадвал.

CSMARTE мезони

Kasbiy sohalar		C	S	M	A	R	T	E
Yuridik								
Tibbiyot								
Energetika								

Коучинг технологиясининг босқичма-босқич тавсифи қуйидагича кўринади:

1) мавзу танлаш;

2) мақсадни аниқлаш (талабалар учрашувдан нимани олиб чиқишлари керак?);

3) ҳақиқатнинг очиқлиги (аслида нима содир бўлган, иштирок этилаётган муаммо, адабиётда тўпланган нарсалар ...);

4) танлов вариантларини кўриб чиқиш (имкониятлар ва ресурслар);

5) хулосалаш (аниқлик ва хабардорлик талабанинг бир қисми (гуруҳ, синф), мажбурият, у ёки йўқлигини англаш ҳаракат режасига эгами, қўллаб-қувватлашга, кучга муҳтожми, қатъият билан ҳаракат қиладими).

Технология янада содда тарзда тақдим этилиши мумкин:

1-қадам: вазиятни тушуниш;

2-қадам: нима яхшироқ бўлиши мумкинлигини тушуниш;

3-қадам: қандай қилиб яхшироқ қилишни тушуниш [6].

Замонавий таълимда инглиз тили ўқитувчилари кўпинча талаба учун тўғри мақсадларни белгилаш, тил тўсиғини енгиб ўтиш, психологик, ўзлари ва имкониятларига ишониш муаммоларига дуч келишади. Бинобарин, ўқитувчи нафақат инглиз тили ва уни тушунарли тарзда тушунтира оладиганлар ҳақида маълумот ташувчиси, балки ҳар бир талабага ёндашувни топа оладиган, индивидуал вазифаларни белгилашга вақт ажратадиган мутахассис сифатида ҳам фаолият олиб боради.

“Уолт Дисней стратегияси” ижодкорликни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ролли ўйин шаклида олиб борилади, унда иштирокчилар вазифани ижодий, реалистик ва танқидий каби уч нуқтаи назардан кўриб чиқадилар [8] (1.12-жадвалга қаранг):

1.12-жадвал.

Uolt Disney strategiyasi

Dreamers	Realists	Critics
everything is possible for you, you have a magic stick	listen attentively to D and Cr, analyze all the facts and give your final opinion on the subject	you see only negative side of the world. Be severe! No mercy!
1. What steps should be taken for total Digitalization of Russian education? 2. What improvements can teachers and students expect? 3. How will it reflect on our education?	1. Digitalization of Russian education- is it a phantasy or a reality? 2. Is it good or evil?	1. Can computers replace human teachers? 2. What factors can impede Digitalization? 3. What are disadvantages of Digitalization?

Ochiq-yopiq savollar. Og‘zaki nutqda so‘z birikmalarini takrorlashda, matn bilan ishlashda chet tili o‘qituvchilari uzoq vaqt ochiq savollar metodikasidan foydalanishgan, ularni maxsus savollar deb ataymiz. Ochiq savol – bu tushuntirishni talab qiladigan savol. Chet tilidagi ochiq turdagi savollar sizga tavsif berishga, fikr bildirishga imkon beradi va shuning uchun ma’lumot olish uchun ko‘proq foydalidir.

Yopiq savol – bu “ha /yo‘q”, “haqiqiy /yolg‘on” shaklidagi javobni talab qiladigan savollarning turlari tushuniladi [5].

T – modeli maqsadni aniqlash uchun loyihalanadi. T – modelida kouching savollari 2 qismga ajratiladi: keng savollar (ko‘p savollar, diqqatni jamlash), faqat bitta savol (eng qiziqarli, mazmunli savol) [5].

Dars bilan kouch-sessiyalarining farqlari mavjud (1.13-jadvalga qarang) [4]:

1.13-жадвал.

Dars bilan kouch-sessiyalarining farqlari

Dars tarkibi	Kouch sessiya tarkibi
Auditoriya bilan muloqot	Ishonchli munosabatlarni yaratish
Dars maqsadini shakllanitrish	Maqsadni aniqlash. Yakuniy natija
Dars mavzusi bo‘yicha ishlash (yangi materialni o‘rganish; malakani oshirish; umumlashtirish va tizimlashtirish va boshqalar.)	Tajriba yaratish. Imkoniyatlar va resurslarni tahlil qilish
Uy vazifasini belgilash	Maqsadga olib boradigan birinchi harakatlarni aniqlash
Refleksiya	Natijalar
Dars uchun rahmat!	Minnatdorchilik

Xulosa qilib aytganda kouching ko‘zlangan maqsadlarga samarali erishishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalangan holda insonga yordam ko‘rsatishning yangi yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Crazy English - Ingliz tili haqida qiziqarli faktlar. Elektron recourc: *Crazy English - Ingliz tili haqida qiziqarli faktlar (prep.uz)* Murojaat sanasi: 14.05.2021.
2. Isakulova N. et al. Supervision Method In Training A Specialist Or The Role Of Methodical Cooperation (On The Example Of Foreign Language And Literature Specialty) //Philology Matters. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. – С. 115-122.
3. Возможности коучинг-технология в формировании регулятивных ууд у детей младшего школьного возраста. Электронный ресурс: Возможности Коучинг-Технология В Формировании Регулятивных Ууд У Детей Младшего Школьного Возраста - Студенческий Научный Форум (Scienceforum.Ru). Дата обращения: 16.06.2021.
4. Емельяненко Т.В. Использование технологии коучинга в преподавании английского языка. Электронный ресурс: Использование технологии коучинга в преподавании английского языка | Методическая разработка: | Образовательная социальная сеть (nsportal.ru). Дата обращения: 03.05.2021.
5. Использование коучинга на уроках английского языка. Электронный ресурс: *Использование коучинга на уроках английского языка (infourok.ru)*. Дата обращения: 28.04.2021.
6. Костяева А.Н., Кузнецова Е.В. Коучинг как инновационная технология повышения профессионального мастерства педагогов // Педагогическая мастерская. Всё для учителя! № 9 (45) сентябрь 2015 г. – С. 19-22. Электронный ресурс: *RF-PM_journ_09(45).indd (e-osnova.ru)*. Дата обращения: 16.04.2021.
7. Коучинг – инструменты эффективного достижения целей. Международная Академия коучинга. – 47 с. Электронный ресурс: *www.virtuscoach*.com. Дата обращения: 16.04.2021.
8. Коучинг как эффективное средство развития творческих способностей обучающихся на уроках английского языка. Электронный ресурс: *Коучинг как эффективное средство развития творческих способностей обучающихся на уроках английского языка | Английский язык | СОВРЕМЕННЫЙ УРОК (1urok.ru)*. Дата обращения: 28.04.2021.
9. Ли Линьсун. Использование коуч-технологии в процессе формирования эмоционального интеллекта студентов-духовиков из КНР.: Автореф. канд. пед. наук. – Санкт Петербург, 2021. – 24 с. – С. 8.
10. Попова Ю.А. Особенности применения коуч-технологий в образовательной организации. Электронный ресурс: *elibrary_28977429_24544198.pdf (osu.ru)*. Дата обращения: 13.06.2021.
11. Проблема эффективности коучинга: исследования в рамках психологии коучинга (coaching psychology). Электронный ресурс: *Эффективность коучинга (vision-trainings.ru)*. Дата обращения: 16.04.2021.
12. Сабурина А.А. Коучинг как инновационный инструмент развития предприятий индустрии туризма и гостеприимства и вид бизнеса. – С. 161. Электронный ресурс: *Microsoft Word - Статья_Сабурина.docx (futureruss.ru)*. Дата обращения: 13.06.2021.
13. Самохвалова О.В. Применение коучингового подхода к управлению воспитательно-образовательным процессом в условиях модернизации образования. Методическое пособие. – Ижморский, 2018. – 48 с. – С. 37-39.
14. Эффективность коучинга. Электронный ресурс: *Эффективность коучинга (vision-trainings.ru)*. Дата обращения: 16.06.2021.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 159.9:100.5:125.2 (046)

Gulhayo ISMOILOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktaranti
E-mail: Ismoilovagulhayo93@gmail.com.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti Z. Kenjayev taqrizi asosida

HARMONY OF ECONOMIC REFORMS AND SPIRITUAL LIFE

Abstract
The article analyzes some views related to economic reforms and their impact on the spiritual image of a person. The process of implementing economic reforms and their impact on spiritual life have been studied.
Key words: Economy, globalization, value, society, spirituality, personal spirituality, spiritual maturity, integration, financial culture.

ГАРМОНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация
В статье анализируются некоторые взгляды, связанные с экономическими реформами и их влиянием на духовный облик человека. Изучен процесс проведения экономических реформ и их влияние на духовную жизнь.
Ключевые слова: экономика, глобализация, ценность, общество, духовность, духовность личности, духовная зрелость, интеграция, финансовая культура.

IQTISODIY ISLOHOTLAR VA MA’NAVIY HAYOT UYG’UNLIGI

Annotatsiya
Maqolada iqtisodiy islohotlar va uning shaxs ma’naviy qiyofasiga ta’siri bilan bog’liq ayrim qarashlar tahlil etilgan. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni va ma’naviy hayotga ta’siri o’rganilgan.
Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, globallashuv, qadriyat, jamiyat, ma’naviyat, shaxs ma’naviyati, ma’naviy yetuklik, integratsiya, moliyaviy madaniyat.

Kirish. XX asrning oxiri XXI asr boshlariga kelib milliy taraqqiyotimizda o‘ziga xos yangi tendensiyalar vujudga keldi. Xalqimiz mustaqillikni qo‘lga kiritdi va o‘zining rivjolanish yo‘lini belgilab oldi. O`zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz oldida juda muhim hayotiy muammolar paydo bo’ldi. Ulardan: moddiy-iqtisodiy yaratuvchilik muammolari va vazifalari yoki iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo’lsa, ikkinchidan ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish muammolari edi. Bu vazifalarga erishishda:

-xalqning ongini, dunyoqarashini milliy g’oyaga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy g’urur ruhida o’zgartirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg’unligini shakllantirish;

-milliy davlatchilikni mustahkamlash, milliy manfaatlarni tushunib etadigan avlodni tarbiyalash;

-milliy madaniy-ma'naviy merosni, shu jumladan diniy merosni tiklash, ona tili mavqeini yanada ko’tarish, e`tiqod erkinligini ta'minlash;

-xalq ta'limi, sog’liqni saqlash, ilm-fan, ommaviy axborot sohalarida islohot o’tkazish:

-eng asosiysi erkin fikrlovchi dunyoqarashi keng, ilm-fanga, go’zallikka, ijtimoiy taraqqiyot, shaxsiy kamolotga intiluvchi, ayni paytda o’zi uchun jamiyat hamda o’zi oldida mas'ul deb hisoblovchi kishini tarbiyalash lozim.

Bir so’z bilan ayatganda, iqtsodiy islohotlar va shaxs ma’naviy qiyofasidagi o’zgarishlar dialektikasini aniqlash, ularni murosga keltirish dolzarb vazifaga aylandi. Chunki, jamiyat hayotining ikki mustaqil ayni vaqtda mushtarak bo’lgan ikki sohasini puxta tahlil qilmasdan turib ma’naviy qiyofasi haqida so’z yuritish qiyin.

Mamlakatimizda iqtisodiyot bilan bir qatorda ijtimoiy-ma’naviy hayotda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviyat iqtisodiyot kabi huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb e’tirof etildi. Ma’naviy islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsadlardan biri ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Ma’naviy yetuklik insoning o‘z shaxsiy manfaatlarini, jamoa, el-ulus, yurt manfaatlariga moslashtira olishidir. Bu esa kishidan o‘z manfaatlarini ham, jamiyat manfaatlarini to‘g‘ri tushunishni, soxta qadriyatlarga, jozibali, ammo puch va g‘arazli chaqiriqlarga uchmaslikni, aldanmaslikni talab qiladi. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma’naviy islohotlarning asosiy maqsadi – milliy madaniy qadriyatlar va ajdodlar merosini qayta tiklash, ularning asl mazmunini kelgusi avlodaga yetkazish, insonparvarlik, bag‘rikenglik tamoyillari asosida barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu kabi maqsadlarga erishish o’z-o’zidan amalga oshmaydi. Buning uchun ma’naviyat bilan bir qatorda katta iqtisodiy imkoniyatlar ham talab etiladi. O‘zbekiston xalqining tub manfaatlarini, yuksak orzu – umidlari, ezgu niyatlari va buyuk ishlarni amalga oshirish butun xalqmiz ayniqsa, yosh avlodga bog‘liq. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: “Iste’dodli va bilimli yoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb etish muhim ahamiyatga ega,”- deb ta’kidlagandi [1:260]. O‘zbekiston tadbirkorlikni rivojlantirish, xalqimizni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida tizimli ravishda amalga oshirilayotgan ishlar jiddiy natijalar bermoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanayotganlar soni keskin oshdi. Aniqsa yoshlar o’rtasida tadbirkorlik ommalashmoqda. Masalan, “Respublikamizda samarali ishlayotgan 227 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Yurtimizda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda” [1].

Biroq keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik harakatini avj oldirishga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlar yaratishga katta e’tibor berilganiga qaramasdan, bu faoliyatga to‘siq bo‘lib turgan ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi ayrim hollarda yoshlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishdan hadiksirashlariga, xavfsirashlariga sabab bo‘lmoqda. Tanish-bilishchilk, korrupsion xolatlar, tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuv holatlari shular jumalasidandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot va ma’naviyat bilan bog‘liq muammolar bir necha asrdan buyon faylasuflarning e’tiborini o‘ziga jalb qilib keladi. Erix Fromm, Maks Veber, E. Dyurkgey, E. Toffler P. Draker, M. Kastels kabilarning asarlarida masalaning falsafiy muammo va yechimlari bilan bog’liq qarashlar mavjud.

Tadqiqoqt metodologiyasi. Iqtisodiyot va ma’naviyatning aloqalari juda rang-barang va murakkab jarayon bo’lib ular o’zaro aloqadorlikni talab qiladi va biri ikkinchisini doimo taqazo etadi. Iqtisodiyot ma’naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. “Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma’naviyatga nisbatan “buyurtmachi” vazifasini o‘taydi. Masalan, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabilar ilm-fanni, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining murakkablashuviga, ilmtalabligining oshishi ishchi va mutaxassislarda yangi mehnat ko‘nikmalari hosil bo‘lishini, ularning malakasi muttasil o‘sib borishini taqozo etadi. Bu esa jamiyatda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, umuman tarbiya va ta’lim tizimi rivojlanishiga, ma’naviy-psixologik muhit o‘zgarishiga, ishlab chiqarishda va turmushda ratsionalizatorlik, ixtirochilik, texnik ijodkorlikka moyillik kuchayishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, turli tovarlarni, mahsulotlarni va xizmat turlarini xaridorlarga yetkazish extiyoji har xil ko‘rgazmalar, shou-tomoshalar, konkurslar, lotereyalar va nihoyat reklama-axborot industriyasini vujudga keltirdi[2].

O‘z navbatida ma’naviyatning o‘sishi; ilmiy-texnika kashfiyotlari, aholi bilimlarining va malakasining oshishi, iqtisodiy tafakkurning o‘zgarishi, yuksak ijtimoiy marralarni ko‘zlash, yangiliklarga intilish iqtisodiyotni rivojlantiradi. Insonparvar jamiyatni faqat iqtisodiyot va texnologiyani rivojlantirib yaratish mumkin emas. Chunki faqat iqtisodiyot va texnologiya haqida qayg‘urilsa, insonni o‘z ayniyatini yo‘qotib, iqtisodiyotning oddiy murvatiga aylantirib qo‘yadigan texnokratik jamiyat qaror topish ehtimoli kuchayadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek shunchaki iqtisodiy o’sishlar inson va jamiyat hayotiga farovonlik olib kelmaydi. Resurslardan oqilona foydalanish ehtiyojlar va imkoniyatlar biriligini aniqlashda moliyaviy madaniyatga ham ega bo’lish talab etiladi. Moliyaviy madaniyat – shaxs moliyaviy ongi va faoliyati birligini ifodalovchi tushunchadir. U, bir tomondan, shaxsning moliyaviy xabardorligi, bilimlari va tasavvurlari, ikkinchi tomondan, uning moliyaviy faoliyati normalari va modellari, uchinchi tomondan esa, moliyaviy maqsad-muddaolari, qadriyatlari negizida tarkib topadi [3:72].

Moliyaviy madaniyat past bo‘lgan sharoitda hech qanday iqtisodiy imkoniyat ma’naviy yuksalishga olib kelmaydi. Ta’kidlash lozimki, moliyaviy madaniyat insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini va jamiyatga moslashuvini ta’minlaydi, ijtimoiy pillapoyalardan ko‘tarila borish imkonini beradi, kasbiy karyeraning jadal rivojlanishiga, o‘z shaxsini namoyon qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish cho‘qqilarini egallashga zamin yaratadi. Shaxsning yuksak moliyaviy madaniyatga ega bo‘lishining ijtimoiy ahamiyati ham katta: kishi-lar moliyaviy madaniyati yuksalgani sayin jamiyatdagi moliyaviy munosabatlar ham takomillashib boradi, moliyaviy xizmatlar sifati oshadi.

Shaxsning moliyaviy madaniyati mahdud ravishda takomil topmaydi. U turfa omillar ta’sirida mazmunan va shaklan o‘zgaradi. Masalan, uning shakllanishi jamiyatning iqtisodiy ahvoli, mehnat bilan mashg‘ul kishilarning maoshi miqdori, turli investitsion va sug‘urtaviy dasturlar kabi iqtisodiy omillar ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Uning moliyaviy bilimlari va qadriyatlari mavjud iqtisodiy-moliyaviy voqelikdan “rang oladi”, moliyaviy faoliyati esa aynan ana shu voqelik kontekstida amalga oshiriladi. Iqtisodiy omillar o‘zgarishi shaxs moliyaviy madaniyatining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida moliyaviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan choralar aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlar doirasida amalga oshirildi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi qaroriga muvofiq “O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” loyihasi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo‘yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo‘yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastur”[4:7] hayotga tatbiq etildi. Keyingi yillarda aynan yoshlarning moliyaviy madaniyatini oshirishga yo‘naltirilgan maqsadli loyiha va dasturlar ham paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonda tub islohotlarni amalga oshirishda “nainki moddiy farovonlikka, ayni paytda ma’naviy yuksalishga ham erishishni o‘zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og‘ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo‘lgan muvozanat va barqarorlikni taminlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda”[5:107].

Ko‘zlangan olijanob maqsadlarga erishish o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.Chunki islohotlar bilan bir vaqtda taraqqiyot sur’ati ham sezilarli darajada tezlashdi. Bugungi kunda dunyoda axborot tarqatish kuchaydi, universal axborot texnologiyalari paydo bo‘ldi. Bu esa g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini kengaytirmoqda. Dunyoning biron nuqtasida sodir bo‘lgan voqealar xaqida xabar har-xil ta’qidlarda bir zumda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamlar ma’lum davlatlar va siyosiy kuchlarning, turli mafkuraviy markazlarning doimiy bosimini sezib yashashga majbur bo‘lmoqda.

Mustqillikning dastlabki kunlaridan boshlab moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish borasida ko‘pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiy va ma’naviy islohotlar o‘zaro mutanosiblik kasb etmoqda. Olib borilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlarning pirovardida ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi turibdi. Iqtisodiy islohotlarimiz esa xalqimizni farovon yashashini ta’minlashdek olijanob vazifaga qaratilan. Aynan shuning uchun ham keyingi yillarda davlat rahba-rining tashabbusi bilan yoshlarda tadbirkorlik ruhini rivojlantirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish masalalariga jiddiy e’tibor berila boshlandi.

Agar ma’naviyat va iqtisodiyotning o‘zaro ta’sirini funksional yondashuvdan kelib chiqib tahlil etsak, ular ancha murakkab va rang-barang, har bir muayyan holatda har xil ekanligining, umuman olganda, ularning o‘zaro ta’siri bir-birinikidan kam emasligining guvohi bo‘lamiz. Mehnat bilan axloq tutashmasa, iqtisodiy munosabatlarda ma’naviyat masalalari, xususan, insonparvarlik talablari va meyorlari yetarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarish usgani bilan, insoniy munosabatlar

tanazzulga uchraydi, begonalashish kuchayadi. Bu, oqibat-natijada, ijtimoiy tanazzulga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy o‘sish bo’lmasa, xalq turmush farovonligi yuksalmasa, ma’naviyatning ko‘p sohalari ham rivojlanmaydi: g‘oyaviy ta’lim, san’at, ommaviy axborot vositalari, matbaachilik, ilm-fanning moddiy bazasi nochor ahvolga tushib qoladi, jamiyatning ijodiy izlanishlari susayadi. Turli shakllardagi mafkuraviy murosasizlik, mutaassiblik tarqalishi uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyot rivojlanishi uchun qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi, chunki iqtisodiyotning yangi texnologiyalarga, yangi g‘oyalarga bo‘lgan ehtiyojlari yetarlicha qondirilmaydi. Iqtisodiy tafakkur davr talabidan ortda qola boshlaydi. Insonparvarlik, halollik yetarlicha hisobga olinmagan joyda ish beruvchi bilan ishga yollanuvchi o‘rtasida ijtimoiy sheriklik emas, qarama-qarshilik vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ma’naviyat iqtisodiyotning rinojlanishiga, uning qayishqoqlik yoki inertlik darajasiga, yangiliklarga va yangilanishga ochiqlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviyatning meyoriy- baholash xususiyati iqtisodiyot kun tartibiga kuygan talablarni bajarishga yoki ularga nisbatan jamiyatni beparvo bo‘lishga undaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa shuki, chinakam bilimni shakllantirish, ma’naviy tarbiya jarayonini izchil va uzluksiz amalga oshirish orqali har qanday tahdid va tazyiqni oldini olish va bartaraf etish mumkin. Buning uchun esa jamiyatimizning har bir a’zosi islohot va o‘zgarishlarning nimaga qaratilganini, qanday amalga oshirilishi va uning natijasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmog‘i va faoliyatini shu asosda tashkil etishi muhimdir. Xalqimiz ko‘ngilidagi mustahkam ishonch, tilidagi cheksiz shukronalik tuyg‘usi, minnatdorchilik kayfiyatining asosiy boisi olib borilayotgan islohotlarning xalqchil ekanligidan ularning barchasi inson omiliga, uning manfaatlariga xizmat qilishidadir. Bu jarayonda ma’naviyat insonga kuch bag‘ishlaydi, uni harakatga undaydi va uning mustahkam ishonchiga aylanadi. Ma'naviyat muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o’zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko’rsatadi. Boshqacha aytganda ma'naviy jihatdan kishilar boyib borsa jamiyat ravnaq topa boradi va aksincha ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi. Iqtisodiyot va ma’naviyat uyg‘unligi, hamoxangligi ta’minlangan mamlakatda rivojlanish, taraqqiyotda ko‘zlangan maqsadga erishish oson kechadi. Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat asosiy e’tiborni faqat moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va ko‘paytirishga qaratib, uni yaratuvchi insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni o‘ylamasa, u albatta tanazzul va inqirozga yuz tutadi. Ma’naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma’naviyat yuksak bosqichga ko‘tarila olmaydi. Iqtisodiyot va ma'naviyat jamiyatning ikki sohasi bo'lib, bunga ko'ra ularning mohiyati sezilarli farqlarga ega, lekin shu bilan birga, birining ikkinchisiz mavjudligini ham tasavvur qilib bo'lmasligini yuqroda ta’kidlab o’tdik. Iqtisodiy soha iqtisodiy makon vazifasini bajaradi mamlakatning iqtisodiy hayotini tashkil etuvchi, boshqaruvchi va amalga oshiruvchi vazifalarni bajaradi. Jamiyat hayotining ma’naviy sohasi tarixan rivojlanadi. U geografik, milliy va boshqa xususiyatlarni o'zida mujassam etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston - turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining teng huquqli a’zosi.// Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. T.:O‘zbekiston, 2020.- B.260.
2. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. T.: Ma’naviyat, 2018.- B. 93.
3. Силина С.Н., Ступин В. Ю. От финансовой грамотности к финансовой культуре.// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Серия: Филология, педагогика, психология, 2017, №4.- 72-с.
4. Obilov M.R. Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari.// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019, №1.- 7-b.
5. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.- 107-b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:796.01.61

Faxriddin KARIMOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti
E-mail: faxriddinkarimov052@gmail.com

TMI dotsenti F.Tashpulatov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF A COMPLEX OF HEALTHY EXERCISES TAKING INTO ACCOUNT PHYSICAL FITNESS FOR MIDDLE-AGED MEN 45-60 YEARS OLD

Abstract

The research carried out in this article discusses the need for 45-60-year-old men to get rid of harmful habits and engage in public health training. It is important to take into account physical standards at this age. The process requires specific methodology, theoretical knowledge and skills. In the scientific article, a set of fitness exercises is offered within the above-mentioned age range and the results are analyzed.

Key words: Health improvement, sports exercises, healthy lifestyle, sports, general endurance, physical qualities, training, physical education, 45-60 years, load, endurance, training.

РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСА ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ С УЧЕТОМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЛЯ МУЖЧИН СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА 45-60 ЛЕТ

Аннотация

В исследовании, проведенном в данной статье, рассматривается необходимость избавления мужчин 45-60 лет от вредных привычек и занятия общественным здоровьем. В этом возрасте важно учитывать физические стандарты. Процесс требует определенной методологии, теоретических знаний и навыков. В научной статье предлагается комплекс фитнес-упражнений в вышеуказанном возрастном диапазоне и анализируются результаты.

Ключевые слова: Оздоровление, спортивные упражнения, здоровый образ жизни, спорт, общая выносливость, физические качества, тренировка, физическое воспитание, 45-60 лет, нагрузка, выносливость, тренировка.

O‘RTA YOSHDAGI 45-60 YOSHLI ERKAKLAR UCHUN JISMONIY TAYYORGARLIKNI HISOBGA OLGAN HOLDA SOG‘LOMLASHTIRUVCHI MASHQLAR JAMLANMASINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada olib borilgan tadqiqot 45-60 yoshli erkaklarning zararli odatlardan qutulishi, ommaviy sog`lomlashtiruvchi mashg`ulotlar bilan shug`ullanishining zaruriyatini muhokama etadi. Bu yoshda jismoniy me`yorlarning inobatga olinishi muhimdir. Jarayon o`ziga xos metodologiya, nazariy bilim va ko`nikmalarni talab etadi. Ilmiy maqolada yuqorida ko`rsatilgan yosh doirasida sog`lomlashtiruvchi mashg`ulotlar jamlanmasi taklif etiladi hamda natijalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Sog`lomlashtirish, sport mashqlari, sog‘lom turmush tarzi, sport, umumiy chidamlilik, jismoniy sifatlar, chiniqish, jismoniy tarbiya, 45-60 yosh, yuklama, chidamlilik qobiliyati, mashg`ulot.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-6099-sonli Farmonida hozirgi kunda Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatorida O‘zbekistonda ham aholining sog‘lig‘i, jismonan salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko‘rsatganligi ta’kidlangan. COVID-19 koronavirus infeksiyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo‘llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, bugungi pandemiya oramizdan ko‘plab fuqarolarimizni bevaqt dunyodan ko‘z yumishiga sabab bo‘lmoqda [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda, zararli odatlardan voz kechib, ommaviy-sog‘lomlashtiruvchi sport bilan doimiy shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me’yoridan ortiq iste’mol qilmaslikni, bir so‘z bilan aytganda, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda [2]. Shulardan kelib chiqib aytish lozimki, erkaklar uchun 45-60 yosh oralig`ida salomatlik o`ta muhim hisoblanadi. Bu davr uchun maxsus sog`lomlashtiruvchi me`yorlarni ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Sog‘lom turmush tarzi uchun umumiychidamlilik kabi qobilyatni rivojlantirish eng muhim harakat sifati hisoblanadi. Uning fiziologik negizini esa, aerobli funksiya tashkil etadi. Chidamlilik darajasi salomatliknipg asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, u, salomatlik darajasini boshqa ko‘rsatkichlari (mehnatga qobiliyatlilik, kasalliklarga va stresslarga nisbatan barqarorlik) bilan hamda, ularning davomiyligi bilan muvofiq holda keladi. U, umumiy va maxsus chidamlilik deb xillanadi [5].

Umumiy chidamlilik darajasining mezoni sifatida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarida Kuper testining ko‘rsatkichidan foydalanish mumkin (bu ko‘rsatkich 12 minut ichida yugurib o‘tiladigan masofaga tengdir) [4].

Biz 1-2-jadvalda yurish va yugurish bo‘yicha sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini boshlash uchun jismoniy tayyorgarligi talab darajasida bo‘lmaganlarning 45-60 yoshdagilarga 12 minutli Kuper testini jadval tarzida tavsiya qildik (1-2-jadvalga qarang).

1-jadval

Jismoniy tayyorgarligi shug‘ullanish talablariga javob bermaydiganlar uchun 12 minutli yurish testi

Haftalar	Masofalar km.da	Sarflanadigan vaqt, min. va sek.	Haftalik takrorlash chastotasi	Haftalik to‘plagan ochkolari
1	1,6	15:00	5	5
2	1,6	14:00	5	10
3	1,6	13:45	5	10
4	2,4	21:30	5	15
5	2,4	21:30	5	15
6	2,4	21:30	5	15

2-jadval

Jismoniy tayyorgarligi shug‘ullanish talablariga javob bermaydiganlar uchun 12minutli yugurish testi

Haftalar	Masofalar km.da	Sarflanadigan vaqt, min. va sek.	Haftalik takrorlash chastotasi	Haftalik to‘plagan ochkolari
1	1,6	13:30	5	10
2	1,6	13:00	5	10
3	1,6	12:45	5	10
4	1,6	11:45	5	15
5	1,6	11:00	5	15
6	1,6	10:30	5	15

Mashg`ulotlar doim aerobika va yengil yugurishni o`z ichiga olishi tabiiy. Biroq, bunda shu narsani hisobga olish kerakki, 800 va 1000 m ga yugurishning nisbatan qisqa vaqt ichida bajarilishi talab qilinadi va unda faqatgina aerobik funksiyagini emas, organizm, anaerobik funksiyasini ishga solishga majbur bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Umumiy chidamlilik ko‘pincha yugurish, suzish, tez yurish, velosiped uchish, eshkak eshish, chang‘i, konki uchish snngari siklli mashqlar orqali rivojlantiriladi. Aerobik funksiyani kiritish uchun yuklama 3 minutdan ko‘proq davom etadigan (ya’ni yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini faol harakatga keltirishi davri uchun yetarli) bo‘lishi zarur.

Yuklamalarning jadalligi yurak qisqarishi chastotasiga (YuQCh) ga muvofiq kelishi, ya’ni minutiga 120-170 zarbga to‘g‘ri kelmog‘i kerak (bu yerda pulsning taxminiy zarb chegarasi ko‘rsatilgan, chunki uning aniq kattaligi har bir kishining yoshiga hamda organizmning individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi, uning optimal darajasi esa anaerobli almashuv chegarasi (AACh) ga muvofiq keladi).

Turli yoshdagi kishilarga yuklamalarning mashg‘ulot samarasi hamda ularning tayyorlik darajasi o‘sha kishilarni mana shu yuklamalarga ko‘rsatgan reaksiyasi bilan belgilanadi. Chunonchi, agar,mashg‘ulot vaqtida ularning YuQCh va keyingi ko‘rsatkichlari davomiyligi jihatidan bir-biriga teng bo‘lsa, garchi ularning yugurish tezliklari turlicha bo‘lsa ham, yuklamasamarasi, mashqnn ularga ko‘rsatadigan ta’siri bir-biriga yaqin bo‘ladi. Bir kishi turli mashqlarni (yugurish, chang‘i, konkida uchish, eshkak eshish, yurish mashqlarini) bajarganida uning YuQCh (energiya sarflash quvvati) va mashg‘ulot vaqti (energiya sarflash hajmi) bir xil bo‘lgan paytda o‘sha kishining aerobli funksiyasi uchun mashg‘ulotsamarasi ham teng bo‘ladi [10].

Biroq, agar,yuklamaning jadalligi yetarli darajada yuqori bo‘lsa (YuQCh minutiga 110- 150 zarb atrofida bo‘lsa), u holda, jadallikning optimal darajasidagi yuklamani ma’lum bir chegarasida, uni ancha kamroq jadallik bilan, lekin ko‘proq vaqt sarflagan holda qoplash mumkin bo‘ladi. Bunda, mashg‘ulotning ikkinchi varianti vaqtida sarflangan energiyaning umumiy hajmi mashg‘ulotni birinchn variantida sarf qilingan energiya hajmidan bir oz ortiq bo‘lmog‘i kerak. Yuklamaning hajmi va jadalligi nisbatlarining turli variantlari 3- jadvalda keltirilgai.

3-jadval

Bir xil mashg‘ulot samarasini beradigan mashg‘ulot vaqti vauni jadallik nisbatlari turlicha bo‘lgan mashg‘ulot yuklamalarining variantlari (Kuper bo‘yicha)

Har kungi vaqti (min)	180	90	45	20	10
Yuklama (MKI darajasidan % hisobida)	20	30	40	50	60
Puls chastotasi harminutdagi tomir urishi	110	120	130	140	150

Yurish va boshqa siklli mashqlarni maksimal kislarod ishlatish (MKI)ning 20% dan past darajada (YuQCh minutiga 110 zarbdan kam bo‘lgan) jadallik bilan bajarilgan vaqtda chidamlilik (aerobli funksiya)ning mashg‘ulotsamarasi amalda unchalik katta bo‘lmaydi, lekin bunda katta zo‘riqish bilan bajarilgan jismoniy yoki aqliy mehnatdan keyingi funksiyalarni tiklash uchun zarur bo‘lgan faol dam olish samarasiga erishiladi.

Odamlarning yoshini va jinsini hisobga olgan holda yurish va yugurish uchun yuklamalarni me’yorlashtirish uslubiyati (R.Motilyanskaya va L.Erusalimskaya usullari) qiziqarlidir. Bunda yuklamalar jadal – tez yurish (4-jadval); yugurish bilan almashtirib turiladigan tez yurish; muttasil yugurish ajratib ko‘rsatiladi.

4-jadval

Tez yurish

Yoshi	Bosqichning davomiyligi	Masofa (metr)	Tezlik (min/km)	Puls (har minutdagi zarb)
40	2 hafta	2000	10	88-92
45	3 hafta	2000	12	88-90
50-60	1 oy	2000	115 dan 14 gacha	80-84

Yuqorida keltirilgan jadvallar erkaklar uchun ishlab chiqilgan. Xotin-qizlar uchun yuklamalar 20-25% qisqartirilishi kerak. YuQCh esa erkaklarnikiga qaraganda 5-8 ta zarba ortiq bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. To‘rtinchi bosqich dasturi bo‘yicha o‘tkaziladigan mashqlar aerobli funksiya (bardoshlilik)ning zaruriy darajasini saqlab turish uchun doimiy ravishda bajarib borilishi mumkin. Shu maqsadda, Kuper dasturidan ham foydalanish mumkin. Bunda hajm va jadallik nisbatlarini bir qancha variantlar bo‘yicha yuklamalarni tabaqalashtirish hamda ularni chidamlilikning bir qancha mashg‘ulot vositalari (yurish, yugurish, velosiped uchish, suzish)ga tatbiq etish lozim. Shunday ekan, salomatlik, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirishjismoniy madaniyati, sog‘lomlashtirish samarasi, sog‘lomlashtirish vositalari, usuliyatlari va tashkillash uslubiyatiga oid tushunchalar haqidagi nazariy bilimlarni berish ta’lim muassasalarining yetakchi vazifalaridan sanalishi va ularga oid malaka va ko‘nikmalar zahirasini oshirish nafaqat soha mutaxassislarini, ohir oqibat ota- onalar va oiladagi kattalarning asosiy vazifalardan biriga aylanishi hozirgi kunning talabidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-6099-sonli Farmoni. 29 b
2. Abdullayev A. O‘zbekiston pedagogika kollejlarida ayollarning kontingent salomatligi holatini monitoring qilish //Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali. – 2019. – №. 1. 42-44 b
3. Allamuratov S., Ernazarov G. Oliy ta’limda jismoniy tarbiya va sport qadriyatlari. 56-59 s
4. Kennet Kuper "Aerobika farovonlik uchun" Moskva, "FiS", 1989 - 226 b.
5. Maxsudov R. A. O‘rta maktab o‘quvchilarining Jismoniy tayyorgarligini NORMATIV TALABLAR BILAN Qiyosiy tahlili //Fan-Sportga. – 2020. – yo‘q. 3. - b. 59-60.
6. Olimov M. S., Davletyarova L. B., Mirjamolov M. X. Yugurish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi zaxiragini tayyorlash // Zamonaviy fan
7. Uraimov S. R. Harbiy texniklik litsey o'quvchilari somatometrik ko'rsatkorlari dinamikasi // Fan-Sportga. – 2019. – yo‘q. 2. - S. 68-71.
8. Uraimov S. R. Harbiy texnika litseyi o'quvchilarining jismoniy holatiga gipodinamiya omilining ta'siri // Bugungi fan: vazifalar va ularni hal qilish yo'llari [Matn]: materiallar. - 2019 yil - 117-b.
9. Xankeldiev Sh.X., Uraimov S. R. Chaqirilgunga qadar yoshlarning jismoniy holati. //Monografiya. Farg'ona-2020. – 2020 yil.
10. Uraimov S. R. Jismoniy tarbiya fanidan nazariy tarbiya // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. - 2020. - T. 11. - Yo‘q. 3.64-68b

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:1:008(575.1)

Zarmamat KENJAYEV,
Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
E-mail:zkenjayev.1983@gmail.com

Falsafa fanlari doktori O‘.Tilovov taqrizi ostida

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATNI TAKOMILASHTIRISH VAZIFALARI

Annotatsiya

Maqolada, davlat ekologik siyosatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, avvalgi bosqichlardagi natijalarni umumlashtirish, sohaga doir muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va xolis ifodalash zarurligi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Ekologik siyosat, ekologik munosabat, ekologik faoliyat, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, ekologik muammo, ekologik chora-tadbir, ekologik globallashuv.

ЗАДАЧИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье освещается необходимость совершенствования теоретико-методологических основ разработки государственной экологической политики, обобщения результатов предыдущих этапов, своевременного выявления и объективного изложения проблем отрасли.
Ключевые слова: Экологическая политика, экологическое отношение, экологическая деятельность, экологическая культура, экологическая ситуация, экологическая проблема, экологическая мера, экологическая глобализация.

TASKS OF IMPROVING THE ENVIRONMENTAL POLICY OF UZBEKISTAN

Annotation

The article highlights the need to improve the theoretical and methodological foundations of the development of state environmental policy, generalization of the results of previous stages, timely identification and objective presentation of the problems of the industry.
Key words: Ecological policy, ecological attitude, ecological activity, ecological culture, ecological situation, ecological problem, ecological measure, ecological globalization.

Kirish. Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar ekologik jarayonlarni avj oldirib yubordi. Ekologik jarayonlar ham jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi. Xalqaro ekologik siyosiy munosabatlar rivojlanishining har qanday darajasi, avvalgi bosqichning dialektik davomi bo‘lsa ham, funksional jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar, avvalo davlatlarning milliy ekologik siyosati strategiyasi va xalqaro munosabatlarga integratsiyalashtiruvchi institutlar potensialida namoyon bo‘ladi. Biroq, hozir hatto industrial va informatsion rivojlangan davlatlar ham, hayot kechirishning optimal ekologik sharoitini yaratishda, yetarli ilmiy-texnik baza va moliyaviy resurslarga ega emas. Buning ustiga, dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlarning siyosiy doiralarida, obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, ekologik siyosiy tafakkur rivojlanishidagi turli darajalar, internatsionallashish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik siyosatning nazariy asoslariga doir ilmiy tadqiqot materiallari, jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi, ekologik munosabatlarning ijtimoiy jarayonlarga ta’siri, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani soha mutaxassislari tomonidan o‘rganilgan. Ekologik munosabatlar samaradorligi va ekologik muammolar yechimida inson ekologik madaniyatini shakllantirish zaruriyati to‘g‘risida F.Qilichev, B.Omonov, G.A.Ochilova, K.S.Nomozov, Y.K.Manzarov, B.A.Ochilov [1, 2, 4, 5, 6, 9], O‘zbekiston ekologik siyosatini rivojlantirish imkoniyatlariga doir ilmiy ishlar B.Omonov, O‘.G‘.Tilavov, S.Mamashakirov [3, 7, 8, 10] tadqiqotlarida tahlil qilingan. Tahlil natijalarida, O‘zbekiston ekologik siyosatini xalqaro ekologi siyosatga integratsiyalashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik siyosiy munosabatlar globallashuvi sharoitida, milliy davlatlarning jahon tabiatni muhofaza qilish faoliyatidagi mehnat taqsimoti va ularning strategik vazifalari, bir bosqichdan boshqasiga o‘tishdagi xarakat dinamikasi, islohot va taraqqiyot modeli turlicha bo‘ladi. Turli mintaqa davlatlarining global ekologik siyosiy munosabatlarga integratsiyalashuvi, ularning tashqi milliy ekologik siyosati xarakterini ham, yo‘nalishini ham, namoyon qiladi. Shu sababli milliy ekologik siyosat va xalqaro ekologik munosabatlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan. Maqola mohiyatini yoritishda analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yangi asr arafasiga kelib, ekologik globallashuvning yanada avj olishi, uning tendensiyalarining O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri kuchayishi davlat ekologik siyosatini takomilashtirishni, bu boradagi mavjud muammolarni umumlashtirishni, ularni bartaraf etish strategiyasi va taktikasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Buning uchun, fikrimizcha, quyidagi vazifalarga diqqatni jamlashimiz zarur bo‘ladi: Birinchidan, O‘zbekiston ekologik siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish uchun uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish kerak. “Ekologik siyosat” tushunchasi definitsiyasiga aniqlik kiritmasdan, uning ko‘rinishlari, yo‘nalishlari, sohalari va tamoyillari xususida ilmiy tasavvurlarni shakllantirmasdan turib, uni takomilga undab bo‘lmaydi. Ikkinchidan, har qanday davlatning ekologik siyosatini yangi bosqichga olib chiqish uchun avvalgi bosqichlardagi natijalar umumlashtirilmog‘i

zarur. Bunday yondashuv ekologik siyosat borasidagi ijobiy tajribalarni aniqlash va saqlab qolish, bu tajribalardan yangi realiyalar sharoitida foydalanish, davlat ekologik faoliyati vorisiyligini ta’minlash imkonini beradi. Uchinchidan, ekologik siyosatni takomillashtirish uchun sohaga doir muammolar o‘z vaqtida aniqlanmog‘i va xolis ifodalanmog‘i, ularni vujudga keltirgan sabablar o‘rganilmog‘i darkor. Ekologik siyosat borasidagi muammolarning xas-po‘shlanishi, ularga panja ortidan qaralishi yaqin kelajakda jiddiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. To‘rtinchidan, ekologik siyosatning yangi bosqichdagi vazifalari, ularni ro‘yobga chiqarish yo‘llari to‘g‘risida mulohaza yuritish zaruriyati ham mavjud. Vazifalar va ularni amalga oshiruvchi mexanizmlarning aniq belgilanishi ekologik siyosatning samarasini belgilab beradi.

O‘zbekiston ekologik siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish uchun eng avvalo uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, ya’ni “ekologik siyosat” tushunchasi definitsiyasiga aniqlik kiritish, uning ko‘rinishlari, yo‘nalishlari, sohalari va tamoyillarini ifodalab berish taqozo qilinadi. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlasha boshlaganini aytib o‘tdik. Aynan shu davrda davlat va siyosat arboblari, olim va faylasuflar jamiyatning tabiatga ta’sirini muvofiqlashtirish lozimligi, buning uchun qator chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish kerakligi to‘g‘risida mulohaza yurita boshladilar. Mazkur mulohazalar ushbu chora-tadbirlarni ifodalovchi tushunchaning vujudga kelishi bilan yakun topdi. Amerikalik siyosatshunos olim Linton K. Kolduell ilk bor “ekologik siyosat” tushunchasini tilga oldi. Dastlabki davrlarda ekologik siyosat deganda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi texnologiyalardan foydalangan ishlab chiqaruvchini muayyan jarima to‘lashga undovchi choralar nazarda tutildi. O‘tgan asrning oxirlarida esa ushbu tushuncha bilan turfa ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan choralar ifodalanadigan bo‘ldi. Bizning davrimizda “ekologik siyosat” tushunchasi nisbatan kengroq ma’noda qo‘llanilmoqda.

Tushunchaning XX asr so‘nggi choragida ilmiy muomalaga kiritilgani bu boradagi sa’y-harakatlarning ham mazkur asrda vujudga kelganini anglatmaydi. Inson va jamiyatning tabiatga ta’sirini bir qadar muvofiqlashtirish va tartibga solish, bu munosabatlar natijasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faoliyat mudom davom etgan. Bu faoliyat turli subyektlar tomonidan tashkil etilgan, amalga oshirilgan va rag‘batlantirilgan. Masalan, mahalla faollarining tashabbusi bilan yaroqsiz holga kelgan suv manbalarining hashar yordamida tiklanishini, muayyan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish choralarini, sho‘r yerlarni yuvishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishini, kishilarning atrof-muhit va tabiiy boyliklarga munosabatini nazorat qilish niyatida amalga oshirilgan sa’y-harakatlarni ekologik siyosatning namoyon bo‘lishi sifatida baholash mumkin. Biroq, XX asrga qadar bunday siyosat uzlukli, muvaqqat va juz’iy xarakterga ega bo‘lgan. Bizning davrimizga kelib, ekologik siyosat ham mazmunan, ham tarkiban ancha murakkablashdi. U qator obyektlar tomonidan turli yo‘nalish va sohalarda turfa tamoyillarga asosan amalga oshirilmoqda. Bu hol ekologik siyosatning turli ko‘rinishlari, yo‘nalishlari, sohalari va tamoyillarini vujudga keltirdi. Binobarin, zamonaviy ekologik siyosatning mazmun va mohiyatini ularsiz tasavvur qilish mushkul.

Zamonaviy ekologik siyosat turli ko‘rinishlarga ega. Jumladan, turli xalqaro tashkilotlar tomonidan jahon miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, ekologik masalalarga bag‘ishlangan xalqaro ahamiyatga molik hujjatlar ijrosi odatda umumsayyoraviy ekologik siyosat deb yuritiladi. Undan farqli o‘laroq, davlat ekologik siyosati hokimiyat organlari, davlat tomonidan ta’sis etilgan vakolatli jamoatchilik tashkilotlari va shu kabilar tomonidan mamlakat hududidagi ekologik vaziyatni boshqarish, ekologik munosabatlarni tartibga solish va ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy choralarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ekologik siyosat haqida gapirganda uning mintaqaviy ko‘rinishi ham tilga olinadi. Bunda, bir tomondan, davlatning muayyan mintaqadagi ekologik vaziyatni asrash maqsadida amalga oshirgan choralari majmui, ikkinchi tomondan esa, shu mintaqadagi hokimiyat organlarining ekologik faoliyati, mahalliy miqyosda qabul qilingan ekologik xujjatlarning ijrosi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, lokal ekologik siyosat haqida ham gapirish mumkin. U yoki bu tashkilot doirasida amalga oshirilgan ekologik chora-tadbirlar shunday deb yuritiladi. Mazkur choralar tashkilot yoxud korxonaning atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklash maqsadida ro‘yobga chiqariladi.

Ekologik siyosatning barcha ko‘rinishlari dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega, albatta. Biroq biz tadqiqot mantig‘iga amal qilgan holda o‘z mulohazalarimizda davlat hokimiyat organlari, siyosiy institutlar, vakolatli jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ekologik siyosatni nazarda tutmoqdamiz. Darvoqe, davlat ekologik siyosati ekologik siyosatning eng mazmundor va tarkiban murakkab ko‘rinishi hisoblanadi. Chunki u bir vaqtning o‘zida yuqoridagi subyektlar tomonidan bir necha yo‘nalish va sohalarda murakkab tamoyillar asosida keng ko‘lamda, tizimli, uzluksiz ravishda olib boriladi. Davlat ekologik siyosatining asosiy maqsadi mamlakat hududida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va uning ekologik manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Davlatning ekologik siyosati turli sohalarda amalga oshiriladi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun birinchi navbatda umummilliy miqyosdagi ekologik faoliyatni yo‘lga qo‘yish zarur. Chunki mamlakatdagi ekologik vaziyat o‘z barqarorligini stixiyali ravishda vujudga keltirishi mumkin emas. Har qanday jamiyatdagi ekologik munosabatlar tartibga solish va muvofiqlashtirishni taqozo qiladi. Ekologik muammolarni esa umummilliy hamjihatlikni ta’minlash orqaligina bartaraf etish mumkin. Bularning barchasi jamiyat miqyosida muayyan ekologik siyosatni yo‘lga qo‘yish zaruriyatiga borib taqaladi. Binobarin, umummilliy sohada amalga oshirilgan ekologik siyosat mamlakat ekologik xavfsizligini ta’minlashning dastlabki shartidir. Bu siyosatning maqsadi va vazifalari, konseptual yondashuvlari va g‘oyalari, strategiyasi va taktikasi, huquqiy negizlari va tashkiliy-institutsional asoslari naqadar puxta shakllantirilgan bo‘lsa, uning samaradorligi darajasi ham shu qadar baland bo‘ladi.

Biroq ekologik siyosat mamlakat miqyosida amalga oshirilgan ekologik faoliyat bilan cheklanib qolmaydi. Mamlakat ekologik xavfsizligi xalqaro sohada ekologik siyosat yuritishni ham taqozo qiladi. Uning asosiy maqsadlari milliy ekologik manfaatlarni xalqaro maydonda himoya qilish, xalqaro hamjamiyat bilan ekologik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Millat ekologik manfaatlarini xalqaro miqyosda ifodalab berish va himoya qilishning ahamiyati beqiyos. Chunki xalqaro ekologik munosabatlarda manfaatlar pariteti buzilib borayotgan bir paytda milliy ekologik manfaatlarning poymol bo‘lishi xavfi yuzaga kelmoqda. Bu hol davlatning xalqaro sohadagi ekologik siyosatini puxta o‘ylangan dastur asosida amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda ekologik globallashuv tendensiyalari barcha mamlakatlardagi ekologik vaziyatga istisnosiz o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ularni bartaraf etish yoxud loaqal salbiy ta’sirini kamaytirish uchun xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Bu vazifa ham davlatning xalqaro sohadagi ekologik siyosati samaradorligini oshirish masalasiga borib taqaladi.

O‘tgan asr oxirida milliy mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy tajribasida davlat ekologik siyosati maqsadi va vazifalarini, yo‘nalishlari

va sohalarini rivojlangan mamlakatlarning yutuqlari asosida puxta belgilab olish, uning nazariy-metodologik negizlarini muttasil takomillashtirib borish istagini ko‘rish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda barcha mamlakatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ekologik manfaatlarni muhofaza qilish uchun o‘z ekologik siyosatini ilmiy asosda va jahon hamjamiyatining ilg‘or tajribalariga tayangan holda tashkil etishga intilmoqdalar. Bu amaliyot O‘zbekiston ekologik siyosatini takomillashtirishda ham dasturilamal bo‘lmog‘i darkor.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston ekologik siyosatining nazariy-metodologik asoslarini “ekologik siyosat” tushunchasining ilmiy ta’rifi, davlat ekologik siyosatining gumanistik qarashlar va demokratik qadriyatlar asosida shakllantirilgan maqsad va vazifalari, yo‘nalishlari va sohalari, tamoyillari, atrof-muhit muhofazasiga doir milliy va jahon tajribalari tashkil etadi. Mustahkam nazariy-metodologik asosga tayangan davlat ekologik siyosati mamlakatning ekologik xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Davlat ekologik siyosatining asosiy maqsadi mamlakat hududida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va uning ekologik manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

a) ekologik vaziyatni himoya qilish maqsadida;

b) ekologik munosabatlarni takomillashtirish maqsadida;

v) ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilgan choralar.

ADABIYOTLAR

1. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. https://conferencepublication.com
2. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2022.
3. Tilavov O‘.G‘. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2021.
4. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680
5. Omonov B.N., Ochilova G.A., Nomozov K.S., Manzarov Y.K., Ochilov B.A. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System.https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583
6. https://www.scopus.com/sourceid/21100216519 984-989
7. Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.
8. Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari//Tafakkur jurnali. 2014/1. –B.24-35.
9. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. –T.: “Voris – nashriyot”, 2021. 136 b.
10. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. ttps://elibrary.ru/tjvied
11. Ochilova C.A., Amonov B.N., Azamova S.A, Manzarov Y.K. Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 1:316(575.1)

Asliddin QULDOSHEV,
Samarqand Davlat Arxitektura qurilish universiteti dotsenti, f.d.
E-mail:asli-0708@mail.ru

SamDU dotsenti, f.f.d A.Samadov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYODA EKOLOGIK XAVFSIZLIK BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARINING USTUVORLIGI

Annotasiya

Maqolada ekologik munosabatlarda bag‘rikenglik tamoyillarining namoyon bo‘lish xususiyatlari xaqida ilmiy fikrlar bildirilgan. Ilmiy tahlillar asosida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati va uning ahamiyati haqida fikrlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, gumanistik tamoyillar, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, global bag‘rikenglik, ekologik munosabatlar.

ПРИОРИТЕТ ПРИНЦИПОВ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотатсия

В стате представлены научные мнения об особенностях проявления принсипов толерантности в экологических отношениях. На основе научного анализа разъяснены мнения о необходимости и важности осуществления действий, которые нелзя откладыват на основе экологической толерантности, взаимопомощи и сотсиалного сотрудничества государств в сфере охраны окружающей среды.

Ключевые слова: Глобализатсия, гуманистические принсипы, экологическая политика,экологическое безопасност, глобалная толерантност, экологические отношения.

PRIORITY OF THE PRINCIPLES OF TOLERANCE IN ENSURING THE SUSTAINABILITY OF ENVIRONTAL SAFETY IN CENTRAL ASIA

Annotation

The article presents scientific opinions on the features of the manifestation of the principles of tolerance in environmental relations. On the basis of scientific analysis, opinions on the need and importance of taking actions that cannot be postponed on the basis of environmental tolerance, mutual assistance and social cooperation of states in the field of environmental protection are clarified.

Key words: Globalization, humanistic principles, environmental policy, environmental safety, global tolerance, environmental relations.

Kirish. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida turli davlatlar, jamiyatlar, harakatlar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalar global ekologik siyosatida bag‘rikenglik (tolerantlik) va o‘zaro hamkorlik (ijtimoiy sherikchilik) hodisalarini falsafa fani kategoriyalari tizimi, xususan alohidalik, maxsuslik va umumiylik kategoriyasi kontekstida tahlil qilish, ularning tarixini ham, mazmunini ham, namoyon bo‘lish shaklini ham, istiqboli haqidagi tasavvurlarni ham milliy va mintaqaviy darajalarda konkretlashtiradi.

Eng muhimi, bir tomondan, “Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni — butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda” [1].

Ikkinchi tomondan esa, bu hodisalarning asosiy motivlari, harakatlantiruvchi mexanizmlari, tamoyillarini kompleks-sistemali ilmiy tahlil etish, uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, global ekologik siyosatni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligi sharti hisoblanadi. Zero, bunday yondashish tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash va ekologik barqaror xavfsizlikni ta’minlash faoliyati ilmiyligini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, O‘zbekistonda ijtimoiy ekologiya muammolari bo‘yicha mutaxassis, falsafa fanlari doktori, professor S.Mamashokirov, Qozog‘istonlik yirik olima – falsafa fanlari doktori, professor R.S.Sartaevalarning fikricha, ekologik faoliyatda bir-biridan nisbatan mustaqil davriy “kaskad”larni tashkil qiladigan masalalar nazariy asoslanishi kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy abstraksiya, kuzatish, qiyoslash, korrelyasion-regression, gipoteza tahlil usuliga asoslangan.

Bu metodologik-ilmiy xulosaga bizning maqolamiz mavzusi kontekstida qaraydigan bo‘lsak: 1) xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi (muayyan milliy, hududiy chegaralardan tashqaridagi turli sohalarning ekologik siyosiy munosabatlarga ta’siri) – umumiylik; 2) xalqaro ekologik siyosiy munosabat yo‘nalishlari va sohalari (barcha sohalardagi xalqaro munosabatlarning ekologik siyosiy jihatlari) – maxsuslik; 3) jahon suveren davlatlarining milliy ekologik siyosati (lokal va transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan milliy siyosiy faoliyati) – alohidalik; 4) ekologik siyosiy munosabat yo‘nalishlari, ko‘lami va darajalarining tashkiliy asoslari (muayyan tarixiy zamon va ijtimoiy makondagi individual

xususiyatlariga ko‘ra) – konkretligi dialektikasi ko‘zga tashlanadi.

Shuning uchun ham, xalqaro ekologik siyosiy munosbatlarni bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillari asosida tashkillashtirish va boshqarishda bu xususiyatlarni o‘zaro dialektik aloqadorliklarda olib qarash kerak.

Vaholanki, hozirgi globallashuv sharoitdagi dunyoning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda: insonparvarlik, o‘zaro yordam va tolerantlik tamoyillariga amal qilish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Zero, ekologik barqarorlik – jahon hamjamiyatining ham, uning alohida sub’ektlari rivojlanishi uchun ham shart-sharoit, asos hisoblanadi. Beg‘araz o‘zaro yordam va oqilona tolerantlikka, yuksak ma’naviy-axloqiy normalarga va siyosiy demokratiyaga, gumanistik tamoyillarga asoslangan ijtimoiy-ekologik munosabatlar – umuminsoniyatni umumiy maqsad asosida hamkorlikka olib keluvchi idealga aylanmoqda.

Xalqaro ekologik bag‘rikenglik va o‘zaro yordamning ma’naviy–axloqiy normalari, gumanistik-demokratik tamoyillari, eng avvalo, kundalik ijtimoiy ong shakllari, ma’naviy madaniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, hozirgi davrda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarning asosiy tamoyili – o‘z hududingda amalga oshirgan xatti-harakatlpri tufayli boshqa davlatlarning tabiatiga zarar yetkazmaslik shartligi tamoyili qaror topdi va xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Shu bilan birgalikda, boshqa davlat tabiatiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik mas’uliyati tamoyili ham qaror topa boshladi. 1972 yilda BMTning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha o‘tkazilgan konferensiya deklaratsiyasida bu tamoyillar umumlashtirilib va konkretlashtirilib “Inson erkinlik, tenglik va yetarli hayot sharoitlariga ega bo‘lish, munosib va yaxshi yashashga imkon beruvchi atrof-muhitga haqli asosiy huquqlarga ega”[3], deb ko‘rsatilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (Rio-de-Janeyro, 1992 yil), BMTning Ming yillik deklaratsiyasi (Nyu-York, 2000 yil), Barqaror rivojlanish bo‘yicha Yoxannesburg deklaratsiyasi (Yoxannesburg, 2002 yil), shuningdek BMT barqaror rivojlanish bo‘yicha konferensiyasining Rio-20 «Biz istagan kelajak» yakuniy hujjati prinsiplari va tavsiyalariga amal qilgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini va uning ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni, xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz”[4]. Bu esa, o‘z navbatida, har qanday davlatning global ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish sohasidagi siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish va integratsiyalashtirish – umuminsoniyat manfaatlariga mos keladi.

Shuni ta’kidlash joizki, hozircha hayot talablaridan orqada qolayotgan xalqaro ekologik munosabatlarda ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligini global ekologik siyosat darajasiga ko‘tarishning dastlabki ratsional-madaniy bosqichi hisoblanadi.

Bu haqda YU.M.Lotman “Madaniyat va portlash” nomli asarida munosabat sub’ektlarining o‘zaro ta’sir variantlarini uchta ehtimoliy yo‘nalishga ajratadi: birinchisi – o‘zaro ta’sir ishtirokchilari fikrlari mutlaqo turlicha bo‘lib, “umuman murosaga kelmaydigan” variant; ikkinchisi – o‘zaro munosabat sub’ektlari bir xil imkoniyatga, axborot bazasiga egaligidan, ularning imkoniyatlari mutlaq aynanligi varianti; uchinchisi – munosabat ishtirokchilarining manfaatlari turlicha bo‘lsa ham, ularning fikrlarida “konsensus maydoni” mavjud variantlardir [5].

Bugungi kunda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlardagi birinchi yo‘nalishda sub’ektlari passivligi, avvalo ularni ongli, erkin faoliyat imkoniyatidan mahrum qilib, barqaror taraqqiyotning yangi sifat bosqichiga ko‘tarish strategiyasini shakllantirishga negativ ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, hozirgi davrda insoniyat barqaror taraqqiyoti sur’atlarini ta’minlashda, uning ikkinchi va uchinchi variant yo‘nalishlarini rivojlantirish xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro ekologik siyosat sub’ektlarining axborot ayriboshlash va “konsensus makonini” yaratishi, ikki va ko‘ptomonlama shartnomalarda o‘zaro yordam va tolerantlikni namoyon qiladi.

Ikki va ko‘ptomonlama qabul qilingan xalqaro shartnomalar ekologik bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillarining rasmiylashtirilgan shakli bo‘lib, xalqaro ekologik huquqning manbasi hisoblanadi. Uning e’tirof etilgan legitimligi va imkoniyati realligi, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni: oqilona tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligini belgilaydi. SHuning uchun ham transchegaraviy tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish haqidagi xalqaro qonunchilikni tubdan takomillashtirish, global strategik maqsadlarni amalga oshirilishining muhim vositasi sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bunga faqat milliy ekologik huquqni global bag‘rikenglik, global o‘zaro yordam tamoyillariga asoslangan xalqaro siyosatni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning global madaniyatini shakllantirish orqali erishish mumkin. Shu o‘rinda 2018 yilda Respublikamizning Toshkent shahrida 5 iyun kuni «Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish borasida hamkorlikni mustahkamlash» mavzusida Markaziy Osiyo xalqaro ekologiya forumi bo‘lib o‘tdi. Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologiya va atrof-muhit masalalariga mas’ul vazirlik va idoralari, xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijiy ekspertlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Tadbirda Markaziy Osiyo mintaqasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy hududlarning bioxilma-xilligini saqlashda hududiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish ekologik muammolarni birgalikda hal etishda muhim omil ekani alohida ta’kidlandi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi har bir mamlakat uchun muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki inson hayoti yer, suv, havo, o‘simlik va hayvonot olami bilan chambarchas bog‘liq. Ulardan noto‘g‘ri foydalanish salbiy oqibatlarni olib kelishi muqarrar. SHu ma’noda, mintaqa tabiati, hayvonot va o‘simlik olami bioxilma-xilligini asrab-avaylashga har bir davlat mas’uldir.

Hozirgi davrda inson hayoti uchun optimal tabiiy asoslarini ta’minlashda, dunyo global sotsiomadaniy o‘zgarishlar dinamikasining istiqbol mo‘ljallarini belgilashda ekologik ilmiy dunyoqarash, ma’naviy-madaniy kapital, intellektual salohiyat potensiali faollashuvi, bevosita xalqaro ekologik siyosiy munosabatlardagi bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillariga amal qilishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. SHuning uchun ham “Tinchlik madaniyati” Rezolyusiyasida: “muayyan sotsial munosabatlarni aks ettiradigan qadriyatlar,

qarashlar va xulq-atvor turlarini o‘z ichiga olgan erkinlik, adolat va demokratiya, insonning barcha huquqlari, sabr-toqat va birdamlik, zo‘rlik ishlatishdan voz kechish kabi tamoyillar asosiga kurilgan munosabatlar rivojlanishiga yordam beradigan va tub sabablarini bartaraf etish orqali konfliktlarning oldini olishga yo‘naltirilgan, muammolarni dialog va muzakoralar yo‘li bilan hal etadigan, o‘z jamiyati rivojlanish jarayonlarida ishtirok etishi uchun barcha huquqlardan to‘liq darajada foydalana olish imkoniyatlarini kafolatlaydigan” [6] konsepsiya taqdim etilgan. Aytilganlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini va uning ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, hozircha hayot talablaridan orqada qolayotgan xalqaro ekologik munosabatlarda ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligini global ekologik siyosat darajasiga ko‘tarishning dastlabki ratsional-madaniy bosqichi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. T.: “O‘zbekiston”, 2008. - 10 b.
2. Mamashokirov S. “Vahimami yoki haqiqat”. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2012. - 65 b.
3. Манба: БМТнинг расмий сайти http://www.un.org/ru/.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil, 20-dekabr.
5. Балакина Е. И. “Диалог как средство сохранения разнообразия культур в условиях глобализации”. // “Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации”. Бишкек, 2007. - с. 19.
6. Kuznetsov V. “Geokultura. Osnovы geokulturnoy dinamiki bezopasnosti v mire XXI: Kultura-set”. - M.: “Kniga i Biznes”, 2003. – s. 16.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 17.022.1(5)

Nargiza KUTLIMURATOVA,
Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail:q_nargiza @mail.ru

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD S.Sharifzoda taqrizi asosida

HOSSEIN VAIZ KOSHIFI'S WORK "ETHICAL MUKHSINI" AND ITS EXPLANATION OF THE PROBLEM OF MORALS

Annotation
This article presents the views and opinions of the thinker Hussein Waiza Koshifi on the role of moral education in the harmonious and comprehensive improvement of the patriotism of the younger generation
Key words: Morality, morals, upbringing, “Ahlaki Mukhsini”, humanism, behavior, honesty, courage, vigilance, insight.

ПРОИЗВЕДЕНИЕ “ АХЛАКИ МУХСИНИ” ХУСЕЙНА ВАЙЗА КОШИФИ И ОСВЕЩЕНИЕ В НЕЙ ПРОБЛЕМЫ ЭТИКИ

Аннотация
В данной статье описаны взгляды и мнения мыслителя Хусейна Вайза Кошифи о роли нравственного воспитания в гармоничном и всестороннем развитии патриотизма молодого поколения.
Ключевые слова: Нравственность, нравы, воспитание, “Ахлаки Мухсини”, гуманизм, поведение, честность, мужество, бдительность, проницательность.

HUSAYIN VOIZ KOSHIFIYNING “AXLOQIY MUXSINIY” ASARI VA UNDA AXLOQ MUAMMOSINING YORITILISHI

Annotatsiya
Ushbu maqolada alloma Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqiy Muhsiniy” asari va yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol va vatanparvar etib kamol toptirishda axloqiy tarbiyani o‘rni haqidagi qarashlari va fikr-mulohazalari bayon etilgan.
Kalit so‘zlari: Axloq, odob, tarbiya, “Axloqi Muxsiniy”, insonparvarlik, xulq-atvor, rostgo'ylik, shijoat, hushyorlik, farosat.

Kirish. Ta`lim tizimida Sharq allomalarimiz merosini chuqur o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.Yoshlarimiz ongiga buyuk mutafakkirlarimizning ta`limiy –axloqiy fikr va qarashlarini singdirish, ularda kamtarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to’xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko’proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko’mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” deb ta’kidlab o’tadi[8].

Axloqiy fazilatlar yuzaga kelishiga ma`lum bir omillar ta`sir ko`rsatadi. Har bir axloqiy qoida muayyan ehtiyoj natijasida vujudga keladi va muayyan tamoyilga ko`ra rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko’rsatgan.

Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz Koshifiy XV asr mutafakkirlaridan biridir. U axloq, mantiq, musiqashunoslik, nujum, tabobat, islom tarixi, riyoziyot, hisob, siyosat, insho yozish san’ati, va’z san’ati ilmiga oid yuzdan ortiq asarlar yaratib, Sharqda ma’naviy madaniyatni rivojiga munosib xissa qo`shgan. Koshifiy o`z asarlarida inson zotini yuksaklikka ko`taradi va boshqa tirik mavjudotlardan yuqori qo‘yadi.

Koshifiyga katta shuhrat keltirgan asaridan biri “Axloqi Muhsiniy”dir. Bu ta`limiy-axloqiy asar 1495 yilda yaratilgan bo`lib, Husayn Boyqaroning o‘g‘li temuriy shahzoda, Marv xukmdori Muhsinga bag‘ishlangan. Mutafakkir shahzoda Abulmuhsinning faoliyatiga ijobiy baho berib, uni ideal hukmdor sifatida ta'riflaydi. Shuning uchun ham bu asarning nomini “Axloqi Muhsiniy” deb nomlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida yetuk va komil inson haqida, ular egallashi lozim bo‘lgan axloqiy xislatlar, go‘zal fazilatlar to‘g‘risida o‘z davri uchun qimmatli va tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlarni bildiradi. U yaxshilik va yomonlik, adolat, sabr, rizo, ixlos, xayo, adab, ehson, shavkat va marhamat, shijoat, rostgo‘ylik, xayrli va yaxshi ishlar, muloyimlik va boshqa axloq va xulq-odob qoidalarini ko`rib chiqadi. Asar 40 bobdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich boblarda ibodat, duo, ixlos va boshqa tushunchalari bayon qilingan. Keyingi boblarida podshoh va yuksak martabali davlat arboblarining vazifalari, axloq-odobi, mulozimlar bilan munosabati juda ko‘plab tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yoritilgan. Koshifiy bu asarida axloqqa oid mashhur asarlardan foydalanib, iqtibos va havolalar keltirgan. Shuning uchun ham u o‘zini musannif, ya’ni asar tuzuvchi deb ataydi.

“Axloqi Muhsiniy” asarining asosiy g‘oyasi inson faoliyatida yaxshi xulqni targ‘ib etishdan iboratdir. Asar muqaddimasida bu xususida alloma shunday yozadi: “Hakimlar chiroyli xulq shunday bir yo‘lki, bu yo‘ldan yurmay turib, izzat va sharif manziliga etib bo‘lmaydi va bu yo‘lga qadam qo‘ymay turib vujud raxtini hayvonot biyobonidan insoniyat doril mulkiga etkazib bo‘lmaydi,

deydilar.... Odamlarning qay birlarida chiroyli xulq va yoqimli xislatlar namoyon bo‘lsa, shu kishilar zebo ko‘rinadilar” [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida axloqiy kategoriyalardan biri bo‘lgan yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ochib berishga harakat qiladi. Butun insoniy fazilatlarni o‘zida aks ettiruvchi tushuncha bu yaxshilikdir. Mehr-shavkat, oliyhimmatlik, mardlik va shijoatkorlik, iffat, hayo, bilimdonlik, bag‘rikenglik, saxiylik, kamtarlik, to‘g‘rilik-bularning hammasi yaxshilikni anglatuvchi axloq va xulq-odob qoidalaridir,-deb ta‘kidlaydi mutafakkir.

Voiz Koshifiy fikricha yaxshi xulq inson umri mazmunini belgilovchi omildir. Yaxshilik jamiyat, xalq uchun qilingan ish bilan baholanadi. Inson hayoti ravon o‘tib ketaveradi. Gap uni foydali, mazmunli, yaxshi ishlarga sarf qilishdadir. Inson hayotda uchta yaxshilik qilishi shart. Birinchisi: odamlar uchun uy, ko‘prik, yo‘l qurish; ikkinchisi: mevali daraxt o‘tkazishi; uchinchisi: farzand qoldirishi kerak. Chunki bu yaxshiliklar olamda sobit qoladi. Yaxshilik insondan qoladigan abadiy yodgorlikdir. Koshifiy deydi:

Chunki qolmas bu jahon barqaror,
Yaxshi ish qilgilki,qolgay yodgor . [2]

Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan insonlarni 5 guruhlarga ajratadi: 1-guruhga o‘z tabiati va kelib chiqishiga ko‘ra yaxshi odamlar. Bunday kishilar hamma vaqt xalqqa yaxshilik qiladilar. Ularni hamma vaqt qo`llab-quvvatlash va ular bilan muomalada bo‘lish lozim. 2-guruhga mansub odamlar yaxshilikni faqat o‘zlarigagina ravo ko‘radilar. Ularning yaxshiligi faqat o‘zlari uchundir. Bunday kishilarni qadrlash va boshqalarga ham yaxshilik qilishlariga undash kerak. 3-guruh yuqoridagilarni o‘rtasida bo‘lib, ulardan xalqqa na foyda va na zarar yetadi. Ular o‘z tabiatiga ko‘ra, na yomon va na yaxshidurlar. Ularni yaxshilikka chaqirib, yomonlikdan saqlash kerak. 4-guruh – yomon odamlardir. Lekin ular hech kimga yomonlikni ravo ko‘rmaydilar. Ularni yomonlik qilmaslikka majburlash lozim. 5-guruh o‘ta yomon kishilar bo‘lib, ular xalqqa yomonlik qiladilar. Ularga nisbatan tahdid, qo‘rqitish va va‘da berish kabiy usullarni qo‘llash kerak.

Koshifiy yaxshilikning aksi bo‘lgan yomonlikka ham o‘z munosabatini bildirib, uni butun nuqsonlar, tuban illatlar majmui, deb xisoblaydi. Yomonlik ham yaxshilik kabi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, mutafakkir uning bir qancha turlariga alohida to‘xtalib o‘tadi. O‘g‘rilar, qaroqchilar, dilozorlar, xasadguy va baxillar, tamagir va xasislar, tuxmatchi va g‘iybatchilar, yolgonchi va axmoqlar, xoin va sotqinlar, laqmalar, badkirdor, fasodchi va fosiqlar, pastkash va razillar, xunrezlar, ayyor va badfe’llar kabilarni kiritadi. U yomon odamlar bilan munosabatda bo‘lishdan parxez qilishga undaydi. Yaxshilar bilan hamsuhbat bo‘lish davlat va saodat natijasini beradi va yomon odamlar bilan birga o‘tirish xorlik va pushaymonlik hosilini ko‘rsatadi, deydi. Yomon kishilarni ikki guruhdir, birini daf etish shart, yani ularni viloyatdan yo‘q etish kerak va yana birini man qilish lozim, ya’ni ular bilan suhbatlashishni taqiqlash kerakligini uqtiradi. [2]

Tahlil va natijalar. Koshifiyning bebaho axloqiy merosi barkamol avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. U o‘z asarida bola tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratadi. Bolaga iloji boricha yaxshi ta’lim tarbiya berish kerak, shunda u ezgu xislatlarni o‘zlashtiradi. Bolaning ongi beg‘ubor va musaffo, uni zararli illat va salbiy odatlardan saqlamoq lozim, deydi alloma. Koshifiy bolani yoshligidanoq o‘z qiziqishi va qobiliyatiga qarab, biror kasb hunarga yo‘naltirish va unga o‘z ustida izlanishi uchun shart-sharoit yaratib berish lozim deydi. Bunda bevosita ota-ona va muallimning naqadar ma’sul bo‘lishini uqtiradi. Koshifiy komil insonning o‘n xil fazilatlarini keltiradi:

Birinchisi, xayrli ishlarda insonlar bilan nizoga bormaslik;

Ikkinchisi, har qanday holatda ham, his tuyg‘u va ehtirosni jilovlay olish. Uchinchisi, birovlarning aybini, nuqsonini qidirmaslik.

To‘rtinchisi, insonlar baxtsizligiga hamdard bo‘lish.

Beshinchisi, bir inson ayb ish qilsa, va u o‘z aybiga iqror bo‘lsa, uni kechirmoq. Oltinchisi, yordamga muhtoj insonlarga, qo‘ldan kelgancha yordam bermoq. Yettinchisi, insonlar baxt–saodati uchun g‘amxo‘rlik qilish.

Sakkizinchisi, inson o‘zidagi bor kamchilikni ko‘ra bila olishi va uni tuzatmog‘i. To‘qqizinchisi, go‘zal xulq odobga ega bo‘lmoq.

O‘ninchisi, shirinsuxanlik va xushmuomlalikdir” [5].

Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining 21-bobida jud, saxovat xalqqa manfaat yetkazish va ehson esa yaxshilikni ko`rsatishdir deb ta‘kidlaydi.

Yaxshilik, xayr-saxovat, mehr-oqibat, silai-rahm kabi ulug‘ fazilatlar doimo insonga ziynat bo‘lib kelgan. Bunday olijanob xislatlarni o‘zida mujassam eta olgan insongina el-yurtning og‘irini yengil qila oladigan fazilatli shaxs hisoblanadi. Binobarin, inson ezgulik yo‘lida sa’y-harakat qilsa, umriga, rizqiga baraka kiradi, hayoti osuda, qalbi xotirjam bo‘ladi. Saxovat yaxshi nom chiqarishga sabab bo‘ladi. Ehson qalbdan do`st tutinmoqning boisidir. Xech sifat va xislat odamlarga, ulug‘lar va davlatmandlarga jud va saxovatdan yaxshiroq emas. Xabarda keltirilishicha, saxovat jannatning daraxtlaridan ekan. Uning shoxi balandlikka oliy fazilatlarga ulanadi. Dunyoda yaxshi nom qozonish uning gulidir va oxiratda karomat va saodat topish mevasidir. Xakimlarning biridan “hamma ayblarni o‘rnini bosadigan eng yaxshi hunar qaysi? deb so‘rasalar u saxovat deb javob bergan ekan[2].

Insonda yaxshi va yomon kabi xulqiy sifatlar mavjud. Go‘zal fazilatlar ila inson jamiyatda, insonlar orasida o‘ziga yarasha obro‘-e’tiborga ega bo‘ladi. Mana shunday fazilatlardan biri - bu rostgo‘ylik fazilatidir. Rostgo‘ylik insonning ma’naviy boyligi bo‘lib, insonni hamisha oliy baxt sari yetaklaydi. Rostgo‘ylik insonning fazilatli xulqlaridan biri sifatida hayotdagi hamma ishlarning tartibda bo‘lishini ta’minlaydi. Rostgo‘ylik inson qadrini yuksaklikka ko‘taradi.

Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining 25-bobini rostguylik fazilatiga bag‘ishlaydi. Inson azizu mukarramligi unga berilgan aqli, ongi, odob-axloqi va rostgo‘yligi bilan o‘lchanadi. Bu sifatlar insonni yetuklikka, Allohning rahmatiga, insonlarning hurmatlisiga aylanish uchun o‘zining beminnat hissasini qo‘shadi. Alloma rostguylik oxiratda najot topmoqqa sabab bo‘lishini aytib o`tadi. Arab podsholaridan biri o‘z o‘g‘liga qilgan vasiyatnomasida: “Ey farzand, agar xohlasang, hamma xalq sendan qo‘rqgaylar, buning uchun zinhor yolg‘on so‘zlamasligin lozim. Chunki yolg`onchi kishi bexosiyat bo‘ladi. Agar sen xalqingni ming shamshir bilan muxofaza qilsang ham, saltanatni ushlab turish uchun ming tig sarf qilsang ham, tilingda rostguylik javxari bo‘lmasa, senda xosiyat ham, salobat ham, xaybat ham bo‘lmas ”,- deb ta`kidlaydi[2].

Koshifiy o‘z pedagogik qarashlarida adolatni ulug‘laydi. Adolat barqaror bo‘lgan davlatning fuqarosi baxtiyordir.

Adl nuridurki mulk andin munavvar bo‘lg‘usi,
Jumlai olam nasmidin muattar bo‘lg‘usi.
Adling besh ayla, miskinlarning hojatin chiqor,

To saning ham jumla maqsudung muyassar bo‘lg‘usi - deydi Koshifiy[6]. Demak, mamlakatda adolat boqiy bo‘lishi kerak. Adolat inson nomini mashhur qiladi. Adolat — insonni baxt va saodatga yetkazadi. “Adolatning ma’nosi raiyat haqida barobarlik bo‘lurkim, to raoyo tobmagay, adal aybidurkim, mulkga oroyish berur va shu oyidurkim, aning nuri birla qorong‘ulik yorug‘ va haq subxonahu taolo bandalarini adl sifatiga buyurur”[9].

Xusayn Voiz al-Koshifiy vijdonlilikni insonni nazorat qiluvchi tuyg‘u hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, vijdonlilik ta’lim-tarbiya vositasida hosil qilinadi. Vijdonsizlik tufayli qabihliklar yuzaga keladi. Vijdoni, nomus, diyonati bo‘lmagan kishi dunyoda bo‘lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Xusayn Voiz al-Koshifiy kishilarni odil, halol bo‘lishga, har bir ishni vijdonan amalga oshirishga, diyonatli bo‘lishga da’vat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi Muhsiniy” asarida barkamol inson haqida va u egallashi zarur bo‘lgan ma’naviy–axloqiy go‘zal fazilatlar haqida so‘z yuritadi. Ushbu fazilatlar inson komilligining zamini bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Aliqulov. H. Falsafiy meros va ma`naviy-axloqiy fikr rivoji. T. 2009.
2. Husayn Voiz Koshifiy. “Futuvvatnomai sultoniy”. “Axloqi muhsiniy”. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashri, 2011 y. - 374 b
3. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi / Darslik. – Toshkent: “Istiglol” nashriyoti, 2005 y.- 304 b
4. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1995 y - 464 b
5. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O’qituvchi, 1996.
6. Mahmudov. R.J.Husayn Voiz Koshifiy. Ma’naviyat yulduzlari. T. 2001y. 241-245 b
7. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
8. Mirziyoyev.Sh. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. T.: 2016 y.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi . 1-jild T., O`zME. Davlat ilmiy nashryoti . 2000, 814-b
10. Zunnunov. A. Pedagogika tarixi / Darslik T.: Sharq, 2004 y,-335 b

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:159.9

Jasur MAJIDOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: majidov-jdpi@mail.ru

O‘zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

PROFESSIONAL FUTBOLCHILARDA O‘ZARO MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIDA SHAXS XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlar kechishiga shaxs xususiyatlarining ta’siri masalalari tahlil etilgan. Futbolchilarda shaxs xususiyatlarining jamoadagi o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘lishi qiyosiy tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Sportchi, shaxs, jamoa, guruh, o‘zaro munosabatlar, shaxs xususiyatlari.

ЗНАЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ФОРМИРОВАНИИ ОТНОШЕНИЙ У ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье проанализированы вопросы влияния личностных черт на процесс взаимоотношений в профессиональных футбольных командах. Проведен сравнительный анализ проявления личностных качеств футболистов в командных взаимодействиях.
Ключевые слова: Спортсмен, личность, коллектив, группа, взаимоотношения, личностные особенности.

THE SIGNIFICANCE OF PERSONALITY TRAITS IN THE FORMATION OF RELATIONSHIPS AMONG PROFESSIONAL FOOTBALL PLAYERS

Annotation

This article analyzes the issues of the impact of personality traits on the process of relationships in professional football teams. A comparative analysis of the manifestation of the personal qualities of football players in team interactions has been carried out.
Key words: Sportsman, personality, team, group, relationships, personality traits.

Kirish. So‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Futbol milionlar o‘yini sifatida hammaning dilidan joy olgan ommaviy sport turi hisoblanadi.Mazkur sport turida shaxsning muvofaqqiyati jamoa muvofaqqiyati bilan bog‘liq tarzda kechib, sportchining nafaqat idividual shakllanishiga, balki jamoa sharoitida guruh doirasida ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirib, o‘z-o‘zini anglab, shuningdek faoliyat negizida o‘z qobiliyatlarini namoyon etish asosida shaxs shakllanishining muhim bosqichini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jamoaviy o‘yin sifatida futbol nafaqat shaxsning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari takomillashuviga, balki individual qobiliyatlarning rivojlanishiga, irodaviy sifatlarning tarkib topishiga, jamoa a’zolari bilan munosabatlari asosida muhim ijtimoiy tajribalarni egallashida, ijtimoiy ong taraqqiy etishida, boshqalar oldida mas’uliyat hissini tarkib topishiga,bir so‘z bilan aytganda shaxs shakllanishi va tarkib topishida muhim rol o‘ynaydi.

2019- yil 4-dekabrdagi PF-5887 –sonli “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni doirasida mamlakatimizda 2030 yilgacha futbolni rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi mamlakatimizda ommaviy sport turi bo‘lgan futbolni rivojlantirish, mazkur sohada futbol klublari, sport ta’lim muassasalari uchun sport shifokori, sport psixologi, sport farmakologi, sport huquqshunosi va sport dietologi yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilish. Shuningdek, zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda trener, seleksioner (skaut), tahlilchi, hakam, marketolog va futbol menejeri yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali futbol mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish orqali O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida futbol mutaxassislarini tayyorlash markazini tashkil etish vazifalari belgilab berildi[1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun ilm-fan yutuqlaridan foydalanish ushbu sohada keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘tkazilishini taqazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sport psixologiyasida sportchilarning psixologik tayyorgarligi va psixik holatlarini boshqarish, sport jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar mavzusi juda dolzarb bo‘lib, u A.S. Puni, E.P. Ilin, A.B. Alekseev, Yu.Ya. Kiselev, G.D. Gorbunov, I.P. Volkov, A.N. Nikolaev, P.A. Rudik, A.B. Rodionov, Yu.L.Xanin, A. Stambulov, Yu.A.Kolomeysev, V.F. Sopov va D.S.Shedrin va o‘zbek olimlaridan Z.Gazievalarning aynan sport guruhidagi o‘zaro munosabatlar va guruhdagi psixologik muhitni o‘rganish borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir. [3,4,5,6,7]. Shunga qaramay ko‘plab tadqiqotlar

sportchi shaxsiyatini o‘rganishga qaratilishi bilan e’tibor qozonmoqda.Futbolchi shaxsiyatining o‘ziga xosligini o‘rganish borasidagi dastlabki harakatlar Braziliya terma jamoasida amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. 1958 yilda Shvetsiyada jahon chempioni bo‘lganidan keyin barcha futbolchilar sinovdan o‘tganligini ta’kidlanadi. Ammo bunday tadqiqotlar ko‘pchilik e’tiborini torta olmadi.Buning sababi asosan tadqiqot sportchilarning qobiliyat va intelektini aniqlashga qaratilganligi edi.Aslida bu ma’lumotlar allaqachon murabbiylarda bor edi.Shuning uchun ham bu kabi tadqiqotlar psixologik xizmatning futbolga kirib kelishini kechiktirdi.Lekin referent guruh sifatida futbol komandasini o‘rganish zarurati o‘zining dolzarbligini yo‘qotmadi.Olib borilgan keyingi tadqiqotlar sportning jamoaviy turi bo‘lgan futbolda psixologlar tomonidan quyidagi masalalar hal qilinishi va bu borada tadqiqotlar olib borilishi zarurligini ko‘rsatib berdi.Bular quyidagilar:

1) har bir futbolchining shaxsiy-individual xususiyatlarini o‘rganish;

2) jamoada ijtimoiy-psixologik iqlimni o‘rganish;

3) sportchilar va murabbiylarga bevosita psixologik yordam ko‘rsatish kabilardir[2, 13]

G‘arb psixologiyasida sport guruhidagi o‘zaro munosabatlarni sotsiometrik usulda o‘rganish borasidagi keyingi tadqiqotlarda sportchilarning ishchi va emotsional sifatlar bo‘yicha farqlanish divergensiya teoremasi(xofshetter) kelib chiqishiga olib keldi.Uning mohiyati shundaki, ishchi va emotsional sohalar bir-biri bilan bog‘liq emas, aksincha ular hatto qarama-qarshilikda.Bundan kelib chiqadiki, ishchanlik sifatiga ko‘ra yuqori statusga ega bo‘lgan sportchi, shaxsiy sifatlari bo‘yicha pastda turishi mumkin (guruhda emotsional yoqimtoylik va mashhurlikka ega emas). Yuqori klasdagi sport komandalarida o‘yinchilarning ishchanlik sifatlari, odatda emotsional sifatlaridan ustun qo‘yiladi.Ushbu komandalar shakllanishida yuqori ishchanlik statusiga ega bo‘lgan o‘yinchilar tanlab olinadi.Shu vaqtning o‘zida shaxs sifatida bular turlicha baholanishi mumkin.Ishchanlik va shaxsiy sifatlar bo‘yicha yuqori baholanganlar guruhda qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu kichik guruhning yetukligi va jamoaviy va individual qiziqishlarning birligini bildiradi. Konvergensiya (ya’ni o‘xshashlik) ikkala struktura bo‘yicha bo‘lsa, formal va noformal yetakchilarning bir xilligini ta’minlaydi, bu esa kelgusida komanda boshqaruvida muhim hisoblanadi. Sportchining u yoki bu jamoada bo‘lishidan qoniqishni ta’minlaydigan jihatlardan biri yaxshi sifatlarning baholashdagi konvergensiya hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, o‘yinchining komandadagi o‘rni mustahkamlanishini ta’minlaydi[3].

Tahlil va natijalar. Biz o‘z tadqiqotlarimizda professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratib,o‘zaro munosabatlar jarayonida sportchining psixologik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik.Tadqiqotda professional futbol jamoalaridan O‘zbekiston Proligasi jamoasi Zomin (25 nafar), Jizzaxning So‘g‘diyona (24 nafar), Qarshining Nasaf (17 nafar) jamoalaridan jami 66 nafar sinaluvchilar qatnashishdi.Tadqiqotda R.B.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi» S shakli-105 savol variantidan foydalanib,olingan natijalarni statistik tahlil qilishda SPSS-14 dasturidan foydalanildi.Quyidagi jadvalda Dispersion tahlil asosida futbol jamoalarida sportchilar shaxsiyatining asosiy xususiyatlari guruh sifatida futbol jamoasida o‘zaro munosabatlar kechishiga ta’siri qiyosiy tahlil qilingan (jadval-1).

R.B.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi» qiyosiy tahlili

jadval-1

R.B.Kettel bo‘yicha shaxs xususiyatlari	Futbol jamoasi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	F	Ishonch darajasi
A	Zomin	25	9,1600	1,95107	4,959	,010*
	So‘g‘diyona	24	7,6667	2,61545		
	Nasaf	17	7,1765	1,77607		
	Jami	66	8,1061	2,30804		
B	Zomin	25	3,0000	1,32288	1,474	,237
	So‘g‘diyona	24	3,4583	1,47381		
	Nasaf	17	2,7059	1,49016		
	Jami	66	3,0909	1,43288		
C	Zomin	25	6,7200	1,92614	,091	,913
	So‘g‘diyona	24	6,6667	1,92617		
	Nasaf	17	6,4706	1,87475		
	Jami	66	6,6364	1,88628		
E	Zomin	25	6,1600	2,26716	1,639	,202
	So‘g‘diyona	24	5,6250	1,88386		
	Nasaf	17	5,0000	1,90394		
	Jami	66	5,6667	2,06311		
F	Zomin	25	5,6000	1,68325	,189	,828
	So‘g‘diyona	24	5,5000	1,69398		
	Nasaf	17	5,8235	1,62924		
	Jami	66	5,6212	1,65264		
G	Zomin	25	8,3200	2,03552	3,492	,036*
	So‘g‘diyona	24	8,4583	1,74404		
	Nasaf	17	7,0000	1,80278		
	Jami	66	8,0303	1,94517		
H	Zomin	25	7,7600	,96954	2,539	,087
	So‘g‘diyona	24	7,2917	1,12208		
	Nasaf	17	8,1176	1,49509		
	Jami	66	7,6818	1,20459		
I	Zomin	25	6,4000	2,00000	1,619	,206
	So‘g‘diyona	24	6,2083	2,04257		
	Nasaf	17	5,3529	1,57881		
	Jami	66	6,0606	1,93652		
L	Zomin	25	5,5200	1,68622	,510	,603
	So‘g‘diyona	24	5,5833	1,10007		
	Nasaf	17	6,0000	2,00000		
	Jami	66	5,6667	1,58195		
M	Zomin	25	6,1200	1,85562	,960	,388
	So‘g‘diyona	24	6,1250	2,11233		
	Nasaf	17	5,3529	1,93459		
	Jami	66	5,9242	1,97142		
N	Zomin	25	6,2000	1,87083	,568	,570
	So‘g‘diyona	24	5,6667	1,83366		
	Nasaf	17	5,7647	1,82104		
	Jami	66	5,8939	1,83243		
O	Zomin	25	7,0400	2,03060	2,275	,111
	So‘g‘diyona	24	6,0417	2,25503		
	Nasaf	17	7,2941	1,75943		
	Jami	66	6,7424	2,09256		

Q1	Zomin	25	8,0000	1,84842	3,804	,028*
	So‘g‘diyona	24	7,3750	2,10202		
	Nasaf	17	6,3529	1,65609		
	Jami	66	7,3485	1,98062		
Q2	Zomin	25	5,4400	1,70978	,582	,562
	So‘g‘diyona	24	5,2500	1,72576		
	Nasaf	17	5,8235	1,59041		
	Jami	66	5,4697	1,67534		
Q3	Zomin	25	6,9200	1,97737	,396	,675
	So‘g‘diyona	24	7,0000	1,93368		
	Nasaf	17	6,4706	2,03463		
	Jami	66	6,8333	1,95789		
Q4	Zomin	25	6,4800	1,58430	3,499	,036*
	So‘g‘diyona	24	6,4167	1,69184		
	Nasaf	17	5,1176	2,17607		
	Jami	66	6,1061	1,85745		
MD	Zomin	25	7,5200	2,18174	,080	,923
	So‘g‘diyona	24	7,2917	1,85283		
	Nasaf	17	7,3529	2,14887		
	Jami	66	7,3939	2,02962		

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki R.B.Kettelning ko‘p omillilik asosida shaxsni o‘rganish testi natijalari bo‘yicha ayrim omillarda sezilarli farqlar kuzatildi Jumladan A – omil «Odamovi va muloqotga moyil» (1-rasm) Zomin futbol jamoasi sportchilari muloqotga tez va oson kirisha oladigan, muloqotga moyillik darajasini yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

A – omil «Odamovi va muloqotga moyil» shkalasi bo‘yicha farqlarning ifodalanishi

1-rasm



Omil G – «hissiyotlarga beriluvchan – xatti harakatlarning yuqori normativligi» omili bo‘yicha shaxs xususiyatlari ishfodalanishida Zomin futbol jamoasida ijtimoiy me’yorlarga amal qilish, faoliyatga yo‘nalganlik, mas’uliyat va aniqlik hamda maqsadga erishishda qat’iylik xususiyatlari yaxshi rivojlanganligi ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichdagi sezilarli farqlar Zomin jamoasining keyingi yillarda O‘zbekiston Proligasida ko‘rsatayotgan ijobiy natijalari bog‘liqligi, guruhdagi ta’rtib-intizomning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi kabi omillar bilan bog‘lashimiz mumkin.Buni quyidagi 2-rasm yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin.

«Hissiyotlarga beriluvchan – xatti harakatlarning yuqori normativligi»

G –omili bo‘yicha farqlarning ko‘rinishi

2-rasm



Keyingi sezilarli farqlar yana quyidagi omillarda ham kuzatishimiz mumkin:

Omil Q1 – «konservatizm-radikalizm» - omili bo‘yicha Zomin futbol jamoasida sportchilarida yaqqol radikalizm kuzatilib, sportchilarda tanqidiy yondashishga, yangiliklar yaratishga, yangiliklarni joriy qilishga kuchli motivatsiya kuzatildi va aksincha Nasaf jamoasida konservatizmga moyillik kuzatilib, an’analarga amal qilish, ahloqiy qoidalarni yaxshi ko‘rish va jamoada belgilangan ijtimoiy me’yorlarni xurmat qilish,sharoit taqozasi bilangina yangiliklarga intilish motivatsiyasini kuzatishimiz mumkin.Buni quyidagi diogrammada yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).

«Konservatizm-radikalizm» Q1- omili bo‘yicha farqlarning ifodalanishi

3-rasm



Tadqiqot jarayonida keyingi sezilarli farqlar Q4 - “Bo‘shashganlik - qo‘zg‘aluvchanlik” omili bo‘yicha kuzatildi.SHunga binoan Nasaf jamoasida bo‘shashganlik, faoliyatga past motivatsiya, dangasalik, mavjud holatdan qoniqish, xotirjamlik kabi sifatlar kuzatildi.

Yuqori ko‘rsatkichlar qo‘zg‘aluvchanlikni ifodalab Zomin jamoasida qo‘zg‘aluvchanlikning yuqoriligi xavotirlik va frustratsiya mavjudligini kuzatishimiz mumkin.Lekin frustratsiya holatida insonda yuqori motivatsiya rivojlangan bo‘ladi. Maqsad sari intilish holatlari kuzatiladi.Sport jamoalarida mazkur holat musobaqa oldi jarayon sifatida baholanish ehtimolini oshiradi.Ko‘rsatkichlarni quyidagi diogrammada yanada aniqroq ko‘rishingiz mumkin (4-rasm).

Q4 -“Bo‘shashganlik - qo‘zg‘aluvchanlik” omili bo‘yicha farqlarning ifodalanishi

4-rasm



Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kichik guruh sifatida futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlar kechishi sportchilarning shaxs sifatlariga, jamoadagi ustuvor xulq-atvor ustanovkalariga va kasbiy mahorati (ishchanlik sifatlari)ga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.4-dekabr 2019- yil- http//lex.uz/m/acts/4631208
2. Борис Юрьевич Хигир.Психологический анализ в большом футболе.Москва 2017 г,184 с.13-14 с.
3. Ильин. Е.П. «Психология спорта»: Питер; Спб.; 2008. 352 с. 211-223 с.
4. Коломейцев Ю.А. Взаимоотношения в спортивной команде. - М.: 1984, с 246.
5. Ханин Ю.Л. Психология общения в спорте, М. 1980.208 с.
6. Щедрин Д.С.Учебные материалы по разделу «психология спорта и физической культуры» по предмету «Психология»-Соратов-2014
7. Gazieva Z.E. Sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (futbol komandalari misolida) psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi.Toshkent.,2019
8. Falsafa:ta’lim va innovatsiya.Yosh olimlar ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.O‘zMU 2012 –yil, 244-bet.
9. Majidov J. (2021). Спортдаги мулоқот ижтимоий психологик ҳодиса сифатида. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723
10. Majidov J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1981-1988.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘T: 316.46:796.071.2:343.9

Abror MAMADALIYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mamadaliyev010@mail.ru

p.f.d., professor O.Hayitov taqrizi asosida

RESULTS OF ASSESSMENT OF MANAGEMENT COMPETENCES OF SPORTS MANAGERS ON THE BASIS OF SITUATIONAL CIRCUMSTANCES

Annotation

This article emphasizes that the managerial competencies of the heads and deputy heads of sports schools, future sports managers are assessed through their attitude to situations of a motivational nature.

Keywords: Sport, sports manager, head of a sports school, managerial competence, the main cause of the situation, motivation, locus of control, external, internal.

РЕЗУЛЬТАТЫ ОЦЕНКИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СПОРТИВНЫХ МЕНЕДЖЕРОВ НА ОСНОВЕ СИТУАЦИОННЫХ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что управленческие компетенции руководителей и заместителей руководителей спортивных школ, будущих спортивных менеджеров оцениваются через их отношение к ситуациям мотивационного характера.

Ключевые слова: Спорт, спортивный менеджер, руководитель спортивной школы, управленческая компетентность, основная причина ситуации, мотивация, локус контроля, экстернал, интернал.

SPORT MENEJERLARI BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI VAZIYATLI HOLATLAR ASOSIDA BAHOLASH NATIJALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport maktablari rahbar va rahbar o‘rinbosarlari, bo‘lajak sport menejerlarining boshqaruv kompetensiyalarini motivatsion tabiati vaziyatli holatlarga bo‘lgan munosabatlari orqali baholanganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sport, sport menejeri, sport maktab rahbari, boshqaruv kompetensiyasi, vaziyatning asosiy sababi, motivatsiya, lokus nazorat, eksternal, internal.

Kirish. Butun xalqimizning taqdiriga daxldor muhim masalalardan biri – iqtisodiyotning turli sohalarini, ya’ni qishloq ho‘jaligi va ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sportni boshqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq etish, investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, xalqning turmush farovonligini oshirish muammosi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular, ayni vaqtda, rahbarlikning samarali yo‘llarini topish, boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan birga, mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

Chunki jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham taraqqiyotga aynan shu yo‘l bilan erishilgan. Binobarin, jamiyatimizda rahbarlik faoliyati to‘g‘ri rejalashtirilsa, davlatimiz va xalqimiz oldida turgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini topadi.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 1-bo‘limini “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish” 4-maqsadida [1] boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishga alohida urg‘u berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. K.M. Zakkarning tadqiqotlarida ko‘ra, “rahbar (ta’kid – M.A.) “men xohlayman” hissi bilan emas, balki “men buni qilishim kerak” mazmunida harakat qilishi kerak va ... bu holat ularda shakllangan qobiliyat, tajriba, malakada namoyon bo‘luvchi qator psixologik xususiyatlar, ya’ni boshqaruv kompetentligi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi” [2].

O.E. Hayitovga ko‘ra, jismoniy tarbiya va sport rahbarlariga xos ijobiy fazilatlar (xislatlar) va xususiyatlar (sifatlar)ga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qila olish malakalari, quyidagi majmuaviy kompetensiyalar turi bilan uzviy bog‘liq: professional kompetensiya; ijtimoiy-psixologik kompetensiya; ijtimoiy-informatsion kompetensiya; kognitiv kompetensiya; maxsus kompetensiya; kommunikativ kompetensiya; autopsixologik kompetensiya; uslubiy kompetensiya; madaniy kompetensiya [4].

A.X. Xolov va boshqalar tomonidan, rahbar kadrlarning samarali faoliyatini ta’minlovchi eng muhim kompetensiya sifatida boshqaruv mahorati, ya’ni rahbar ega bo‘lish lozim bo‘lgan boshqaruv ko‘nikmalari e’tirof etiladi. Darhaqiqat, har qanday boshqaruv avvalambor rahbardan menejmentga oid umume’tirof etilgan va zaruriy boshqaruv ko‘nikmalarini talab qiladi. Avvalambor bu qatorda asosiy boshqaruv ko‘nikmalari bo‘lmish 1. Maqsad qo‘yish; 2. Rejalashtirish; 3. Faoliyatni rejalashtirish; 4. Xodimlar ustidan nazoratni amalga oshirish va 5. Xodimlarni rag‘batlantirish nazarda tutiladi. Bu birlamchi malakalarsiz hech qanday boshqaruvni amalga oshirish mumkin emas [5].

B.A. Abdullayev tadqiqotlarida, “..., rahbarning boshqaruv kompetentligi nafaqat oddiy ishlash sharoitida, balki ekstremal vaziyatlarda ham yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir” [7], degan xulosaga keladi. Muallif bu vaziyatni quyidagi ikki holatda ifoda etadi:

Birinchidan, shaxsda boshqaruv kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mezonlari, quyidagilar orqali oliy o‘quv yurtlaridayoq shakllantirilishi lozim. YA’ni kasbiy professional sifatlar bilan birga, psixologik

qobiliyatlari, tashkiliy va boshqaruv kompetenitsyalar, kommunikativ kompetensiya, o‘zaro munosabatlarga hamda boshqalarga bo‘lgan yordam berish yoki hamdarlik sifatlari kabilar shular jumlasidandir. Bunday ishlar avvalo, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari va o‘quv jarayonining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan ilg‘or shaxslarda boshqaruv kompetentligini ta’minlovchi omillar majmuiga, yetakchining rasmiy va maxsus vazifalari, qo‘l ostidagilar bilan ishlash ko‘nikmalari, kollektiv tarzda samarali ishlay olish qobiliyati, rivojlangan kasbiy mas’uliyat hissi kabilar ham kiritiladi [7].

A.A. Saidov tadqiqotlarida “harbiy rahbar faoliyatining tahliliga ko‘ra, boshqaruv faoliyatini rivojlantiruvchi sifatlar, muvaffaqiyatli rahbar sifatlari, kasbiy sifatlarining bandlari (boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik baholash mezonlari) va kognitiv, hissiy-irodaviy, motivatsiyali va kommunikativ komponentlari (boshqaruv kompetensiyasini shakllantiruvchi psixologik komponentlari)ni integratsiyalashtirish natijasida harbiy rahbarning boshqaruv kompetentsiyalarini baholash va rivojlantirishni ta’minlovchi tizimning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan” . Shuningdek, tadqiqotchi izlanishlari asosida “Qurolli Kuchlar tizimi rahbar xodimlarida boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishda kasbiy jamoada belgilangan qonun-qoidalarni e’tiborga olish, boshqaruv kompetentligiga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olish, kasbiy bilimlarni oshirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy ravishda o‘rnatish va tizimli o‘zlashtirilgan bilim-ko‘nikmalarning psixologik jihatdan shakllanishi boshqaruv kompetentligini mustahkamlashga xizmat qiladi” [8], – degan ilmiy xulosaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sport menejeri boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishning ekstremal kompetensiyalari blokini aniqlash metodlaridan, birinchidan, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari va ixtisoslashgan sport maktablari rahbarlari (keyingi o‘rinlarda – sport menejerlari)ning sport faoliyati boshqaruvi bilan shug‘ullanishlariga sabab bo‘lgan motivlar, ikkinchidan, boshqaruv subyektlarining ishga oid munosabatlar sohasidagi internallik shkalasini baholash maqsadida foydalanildi.

Tadqiqotda N.S. Safayev, U.A. Butayevalarning “VAS – vaziyatning asosiy sababi” so‘rovnomasi foydalanildi. Statik metodlar, jumladan, K. Pirsonning rp-chiziqli korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash metodi yordamida ikki guruh ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqadorlik qiymatlari aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqotlarimizda qo‘lga kiritilgan natijalar S. Moskovichi tomonidan taklif etilgan nazariyaga mos keladigan menejerlik va sport faoliyatidagi “ijtimoiy tasavvurlar” hodisasining boshqaruv kompetensiyasini shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi jarayonidagi rolini tushuntirib berishda asos vazifasini bajardi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishimizda, sport menejeridagi boshqaruv kompetentligining ekstremal kompetensiyalar blokini aniqlash uchun N.S. Safayev, U.A. Butayevalarning “VAS – vaziyatning asosiy sababi” so‘rovnomasi 15 nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari va 56 nafar ixtisoslashgan sport maktablari rahbar va rahbar o‘rinbosarlari hamda 35 nafar “menejment (sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)” ta’lim yo‘nalishi talabalari guruhiga mansub sanalgan 106 nafar respondentga murojaat qilindi.

“VAS” so‘rovnomasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar (1-jadvalga qarang) shuni namoyon qiladiki, respondentlarning vaziyatning asosiy sababi so‘rovnomasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqador faktorlar orasidagi korrelyatsion aloqalar “OPSTTM rahbari” guruhida “pul kam chiqib qoldi” shkalasi “sanaganda pullar bir-biriga yopishib qolgan” sababi orasida sezilarli bog‘liqlik (r=0,388, r≤0,01) ko‘rinib, holat rahbarning “o‘zini o‘zi anglash” ichki motivatsiyasidan kelib chiqadi. “Odam kulayapti” shkalasi “kulgili voqea esiga tushgan” sababi orasida sezilarli bog‘liqlik (r=0,627, r≤0,01) kuzatilib, bu rahbarning kasbiy faoliyatda o‘ziga bo‘lgan qat’iy “ishonch”ini ifodalovchi ichki motivatsiyaga asoslanadi.

1-jadval.

Respondentlarning “VAS” so‘rovnomasiga bergan javoblari boshqaruv faoliyatiga motivatsion yo‘nalganligi o‘rtasidagi korrelyatsiya natijalari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

№	Hodisalar	Respondentlar guruhi (n=106)	Sabablar			rp	Motivatsiya omili
			A	B	V		
1.	Pul kam chiqib qoldi	OPSTTM rahbari	+			0,388**	o‘zini o‘zi anglash
		ISM rahbari		((		0,686**	shaxsiy o‘sish
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba	(			0,655**	orzu
2.	Odam kulayapti	OPSTTM rahbari		++		0,627**	ishonch
		ISM rahbari		((		0,621**	ijodkorlik
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba		((		0,616**	qiziqish
3.	G‘ildirak teshildi	OPSTTM rahbari	+			0,601**	sayohat qilish
		ISM rahbari	(			0,597*	martaba
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba			(((	0,573*	maqom
4.	Uyga kira olishmayapti	OPSTTM rahbari	+			0,564*	o‘zini tasdiqlash
		ISM rahbari	(			0,554*	o‘zini o‘zi anglash
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba	(			0,545*	orzu
5.	Xat yozayapti	OPSTTM rahbari		++		0,542*	ijodkorlik
		ISM rahbari			(((	0,537*	sayohat qilish
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba	(			0,520*	kimgadir keraklik
6.	Televizorni o‘chirdi	OPSTTM rahbari	+			0,514*	g‘oyalar
		ISM rahbari		((		0,512*	hayot zavqi
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba		((		0,484**	pul
7.	Chang artayapti	OPSTTM rahbari	+			0,458**	o‘zini o‘zi anglash
		ISM rahbari			(((	0,458**	hashamdor narsa
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba	(			0,431**	o‘zini tasdiqlash
8.	Baqirib gapirayapti	OPSTTM rahbari	+			0,430**	maqom
		ISM rahbari	(			0,424**	martaba
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba			(((	0,419**	muloqotga ehtiyoj
9.	Uxlay olmayapti	OPSTTM rahbari	+			0,415**	salomatlik
		ISM rahbari		((		0,413**	g‘oyalar
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba			(((	0,419**	qiziqish
10.	Raqsga tushayapti	OPSTTM rahbari			+++	0,404**	shaxsiy o‘sish
		ISM rahbari		((		0,412**	tan olish
		O‘zDJTSU, O‘zMU talaba	(			0,393**	hashamdorlik

Izoh: * r ≤ 0,05 darajadagi bog‘lanish – muhim korrelyatsiyalar; ** r ≤ 0,01 darajadagi bog‘lanish – sezilarli korrelyatsiyalar.

“G‘ildirak teshildi” shkalasi “shina eskirib qolgan” sababi orasida sezilarli bog‘liqlikni (r=0,601, r≤0,01) namoyon qilib, bu holat rahbarning emotsional toliqish fonida ekanligini va “sayohat qilish imkoniyati” berilishini anglatuvchi ichki motivatsiyasi sabab bo‘ladi. “Uyga kira olishmayapti” shkalasi “kalitni yo‘qotishgan” sababi orasida muhim bog‘liqlik (r=0,564, r≤0,05) kuzatiladi va bu rahbarning “o‘zini ro‘yobga chiqarish”ga bo‘lgan ichki motivatsion tabiatiga asoslangandir. “Xat yozayapti” shkalasi “kimnidir sog‘inib qolgan” sababi orasida muhim bog‘liqlikni (r=0,542, r≤0,05) ifoda etib, bu holat rahbarning kreativligini, ya’ni “ijodkorlik”ka yo‘nalgan ichki motivatsiyasi kuchini ko‘rsatadi. “Televizorni o‘chirdi” shkalasi “juda kech bo‘lib qolgandi” sababi orasida muhim bog‘liqlik (r=0,514, r≤0,05)

kuzatilib, bu holat rahbarning menejerlik faoliyatini yanada samarali qilish yo‘lida “g‘oya”lar generatori ekanligidan dalolat beradi. “Chang artayapti” shkalasi “mehmon kutishga tayyorlanayapti” sababi orasida sezilarli bog‘liqlikni (r=0,458, r≤0,01) ifoda etib, bunday natija sport menejerining “o‘z-o‘zini anglash”ga bo‘lgan ichki istagini baland ekanligidan dalolat beradi. “Baqirib gapirayapti” shkalasi “kimdir jahlini chiqargan” sababi orasida sezilarli bog‘liqlikda (r=0,430, r≤0,01) ekanligi kuzatilib, bu holat markaz rahbari va rahbar o‘rinbosarlarining jismoniy tarbiya va sport tizimida egallagan “maqomi”iga ich-ichidan tasdiqni ifodalaydi. “Uxlay olmayapti” shkalasi “atrofda shovqin-suron” sababi orasida sezilarli bog‘liqlikni (r=0,415, r≤0,01) ko‘rsatib, bu vaziyat sport menejerining “salomatligi”ga bo‘lgan ichki tashvishini namoyon qiladi. “Raqsga tushayapti” shkalasi “raqs tushishni o‘rganmoqchi” sababi orasida sezilarli bog‘liqlik (r=0,404, r≤0,01) kuzatilib, bu holat markaz rahbarlarining yuqori bo‘g‘in rahbarlari va qo‘l ostidagi jamoasi oldida “shaxsiy o‘sish”ga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchini yuqoriligini ifodalashini ko‘rish mumkin (1-jadvalga qarang).

Shuningdek, natijalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlilini ko‘rsatishicha, “OPSTTM rahbari” guruhi respondentlari menejerlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida internal lokus nazorat tipida shaxslar (80 foiz vaziyatda) sifatida gavdalanishar ekan. Ushbu yondashuvlari orqali ular rahbarlik(menejerlik)da yoki hayotlarida ro‘y bergan va (ehtimoliy berishi mumkin bo‘lgan) voqea-hodisalar uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishlari, holatni keltirib chiqargan sabablarni o‘zlaridan qidirishlari haqidagi ijtimoiy tasavvurlari muhim asos tarzida baholanadi. Bu esa olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining jismoniy tarbiya va sport tizimida tutgan mavqeiga ham mos tushadi va respondent-menejerlarimizning ijtimoiy yetukligidan dalolat beradi.

70 foiz vaziyatda “ISM rahbari” guruhi respondentlari o‘zlarini sport menejerligi faoliyatini amalga oshirish jarayonida eksternal lokus nazorat tipida shaxslar sifatida namoyon qilishar ekan. Ana shunday yondashuv hisobiga zarur hollarda ular faoliyatda ro‘y bergan va ehtimoliy yuz berishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisalar uchun mas’uliyatni o‘z zimmalaridan soqit qilishib, vaziyatni keltirib chiqargan omillarni tashqaridan qidirishadi. YA’ni, sport seleksionerlari (skaut) tomonidan qabul qilingan kolligial qarorlar samarasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar muhim sabab tarzida baholanib, eksternal tipdagi fikrlashga olib boradi, degan xulosani keltirib chiqaradi. Bu holat ixtisoslashgan sport maktablarining jismoniy tarbiya va sport tizimida tutgan mavqeiga mos tushsa-da, respondentlarimizda sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida tanlangan sport turlari bo‘yicha sportchilarni sportga saralash va sportga yo‘naltirishni ishlarini tashkil etish va uni boshqarishni amalga oshirish bilan bog‘liq vaziyatlarda sport seleksionerlari (skaut) fikrini o‘zgartirish borasida fidoyilik “akmesi”ni yetishmasligini hamda tashabbukorligini cheklanganligini ko‘rsatadi.

O‘zDJTSU hamda O‘zMU talabalaridan tashkil topgan “bo‘lajak sport menejerlari” guruhi respondentlari kelajakda sport menejerligi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuqori bo‘g‘in va (yoki) qo‘l ostidagi xodimlar bilan munosabatga kirishishlarida o‘zlarini ham internal (60 foiz vaziyatda) ham eksternal lokus nazorat tipida shaxslar (40 foiz vaziyatda) sifatida gavdalantirishadi. Bunda eksternal lokus nazoratni ustuvorlikda tutgan bo‘lajak sport menejerlari, odatda, faoliyatni amalga oshirishda duch kelingan birinchi to‘siqdayoq muhim hayotiy zarbani qabul qilib olishadi hamda egallab turgan funksional lavozim talablariga ko‘ra, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tavakkalchilik xususiyatlarini deyarli namoyon qila olishmaydi.

Xulosa va takliflar. Sport menejerlari boshqaruv kompetensiyalarini vaziyatli holatlar asosida baholash natijalarini ijtimoiy-psixologik tahlil etish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin

1. Har uchchala toifa respondentlarda emotsional intellekt, ya’ni vaziyatni his qilish, yumor hissini tuyush bilan bog‘liq ijtimoiy tasavvurlarida bir xillik kuzatiladi. Shuningdek, mahalliy sport tashkilotlari faoliyatini va (yoki) natijadorligini rivojlantirish, takomillashtirish bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlaridagi o‘zgarishlarni qabul qilish hamda boshqaruv faoliyatiga tatbiq etish borasidagi ijtimoiy tasavvurlarida o‘xshashlik mavjud. Ijodiy tafakkurdagi bunday o‘xshashlikning mavjudligi borgan sari sport menejerlarimiz ongida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport qamrovining oshayotganligi va bo‘sh vaqtdan unumli foydalana olmaslik o‘tkazishga irratsional (soyadagi) iqtisodiyotni tobora barham topayotganligi to‘g‘risidagi qarashlarning ular iqtisodiy xulq-atvorda barqarorlashib, shaxsiy kompetensiyalarining takomillashib borayotganligidan dalolat beradi.

2. “VAS – vaziyatning asosiy sababi” so‘rovnomasi orqali olingan asosiy natijalar interpretatsiyasi S. Moskovichining nazariyasiga to‘laqonli ravishda mos kelishini ko‘rsatib, sport boshqaruvi faoliyatidagi “ijtimoiy tasavvurlar” hodisasining sport zaxirasini tayyorlash bosqichlari ko‘lamiga tafovutlanuvchi sport maktablari turi kontekstida sport menejerining boshqaruv kompetensiyasini motivatsion tabiatini tushuntirishda asos vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/docs/-6396146
2. Заккар, К.М. (2002). Принятие решений в системе организационного управления. Дис. ... канд. социол. наук: 22.00.08. Москва, МПГУ, 250.
3. Hayitov, O.E. Rahbar psixologik kompetentligini modellashtirishning nazariy-ilmiy asoslari (oliy ta’lim muassasalari o‘rta bo‘g‘in rahbarlari misolida): monografiya. / O.E. Hayitov [Matn]. – Toshkent: “Ilm ziyo zakovati”, 2020. – 192-bet.
4. Ёш раҳбар кадрларнинг бошқарув салоҳиятини баҳолаш. Монография. / Муаллифлар жамоаси: А.Холов, И.Махмудов, Ш.Кадирова, Г.Бекимбетова ва бошқ. –Тошкент: «Янги китоб» нашриёти, 2020. – 192 б.
5. Абдуллаев Б.А. Бошқарув кадрларини саралашнинг ижтимоий-психологик мезонлари: Психол. фан. бўй. фал. док-ри (PhD) ... дис-я: 19.00.05. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 140 б.
6. Саидов А.А. Қуролли кучлар тизимида раҳбар ходимларнинг бошқарув компетентлигини оширишнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари: Психол. фан. бўй. фал. док-ри (PhD) ... дис-я: 19.00.05. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 152 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 303.823.3

Elyor MAMADALIYEV,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:e.mamadaliyev1838@mail.com

CHET TILI TA'LIMIDA DISKURSDAN FOYDALANISH

Annotatsiya
Ushbu maqolada chet til ta’limida diskursning tutgaan o’rni haqida, chet til o’qitish metodikasida diskursning turlari va ulardan foydalanish xususida so’z boradi.
Kalit so‘zlar: Metodika, diskurs, chet tili, kommunikatsiya, muloqot

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИСКУРСА В ИНОЯЗЫЧНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация
В данной статье говорится о роли дискурса в обучении иностранному языку, видах дискурса и их использовании в методике обучения иностранному языку.
Ключевые слова: Методика, дискурс, иностранный язык, общение, диалог.

USING DISCOURSE IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION

Abstract
This article talks about the role of discourse in teaching a foreign language, the types of discourse and their use in the methodology of teaching a foreign language.
Key words: Methodology, discourse, foreign language, communication, dialogue.

Kirish. Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o‘z aksini topgan insonning olamni o‘ziga xos idroki namoyon bo„ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo„lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so‘zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to‘ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi, deb nomlanadi. Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida yaratiladi. Olam – o‘zaro munosabatdagi inson va muhit bo‘lsa, olam manzarasi – inson va muhit haqidagi ma’lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo‘linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obyektlariga bo‘lgan munosabatni namoyon qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V. N. Teliyaga ko‘ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: ‘Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir’1 G.G.Slishkinga ko‘ra, ‘Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi’. N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi: - lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega; - lingvokulturologiyaning asosiy e’tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi; - lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin; Lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi.

Tarixan dunyoning lingvistik manzarasi g'oyasi Vilgelm fon Xumboldt va NeoGumboldtiylarning tilning ichki shakli haqidagi g'oyalariga, shuningdek, lingvistik nisbiylik haqidagi gipotezaga o‘xshatadi. Edvard Sepir va Benjamin Vorfning fikricha,lingvistik tashxis- linvokulturologiya determinizmiga oid bo'lib, uning asosiy qoidalari quyidagicha: -til uning fikrlash turini belgilaydi; -atrofdagi dunyo qarashni estetik ta’minlab berish.

Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir; inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urynish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi. Mazkur mashaqqat huzurining mag`zu mohiyati shundan iboratki, odamzod Shu tariqa bilish deyiladigan tuganmas jarayonlarning natijasi o`laroq kashf qila borgan unsurlarining yaxlit tizimi shaklidagi olam manzarasini yaratadi. Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg`un, o`zgarmas tuzilma emas, u tafakkur taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog`liq ravishda o`zgarib, mukammallashib borishi mumkin. Antropotsentriklikni asosiy g`oyasi sifatida ehtirof etgan bugungi tilshunoslikda ‘olam manzarasi’ ayniqsa, ‘olamning lisoniy manzarasi’ tushunchalari markaziy o`rinni egalladi. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan ‘olam manzarasi’ terminiga ‘borliq haqida ijtimoiy (Shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami’ tarzida tahrif beriladi va olamning ikki, yahni (l) bevosita hamda (2) bilvosita manzaralarini farqlash printsipial ahamiyatga molikligi tahkidlanadi. Bunday qarashga ko`ra, ‘olamning bevosita manzarasi atrofdagi

borliqning kishilar tomonidan to`g`ridan-to`g`ri bilinishi natijasida yuzaga keladigan manzarasidir. Bilish kishi ixtiyoridagi ham sezgi a`zolari yordamida, ham abstrakt tafakkur yordamida amalga oShadi, ammo har qanday holatda ham mazkur olam manzarasining ongda ‘vositachilari’ bo`lmaydi va olamni bevosita idrok etishi hamda anglashi natijasi sifatida shakllanadi’. Bunday qarash tarafdorlari ayni paytda olamning bevosita manzarasi ‘milliy ongda yuzaga kelishi’ga urg`u beradilar va bu manzara yaratilish usuli, umumiy metodiga bog`liq ekanligini ham aytadilar. Ana shu usulga ko`ra muayyan bir borliqning, muayyan bir olamning manzarasi farqli bo`lishi mumkinligini tahkidlaydilar/ yahni aqliy va hissiy, dialektik va metafizik^ materialistik va idealistik; nazariy va empirik; ilmiy va ‘sodda’ tabiiy-ilmiy va diniy, fizikaviy va kimyoviy va hokazo. Olamning bunday manzarasi dunyoni bilish (kognitsiya) natijasi o`laroq ongda shakllanishidan kelib chiqib, mazkur tadqiqotchilar olamning bevosita manzarasini ‘olamning kognitiv manzarasi’ deb nomlaydilar. Ular ongda mavjud bo`lgan ayni shu olamning kognitiv manzarasini moddiylashtdradigan, ‘narsalashtiradigan’ ikkilamchi belgilar sistemasi vositasida konseptlar va stereotiplarning qayd (ifoda) qilinishi natijasini olamning bilvosita manzarasi sifatida ko`rsatadilar, bunday manzaralar sirasiga olamning lisoniy va badiiy manzaralarini kiritadilar. Shuni ham tahkidlash kerakki, bu tadqiqotchilar noverbal tafakkur, yahni tafakkurning tilsiz voqelanishi haqidagi qarash tarafdorlaridir.

Muhokama va natijalar. “Diskurs” ushbu tadqiqotda prinsipial ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun unga alohida e’tibor qaratamiz. “Diskurs” va “matn” tushunchalari, hamda ularning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari haqida ham to‘xtalib o‘tishni mantiqiy bo‘ladi deb o‘ylaymiz. “Diskurs” tushunchasi lisoniy muloqot tahliliga o‘z shaxsiy nuqtainazari bilan bir qadar ideologik yondashuvni taqozo qiladi. Mishel Fuko bu so‘zni keng qamrovli ma’noda ko‘rib chiqib, diskursni lisoniy emas, balki umummadaniy tushuncha deb hisoblaydi. U yozadi: “ ... Diskurs, shubhasiz – belgi hodisasi, lekin bu - narsalarni ifodalash uchun belgilarning shunchaki ishlatilishidan ko‘ra ko‘proq ish bajaradigan hodisa. Aynan uning ana shu ko‘proq ish bajarishi uni til va nutqqa qiyoslab bo‘lmasligini ta’minlaydi”. M. Fuko tushunchasi bo‘yicha diskurs birligi va “atom” i bu fikrdir. Fikrlar majmui diskursiv formatsiyalarni tashkil qiladi. Fuko formatsiyalarga insoniyat jamiyatining iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, tirik jonzotlar haqidagi fanlar kabi iqlimiy diskurs haqida gapirishga izn beradigan diskursni, tabiiy tarix diskursini, psixiatriya diskursini kiritadi. Fukoning tan olishicha, “diskurs” tushunchasining bunday ishlatilishi hamma tomonidan qabul etilmagan, biroq tilshunoslar unga butunlay boshqacha ma’no beradilar. Tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarda “diskurs” ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy madaniy, psixologik va boshqa faktorlar bilan birgalikdagi bog‘langan matn deb talqin qilinadi.

Semantikada diskurs tushunchasining qo'llanilishi yanada murakkabroq. Diskurs semantikasi - bu intellektual tadqiqotning muayyan sohalarida lug'atdan qanday foydalanishimizni tahlil qilish. Bu tahlil til va tuzilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni, masalan, gap va u mavjud bo‘lgan kengroq kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Bunga misol sifatida gapda olmoshning qo‘llanilishini keltirish mumkin, o‘quvchi yoki tinglovchi uni faqat bog‘langan holda tushunishi mumkin.[1]

Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, matnga qo'shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o'z ichiga oladi.

“Diskurs” atamasi lingvistika sohasida ham juda ko’p qo’llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952 yilda nashr etilgan ‘Diskur tahlili’ deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. “Diskurs” atamasining to'liq ko'lami so’nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi.

Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so„zlovchi va tinglovchining o’zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko„rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o„zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo’lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha “discursus” – muhokama so’zidan olingan bo’lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokama talab bilimdan farqli o„laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Soddaroq qilib aytganda, bu ta'rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma'nosi ilgari suriladi.

Talabalarning kommunikativ vaziyatlari, uchraydigan muammoli vaziyatlarning namoyon bo‘lishi, ulardagi muloqotni amalga oshirishda adekvat muloqot ko‘nikmalari shakllanganlik darajasining pastligi, muloqotga kirishishdagi to‘siqlarni yengib o‘tish usullarini mavjud emasligi yoki kamligi talabalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabat va ta’lim olish samaradorligiga salbiy ta’sir etishi tabiiy

Dialogik diskursning shaxs xarakteri sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynashi haqida professor V.I.Tolstixning yozishicha, odam «o‘zining hayotdagi o‘rni va qobiliyatining qay darajada ekanligini to‘la anglab yetishi uchun dialogik diskursga ehtiyoj sezadi. Xuddi mana shu ehtiyoj shaxsning aniq bir xarakter, aniq bir tip sifatida shakllanishiga yordam beradi» (Tolstix V.I.S chego nachinayetsya lichnost: sbornik. -M., 1984. -S.99.).

Diskursda baho yakka shaxsning hayotiy tajribalari, baholanuvchi ob’ektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, tajribasi, ma’lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste’dodi kabilar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Har qanday harakat singari talabalarning o‘zaro kommunikativ xatti-harakatlari vaziyatni tahlil qilish va baholash, maqsadni shakllantirish va tezkor reja amalga oshirish va (yoki) uning samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Baho tushunchasi diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Baholovchi diskursni tadqiq etish tilning birgina lisoniy xususiyatlarini emas, balki aloqani ta’minlashdagi xarakterli boshqa tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi. Baholash xarakteridagi diskursni uch yo‘nalishda tadqiq qilish mumkin:

1) kommunikativ nuqtai nazardan;

2) ijtimoiy shartlangan vaziyatlardagi o‘zaro ta’sir sifatida;

3) lisoniy birliklardan foydalanish usuliga qarab o‘rganish1 .

Bu esa insonning o‘y-kechinmalari, orzuumidlarini baholovchi til birliklarining ta’siri va bu vositalardan qanday maqsadda foydalanish bo‘yicha muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Xulosa. Diskurs tahlil talabalarning erkin fikr almashish, munosabat bildirish, bir-biridan o‘rganish va o‘rgatishga imkon beradigan do‘stona, ijodiy muhit yaratish layoqatlari ob’ektiv baholanibgina qolmay, mazkur instrumentdan foydalanish ijtimoiy faol fuqaroni, hayotda duch kelinadigan muammolarni hal qilishda vaziyatlarni ko‘proq muhokama qilish, boshqalarga tushuntirib bera olishda kutilgan samarani olishga qobiliyatlari aniqlanadi. Zamonaviy ishbilarmonlik diskursida manfaatga erishish va kommunikativ maqsadga muvafaqqiyatlilik alohida soha qobiliyati sifatida e’tirof etilar ekan, maktab muhitidagi ta’lim jarayonida talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli hayotga tarbiyalash ishida ularning muloqotlarini diskurs tahlil qilish

orqali maqsadli rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning kommunikativ kompetentligini samarali rivojlantirishga ustuvorlik bergan ta’lim muassasalari rahbarlari, pedagogik jamoalar va uslubshunoslar tomonidan ushbu diskurs tahlil imkoniyatlaridan foydlanish orqali talabalarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim yutuqlariga erishishni ta’minlovchi psixologik-pedagogik sharoitni yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Гончарова Л. М. Профессиональный монологический текст дискурсв
2. учебно-научной сфере композиционный и коммуникативно-прагматический аспекты: дисс.канд.фил.наук. – Москва: 2006. –189 с.
3. Gulyamova Sh. B. Monologik diskurs va matnning o‘ziga xos xususiyatlari
4. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2021. –№3.–B.31-37.
5. Raupova L. “Dialogik nutqning diskursiv talqini”. –T., 2010.
6. Raupova L. Dialogik diskurs muloqot unsuri sifatida //Xorijiy filologiya, 2011. –№ 4. –B.19-23.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 374.32:378:316.6

Baxtigul MAMADAMINOVA,
“TIQXMMI” MTU “ dotsenti
E-mail: baxtigulphd@gmail.com

T.f.d (DSc) F.Ernazarov taqrizi ostida

FEATURES OF SPIRITUAL STRUCTURE IN INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE

Annottion

This article provides information about the specific features of increasing the social activity of young people. In particular, it was mentioned that the youth group is a power that develops the society, directions of using their opportunities for positive purposes. It was pointed out that unemployed youth can be empowered by organizing their free time properly. It was noted that special attention was paid to this age group based on the ongoing youth policy of the Republic of Uzbekistan.

Key words: Youth activity, generation, unemployed youth, social activity, civil society, rule of law, young personnel, initiative, quality education, youth opportunities.

ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОЙ СТРУКТУРЫ В УСЛОВИЯХ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

В данной статье представлена информация об особенностях повышения социальной активности молодежи. В частности, было отмечено, что молодежь – это сила, которая развивает общество и указаны направления использования их возможностей в позитивных целях. Было указано, что возможности не занятой части молодежи можно расширить, правильно организовав ее свободное время. Исходя из политики Республики Узбекистан в отношении молодежи, было отмечено, что этой возрастной группе уделяется особое внимание.

Ключевые слова: Молодежная активность, поколение, социальная активность, гражданское общество, правовое государство, молодые кадры, инициатива, качественное образование, возможности молодежи.

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MA'NAVIY TIZIMLILIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, yoshlar qatlami jamiyatni rivojlantiruvchi kuch ekanligi, ularning imkoniyatlaridan ijobiy maqsadlarda foydalanish yo‘nalishlari aytib o‘tilgan. Band bo‘lmagan yoshlarni bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish orqali ular imkoniyatlari kengaytirish mumkinligiga to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid olib borilayotgan siyosatidan kelib chiqib shu yosh qatlamiga alohida e'tibor qaratilganligi ta'kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar faolligi, avlod, band bo‘lmagan yoshlar qatlami, ijtimoiy faollik, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, yosh kadrlar, tashabbuskorlik, sifatli ta'lim, yoshlar imkoniyatlari.

Yoshlar qatlami hamma davr uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar – innovatsiyalar, g‘oya va yechimlarning bitmas-tuganmas manbai. Bugungi kunda yoshlar faolligi har qachongidan ham muhim, zero, ular jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Shu bois, aynan yosh avlod zimmasiga yorqin kelajak barpo etish vazifasi ishonib topshirilgan. Xalqaro hamjamiyat har qanday mamlakat taraqqiyotida sog‘lom va barkamol, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar o‘ta muhim o‘rin tutishini alohida e'tirof etadi. Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish “tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bag‘rikenglikni ta'minlash — bularning barchasi va yana ko‘p narsalar yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog‘liq” ekanini ta'kidlaydi. So‘nggi yillarda birgina yoshlar masalalariga doir BMT doirasida 10 dan ortiq xalqaro hujjat qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek – “...yosh avlodimizning ... faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda”[1]. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining mazmuni O‘zbekiston yoshlarini jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar zahirasini yaratishdan iboratdir.

Insonlar hayotini turli yosh davrlariga bo‘lib o‘rganish, dastlab, qadimgi Yunonistonda amalga oshirilgan. Yunon olimi Gippokrat inson hayotini yetti qismga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi: go‘daklik davri (paidion), bolalik davri (pais), o‘spirinlik davri (ephebos), yosh yigitlik davri (neanískos), erlik davri (aner), yoshi katta odam (presbytes), keksa odam (geros) [14]. O‘rta asrlarda Yevropada inson hayoti olti bosqichga bo‘lib o‘rganilgan: bola (7 yoshgacha), o‘spirin (14 yoshgacha), o‘spirinlik va boshqalar (adolescentia 15–28 yosh), yosh yigit (iuventus, 28-49 yosh), qariya (senectus, 50–77 yosh), keksa odam (senium, 78 yoshdan o‘limgacha bo‘lgan vaqt). Bugungi kunda esa yoshlik davri 15 dan 39 yoshgacha bo‘lgan bosqichni o‘z ichiga olmoqda. Muallif fikricha, yoshlik - bu ma'lum bir chegaralar asosida insonga xos ma'naviy kamolot bosqichi bo‘lib, unda jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar ustuvor ahamiyat kasb etadi [13]. Yoshlik - bu muayyan kasbni egallash va ma'naviy-moddiy hayotni yuksaltirish bosqichidir. Bu davrda yoshlar

milliy identifikatsiya talablariga rioya qilishiga qarab, faol yoki nofaol kabi toifalarga ajratiladi.

Mamlakatimiz qonunchiligida yoshlar (yosh fuqarolar) deganda, o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar tushunilishi alohida qayd etib qo‘yilgan. Faol bo‘lmagan yoshlar deganda, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ishsiz, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan nofaol qatlami tushuniladi. Ayniqsa, ushbu yoshlar muammosi uchun davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatimizning har bir a'zosi bevosita mas'ul ekanligining qayd etilishi ham masalaning o‘ta dolzarbligini ifodalaydi. Binobarin, bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishni maqsad bilib, keng qamrovli islohotlarni amalga oshirayotgan va taraqqiyot yo‘lidan borayotgan musta¬qil mamlakatimizda ushbu o‘zgarishlarni teran idrok etadigan erkin fikrli, faol, ozod shaxslarga katta ehtiyoj mavjud. Davlat tomonidan yoshlarning o‘z iqtidor va salohiyatlarini amalda namoyon qilishlari uchun sharoit yaratib berilishi har vaqt o‘zini oqlashi shubhasiz. Teran fikrli, faol fuqarolar esa bugungi yoshlarimizdan yetishib chiqishini unutmasligimiz lozim. Zero, “... farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”[2]. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining birinchi kunlaridanoq yoshlar faolligi masalasini asosiy masalalar qatoriga qo‘ydi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash masalasi, ularni tarbiyalash, malakaga ega bo‘lishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi, jamiyat uchun foydali inson bo‘lib yetishishi bu hozirgi vaqtning global, dolzarb masalalari qatoriga kiradi. So‘nggi yillarda yoshlar ijtimoiy faolligi va bandligini ta'minlash muammolariga oshib borayotgan ilmiy e'tiborning mavjudligiga qaramay, uning umumiy nazariy va aniq vaziyatlar tahlilini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir jamiyatdagi yoshlar qatlami manfaatlarini o‘zida mujassam etgan ilg‘or g‘oyalarni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Band bo‘lmagan yoshlar – faol ijtimoiy hayotdan chetda qolgan o‘g‘il-qizlardir. Barcha norozilik va ko‘ngilsizliklarning asosiy qo‘zg‘atuvchilari ham ular. Bunday yoshlarning soni, tarkibi bo‘yicha aniq ma'lumot yo‘q. Bunday yoshlar o‘zlarini jamiyatdan ajralib qolgan mikrokosmos sifatida bilib, o‘zlarini hech kimga kerak emasdek his etishadi. Zero, bugungi kunga qadar faqat faol, ko‘zga ko‘ringan, iqtidorli yoshlar bilan ishlab, qolganlarni esdan chiqarib kelindi. Shu tufayli bunday yigit-qizlar soni kundan-kunga ko‘payib bordi. Mamlakatimizning chekka hududlardagi iqtidorli yoshlar e'tiborsiz chetda qoldirildi. Bundan tashqari, asosiy urg‘u ta'limga qaratilib, tarbiya yoddan ko‘tarildi. Shunday ekan, bu muammoning oldini olish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 05 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida‖gi PF-5106-son Farmoni bilan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari qoshida ― «Uyushmagan yoshlar jamiyati» tuzilib, respublika miqyosida har bir yosh otaliqqa olindi. Qarorga muvofiq, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazlari tashkil etildi. Bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishining bosh sababi – har bir yosh avlodni qiynayotgan masalalarga bee'tiborlik ularning turli illatlar girdobiga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Zero, har bir soha yoshlar masalasiga o‘z nuqtai nazari bilan yondashadi. Biz, yosh avlodni kelajagimiz, deb ovunib qolyapmiz. Avvalo, ular bizning bugunimizdir. Zero bugunini o‘ylamagan, ertaning tugunini yecha olmaydi. Shu ma'noda, avvalo, yoshlar bilan ishlash borasida xorij tajribasidagi ijobiy jihatlar bilan birga, salbiy omillarni ham o‘rganib, ulardan xulosa chiqarishimiz zarur. Ikkinchidan, yoshlar muammosini bartaraf etishda alohida tashkilotlar emas, balki barcha birgalikda harakat qilsa ijobiy natijaga erishish mumkin. Uchinchidan, yoshlarning xabardorlik darajasini faollashtirish orqali mamlakatimizda ular uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotga ega bo‘lib borishlarini ta'minlash, uylaymizki, yaxshi natijalarga erishimizga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida jamiyatni yanada demokratlashtirish va modernizatsiyalash sharotida aholining asosiy salmog‘ini tashkil etuvchi yoshlarning ijtimoiy faolligi va bandligini taьminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maьnoda O‘zbekiston istiqlolga erishishi bilan yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini ishlab chiqdi. Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini ko‘zda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir [8].

Bugun mamlakatimizda qurilayotgan qonun ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyati, hayotimizga kirib kelayotgan yangilanishlar jarayoni, islohotlar samarasi eng avvalo yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, moddiy va ma'naviy rag‘batlantirishga qaratilgan. O‘z navbatida yoshlarimiz ham ilm-fan va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikka munosib javob bermoqdalar. Shu bois mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning o‘rni kuchayib bormoqda. Zero, yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati: bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarning qabul qilinishi va islohotlarning amalga oshirilishi mustahkam kuchli tayanch bo‘lmoqda. Bu davrda puxta o‘ylangan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimining yaratilishi, milliy o‘zlikni anglash, odamlar ongida ko‘p asrlik ma'naviy qadriyatlar, an'analarning qayta tiklanishi tufayli yurt tinchligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqida hayot mezoniga aylangan yosh barkamol avlodni kamolga yetkazmoqda.

Yoshlarni ijtimoiy faolligi bu ularning ma'naviy va moddiy manfaatlari, ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi oqilona faoliyatining namoyon bo‘lishidir. Bunday faollik shakli falsafiy nuqtai-nazardan asosan ratsional maqsad va erkin tafakkur orqali tashkil etiladi. Falsafiy fanlar tizimida band bo‘lmagan yoshlar faolligini oshirish va bandligini ta'minlash muammosini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar faolligi sabab va oqibat qonuniyatiga bo‘ysunadi. Falsafaning asosiy qonunlari qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarini sifat o‘zgarishiga o‘tishi, inkorni inkor qonunlari ham bunday faollik shaklini tahlil qilishda ustuvor o‘rinni egallaydi. Darhaqiqat, jamiyatning kelajagi yoshlar bilan bog‘liq va ular ijtimoiy taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. Ayniqsa band bo‘lmagan yoshlar faolligini oshirish va bandligini ta'minlash ma'lum, tajribadan o‘tgan dialektik jarayon va sinergetik natijalarga asoslanadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, jamiyat hayotida kechadigan murakkab davrlar har doim ziddiyatli jarayonlarni yengib o‘tishga qodir insonlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirgan. Mustaqillik ibtidosida band bo‘lmagan yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash muammolari xuddi ana shu holatlarni o‘zida aks ettiradi. Ya'ni bu paytda hayotga bo‘lgan cheksiz talablar ortgan va yangi jamiyat barpo etish harakati to‘laqonli manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun insonlarni harakat qilishga undagan. Biroq bu davrda ushbu yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash bilan bog‘liq bir qancha muammolar yig‘ilib qolgan edi. Bular quyidagilardan iborat:

- yoshlarda yetarli darajada hayot haqidagi tasavvurlar shakllanishiga undaydigan dunyoqarash shakllanmagan edi. Bundan kemtiklikda turli g‘arazli maqsadlarni ko‘zlagan buzg‘unchi diniy oqimlar mafkurachilari ularda soxta, buzuq ishonchni shakllantirishda foydalanganlar. Oxir-oqibatda esa ba'zi yoshlarda dunyoqarashni sayyozligi va past diniy savodxonlik sabab ksenofob yoki diniy-ekstremistik qarashlar shakllangan edi.

- yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash maqsadida ular uchun erkin ijodiy muhit yaratish va bu muhitda o‘zlarini bor qobiliyatlarini namoyon etishga munosib shart-sharoit yaratish masalasida mamlakatimizda bir qancha muammolar yig‘ilib qolganligi sabab turli darajadagi murakkab ijtimoiy muammolar va jinoyatchilik shakllari o‘sib borgan edi;

- yoshlar qatlamining ba'zi bir vakillari tarbiyasida loqaydlik, beparvolik, sabrsizlik mas'uliyatsizlik, ishonchsizlik, xasad, kibr-xavo, o‘zni anglamaslik, adolatsizlik, iymonsizlik, be'manilik kabi salbiy illatlarni namoyon bo‘lishi ham bu muammoni hal etish zaruratini yuzaga keltirdi;

- yoshlar ongi va dunyoqarashida milliy ma'naviy qadriyatlarga munosabat, milliy tarbiya ko‘nikmalarini mafkuraviy immunitet sifatida hosil qilish masalalari ko‘proq nazariy xarakterga ega bo‘lib qolganligi ularni davlat va jamiyatga bo‘lgan ishonchini so‘nishiga sabab bo‘lgan;

- yoshlar dunyoqarashida xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda mamlakat va millat birligining uzviyligi va davomiyligini mustahkamlovchi yangi qadriyatlarni shakllantirish masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi ham bu yo‘nalishdagi muammolar ko‘lamini yanada kengayishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Birinchi vazifa – biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ikkinchi vazifa – ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko‘paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta'siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo‘lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog‘liq”[3], deya alohida ta'kidlab o‘tdi.

Yoshlar o‘rtasida uchrab turadigan tushkun kayfiyat va buzg‘unchi qarashlar jamiyat ravnaqiga o‘z salbiy ta'sirini o‘tkazadi. Shunday ekan, yoshlar toifasi ongiga ta'sir etishi mumkin bo‘lgan har qanday yot va buzg‘unchi g‘oyalardan himoyalanish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham yoshlarning kayfiyati, orzu-umidlari, maqsadlari, intilishlari va qiziqishlarini ezgulik sari yo‘naltirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Chunki “Bugungi O‘zbekiston fuqarosi tafakkuri tubdan o‘zgargan va ana shu o‘zgargan tafakkur orqali hayot mazmunini o‘zgartirayotgan, turmush tarzini yangilayotgan va ana shu ma'naviy-ruhiy jarayonlar orqali o‘zini ham, jamiyatni ham tubdan yangilayotgan komil shaxs sifatida ko‘zga tashlanadi”[10]. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida ta'lim, mehnat, madaniyat qonunlariga bo‘ysunish tuyg‘usini shakllantirish bu boradagi murakkab muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2023 yilni “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deb e'lon qilinishi ham bejiz emas. Prezident ta'kidlaganlaridek – “Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”. “Kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko‘paytirilib, 1,7 trillion so‘m ajratiladi. Bu yil ilm-fan va innovatsiyalarga 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bu – 2017 yilga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p, degani” [4]. Sifatli ta'lim munosib kadrlarni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat rivojiga hizmat qiladi.

“Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda” [6]. Biz mamlakat rivojlanish bosqichlarida bir qancha to‘siqlarni yengib o‘tib, fuqarolik jamiyatini shakllantirmoqdamiz. Bunda davlatimizni umuminsoniy demokratik tamoyili, ajdodlardan qolgan boy ma'naviy-madaniy meroslarni saqlagan holda avlodlarga yetkazish, insonlarni ezgu g‘oyalar atrofida jipslashtirish asosida rivojlantira olamiz. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki, o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix – buyuk murabbiy tarbiya va ibrat manbaidir. Qadimgi Xitoy donishmandlari “Insonni gavdasi oldinga, yuzi esa ortga qaratgan holda tasvirlaganlar”[11]. Ya'ni, ular nazdida insoniyat kelajak sari intilar ekan o‘tmishni doimo yodda saqlamog‘i shart. Davlat, jamiyat bunyodkor g‘oyalarga tayansagina, ma'naviy jihatdan yuksaladi, taraqqiyotga erishadi. Yurtimizning uzoq va g‘oyat murakkab tarixi buni qayta-qayta isbotlagan. Xususan, Temuriylar saltanatini bir necha asrlar davomida gullab yashnagan, o‘sha davrda ilm-ma'rifat markazi bo‘lgan, ulug‘ allomalarni dunyoga keltirgan saltanatni bobomiz Amir Temur o‘z g‘oyalari atrofida birlashtirgan edi. Ya'ni, “Men o‘z saltanatimni din-u islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim, saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim, davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, bunday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomisiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi”[12] degan edi. Bu borada buyuk sohibquron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan chuqur ma'noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi lozim” [7] degan edi, Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Xullas, mustaqillik sharofati bois yurtimizda dunyoni yangicha idrok etadigan, o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog‘liq, deb biladigan yangi avlod vakillari shakllandi. Mamla¬katning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatiga o‘z hissasini qo‘shadigan bilimdon, zukko, tadbirkor insonlar voyaga yetdi. Darhaqiqat, har bir mamlakatda aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi ma'naviy intelektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning ishtiroki ularning ob'ektiv voqelikka munosabatida to‘la namoyon bo‘ladi. Boshqaruv jarayonidagi bunday munosabat har bir insonning jamiyat siyosiy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy maqsad va manfaatlarining qondirilishi hamda, ularni amalga oshirish yo‘lidagi xarakatlar asosida yuz beradi. Jamiyatda yangicha munosabatlar tarkib topayotgan hozirgi davrda yoshlarning jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarga tabrigi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2017.-103-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T., “O‘zbekiston”. 2017. 43-bet.
4. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022 yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF5106-sonli Farmoni.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston”, 2018 10-bet
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // “Halq so‘zi” 2018 yil 15 avgust
8. Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш. – Т. : Шарқ, 2001. - Б. 230;
9. Жакбаров М. Комил инсон ғояси: тарихий-фалсафий таҳлил. –Т.: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2000.
10. Миллий ғоя ва маънавият тараққиёт тамойиллари. – Т.: ЎФМЖ, 2005 – Б. 13
11. Амир Темур тузуклари . Т.: “Ўзбекистон” 2011-79-бет
12. H.A.Shapiro (ed.), The Cambridge Companion to Archaic Greece. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. Pp. xiii, 303; maps 3, figs. 42.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK 37; 371; 57;

Malikaxon MAMATQULOVA,
Qo‘qon Davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
E-mail: mamatqulovamalika86@gmail.com
Dilnozaxon BURXONOVA,
Qo‘qon Davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
TIPI pedagogika kafedrasi dosenti, p.f.f.d (PhD) M.Isabayeva tahriri ostida

DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS

Annotation
In this article, the development of criteria and levels of personal creativity in the development of creative abilities of a future teacher and the pedagogical conditions that ensure the effective implementation of the process of developing creative abilities of students in educational activities in higher educational institutions of pedagogy are highlighted.
Key words: creativity skills, motivation, essence of pedagogical creativity, activities, pedagogical mechanisms, levels of pedagogical creativity.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация
В данной статье рассмотрены критерии и уровни личностного творчества в развитии творческих способностей будущего учителя и педагогические условия, обеспечивающие эффективную реализацию процесса развития творческих способностей студентов в учебной деятельности в педагогических вузах. выделены.
Ключевые слова: креативные способности, мотивация, сущность педагогического творчества, деятельность, педагогические механизмы, уровни педагогического творчества.

BO‘LAJAK O’QITUVCHILARNING KASBGA TAYYORLASHDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotasiya
Mazkur maqolada bo’lajak o’qituvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxsining ijodkorlik qobiliyati shakllanganlik mezonlari va darajalarini ishlab chiqish va pedagogika oliy o’quv yurtlarida o’quv faoliyatida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirilishini ta’minlovchi pedagogik sharoitlar yoritib o’tilgan.
Kalit so’zlar: ijodkorlik qobiliyatlari, motivasiya, pedagogik ijod mohiyati, faoliyat, pedagogik mexanizmlar, pedagogik ijod darajalari.

Kirish. Respublikamizda pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo’nalishlarini belgilash, orqali o’quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o’qituvchilarini kasbiy mahorat sifatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo’lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko’pgina turlarda ifodalanadi. Bo’lajak o’qituvchilada kreativ qobiliyatni rivojlantirish, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni, emosional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o’z - o’zini faollashtirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o’quv jarayonida ta’limning innovasion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo’lajak o’qituvchilarni kasbga tayyorlashda ijodiy qobiliyatlar psixologik funksional sistemaning individual xususiyati bo’lib, kasbiy faoliyatda ijodiy jarayon samaradorlikni belgilaydi. S.L.Rubinshteyn [1], E.E. Tunik [2], V.D.SHadrikovlar [3] tomonidan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo’yicha psixologik tadqiqotlar olib borganlar. Ta’lim tizimida ijodkorlik qobiliyati va kreativlikni rivojlantirishga oid masalalar bilan B.Abdullaeva, M.Abdullaeva, A.A.Abduqodirov, F.T.Otabaeva, B.R.Adizov, T.Aliboev, N.N.Alimov, SH.Axmedova, SH.T.Boltaeva, G.N.Ibragimova, D.M.Maxmudova, Z.T.Nishanovalar tomonidan tadqiq qilingan bo’lib, bo’lajak o’qituvchilarni kasbga tayyorlashni pedagogik-psixologik xususiyatlariga ilmiy nuqtai nazardan yoritib o’tilgan. Ilmiy ijod, ilmiy-ijodiy tafakkur, ijod jarayonida rasionallik va irrasionallik muammosi bo’yicha O.Fayzullaev, M.Abdullaeva, Z.Davronov, NA.SHermuhamedova, K.Tulenova, A.Azizqulov, L.Qurbonova va boshqalar muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. O’qituvchi va uning professional sifatlari to’g’risidagi muammolar chet ellik olimlar Y.A.Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotssi, L.Disterverg kabilarning asarlarida o’z ifodasini topdi. Jumladan, ulug’ chex olimi, pedagog Y.A.Komenskiy o’qituvchiniig eng muhim xususiyatlari qatoriga bolani sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritib, ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashning zamonaviy bosqichida bo’lajak o’qituvchilarning ijodiy qobiliyatiga talablar oshib bormoqda. Pedagogik mehnatning ijodiy xarakteri o’tmishning mashhur pedagoglari tomonidan ham e’tirof etilgan, ijodiy tarkibiy qism o’qituvchining professiogrammasida doimo mavjud bo’lgan, «pedagogik ijod» tushunchasi yuzaga kelgan va iste’molda barqaror o’rnashib qolgan. Ijodkorlik o’qituvchi professionalizmining eng muhim mezonlaridan sanaladi. Qolaversa, kasbiy ijod uchun zarur deb ta’kidlanadigan sifatlar asosan shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan mos keladi. Pedagog uchun kommunikativ-ijodiy qobiliyatlarning roli muhim ekani ta’kidlanadi [4]. Talabalarni intellektual malakalarga o’rgatishga umumdidaktik yondashuvlar ikki asosiy nazariya: aqliy rivojlanish nazariyasi, aqliy harakatlarni bosqichli va rejali shakllantirish nazariyasi asosida ishlab chiqiladi. Ijodiy malakalarni shakllantirish uchun aqliy rivojlanish nazariyasida

taklif qilingan bosqichlar fikrlash faoliyatini rasionalizasiyalashga ehtiyojni shakllantirish; harakatni bajarish usulini bilish; harakatni amaliy o’zlashtirish; o’z-o’zini nazorat kabi ketma-ketlikni belgilaydi. Bo’lajak o’qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini quyidagi uchta yondashuvi mavjud:

1) genetik, psixik xossalar determinasiyasida asosiy rolni nasliylikka ajratadigan yondashuv;

2) muhitli, uning vakillari psixik qobiliyatlarning rivojlanishida hal qiluvchi omil tashqi sharoitlar deb biladi;

3) genotip-muhit o’zaro hamkorligi, bu yondashuv tarafdorlari individ muhitga moslashishining nasliy qirralarga bog’liq turli tiplarini farqlaydi.

Genetik yondashuv E.Landau, N.S.Leytes, L.D.Lebedevalar tomonidan ishlab chiqqan qobiliyatli konsepsiyalari asosini tashkil etgan [5]. Ijodiy qobiliyatning sintetik tuzilmasiga: bilish motivasiyasining dominantlik roli; tadqiqotchilik ijodiy faolligi; original echimlarga erishish; bashoratlash va oldindan ko’ra bilish imkoniyati; yuksak estetik, ma’naviy va intellektual baholarni ta’minlaydigan ideal etalonlarni yaratishga qodirlikni kiritadi.

Tahlil va natijalar. Bo’lajak o’qituvchilarni ijodiy faoliyat mexanizmlari haqidagi axborot bilan qurollantirish hikoyachi, mexanizmni ma’ruza va laboratoriya mashg’ulotida ko’rgazmali qo’llash (evristika, analogiya, sintez orqali analiz mexanizmi), o’quv adabiyotlari bo’yicha ijodiy faoliyatning tayyor strategiyalari bilan tanishishni talab etadi [6]. Bo’lajak o’qituvchilar qiziqishlari ham shaxsiy, ham ijtimoiy yo’nalganlikka ega. Muammoda yangi mazmunni izlash, muammoni qayta tiklash yoki bo’lajak o’qituvchilar tomonidan yangi muammoning qo’yilishiga to’sqinlik qilmaslik kerak. Bu hollarda bo’lajak o’qituvchining predmetga shaxsiy munosabati, ularning shaxsiy karashlari «tinglanadi». SHuningdek hal etilmagan ilmiy muammolarning qo’yilishi qiziqish uyg’otadi. Ijodiy qobiliyatlarni bir necha didaktik funksiya bildirishi mumkin, ulardan biri uning etakchi rolini belgilaydi [7]. O’quv faoliyatining bo’lajak o’qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tegishlicha o’quv-metodik ta’minoti o’quv adabiyotlari (ijod, ijodiy faoliyat mexanizmlari, masala echish strategiyalariga oid pedagogik adabiyotlar; olimpiada xarakteridagi masalalar to’plami); ijodning turli darajalariga oid masalalar to’plami; predmet xarakteridagi muammolarni hal qilish bo’yicha evristik tavsiyalarni o’z ichiga oladi. Tashkiliy holatlar ham anchagina muhim ahamiyatga ega. Bo’lajak o’qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini o’quv faoliyatida rivojlantirish bo’yicha pedagogik ish jarayonida ta’limning umum tomonidan qabul qilingan metod va shakllari ma’lum ijodiy bo’yoqdorlik kasb etishi lozim. SHu sababli tashkiliy sharoitni yaratishda o’quv-ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O’qitishning ayrim tadqiqotchilik, evristik, muammoli metodlari ijodiy faoliyat tajribasiga o’rgatishga mo’ljallangan. Tadqiqotchilik metodlarining funksiyasi: ijodiy faoliyat qirralarini shakllantirish; bu metodlarni izlash bo’yicha faoliyat davomida ilmiy bilish metodlarini egallashni ta’minlash. Evristik metod ijodiy faoliyat tajribasini elementlar bo’yicha o’zlashtirish, muammoli masalalarni echishning ayrim bosqichlarini egallashni ta’minlaydi. Fikrlash mantiqi va madaniyat etaloni vazifasini muammoli bayon metodi bajaradi. Ta’lim shakllariga ijodiy xarakterni qo’llaniladigan metodlar (ma’ruza-evristik suhbat, bilimlar muammoli bayon qilingan ma’ruza, g’oyalar generasiyasiga bag’ishlangan mashg’ulot), konkret ijodiy operasiyalarni qo’llashga yo’nalganlik (bitta topshiriq mashg’uloti, masala tuzish mashg’uloti, prognostik mashg’ulotlar, mashg’ulot-fantaziya); mustaqil ijodiy faoliyatga kirishish (ijodiy ishlar bajarish, ijodiy ishlar himoyasi, ijodiy ishlarni taqrizlash) talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Bo’lajak o’qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli mazmun, texnologik komponentlardan iborat. Mazmun komponentida ko’rsatilgan asosiy ish yo’nalishlaridan tashqari, rivojlantirish jarayonini optimallashtiruvchi holatlar ham ta’kidlandi. Texnologik komponent konkretlashtirildi: ta’lim shakllari (ma’ruza, laboratoriya mashg’ulotlari, konsulьtasiyalar, yuqori kurslarda kurs va diplom ishlari); o’qitish metodlari (tushuntirish – illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, evrsitik, tadqiqotchilik); ta’lim vositalari (o’quv adabiyotlari, tarqatma material, jadvallar, raqamli proektor, kompьyuterlar, telekommunikasiya tarmoqlari)dan foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rubinshteyn S.L. Sposobnosti // Osnovы obщey psixologii: V 2 t. – M.: Pedagogika, 1998. – T. 2. – S. 122-139.
2. Tunik E.E. Kreativnыe testы. – SPb.: SPb. gos. un-t ped. masterstva, 2002. – 84 s.
3. SHadrikov V.D. Deyatelьnostь i sposobnosti. – M.: Logos, 1994. –320s.
4. Axmedova SH. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodkorligi // Sbornik nauchnix trudov: Formirovanie garmonichno razvitogo pokoleniya v sovremennix usloviyax. – Toshkent, 2012. – B. 73-79.
5. Landau E. Odaryonnostь trebuet mujestva: Psixologicheskoe soprovojdenie odaryonnogo rebyonka. – M.: Akademiya, 2002. – 144 s.
6. Tilakova M. YUqori sinf o’quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2016.
7. Haydarov YA.X., SHaripov SH.S. Izobretatelьskoe tvorchestvo kak faktor formirovaniya professionalizma budushix spesialistov // Prilojenie k jurnalu SPO. – 2004. – № 8.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:796.08(575.1)

Abrorbek MO‘MINOV,
O‘zDJTSU dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)
E-mail: abrorbek10.03.90@gmail.com

P.f.n, dotsent T.E Nabiyev taqrizi asosida

TECHNOLOGY OF ANALYSIS OF THE TECHNIQUE OF KNOCKING OUT WITH THE BALL ON THE GATE BY HANDBALL PLAYERS IN COMPETITION CONDITIONS

Abstact

In this paper, the technical actions of handball players in throwing the ball into the goal during the competition are analyzed. It can be seen from the tables that the author, who identified the shortcomings on the basis of the analysis, carried out corrective work on this shortcoming and the position of the team improved.

Key words: Shot on goal, technical actions, training process, role, major league games.

MUSOBAQA SHAROITIDA GANDBOLCHILARNING DARVOZAGA TO‘P OTISH TEXNIKASINI TAHLIL QILISH TEHNALOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu ishda, gandbolchilarning musobaqa faoliyatidagi darvozaga to‘p otish texnik harakatlari tahlili qilingan. Tahlil asosida kamchliklar aniqlangan muallif ushbu kamchlik bo‘yicha tuzatish ishlari olib borganligi va jamoaning holati yaxshi tarafga o‘sganligini jadvallarda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Darvozaga to‘p otish, texnik harakatlari, o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoni, amplua, oliy liga o‘yinlari.

ТЕХНОЛОГИЯ АНАЛИЗА ТЕХНИКИ ВЫБИВАНИЯ МЯЧОМ ПО ВОРОТАМ ГАНДБОЛИСТАМИ В УСЛОВИЯХ СОРЕВНОВАНИЯ

Аннотация

В данной работе проанализированы технические действия гандболистов по броску мяча в ворота во время соревнований. Из таблиц видно, что автор, выявивший недостатки на основе анализа, провел корректирующую работу над этим недостатком и положение коллектива улучшилось.

Ключевые слова: Бросок по воротам, технические действия, тренировочный процесс, роль, игры высшей лиги.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning, viloyat va tuman shaharlarida sportni ayniqsa yoshlar orasida ommaviylashib borishini ta’minlovchi birlamchi omil munosib shart-sharoitlar yaratildi. Bu borada sport taraqqiyotining bugungi bosqichida biz shunday xususiyatlarni ko‘ramizki, ular sportchini ta’minlash jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatadilar va murabbiy bilan sportchini oldinga, yangidan-yangi murakkab vazifa va topshiriqlarni, o‘z navbatida mashg‘ulot jarayonini tashkil qilishning eng murakkab shaklini izlab topishga majbur etadi. Bugungi kunga kelib zamonaviy gandbolning rivojlanish darajasi joy (fazo) va vaqt taqchilligi sharoitida o‘yin harakatlarining mutloq katta qismini yuqori tezlik va aniqlik bilan bajarish orqali xarakterlanadi [1].

Tadqiqotning maqsadi. Gandbol bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi chempionatida qatnashayotgan jamoalarning darvozaga to‘p otish texnik harakatlarini tahlil qilish. Aniqlangan kamchliklar yuzasidan jamoalar uchun ularning o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga o‘zgartirish tuzatish ishlarini olib borish.

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi va amalga oshirildi:

1. Oliy ligada ishtirok etuvchi Olmaliqning “OKMK” jamoasining o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonini o‘rganish.
2. 2022 yilning III tur o‘yinlarida darvozaga to‘p otish texnik harakatlarini nazorat qilish.
3. III turdan so‘ng aniqlangan kamchiliklar asosida “OKMK” jamoasining o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga o‘zgartirish va tuzatish ishlarini olib borishni boshladik.
4. Tadqiqotdan olingan natijalarni umumlashtirgan holda darvozaga to‘p otish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berish.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili. O‘zbek pedagog olimlari va mutaxassislar J.A. Akramov, T.E. Nabiyev, Sh.K. Pavlov, Sh.F. Tulaganov, R.R. Kariyeva, I.N. Shelyagina, F.A. Abduraxmanov A.A. Pulatov va boshqalar gandbol nazaryasi va uslubiyoti masalalariga jiddiy e’tibor qaratib ko‘plab ilmiy taqiqotlarni olib borganlar biroq bizning bosh maqsadimiz gandbolchilarimizni musobaqa faoliyatidagi darvozaga to‘p otish bo‘lganligi boiz mazkur masalaga asosiy e’tiborimizni qaratdik. O‘rganishlar, dalilar, izlanishlar gandbolchilarni “amplua” bo‘yicha tayyorlashining ijtimoiy pedagogik, jihatlari ham o‘rganish o‘z navbatida ishning dolzarbligini belgilab beradi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish davomida shu narsa ma’lum bo‘ldiki o‘yinchilarning darvozaga to‘p otish texnik tayyorgarligini rivojlantirishda qo‘llanilgan vasitalarning nazariy jihatlari, olimlarning ilmiy tadqiqotlari, fikr mulohazalari, boshqa sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi malakali sportchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba va tadqiqotlarni o‘rganish hamda umumlashtirgan holda kuzatishning tuzilmasi shakillantiriladi [2,3,4,5].

Jahon gandboli mutaxassislarning e’tiroficha, bugungi davr gandbolchilarini muvaffaqiyatli o‘yin ko‘rsatishda va jamoasini g‘alabasini ta’minlashda quyidagicha hislatlarga ega bo‘lishni talab etadi:

1. Har bir gandbolchining o‘yinning oxirigacha bor kuchi bilan kurash olib borishi.
2. Gandbolchilarning maydon bo‘ylab, yuqori tezlikda to‘p bilan va to‘psiz harakatlanishi.
3. Texnik-taktik harakatlari, tezkorlik, sakrovchanlik, chidamkorligi mukammal darajada bo‘lishi.

4. O‘yin davomida to‘pni jamoadoshiga aniqlik bilan uzatish, darvozalarga zarbalarni to‘g‘ri yo‘naltira bilishi va boshqa texnik usullarni behato bajarishi kerakdir [7,8,9,10,11].

Mazkur maqolani yoritish uchun quyidagi usullardan foydalandik, tadqiqot muomosiga oid ilmiy va uslubiy nazariya adabiyotlar tahlili, jamoa o‘yinchilarni xujumdagi texnik faoliyatini nazorat qilish va tahlili, matematik statistik uslub.

Tadqiqot metadalogiyasi. Tadqiqot uch bosqichda, 2022-2023 yillar davomida olib borildi.

Birinchi bosqich 2022-yilning sentyabr oyidan bo‘lgan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, mashg‘ulot va musobaqalar jarayonida gandbolchilarni texnik-taktik mahoratini oshirish ustida ishlashning me’yorlari o‘rganildi shu maqsad yo‘lida O‘zbekiston Milliy chempionati oliy liga o‘yinlari tahlili asosida tajriba olib borildi.

Ikkinchi bosqich 2022-yilning noyabr oyida “OKMK” jamoasining musobaqa faoliyatidagi darvozaga to‘p otish texnik harakatlari nazorat qilish orqali natijalari olindi. Bu bosqichda tadqiqot davomida olingan natijalar, gandbolchilarning darvozaga to‘p otish texnik harakatlari tahlil qilindi va amaliy tavsiyalar berildi.

Uchunchi bosqich 2023 yil mart kunlari Toshkent shaxrida O‘zbekiston chempionatining I tur o‘yinlarida tadqiqotning yakuniy bosqichi olindi. Olingan natijalar oldingi olingan natijalar bilan solishtirildi va xulosa chiqarildi. “OKMK” gandbolchilarning uchta o‘yinda qayd etgan hujumdagi texnik harakatlarining samaradorligi (tadqiqotdan oldin)

1-jadval

№	Texnik-taktik harakatlar	Amplua bo‘yicha o‘yinchilarning joylashishi																	
		O‘ng burchak o‘yinchisi			O‘ng yarim o‘rta o‘yinchisi			Markaz o‘yinchisi			Chap yarim o‘rta o‘yinchisi			Chap burchak o‘yinchisi			Chiziq o‘yinchisi		
	Bajarilgan harakatlar	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh
1.	Bir qadamda sakrab otish	3	2	1	6	4	2	12	7	5	10	6	4	4	2	2	6	3	3
2.	Uch qadamda sakrab otish	13	10	3	9	5	4	9	6	3	13	9	4	17	12	5	4	1	3
3.	Tayanib otish	2	1	1	7	3	4	10	6	4	8	3	5	6	3	3	6	4	2
4.	Tayangan xolda o‘ng tomonga egilib otish	4	2	2	4	1	3	6	4	2	9	6	3	4	2	2	7	3	4
5.	Tayangan xolda chap tomonga egilib otish	3	2	1	5	3	2	7	4	3	5	3	2	3	1	2	5	2	3
6.	Jami	25	17	8	31	16	15	44	27	17	45	27	18	34	20	14	28	13	15
y dorligi	68	51,6		61,3			60			58			46,4						

Izoh: Samaradorligi % hisobida ko‘rsatilgan, ubh-umumiy bajarilgan harakatlar, abh-aniq bajarilgan harakatlar, nbh -noaniq bajarilgan harakatlar.

“OKMK” gandbolchilarning uchta o‘yinda qayd etgan hujumdagi texnik harakatlarining samaradorligi

1-rasm

Yuqoridagi rasmni qisqacha tahlil qilar ekanmiz O‘ng burchak o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 68 %, (6 m dan otilgan to‘plari xam xisobga olingan). O‘ng yarim o‘rta o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samradorli 51,6 %, markaz o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 61,3 %, chap chrim o‘rta o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 60 %, chap burchak o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 58 %, chiziq o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 46 % ni tashkil etdilar.

Biz tadqiqotimiz davomida “OKMK” jamoasining darvozaga to‘p otish texnik harakatlarining samaradorligini oshirish va o‘yinda yanada samarali o‘yin namoyish etishi uchun quyidagi mashqlar majmuasini jamoaning o‘quv-mashg‘ulot dasturiga kiritdik.

Bundan tashqari gandbolchilarning jismoniy tayyorgarlikka oid maxsus guruhli va individual mashg‘ulotlar, texnika va taktikaga doir guruhli hamda individual mashg‘ulotlar, ikkiyoklama o‘yinlar o‘tkaziladi. Muntazam ravishda nazorat sinovlari o‘tkazilib turildi. “OKMK” gandbolchilarning uchta o‘yinda qayd etgan hujumdagi texnik harakatlarining samaradorligi (tadqiqotdan keyin)

2-jadval.

№	Texnik-taktik harakatlar	Amplua bo‘yicha o‘yinchilarning joylashishi																	
		o‘ng burchak o‘yinchisi			o‘ng yarim o‘rta o‘yinchisi			markaz o‘yinchisi			chap yarim o‘rta o‘yinchisi			chap burchak o‘yinchisi			chiziq o‘yinchisi		
	Bajarilgan harakatlar	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh	ubh	abh	nbh
1.	Bir qadamda sakrab otish	4	3	1	8	6	2	12	9	3	10	7	3	4	2	2	6	4	2
2.	Uch qadamda sakrab otish	15	14	1	12	9	3	10	8	2	13	10	3	17	14	3	7	5	2
3.	Tayanib otish	3	2	1	8	6	2	8	6	2	8	5	3	6	4	2	6	4	2
4.	Tayangan xolda o‘ng tomonga egilib otish	3	2	1	4	1	3	7	4	3	9	6	3	4	3	1	7	3	4
5.	Tayangan xolda chap tomonga egilib otish	3	1	2	5	3	2	5	4	1	5	3	2	3	1	2	5	2	3
6.	Jami	28	20	6	37	25	12	42	31	11	45	31	15	34	24	10	31	18	13
7.	Umumiy samaradorligi	71,4			67,5			73,8			68,8			70,5			58		

Izoh: Samaradorligi % hisobida ko‘rsatilgan, ubh-umumiy bajarilgan harakatlar, abh-aniq bajarilgan harakatlar, nbh -noaniq bajarilgan harakatlar.

O‘zbekiston Respublikasi gandbol federatsiyasining 2023 yilga rejalashtirilgan taqvim rejasidan o‘rin olgan, O‘zbekiston chemponati 1-tur uchrashuvlarida “OKMK” jamoasining musobaqa sharoitida darvozag to‘p otish texnik harakatlarining samaradorligi takroran baholandi va umumiy tahlil qilindi, natijalar quyidagicha (2-jadval).

Yuqori malakali gandbolchilarning texnik harakatlari samaradorligi

2-rasm



Yuqoridagi jadvalni qisqacha tahlil qilar ekanmiz O‘ng burchak o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 71,4 %, (6 m dan otilgan to‘plari xam xisobga olingan). O‘ng yarim o‘rta o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samradorli 67,5 %, markaz o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 73,8 %, chap chrim o‘rta o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 68,8 %, chap burchak o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 70,5 %, chiziq o‘yinchisining darvozaga to‘p otish samaradorligi 58 % ni tashkil etdilar, qayd etilgan natijalarni solishtradigan bo‘lsak, samaradorlik tadqiqotdan keyin anchagina o‘zgarish borligini jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

“OKMK” jamoasi gandbolchilarining tadqiqotdan oldin va keyingi natijalari

3-rasm



Xulosa. Tadqiqot ishlari “OKMK” jamoasi gandbolchilarida olib borilgan edi va ularning darvozaga to‘p otish texnik harakatlari nazorat qilindi va natijalar o‘zaro taqqoslandi.

2023 yilga rejalashtirilgan O‘zbekiston chempionatining oliy liganing 1-tur o‘yinlarida “OKMK” jamoasida tadqiqot ishlarimizni yakuniy bosqichini yakunlab, tadqiqot boshida olingan natijalar bilan solishtirganimizda bo‘lsak o‘ng burchak o‘yinchisining darvozaga to‘p otish texnik harakatlari samaradorligi tadqiqotdan keyin 3,4 % ga, o‘ng yarim o‘rta o‘yinchisiniki 16,5 % ga, markaz o‘yinchisiniki 12,5 %, chap yarim o‘rta o‘yinchisiniki 8,8 %, chap burchak o‘yinchisiniki 20,5 %, chiziq o‘yinchisiniki esa 11,6 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni taqazo etdiki, biz mashg‘ulotlarda qo‘llagan mashqlar natijasida “OKMK” jamosi chiziq o‘yinchisining hujum texnik-taktik tayyorgarligi, tadqiqotdan oldingi ko‘rsatkichlariga ko‘ra tayyorgarlik darajasi o‘sganligi kuzatildi, jamoa chiziq o‘yinchisining hujum texnik-taktik harakatlarining samaradorligi tadqiqotdan oldin 73,1 % edi, tadqiqotdan keyin esa 77,4 % natija qayd etildi bu natijalarni solishtiradigan bo‘lsak samaradorlik tadqiqotdan keyin 4,3 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 3 iyuundagi PQ 3031-sonli qarori.
2. Akramov J.A. Gandbol: “Lider Press”, 2008 y, 408 s.
3. Pavlov Sh.K., Abduraxmanov F.A., Gandbol: darslik, T. 2010 y.
4. Pavlov Sh.K., O.X. Abdalimov, Z.YE. Yusupova. “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” darslik. Toshkent 2017 y.
5. Shelyagina I.N., Abduraxmanov F.A., Pavlov Sh.K. “Gandbolchi talabalarning o‘quv ilmiy-tekshirish ishlari”. T., O‘zDJTI, 2000 y.
6. Мўминов А.Ш. (2021). Гандболчи-талабаларда турли функционал ҳолатлардан тўпни дарвоза бурчакларидаги нишонларга отиш аниқлигини ўқув йили давомида ўзгариш динамикаси. ФАН-СПОРТГА илмий назарий журнал, С. 33-36.
7. Мўминов А.Ш. (2021). Точность дифференцировки пространственно-временных отношений по данным РДО у гандболистов до и после вестибулярной нагрузки на разных этапах годичного цикла подготовки. ФАН-СПОРТГА илмий назарий журнал, С. 69-71.
8. Мўминов А.Ш., & Розибоев М.М., & Азимқулов Б.А. (2021). Tools and methods of development of handball players at the preliminary preparation stage / Proceedings of 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference Global Technovation, Granada, Spain – С. 5-6.
9. Мўминов А.Ш. (2021). Гандболчи-талабаларда танани чап ва ўнг томонга айлантириш таъсирида вақт-оралиқни фарқлаш реакцияларининг ўзгариш динамикаси. International Multidisciplinary Scientific Conference on Educational Advancements and Historical Developments. Berlin, Germany -Sydney, Australia – С. 5-6.
10. Хабибжанова Х.М., & Мўминов А.Ш., & Юсупова З.Э., (2021). Мусобақа шароитида марказ амплуасида ўйновчи гандболчиларнинг ҳужумдаги техник-тактик ҳаракатларини таҳлил қилиш ва баҳолаш. “ФАН-СПОРТГА” илмий назарий журнал, Чирчиқ – Б. 36-38.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 7.022(79)

Kamoliddin MURODOV,
O‘zMU katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)
E-mail: mkamoliddin62@gmail.com

PhD A.Sabirov taqrizi asosida

SPORT KURASHIDA MAXSUS “SMART SPORTSWEAR” LIBOSI YORDAMIDA SPORTCHILARNING MUSHAK KUCHI DARAJASINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maxsus “Smart sportswear” libosi yordamida sportchilarning mushak kuchi darajasini aniqlash va rivojlantirish metodikasining samaradorligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Sport kurashi, maxsus uskunalarning samaradorligi, mushak kuchini aniqlash va rivojlantirish.

МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ УРОВНЯ МЫШЕЧНОЙ СИЛЫ СПОРТСМЕНОВ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНОЙ “SMART SPORTSWEAR” В СПОРТИВНОЙ БОРЬБЕ

Абстрактный

В данной статье показана эффективность метода определения и развития уровня мышечной силы борцов с помощью специальной одежды «Smart sportswear».

Ключевые слова: Спортивная борьба, эффективность специальной техники, выявление и развитие мышечной силы.

METHODOLOGY FOR DETERMINING AND DEVELOPING THE LEVEL OF MUSCLE STRENGTH OF ATHLETES WITH THE HELP OF A SPECIAL “SMART SPORTSWEAR” IN WRESTLING

Abstract

This article shows the effectiveness of the method for determining and developing the level of muscle strength of wrestlers using special clothing "Smart sportswear".

Key words: Wrestling, effectiveness of special equipment, identification and development of muscle strength.

Kirish. Sport kurashida yuqori va doimiy natijalarga erishish uchun birinchi kurashchining jismmoniy tayyorgarlik darajasi birinchi raqamli ahamiyatga ega, shu bilan birga uning harakat sifatlarini rivojlantirish, buning ostida – inson harakat imkoniyatlarining alohida tomonlari nazarda tutiladi – kuch, tezlik, chidamlilik, epchillik, egiluvchanlik. Ushbu izoh 30 yil oldin keltirilgan edi, o‘sha davrdan beri tadqiqotchilar tasavvurlarida hech qanday tubdan o‘zgarish ro‘y bergan emas. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat, hamda kurashning texnikasi va taktikasini o‘rganish bilan birgalikda o‘tkaziladi. Shug‘ullanish jarayonining ushbu tomonlari uyg‘unlikda moslashadi va biri ikkinchisini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sport kurashda maxsus jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha qator samarali vositalar va uslublar haqida soha mutaxassislari A.N.Abdiyev, F.A.Kerimov, Sh.S.Mirzanov, Z.A.Bakiyev va S.Q.Adilovlar turli takliflar berishgan.

Mustaqil davlatlar xamdustiligi mamlakatlari olimlarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o‘rganish natijasida aniq bo‘ldiki sportchilarda kuch chidamliligini rivojlantirish bo‘yicha A.P.Bondarchuk, Y.A.Shaxmuradov, A.A.Nikolayev va V.G.Semyonovlar qator ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Y.V.Verxoshanskiy, YE.B.Myakichenko va V.N.Seluyanovlar o‘zlarining ilmiy-uslubiy ishlarida sportchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar berishgan. Sport kurashi bo‘yicha olimlar B.I.Tarakanov, A.N.Abdiyev, N.A.Tastanov, Sh.A.Mirzakulov, Sh.S.Mirzanov, YE.I.Bayturayev, Z.C.Artikov va Y.A.Shaxmuradovlar o‘zlarining ilmiy-uslubiy ishlarida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish va rejalashtirish uslubiyatini ochib berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir sport turida harakatlanuvchi harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ular ushbu sport turining maqsadga yo‘naltirilganligi, tashqi shartlar va musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shuning uchun, aniq sport harakati qanday tuzilganligi va amalga oshirishini tushunib, uning takomillashtirilishi haqida to‘g‘ri qaror qabul qilish mumkin, shu qatorda jismoniy tayyorgarlik vositalari yordamida ham. Hammaga ma’lumki, jismoniy xususiyatlar tabiiy tarzda o‘zaro bog‘liq; birini takomillashtirilishi ikkinchisining namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi. Biror bir jismoniy xususiyatni kurashchi uchun etakchi deb ajratish qiyin masala. Ammo sport kurashining zamonaviy tendenstiyalarini inobatga olgan holda ta’kidlash mumkinki, xozirgi vaqtda sportchining kuch chidamligiga eng yuqori talablar qo‘yilyapti.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari kurashchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan va uning uchun zarur bo‘lgan maxsus sifatlarni takomillashtirishga ta’sir etuvchi, shuningdek, sportchining boshqa faoliyat turiga 47 o‘tishiga hamda hayotiy muhim ko‘nikma va malakalarni egallashida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladigan sifatlar kompleksini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Kurashchilar uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalarini tanlashda quyidagi muhim qoidalarni hisobga olish zarur: -mashqlar kurashchi nerv-muskullarining zo‘r bera olish xarakteriga va organizmdagi barcha sistemalarning ish rejimiga yaqin bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar. Mashqlar maxsus sifatlarni rivojlantirishga yordam berishi lozim. Masalan, yakkama-yakka kurash elementlari bo‘lgan ba’zi bir akrobatik mashqlar, sherigi bilan qarshilik ko‘rsatilgan holda juft-juft bo‘lib

bajariladigan mashqlar va hokazolar; -mashqlar harakat koordinatsiyasini rivojlantirishi hamda sportchi faoliyatini o‘zgaruvchan vaziyatlardagi xilma-xil harakat atamalari bilan boyitishi kerak. Masalan sport o‘yinlari: basketbol, kichraytirilgan maydonda o‘ynaladigan futbol, gimnastika va boshqalar; -mashqlar sportchining boshqa harakat va markaziy sistemasi faoliyatining tezroq tiklanishiga xizmat qilishi kerak. Bularga sayrlar, krosslar, poxodlar, harakatli o‘yinlar, bamaylixotir suzib yurish va ochiq havoda o‘zgacha sharoitda o‘tqaziladigan boshqa o‘yinlar kiradi. (A.K.Atoyev) Uzlyuksiz yakka kurashning besh yoki sakkiz daqiqasi davomida yuqori faollikni namoyish qilishga intilib, raqibning kuchli qarshiligini engib, kurashchi o‘sib borayotgan charchash bilan turli texnik-taktik harakatlarni samarali bajarishi zarur.

1-jadval



Erkin kurashchilarning kuch chidamliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Zanjir” usuli

Erkin kurashchilar uchun kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan “Zanjir” uslubini qo‘llash sxemasi 3.5.-rasmda ko‘rsatilgan va bu mashqlar majmuasi kurashchilarning kuch chidamliligini rivojlantirishga mo‘ljallangan. “Zanjir” uslubining o‘ziga xos xususiyati shundaki, mashqlar birgalikda va uzluksiz, birin-ketin, mashqlar soniga qarab, uzulishlarsiz yoki qisqa dam olish oralig‘ida amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotning umumiy vaqti 2 soat bo‘lib, umumiy mashqlar soni 16 tani tashkil etadi. Avvalambor, chigil yozdi mashqlari 15 daqiqa bajarilgandan so‘ng, mashqlarni rasmda keltirilgan sonlarga qarab har haftada takrorlash soni va vazn og‘irligini ko‘paytirib boriladi. Har bir mashq oralig‘idagi dam olish vaqti 3 daqiqani, har bir bajarishlar oralig‘idagi dam olish vaqti esa 2 daqiqani tashkil etadi. Masalan, erkin kurashchilarning kuch-chidamliligini rivojlantirish uchun mashqlar kompleksida quyidagi mashqlar keltirilgan, misol uchun:

I-Qo‘lning tirsak qismida uskuna yordamida bukish (Tik turgan holatda), II-Raqibni belidan ushlab ko‘tarish.

Biz trenajyorlardan foydalanish va nazarda to‘tgan holatda esa natijalar hech bo‘lmaganda kuchni rivojlantirish orqali yuzaga keladi. Asosiy tarkib kurashchilarining test natijalari o‘sishini taqqoslash:

Bu testni bajarishda kurashchilarga dastlab o‘rgatish, keyin esa trenajyorlardan foydalanish taklif qilindi.

Murakkab harakatlardagi katta o‘sish bir tomondan murakkab bo‘lgan harakatlarda kuchning yaxshi darajada ko‘tarilganligi, ikkinchi tomondan uni rivojlantirish uchun biz tomonimizdan taklif etilgan, mashg‘ulotlarda kuch sifatini rivojlantirish uchun trenajyorlardan foydalanish va mashqlar natijasi ekanligini ko‘rsatdi. Statistik ma’lumotlarda esa bu natija uncha katta bo‘lmagan holda ko‘rsatilgan, u ham hammada emas. Ko‘pchilik mutaxassislarning fikricha, kuch belgilari ko‘p hollarda namoyon bo‘ladi.

2-jadval

Pedagogik tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining “Zanjir” usulida olingan kuch chidamlilik sifati ko‘rsatkichlari (n=24)

№	Nazorat mashqlari	Assimetriya	Mod yel	TG (n=12)			NG (n=12)			tst	R
				/1	□	V%	/2	□	V%		
1	Ko‘lning tirsak kismida uskuna yordamida bukish (kg) (tik turib)	O‘ng	45	40,58	4,15	10,23	36,77	3,81	10,36	2,24	P<0,05
		Chap	45	37,99	3,99	10,50	34,41	3,62	10,52	2,20	P<0,05
2	Qo‘lning tirsak qismida uskuna yordamida bukish (kg) (o‘tirib)	O‘ng	40	35,99	3,95	10,98	32,44	3,59	11,07	2,20	P<0,05
		Chap	40	32,56	3,61	11,09	29,21	3,29	11,26	2,27	P<0,05
3	Yuqoridan qo‘llar bilan tortib yelka qismida bukish (kg)	Ikki ko‘l bilan keng ushlab	130	110,91	12,21	11,01	99,55	11,11	11,16	2,28	P<0,05
4	Old tomondan qo‘llar bilan tortib, yelka qismida bukish (kg)	Ikki ko‘l bilan tor ushlab	130	108,87	11,81	10,85	97,64	11,79	12,07	2,23	P<0,05
5	Sport uskunasining dastagini aylantirish (kg)	Ikki ko‘lni o‘ziga karatib ushlash	130	107,92	11,71	10,85	96,81	11,01	11,37	2,29	P<0,05
6	Pastdan ko‘llar bilan tortish (kg)	Ikki ko‘l bilan	130	102,76	12,77	12,43	99,67	11,41	11,45	0,59	P>0,05
7	Oyokni tizza kismida bukish (kg)	Ikki oyoq bilan	100	76,88	7,92	10,30	74,79	7,89	10,55	0,62	P>0,05
8	Gavdani oldinga ko‘tarib bel qismida bukilish (kg)	Ikki ko‘l bilan	30	11,51	1,51	13,12	11,23	1,22	10,86	0,47	P>0,05

Tajriba guruhini (TG) 12 kishi tashkil etdi. Nazorat guruhi (NG) ham 12 nafar ishtirokchidan iborat bo‘ldi. TGda mashg‘ulotlar bellashuv olib borishning individual uslubidan kelib chiqib, aniq ifodalangan o‘ziga xos yo‘nalishi bilan ajralib turdi. Mashg‘ulotning vosita va usullari har bir vazn toifasining yetakchi omillariga ko‘ra tanlanganligida aks etdi. NGda mashg‘ulotlar an’anaviy dastur bo‘yicha o‘tkazildi.

Xulosa va takliflar.

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahliliy o‘rganish asosida, hozirgi kunda malakali erkin kurashchilarning tayyorgarlik bosqichida zamonaviy texnologiyalar asosida kuch chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirish va kuch chidamlilik qobiliyatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha asoslangan ilmiy izlanishlar yetarli emasligi aniqlandi.

2. Erkin kurash sport turida sportchilarning kuch chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirish va kuch chidamlilik

qobiliyatlari samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan «ZK» sport uskunasi ishlab chiqildi («O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi qoshidagi Intellektual mulk konsultativ markazi» davlat unitar korxonasining 2021 yil 6 avgusdagi 003727-raqamli guvohnomasi). Natijada erkin kurashchilarning kuch chidamlilik qobiliyatlari rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasi 15%ga yaxshilangan;

3. Erkin kurashchilarning tadqiqot yakunida jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarini o‘sishining qiyosiy tahlili bo‘yicha TG va NG ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik statistik ishonchli o‘sishi (R<0,05).

(10 kursatkichdan 8 tasida ishonchli) kuzatildi.

4. Erkin kurashchilarning kuch chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan «ZK» sport uskunasida va kurash gilamida bajariladigan maxsus mashqlar majmualari ishlab chiqildi. Natijada erkin kurashchilarning kuch chidamlilik qobiliyatlarini rivojlanish darajasi 16%ga yaxshilangan;

ADABIYOTLAR

1. Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. - Новосибирск, 2002. - 479 с.
2. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. -Т.: УзДЖТИ, 2001. - 286 с.
3. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, спесиализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004.
4. Маткаримов Р.М. Оммавий разрядли оғир атлетикачилар машғулот юкламалари ҳажми ва шиддатининг оптимал нисбатлари самарадорлигини аниқлаш // FAN – SPORTGA илмий-назарий журнали. Т., 2020. -№2. - Б. 34-38.
5. Бакиев З.А. Индивидуализасия технико-тактической подготовки борсов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности / дис. канд. пед. наук. / 2009.
6. Холмуҳамедов Р.Д. Технология подготовки единаборцев на этапах годичнога цикла: Автореф. дис. д-ра пед. наук.- Тошкент-2009.-
   С 16-17.
7. Баязитов К.Ф. Оптимизация тренировочного процесса тяжелоатлетов высокой квалификации в годичном цикле / дис. канд. пед. наук. 2009.- ст 31-36.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:-8-1751

Guldora MUSTAYEVA,
Associate professor Tashkent State Transport University
E-mail: mgulyas00@gmail.com

Based on the review of prof. Sh.S. Safarov

ENHANCING THE ABILITY OF STUDENTS TO THINK CRITICALLY WHILE LEARNING A NEW LANGUAGE

Abstract

The article presents the underlying principles and techniques that facilitate the nurturing of students' critical thinking abilities during foreign language instruction, backed by theoretical and methodological evidence. Additionally, it puts forward the necessary pedagogical conditions required for successfully implementing such an approach. The writer established and validated a series of fundamental principles that constitute the theoretical and practical basis for fostering students' critical thinking skills in the context of foreign language education. Additionally, the author clarified the nature and characteristics of the process of cultivating critical thinking abilities in students while teaching a foreign language. By analyzing critical thinking development and formation at philosophical, social, psychological, and pedagogical levels, the author has identified pertinent issues and sparked scientific interest in finding solutions.

Key words: Intelligent examination, advanced learning, society-oriented, educational program, thoughtful evaluation, sufficient, engagement, collaboration, connection between actions and outcomes, associations, scrutinize.

ПОВЫШЕНИЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ КРИТИЧЕСКИ МЫСЛИТЬ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НОВОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье представлены основные принципы и приемы, способствующие развитию у учащихся способностей критического мышления в процессе обучения иностранному языку, подкрепленные теоретическими и методологическими данными. Кроме того, он выдвигает необходимые педагогические условия, необходимые для успешной реализации такого подхода. Автор установил и утвердил ряд фундаментальных принципов, которые составляют теоретическую и практическую основу для развития навыков критического мышления учащихся в контексте обучения иностранным языкам. Дополнительно автором уточнены сущность и особенности процесса формирования у учащихся способностей критического мышления при обучении иностранному языку. Анализируя развитие и формирование критического мышления на философском, социальном, психологическом и педагогическом уровнях, автор выявил актуальные проблемы и вызвал научный интерес к поиску решений.

Ключевые слова: Интеллектуальный экзамен, углубленное обучение, ориентированное на общество, образовательная программа, вдумчивая оценка, достаточная, вовлеченность, сотрудничество, связь между действиями и результатами, ассоциации, тщательное изучение.

TALABALARNING YANGI TILNI O'RGANISHDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy tamoyillar va uslublar nazariy va uslubiy dalillar bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, bunday yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni keltirib chiqaradi. Yozuvchi chet tili ta’limi sharoitida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asosini tashkil etuvchi bir qator fundamental tamoyillarni o‘rnatdi va tasdiqladi. Bundan tashqari, muallif chet tilini o'rgatish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonining tabiati va xususiyatlarini aniqlab berdi. Muallif tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va shakllanishini falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik darajada tahlil qilib, dolzarb muammolarni aniqladi va yechim topishga ilmiy qiziqish uyg‘otdi.

Kalit so‘zlar: Intellektual imtihon, ilg'or ta'lim, jamiyatga yo'naltirilgan, ta'lim dasturi, o'ylangan baholash, etarli, jalb qilish, hamkorlik, harakatlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik, assotsiatsiyalar, sinchkovlik bilan tekshirish.

Introduction. Modern higher education aims to unearth the potential of every student and shape an individual capable of thriving in a cut-throat, technologically advanced society. In contemporary times, society and education demand an individual who is liberated and inventive, possessing specific cognitive traits. The ability to think freely involves a critical approach that emphasizes innovative and productive endeavors. As a result, critical thinking is a noteworthy trait of individuals who possess this type of liberated thinking.

An examination of state educational benchmarks, educational plans, and higher education institution offerings shows that nurturing critical thinking skills among university students is taking on greater significance. A careful examination of the functional undertakings of universities suggests an increasing demand for the cultivation of individuals who possess critical thinking skills. The development of critical thinking skills among contemporary university students will enable them to be adaptable in today's informational landscape, and acquiring foreign language comprehension and analysis abilities is crucial for achieving this objective.

The main part. Thinking, agreeing with G. Benesh, we understand in a general sense - thinking about possibilities; ordering the existing content [3]. In general terms, thinking must unify diversity and explain what is unified because of differences [4]. Scientist and teacher A. Savchenko in this

aspect notes: “Education, reflecting socio-economic needs, becomes a significant resource in the existing market competition. A modern person at a young and mature age is objectively forced to be more mobile, informed, critically and creatively thinking, and, consequently, more motivated for self-learning and self-development” [10].

Regarding this aspect, Diane Halpern [5] researched that: “Most people complete their formal education between 18 and 22 years of age. It is highly probable that a lot of youngsters will encounter job responsibilities and technological advancements that surpass the imagination of present-day sci-fi authors. To be comfortable for the majority of your life, it's important to gain certain knowledge during your first two decades. In order for education to prepare you adequately for the future, it should prioritize two interconnected principles: being able to efficiently navigate a constantly expanding pool of information to locate pertinent information and being able to comprehend and implement the information you obtain.

S. Zair-Bek argues that a student who is able to think critically knows various ways of interpreting and evaluating an information message is able to identify contradictions and types of structures present in the text, argue his point of view, relying not only on logic (which is already important) but also on the presentation of the interlocutor. Such a student feels confident when working with various types of information, and can effectively use a variety of resources [15].

The basic characteristics of today's world that graduates confront are increasingly rapid transformations. Our world is advancing with an abundance of information that is continuously evolving and swiftly losing its relevance. In today's dynamic world, ideas are continuously reshaped, examined and reconsidered, creating an environment where a single simplistic approach to thinking is inadequate. Individuals must remain adaptable and continuously revamp their thought processes while valuing the pursuit of precision, completeness and meticulousness. The constant advancement and increased efficiency of work skills is crucial for success. People have never encountered a reality like this before. The current education system fails to equip young individuals with the necessary skills and knowledge to cope with the fast-paced and constantly evolving nature of their environment, which is characterized by uncertainty, intricacy, ferment, and lack of a clear pathway. [2].

As a result, the ever-increasing speed of change in human circumstances prevents individuals from confining themselves to a predetermined, unchanging outlook on life. In today's world, acknowledging the constraints inherent in our perspectives and concepts of society, along with the capacity to analyze them objectively, and the ability to think critically and independently when addressing economic, social, and political issues, are all essential elements of an individual's existence. Ultimately, the decisions made by humans - both as individuals and as members of society - have significant implications for the progression of society and even its survival. These decisions are based on a variety of factors such as economics, natural resources, genetically modified products, and alternative fuels. As a result, they play a crucial role in shaping the overall development and growth of humanity. Recognizing the interdependence of human actions, it becomes clear that humanity is in this together and must prioritize finding common ground, considering the effects of choices on others, and not just selecting the most advantageous option for oneself. This underscores the importance of cultivating a mindset that aligns with these principles.

Education is essential to create individuals who can effectively evaluate their position within their local, national, and global communities, in response to the rise of national and global processes, such as European integration and globalization. As various worldviews, political systems, religions, and cultures converge, it prompts the inquiry of how one can develop into a modern individual who isn't uniform in personality but simultaneously gains valuable attributes to enhance themselves. In the contemporary society, the level of competition has significantly increased. [1 p. 67-73].

Individuals who pursue education must acquire practical knowledge and abilities that can be applied in practical scenarios. Undoubtedly, knowledge holds significance only when it is thoroughly understood through critical analysis, ingeniously interpreted, and efficiently utilized in diverse ventures. Many contemporary educational establishments tend to have a one-way form of communication between the teacher and the student, wherein the instructor imparts knowledge to the learner who lacks it. Freshmen are frequently overlooked and deemed inexperienced without recognizing their individual worth and potential. It is apparent that simply equipping individuals with robust knowledge is insufficient unless they are also trained to employ it efficiently; otherwise, the acquired knowledge will remain inactive and surplus.

“It is difficult to imagine an area of life where the ability to think clearly would not be needed. However, few of us have ever been taught how to learn to think more productively. Educational institutions traditionally require students to study, memorize, analyze facts, solve problems, but these institutions do not teach exactly how to do this. It means that adult students already “know how to think”. However, according to Mirolyubova A.A. studies have shown that this assumption is not justified in practice” [7]. Psychologists McKinnon J. W., Renner J. W. [8] found that only 25% of first-year students have the skills necessary for logical and abstract thinking - the kind of thinking that is needed, for example, to answer the question: "What happens if ...?" And for evaluating abstract ideas.

The younger generation’s dependence on others, focus on social activities, diminished drive, and ineffective thought processes have caused scientists and educators of secondary and tertiary institutions to prioritize the cultivation of critical thinking skills. [9], [4].

Although students exhibit creative and critical thinking, they are frequently labeled as disobedient and burdensome in academic settings, prompting some instructors to endorse re-education as a remedy to their tendency to challenge the established norms. To counter this approach, consider the following illustration: back in the 1920s, the idea of sending a rocket to the Moon was considered absurd and deemed to belong to the realm of mental illness. During the 1930s, a physicist authored an article outlining that traveling faster than the speed of sound would result in the aircraft and its pilot disintegrating into tiny particles. [10].

Due to this outcome, "..." Numerous individuals who have completed their education in secondary and higher institutions lack the ability to logically construct their arguments and identify instances when they are being influenced by advertising or propaganda that appeal to their emotions. Furthermore, they may lack the skills to evaluate the credibility of evidence and make informed decisions [11].

In today's society, it is crucial that educational institutions equip individuals with the skills to navigate vast amounts of information and utilize it effectively in real-life situations.

This statement corroborates the belief of experts who assert that "... Over a quarter of the activities that will be needed in the 21st century are yet to be created, and even the existing ones will undergo significant transformations. Thus, individuals will require fresh expertise and abilities. The underlying reason for these issues stems from the rapid growth

of information technology and support, resulting in an unprecedented surge in the generation of information. [12].

An individual who possesses the skill of critical thinking is cognizant of their own biases and strives to comprehend them. Numerous individuals exhibit bias towards parenting approaches by either fully endorsing or entirely opposing the techniques utilized by their own parents. Their argument is that based on their upbringing, the most effective means of persuasion involves the act of severing or removing something. Despite having been physically assaulted, I was fortunate enough to have had a typical upbringing, and therefore I plan to impart the same values and principles to my own offspring. Simultaneously, one fails to acknowledge the detrimental effects on the bond of faith and confidence shared by offspring and guardians, in addition to the concept of fairness.

According to Western psychologists, an individual who engages in critical thinking is exemplified by a young man who has a strong aspiration of pursuing a career in veterinary medicine. At the age of three, this boy displayed an atypical affection for animals, going as far as to prohibit the annihilation of insects in his immediate surroundings. He did not receive admission to any veterinary technical school, leading him to feel distressed and overwhelmed with thoughts like, "My future is ruined!" Initially, the individual did not exercise his analytical faculties, rather limited himself to envisioning two potential outcomes: either pursuing a career in veterinary medicine or remaining an aimless individual. As he pondered his potential career paths and considered the various professions that would allow him to indulge his passion for animals, he came to the realization that his options were practically limitless. This text comprises the names Vagin I. and Ripinskaya P. There are various career possibilities related to animals such as working in a pet store or a zoo, pursuing fields like biology, ecology or animal training, photography of wildlife, creating animal-themed films or even acting as a veterinarian in movies. [14]. Hence, it is crucial to widen your perspective when faced with challenges along the path to achieving your objectives. Doing so will lead you to a solution from what may appear to be a hopeless predicament, as demonstrated in the above illustration.

Many individuals are aware that it is crucial to engage in physical activity to maintain good physical condition. However, not all individuals comprehend that cogitation necessitates exertion and practice. Regrettably, various instances of indolent and inattentive thinking, excessively reliant on feelings and defensive mechanisms, along with overall recklessness, abound. [15].

Conclusion. Thinking is a process that demands mental exertion, decision-making, and evaluation of factual information. Insufficient development of this process results in individuals struggling to think autonomously. Their ability to assess the validity of evidence and their susceptibility to misinformation is compromised, whether it is due to external factors such as political figures, well-known paranormal experts, marketing teams, or their own vanity and hubris. Individuals lacking knowledge on sound investment opportunities, political affiliations, religious beliefs, effective therapeutic approaches, and problem-solving techniques are unable to effectively utilize their mental capacity.

On a level concerning principles, a critical-thinking student can proficiently engage with various sources of information and perceive the multitude of perspectives in the world. They acknowledge the potential for different viewpoints to coexist while upholding shared human values.

REFERENCES

1. Bolotov V., Spiro D. Critical thinking is the key to the transformation of the Russian school // Principal of the school. - 2009. - No. 4.p. 67-73.
2. Bim I.L. Teaching foreign languages: the search for new ways / I.L. Bim // Foreign languages at school. – 2011.- No. 1
3. Benesh G. Psychology: dtv-Atlas. - K .: Knowledge-Press, 2007. - 510 p.
4. English at school// English at school. 2013, No.3(43), pp. 26–34
5. Halpern D. Psychology of critical thinking. - St. Petersburg: Peter, 2000. - 512 p.
6. Lushin P. V. Critical thinking in the domestic educational space: from the experience of formation. – URL: http://www.politik.org.ua/vid/books.php3?b=17.
7. Mirolyubova A.A. Methods of teaching foreign languages: traditions and modernity / Ed - Obninsk: Title, 2010.
8. McKinnon J. W., Renner J. W. Are colleges concerned with intellectual development? // American Journal of Physics. - 1971. - No. 39. - p. 147.
9. Noel-Tsigulskaya T. F. On critical thinking. – URL: http://www.zhurnal.lib.ru/c/cigulxskaja_t_f/criticalthink.shtml.
10. Savchenko O. Developmental potential for better education in the 12th school // Shlyakh osviti. – 2008. – No. 2 (48). – P. 2–7.
11. Seminar with Doctor of Medicine Erickson M. G. - M .: Klass, 1994. - 336 p. 83
12. Shakirova D. M. Formation of critical thinking of pupils and students: model and technology // Educational Technology & Society. - 2006. - No. 9 (4). – p. 284–293.
13. Tselikova V. V. Psychological mechanisms of influence on personality in a cult // Journal of Practical psychologist. - 1996. - No. 5. - P. 71–75.
14. Vagin I., Ripinskaya P. Trainings are cool! The strategy for conducting psychological training. – M.: Astrel, 2005. – 256 p.
15. Zagashev I.O., Zair-Bek S.I. The development of critical thinking in the classroom: a guide for general education teachers. M.: Education, 2011.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:796.015

Axmad MUXAMETOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti
E-mail: muxametovaxmad056@gmail.com

TMI dotsenti F.Karimov taqrizi asosida

SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS OF LOAD ADJUSTMENT IN PHYSICAL EDUCATION AND PUBLIC SPORTS HEALTH EXERCISES

Abstract

The upbringing of a physically fit generation and its maturity is established through the culture of a sustainable lifestyle. The main criterion for it is the level of health of the individual. Health and well-being go back to the maturity of the human body, and laying its foundation stone is carried out from the first period of biological age. Achieving great goals, a prosperous life, building a life worthy of the human race, first of all, members of the existing society - our future striving for perfection , depends on the younger generation. This scientific article discusses some aspects of load standardization in some areas of physical education, as well as in mass sports fitness classes.

Key words: Healthy generation, health training, lifestyle, health level, basic research, health effect, fitness status.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОРРЕКЦИИ НАГРУЗКИ В ФИЗКУЛЬТУРНЫХ И СПОРТИВНО-ОБЩЕСТВЕННЫХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Аннотация

Воспитание физически здорового поколения и его зрелость осуществляется через культуру устойчивого образа жизни. Основным критерием для него является уровень здоровья индивидуума. Здоровье и благополучие восходят к зрелости человеческого организма, а закладка его камня в фундамент осуществляется с первого периода биологического возраста Достижение великих целей, благополучная жизнь, построение жизни, достойной человеческого рода, прежде всего все, члены существующего общества - наше будущее, стремящееся к совершенству, зависит от подрастающего поколения. В данной научной статье рассматриваются некоторые аспекты нормирования нагрузки в некоторых направлениях физической культуры, а также на массовых занятиях спортивной физкультурой.

Ключевые слова: Здоровое поколение, оздоровительные занятия, образ жизни, уровень здоровья, фундаментальные исследования, оздоровительный эффект, физкультурный статус.

JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORT SOG‘LOMLASHTIRISH MASHG‘ULOTLARIDA YUKLAMALARNI ME`YORLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Jismoniy barkamol avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyati orqali yo‘lga qo‘yiladi. Unga asosiy mezon bo‘lib individning salomatlik darajasi olinadi. Sog‘lomlik, salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va uning tamal toshini qo‘yish biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi.Ulug‘ maqsadlarga erishish, farovon turmush, inson zotiga munosib hayot barpo etish, avvalo mavjud jamiyat a’zolari – komillikka intilayotgan kelajagimiz, yosh avlodga bog‘liq. Mazkur ilmiy maqolada jismoniy tarbiyaning ayrim yo`nalishlarida, shuningdek ommaviy sport sog`lomlashtirish mashg`ulotlarida yuklamalarni me`yorlashtirishning ayrim jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Barkamol avlod, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, turmush tarzi, salomatlik darajasi, fundamental tadqiqotlar, sog‘lomlashtirish effekti, mashqlanganlik holati.

Kirish. Sog‘lom turmush, faol optimal harakat faolligi o‘zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to‘liq o‘rganilmagan. Umumiy va maxsus adabiyotlarning taxlili va mustaqilligimizdan keyingi davrda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning taxliliy natijalari mavzu bo‘yicha fundamental tadqiqotlar o‘tkazish lozimligini qo‘rsatmoqda. Jismoniy madaniyati tarkibidagi sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a’zosini sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi isbotlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyot materiallarining tahlili orqali “Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari”da foydalanadigan vositalari tadqiqotimizning predmeti qilib oldik. Shug‘ullanuvchining funksional holatini lozim bo‘lgan darajada, vositalarning mazmuni, mashg‘ulotlardagi mashqlanish vositalarining shakllari, tashkillash usuliyoti, shuningdek, ularning umumiy qoida va qonuniyatlariga oid hamda mashg‘ulotlarning strukturasi va nazariy bilimlari xozirgi kungacha tizimga solinmagan. Unda har kim o‘zicha ilmiy asossiz foydalanadi. Oqibati ko‘p o‘tmay shug‘ullanishni foydasiz degan xulosa bilan mashqlanishni to‘xtatadi [1].

Ulardan foydalanishning mazmuni, tashkillash shakllari, vositalaridan foydalanish metodikasi, prinsiplari bilan bir-birlaridan farqlanadi hamda ularning maqsadi va vazifalarining yo‘nalishi ham boshqacha.

Uzoq o‘tmishimizdan ma’lumki bilimdon odamlarni, yigit va qizlarni yaxshi shakllangan gavdasini, ko‘rganda havas uyg‘otadigan inson vujudini tarbiyalab ularni har tomonlama go‘zal, qadi-qomatga ega qilganlar. Bu holat odamlarning salomatligi, kuch, aqliy va ma’naviy kamolotining timsoli sifatida qaralib ular musavvirlar va xaykaltaroshlar ijodi bilan san’at mahsuliga aylangan va inson jismini barkamolligining darajasi sifatida namoyish qilinadi

hamda dunyoning ko‘p mamlakatlaridagi san’at muzeylarida beqiyos did bilan yaratilgan haykallar va mo‘yqalam mahsuli tomoshabinni mahliyo qilishda davom etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Organizmni o‘sish davrida kuch-quvvatni oshib borishi, tananing rivoji (aqliy va ruhiy rivojlanishi), jismoniy barkamollikning zaminini tashkil qiladi. Sog‘lom rivojlangan tanagina kundan-kun oshib borayotgan yangi ham aqliy ham jismoniy ilmlarni singdirish imkoniyatini yaratadi.

Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari natijasida tanada faqat kuch ko‘payibgina qolmay, uning fikrlash imkoniyatlari ham kengayadi. Jismoniy va aqliy kamolot nihoyasiz, chegarasiz bo‘lib unga sekin yoki tez sur’at bag‘ishlash har kishining intilishiga, mehnatsevarligiga, sabru-toqatiga, irodasiga bog‘liq [2].

Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati, uning yetakchi atamasi sanalgan “sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari”, “sog‘lomlashtirish mashqlari” ning ilmiy asoslangan ta’rifi bo‘lmagan, hozirgacha ham yo‘q. Lekin qator mualliflar bu tushuncha yoki atamaga o‘zlarinnig fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, «aerobika»ning asoschisi K.Kuper turg‘un, o‘zgarmas oddiy holatdaligimizda kislorod sarfi bilan bajariladi-gan (aerob) harakatlarni sog‘lomlashtiruvchi yuklamalari deb nomlash zarurligini uqtirmoqda. Sog‘lomlashtirish maqsadidagi yuklamalar mashg‘ulotlar davomida yagona umumiy xususiyatga ega bo‘lishi, ularning hajmi va intensivligi bo‘yicha me’yoridan kuchli zo‘riqish talab qiladigan darajada bo‘lmasligi, bunday yuklamalarni organizmga mosligi, tanamiz resurslari zaxirasini tugatib qo‘ymaydigan, organizmni rivojlan-tiradigan, takomillashtiradigan nafi bo‘lishi lozimligini, jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini pasaytirmay ushlab turishni nazarda tutishini e’tirof etmoqdalar [5].

Sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egalarning organizmida odatga aylangan mashg‘ulotlar natijasida alohida biologik aktiv moddalarning yuzaga kelayotganligini aniqlanishini ilmiy isbotlanishi oxirgi 10 yillikdagi tadqiqotlarning yutug‘i deb sanaladi. Ular organizmni turli xildagi kasalliklar, tashqi muhitning zararli oqibatlariga qarshi tura olishini himoya funksiyasini yaxshilanishi bilan ham foydali ekanligini ko‘rsatib berdi.

Ayniqsa, miyadagi ayrim o‘zaro tuzilmalar, ya’ni alkogol va narkotiklar ta’sir etuvchi og‘riqqa monand hissiyotlarni beradigan registorlar bilan o‘zaro faoliyatga birlashib, tabiiy xursandchilik holati, xush kayfiyati, bag‘ri kengligi, fikrlashning tiniqlashgani yoki uning teskarisidek tabiiy qo‘zg‘alishlarni yuzaga keltiradi. Bunga o‘xshash holat tizimli sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanayotganlarda ham yuzaga keladi. Bu fiziolagik holat bo‘lib jismoniy mashqlarni shug‘ullanuvchi organizmidagi yaratuvchanligi bilan bog‘liq [7].

Tahlil va natijalar. Qonda yuzaga kelgan endofrinlar alkogol va narkotik orqali hosil bo‘lgan patologik qo‘zg‘atuvchilarni bloklab asta - sekin siqib chiqaradi. Jismoniy mashqlarni inson organizmidagi zararli holatlarga nisbatan o‘ziga xos roli ham shundan iborat.

Salomatlik mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanuvchilar sportchilar uchun ham salbiy ta’sir etuvchi eng ko‘p uchraydigan, ayrim holatlarda yashirin kechadigan yuqumli kasalliklarni yuqishi haqida ham ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Xronik angina, tishlar kariesi, furunkulez, o‘t pufagidagi infeksiyalar va boshqa kasalliklar ayrim holatlarda o‘zini sezdirmay rivojlanayotganini bilmay sog‘lomlashtirish mashg‘ulot mashg‘ulotlarida mashqlanishning oqibati yomon bo‘lishi hozirgi kunda isbotlangan [8].

Jismoniy yuklama yoki faollik tabiiy ravishda organizmda qon aylanishini tezlashtiradi, bu o‘z navbatida yashirin kechayotgan yuqumli kasallik mikroblarini joyidan yuvib, tez oqayotgan qon tarkibida boshqa organlarga tarqatadi. Yangi kasallik o‘choqlarini yuzaga keltirishi mumknn. Qolaversa, organizm xronik kasalliklar paytida o‘zining himoya energiyasini kasallikka qarshi sarflayotgan paytida o‘sha energiyani muskul ishiga (mashq bajarishga) sarflashga to‘g‘ri kelishi organizmni funksional holatini pasayishiga sabab bo‘ladi. Natijada jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish orqali yuzaga keladigan sog‘lomlashtirish effekti yuzaga kelmasligi, sodir bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatin salomatlikka ziyon yetkazishi aniq. Ayrim holatlarda yurak, buyrak, o‘t pufagi va boshqa organlarda hosil bo‘lgan yashirin kechgan kasalliklarni jismoniy mashq bilan shug‘llanish orqali sodir bo‘lgan kasalliklar deb qabul qilinib, mashqlanish to‘xtatiladi. Shunga ko‘ra har qanday funksional holatni yomonlashuvi tibbiy nazoratni taqazo etadi.

Xulosa va takliflar. Har bir sog`lomlashtirish tadbirida ongli ravishda, ixtiyor qilib, salomatligini jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashtirish trenovkalari orqali amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yibdiki, o‘zidagi mavjud xronik kasalliklarini davolamay, bunday mashg‘ulotlarni boshlashni oqibati haqida puxtaroq o‘ylashi maqsadga muvofiq.

Ko‘p uchraydigan, yo‘l qo‘yiladigan xatolardan biri davolanib ulgurmay, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishni boshlab yuborishdir, natijada gripp, angina, o‘tkir respirator kasalliklari vujudingizni tark etmaydi. Subyektiv salomatlik–“klinik” deb nomlanadi, aslida tuzalgandeksiz, lekin har doim ham “anatomik” sog‘lomlik (tuzaldi)ga muvofiq kelmaydi. Ayrim holatlarda shoshilib mashg‘ulotlarga kirishish hali kasallikka qarshi kurashib o‘zining quvvati zahirasini tiklab ulgurmagan jismimizni zo‘rlash demakdir. Kasallikdan so‘ng ayrim to‘qima va hujayralar o‘z funksiyasini tiklab ulgurmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Artiqov A.A. futbol sport turida darvozaga zarba berish aniqligini baholash uslubiyati //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – b. 48-51.
2. Artiqov A. A. Musobaka sharoitida malakali futbolchilar tomonidan bajariladigan texnik usullarning maksadli anikligini taxlil kilish //Fan-Cportga. – 2018. – №. 3. – b. 49-53.
3. Artiqov A. A. Futbolchilarning texnik usullari aniqligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligining tahlili //Fan- Cportga. – 2020. – №. 3. – b. 16-18.
4. Bozorov S. R. Sportchilarni shug‘ullanganlik darajasini aniqlashning zamonaviy usullarini tahlili (futbol sport turi misolida) //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 2. – b. 410-419.
5. Alxasov D.S. Jang san'ati bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy bo'limlari nisbati. /VA. TiMFK. M.: 2011, No 12, - B. 48-51.
6. Vitkovski Z., Lyax V.I. 11-19 yoshli futbolchilarda muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish. Moskva: Jismoniy madaniyat, tarbiya, ta'lim, o'qitish. M., 2018, - S.34-39.
7. Moskvin V.A., Moskvina N.V. Chap qo'llarning sport va lateral profillari. M.: Jismoniy tarbiya va sport, 2018. - 484 b.
8. Novikov A.A. Jang san'atida texnik va taktik mahoratning pedagogik asoslari (kurash misolida). Abstrakt diss. dok. ped. Fanlar. M., 2010, - 62 b.
9. Oborin A.V., Plotnikov V.I. Sport kurashida taktik tayyorgarlikning tuzilishi. /VA. TiMFK. M.: 2011, No 12, - B. 77-80.

10. Tumanyan G.S. Ta'lim nazariyasi, metodologiyasi, o'qitishni tashkil etish, qo'shimcha mashg'ulotlar va musobaqalar. / Kitobda: Raqobat faoliyati. 2.11., M. "Sovet sporti", 2010. - 40-yillar

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 200 N 87

Nodira NEMATOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistri

TerDPI dotsenti,psixologiya fanalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

THE EFFECT OF CONFLICT ON THE RELATIONSHIP BETWEEN THE TEACHER AND THE STUDENT

Annatation
This article describes the diagnosis of mental development in preschool children, the specific features of child psychodiagnostics, the main purpose of psychological-pedagogical diagnosis, the use and application of methods used in psychological diagnosis in preschool children.
Key words: Preschool age, Psychological diagnosis, diagnostic examination, mental development, methodological materials, evaluation of results.

ВЛИЯНИЕ КОНФЛИКТА НА ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И СТУДЕНТОМ

Аннатация
В данной статье описаны диагностика психического развития у детей дошкольного возраста, особенности детской психодиагностики, основные цели психолого-педагогической диагностики, использование и применение методов, применяемых в психологической диагностике у детей дошкольного возраста.
Ключевая слова: Дошкольный возраст, Психологическая диагностика, диагностическое обследование, психическое развитие, методические материалы, оценка результатов.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR AQLIY TARAQQIYOTINING PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya
Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy taraqqiyotini diagnostikasi, bolalar psixodiagnostikasining o'ziga xos xususiyatlari, psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik tashxisda qo’llaniladigan metodikalardan foydalanish va qo’llash tartibi haqida bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, Psixologik tashxis, diagnostik tekshiru, aqliy taraqqiyot, metodika materiallari, natijalarni baholash.

Kirish. Psixologik tashxis psixologiya fani soxasi bo’lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarni aniqlovchi xamda o’lchovchi metodlarni ishlab chiqadi. Psixologiya tashxisdan mustaqil soxa sifatida foydalanish o’tgan asrning 20-yillarida boshlangan Psixologik tashxisning predmeti hamda yo’naltirilganligiga xar xil mualliflar turlicha yondashganlar. Fundamental xarakterga ega bo’lgan ishlarda umumiy psixodiagnostika psixologik-pedagogik qurollarning tuzilishi va psixologik-pedagigik xulosalar shakillanishining metadologik, nazariy xamda uslibiy tamoyillari sifatida gavdalanadi. Bu asosan nazariyaga oid vazifa bo’lib, testalogiyani fan sifatida bilishni va albatta, tekshiruvchining ruxiyatini o’rganishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta’limda xam aynan psixodiagnostikaga oid yechimini kutayotgan muammolarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, bolaning tarbiyachi tomonidan qayta-qayta ko’rsatib berilgan xarakatlarni bajara olmaslik, yoki qisqa hajmli sherlarni yod ola bilmaslik, muloqotga kirisha olmaslik, yoshiga nisbatan o’ta qaysarlik, ota-ona bilan bola o’rtasidagi tushunmovchilik oddiy mantiqiy masalalar yecha olmayotganligi ota–ona xamda pedagog-tarbiyachini xavotirga soladi. Bunday qiyinchiliklar nafaqat ma’lum malumotlarni bilmaslik kabi pedagogik muammolarga, balki ko’proq psixologik sabablarga ega bo’lishi mumkin. Balki, aqliy faolyatning ichki rejalashtiruvchi yoki psixik jarayonlar taraqqiyotida muammolar bo’lishi, bilish qobilyati yetarlicha shakillanmagandir. Bu muammoni xal qilish uchun, avvalombor, testlar yordamida bolaning bilim olishida yuz berayotgan qiyinchiliklar sababini aniqlash joiz. Buning uchun pisixolog bolalar psixologiyasi, yosh davrlari xamda pedagogik psixalogiya, tafakkur psixologiyasi, testalogiyani puxta bilishi va bu soxada mukammal bilmga ega bo’lishi kerak. Ayniqsa uzluksiz talimning bosh bo’g’ini bo’lgan maktabgacha ta’lim tizimida psixodiagnostikadan foydalanishda extiyotkorlik va o’ta ma’sulyatlilik aloxida talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti darajasini aniqlash va o’rganishda diagnostik vositalarni tanlash va saralashda psixolog o’zi mukammal biladigan, amalyotda qo’llab kelayotgan metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aqliy taraqqiyotni diagnostika qilish metodlaridan foydalanish pedagogik va yosh psixologiya tarmogining markaziy muammolaridan biri hisoblanib, yechilishi tezroq topilishi jabhasi bilan alohida axmiyat kasb etadi. Ushbu muammo sobiq savet psixologiyasi psixologlari L. S Vigotiskiy, A. R Luriya, D. B Elikonin, L.A. Venger, A.V. Zaporojes, pedagoglar A.P.Usova, A.M. Lushina, V. A Flyorinalar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyotini diagnostika qilish muammolari bilan shug’ullanganlar. Respublikamiz psixologlaridan E. G’. G’oziev, M.G. Davletshin, V.A.Tokareva, S.Axundjanova, Kodirov B.R, Sunnatova I. R va boshqalarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida o'rganilgandir. Ularning tadqiqodlarida aqliy imkoniyatning ta'lim sohasidagi ahamiyati, uning mexanizmlari va qonuniyatlari, tarkibiy qismlari tekshirilgan, yangi qirralari ochilgan. Buning eng muhim tomoni shundan iboratki, bolaning aqliy imkoniyatlari va taraqqiyoti jarayon sifatida e'tirof etilib, ijtimoiy-muhit ta'sirlariga nisbatan beriluvchanligi demakki uning o'zgaruvchanligi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyotini tashxis

qilishda ”Buyerda nima ortiqcha“ , ”Guruxlarga bo’lib ko’rchi“ , ”Yil fasillari” , Shakillarni qirqib chiq” , ”Klassifikatsiyalar” kabi metodikalardan keng foydalanib kelinmoqda. Misol uchun, idrok va tafakkurining rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok va tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun mo’ljallangan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagog va psixologlari tomonidan o’tkazilishi mumkin. Ushbu metodikaga quydagi materiallar ishlatiladi: 3ta quticha, birinchi qutichaning yon tomonida kvadrat, ikkinchi qutichaning yon tomonida doira, uchinchi qutichaning yon tomonida uchburchak shakillari aks ettirilgan bo’lib 8ta kvadrat, 8ta doira, 8ta uchburchak shakildagi 24ta predmetdan iborat. Xar bir shakillar katta va kichik hajmdagi predmetlarga bo’linadi (4ta kichik va 4ta katta) .

Kvadrat shakildagi predmetlarga kubik, gugurt qutisi, sovun, kitob; doira–tanga, tugmacha, shar, koptok; uchburchak-konus, kalit, archa, raketa, kabi materiallardan foydalaniladi. Metodika 15-20 daqiqa davomida o’tkaziladi. Ushbu metodikaning qo’llanishi, bolaning oldiga qutichalar quyilib xar bir predmet bittadan bolaga ko’rsatiladi va qanday shakilga o’xshashligi so’raladai. Bola javob bergandan so’ng predmet mos keladigan qutichaga solinishi so’raladi. So’ngra keyingi predmet ko’rsatiladi va savollar qaytariladi. Shu tariqa xamma 24ta predmet bolaga birin ketin ko’rsatiladi va shakillarga mos ravishda qutichalarga joylashtiriladi. Olingan natijalar tarbiyachi tomonidan baholanadi. Xar bir to’g’ri topilgan predmet uchun 1balldan, maksimal 24 ball beriladi. Ushbu metodika xar bir bola bilan aloxida o’tkaziladi. [2]

“Klassifikatsiya” metodikasida 5-7 yoshli bolalarda so'z-mantiq tafakkurini o'rganish uchun qo'llaniladi. 25 ta kartochka taqdim qilinadi, u besh guruhga bo'linadi, har bir guruxda 5 tadan kartochka, ya'ni birinchi guruh - pufaklar, ikkinchi gurux - kiyimlar, uchinchi gurux - mevalar, to’rtinchi gurux -sabzavotlar, beshinchi gurux - ozodalik buyumlaridan foydalanishadi. Metodikani 10-15 daqiqa davomida o’tkaziladi. Rasmlarni bolaga berib ular jim kuzatiladi. Bolaga quyidagicha ko'rsatma beriladi: "Oldingda turgan rasmlarning hammasiga diqqat bilan qara. Ularning orasida bir-biri bilan o'xshash rasmlar bor. Bir-biriga o'xshash rasmlarni top va ularni aloxida guruxlarga ajrat. Shunday qilsang, bir-biriga o'xshash rasmlar guruhi yigiladi". Bolaga rasmlarni bemalol ko'rib chiqishiga imkoniyat berib, bola ularni o'zicha, o'zi belgilagan mezonlar bo'yicha klassifikasiya qilishi kuzatiladi. Ishni tugatgandan keyin rasmlarni nima uchun guruhlarga bunday qilib ajratganligini va har bir guruhni qanday nomlashi so'rala di. Agar bola o'zining echimini asoslab bersa, u bilan buni muxokama qilish kerak. Mabodo bola xato kilsa, unga ozgina yo'l kursatib yuborish lozim. Bolaga ozgina yo'l-yo'riq ko'rsatib yuborish orqali vazifani to'gri echimini topishiga imkon berish kerak. Masalan, ikkinchi guruhni umumlashtiruvchi so'z kiyim so'zidir. Kartochkalarda kuyidagi predmetlar tasvirlangan:

1-kartochkada bir predmet: - shapka

2-kartochkada ikki predmet: - shapka va sharf

3-kartochkada uchta predmet: - shapka, sharf, kofta

4-kartochkada to'rt predmet: - shapka, sharf, kofta, qo'lqop

5-kartochkada besh predmet: - shapka, sharf, kofta, qo’lqop, kurtka

Kartochkalardagi predmetlar soniga bola tashqi belgilar sifatida qarashi va bularga asoslanib karor qabul qilishi mumkin, aslida u barcha kartochkalarni predmetlar turiga qarab emas, balki predmetlar soniga qarab klassifikatsiya qiladi. Xar bir guruh uchun fon sifatida bir xil rang tanlangan, ular bir xil ramkaga olingan, bu esa bolaga variantlarni klassifikatsiya qilishda ularni farqlay olishi uchun asos bo'lishi mumkin. Bu klassifikatsiya varianti tashqi belgilarga asoslangan hisoblanadi.

Bu test bolalarni ko'rgazmali-obrazli tafakkurdan so'z mantiq tafakkuriga o'tish jarayoni xususiyatlarini aniqlaydi. Aynan shuning uchun ham bolalar berilgan vazifa negizini mustaqil ravishda ifodalab berishlari muxim axamiyatga ega. Qoida bo'yicha vazifa 10-15 daqiqadan oshmasa ham, ishlash vaqti chegaralanmaydi. Asosiy e'tibor vaqt ko'rsatkichlariga emas, balki bajarilgan ishning tavsifiga va o'ziga xosligiga qaratiladi.Test o'tkazish jarayonida bola vazifani bajara olmasa, uni xato deb belgilashga oshiqmang. Ularning ko'pchiligi vazifani tushunmaganligi tezroq ishni tugatish xohishi oldindan tarqatma materiallar bilan predmetli-manipulyativ harakatlarni bajarganligi kabilar bilan bog’liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolaga bu bosqichni bosib o'tishga imkon berish kerak. Agar shunda xam bola vazifani bajara olmasa, siz unga ozgina turtki berib yuborishingiz mumkin. Qoida bo'yicha bolaga "Nima uchun sen olma rasmini bu guruhga qo'shyapsan?" deyiladi. Javobni kutish kerak. Javob noto'g'ri bo'lgan xolatlarda umumlashtiruvchi so'zni topishga qaratilgan ko'shimcha savollar beriladi. [3]

Maktabgacha yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, maktabgacha yoshidagi bolalar diqqatining kolami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o‘rta va katta guruh bolaiari 2 ta) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olniaydilar, Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo‘shangligidan emas, balki olz diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Diqqat ko‘lamining kengligi aniq idrok qilish bilan bogliq bo‘lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayiiiqsa bola diqqatinig ko‘lami o‘qish faoliyati uchun zarur. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, inssenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar katta rol o‘ynaydi. Maktabdagi talim jarayoni uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat maktabgachada didaktik mashg‘ulotlar, hikoyalar o‘qib berish davomida rivojlantiriladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ko‘lami qiziqishi hamda hissiyotlari bilan bogliqligi sababli konsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bola diqqatining bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aylantirib eshita beradilar.

Shunday qilib, bolaning maktabgacha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ko‘proq rivojlanadi. Lekin bolaning maktabgacha yoshidagi faoliyat va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun maktabgachada turli majburiy

mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi. Odamning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlana boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko‘rina boshlaydi. Buni biz bola o‘ziga tanish bo‘lgan narsani ko‘rganida qiladigan harakatlardan bilishimiz mumkin. Masalan, bola o‘ziga yaqin odamlarnni ko‘rganida unga talpinadi yo notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi, idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Har bir ekskursiya ma’lum maqsadda o‘tkazilishi kerak. Bizga ma’lumki, bolalar juda qiziquvchan bo‘ladilar. Ular hodisalarning sababini bilishga, hamma narsaning siridan habardor bo‘lishga intiladi. Bu ularning bilish protsessi bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlaridir. Ulug‘ rus pedagog K. D. Ushinskiy aytganidek: “Qiziqish – bu to‘la fikrlashdir. Bolalar tafakkurini o‘stirishda ana shu qiziqishlardan ham foydalanish lozim, chunki qiziqish bolaning bilimlarini chuqurlashtiradi. Demak, bog‘cha yoshi davrida bolaning tafakkuri tez suratlar bilan o‘sib borar ekan, uni yanada taraqqiy ettirish va rivojlantirish hozirgi kunda bolalar muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Didaktik o‘yinlar ham tafakkurni o‘stiradi.

Butun maktabgacha yosh davri mobaynida ko‘z sezgirligining o‘tkirligi ortadi. Shuningdek, ko‘z o‘tkirligi darajasi faoliyat sharoitiga bog‘liqligi ham aniqlangan - o‘rinda o‘tirgan vaziyatida tadqiqot o‘tkazilganda ko‘zning o‘tkirligi sezilarli darajada ortadi. Shu o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning aqliy taraqqiyotini aniqlashda, tashxis metodikalari tarbiyachi-pedagog va psixologlar to’g’ri tanlash va to’g’ri foydalanish muxim masala xisoblanadi. Fikrimizcha, xar bir pedagog-psixolog o’z amaliyotida yuqorida keltirilgan metodikalardan o’yin tarzida keng foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Abramova G.S.Amaliy psixologiya. M. 2005;
2. Norbosheva M.O.Bolalar psixologiyasi va psixadiagnostikasi. T.2020;
3. Rogov E.I. Amaliy psixolog uchun qo’llanma. V 2-T,M-2003;
4. Nishonova Z,Qurbonova Z,Abdiyev S-Psixodiagnostika va eksperemental psixologiya.-Toshkent-2011 yil .o’quv qo’llanma

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.026:687.01

Sayyora NISHANOVA,
Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi
E-mail: snishanova1967@mail.ru

TDPU (PhD), dotsenti G.Sh.Sharipova taqrizi asosida

ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ (ТВОРЧЕСКИМ) НАУКАМ В ОБЛАСТИ ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ

Аннотация

В статье представлена методика обучения профессиональным (творческим) предметам в области дизайна одежды, уникальные и эффективные методики обучения. На примерах доказано, что любой метод обучения требует от учителя живого, эмоционального, творческого подхода, даже если учитель нашел самый эффективный метод обучения, он должен каждый раз менять самый эффективный метод обучения. Сделан вывод о том, что учитель должен любить свою профессию и что эта ответственная профессия требует постоянного поиска, работы над собой, постоянного общения с прессой.

Ключевые слова: Методика обучения, дизайн одежды, художник-модельер, мода, эффективные методы обучения.

PROBLEMS OF ACHIEVING THE EFFICIENCY OF TRAINING IN PROFESSIONAL (CREATIVE) SCIENCES IN THE FIELD OF CLOTHING DESIGN

Abstract

The article presents a methodology for teaching professional (creative) subjects in the field of fashion design, unique and effective teaching methods. It has been proven by examples that any teaching method requires a lively, emotional, creative approach from the teacher, even if the teacher has found the most effective teaching method, he must change the most effective teaching method every time. It is concluded that a teacher should love his profession and that this responsible profession requires constant search, work on himself, constant communication with the press.

Key words: Teaching methodology, fashion design, fashion designer, fashion, effective teaching methods.

LIBOS DIZAYNI SOHASIDA KASBIY (IJODIY) FANLARNI O‘QITISHDA SAMARADORLIKKA ERISHISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada libos dizayni sohasida kasbiy (ijodiy) fanlarni o‘qitish metodikasi, o‘qitishning o‘ziga xos va samarali usullari keltirilgan. Har qanday o’qitish uslubi o'qituvchidan jonli, hissiy, ijodiy yondashuvni talab qilishi, o'qituvchi eng samarali ta'lim usulini topgan bo'lsa ham, u har safar eng samarali o'qitish usulini o'zgartirishi kerakligi misollar orqali isbotlab berilgan. O'qituvchi o'z kasbini sevishi kerakligi va bu mas’uliyatli kasb doimiy izlanishni, o‘z ustida ishlashni, matbuot bilan doimiy muloqotni talab etishi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘qitish metodikasi, libos dizayni, rassom-modaler, moda, samarali o’qitsh usuillari.

Kirish. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar munosabati bilan ta’lim integratsiyasi jarayoni ta’limni avvalgi ta’limimizning yangi paradigmalari asosida yangilash muhim vazifa qilib qo‘ydi. Davlatimiz va jamiyatimiz uchun muhim bo‘lgan pedagogika sohasiga e’tiborni kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning samarali usullarini joriy etish yoshlarning ichki tajribasini boyitib, bilimini mustahkamlash uchun sharoit yaratmoqda.

Shavkat Mirziyoyev 2023 yilni "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim" yili deb e’lon qildi. "Nima uchun yilga bunday nom berayapmiz? Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo‘y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz", - dedi davlat rahbari.

Shaxs, jamiyat, tabiyat orasidagi bog’liqlikni va ularning birgalikda rivojlanishini yoshlarga san’at orqali o’rgatish juda ham to’g’ri. Chunki dunyoni san’at orqali tanish, o’rganish davomida ularning bilim olishga qiziqishi ortadi. Dunyoni birgalikda his etib, san’at orqali qabul qilish natijasida fikrlash doirasi kengayadi.

Mavzuga oid adabiyorlarning tahlili. Libos dizayni sohasida kasbiy (ijodiy) fanlarni o‘qitish metodikasi fan sifatida pedagogika, psixologiya, estetika va san’at tarixi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, o‘qitishning o‘ziga xos va samarali usullari asosida nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. Va, albatta, libos dizaynini o‘qitishning yangi qoida va uslublari iqtidorli yoshlarni yetuk mutaxassis etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Libos dizayni sohasida kasbiy (ijodiy) fanlarni o’qitish bo’yicha metodik qo’llanma va darsliklar, “dizayn”, “moda”, “loyihalash”, to’g’risida juda ko’p fikr va mulohazalar olimlar Parmon F.M., YermilovaD.D., YermilovaD.Yu., Brednik T.O., Kamilova X.X.,Ilxomova M.U. va boshqalar tomonidan ilmiy ishlangan va o’rganilmoqda.

O’quvchilarga o’z xalqining madaniyatini o’rgatish san’at, xalq hunarmandchiligi orqali amalga oshiriladi. Xalq tarixi, etnografiyasi, folklori, hunarmadnchiligi, xalq amaliy san’ati mavzulari Bogatirov P.G., Maslova G.S., Bulatov S.S., Stasov V.V. va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. O'qitish usuli fanning maqsadiga, shuningdek, o’quvchining yoshiga qarab tanlanadi. Shuningdek, har bir o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida o‘z ta’lim uslubini rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va bu o‘qitish uslubi zamon talablariga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Ba’zilar o‘qituvchi o‘z fanini mukammal bilsa, unga dars berishni o‘rgatish shart emas, bu juda oson ish, deb o‘ylaydi. Ammo bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha. Siz buyuk rassom, yozuvchi, ijodkor bo’lishingizga qaramasdan, yomon o'qituvchi bo'lishingiz mumkin. Pedagog sifatida ishlagan va bu jarayonda metodologiyaning rolini qadrlamagan ko'plab taniqli ijodkorlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan. O‘qitish usullarini hamma o‘zlashtira oladi, bugungi kunda pedagogika fanining rivojlanishi yosh o‘qituvchilarning xohish va intilishlarini taqozo etmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, hamma ham yaxshi rassom-modaler yoki yaxshi o'qituvchi bo'la olmaydi.

O‘qituvchilik san’ati ham boshqa san’at turlari kabi ilhom, sezgi, yangilikka ishtiyoq va ishga ijodiy yondashishni talab qiladi. Ba'zan o'qituvchi darsga o'zgartirishlar kiritadi, kutilmagan hodisalarga to'la darslar tashkil qiladi, bu esa o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Masalan, o’quvchilar yangi mavzuni o’zlashtira olmaydilar, shuning uchun o’qituvchi eski mavzuga qaytishi, uni yangi material bilan birlashtirishi va asta-sekin qisqartirishi kerak. O'qituvchining bu harakatini bastakor ijodiga qiyoslash mumkin.

O‘qituvchi ushbu materialni o‘quvchining dunyoqarashi bilan solishtirib, o‘qitishning samarali usullarini topa bilishi kerak. Darsni o‘z vaqtida tashkil etish va uni tezda to‘g‘ri tushunish ham san’atdir. Bu o‘rinda o‘qituvchidan zukko bo‘lishi, birorta ishtirokchini o‘tkazib yubormaslik, mavzuga e’tibor qaratish talab etiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali materiallar bilan boyitish mavzuni tushunarli, o‘quvchida esa qiziqish bilan o’rganishiga yordam beradi.

Har qanday o’qitish uslubi o'qituvchidan jonli, hissiy, ijodiy yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi eng samarali ta'lim usulini topgan bo'lsa ham, u har safar eng samarali o'qitish usulini o'zgartirishi kerak. Chunki har bir insonga har kuni bir xil so‘z aytsang, bu uning joniga tegadi va bir xil gapni takrorlagan odam qurbon bo‘ladi. Yaxshi o‘qituvchi doimo izlanishda bo‘lishi, yangiliklardan xabardor bo‘lishga harakat qilishi, bilimini oshirishi kerak. Zero, u bilimga chanqoq yoshlarning kamolotiga mas’ul. O'qituvchi o’quvchini tez va to'g'ri tushunishi, unga nima kerakligini tushunishi va o'z vaqtida yordam berishi kerak. O‘qituvchi o‘z kasbini puxta egallashi, yozgan ishlari jonli va tushunarli bo‘lishi, bilganini tushunarli tilda bemalol tushuntira olishi kerak.

Yangi materialni qisqa vaqt ichida tushuntirish uchun aniq bir o`qitish usulini yaxshi o`zlashtirish zarur. Bu esa o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. O’quvchi o'qituvchini tushunishi uchun faqat aytib berish va misollar keltirish etarli emas, o'qituvchi o'quvchining o'quv materialini qanday o'zlashtirganini ko'rishi va his qilishi ham maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida psixologik bog'liqlik bo'lishi kerakki, ular bir-birini yaxshi tushunishlari uchun o'qituvchi o'quvchining tushundimi yoki yo'qligini uning yuzi, ko'zlari, harakatlari bilan tushunishi kerak.

Ko'pgina rassom-modalerlar o'qituvchi bo'lishdan qo'rqishadi, chunki ular pedagogning kasbida qiziq narsa yo'qligiga ishonishadi. "Ular ijodda muvaffaqiyatsizlikka uchragan, shuning uchun ular o'qituvchi bo'lishga qaror qilishdi, boshqa iloji yo'q edi!" deya o'ylaydilar. Ammo, bu noto’g’ri tushuncha.

1-rasm. Libos dizayni sohasida kasbiy (ijodiy) fanlarni o‘qitishdagi amaliy jarayon.

O‘qituvchi o‘z kasbiga, shogirdlariga fidoyi bo‘lsa, insonning o‘z kasbiga qiziqishi ortadi, albatta undan zavq oladi. Inson ijodiy, ilhomlangan, baxtli va qayg'uli bo'lishi mumkin. Ijod zavqini o‘rgatish, o‘quvchilarning o‘z qo‘llari bilan ajoyib kompozitsiyalar yaratishi o‘qituvchining qalbiga xotirjamlik bag‘ishlaydi. O‘quvchining kichik yutuqlari va qobiliyatidan ham mamnun. Endi u shogirdini na dars paytida, na boshqa vaqtda tashlab keta olmaydi.

Metodikani muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun hozirgacha muvaffaqiyatli bo'lgan va yaxshi natijalar beradigan usullardan foydalanish kerak. Rassom-modaler o‘qitishning o‘tmishda bizgacha yetib kelgan usullari tahlil qilinadi, yutuq va kamchiliklari o‘rganiladi, takomillashtiriladi. Chunki moda olamida har kuni yangi modellar yaratiladi, ularning g‘oyasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, oldingilari esa o‘z-o‘zidan tarixga aylanadi. Eng samarali ekanligi isbotlangan boshqa o'qitish usullari mavjud, ammo ular bizning davrimizda mutlaqo keraksiz va diqqat bilan o'rganilishi va takomillashtirilishi kerak.

Dyurerning uslubiy qo‘llanmalarida yosh rassomning bolalikdan tana tuzilishini to‘g‘ri rivojlantirish, bolaga faqat yaxshi va go‘zal narsalarni o‘rganish imkoniyatini yaratish, bolaning darsga bo‘lgan ishtiyoqini ta’minlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash muhimligi ta’kidlangan. Bolaning musiqa bilan shug’ullanishi ham juda yaxshi natijalar beradi. Bundan tashqari, ularning dars uslubiga muvofiq, o'qituvchi mashg'ulot paytida yosh rassomning ovqatlanish tartibi va uyqu rejimidan xabardor bo'lishi kerak [2].

Xulosa va takliflar. Asosiysi, kasbingizni seving. Pedagogik mahoratning o'sishi o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan muhabbati bilan bog'liq. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, o'qituvchi o'z kasbini sevishi shart. Bu mas’uliyatli kasb doimiy izlanishni, o‘z ustida ishlashni, matbuot bilan doimiy muloqotni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Безрукова В.С. Педагогика: Учебное пособие. Рн/Д: Феникс, 2013 г.

2. Мативьевская Г.П., Альбрехт Дюрер – учёный, М., «Наука», 1987., с.177-179.
3. Nishanova S. D. (2022). Zamonaviy podiumga 80-yillar modasining qaytib kelishi haqida ayrim mulohazalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 189-195.
4. Zaripova M. S. (2022). Training of a future designer in the process of creating a model for a designer-engineer, technologist, economy, master. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 115-121.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 155 N 99

Nasiba NORMELIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

TerDPI dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

THE EFFECT OF CONFLICT ON THE RELATIONSHIP BETWEEN THE TEACHER AND THE STUDENT

Annatation
The existing problems of the occurrence of conflicts in the relationship between the teacher and the student and its correction, the factors that cause them, ways to eliminate the existing problems, the occurrence of conflicts in the relationship between the teacher and the student and the system of its correction the criteria for determining the level of improvement were discussed.
Key words: Teacher, student, conflicts, problems, ways to solve problems, correction, improvement, determining criteria, conditions and factors that ensure the effectiveness of the correction process.

ВЛИЯНИЕ КОНФЛИКТА НА ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И СТУДЕНТОМ

Аннатация
Существующие проблемы возникновения конфликтов в отношениях между учителем и учеником и их коррекция, факторы их вызывающие, пути устранения существующих проблем, возникновение конфликтов в отношениях между учителем и учеником и система его корректировки обсуждены критерии определения уровня улучшения.
Ключевая слова: Учитель, ученик, конфликты, проблемы, пути решения проблем, исправление, совершенствование, определение критериев, условий и факторов, обеспечивающих эффективность коррекционного процесса.

NIZOLARNING O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O’RTASIDAGI MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Annotatsiya
O‘qituvchi o‘quvchi o’rtasidagi munosabatlarda konfiliktlarni yuzaga kelishi va uni korreksiyalash borasidagi mavjud muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar, mavjud muammolarni bartaraf etish yo`llari, o’qituvchi o’quvchi o’rtasidagi munosabatlarda konfiliktlarni yuzaga kelishi va uni korreksiyalash tizimini takomillashtirish darajasini aniqlovchi mezonlar xaqida fikr mulohaza yuritilgan.
Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, o’quvchi, konfiliktlar, muammolar, muammolarni bartaraf etish yo`llari, korreksiyalash, takomillashtirish, aniqlovchi mezonlar, korreksiyalash jarayonining samaradorligini ta’minlovchi shart-sharoitlar, omillar.

Kirish. Konfliktologiyaning eng umumiy g’oyasi “konfliktologiya” so’zining etimologiyasi, “mojarolar haqida ilm”, mojarolarning paydo bo’lishi va rivojlanishi qonunlari va mexanizmlari, shuningdek ularni boshqarish prinsiplari va texnologiyalari to’g’risida bilim tizimidir.

Bu nizolarni boshqarish va hal qilishning sabablari, shakllari, tuzilishi, dinamikasi, turlari, funksiyalari, usullari, va texnologiyalari haqidagi ilmiy bilimlar sohasidir.

Konfliktologiya nisbatan yosh fan, ammo qadimiy tarixga ega. Uning rivojlanishi sivilizasiyaning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishining butun yo’nalishi va tarixiy sharoitlarning mavjudligi bilan belgilanadi:

ijtimoiy-falsafiy fikr;

ijtimoiy-falsafiy,

gumanitar va tabiiy fanlarning rivojlanishi;

Konfliktologiya o’z davri uchun eng katta ilmiy tadqiqotlar manbai bo’lib, ko’plab fanlar va, avvalambor, sosiologiya va psixologiya to’qnashuvlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi qonunlari va mexanizmlari tizimi sifatida 20-asrning o’rtalarida paydo bo’ldi.

Mojarolarni hal qilish muammosi psixologik fan uchun juda muhimdir, chunki ko’pgina yondashuvlardagi ziddiyatlar, ularning tabiati, mazmuni shaxs xulq-atvorining asosi hisoblanadi. Insoniyat o’rtasida paydo bo’ladigan mojarolar har kuni yuzaga keladi biroq uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqotlar obyekti bo’lmaydi. Garchi mojarolarni hodisa sifatida alohida o’rganish bizgacha etib kelgan qadimgi manbalarda mavjud bo’lishiga qaramasdan. Vaqt o’tishi bilan turmush sharoiti o’zgarib, nizolar ham o’zgardi, ularning jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari boshqacha bo’lib boraveradi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarda madaniy xulq-atvorni shakllantirishning nazariy asoslari buyuk donishmandlar M. A. Robert ,F. Tilman, J. fon Neyman, O. Morgenshteyn, K. Levin, L. Kozer, V. F. Linkoln, M. Deutsch , K. Tomas, A. I. Prigojin, vaziyatlardagi xatti-harakatlar shakllari, shuningdek, xatti-harakatlarning muayyan shaklini tanlashga ta’sir etuvchi omillar kabi jihatlariga e’tiborni qaratish lozim.

O‘zbekiston psixolog olimlari tomonidan qaobiliyat va uning diagnostikasi masalasi M.G.Davletshin, tafakkur turlari va sifatlari muammolari E.G‘.G‘oziev, mustaqil fikrlash masalasi V.M.Karimova, mustaqil ijodiy fikrlash dinamikasi masalasi Z.T.Nishanova, tafakkurning individual-psixologik xususiyatlari mavzusida R.I.Sunnatovalar tomonidan har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatining ahamiyati masalasida olib borilgan tadqiqotlar kam o‘rganilgan.

Konfliktning tarkibiy xususiyatlari uning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, ayni paytda konfliktning rivojlanishini oldindan aytishga imkon bermaydi. Shuning uchun amaliy nuqtai nazardan, ishtirokchilarning xatti-harakatlari va konflikt natijalarini dinamik xususiyatlar kontekstida ko'rib chiqish muhimroq ko'rinadi.

Konfliktning dinamik xususiyatlariga konfliktning rivojlanish bosqichlari va uning turli bosqichlarida yuzaga keladigan jarayonlar kiradi. Ushbu xususiyatlarning tavsifi

konfliktning paydo bo'lishi va rivojlanishini belgilovchi dinamika regulyatorlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Albatta, konfliktning strukturaviy va dinamik parametrlari orasidagi farq ba’zan yetarlicha aniq emas. Masalan, konflikt ishtirokchilarining maqsadlari, bir tomondan, o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida harakat qilsa, ikkinchi tomondan, ular konflikt ishtirokchilarining xususiyatlari, uning tarkibiy elementlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Konfliktning rivojlanishida uch davr ko’zda tutiladi: Konflikt ning latent (yopiq) holatdan tomonlarning ochiqchasiga kurash holatiga o’tishi.Kurashning keyingi eskalasiyasi. O’z maqsadlariga erishish va raqib hrakatlarini to’sish uchun tomonlar yangi resurslarni kiritadilar.

Konflikt o’z cho’qqisiga yetadi va mumkin bo’lgan barcha kuch va vositalarni qo’llovchi yoppasiga urush shakliga kiradi.

Konfliktning yechimi pog’onasi

Me’yoriy boshqarilish drajasiga ko’ra konfliktlar quyidagicha tasniflnadi:

kontiniumning bir uchi institusionallashtirilgan (duel ko’rinishida), boshqasi esa absolyut konflikt (raqib to’liq yakson qilishgacha bo’lgan kurash).

Konfliktning yechim pog’onasida hodisalar rivojlanishining quyidagi variantlari mavjud:

Tomonlardan birining ustunligi unga zaifroq bo’lgan tomonga urushni to’xtatish uchun o’z shartlarini qo’yish imkonini beradi;

Kurash tomonlardan birining to’liq yakson bo’lishigacha boradi;

Resurslarning yetishmasligi tufayli kurash cho’ziq, sust xarakter kasb etadi;

Tomonlar o’z resurslarini tugatib va aniq yoki potensial g’olibni aniqlamasdan turibo’zaro murosaga kelishishadi;

Uchinchi kuchning bosimi ostida konflikt to’xtashi mumkin.

Konfliktni to’xtatish usullari asosan eng konfliktli holatni o’zgartirishga yo’nalgandir.

Konfliktli holatni o’zgartirish usullari:

1. Konflikt obyektini yo’qotish.
2. Bir obyektni boshqasi bilan almashtirish.
3. Konflikt ishtirokchilarining bir tomonini yo’qotish.
4. Konflikt obyekt va subyektlarining xarakteristikasini o’zgartirish.
5. Tomonlardan birining pozisiyasini o’zgartirish.
6. Obyekt haqidagi yangi ma’lumotlarni olish yoki qo’shimcha sharoitlarni yaratish.
7. Ishtirokchilarning bevosita yoki bilvosita o’zaro munosabatga kirishlariga yo’l qo’ymaslik.
8. Konflikt ishtirokchilarining bir qarorga kelishi yoki har qanday shartga ko’nish sharti bilan arbitrga murojaat qilish.
9. Konfliktni tugatishning majburiy uslublaridan biri – bu ko’ndirishdir.

Konfliktning yechimi pog’onasidagi yakunlovchi davr muzokaralar o’tkazishni va erishilgan bitimlarni rasmiylashtirishni ko’zda tutadi[2].

Shaxslararo va guruhlararo konfliktlarda muzokaralar natijasi og’zaki bitim va tomonlarning o’zaro majburiyatlari shaklida bo’lishi mumkin. Vaqtinchalik sulh shartlardan biri bo’lib hisoblanadi.

Sulh konflikt tomonlarining o’zaro kompromiss izlashlarini ko’zda tutadi va mumkin bo’lgan muolajalarni o’z ichiga oladi.

Ushbu muolajalarga quyidagilar tegishli:

1. Konfliktning mavjudligi tan olish.
2. Muolajaning qoida va me’yorlarini tasdiqlash.
3. Asosiy bahsli savollarni aniqlash.
4. Muammoni hal qilishning ehtimoliy variantlarini tadqiq etish.
5. Har bir bahsli savol bo’yicha muzokaralarni izlash va konfliktni bir butunlikda tartibga solish.
6. Erishilgan barcha bitimlarni rasmiy imzolash.
7. Barcha qabul qilingan o’zaro majburiyatlarni bajarish.

Siyosiy amaliyotda “prinsipial muzokaralar” yoxud “mohiyatiga ko’ra muzokaralar” uslubi mavjud.

Ushbu uslub to’rtta quyidagi asosiy punktlarni ko’zda tutadi:

1. Insonlar. Muzokara ishtirokchilari va predmetlari o’rtasidagi chegaralarning mavjudligi.
2. Qiziqishlar. Pozisiya emas, balki qiziqishlarga diqqatni qaratish.
3. Variantlar. Imkoniyatlar djoirasini ajratish.
4. Mezonlar. Obyektiv me’yorning mavjudligi.

Muzokara jrayonida kompromiss uslubidan (tomonlarning o’zaro yon berishi) va konsensuss uslubidan (mavjud muammolarni hamkorlikda hal qilish) foydalaniladi.

Konfliktdan keyingi pog’ona

Konfliktning tugashi, odatga ko’ra, quyidagi holatlarga bog’liqdir:

ko’zda tutilgan maqsadga qanchalar erishildi;

konflikt jarayonida qanday uslub va usullardan foydalanildi;

talofatlar (insonlar, moddiy, territorial va h.k.);

u yoki bu tomonning o’z obro’siga putur yetish darajasi;

tomonlarning hissiy zo’riqishlardan xalos etishga erishildimi;

muzokara jarayonida qanday uslubdan foydalanildi;

kompromiss natijasini tomonlardan biri yoki uchinchi kuch yukladimi, yoxud u konfliktni hal etishning yo’llarini izlash natijasimi;

konfliktning xotimasiga ijtimoiy atrof-muhitning reaksiyasi.

Konfliktdan keyingi holatning natijasi yangi obyektiv reallikni ifodlaydi. Bular: kuchlarning yangitdan joylantirilishi; opponentlarning yangicha munosabatlari; mavjud muammolaraga yangicha qarash; o’z kuch va imkoniyatlariga yangicha baho berish.

Nizo. Boshqaruv jarayonida nizo. Ichki va shaxsiy nizolar. Shaxslar o’rtasidagi va ochiq nizolar. Nizoning kelib chiqish va to’qnashish jarayonini modeli. Nizoli vaziyatlarni boshqarish usullari. Stress. Stress sabablari. Nizo jarayoni va ularni kelib chiqish sabablari va turlari O’zbek tilining izohli lo’g’atida nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: “Nizo – bu o’zaro kelishmovchilik yoki qarama – qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug’ilgan holat, munosabat; ihtilof, nifoq”. Adovat, ihtilof, nifoq tufayli o’zaro janjallar sodir bo’ladi. Odamlar janjal haqida o’ylaganlarida dushmanlik, qo’rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi noxushliklarni nazarda tutishadi.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish usullari.

Boshqarishning vakolatlar ierarxiyasini, ya’ni mansablarga ko’ra darajama-daraja bevosita itoat etish, bo’ysunish tartibini o’rnatish kishilarning o’zaro harakatlarini, korxona ichidagi axborotlar oqimini, qarorlar qabul qilishni tartibga tushiradi, muvofiqlashtiradi.

Umumtashkiliy (kompleks) maqsadlar. Bu usulning mohiyati – barcha qatnashchilarning harakatini, butun kuchini bosh maqsadning amalga oshishiga safarbar qilish.

Muvofiqlashtirishning tarkibiy tizimi. Disfunksional oqibatlardan holi bo’lish hamda kishilarning xatti-harakatlarigaijobiy ta’sir o’tkazish tufayli, kelib chiqishi mumkin bo’lgannizolarning oldini olish va ularni boshqarish uchun mukofotlash tizimi kech qo’llaniladi.

Nizoli vaziyatlarni oldini olish yoki ziddiyatini yumshatishning beshta strategik usuli ma’lum (29-chizma).

Uzoqlashish. Komil inson janjaldan uzoqlashishga harakat qiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqqanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechilkishiga manfaatdor bo’lmagan va o’zaro munosabatlarning zoxiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tomonidan qo’llaniladi.

Silliqlashish. Bu usul kishilarning yaxshilikka undash yo’li bilan nizoni bartaraf qilishga qaratilgan. Ziddiyatli vaziyatda qarama-qarshi tomonlar bir – biri bilan xushmuomalali bo’lishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman, bir vaqtning o’zida birga suzayotgan qayiqni “qaltis tebratish” yaramasligiga chaqirishadi.

Majburlash. – bu tamanlardan birining hohish irodasini, so’zini majburan, zo’rlab qabul qilishdir. Bunday strategiyani qo’llaydigan tomon tajovvuzkorlik bilan o’z hohishini qarshi tomonga majburlab o’tkazadi.

Kelishuv. Nizoli holatdan muvofaqqiyatli chiqishning eng muhim sharti – bu murosaga kela olishdir. Kelishuv bilan nizolarni hal etish, bu yuqori baholanuvchi strategik usul bo’lib, bunda ikkala tomonni qanoatlantiruvchi yechimga kelinadi.

Muammoni hal qilish. Bu usul barcha tomonlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilishva barchani fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu usul tarafdorlari o’zlarini maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xohlaydilar[3].

Xulosa va takliflar. Konfliktlar to’g’risida bugungi kunda noto’g’ri tushunchalar shakllangan. Aynan shu noto’g’ri tushunchalar konfliktning faqat salbiy tomonini ko’radi. Konfliktga faol munosabatda bo’lish, uning yechimini topish uni ijodiy kuchga aylantiradi. Konfliktlar Haqidagi noto’g’ri tushunchalardan biri –his tuyg’ularni jilovlash Har qanday konfliktni kuchaytirmaslikning eng oson yo’lidir. Bunday vaziyatda irodasi mustaHkam odamlargina o’z emosiyalarini jilovlay oladilar. Aslida konfliktda o’z his tuy\ularini yashirish noto’g’ridir. Ular mazmunining qandayligidan qat’iy nazar o’z hissiyotlarini ochiq-oydin namoyon etish lozim. Agar uni ishga solsak depressiv holatlarga olib keladi va bu o’z navbatida kasallik, yoki uni «suisid» - o’z joniga qasd qilish vaziyatlariga olib kelishi mumkin.

Keyingi yillarda bunday yomon Holat, o’z joniga qasd qilish mamlakatimiz ichki epidemiyasi darajasigacha ko’tarildi. Ularning asosiy ishtirokchilari yoshlardir.

His-tuyg’ularning ichkarida saqlashning ham me’yorlari mavjud.

Bizni qiynab turgan salbiy emosiyalarga erk berganimiz, biz uchun yaxshi holat. Ammo mana shu salbiy emosiyalarimiz birovga taxdid ekanligini anglab olish va emosiyalarni jilovlay bilish konfliktlar yechimidagi zaruriy malakadir. Ijobiy emosiyalarni mustahkamlash, salbiy emosiyalardan ozod bo’lish zamonaviy insonni turli ziddiyatlardan asrab qoluvchi xususiyat hisoblanadi.

Shuday qilib, konfliktlar inson Hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo’lar ekan, konfliktlarni tan olmaslikning, ularning inobatga olmaslikning ilojisi yo’q. Faqat konfliktlarni boshqarish, ularni yechimini topishga o’rganish darkor.

Konfliktlar yechimini quydagi guruhlarga ajratish mumkin:

- tomonlarning ixtiyoriy kelishuviga ko’ra ziddiyatning yechimiga kelishish va to’xtatilishi.
- konfliktning simmetrik yechimining topilishi va to’xtatilishi (ikki taraf ham bir xilda yo yutib chiqadi, yo yutqizadi).
- konfliktning asimmetrik hal bo’lishi (ziddiyatdan faqat bir tomon yutib chiqadi).
- konfliktning bir katta nizoni keltirib chiqarishi;
- konfliktning asta «o’chib», «so’nish» va yo’qolib borishi.

Yashiringan formadagi konflikt tomonlarning qanday emosional-psixologik xususiyatlarini o’zida to’plab borayotganligiga bog’liq.

Agar bu holatlar ijobiy sensorlarga tayansa konflikt yechimini topish uchun sharoit mavjud bo’ladi, agar ular salbiy sensorlarni kuchaytirib yuborsa, demak, konfliktning keskinlashib borayotganligini anglatadi[4].

Shunday qilib,

- konflikt yuzaga kelishi tabiy hol hamda uning vujudga kelishidan qo’rqmaslik va dovdiramaslik lozim;
- konfliktning subyektiv va obyektiv kelib chiqish sabablarini muHokama qilish darkor;
- konflikt manfaatlarning to’qnashuvi hisoblanadi;
- konflikt yechimini topish uchun tomonlarning ixtiyoriy sayi-Harakatlari kerak;
- Har qanday konfliktning o’z yechimi bor, uni topish kerak;
- konflikt o’zidan-o’zi hal bo’ladigan jarayon emas, balki kattaroq nizolarga olib kelishi mumkin.
- konflikt yechimida ziddiyatning yechimi qarama-qarshi odamga emas muammoga qaratilishi lozim.
- konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi.
- konfliktni Har doim yoshlar ma’lum bir ilmga tayanib Hal etish kerak.
- konfliktni ijobiy xususiyatlari ko’ra olish kerak.
- yoshlar konfliktning salbiy yoki ijobiy xususiyatlari tenglikda ko’ra olishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2000.
2. Ahmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2017.
3. Maxsudova M.A-Muloqot psixologiyasi-Toshkent.2006 yil.o’quv qo’llanma.
4. AdizovaT.M.Psixokorreksiya. − T.2005

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 371.315.5

Jahongir NOSIROV,
O‘zMU Jizzax filiali tayanch doktoranti
E-mail: mehriddin.usanov.91@bk.ru

Jizzax Politexnika instituti dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Usanov taqrizi ostida

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING ME’YORIY-METROLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu ishda bo‘lajak muhandislarning me’yoriy-metrologik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy shartlaring tahlili taqdim etilgan, “me’yoriy-metrologik konsepsiya” tushunchasi shakllantirilgan (tuzilgan), ushbu kompetensiyaning strukturasi va mazmuni ta’riflandi, taklif etilayotgan kompetensiyaning shakllanganlik darajasini baholashning ko‘rsatkichlari, darajalari va mezonlariga tavsif berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, metrolog, kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НОРМАТИВНО-МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

В данной работе представлен анализ теоретических условий формирования нормативно-метрологических компетенций будущих инженеров, сформировано (построено) понятие «нормативно-метрологическая концепция», описана структура и содержание данной компетенции, представлена оценка степени сформированности предлагаемой компетентности, описаны показатели, уровни и критерии.

Ключевые слова: Образование, компетентность, профессиональная компетентность, метролог, профессиональное образование, профессиональная деятельность.

THEORETICAL ASPECTS OF FORMING THE REGULATORY AND METROLOGICAL COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS

Abstract

In this paper, the analysis of the theoretical conditions of the formation of the normative-metrological competence of the future engineer, the formed (constructed) concept of the "normative-metrological concept", the structure and content of the data competence are described, the degree of formation of the proposed competence is presented, the indicators, levels and criteria are described.

Key words: Education, competence, professional competence, metrologist, professional education, professional activity.

Kirish. Bugungi kunda texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy javobgarlikni anglagan professional mutaxasisga jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda dolzarblashdi. Kasbiy ta’lim tizimi ushbu muammoga, ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari bilan javob beradi.

Adabiyotlar tahlili. Oxirgi yillarda kompetentlik tushunchasi ko‘pincha, xorijiy tadqiqotchilarning o‘rganish predmetiga aylanmoqda, shu jumladan J.Raven, B.Oskarsson va boshqalarning tadqiqotlarida ushbu sifatni shakllanishiga birinchi navbatdagi rolni berib, shu vaqtda kompetentlikning mohiyatini tavsiflashga turli yondashuvlarni ko‘rsatishdi va uning asosiga turli taqqoslashlarni qo‘shgan.

J.Raven o‘zining “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” asarida kompetentlikka kengaytirilgan talqinni beradi. Bu hodisa ko‘psonli komponentlardan iborat, ulardan ko‘pchiligi nisbatan bir biriga bog‘liq emas. U kompetentlikni tor maxsus bilimlar, o‘ziga xos predmetli malakalar, fikrlash usullari, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni o‘z ichiga olgan konkret predmetli sohadagi konkret harakatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus qobiliyat sifatida ta’riflaydi. Yani, kompetentlik faoliyatning ushbu turida chuqur qiziqish shartida insonning qadriyatlari bilan organik birlikda namoyon bo‘ladi [1].

A.K.Markova kompetentlik “kasb talablariga moslikning individual tavsifi darajasi, mustaqil va ma’suliyat bilan harakat qilish imkonini beradigan psixologik holat sifatida, ma’lum mehnat funksiyalarini bajarishning ko‘nikmalari va insonning qobiliyatlarini egallash sifati” deb ta’rif beradi [2].

“Kasbiy kompetentlik” tushunchasiga keladigan bo‘lsak, pedagogika fanida uni ko‘rib chiqishda turli tumanlik va turli xil talqinlar, o‘rganilayotgan masalaga turli ilmiy yondashuvlar (shaxsiy-faoliyatli, tizimli, kontekstli, kompetetli) sababli kuzatiladi. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi – pedagogikada keng foydalaniladigan “kompetensiya”, “malaka”, “qobiliyat”, “tayyorlik”, singari tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liq va E.F.Zeer, I.A.Zimniyaya, V.V.Krayevskiy, I.L.Lerner, A.K.Markova, J.Riven, V.A.Slastenin, A.M.Novikov, A.V.Xutorskoy, G.P.Shetroviskiy, Y.G.Taturlarning ishlarida turli xil yondashuvlar asosida ko‘rib chiqilgan.

V.A.Slastenin “Kasbiy kompetentlilik” – bu kasbiy faoliyat maqsadlariga erishish uchun yetarli bilim, ko‘nikma, tajribalar darajasini aks ettirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini ham aks ettiruvchi mutaxassisning ishchan va shaxsiy sifatlarining integrativ tavsifi” deb ta’riflaydi [3].

V.G.Severovning fikricha, kasb ta’limi nazariyasida kasbiy kompetentlik mutaxassisning malakaviy talablari bilan ta’riflanadi, kompetentlik deganda, hozirgi vaqtda jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va standartlarga muvofiq kasbiy funksiyalar (vazifalar)ni bajarishga insonning tayyorligi va qobilligini aniqlovchi integral kasbiy-shaxsiy tavsif tushuniladi. Kasbiy kompetentlik, ularning fikriga ko‘ra, mutaxassisning malaka darajasi ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. [4]

E.F.Zeerning fikriga ko‘ra kasbiy kompetentlik - bu bilimlar va malakalar tizimini o‘z ichiga oluvchi, na’munaviy masalalarni yechishning umumlashgan usullarini o‘z ichiga olgan, shaxsning, mutaxassisning integrativ sifatidir [5].

Bizning fikrimizcha, oliy ma’lumotli mutaxassisning kompetentligi - bu kasbiy va ijtimoiy sohalarda muvafoqiyatli ijodiy (maxsuldor) faoliyat uchun o‘z potensiali (bilimlar, ko‘nikmalar, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqalar)ni amalga oshirishga amalda intilish va qobillik (tayyorlik)ni ifodalovchi, u tomonidan ushbu faoliyatning ijtimoiy ahamiyati va natijasiga shaxsiy javobgarligi, uni doimiy takomillashtirish zaruriyatidir.

Bunday ta’riflangan mutaxassis kompetentligining strukturasi kognitiv, motivatsion, faoliyatli, aksiologik va ijtimoiy jihatlar bilan taqdim etiladi; unda amaldagi professionalning barcha tashkil etuvchilariga daxldor ta’limning sifat natijalari qayd etilgan, bu mutaxassisni uni OTMda tayyorlash jarayonida mos yo‘nalishi va rivojlanishini nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning tadqiqotimizda texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan bo‘lajak metrologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari qaraladi.

O‘lchash zamonaviy jamiyatda katta ro‘l o‘ynaydi, bilishning muhim yo‘llaridan biri hisoblanadi. Inson faoliyatining hech bir sohasi yo‘qki, o‘lchash, sinash yoki nazorat natijalaridan foydalanilmaydigan. Har soniyada milliardlab o‘lchashlar bajariladi, ularning natijalari ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va texnik darajasini ta’minlash uchun foydalaniladi. Ijtimoiy mehnatning taxminan 15% o‘lchashlarni o‘tkazishga sarflanadi [6]. Aniqlikni me’yorlash, o‘lchashlarni birligi va talab qilingan aniqligiga erishish uchun zarur bo‘lgan ilmiy asos, texnik vositalar, qoidalar va me’yorlarni o‘rnatish va qo‘llashga yo‘naltirilgan, ishlar majmuasi ifodalaydigan metrologik ta’minot bo‘yicha ishlar bilan chambarchas bog‘liq [7].

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib va “kompetensiya” tushunchasining mazmuni va hajmini aniqlashga turli yondashuvlarni tahlil qilib biz quyidagi xulosaga keldik:

Me’yoriy metrologik kompetensiya deganda, bo‘lajak muhandisning ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasida umumlashtirilgan kasbiy harakatlarni mahsuldor bajarishga qobilligini ta’minlovchi o‘zaro bog‘langan bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlar majmuasi tushuniladi.

O‘tkazilgan tadqiqot, meyyoriy-metrologik kompetensiya sanoat mahsulotining sifatini ta’minlashda reglamentlovchi va nazorat qiluvchi funksiyani bajaradi deb tasdiqlash imkonini beradi.

Me’yoriy-metrologik kompetensiyaning reglamentlovchi funksiyasi, me’yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda, sanoat mahsulotlarini geometrik parametrlarining aniqligiga, turli rangdagi me’yoriy va konstruktiv-texnologik xujjatlarning majburiy va tavsiya etilgan parametrlarini bajarish uchun bo‘lajak muhandisning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini dolzarblashtirishdan iborat bo‘ladi. U muhandis tomonidan ishlab chiqiladigan konstruktor-texnik va ishlab chiqarish-texnologik xujjatlar vositasida, sanoat mahsulotini amaldagi standartlar va boshqa me’yoriy xujjatlarni me’yorlar, qoidalar, tamoyillar, nizomlar va talablarga mosligini mustahkamlashdan iborat. Me’yoriy-metrologik kompetensiyaning nazorat funksiyasi bo‘lajak muhandisning me’yoriy xujjatlar talablaridan og‘ish (chetga chiqish)ni aniqlashga qobillik, aniqlangan og‘ishlarning sabablarini tahlil qilish, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, sinash va ishlatishning turli bosqichlarida sifat ko‘rsatkichlarining miqdoriy ko‘rsatkichlarini o‘lchashdan iborat. U muhandisga mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini berilgan aniqlikda o‘lchash jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak muhandisning me’yoriy-metrologik kompetensiyalarining komponentlari mavzusini loyihalash maqsadida muhandisning kasbiy faoliyatini mashinasozlik sanoati misolida bizni qiziqtirgan aniqlikni ta’minlash nuqtai nazaridan tahlil qilamiz (1-rasm):



Mashinasozlik mahsulotini sifatini ta’minlashning strukturaviy (tuzilmaviy) mantiqiy sxemasi.

berilgan element, uzel, mexanizm uchun aniqlikning optimal darajasini me’yorlash;

berilgan aniqlik darajasini taminlash texnologiyasi;

erishilgan aniqlik darajasini nazorat qilish uchun ishlab chiqarish jarayonini metrologik ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish;

Bizning tadqiqot ob’ektimiz sifatida tanlab olingan “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jixozlash va avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim standartini tahlil qilamiz.

Standartda muhandis bajarishi mumkin bo‘lgan quyidagi kasbiy faoliyat turlari ajratib ko‘rsatilgan:

Loyihalash konstruktorlik;

Ishlab chiqarish-texnologik;

Tashkiliy-boshqaruv;

Ilmiy-boshqaruv;

Ilmiy-tadqiqotchilik;

Ekspluatatsion.

Muhandisning lavozim majburiyatlari quyidagicha izohlanadi: “muhandis metrologik ta’minot, texnik nazorat va h.k. bo‘yicha ilmiy texnik faoliyat sohasida ishlarni bajaradi. Metodik va me’yoriy xujjatlarni, texnik xujjatlarni ishlab chiqadi. Standartlashtirish bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etadi. Texnik xujjatlarni ekspertizasini amalga oshiradi va jihozlar holati va ekspluatatsiyasi ustidan kuzatuv va nazoratni amalga oshiradi. O‘rnatilgan talablar, amaldagi me’yor, qoida va standartlarga rioya etilganligini kuzatadi.

Asos sifatida berilgan me’yoriy xujjatlarni muhandis oldida turgan, standartlashtirish, ishlab chiqarishini metrologik ta’minoti bilan bog‘liq va chiqarilayotgan mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi kasbiy masalalarni olamiz.

Bu faoliyatning natijasi tayyorlash jarayonida moddiylashadigan texnik tizimning tayyor konstruksiya bo‘lishi kerak. Konstruktor berilgan korxonada buyumlarni tayyorlashning maxsus shart-sharoitlarini hisobga olib, buyumning konstruktiv-texnik va texnologik parametrlarini hisoblaydi. Mutaxassis umumiy tuzilishga ega, biroq alohida detallari xarakteristikasi farq qiladigan, ularning joylashishi materiali va boshqa konstruktiv xujjatlari bilan farqlanuvchi mashinalarning yangi turlari (tiplari)ni yaratadi. Shuning uchun ishlab chiqarishda mahsulotni ishlab chiqish jarayoni berilgan buyumni texnik reglamentlar, milliy va xalqaro standartlar, tashkilotlar standartlarida bayon etilgan texnik talablarni o‘

Ilmiy-tedqiqotchilik faoliyati mashinasozlikning mahsulotlari va yangi texnologiyalarini ishlab chiqilishini nazarda tutadi, yuqori darajadagi aniqlik bilan texnik eksperementlarni o‘tkazish, ishonchlilik va takrorlanuvchanlikni nazarda tutadi. Buning uchun mavjud me’yor va qoidalarni mukammal bilish zarur va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini hisobga olib va istemolchilarning sifat sohasidagi talablari va kutishlarini oshirishni hisobga olib yangini yaratish uchun ijodiy tafakkurga ega bo‘lish zarur.

Ekspluatatsion faoliyat texnik tizimlarni ekspluatatsiyasi, buyumlarning ekspluatatsion xarakteristikalarini o‘lchashning metod va vositalarini tanlash bilan bog‘liq. Bu holda tayyorlanayotgan mahsulotning erishilgan sifat darajasi haqida axborotni olish maqsadida o‘lchashlarni bajarish malakasi zarur.

Muhandislar kasbiy faoliyati turlarining tahlili, standartlashtirish bo‘yicha ishlarni bajarishga yo‘naltirilgan kasbiy harakatlarni ajratish imkoniyatini beradi, chiqariladigan mahsulot sifatini ta’minlovchi, parametrlarning aniqligini erishilgan darajasini optimal texnologiyasi va nazoratini ta’minlash (1-jadval).

Muhandisning kasbiy faoliyati turlari	Standarlashtirish, aniqlikni me’yorlash va metrologik ta’minot sohasida kasbiy harakatlar
Loyihalash konstruktorlik faoliyati	- berilgan mezonlarda loyihalashtirish maqsadlarini shakllantirish; - konstruktorlik xujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish; - alohida detallar, uzellar va butun buyumlarni qayta ishlash va yig‘ish aniqligining optimal darajasini me’yorlash; - buyumlarni loyihalashtirish va xujjatlarni rasmiylashtirishda axborottexnologiyalaridan foydalanish;
Ishlab chiqarish texnologik faoliyat	- berilgan aniqlik darajasidagi detallar, uzellar va buyumlar elementlarini tayyorlashning optimal texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish; - materiallar, texnologik jarayonlar, tayyor mahsulotlar sifatini samarali nazorat qilinishi va tashkil etish; - o‘lchashlarni o‘tkazishning dastur va metodikalarini ishlab chiqish; - chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchashning asosiy vositalarini metrologik tekshirish; - texnologik jarayonlar, texnologik jihozlar vositalarini standartlashtirish; - chiqarilayot mahsulotning mosligini dekloratsiyalash;
Tashkiliy boshqaruv faoliyati	- loyihalanayotgan buyumlarning uzellari va detallari elementlarining aniqligiga talablarni me’yorlash jarayonini tashkil etish; - berilgan aniqlikdagi buyumlarning detallari va uzellarini tayyorlash jarayonini tashkil etish; - aniqlikni me’yorlash va nazorat qilish jarayonini amalga oshirish uchun texnologiyalar, instrumental vositalar va dasturiy ta’minotni tanlashni ko‘p variantliligini ta’minlash; - detal va uzellarning talab etilgan aniqlik darajasiga erishishga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sarflarini baholash va mahsulotning talab etilgan sifatini ta’minlash; - aniqlikka talablarni me’yorlash jarayonida konstruktorlik va texnologik xizmatlar orasida kompramiss (kelishuv)ga erishish;
Ilmiy tadqiqotlik faoliyati	- qayta ishlash va o‘lchashning berilgan aniqlik darajasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan texnologikjarayonlar, jihoz va texnik ta’minot vositalari holatini diagnostika qilish; - eksperementni rejalashtirish va natijalarni qayta ishlash metodikalaridan foydalanish; - yangi me’yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda tayyorlash aniqligi va nazoratga oshirilgan talablarni o‘rnatishda axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;
Ekspluatatsion faoliyat	- aniqlikni tavsirlovchi ko‘rsatkishlarni o‘lchashning optimal metodlarini tanlash; - mashinasozlikda aniqlikni tavsiflovchi me’yoriy ko‘rsatkichlarni zamonaviy vositalarini tanlash; - o‘lchashlarni o‘tkazish sharoitlarini ta’minlash;

Xulosa. Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar kasbiy kompetentlik strukturasi uning funksiyalari bilan aniqlanadi, ular orasida gnoselologik funksiya, faoliyatni sozlash, o‘z-o‘zini sozlash, adaptatsiya, akseologik va integrativ funksiyalar ajratiladi. Kasbiy kompetensiya tarkibida turli jihatlar va turli komponentlar ajratiladi. Bizning fikrimizcha, har qanday profildagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligi o‘z ichiga quyidagi turlarni oladi: amaliy, yuqori darajadagi kasbiy mehnatda foydalaniladigan bilim, texnika va texnologiyalar va mutaxassisni kasbiy o‘sish texnika va texnologiyalari hamda mutaxassisni kasbiy o‘sish imkoniyatini taminlovchi bilimlar yig’indisidir.

ADABIYOTLAR

1. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация [Текст] / Дж. Равен. - М., 2002. - 396с.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма [Текст] / А.К. Маркова. - М.: РАГС, 1996. - 170 с.
3. Сластенин В.А. Основные тенденции модернизации высшего образования [Текст] / В.А. Сластенин // Педагогическое образование и наука. - 2004. - №4. - С.43-49.
4. Северов В.Г. Формирование профессиональной компетентности рабочих в процессе начального профессионального образования.: автореф. дис. канд. пед. наук [Текст] / В.Г Северов. -Магнитогорск: МаГУ, 2002. - 24 с
5. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования [Текст] / Э.Ф. Зеер, Н.Н. Гордеева. - Екатеринбург: РГППУ. -2005. - 341 с
6. Сергеев А.Г. Метрология [Текст] / А.Г. Сергеев. - Москва: Логос, 2005. - 272 с
7. Марков Н.Н. Метрологическое обеспечение в машиностроении [Текст] / Н.Н. Марков. - М.: Изд-во «Станкин», 1995. -468 с

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:159.922

Abdumalik NURMAMATOV,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

TDPU, psixologiya fanlari doktori, professor B.Umarov taqrizi asosida

QADRIYATLAR O‘SPIRINLARNING HAYOT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya
Maqolada qadriyatlar o‘spirinlarni hayot strategiyasini shakllantirish omili sifatida qalamga olingan. Shaxsiy qadriyatlar insonning butun umri davomida hayotiy tanlovda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu bosqich insonning dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, uning xohish va intilishlarini ifodalaydi, hayot strategiyasini tanlash jarayonida ifodalanadi.
Kalit so‘zlar: Qadriyat, o‘spirin, hayotiy strategiya, hayotiy tanlov, dunyoqarash, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar.

ЦЕННОСТИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННОЙ СТРАТЕГИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация
В статье ценности рассматривается как фактор формирования жизненной стратегии подростков. Личностные ценности служат важным фактором жизненного выбора на протяжении всей жизни человека. Этот этап связан с формированием мировоззрения человека, выражает эго желания и стремления, выражается в процессе выбора жизненной стратегии.
Ключевые слова: ценность, подросток, жизненная стратегия, жизненный выбор, мировоззрение, творческое развитие, социальные, культурные и нравственные ценности.

VALUES AS A FACTOR IN FORMING THE LIFE STRATEGY OF TEENAGERS

Annotation
In the article, values are written as a factor in the formation of the life strategy of teenagers. Personal values serve as an important factor in life choices throughout a person's life. This stage is related to the formation of a person's worldview, expresses his desires and aspirations, is expressed in the process of choosing a life strategy.
Key words: value, adolescent, life strategy, life choice, worldview, creative development, social, cultural and moral values.

Kirish. Hayotiy strategiya hayotda qo‘llaniladigan qoida hisoblanadi: inson o‘z o‘tmish tajribasiga asoslangan holda yaqin yoki uzoq kelajak hayotiy faoliyatning “pessimistik” yoki “optimistik” tarzda yashash variantini tanlash va hozirgi kundagi hulq –atvor usullarini belgilash mumkin. Bular ma’lum bir hayotiy vaziyat darajasidan yuqoriga ko‘tarilish qobiliyatiga ega bo‘lgan va shaxsning yaxlit ko‘rinishi, uzoq muddatli va istiqbolli yo‘nalishlariga ega bo‘lgan supra-situatsion va integrativdir. Hayot strategiyasi – bu shaxsning o‘z kelajagiga ijtimoiy, madaniy va psixologik prognozi hisoblanadi.

Hayotiy strategiyani tanlashning muhim sharti – bu shaxsning alternativ variantlarni qurish uchun zarur bo‘lgan psixologik resurslar majmuasini, shu jumladan, qiymat yo‘nalishlari tizimini ta’minlashdir. Hayotiy strategiya, insonning hayotiy maqsadlarini qurish va amalga oshirishning individual usuli sifatida insonning o‘ziga, faoliyatiga, boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yil ichida horij psixologiyasida hayotiy strategiyani o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar soni ortib bormoqda.

M.A.Belugina ta’kidlaganidek, hayotiy strategiya shakllangan sari inson o‘z hayotini uzoq kelajakkacha rejalashtiradi, hayot yo‘lini murakkab ishlab chiqiladi, uning har bir bosqichi taxmin qilingan hodisalarga boy hamda hayotiy maqsad har bir bosqichda maqsadlarni amalga oshirishdagi qadam sifatida qo‘yiladi. Hayotiy strategiya shaxsning ichki obrazi hisoblanadi. Lekin inson hayotiy faoliyatining nafaqat ichki balki tashqi shart-sharoitlarga yondashadi[2].

Inson o‘z muhitini faol ravishda o‘zgartiradi, ijodiy rivojlanish jarayonida hayotning yangi sohalarini izlash va o‘zlashtirish sodir bo‘ladi, bu shaxsni boyitadi va hayot strategiyasini ishlab chiqadi[3].

N.O.Abulxanova – Slavska optimal hayot strategiyasini inson o‘z potensialni doimiy ravishda rivojlantirish bilan birga, hayotiy vazifalar bilan inson hayotiy manfaatlar va yashash sharoitlarining mosligini o‘zi tanlagan yoki tashqaridan olingan mezonlar asosida belgilaydi[4].

Strategik darajadan tashqari, shaxsiy yo‘nalish tizimi situatsion, qisman va qisqa muddatli yo‘nalishlarni ifodalashning taktik (operativ) darajasini o‘z ichiga oladi.

O‘tmishga yo‘naltirish, o‘tmishni boshdan kechirish va eslash reflektiv faoliyatning maxsus turiga xosdir – retrospektiv oriyentatsiya[5].

K.O.Abulxanova – Slavskaning ta’kidlashicha, hayot strategiyasining asosiy jihati – bu shaxs turi va turmush tarzi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi bo‘lib, shu munosabat bilan hayot strategiyalarining ikkita mezonlari: ichki va tashqi mezonlari ajralib turadi[4]. Ichki mezon – bu shaxsning o‘z hayotini qurishdagi faolligi va mustaqilligi darajasi. Hayotiy strategiyalarni tanlashning tashqi mezoni ijtimoiy voqelikning obyektiv talablaridir.

Y.M.Reznik hayot strategiyasini shakllantirishning quyidagi modelini taklif qildi[6]:

1. Reflektor pozitsiyasiga kirish va o‘z hayotining kelajagini shakllantirishga munosabatni qabul qilish. Istiqbolli mulohaza kelajakni shakllantirishga bo‘lgan munosabatni amalga oshirish uchun zarurdir.

Retrospektiv va istiqbolli tarkibiy qismlarning birligida refleksiv hozirgi hayot sharoitlarini, orzu qilingan kelajakni shakllantirish shartlarini va mavjud hayotiy ko‘nikmalarni tahlil qiladi.

2. Shaxs tomonidan qadriyat yo‘nalishlarini tanlash va qabul qilish. Shaxsning hayotiy qadriyatlarining individual iyerarxiyasi insonning butun hayot yo‘lida hayot tanlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu bosqich insonning dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, uning xohish va intilishlarini ifodalaydi, hayot strategiyasini tanlash jarayonida ifodalanadi.

O‘spirin hayot strategiyasini shakllantirishga munosabatni qabul qilish, qiymat yo‘nalishlarini tanlash, faoliyat pozitsiyalarida shaxsning o‘zini o‘zi belgilashi kerak: maqsadni belgilash, tegishli harakatlar va harakatlar to‘plamini rejalashtirish, loyihalash va amalga oshirish.

3. Maqsadni belgilash – maqsadni qo‘yish jarayoni sifatida (istalgan kelajak tasviri). Kelajak qiyofasini anglash mavjud bo‘lib, unga erishish uchun shaxsning sa’y-harakatlari va harakatlari yo‘naltiriladi. Qadriyatlar iyerarxiyasi, dunyoqarashi, o‘z imkoniyatlari va faoliyat shartlarini bilish hayotiy strategiyaning yakuniy maqsadini belgilaydi.

4. Istalgan kelajakka erishish uchun tadbirlar tizimini rejalashtirish yoki qurish. Bu bosqich hayotiy maqsadni amalga oshirish uchun qadamlar tizimini qurish bilan tavsiflanadi. Maqsadga erishish uchun inson bir qator hayotiy qadamlarni qo‘yadi va insonning samarali hayotiy strategiyasi voqealar o‘rtasida sababiy bog‘lanishlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi, chunki ular o‘tmish, hozirgi va kelajakning aloqasini belgilaydi. Ushbu bosqichda hayotdagi qiyinchiliklarni samarali yengish yo‘li, konfliktli vaziyatda, shuningdek, hayotning o‘zgarishi sharoitida o‘zini tutish va qaror qabul qilish usulini tanlash amalga oshiriladi.

5. Natijada kelajakdagi hayot yo‘lining strukturaviy rejasini yaratish.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘spirinlarda hayotiy reja kelajakda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan hayotiy voqealar tizimi bilan ifodalanadi. Shakllangan hayot strategiyasida voqealar rejasi qarilikgacha bo‘lgan vaqt istiqboliga ega. Unda ba’zi maqsadlarga erishish boshqalarning maqsadlariga zid kelmaydi, vaqtinchalik diqqat kelajakka qaratiladi. Ushbu reja hayot maqsadini qanday amalga oshirishni tavsiflaydi va shu o‘rinda qadriyatlarning bevosita va bilvosita ta’siri kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Qadriyatlarga e’tibor qaratgan va ijodiy potensialning o‘zini–o‘zi anglash tufayli, o‘spirin keyingi hayot yo‘lini loyihalash strategiyalari bilan belgilanadi. Shaxs tomonidan hayotni yaratish strategiyalarini qurish, tanlash va amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlar yoki bosqichlar ketma–ketligida amalga oshiriladi[7]:

1. Borliq sharoitlarini tanlash – o‘rnatilgan va vaziyatli, real va virtual, ya’ni o‘zining haqiqiy yashash muhitidan xabardor bo‘lishi.

2. Qadriyatlar tizimini tanlash: ongsiz darajada faoliyat yuritadigan o‘z orzulari, umidlari, afsonalari, ongli darajada harakat qiladigan hayotiy ustuvorlik, maqsad, va ideallar, qadriyatlar tizimiga asoslangan umumiy dunyoqarash jihatini shakllantirish jarayoni, ya’ni dunyoning shaxsiy rasmini shakllantirish.

3. O‘spirinning hayotdagi maqsadi va hayotdan u yoki bu maqsadi, o‘zini o‘zi anglash uchun intilishlari, hayotdan aslida nimani olish kerakligi, ya’ni hayotga yo‘naltirilganligini anglash.

4. Boshqa odamlar bilan bog‘liq bo‘lgan va aniq vaziyatlar, subyektiv kutish va da’volar, ya’ni faoliyat uchun bevosita rag‘batlantirish bilan belgilanadigan o‘ziga xos shaxsiy motivlar, ehtiyojlar va manfaatlar tizimlari.

5. Talab, orzu va umidlarning real imkoniyatlar bilan, shaxsning irodaviy va boshqa psixologik xususiyatlari bilan to‘qnashuvi jarayoni.

6. Hayot istiqboli, uning asosida hayot rejalari va niyatlarini qurish, o‘z hayotiy dasturi va hayotiy ssenariyni ishlab chiqish, hayot strategiyalarini tanlash va undan tashqariga chiqishga hissa qo‘shadigan keng ko‘lamli strategiyalar yo‘nalishidagi xatti–harakatlarning yanada adekvat va faolroq alternativ modellarini shakllantirish, kundalik mavjudlik va hayot variantlarini yaxshiroq tanlash, ya’ni hayot rejalarini belgilash.

7. Rejalar va niyatlarni amalga oshirish usullarini tanlash, bu shaxsda hayotiy vaziyatlar va muammolarga adekvat munosabatda bo‘lish qobiliyatini, mavjudlik sharoitlarining o‘zgarishiga mos ravishda ularni to‘g‘ri baholash va tuzatish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutadi.

O‘spirin o‘zlarining hayot yo‘llarini loyihalash jarayonida tanlaydigan strategiyalar V.O.Molyako nazariyasiga asoslanib ko‘rib chiqilishi kerak, u ijodiy qurilishning quyidagi strategiyalarini belgilaydi: o‘xshashlik, qayta qurish, kombinatsiyalash strategiyasi, spontan va universal strategiyalar [8].

Strategik ijodkorlik nazariyasi hayotiy ijod masalalarini o‘rganishda maqsadga muvofiqdir, chunki hayot yo‘lini loyihalash – bu maqsadli kreativ harakat, kelajakdagi voqealarning g‘oyaviy rivojlanishi, ma’lum hayotiy yo‘nalishlarga, qadriyatlarga va boshqalarga muvofiq yaratilgan hayot rejasi. omillar. O‘spirin uchun hayot strategiyasini shakllantirishning boshida ushbu omillarni bilish muhimdir.

Hayotiy strategiyaning shakllanishiga o‘spirin qanday turdagi hayot strategiyasini tanlashini belgilovchi omillar ta’sir qiladi. Har bir o‘spirinning o‘z rejalari, maqsadlari, munosabatlari, hayotda nimaga erishmoqchi ekanligi, ya’ni hayot strategiyasi nimadan iboratligi haqidagi g‘oyalari bo‘lib, ularga bevosita yoki bilvosita ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Biz tadqiqotimizda hayot strategiyasini tanlash bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lgan omillarni, ya’ni individual va intellektual qobiliyatning qadriyat yo‘nalishlarni o‘rganamiz. Asosiy omillardan biri hayot strategiyasining o‘zagi – bu shaxsning qadriyatlari. Qadriyat yo‘nalishlari ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatlarning shaxsiy ahamiyatini aks ettiradi va haqiqatga qadriyat munosabatini belgilaydi.

T.Abdullayev ta’kidlashicha, qadriyatlar harakat yo‘nalishi, o‘lchovini tartibga soladi, o‘spirin faoliyatining motivlari va maqsadlarini belgilaydi. Odamlarning hayotiy tajribasi qadriyat yo‘nalishida to‘planadi[9]. Belgilangan qiymat yo‘nalishlarining mavjudligi o‘spirinning shaxs sifatida yetukligini ko‘rsatadi. Ular insonning hayot jarayonida moddiy yoki ma’naviy qadriyatlarga beradigan imtiyozlar iyerarxiyasining ko‘rsatkichidir. E’tiqodlar darajasida shakllangan qadriyat shaxsning haqiqiy hatti–harakati va faoliyatida yetarli darajada namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlarni amalga oshirish o‘z-o‘zini qabul qilish va nizolarni ongli ravishda hal qilish orqali ichki shaxsiy integratsiyaga, ham hamkorlik va samarali (ijodkorlik elementlari bilan) faoliyat orqali ijtimoiy integratsiyaga olib keladi. Bunday qadriyatlar tizimining mavjudligi shaxsning o‘ziga xos ijtimoiy makonini va ijtimoiy–psixologik vaqtini o‘ziga xos tarzda tashkil etish omili bo‘lib, bu o‘z navbatida ushbu qadriyatlarning yanada gavdalanishiga yordam beradi.

O‘spirinning hayot strategiyasini ishlab chiqishga ta’sir etuvchi omillar orasida oila qadriyatini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin, chunki o‘spirinning tarbiyalangan sharoiti shaxsning hayot yo‘lini belgilaydi.

Kreativ inson o‘z qobiliyat va iste’dodidan foydalanadi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, o‘zini va tajribasini to‘liq bilishga intiladi.

Kreativlikning psixologik tahlili shuni ta’kidlashga asos beradiki, bu fazilat inson ruhiyatining murakkab hodisasi bo‘lib, aql, kreativlik va motivatsiyaning birligini o‘z ichiga oladi, muammo va vazifalarni hal qilish va motivatsiyaga nisbatan, bu hissiy va irodaviy fazilatlarning birligi: muayyan faoliyatga qiziqish va maqsadga erishishda qat’iyatlilik

intellektual qobiliyatlar o‘rtacha va yuqori darajadan oshib ketganda, kreativlik yangi va o‘ziga xos yondashuvda namoyon bo‘ladi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, kreativ qobiliyatlari tufayli yuqori yutuqlarni namoyish etadigan shaxslarni iqtidorli shaxs deb atash mumkin.

I.V.Lvov kreativ qobiliyatli shaxs fazilatlarining to‘rtta guruhini ajratib ko‘rsatadi [10]:

1. Dunyoqarash fazilatlari: faol hayotiy pozitsiya, nekbinlik, ahillik, insonparvarlik, o‘z g‘oya va tamoyillariga sadoqat, yuksak burch tuyg‘usi, vatanparvarlik, estetik tuyg‘ularning yuksak darajada rivojlanganligi, ijodkorlik, kashfiyotlar jarayoniga intilish, ma’naviy o‘sish, o‘z-o‘zini kashf qilish, o‘zini namoyon qilish va boshqalar.

2. Qimmatli fazilatlar: xayrixohlik, xushmuomalalik, samimiylik, mehnatsevarlik, rahm-shafqat, bag‘rikenglik (boshqa odamlarga nisbatan bag‘rikenglik), tanqidiylik.

3. Intellektual fazilatlar: bashoratlilik (hodisalar, harakatlar, harakatlarni oldindan bilish qobiliyati), izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, hazil tuyg‘usi, aqlning moslashuvchanligi (vaziyatga qarab adekvat qaror qabul qilish qobiliyati), fikrlashning o‘zgaruvchanligi, mustaqillik va fikr mustaqilligi, sezgi rivojlanishining yuqori darajasi, bilimdonlik, faoliyat mazmuniga ishtiyoq, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati, o‘ziga xoslik, metaforik fikrlash, tashabbuskorlik.

4. Iroda: qat’iyat, qat’iyat, jasorat, topshiriqni uddalay olish, o‘z-o‘zini da’vo qila olish, chidamlilik, mardlik va matonat (hayotdagi mag‘lubiyat va mashaqqatlarga chidash qobiliyati), sezilarli kuch, o‘ziga ishonch.

Bizning fikrimizcha, sanab o‘tilgan shaxsiy xususiyatlar va fazilatlar to‘liq rivojlanadigan fazilatlardir. I.V.Lvovaning fikricha, bu “fazilatlar insonning hissiy sohaning nozik, sezgir, harakatchan va yorqin namoyon bo‘lishi fonida namoyon bo‘ladi”[10].

Xulosa va takliflar. O‘z hayot yo‘lining to‘liq tasavvurini yaratishning zaruriy sharti o‘spirinning inqirozli vaziyatlarni qabul qilish, boshdan kechirish va undan chiqish qobiliyatini oshirishdir. O‘spirinlarning hayot yo‘li strategiyasini shakllantirish jarayonida faolligini oshirishning muhim sharti – bu talab va umidlarning atrof–muhitning real imkoniyatlari va shaxsning o‘z salohiyati bilan to‘qnashuvini refleksiv jarayonini aktuallashtirishdir.

Shaxsning o‘zini o‘zi anglash jarayoni hayot makonidan tashqarida mumkin emas. Intellektual ijodsiz ham qiyin. Shunday qilib, kreativ fikrlaydigan o‘spirinning hayot strategiyasini tanlash omillarini o‘rganish davom etmoqda va ma’lum bir bosqichda biz strategiyalar tipologiyasini, empirik tadqiqotlar dasturini, hayot strategiyalarini diagnostika qilish dasturini ishlab chiqishni boshlaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Норқўзиев Д.Б. Шахсда ҳаётий стратегия шаклланишининг психологик хусусиятлари. 19.00.01 – Психология тарихи ва назарияси. Умумий психология. Шахс психологияси. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент–2020
2. Белугина М. А. Жизенные стратегия у современных студентов: опыт психологического исследования / М.А.Белугина // Психология в вузе. –2008. –№6. –№93–103
3. Тайланова Ш.З. “Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида қадриятлар тизимини ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш”, 13.00.01–Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи (педагогика фанлари). Педагогика фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд–2018.
4. Абульханова–Славская К.А. Стратегия жизни/ К.А.Абульханова–Славская. – М., – 1991. − 268 с.
5. Попель А.А. Психологические условия развития социальной креативности студентов в процессе профессиональной подготовки/ А. А. Попель. – Нижний Новгород, – 2005. – 217 с
6. Резник Т. Е. Жизненные стратегии личности [Текст] / Т. Е. Резник, Ю. М. Резник // Социс. – 1995. – № 2. – С. 98–104. 11. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник: Пер. с англ.. и нем. [Текст] / Общ. ред. Л. Я. Гозмана и Д. А. Леонтьева; вст. ст. Д. А. Леонтьева. – М.: Прогресс, – 1990. – 368 с.: ил. – (Б–ка зарубежной психологии).
7. Белугина М. А. Структура и динамика формирования жизненной стратегии в юношеском возрасте. Психология. № 4 (57) – 2008 – С. 109
8. Милютина К. Л. Траектория жизненного пути личности в динамической среде: монография. [Текст] / К. Л. Милютина – Нежин: ООО «Издательство «Аспект-Полиграф», – 2012. – 298 с.
9. Абдуллаев Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: фалс..ф.д-ри дисс...-Т.,1992
10. Львова И.В. Психологические факторы развития креативности личности [Текст] / И. В. Львова. − Новосибирск, – 2005. − 203 с

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 327.56:323

Mavluda NURMETOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mavluda_91@mail.ru

S.f.n., dotsent M.Baxadirov taqrizi asosida

MEDIATOR CATEGORIES IN RESOLUTION OF INTERNATIONAL POLITICAL CONFLICTS

Annotation
The practice of political mediation in international conflict resolution is widespread nowadays. From this perspective, it is of great significance to learn and analyze this phenomenon. This article is devoted to the categories of mediators, in which the author focuses on the specifics of each category and their differences. Individuals, states, regional and international organizations as well as non-governmental organizations can act as political mediators in international relations.
Key words: International conflict, political mediation, mediator, state, organization.

КАТЕГОРИИ МЕДИАТОРОВ В РАЗРЕШЕНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПОЛИТИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация
В настоящее время широко распространена практика применения политической медиации в разрешении международных конфликтов. С этой точки зрения, изучение и анализ этого феномена имеет важное значение. Данная статья посвящена категориям медиаторов, где автор акцентирует свое внимание на специфике каждой категории и их отличиях. В качестве политических медиаторов в международных отношениях могут выступать отдельные лица, государства, региональные и международные организации, а также неправительственные организации.
Ключевые слова: Международный конфликт, политическая медиация, медиатор, государство, организация.

XALQARO SIYOSIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATOR KATEGORIYALARI

Annotatsiya
Xalqaro nizolarni hal qilishda siyosiy mediatsiya amaliyotidan foydalanish xalqaro munosabatlarda keng tarqalgan bo‘lib, ushbu fenomenni o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola mediator kategoriyalari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif har bir kategoriyaning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning bir-biridan farqli jihatlariga o‘z e’tiborini qaratadi. Siyosiy mediator sifatida yakka shaxs, davlat, mintaqaviy va xalqaro tashkilot hamda nodavlat nohukumat tashkilotlari faoliyat olib borishlari mumkin.
Kalit so‘zlar: Xalqaro nizo, siyosiy mediatsiya, mediator, davlat, tashkilot.

Kirish. Dunyoda millatlar, xalqlar va davlatlar ko‘p. Ular umumiy jihatlarga ega bo‘lsalar-da, bir-biridan kelib chiqishi, tili, dini, urf-odati, an’analari, dunyoqarashi, rivojlanish darajasi kabi mezonlar bilan farq qiladi. Tarixdan ma’lumki, shu farqli jihatlari sabab ular o‘rtasida juda ko‘p nizolar kelib chiqqan. Ba’zi hollarda nizolar tinch yo‘llar orqali hal etilgan, ba’zida ular qurolli to‘qnashuv va urushlarga aylangan. Nizo va urushlar qanday sabablarga ko‘ra kelib chiqishidan qat’iy nazar, ular jamiyat uchun ko‘p hollarda vayronkor hodisa hisoblanadi. Biroq, insoniyat bugungi kungacha iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti va san’atdagi yuqori pog‘onalarga aynan dunyoqarash va fikrlardagi qarama-qarshilik tufayli erishdi. Shu jihatdan ta’kidlash lozimki, jamiyatda insonlar, davlatlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar va nizolar har doim bo‘lgan va bundan keyin ham ular kelib chiqaveradi. Chunki nizolarsiz jamiyat va taraqqiyot o‘sish va rivojlanishda to‘xtab qoladi. Nizolarning konstruktiv yoki destruktiv xarakterga ega bo‘lishi esa, ularning qanday usullar orqali yechilishiga bog‘liq.

Ko‘p hollarda nizo va urushlarning oldini olish uchun qarama-qarshi tomonlar muzokara, ya’ni ikki tomonlama dialog olib borish uslubidan foydalanishadi. Bu usul bugungi kunda ham xalqaro munosabatlarda diplomatiyaning asosi bo‘lib kelmoqda. Biroq muzokaralardan tashqari, nizoni hal qilishning boshqa usullari ham mavjud. Ulardan biri mediatsiya hisoblanadi.

Mediatsiya bu – vositachilik bo‘lib, nizolashayotgan tomonlarga yordam berish uchun jarayonga uchinchi tomonning kirib kelishini nazarda tutadi. Mediatsiya minglab yillardan beri mavjud bo‘lib, juda uzoq tarixga ega. Bugungi kunda mediatsiya – vositachilik tushunchasi, huquq sohasida – oilaviy va mehnat munosabatlarini tartibga solishda hamda ichki va xalqaro darajadagi tadbirkorlik sohalarida keng tarqalgan. Biroq mediatsiya xalqaro munosabatlar sohasida davlat ichidagi va davlatlararo nizolarni hal qilishda ham ancha rivojlangan bo‘lib, olimlar, siyosatchilar va siyosatshunoslar mediatsiyaning ushbu turini o‘rganishga ko‘p e’tibor qaratib kelmoqdalar. Mediatsiyaning bu sohasi siyosiy mediatsiya hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy mediatsiyani ilmiy jihatdan tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni ilm-fanning alohida sohasi darajasiga ko‘targan olimlardan Djeykob Berkovitch, Skott Zigmund Gartner, Kristofer Mitchell, Uilyam Zartman, Jeffri Rubin, Saadia Tuval kabi tadqiqotchilarni aytishimiz mumkin.

Xalqaro munosabatlarni nizolarsiz tasavvur etib bo‘lmaydigan vaziyatda, ularni yumshatish va yechishning usullaridan biri hisoblangan siyosiy mediatsiya fenomenini chuqur o‘rganish va tahlil qilish orqali davlat tashqi siyosatida qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 6-bob 33-moddasida ham xalqaro munosabatlarda kelib chiqadigan nizolar xavfsizlikka tahdid soladigan vaziyatda, tomonlar ularni muzokaralar, mediatsiya, arbitraj kabi usullar orqali yechishga intilishlari

lozim, deya e’tirof etilgan [1]. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida joylashganligini va bu mintaqadagi qo‘shni davlatlar o‘rtasida tez-tez nizolar kelib chiqishini hamda Afg‘oniston bilan umumiy chegaraga ega ekanlimizni inobatga olsak, xalqaro siyosiy mediatsiya fenomenini o‘rganish va tashqi siyosatda mediator sifatida faoliyat olib borish O‘zbekiston uchun mintaqaviy va xalqaro maydonda keng imkoniyatlar yaratadi.

Xalqaro nizolarni bartaraf etishda siyosiy mediatsiyadan foydalanish har doim ham samarali natija bilan yakunlanmaydi. Ushbu jarayonda turli xil omillar rol o‘ynaydi. Nizoning turi, uning mukammallik darajasi, nizolashayotgan tomonlarning tabiati, xalqaro shart-sharoit, mediator kategoriyasi va mediatsiya strategiyalari mavjud muammoni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada biz yuqorida sanab o‘tilgan omillardan mediator kategoriyalarini tadqiq etamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni olib borishda tarixiy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro munosabatlar subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda yakka shaxs, davlat, mintaqaviy tashkilot, xalqaro tashkilot va nodavlat nohukumat tashkilotlari mediator sifatida ishtirok etishi mumkin. Aytish joizki, mediatsiya ixtiyoriy jarayon bo‘lib, u mediatorning o‘zi hamda uni qabul qiluvchi tomonlarning roziligi asosida amalga oshiriladi. Mediatsiya jarayonida tomonlarning mediatorga bo‘lgan ishonchi, mediatorning mavjud muammoga nisbatan obyektiv bo‘lishi nizoning har ikkala tomon uchun maqbul yechimini topishda juda katta ahamiyatga ega.

Xalqaro siyosatda nizolarni hal qilishda yakka shaxsning mediator sifatida ishtirok etishini kam hollarda kuzatish mumkin. Odatda, yakka shaxslar xalqaro siyosiy doiralarda mediator bo‘lganlarida, ular o‘z hukumati, davlatining nomidan jarayonda faoliyat ko‘rsatishadi. Tarixdan ma’lumki, 1978-yil Misr va Isroil o`rtasida Kemp-Devid bitimining imzolanishida AQSh prezidenti Jeyms Karter bu davlatlar o‘rtasida vositachi rolini bajargan. Bu sharoitda, prezident Jeyms Karterning shaxsiy tashabbusi katta rol o‘ynagan bo‘lsa-da, u o‘z davlatining nomidan mediatorlik qilgan.

Yakka shaxsning mediatorlik qilishi deganda esa, hukumat yoki davlat nomidan emas, balki muammoni bartaraf etish uchun aynan yakka shaxs bo‘lib mediatsiyani amalga oshirishi tushuniladi. Djeykob Berkovitchning ta’kidlashicha, bunda mediatorlik qiluvchi shaxs bu sohada katta bilim va tajribaga ega bo‘lib, u ko‘plab mediatsiya jarayonlarida ishtirok etgan va nizolarni yechishga o‘z hissasini qo‘shgan olim va tadqiqotchi ham bo‘lishi mumkin. Ularga Byorton, Doob va Kelman kabi xalqaro nizolarni boshqarish va hal qilishda bevosita ishtirok etgan olimlarni misol sifatida keltirib o‘tadi [2]. Yakka mediatorlar sobiq davlat rahbarlari, diniy yetakchilar yoki tashkilot rahbarlari orasidan ham tayinlanishi mumkin. Masalan, 2007-2008-yillarda Keniyada saylov inqirozi paytidagi nizoni hal qilishda BMT ning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan mediator sifatida ishtirok etgan.

Yakka shaxs mediatorligini tadqiqotchi olimlar rasmiy va norasmiy turlarga bo‘lishadi. Rasmiy mediator nizoni yechish uchun davlat yoki tashkilot tomonidan rasman tayinlanadigan bo‘lsa, norasmiy mediator sifatida esa, nizolashayotgan tomonlar roziligi bilan mintaqada yoki global miqyosda biror sohada obro‘ va hurmat-e’tibor qozongan yetakchi shaxs, davlat yoki nodavlat tashkilot rahbari jarayonga kirib kelishi mumkin. Ushbu amaliyot bugungi kunda “xalq diplomatiyasi” (Track two diplomacy) atamasi bilan mashhur bo‘lib, unda mediator amaldagi siyosatchi bo‘lishi shart hisoblanmaydi.

Mediatsiya jarayoniga eng ko‘p jalb qilingan mediator kategoriyasi bu – davlat hisoblanadi. Xalqaro maydonda turli xil transmilliy siyosiy birliklar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, siyosiy aktor sifatida davlat, bugungi kungacha tuzilgan eng mukammal ijtimoiy va siyosiy tashkilot hisoblanadi. Shuning uchun uni xalqaro munosabatlarning asosiy aktori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlatlar xalqaro siyosiy nizolarni hal qilishda faol ishtirok etishadi. Bunday vaziyatda davlat nomidan prezident, bosh vazir, davlat kotibi yoki boshqa soha vakillari mediator sifatida nizo jarayonida qatnashadilar. Misol sifatida faol mediatorlik qilgan davlat vakillaridan Genri Kissinjer, Jeyms Karter, Lord Karrington kabi shaxslarni aytish mumkin.

Mediator bo‘lib, AQSh va Rossiya kabi xalqaro siyosatda katta ta’sirga ega davlatlar yoki ushbu sohada salmoqli tajribaga ega Norvegiya, Shveysariya, Qatar kabi nisbatan o‘rta va kichik davlatlar ham faoliyat yuritishi mumkin. Bugungi kunda nisbatan o‘rta va kichik davlatlar mediatorlik qilishi borasida Valday xalqaro klubi a’zosi Yaroslav Lisovolik fikrini ta’kidlab o‘tish joiz: “Iqtisodiyoti rivojlangan nisbatan o‘rta va kichik davlatlarning nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda nizolarni boshqarish va hal qilishdagi roli oshib bormoqda. Ularning ba’zilari, masalan, Avstriya, Shveysariya va Singapur neytral davlat maqomiga ham ega. Bu ularga mediatorlikni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib bermoqda” [3].

Davlatlar turli xil maqsadlarda mediatorlik qilishi mumkin. Idealizm g‘oyasi tarafdorlari davlatlar mediatorlik qilishining bosh maqsadi gumanitar g‘oya – dunyoda tinchlikni, xavfsizlik va barqarorlikni ilgari surishdan iborat, deya ta’kidlashsa-da, bunga realizm nuqtayi nazaridan yondashuvchi olimlar, masalan, Saadia Tuval va Uilyam Zartmanning xulosalariga keladigan bo‘lsak, har bir davlat mediatorlik qilishda o‘zining “shaxsiy” manfaatlarini ham ko‘zlaydi, chunki mediatorlik qilish vaqt, bilim, tajriba va resurslarni talab qiladi [4]. Bu maqsadlar turlicha bo‘lishi mumkin. S.Tuval va U.Zartmanlar bu maqsadlarni shartli ravishda ikkiga bo‘lishadi: “mudofaa” va “hujumkor” [5]. Bunda nizo kelib chiqishi va uning uzoq muddat davom etishi mintaqaviy yoki global xavfsizlikka tahdid solsa va uchinchi davlat manfaatlariga ziyon yetkazsa; ular bilan umumiy chegaralarga ega bo‘lsa; yoki davlatlar bitta tashkilot a’zolari bo‘lgan holatda ham tashkilotning yaxlitligi va obro‘yini saqlab qolish uchun harakat qilish niyatida qilingan mediatsiyani mudofaa maqsadida qilinadigan bo‘lsa, nizoni hal qilish orqali mediator davlat xalqaro maydonda o‘zining ta’sir doirasini kengaytirish yoki obro‘sini oshirish, nizolashayotgan davlatlar bilan munosabatlarini yaxshilash, tinchlikparvar davlat sifatida imidj yaratmoqchi bo‘lib mediatsiya jarayonida qatnashganini, hujumkor maqsadlarda amalga oshirilgan mediatsiya deya ta’riflanadi.

Siyosiy mediatsiya jarayonida davlatning mediator sifatida qatnashishida unga nisbatan katta talablar qo‘yiladi, chunki xalqaro siyosatda davlatlararo munosabatlar muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, har ikkala tomon u davlatni mediator deb qabul qilishi lozim. Aks holda bunday xatti-harakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasiga ko‘ra, tashqaridan bo‘lgan, o‘zaro kelishilmagan intervensiya sifatida e’tirof etiladi [6].

Ikkinchidan, tomonlarda vositachi davlatga nisbatan ishonch kuchli bo‘lishi lozim, ya’ni uchinchi taraf ikki tomonlama nizoni hal etishdan manfaatdor bo‘lishi kerak [7]. Shuningdek, ular mediator nizoni bir tomon manfaatini ko‘zlab harakat qilmasligi uchun uning jarayonda obyektiv bo‘lishiga ishonch hosil qilishlari darkor.

Uchinchidan, mediator davlat nizoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, tajriba va yetarlicha resurslarga ega bo‘lishi lozim. Aks holda mediatsiya muvaffaqiyatli

bo‘lmasdan, aksincha, vaziyatni yanada salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Tarixning turli davrlarida turli maqsadlarda davlatlar tomonidan olib borilgan mashhur mediatsiya keyslaridan quyidagilarni aytib o‘tish mumkin: 1905-yilda rus-yapon urushida AQSh mediatorligi; 1956-yili Suvaysh kanali inqirozi davrida Kanada; 1966-yil Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi nizoni to‘xtatishda sobiq SSSR davlati; 1978-yilgi Kemp-Devid bitimi imzolanishi AQSh; 1981-yil AQSh va Eron o‘rtasida kelishuv shartnomasi imzolanishida Jazoir; 1980-yillarda Nigeriya va Kamerun o‘rtasidagi hududiy nizoni hal qilishda Keniya mediatorligi; 1990-yillarda Norvegiya rahnamoligida amalga oshirilgan Isroil va Falastin Ozodlik Harakati Tashkiloti o‘rtasidagi Oslo kelishuvi keysi va boshqalar.

Nizolarni hal qilishda mintaqaviy tashkilotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bitta mintaqada joylashgan ikkita davlat o‘rtasida nizo kelib chiqadigan holatda, mintaqaviy tashkilot ushbu nizo global miqyosda xavfsizlikka tahdid solishining oldini olishi mumkin. BMT Nizomining 8-bob 52-moddasida shunday deyiladi: “Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilishdan oldin, mavjud nizoni yechish uchun mintaqaviy tashkilotlar bor kuchlarini ishga solishlari lozim” [8].

Mintaqaviy tashkilotlarda, odatda, unga a’zo davlatlar o‘rtasidagi nizolarni muvaffaqiyatli yechish uchun imkoniyatlar ko‘proq bo‘ladi. Chunki, birinchidan, tashkilot a’zolari o‘rtasida nizoning mavjudligi, qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘lishi xavfini tug‘dirishi, bu esa, o‘z navbatida, butun mintaqa davlatlari uchun turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun tashkilot nizoning qisqa muddatda hal qilinishidan manfaatdordir. Ikkinchidan, bu tashkilotni xalqaro maydonda ta’siri pasayishiga va obro‘si tushishiga sabab bo‘ladi. Bu jihatdan ham tashkilot nizoni e’tiboridan chetda qoldira olmaydi. Uchinchidan, yakka davlat yoki ko‘plab davlatlarni qamrab olgan xalqaro tashkilotdan ko‘ra, mintaqaviy tashkilot nizoni tezroq hal qilish resurslariga ega bo‘ladi, ya’ni unda o‘z a’zo davlatlarining tarixi, madaniyati, ichki va tashqi siyosati hamda nizoning sabablari to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot bo‘ladi. To‘rtinchidan, tashkilot a’zo davlatlarni uning nizomida belgilangan qoidalarga bo‘ysundirish “kuch”ini ishga solish huquqidan foydalanishi mumkin.

Tarixdan mintaqaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan ko‘plab mediatsiya keyslarini misol qilib keltirish mumkin: 1970-yillardagi Yaman nizolarida Arab Ligasi mediatorligi; 1980-yillarda Efiopiya va Somali o‘rtasidagi hududiy nizolarda Afrika Ittifoqi Tashkiloti; 1980-yillarda AQSh va Nikaragua o‘rtasidagi mojarolarda Amerika Davlatlari Tashkiloti va hokazo. Bulardan tashqari, Yevropa mintaqasida turli davrlarda tinchlikni saqlashga o‘z hissasini qo‘shgan Yevropa Ittifoqi hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti mediatorligi ham mintaqa uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Mediatsiyani samarali amalga oshira oladigan yana bir kategoriya bu xalqaro tashkilotlardir. Xalqaro tashkilotlar nizo va urush kelib chiqishining oldini olish, mavjud nizoga optimal yechim topish va tomonlarning muzokaralar natijasida erishilgan kelishuvga amal qilishlarini nazorat qilish resurslariga ega tuzilma hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotning mediator sifatida nizoga kirib kelishining qator ustunliklari mavjud. Birinchidan, xalqaro tashkilot doimo har ikkala nizolashayotgan tomon o‘zaro teng ravishda manfaatli bo‘lgan kelishuv imzolanishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, u “shaxsiy” manfaatni ko‘zlamaydi. Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar davlat vakillaridan tashkil topgan tuzilma bo‘lsa-da, mediatsiya jarayonida, davlatlardan farqli ravishda, uning betaraflik va neytrallik darajasi yuqori bo‘ladi. Holbuki, ba’zi mintaqaviy tashkilotlarda yetakchi davlat bo‘ladi, ko‘p hollarda u mintaqadagi nizoni hal etishga o‘z manfaatlari nuqtayi nazaridan turib yondashadi. Uchinchidan, har qanday davlat uchun xalqaro maydonda “yuzini saqlash” (face-saving) muhim ekanligini inobatga olsak, ular muzokaralar davomida yon bosadigan bo‘lsalar-da, mediator – xalqaro tashkilot buni ularning obro‘siga putur yetkazilmasdan amalga oshirilishiga yordam beradi [9].

Bugungi kungacha dunyodagi universal yagona tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadi jahonda tinchlikni ta’minlashdir. Uning Nizomida nizolarni tinch yo‘llar bilan hal qilish, jumladan, uchinchi tomon – mediatorning xizmatidan foydalanish to‘g‘risida aytilgan. Shu kungacha BMT Bosh kotibi lavozimida faoliyat yuritgan shaxslar hamda uning maxsus tayinlagan vakillari uning nomidan ko‘plab mediatsiya jarayonlarida ishtirok etishgan. Bundan tashqari, BMT bir nechta mediatorlar qatnashgan ko‘ptomonlama mediatsiya jarayonlarida ham faoliyat yuritib, bosh mediator rolini muvaffaqiyatli bajargan.

Ularning hammasini muvaffaqiyatli yakunlangan deya olmasakda, BMT mediatorlik qilgan keyslardan quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: Kashmir muammosi, Folklend orollari, Afg‘oniston, Tojikiston, Angola, Gruziya, Nepal, Suriya, G‘arbiy Sahara, Sudan, Kambodjadagi inqiroz va boshqalar.

Nodavlat nohukumat tashkilotlari hajmi, resurslari va maqsadi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ular davlat va hukumatlararo tashkilotlardan farqli ravishda ancha egiluvchan, moslashuvchan va kam siyosiy cheklovlarga ega. Nodavlat nohukumat tashkilotlari mediatorlik qilishda faqat o‘zining obro‘-e’tiboriga tayanadi, chunki ular bosim o‘tkazish kuchiga ega emas, resurslari ham cheklangan. Bu kategoriyadagi aktorning mediatsiya jarayoniga kirishidan asl maqsadi – nizoni hal qilishdir [10].

Muzokaralar va mediatsiya fenomenini tadqiq qiluvchi olimlardan Sinisa Vukovichning ta’kidlashicha [11], so‘nggi yillarda gumanitar va diniy maqsadlarda tuzilgan nodavlat nohukumat tashkilotlari sonining o‘sishi nizolarni yechishga bo‘ladigan yondashuvni o‘zgartirdi. Birinchidan, ushbu tuzilmalarning nizoli hududlarda faoliyat yuritishi, ularga nizo tabiatini yaqindan bilishi va uning mediatsiya jarayoniga tayyor (ripe moment) ekanligini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ular nizolashayotgan tomonlarning vakillari bilan olib borilgan muzokaralari natijasida ma’lumot to‘plashadi va uni xalqaro hamjamiyatga yetkazishadi. Natijada, ushbu nizoning hal qilinishida qaysi davlat yoki tashkilotlar manfaatdor ekanligi va mediatorlik qilishi uchun yetarlicha resurslarga egaligi aniqlanadi hamda mediatorlar guruhi shakllana boshlaydi. Uchinchidan, nodavlat nohukumat tashkilotlari nizolashayotgan tomonlarning quyi darajadagi vakillari o‘rtasida mediatorlik qilishlari, ularning kuch va resurslarga ega rasmiy mediator (davlat yoki hukumatlararo tashkilot) vositachiligida rasmiy muzokaralarni boshlashlari uchun o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi. Bunga misol qilib, Tojikistonda 1990-yillardagi fuqarolar urushi davrida AQSh Tinchlik Institutining tashabbuslarini ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro siyosiy mediatsiya amaliyotiga ixtisoslashgan nodavlat nohukumat birlashmalari, ayniqsa, Shveysariya, Norvegiya, Finlandiya va Kanadada yaxshi rivojlangan.

Xulosa va takliflar. Xalqaro munosabatlarda suverenitet, hudud, resurs, etnik, g‘oyaviy va boshqa sabablarga ko‘ra kelib chiqadigan davlatlararo nizolarni insoniyatga ko‘p ziyon va talafotlar yetkazmasidan oldin hal qilish juda muhimdir. Bu jihatdan, global siyosatdagi barcha masalalarni diplomatiya orqali yechish jahon hamjamiyatining bosh maqsadi hisoblanadi. Zero, ikki tomonlama muzokaralar har doim ham samarali yechimga olib kelmaydi. Aynan shunday paytda, barcha shart-sharoitni inobatga olgan holda, siyosiy mediatsiyaga murojaat qilish nizoni boshqarishga, qurolli to‘qnashuvlarni to‘xtatishga yordam berishi mumkin.

Nizoning mohiyati va sabablari, tomonlarning tabiati va xalqaro vaziyat hamda unda qaysi mediator kategoriyasi yoki bir nechta mediatorlar birgalikda ishtirok etishi mavjud nizo qanday yechilishini yoki uning boshi berk ko‘chaga kirib qolishini belgilab beradi. Shuning uchun, avvalambor, mediatsiya fenomenini nazariy jihatdan tahlil qilish, tarixiy keyslarni o‘rganish, u qanday hollarda samarali yakunlanishini va qay holatlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashini qiyosiy tahlil qilish lozim.

Bugungi kunga kelib, jahon siyosatida nisbatan o‘rta va kichik “ta’sir”ga ega davlatlar tomonidan tashqi siyosatda mediatsiyani qo‘llash amaliyotining tatbiq etilishi, xalqaro doiralarda ularning tinchlikparvar davlat hamda samarali mediator sifatidagi imidjini oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham mediatorlik amaliyotini o‘z tashqi siyosatida qo‘llash uchun barcha resurslarga ega. Buni Afg‘oniston masalasida ko‘rishimiz mumkin. Agar ushbu sohada faoliyatini kengaytirsa, u xalqaro maydonda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. https://www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-6
2. Jacob Bercovitch, “In Theory. Mediators and Mediation Strategies in International Relations”. Negotiation Journal, April, 1992. P-100.
3. Ярослав Лисоволик, “Малые страны как посредники в урегулировании конфликтов”, 15.03.2022. https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/malye-strany-kak-posredniki/
4. Sinica Vukovic, “International Multiparty Mediation and Conflict Management. Challenges of Cooperation and Coordination”, 2016. P-20.
5. Sinica Vukovic, “International Mediation as a Distinct Form of Conflict Management”, 2014. International Journal of Conflict Management, 25(1). P-77.
6. R.P.Barston, “Modern Diplomacy”. Fourth edition. Routledge. Taylor & Francis Group. 2014. P-262.
7. Andrew H. Kydd, “When Can Mediators Build Trust?”, American Political Science Review, Vol. 100, No. 3 August 2006. P-451.
8. https://www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-8
9. Jacob Bercovitch, Jeffrey Rubin, “Mediation in International Relations. Multiple Approaches to Conflict Management”, Palgrave Macmillan, 1994. P-177.
10. Jonas Baumann, Govinda Clayton, “Mediation in Violent Conflict”, CSS Analyses in Security Policy, N0. 211, June 2017. P-2.
11. Sinica Vukovic, “International Multiparty Mediation and Conflict Management. Challenges of Cooperation and Coordination”, 2016. P-24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 930.482

Bahodir OMONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d (DSc)
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
E-mail:bakhodiron@gmail.com

F.f.d O‘.Tilovov taqrizi asosida

“FOZIL ODAMLAR SHAHRI” VA “HINDISTON” ASARLARIDA GEOSIYOSIY BILIMLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya

Maqolada Abu Nosir Forobiyning “Fozil odamlar shahri” va Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asaridagi geosiyosiy bilimlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, asarlarda aks etgan geografik va geostrategik qarashlar, davlatni rivojlantirishda geosiyosiy bilimlar, xalqaro munosabatlarga kirishish, qudratli davlatni tashkil etish haqidagi mulohazalar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yetuk shaxs, yetuk hislatlar, donishmandlar jamoasi, geosiyosiy tafakkur, geografik ma’lumotlar, geosiyosiy harakatlar, geostrategik ta’limotlar, geosiyosiy nazariyalar, siyosiy xarita.

ВЫРАЖЕНИЕ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ “ГОРОД ДОБРОДЕТЕЛЬНЫХ ЛЮДЕЙ” И “ИНДИЯ”

В статье рассматриваются геополитические знания в произведение Абу Насира Фараби “Город добродетельных людей” и в трактате Абу Райхана Беруни “Индия”. Также был проведен научный анализ выраженных в работах географических и геостратегических взглядов, геополитических знаний на развитие государства, вступление в международные отношения, размышления об организации могущественного государства.

Ключевые слова: Зрелая личность, зрелые чувства, сообщество мудрецов, геополитическое мышление, географические данные, геополитические действия, геостратегические доктрины, геополитические теории, политическая карта.

THE EXPRESSION OF GEOPOLITICAL KNOWLEDGE IN THE WORKS “THE CITY OF VIRTUOUS PEOPLE” AND “INDIA”

The article examines the geopolitical knowledge in the work of Abu Nasir Farabi “The City of Virtuous people” and in the treatise of Abu Rayhan Beruni “India”. There was also a scientific analysis of geographical and geostrategic views expressed in the works, geopolitical knowledge on the development of the state, entry into international relations, reflections on the organization of a powerful state.

Key words: Mature personality, mature feelings, community of wise men, geopolitical thinking, geographical data, geopolitical actions, geostrategic doctrines, geopolitical theories, political map.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin siyosiy bilimlarni o‘rganishni to‘g‘ri tashkil etish, aholini geosiyosiy bilimlar va qarashlarning tarixiy-nazariy asoslaridan bahramand qilish maqsadida xalqaro standardlarga xos fanlarni joriy etish tizimi shakllantirildi. Sobiq ittifoq davrida geosiyosiy bilimlarni o‘rganish mustamlaka respublikalar aholisiga yo‘l qo‘yilmagan. O‘zbekiston aholisi ham geosiyosiy bilimlarni o‘rganishdan mahrum etildi. Natijada, mamlakatimizda geosiyosiy bilimlarni o‘zida aks ettirgan tarixiy manbalarni asl mohiyatini xalqimizga havola etish sun’iy to‘siqqa uchradi. Mustaqillik sharofati bilan tarixiy manbalarimizdagi geosiyosiy bilimlarni o‘rganish va ularni xalqimizga yetkazish dolzarb vazifaga aylandi. Shu sababli Abu Nosir Forobiyning “Fozil odamlar shahri” va Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asaridagi geosiyosiy bilimlarni ilmiy tahlil etish maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Fozil odamlar shahri” va “Hindiston” asarlari mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilgan. Masalan ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, J.To‘lenov, Q.Nazarov, A.Choriyev, M.Nurmatova, N.SHermuxammedova, H.Aliqulov, siyosiy va huquqiy jihatlari, X.Odilqoriyev, F.Musayev, A.Mo‘minov, H.Boboyev va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy va madaniy tomonlama ilmiy tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Ikkala asarda aks etirilgan g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan, siyosiy fikrlar umumlashtirilib geosiyosiy xulosalar berilgan.

Tahlil va natijalar. Atoqli qomusiy olim, siyosiy mutafakkir Abu Nosir ibn Muhammad Forobiy (870-950) o‘z davrining porloq yulduzlaridan, qadimgi Bag‘dod universitetining tashkilotchilaridan biri bo‘lib, tabiiy, ijtimoiy, siyosiy fanlarni chuqur o‘rgangan va dono faylasuf sifatida dovruq qozongan. Forobiy ilmiy merosida ijtimoiy-siyosiy masalalar, xususan, davlat tuzilishi va uni idora etish, yetuk va mukammal jamoaga erishish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida qudratli odil davlat haqida fikr yuritgan. Insonlarni ezgulikka olib boruvchi yo‘l faqatgina qudratli davlat orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta’kidlagan. Qudratli davlatni tashkil etish odil donishmand hukumdor va undan qolishmaydigan yuksak tafakkurga ega vazirlar orqali erishilishini ta’kidlagan. Asarda, agar davlatda zarur “hislatlarni o‘zida jamlagan odam topilmasa, ikki kishi birgalashib shu hislatlarga ega bo‘lishsa (biri – donishmand, ikkinchisi – qolgan hislatlar sohibi bo‘lsa) ikkalasini fozillar shahriga qo‘yishni, mabodo bir guruh odamlarda barcha hislat (hukumdorda zarur o‘n ikki fazilat)lar mujassamlashgan bo‘lsa” [5] boshqaruvni ularga topshirish zarurligini keltirgan. Bundan ko‘rinadiki, qudratli davlat bo‘lishi uchun yetuk (ma’rifatli) shaxs, yetuk hislatlarga ega bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslarning (demokratiya) hokimiyatni boshqarishi nazarda tutilgan.

Uning fikricha, davlatning vazifasi shahar aholisining baxtli hayotini ta’minlash va qo‘riqlashdan iborat. Aholisi va hududini mustahkam qo‘riqlay olgan davlatgina xalqaro maydonda barqaror bo‘lishi asarda aks ettiriladi. Davlat qudratini oshishi faqatgina hukumdor va donishmand (rahbar)lar jamoasiga bog‘liq bo‘lmay, shahar aholisining aql zakovatliligi va hunarmandligi (tadbirkorligi)ga bog‘liqligi qayd etiladi. Chunki shahar aholisining uyushqoqligi “baxtlilik darajasiga erishuvda yuqoridagiga o‘xshash (mohirlikda) bir-biridan afzalroq bo‘lishi” [5] davlat rivojlanishida muhimdir. Mabodo shahar aholisi yomon ishlarda izchil va sa’y-harakat, kuch-g‘ayrat ko‘rsatsa [5] davlat mayib-majruhga aylanadi va jaholatga yuz tutadi. Asarda keltirilishicha: jaholatdagi shaharlar (aholisining) maqsadlarini ko‘zlaydigan (obro‘-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlar alohida toifadir. Bunday odamlar fozillar shahrida yuqoridagi maqsadlar bilan yashashi taqiqlanganligini ko‘rib, u yerdagi (adolatli) qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga, tartib-qoidalar mohiyatini buzib aks ettirishga urinadilar. Bunga ikki yo‘l bilan erishadilar. Ular yuqorida aytilgan baxsli o‘rinlarni o‘zlaricha taxmin qiladilar, ikkinchidan soxta donolik va aldov yo‘liga o‘tadilar. Jaholatli va tuban maqsadlariga erishuvida hech kim to‘sqinlik qilmasligi uchun shunday yo‘ldan boradilar. Bunday odamlarni fazilatli shaharlar jamoasiga qabul qilmaslik [5] kerakligi qayd etiladi. Aholi qanchalik teran, zukko, ma’rifatli bo‘lishi, davlatning ichki qudratini va tashqi geosiyosiy kuchini oshirishga xizmat qilishi Forobiy nazaridan chetda qolmaydi.

Forobiy teran hikmatli asarlari tufayli u islom olamida “Ikkinchi muallim” (ya’ni ikkinchi Aristotel) nomiga sazovor bo‘lgan. Uning siyosiy g‘oyalari oshkora geosiyosiy tafakkur tusiga ega bo‘lgan. Forobiy, xuddi Aristotel singari, siyosiy va ijtimoiy hayotda ro‘y bergan hodisa va jarayonlarni tabiat va tabiiy sabablarga bog‘liq holda tushuntirgan, siyosat va geografiyani o‘zaro chambarchas deb bilgan. Chunonchi, uning tasavvuriga ko‘ra, insoniyat normalari shakllanishi geografik va ijtimoiy omillarning birgalikda ta’sir o‘tkazish jarayonidan iborat. Ayni chog‘da Forobiy insonlarni jamiyatning tili, dini va xulq-atvor normalariga ko‘ra, ayri-ayri xalqlarga bo‘lgan. Bu farqlarni u uchta tabiiy omil: ma’naviyat, tabiiy xarakter va individual xarakteri bilan namoyon bo‘luvchi inson omili asosida baholagan. Bundan tashqari, u tilni va tafakkur tarzini ham xalqlarning farqli sifat ko‘rsatkichlari tarzida ko‘rsatgan. Shunday qilib, Forobiy insonlarning ongi, ma’naviyati, xarakteri va dini shakllanishidagi farqlarni geografik muhit va etnogenez jarayonlaridagi tafovutlar bilan izohlagan. “Fozil odamlar shahri” asarida keltirilishicha, “odamlar orasida muayyan bog‘lanishda mehr-oqibat va kelishuv bor, ammo ular bu bog‘lanish, kelishuv zamirida nimalar yotishini turlcha tushunadilar. Ba’zilar insonlar umumiyligi (jamoa bo‘lib yashashi)ning sababi ularning bir ajdoddan tarqalganligida deb bilishadi. YA’ni, bir ajdodga mansub (ko‘pchilik) odamlarning birgalashib, o‘zaro kelishib, bir-biriga yordamlashishidan maqsad, shu yo‘l bilan boshqa avlod vakillarini yengish uchun va ulardan yengilmaslik uchundir. Odamlar kelib chiqishlari tufayli nizolashadilar va yovlashadilar” [5;55]. Forobiy qadimdan bugungi kunga qadar diniy, tarixan bir qavmga mansublikdagi (islomizm, yaxudizm, xristianizm, panturkizm, slavyanizm va h.k) geosiyosiy qarama-qarshiliklarni bayon etgan. Qardosh fozil shaharlar “tashqi zarurat tug‘ilganida, masalan, tasodifiy falokat kelib qolganida, yov hujum qilganida ular yovga qarshi kurashishlari, o‘zlarini himoya qilishlari uchun katta guruhlarga birlashishi”[5;55]ni tabiiy hol sifatida qaraydi. Geosiyosiy maydonda davlatlar o‘z qudratini saqlashlari uchun ittifoqqa birlashishilari har doim ham dolzarb bo‘lganini ta’riflagan.

Forobiy o‘z asarlarida davlatlarning vujudga kelishidagi siyosiy va geosiyosiy jihatlarini ochib bergan. U davlatlarni uchta: buyuk, o‘rta va kichik davlatlarga bo‘lgan. O‘z tarkibida ko‘p xalqlarni birlashtirgan va ularni oliy maqsadlarga yo‘naltirgan, tinchlik va farovonlikda yashagan davlatlarni u “Buyuk davlatlar” qatoriga kiritgan. Bir xalqni birlashtirgan mamlakatlarni u o‘rta, faqat bir shaharni boshqarganlarni bo‘lsa kichik davlatlar sirasiga oid deb bilgan. Ko‘ryapmizki, uning geosiyosiy davlat tushunchasi yuz yillardan keyin Yevropa maydonida yuzaga kelgan imperiyalar, oddiy davlatlar va polis deb atalgan shahar davlatlar tizimiga to‘la mosdir. Forobiy hukmronlik, muxtoriyat va qaramlik shaklidagi uchta davlat boshqaruvini va shunga muvofiq ravishda davlat boshqaruvining uchta sifatini ajratib ko‘rsatgan. Forobiyning ta’limotiga ko‘ra, davlat boshqaruvi tizimida “kollektiv shahar boshqaruvi” eng mukammal shakldir [6;23].

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari geosiyosiy ta’limotlarga xos fikrlar majmuasini tashkil etadi. Unda qudratli shaharni tashkil etish, ushbu shaharda kuchli intelektual salohiyatga ega aholini shakllantirish masalalariga e’tibor kenroq qaratilgan. Asarda shaharning va odamlarning fozilligi muhim deb e’tirof etiladi. Unda shahar fozil bo‘lgani bilan odamlarda bo‘lmasa, yoki odamlarda bo‘lib, shaharda bo‘lmasa bunday davlat o‘z qudratini doimiy saqlab qololmasligiga ishora qiladi.

Abu Rayhon Beruniy 973 yili 4-sentabrda Xorazmda, Amudaryoning o‘ng sohilidagi Kot shahri chekkasida tug‘ilgan. X asr oxirida Janubiy Xorazm viloyatining poytaxti hisoblangan Kot shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasining hozirgi Beruniy tumani o‘rnida bo‘lgan. U bir necha nom bilan yuritilgan: Xorazm, Fir qal’asi, Kos, Shobboz. Shahar teritoriyasi 4 km2 ni tashkil etgan. Keyinchalik daryo bu shaharning ko‘p qismini yuvib ketgan [7;47]. Beruniy o‘z zamonasining barcha fanlarini, birinchi navbatda falakkiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, madaniyatshunoslik, geografiya fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. “Berun” so‘zi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi [8;719]. Beruniy “Ma’mun akademiyasi” faoliyatida (1009-1017) katta xizmat qilgan. Xorazm 1017 yili Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniy boshqa olimlar qatorida G‘aznaga olib ketiladi. G‘aznadagi hayoti uning ilmiy ishlari uchun ancha mahsuldor bo‘ladi. Sulton Mahmudga hamroh sifatida Hindistonga boradi va keyinchalik tez-tez borib kelgan. Hindlarning tarixi, fani, tili va madaniyatini o‘rganib, “Hindiston” asarini yozgan. Beruniy 1048 yil 11-dekabrda G‘aznada vafot etgan [9;128].

Beruniy “Hindiston” (“Kitobi fi tahqiqi molil hind min maqola Maqbula fil aql au marzula” – “Hindlarga maxsus narsalarni tushuntirish kitobi”)ni 1020 yildan, 1030 [7;64] yilga qadar yozgan. Ba’zi manbalarda 1030-yil 30 aprelidan to 1031-yil 19-dekabrigacha o‘tgan vaqt ichida yozgan [10], deyiladi. Bu kitob “Hindiston tarixi” nomi bilan mashhur. Beruniy “Hindiston” (80 bobdan iborat) asarini juda og‘ir bir davrda yozdi. Bu vaqtda G‘aznaviylar va Saljuqiylar munosabatlari chigallashgan, O‘rta Osiyoning g‘arbini, Afg‘oniston va Hindistonning bir qismini birlashtirgan g‘aznaviylar imperiyasining qulash xavfi kuzatilayotgan davr edi. Mana shunday sharoitda olim ilmiy kuzatish ishlariga sho‘ng‘ib ketgan bo‘lsa, g‘alayonlar avjiga chiqqan bir paytda uni tugatishga urindi. “Bu hol o‘sha davr siyosiy voqealariga bog‘liq ekanligini anglash mumkin. O‘sha davrda Beruniy Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga yurishida hamroh bo‘lganligi unga sulton tomonidan hududlarni o‘rganish vazifasi topshirilgani ehtimolini ko‘rsatadi. Chunki Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga 17 marta yurish qilganligi tarixda

ma’lum. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Beruniy sulton Mahmud zulmiga bardosh beraolmay, G‘aznadan Xorazmga ketib qolgan. Mahmud vafotidan keyin, taxtga yangi sulton – Ma’sud o‘tirgach, yana G‘aznaga qaytib kelgan[7;53]ligi aytiladi. Beruniyning Hindiston geografiyasi, madaniyati, urf-odatlari etonografiyasini o‘rganishi shunchaki eksprement emas, g‘aznaviylarning Hindistonni doimiy nazoratiga olish uchun maxsus topshirig‘i bo‘lish mumkinligi ham nazardan chetda emas. Olimning “Hindiston” asarini yaratilishi nafaqat To‘ron va Hindiston ta’limotiga, balki butun dunyo fani rivojiga katta hissa qo‘sha oldi.

Beruniyning “Hindiston” asari sakson bobdan iborat bo‘lib, ularda qo‘yilgan masalalardan olimning naqadar mulohazasi a’lo, fikr doirasi keng ekanligini tasavvur qilish mumkin. Asarda, hindlarning tangri haqidagi tushunchalari, ularning aqliy va hissiy mavjud narsalar, jonning moddaga aloqasi haqidagi fikrlari, ruhlarning bir tanadan ikkinchisiga o‘tishi (tanosux) haqidagi qarashlari, mavjudotning jins va nomlari, bayramlar, da’volar, meros masalasi, qonun-qoidalar, jazolar, diniy hukmlar, but-sanamlarga ibodat qilishning boshlanishi va ularning yo‘sinlari, hindlar grammatikasi, she’r va boshqa sohalarga oid kitoblari, hind o‘lchovlari, xatlari, hisoblari kabi masalalar joy olgan [10].

“Hindiston” asarining geografiya fani uchun ham ahamiyati katta. Unda umumiy geografik ma’lumotlar (Yer to‘g‘risidagi tasavvurlar, quruqliklarning chegaralari, dengiz va quruqliklar, suv ko‘tarilishi va qaytishi, boshlang‘ich meridian tarixi) bilan birga, Hindiston tabiatining mufassal ta’rifi (tog‘lari, daryolari, shaharlari, qabilalari, hayvonati va hakozo), tom ma’nosi bilan Hindiston tabiiy va siyosiy geografiyasi bor. Undagi etnografik ma’lumotlar, din, falsafa, siyosat, urf-odatlar ta’rifi mufassal va haqiqiydir. Beruniyning fikriga ko‘ra, yer shar shaklida bo‘lib uning yarmi ma’lum (g‘arbiy yarim shar) va yarmi nom’alum (g‘arbiy yarim shar) bo‘lgan. Yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo‘lganligidan uning choragi ham quruqlik bo‘lishini taxmin qilgan. Beruniy u yerning yangi qit’a (Amerika) ekanligini XII asr boshidayoq bilgan. U asarida yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to‘g‘risida gapirib: “Yerning choragi ma’muradir. Ma’murani g‘arb va sharq tomonidan Muhit okeani (Atlantika va Tinch) o‘rab turibdi. Bu Muhit okeani yerning obod qismini, dengizlarning narigi tomonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan iboratligini aytadi. Beruniy bu kitobda asosan o‘zi ko‘rgan va aniqlaganlari haqida hikoya qilgan. Shaharlar joylashishini, uning diametrlarini aniq o‘lchab chiqqan. Masalan, Lohur qal’asining kengligi 340 10/ ekanini, bundan Kashmir qal’asigacha 56 mildir (bir mildir 1973,2 metr)ligi, uning yarmi tepalik va yarmi tekis dalalardan iboratligi keltiriladi. Shuningdek, G‘azna, Qobul, Gandiamir, Dunpur, Lamg‘on, Pirshavur, Vayhand, Jaylam, Nandna, Mo‘lton, Siyolqut, Mandakkapur kabi shahar va qal’alarning joylashuvi, kengligi, masofasi haqida aniq ma’lumotlar yozib qoldirgan. Undan tashqari, bu kitob Hindlarning shaharlari, mamlakat chegaralari va ularning boshqa o‘lkalar orasidagi masofalari, yer va osmon to‘g‘risida, hamda ularning diniy kitoblaridagi tushunchalar haqida qimmatbaho manba xizmatini o‘taydi. Asar har bir masala ustida o‘sha davr fani, ma’rifati yo‘l bergan darajada fikr-mulohazalarni qamrab olgan. Unda Hind daryolari, ularning boshlanadigan va quyiladigan joylari, turli-tuman yo‘llar, Hind olimlari e’tiqodicha, dunyoda odam yashaydigan yer qismlari, muddat, vaqt haqidagi tushunchalar, kecha va kunduz, kunning kichik bo‘laklari, eralar, oy va yillarning bo‘laklari, oy manzillari, yetti qaroqchi yulduzlar haqidagi fikrlari, yoritgichlar, ularning bir-biridan uzoqligi va kattaligi, dengiz suvlarining ko‘tarilishi va pasayishi, quyosh va oy tutilishi kabi masalalarga to‘xtalgan. Beruniy bu ko‘rsatilgan masalalarning har birini o‘rganib, ular haqida obyektiv fikr yuritgan.

“Hindiston” asarida geografik, etnografik, ijtiomiy, madaniy munosabatlar aks etsada uning asosiy harakat doirasida geosiyosiy nazariyalar yotadi. Davlatlar chegaralari, shaharlar orasidagi masofalar, daryolar, dengizlar, okeanlar, tog‘lar, tepalik va tekistliklar, xalqlarning yashash sharoitlari, shahar-qal’alarning joylashuvi haqidagi bilimlar, siyosiy xaritani aks ettirib, geosiyosiy harakatlarni amalga oshirishda qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Undagi asosiy tahlillar geostrategik ta’limotlardir. 1888 yili Londonda “Hindiston” asari arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan [7;64]. Inglizlarning Hindistonni bosib olishida ushbu asar geosiyosiy yo‘riqnoma sifatida qo‘llanilganligi ehtimoldan holi emas. Bundan ko‘rinadiki, Beruniy geografik, etnografik va ijtimoiy-madaniy bilimlarni geosiyosiy nazariyalar asosida uyg‘unlashtirgan. Beruniyning “Hindiston” asari geosiyosiy ta’limotlarni rivojlanishida muhim manba sifatida xizmat qiladi va o‘ziga xos nazariyaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar. Abu Nosir Forobiyning “Fozil odamlar shahri” va Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarlari falsafiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy, geografik va boshqa fanlarga mansubligidan tashqari geosiyosiy ma’lumotlar va bilimlarni o‘zida mujjasamlashtirgan manba deb bilish o‘rinlidir. Ikkala asarni ham qayta o‘rganib, undagi fikrlarni qiyosiy tahlil qilib, keng jamoatchilikka taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra: birinchidan, Abu Nosir Forobiyning “Fozil odamlar shahri” va Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarlaridagi geosiyosiy nazariyalarni alohida o‘rganishni tashkil etish; ikkinchidan, “Fozil odamlar shahri” va “Hindiston” asarlarini tarjima terajlarini ko‘paytirish; uchinchidan, “Fozil odamlar shahri” va “Hindiston” asarlaridagi geosiyosiy nazariyalarni talqin qiluvchi respublika va xalqaro konferensiyalarni joriy qilish; to‘rtinchidan, ushbu asarlarni umumiy mohiyatini barcha ta’lim muassasalari darsliklariga kiritishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. –T.: “Akademiya”, 2011.
2. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. –T.: “Universitet”, 2009.
3. SHermuxammedova N.A. Falsafa. O‘quv-uslubiy majmua –T.: “Noshir”, 2011.
4. Odilqoriyev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: 2008. 344 b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN, T.: 2012. 160 b.
6. Hasanov A. Geosiyosat. -T.: “Tamaddun”, 2016. 538 b.
7. Hasanov H. Sayyoh olimlar. -T.: “O‘zbekiston”, 1981. 262 b.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. -T.: 2000. –B.719. (736 b)
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. -T.: “Sharq” MAKBT, 2005. 384 b.
10. Abdurazzaqov A. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari haqida. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-25

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 378: 327.

Alisher RAVSHANOV,
“TIQXMMI” MTU katta o‘qituvchisi, f.f.n
E-mail: ravshanov.alisher83@mail.ru

s.f.d (DSc) M. Musayev taqrizi ostida

SUCCESSFUL FOREIGN EXPERIENCE IN THE FIELD OF EDUCATION IN PERSONNEL TRAINING POLICY (COMPARATIVE ANALYSIS)

Annotation

In this article, the improvement of personnel training policy at the current new stage of Uzbekistan's development, the creative and constructive aspects of international and national experience in this regard were analytically described. At the same time, in today's era of globalization, the process of modern personnel training, its specific features are revealed from a socio-political point of view.

Key words: personnel, education, knowledge, reform, modern, student, system, study, socio-economic, improvement, university, research.

УСПЕШНЫЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОЛИТИКЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ)

Аннотация

В данной статье аналитически описаны совершенствование политики подготовки кадров на современном новом этапе развития Узбекистана, творческие и конструктивные аспекты международного и отечественного опыта в этом отношении. В то же время в сегодняшнюю эпоху глобализации процесс подготовки современных кадров, его специфические особенности раскрываются с социально-политической точки зрения.

Ключевые слова: кадры, образование, знания, реформа, современный, студент, система, учеба, социально-экономическая, совершенствование, вуз, исследование.

KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATIDA TA’LIM SOHASIDAGI MUVAFFAQIYATLI XORIJ TAJRIBASI (QIYOSIY TAHLIL)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida kadrlar tayyorlash siyosatining takomillashuvi, bu borada xalqaro va milliy tajribaning kreativ, konstruktiv jihatlari tahliliy bayon etildi. Shu bilan birga, bugungi globallashuv davrida zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayoni, uning o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar, ta’lim, bilim, islohat, zamonaviy, talaba, tizim, o’qish, ijtimoiy-iqtisodiy, takomillashtirish, universitet, tadqiqot.

Kirish. Globallashayotgan zamon mutaxassis kadrlar oldiga yangicha yondashuv va talablarni qo‘ymoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev kadrlar tayyorlash siyosati haqida, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar tub negizi haqida so‘z bildirar ekan, u “Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir. Yangi fikr va yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi”[1], deb ta’kidlagani oldimizga bu soha rivoji uchun muhim vazifalarni qo‘ydi.

Bugungi globallashuv sharoitida intelektual, salohiyatli, zamonaviy kadrlarni tanlash, boshqaruv va ishlab chiqarish tizimida texnik va texnologik yangilanish dasturlarini izchil tarzda tadbiq etish imkonini bermoqda.

Bu borada biz o‘rganishimiz mumkin bo‘lgan Yevropa Ittifoqi, ta’lim sohasini doimiy ravishda takomillashtirishni muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Oliy ta’lim muassasalari Yevropa Ittifoqining oldinga siljish va barqaror o‘sishni ta’minlash strategiyasini amalga oshirishda muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi “Erasmus+” dasturlari orqali talabalar, ilmiy xodimlar va tadqiqotchilar uchun xalqaro almashinuvni hamda turli mamlakatlardagi oliy o‘quv yurtlari va davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi tizimli hamkorlikni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Uning asosiy maqsadi oliy ma’lumotli kadrlarning davlatlar bo‘ylab bir-birlaridan o‘rganishlari uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirish, yaxshi o‘qitish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va yangi innovatsiyalarni yaratish va targ‘ib qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalarda birgalikda ishlashni maqsad qilib olgan.

Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “Ta’lim va o‘qitish” strategiyasiga muvofiq oliy ta’lim siyosatini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun siyosatchilar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Komissiya tomonidan qabul qilingan Yevropa Ittifoqining oliy ta’lim bo‘yicha yangilangan kun tartibida Yevropa oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikning to‘rtta asosiy maqsadi aniqlandi:

- kelajakdagi ko‘nikmalarning mos kelmasligi bilan kurashish va qobiliyatlarni rivojlantirishning mukammalligini oshirish;
- inklyuziv va bog‘langan oliy ta’lim tizimlarini qurish;
- oliy ta’lim muassasalarining innovatsiyalarga hissa qo‘shishini ta’minlash;
- samara va samarali oliy ta’lim tizimlarini qo‘llab-quvvatlash[2].

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan sanaladi. Bu muammoni doimiy hal qilib borish kadrlar tayyorlash jarayoniga o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha usullarini kiritish, talabalarning zamonaviy, yetuk kadrlar sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun ularga sifatli ta’lim berish, ularni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun hayotiy tajriba va ko‘nikmalarni ham berib borish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan aksariyat talabalarning bilim olishga bo‘lgan layoqati nima uchun past. Bu ko‘proq oliy ta’lim muassasalaridagi abituriyentlar qabuli bilan bog‘liq edi. Ularda mavjud qabul jarayoni tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, ayrim mansabdor shaxslarning o‘z mansab-lavozimlarini suiiste’mol qilishlari, korrupsiya bilan bog‘liq tizim haqiqiy bilim va iqtidorga ega yoshlarni tanlab olishga yo‘l qo‘ymay kelayotgan edi. Oqibatda bilimli va iqtidorli yoshlar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kira olmasligi, egri yo‘llar bilan o‘qishga kirgan talabalar esa bilim emas, diplom olishga ko‘proq qiziqishlari kuzatib kelindi. Bunday holatlar, oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘zi bo‘larchilik, loqaydlik, poraxo‘rlik kabi illatlarning keng tarqalishiga olib keldi. Bu salbiy holatlarga 2018/2019 yil qabulida chek qo‘yildi.

Prezidentimizning 2018 yildagi PQ-3775-sonli qarorining ijrosini ta’minlash yuzasidan Davlat test markazi tomonidan bu jabhada ayrim ijobiy ishlar amalga oshirildi, masalan, bir qancha xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganildi, testlar bazasi qaytadan ko‘rib chiqildi, testlar oliy ta’lim muassasalaridan tashqarida, ularga qarashli bo‘lmagan binolarda 15 kun davomida o‘tkaziladigan, ularning natijalari esa test o‘tkazilgan kundan ko‘p o‘tmay e’lon qilinishi yo‘lga qo‘yildi.

Lekin test sinovlari juda to‘g‘ri, odilona o‘tgan taqdirda ham oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun belgilangan imtihonlarni test savollari asosida o‘tkazilishi juda ko‘p vaziyatlarda abituriyentning mantiqiy fikrlashi, mulohaza qilishini aniqlash imkonini bera olmaydi. Chunki testlarda, asosan, sanalarga oid savollar ko‘p, testlarni yechishda mantiqiy fikrlashlari emas, balki ko‘proq xotirasining kuchli ekanligi bilan bog‘liq bo‘layotganligi iste’dodli abituriyentlarni oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda ko‘plab muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Bu muammolarga yechim topishning eng samarali yo‘llaridan biri kirish imtihonlarini og‘zaki tarzda yoki insho yozish bilan belgilash lozim. Chunki insho yozayotgan abituriyent, albatta, kitob o‘qigan bo‘lishi kerakligi, savodxonligi ham yuqori darajada bo‘lishini barchamiz yaxshi bilamiz. Yaqin o‘tmishimizda katta avlodlarimizni oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun qanday mavzuda insho yozganliklarini yodga oladigan bo‘lsak buni samarsini tushunib yetamiz. Kirish imtihonlariga insho yozishni olib tashlashganidan keyin, hammamizga ma’lum, boshqa tamonlarini gapirmasa ham bo‘ladi, o‘z familiyasini xato yozadigan avlod paydo bo‘ldi.

Masalan, Rossiya davlatida bugungi kunda aholining bilim darajasini oshirish maqsadida deyarli barcha oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun yagona davlat imtixonlarida insho yozish qonun bilan muhrlab qo‘yilgan[3]. Bundan tashqari, Rossiya davlatida ancha yillardan buyon mamlakat bo‘yicha yagona diktant kuni mavjud bo‘lib, bu kuni talabadan tortib rahbarlargacha diktant yozishadi.

Bu usul AQSHda ham joriy qilingan bo‘lib, maktab o‘quvchilari, bitiruv imtihonlarida ijodiy insholar yozishadi. AQSHning har bir shtatida insho yozib sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va turli xil mukofotlar bilan taqdirlanadi.[4]. Tadqiqotlardan shu narsa ma’lum bo‘lganki, badiiy asar o‘qigan inson hayotda ham boshqalarning his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini yaxshi tushunar ekan. Amerikaning Atlanta shahri Djordjiya shtatida joylashgan, 1836 yilda tashkil topgan Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha oy davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi[5]. Tadqiqot olib borgan mutaxassislar kitob o‘qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishini ta’kidlaganlar. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, o‘qish qobiliyatlari past bo‘lgan kattalarning 43% qashshoqlikda yashaydi. Savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan insonlar orasida bu ko‘rsatkich atigi 4%ni tashkil etadi[6]. Shu narsa aniqlanishicha, kitob o‘qishni yaxshi ko‘radigan talabalar institutlarda ham yaxshi o‘qishadi. Ular barcha fanlarni boshqalarga nisbatan yaxshiroq o‘zlashtirishadi. Demak, kitob talabalarimizni doimiy hamrohi bo‘lishi kerak. Insho yozish esa, talabalarimizni kitob mutolaa qilishga, natijada esa bu kadrlarimizning ilmini, salohiyatini, madaniyatini, ma’naviyatini xullas har tomonlama rivojlanishini ta’minlab beradi.

Bizningcha, malakali kadrlar tayyorlashni yana-da takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ta’limga sarflanayotgan davlat mablag‘lari ulushini asta-sekin kamaytirib borish, bu borada faol siyosatdan nofaol siyosatga o‘tib, moliyalashtirishni korxona va tashkilotlar zimmasiga yuklash, ular mablag‘ini ta’limga yo‘naltirishni tashkil etishni amalga oshirish. Davlat tomonidan faqat byudjet sohalarida kadrlar tayyorlashni moliyalashtirishni saqlab qolish kerak.

Shuningdek, ta’lim sohasidagi pedagog xodimlar mehnat haqini yana-da takomillashtirish, bu sohada byudjetdan tashqari mablag‘larni yo‘naltirish asosida moddiy rag‘batlantirishni yaxshilash lozim. Ta’limda chet el investitsiyalarini kirib kelishi yoki xususiy ta’lim sohasini asta-sekin joriy etish asosida ta’lim bozorida raqobatni kuchaytirish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari korxona va tashkilotlarning intellektual mulki hisoblanadi. Hozirda korxona va tashkilotlar professor-o‘qituvchilarning bilim va tajribasi, ilmiy-pedagogik salohiyati, maslahatchilik va kasbiy qayta tayyorlash xizmatlaridan va shu bilan birga bitiruvchi talabalarning yuqori salohiyatga ega bo‘lgan iste’dodlilaridan foydalanish hamda ularni ishga jalb qilish borasida tizimli yondashuv yetishmayapti. Ya’ni, oliy ta’lim muassasalari o‘z yo‘liga, korxona va tashkilotlar o‘z yo‘liga degan tamoyil asosida harakat olib borilmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasaslarida uzoq yillar davomida yig‘ilgan juda boy kasbiy bilim, malaka, ko‘nikmalar, asosan, oliy ta’lim muassasasidan tashqariga chiqmayapti.

lmiy kadrlar tayyorlash tizimi mustaqillik yillarida bir necha bora tubdan isloh qilinishiga qaramasdan, olinayotgan natijalar qoniqarli emas. “...uzluksiz ta’lim tizimini yana-da takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish...”[7] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xorijiy innovatsion uslublarni qo‘llagan holda zamonaviy talablarga mos kadrlarni tayyorlashni jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan: Fransiya va fransuz oliy ta’lim tizmini qo‘llaydigan universitetlarda “qisqa” (Les formations coutes) va “uzun” (Les formations longes) ta’lim sikllari mavjud. “Qisqa” sikl ikki yil davom etadi va yakunida universitetning texnologik diplomi (Diplome universitaire de technologie – DUT) yoki oliy texnik ta’lim diplomi (Diplome d‘etudes universitaires scientifiques et techniques – DEUST) beriladi. Bu bosqichdan o‘tilganidan so‘ng talaba xoxlasa qo‘shimcha mutaxassislikda o‘qishni davom ettirishi mumkin va ushbu diplom egalariga kasbiy litsenziya (Licence professionelle)

yoki milliy ixtisoslashtirilgan texnologik diplom (DNTS) beriladi. Talaba “uzun” ta’lim sikliga o‘tishi mumkin[8].

Fransiyada “uzun” ta’lim sikli 3 bosqichdan iborat va har biri alohida diplom olish bilan yakunlanadi.

Birinchi ikki yillik sikl bazaviy tayyorlovdan iborat bo‘lib, universitet umumiy ta’limi diplomi (DEUG) bilan yakunlanadi va bu diplom mehnat bozorida qiymatga ega emas.

Ikkinchi sikl davomida oldingi olingan bilimlar mustahkamlanadi va chuqur o‘zlashtiriladi hamda 1 yillik ta’limdan so‘ng talaba litsensiat diplomini (licence) oladi, yana bir yildan so‘ng Master 1-mutaxassis diplomiga ega bo‘ladi.

Uchinchi sikldagi ta’lim mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va ilmiy tadqiqot olib borishga qaratilgan. Davomiyligi bir-ikki yilni tashkil etadi. Natijalarga asosan, tadqiqot ishlarini chuqur o‘zlashtirgan talabaga Master 2 Recherche magistr diplomi yoki Master 2 Professionnel ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim magistri diplomi beriladi.

So‘ngra keyingi uch-to‘rt yil doktorontura ta’limi olinadi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va doktorlik darajasini olish uchun dissertatsiya yoziladi. Ilmiy tadqiqot natijalari laboratoriya hisobotlarida eks ettirilishi shart, laboratoriya hisobotlari asosida tajribalar natijalarini yoritgan holda ilmiy maqolalar tayyorlanadi, himoya qilish uchun chop etilgan ilmiy ishlar miqdoriga talab o‘rnatilmagan.

Bugungi kunda ta’lim iqtisodiy hamda ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy hal qiluvchi omili hisoblanishini hammamiz yaxshi bilamiz. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotganligidan ham tushunish mumkin. Masalan, ta’limga katta sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri bu Singapur davlatidir.

2015 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – “OECD” (Organisation for Economic Co-operation and Development) Singapurni dunyodagi eng yaxshi ta’lim tizimiga ega, deb baholagan edi. Singapur o‘quvchilari fanlarni, ayniqsa matematikani yaxshi bilishadi. Ingliz tilida o‘rtacha 15 yoshli Singapurlik o‘quvchi g‘arbiy mamlakatlar talabalaridan 10 oy oldinda va matematikadan 20 oy oldinda.

Singapurda ta’lim sohasini muvafaqiyatga erishishi, juda yaxshi bo‘lishining asosiy sabablaridan biri bu shunchaki, Singapur madaniyatidir.

Singapurda ota-onalar farzandining ta’lim-tarbiyasida asosiy hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayrim talabalar tabiiy ravishda boshqalarga nisbatan aqlliroq ekanligini e’tirof etadigan “iste’dodlar afsonasi” Singapurda mavjud emas. Mahalliy “The Straits” gazetasining xabar berishicha, ota-onalarning 70 foizidan ortig‘i farzandlarini odatdagi dars vaqtidan tashqari qo‘shimcha darslarga yozib qo‘yishadi. Mahalliy kitob do‘konlarida do‘konning yarmidan ko‘pi o‘quv materiallariga bag‘ishlangan.

Singapur ta’lim tizimi ko‘p jihatdan Yevropa ta’lim tizimidan ustun turadi. Bu, asosan, mamlakat madaniyati va birinchi darajali ta’lim rahbariyati bilan bog‘liq. Singapur ta’lim sohasida boshqa davlatlarga o‘rgatish uchun juda ko‘plab tajribalar mavjud. Agar boshqa davlatlar Singapurning ta’lim sohasidagi tajribalarini, strategiyalarini qabul qilsalar, butun dunyoda ta’lim yaxshilanishi shu bilan birga yetuk kadrlar shakllanishi aniq edi[9].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonida 2030 yilgacha erishilishi rejalashtirilayotgan 70 dan ziyod maqsadli ko‘rsatkichlar ichida, bitiruvchilarni oliy ta’limga qamrab olishni 50 foizga oshirish[10] masalasini qo‘yganlar.

Barcha mamlakatlarda ta’lim tizimiga xos bo‘lgan yondashuvlar mavjud, ammo mukammal deb nomlanadigan ta’lim tizimini topib bo‘lmaydi. Biroq, muvaffaqiyatli ta’lim tizimining kaliti nima degan savol, zamonaviy jamiyatda munozara obyekti hisoblanadi, shuning uchun ushbu masalaga javob topish uchun ushbu muammoni tahlil qilish muhim. Avvalo, bu borada ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab omillar mavjudligini hisobga olish kerak, shuning uchun ta’lim tizimini muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib keladigan yagona kalitni aniqlash qiyin. Ushbu taxlilda biz ta’lim tizimi uchun muhim bo‘lgan omillar ro‘yxatini topganmiz va ushbu omillarni hisobga olgan holda muvaffaqiyatli ta’lim tizimining kalitini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

Professional o‘qituvchilar muvaffaqiyat kaliti ekanligini hech qachon unutmasligimiz zarur. O‘quv jarayoni har doim professor-o‘qituvchilar uni qanday qurishi bilan belgilanadi, shuning uchun o‘qituvchilarning malakasi yuqori darajada ekanligiga ishonch hosil qilish juda muhimdir. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahorat darajasi nafaqat ularning bilimlari, balki talabalar bilan qanday tartibda faoliyat olib borishi hamda ularni har tomonlama tushunishga bo‘lgan ishtiyoqlari bilan ham aniqlanadi. Auditoriyadagi qulay muhit kaliti professor-o‘qituvchining talabalar bilan qanday tartibda muloqot qilish qobiliyatidir, talabalarga bo‘lgan ijobiy yondashuvni topish va ularga o‘zlarining ijodkorligi va iste’dodlarini turli xil yo‘llar bilan ko‘rsata olish qobiliyati asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimidagi tenglik psixologik qulaylik omili sifatida juda muhim tushuncha hisoblanadi. Ta’limdagi tenglik ko‘plab mamlakatlar uchun muammo hisoblanadi, shuning uchun tizimni yaxshiroq qilish uchun barcha e’tiborni ushbu masalaga yo‘naltirish muhimdir. Kam ta’minlangan oilalar farzandlari yuqori daromadli oilalar farzandlari bilan bir xil imkoniyatlarga ega emaslar, chunki ular xususiy maktablar, xususiy universitetlar, qo‘shimcha kurslardan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Ularda universitetga kirish imkoniyati past, chunki ularda pul yo‘q, shuningdek, ilmiy darajalari tufayli ular stipendiya ololmaydilar, shuning uchun ular o‘zlarining kelajagi talab qilinadigan ish bilan cheklanganligini allaqachon bilganliklari sababli qattiq ishlashga unday olmaydilar. Oliy ma’lumot yo‘q. Kam daromadli abituriyentlarga yaxshi universitetlarga kirish uchun ko‘proq imkoniyat yaratish va ularning daromadlari, irqlari va jinslariga qaramay, barchaga teng munosabatni namoyish etish orqali ilhom berish imkoniyati juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini takomillashtirish uchun barcha oliy ta’lim dargohlarida talabalar uchun qulay sharoitni yaratish zarur. Talabalarga hech qanday bosim o‘tkazmaydigan, imtihonlardan kamroq stressni boshdan kechiradigan va kelib chiqishiga qaramay o‘zlarini erkin his qiladigan joyni yaratish muhimdir. Muvaffaqiyatli ta’lim tizimi psixologik qulaylik va tenglikka asoslangan bo‘lishi kerak. Talabalar professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonida qiziqarli o‘quv jarayoni va interfaol vositalar yordamida samarali ishlashga ilhomlantirilishi kerak. Shuningdek, professor-o‘qituvchilar ta’lim tizimining muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga ega bo‘lishlarini inobatga oladigan bo‘lsak, ular barcha talabalarga o‘quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf qilishda, o‘z kasblariga sodiq ekanliklariga va har bir talabaga individual yondashishga qodir ekanliklariga ishonch hosil qilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Manba: Prezident Shavkat Mirziyoyevni O‘zbekiston Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashivudagi nutqi. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyeev-ilm-fan-namoyandalari-bilan-mulo-ot-ildi-24-05-2019.
2. An official website of the European Union. https://ec.europa.eu/education/policies/higher-education/about-higher-education-policy_en
3. Rossiyskoye Obrazovaniye Federalniy Portal. http://www.edu.ru/abitur/act.55/index.php
4. GSA. Gradstudyabroad. https://gradstudyabroad.ru/educational-resources/motivation-essay-to-american-university
5. Website. Emory University. https://www.emory.edu/home/explore/emory-profile/about-emory.html
6. «Natsionalnaya biblioteka Respubliki Buryatiya» http://nbrb.ru/?p=10086
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
8. https://www.ouzbekistan.campusfrance.org/diplomy
9. System of Education in Singapore. https://in-singapore.education/why-singapores-school-system-is-so-successful/
10. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘K: 379.8

Nargiza RAJABOVA,
Bosh ilmiy metodik markaz mustaqil izlanuvchisi
E-mail: m.ergasheva63@mail.ru

A.Avloniy nomidagi MTI, dots. PhD E.Alkarov taqrizi asosida

MATHEMATICAL MODELING OF FACTORS AFFECTING THE MANAGEMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION

Annotation

Has become an effective mechanism for the mathematical modeling of economic, social, production processes, improvement of management and economic forms. By translating economic social and managerial tasks into a mathematical language, the solution of the problem becomes of urgent importance. Methods of mathematical modeling of educational quality management processes, in the formation of social and adaptive qualities of educational quality management, give a certain number of solutions to improving its quality.

Key words: Management, education, quality, mathematical modeling, efficiency, educational foundation, book, computer, scientific potential.

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Математическое моделирование экономических, социальных и производственных процессов стало действенным механизмом совершенствования управленческих и хозяйственных форм. Решение проблемы путем перевода экономических, социальных и управленческих задач на математический язык является актуальным. Методы математического моделирования процессов управления качеством образования дают определенные решения по формированию социальных и гибких качеств управления качеством образования и повышению его качества.

Ключевые слова: Управление, образование, качество, математическое моделирование, эффективность, учебный фонд, книга, компьютер, научный потенциал.

TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Annotatsiya

Iqtisodiy, ijtimoiy, ishlab chiqarish jarayonlarni matematik modellashtirish, boshqaruv va xo‘jalik shakllarini takomillashtirishning samarali mexanizmiga aylandi. Iqtisodiy ijtimoiy va boshqaruv vazifalarini matematik tilga tarjima qilish orqali muammoni yechish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini boshqarish jarayonlarini matematik modellashtirish usullari, ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy va moslashuvchanlik fazilatlarini shakllantirishda, uning sifatini oshirishga muayyan bir yechimlarni beradi.

Kalit so‘zlar: Boshqarish, ta’lim, sifat, matematik modellashtirish, samaradorlik, o‘quv fondi, kitob, kompьyuter, ilmiy salohiyat.

Kirish. Shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda ijtimoiy, ishlab chiqarish jarayonlarni matematik modellashtirish, boshqaruv va xo‘jalik shakllarini takomillashtirishning samarali mexanizmiga aylandi. Ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv vazifalarini matematik tilga tarjima qilish orqali, zamonaviy menejer matematik nazariyalarning katta imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, matematik modellashtirish usullari kelajakdagi menejerlar va mutaxassislarning ijtimoiy va moslashuvchan fazilatlarini shakllantirishda kuchli salohiyatga ega bo‘ladi[2].

Oliy ta’lim sifatining, asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan, qizil diplomga ega talabalar va turli nomdor stipendiatlar, bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish, ta’lim sifatini boshqarish, uning sifatini oshirish haqida muayyan bir yechimlarni berishga yordam beradi.

Quyida, (1-jadval) oliygohlarda turli yo‘nalishlar mutaxassisliklari bo‘yicha, talabalarining qizil diplomga ega va nomdor stipendiatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirilgan:

Oliy ta’lim muassasalari bo’yicha nomdor stipendiatlar va qizil diplomga ega talabalar, %da

1- jadval

Йиллар	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
ТТЕСИ*	9	11	12	9	11	14	12	19	16	17
БухМТИ**	19	21	29	30	41	51	47	66	64	87
ГулДУ***	21	26	29	36	32	37	46	19	52	64

* TTYSI statistic ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
** BuxMTI statistic ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
*** GulDU statistic ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu ma’lumotlarni quyidagi formula orqali bir jinslilikka tekshiramiz: talabalarning nomdor stipendiat va qizil diplomlar bo‘yicha ulushlarini qi (i =1,2,3,4,5....10) orqali belgilaymiz. Ma’lumotlarni bir jinslilikka tekshirishda Fisher kriteriysidan foydalanamiz:

$F = \frac{\sigma_{\text{К}}^2}{\sigma_k^2}$

bu yerda $\sigma_{\text{К}}^2$ – katta dispersiya, $\sigma_{\text{к}}^2$ – kichik dispersiya.

Belgilangan oliygohlar bo‘yicha tanlanma dispersiyalarini hisoblaymiz, buning uchun avval har bir tanlanmaning o‘rta qiymatlarini topamiz:

1). Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat iqtisodiyoti:

$$b = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} b_i = \frac{1}{10}(0{,}5 + 0{,}5 + 0{,}6 + 0{,}3 + 0{,}3 + 0{,}3 + 0{,}3 + 0{,}4 + 0{,}3 + 0{,}3 + 0{,}3) = \frac{1}{10} \cdot 100 = 0{,}41 \approx 0{,}4$$

2). Buxoro muhandislik texnologiya instituti:

$$b = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} b_i = \frac{1}{10}(0{,}3 + 0{,}6 + 0{,}6 + 0{,}5 + 0{,}5 + 0{,}7 + 0{,}5 + 0{,}6 + 0{,}5 + 0{,}6) = \frac{1}{10} \cdot 100 = 0{,}49 \approx 0{,}5$$

3) Guliston Davlat universiteti:

$$b = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} b_i = \frac{1}{10}(0{,}5 + 0{,}6 + 0{,}5 + 0{,}4 + 0{,}4 + 0{,}3 + 0{,}4 + 0{,}1 + 0{,}3 + 0{,}4) = \frac{1}{10} \cdot 100 = 0{,}39 \approx 0{,}4$$

Demak, qizil diplomga ega talabalar 2013-2022 yillar bo‘yicha Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining o‘rtacha ko‘rsatkich 0,41%≈0,4 ni, Buxoro muhandislik-texnologik instituti ko‘rsatkichlari 0,49%≈0,5 ni, Guliston Davlat universiteti o‘rtacha ko‘rsatkichlari 0,39%≈0,4 ni tashkil etgan.

Ular orasidagi, bog‘lanishning ko‘rinishini aniqlash uchun, (x, y) tasodifiy vektorining korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz. Korrelyatsiya koeffitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$r_{x,y} = \frac{xy - x \cdot y}{\sqrt{S_x^2 \cdot S_y^2}}$$

Bu yerda, $x = \frac{1}{n}\sum_{in}^{n} x, y = \frac{1}{n}\sum_{in}^{n} y,\ xy = \frac{1}{n}\sum_{in}^{n} xy$ ▪ mos ravishda (x1, x2, x3, x4, x5,..... x10), (y1, y2, y3, y4, y5,..... y10), ва (x1 y1, x2 y2, x3 y3, x4 y4, x5y5,..... x10, y10) tanlanmalar o‘rta qiymatlari.

Oliy ta’lim sifatini matematik modellashtirish, ta’lim sifatini boshqarishdagi muammolarni yuqorida darajada ko‘rsatib berish imkoniyatiga ega bo‘lib, ushbu modellashtirish, turli omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, bu orqali ekan, aniq yechimlarni qabul, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Ta’lim sifatini belgilab beradigan ko‘rsatkich, ya’ni qizil diplom olgan talabalar soni, foizi oshishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tahlil qilish natijalari (2 –jadval), shuni ko‘rsatmoqdaki, moddiy-texnik ta’minot omillaridan, eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida talabalarning kitoblar bilan ta’minlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi texnik omillarning bog‘liqligi.

2-jadval.

	Stipendiat	Qizil diplom	O‘quv fondi	Kompyuterlar soni	Kitoblar soni
stipendiat	1				
Qizil diplom	0,535	1			
O‘quv fondi	0,723	0,861	1		
Kompyuterlar soni	0,686	0,844	0,918	1	
Kitoblar soni	0,727	0,867	0,928	0,994	1

Talabalar safida qizil diplom olganlarga eng kam ta’sirga ega omil, bu o‘quv fondi (0,861), eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil esa bu talabalarning kitob bilan ta’minlanganlik (0,994) darajasidir.

Talabalar safida qizil diplom olishi, ya’ni ta’lim sifatining ta’minlanishida katta bog‘liqlik, har bir professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, shuningdek, har bir ilmiy-darajali professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keladigan talabalar soni bilan bog‘liq (3-jadval)

Ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi inson omilining bog‘liqligi.

3-jadval.

	stipendiat	Qizil diplom	Prof.O‘qituvchilar soni	Ilmiy darajalilar soni
stipendiat	1			
Qizil diplom	0,535	1		
Prof.O‘qituvchilar soni	0,746	0,867	1	
Илмий даражали, сони	0,757	0,876	0,998	1

Ta’lim sifatini oshishiga inson omilining eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichi, bu har bir ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar soniga to‘g‘ri keluvchi talabalar soniga to‘g‘ri (0,998) keladi. Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu ko‘rsatkichlar, bog‘liqliklarni hisobga olgan holda moddellashtirish natijalarini quyidagi chizmalarda aks ettiramiz.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi grafikni hosil qilamiz:



1-grafik. Ta’lim sifati va o‘quv fondi
bogliqligi regressiyasi

a) bu yerda, o‘quv fondining qizil diplomga ega talabalar soniga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi (0,723) tashkil etadi.



2-grafik. Ta’lim sifati va kompyuterlar soni o‘rtasidagi
bog‘liqligi regressiyasi

b) bu yerda, kompyuterlar sonining, qizil diplomga ega talabalar sonining, ta’lim sifatiga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi (0,782) tashkil etadi.



3- grafik. Ta’lim sifati va kitoblar soni o‘rtasidagi
bog‘liqligi regressiyasi

v) bu yerda, kitoblar sonining, qizil diplomga ega talabalar sonining, ta’lim sifatiga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi (0,836) tashkil etdi.



4-grafik. Professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keluvchi talabalar soni o‘rtasidagi bog‘liqligi regressiyasi

g) bu yerda, har bir professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar sonining, qizil diplomga ega talabalar soni, ta’lim sifatiga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi (0,845) tashkil etdi.



5- grafik. Imiy darajali professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keluvchi talabalar soni o‘rtasidagi bog‘liqligi regressiyasi

d) bu yerda, ilmiy darajali professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keluvchi talabalar soni o‘rtasidagi, qizil diplomga ega talabalar sonining, ta’lim sifatiga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi (0,865) tashkil etdi.

Regressiya tenglamasiga ko‘ra, quyidagicha hulosa qilish mumkin:

1) Talabalarga nisbatan kitoblar soning ortishi (0,826), ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.

2) Har bir ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar sonining talabalarga soniga nisbatan ortishi (ya’ni 0,865), ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.

Ta’lim sifatini matematik modellashtirish natijalari, shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim sifatini boshqarishda, inson omili, ya’ni professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatiga bog‘liqligi juda yuqori. Shundan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini boshqarishda moddiy-texnik ta’minotning o‘rnini kamaytirmagan holda, asosiy urg‘uni oliygohlarda professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratish kerakligini zarur hisoblaymiz.

Xulosa. 1. Ishlab chiqarish, shu jumladan ta’lim jarayonlarini matematik modellashtirish, boshqaruv va xo‘jalik shakllarini takomillashtirishning samarali mexanizmi sifatida, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv vazifalarini matematik tilga tarjima qilish orqali, ta’lim sifatini boshqarishda to‘g‘ri, aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday holat, oliy ta’lim sifatini oshirishda kam resurslar sarflab, katta samaradorlikka erishish salohiyatini kuchaytiradi.

2. Oliy ta’lim sifatining, asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan, qizil diplom va turli nomdor stipendiyaga ega talabalar soniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv fondining qizil diplom va nomdor stipendiyalarga ega talabalar soniga bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi 0,723ni tashkil etadi, компьуterlar sonining bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi 0,782ni tashkil etadi, kitob fondining bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi 0,836ni tashkil etadi, har bir professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar sonining bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi 0,845ni tashkil etadi, ilmiy darajali professor-o‘qituvchilarga to‘g‘ri keluvchi talabalar sonining bog‘liqligi regressiyasi ko‘rsatkichi 0,865ni tashkil etdi.

3. Keltirilgan 3 ta oliygohda ham, ta’lim sifatini matematik modellashtirish natijalari, ta’lim sifatini boshqarishda, inson omili, ya’ni professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatiga bog‘liqligi juda yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini boshqarishda moddiy-texnik ta’minotning o‘rnini kamaytirmagan holda, asosiy urg‘uni oliygohlarda professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratish zarur hisoblaymiz. Bu esa oliygohlarda, ularni boshqarayotgan rahbarlar va menejerlardan, professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyatini yuritishni to‘g‘ri tashkil etish, moddiy-texnik bazasini kuchaytirish bilan bog‘liq vazifalarni to‘g‘ri tashkil etishni talab etadi. Bu borada xalqaro tajribalardan keng foydalaish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Болонский процесс: итоги десятилетия / под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И. Байденко. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2011. – 446 с.
2. Гончарова О.Н. Математическое моделирование как средство формирования социально-адаптatsionных качеств студентов высших учебных заведений / О.Н.Гончарова // Дидактика математики: проблемы и исследования: международный сборник научных работ. – 2021. – № 54. – С. 69.
3. Rajabova N. Theoretical and methodological principles of education quality management in higher education institutions // Международный научно-практический журнал “Экономика и социум” №12(103) 2022 www.iupr.ru
4. Rajabova N. Modern concepts of educational quality management in higher education institutions // Международный научно-практический журнал
5. “Экономика и социум” №12(103) 2022 www.iupr.ru
6. N.Rajabova Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirish // “International scientific research conference” Belarus, International scientific-online conference Part 8 November 19th Colletions of scientific works Minsk-2022
7. Rajabova N. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishning amaliy ahamiyati // Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 02 | fab - 2023 ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz
8. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti statistik ma’lumotlari.
9. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti statistik ma’lumotlari.
10. Guliston Davlat universiteti statistik ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 159.923.2

Axror RUZIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD
E-mail: axrorruziev71@gmail.com

Psix.f.n.,dotsent L.Beknazarova taqrizi asosida

"TEMUR TUZUKLARI"DA TOLERANTLIK MADANIYATI (IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLIL)

Annotatsiya
Ushbu maqolada ma'naviy-tarixiy meroslarni o'rganish orqali yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: tolerantlik madaniyati, ma'naviy meros, umuminsoniy qadriyat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyat, millatlararo totuvlik, qonun ustuvorligi, adolatli jamiyat.

КУЛЬТУРА ТОЛЕРАНТНОСТИ В «ЗАКОНЫ ТИМУРА» (СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация
В данной статье социально-психологически проанализирована важность формирования культуры толерантности у молодежи посредством изучения духовно-исторического наследия.
Ключевые слова: Культура толерантности, духовное наследие, общечеловеческие ценности, воспитание молодежи, национальные ценности, межэтническое согласие, верховенство закона, справедливое общество.

CULTURE OF TOLERANCE IN THE "LAWS OF TIMUR" (SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS)

Annotation
This article socio-psychologically analyzes the importance of forming a culture of tolerance among young people through the study of spiritual and historical heritage.
Key words: Culture of tolerance, spiritual heritage, universal values, youth education, national values, interethnic harmony, rule of law, just society.

Kirish. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrida tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum jamiyatni tashkil qilgan shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarni shakllantiradi va idora qiladi. Shu sababli, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, maqsadi, manfaatlari, tuzum tomonidan unga berilgan erkinlik darajalari kabi masalalar o'ziga xos ijtimoiy muammolarni tashkil etadi. Ana shunday muammolardan biri fuqarolarda tolerantlikni shakllantirish muammosidir. [3; 18]

Tolerantlik tamoyili umuminsoniy qadriyatdir, uning jamiyatda amal qilishi butun insoniyatning tinch, osoyishta va hamjihat bo'lib yashashiga xizmat qiladi. Tolerantlik xususiyatini o'rganishda tarixiy manbalar, milliy an'analar, qadriyatlar va madaniyatga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, xalqimiz tolerantligi milliy hamjihatlik ruhini namoyon etib, 130 dan ortiq millat va elat vakillari O'zbekiston yurtini o'z Vatani deb his etishiga, milliy madaniyati, san'ati, diniy munosabatlari va e'tiqodini namoyish qilishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi yoshlarimizni, nafaqat yoshlarni balki jamiyatning barcha yosh qatlamlari vakillarini tolerantlik madaniyati egalari etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ajdodlarimiz tomonidan bugungi avlod uchun ko'plab tarixiy shaxslar tomonidan asarlar, risolalar va tuzuklar ma'naviy meros qilib qoldirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir tomonidan meros qilib qoldirilgan “Temur tuzuklari” asarini bugungi kun yoshlarimizni tolerant madaniyatli qilib tarbiyalashda ijtimoiy psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etishini ko'rib chiqamiz. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, unda Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi sifatida, balki ruhshunos (psixolog) sifatida ham anglashimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida Amir Temur va Temuriylar davrining nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini quyidagicha baholaydi:

“Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi...

Bu orzu Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi - Ikkinchi uyg'onish davri g'oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat g'oyasida mujassam bo'ldi.

Aynan xalq armonini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi” [1].

Yoshlarda tolerantlikni ekologik madaniyat bilan parallel ravishda shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ekologik madaniyatni shakllantirishning turli jihatlari, jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi, A.Aymatov, Z.Kenjayev, S.Azamova, ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlar va ta’lim tarbiyaning roli B.Omonov, F.Qilichev, O‘.G‘.Tilavov, G.A.Ochilova, Kh.Sh.Nomozov, Yu.Kh.Manzarov, B.A.Ochilov [4], suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuvga doir manbalar B.Omonov, S.Mamashakirov [5, 6] tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Temur tuzuklari” asarida Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi,

siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni o'z tasarrufiga kiritishi haqida bayon qilingan. Asarni o'qib mulohaza qilish mumkinki, Sohibqiron insonlar bilan muloqot jarayonida har bir shaxsning ijtimoiy psixologik tomonini hisobga olgan.

Tahlil va natijalar. Asarni sinchiklab o'qish metodi orqali undagi teran fikrlar ajratib olinib, umuminsoniy qadriyat bo'lmish tolerantlik madaniyati mujassam bo'lgan joylarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilindi.

“Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlilik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim” [2].

“G'animlarimni chuchuk so'z, shirin hikoyatim bilan o'z tomonimga egmoqchi va ular vujudidagi yondiruvchi g'azab o'tini to'g'ri tadbir suvi bilan o'chirmoqni maslahat ko'rdim” [2].

Bu satrlarni o'qib guvohi bo'lishimiz mumkinki, dushman sifatidagi shaxslarni ham o'zining ruhiy ta'sir etishi orqali ularni do'stga aylantira olgan.

“...Lashkarimni atrofimga birlashtirmoqchi bo'ldim. Shuning uchun ba'zilariga muruvvat, mehribonlik qildim, boshqalari bilan kelishishga intildim, yana bir guruhini esa mol-u dunyo bilan o'zimga egmoqchi bo'ldim. Yaxshi so'z, ahd-u paymon va va'dalar bilan qolganlarining ko'nglini ko'tarishni maslahat ko'rdim”[2].

“Kimki menga kelib qo'shilsa ulug'lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo'lsa yiqiladi”[2].

“Saltanatim ishlarini murosa-yu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham o'zimni bilmaslikka olardim. Do'st-u dushman bilan murosa-yu madora qildim” [2].

Bu yerda Sohibqiron sabr-toqatli, bag'rikeng, muruvvatli, mehribon, shirinsuhan, bir so'z bilan aytganda tolerant madaniyatli shaxs sifatida gavdalanadi.

“...Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshitdim. Lekin sabr-u bardosh bilan o'zimni eshitmagan-ko'rmaganga solib, ularni tinchitdim.

...Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. To'g'ri siyosat va insof bilan sipohiylarim va raiyatni umid va qo'rqinch orasida saqladim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim.

Bu misralardan ham bobomiz sabrli, matonatli, saxovatli, rahmdil va o'z o'rnida qattiqqo'l inson ekanligidan dalolat berib turibdi.

“...Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubha-yu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi.

...Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmat-u g'iybat qilsalar, quloq solmadim.

...Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.

... - raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim” [2].

Bu satrlardan anglash mumkinki, Sohibqiron o'z fuqarolarini qaysi tabaqadan bo'lishidan qat'i nazar, ularning barchasiga ijtimoiy adolat tamoyili va diniy bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lgan.

“...Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmati haqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz urib oldimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim.

...O'z farzandlarim, qavm-u qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o'tgan bo'lsa, darhol bog'lab, o'ldirishga buyurmadim. Har kimni turish-turmushning past-u balandlarida turli yo'llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'st-u dushman bilan kelishib yashadim” [2].

Yuqorida keltirilgan satrlardan do'stlik munosabatlariga, qavm-qarindoshlik rishtalariga e'tiborli, farzandlariga mehribon kabi tolerant munosabatlariga ega shaxs ekanligini anglash qiyin emas.

“G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyotalabdirlar. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasalar, davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar, qaramasalar, ular vazirlarga dushmanlik qilurlar” [2].

“Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi - asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik; uchinchisi - sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishlik; to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

...Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. ...Ruxsat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza naslligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytsalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u shaxs oxiri yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, u oldiga bosh egib keladi” [2].

“Dono vazir uldirki, o'z o'rniga qarab, goh qattiqqo'llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi. Bunday vazir ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, ko'p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi. Agar ko'p muloyimlik qilsa, dunyotalab, tamagir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqlik ishlatsa, undan qochadilar va unga boshqa murojaat qilmaydilar. Demak, dono vazir shuldirki, saltanat korxonasining ishlarini eng to'g'ri chora-yu tadbirlar qo'llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi. Saltanat ishlarini sabr-toqat, chidam bilan ado etadi. Saltanat muammolarini o'z o'rnida qattiqqo'llik, o'z o'rnida muloyimlik bilan hal qiladi” [2].

Bu yerda Amir Temur davlat boshqaruvi jarayonidagi mavjud ijtimoiy muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida o'z fikr-mulohazalarini keltirib o'tgan.

“Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvat-u ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning

baxt-u davlatimga sherik bilib, hech qachon ulardan, mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim.

...Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi” [2].

Amir Temur nihoyatda kechirimli va muruvvatli inson ekanligini yuqorida dushmanlarini do'stga aylantirganligidagi fikrlaridan ko'rishimiz mumkin.

“Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim” [2].

Sohibqiron o'z hayoti va faoliyati davrida nechog'lik millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tamoyillari bilan siyosat yurgizganini va bu bilan yuksak maqsadlarga erishganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarini o'qigan har bir inson, u qaysi soha vakili, qaysi yosh toifasi vakili, xoh rahbar shaxs, xoh oddiy fuqaro bo'lishidan qat'i nazar o'zi uchun bir dunyo ma'naviy-ruhiy ozuqa olishi aniq. Ikkinchidan, bugungi kunda ayniqsa, yoshlarni vatanparvar, el-yurt rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shadigan, turli millat va elat vakillariga, turli ijtimoiy va yosh toifasidagi fuqarolarga nisbatan hurmatda bo'ladigan, bir so'z bilan aytganda tolerant madaniyatli qilib tarbiyalashda “Temur tuzuklari” asari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan,“Temur tuzuklari” asari asosida ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida, aholi yashash manzillarida keng qamrovli tadbirlar, davra suhbatlari, sahna ko'rinishlari orqali ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 15, 17-betlar.
2. Amir Temur. “Temur tuzuklari” /memuar asar/ forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karamatov tarjimasi / “Buyuk davlatchilik silsilasi” turkumi - T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. 16, 17-betlar.
3. Ruziev A.E. Ilk o'spirilar tolerantligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Monografiya. -Q.: «Intellekt» nashriyoti, 2021. 159 b. ISNB 978-9943-7376-8-6
4. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. ttps://elibrary.ru/tjvied
5. Ochilova C.A., Amonov B.N., Azamova S.A, Manzarov Y.K.Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1815/1865
6. Азамова С. The need to for environmental education of youth in the conditions of environmental globalization.o ‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022,[1/12] ISSN 2181-7324.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 910.2:37(575.1)

Qaxramon SABIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani,
Geografiya kafedrasi erkin izlanuvchisi
Ravshan MAXAMADALIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti
E-mail: qaxramon_7333@mail.ru

O‘zMU g.f.n, PhD K.Bekanov taqrizi asosida

OPPORTUNITIES FOR THE USE OF MODERN GIS TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF GEOGRAPHICAL EDUCATION

Abstract

Unlike traditional and popular textbooks on the theory and practice of school geography, GIS technologies have a unique feature in terms of developing the spatial imagination and spatial thinking of students, as a result of which the images of geographical objects and processes become clearer and clearer. . The article gives recommendations on the use of interesting learning tasks for the development of spatial thinking using GIS technologies.

Key words: Geographical feature, hill, mountain, plain, river, locality, region, country, image, imagination, thought.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ГИС-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЛАСТИ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В отличие от традиционных и популярных учебников по теории и практике школьной географии, ГИС-технологии обладают уникальной особенностью в плане развития пространственного воображения и пространственного мышления учащихся, в результате чего изображения географических объектов и процессов становятся все четче и нагляднее. . В статье даны рекомендации по использованию интересных учебных задач для развития пространственного мышления с помощью ГИС-технологий.

Ключевые слова: Географический объект, холм, гора, равнина, река, местность, область, страна, образ, воображение, мысль.

GEOGRAFIYA TA’LIMI SOHASIDA ZAMONAVIY GIS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maktab geografiya fani nazariyasi va amaliyotidagi an’anaviy va mashhur o‘quv qo‘llanmalaridan farqli o‘laroq, GIS texnologiyalari o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini, fazoviy tafakkurini rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, buning natijasida geografik obyektlar va jarayonlarning tasvirlari yanada aniq va ravshanroq bo‘ladi. Maqolada GIS texnologiyalari yordamida fazoviy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha qiziqarli o‘quv topshiriqlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlari: Geografik obyekt, tepalik, tog‘, tekislik, daryo, hudud, mintaqa, mamlakat, tasvir, tasavvur, tafakkur.

Kirish. Geoaxborot texnologiyalari o‘quv jarayonini optimallashtirish vositasi bo‘lib, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. GIS texnologiyalari an’anaviy, statik “qog‘oz” xaritalardan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘qituvchi rahbarligida yangi statistik materiallar asosida raqamli xaritalarni doimiy ravishda yangilab turish imkoniyatini beradi. Bu shuni anglatadiki, zamonaviy o‘qituvchi geografik makonni tashkil etishning turli darajalarida ko‘rib chiqiladigan tabiat, aholi va iqtisodiyot va ularning munosabatlari haqidagi eng dolzarb, tez o‘zgaruvchan geografik ma’lumotlardan foydalangan holda maktab o‘quvchilariga geografiyani o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim sohasida zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligining batafsil asoslanishi 1995 yilda Esri (AQSH) kompaniyasining xodimlari tomonidan taqdim etilgan va keyin u ta’lim sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus global dasturning tashabbuskoriga aylandi. Metodik [1] va pedagogik [2] adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish GIS texnologiyalarining quyidagi ta’lim vazifalarini shakllantirishga asos beradi. Bu funksiyalar o‘quvchilarni o‘rganish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

GIS texnologiyalarining etakchi ta’limiy funksiyasi o‘quvchilarning bilan va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liq. Bularga quyidagilar kiradi: kuzatish qobiliyatini shakllantirish, tavsiya etilgan tasvirdagi geografik elementlarni ajratib ko‘rsatish, ularning funksional xususiyatlarini aniqlash; kuzatish va tasavvurni rivojlantirish; GIS texnologiyalari yordamida odatda faktlar, hodisalar va kuzatishlarni uzoq tahlil qilish, umumlashtirish, sintez qilish, tizimlashtirish natijasida shakllanadigan tushunchalarni shakllantirishni vaqt o‘tishi bilan tezlashtirdi; fikrlashni rivojlantirish, masalan, vizual-samarali, vizual-majoziy, intuitiv, ijodiy, nazariy, fazoviy, vizual [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maktab geografiya fani nazariyasi va amaliyotidagi an’anaviy va mashhur o‘quv qo‘llanmalaridan farqli o‘laroq, GIS texnologiyalari o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini, fazoviy tafakkurini rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatga ega

bo‘lib, buning natijasida geografik ob’ektlar va jarayonlarning tasvirlari yanada aniq va ravshanroq bo‘ladi. Ushbu tasvirlar ishonchli, to‘liqlik belgilariga ega va dinamik bo‘lishi mumkin. Alohida geografik ob’ektlarning (tepalik, tog‘, tekislik, daryo) nisbatan sodda tasvirlari yaxlit bo‘lib, muayyan hudud doirasida fikrlash orqali birlashtirilib, katta hududning, butun mintaqaning, mamlakatning yanada murakkab tasvirini tashkil qiladi. O‘quvchilar dunyosining geografik tasvirini shakllantirishning asosiy elementlari bo‘lgan, fundamental geografik bilimlar va ilmiy geografik bilimlar metodlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini, tafakkurini rivojlantirishda GIS texnologiyalarining ta’lim imkoniyatlarini alohida ta’kidlash mumkin.



GIS texnologiyalari yordamida fazoviy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha qiziqarli tajriba Maykl N. DeMersning asarlarida o‘z aksini topgan (uning asosiy kitoblaridan biri rus tiliga tarjima qilingan va Data+ tomonidan nashr etilgan, qarang [4]). Muallifning fikricha, “GIS orqali Erni o‘rganish insonning fazoviy fikrlash qobiliyatiga asoslanadi; fazoviy fikrlash biz duch keladigan narsalarni tanlash, kuzatish, o‘lchash, qayd etish va tavsiflash qobiliyatini talab qiladi va zamonaviy GIS ning kuchli imkoniyatlari bizga uzoq vaqt davomida geograflarning asosiy vazifasi bo‘lgan fazoviy munosabatlarni ko‘rsatish, tasvirlash va raqamlar bilan ifodalash imkonini beradi. O‘quv jarayonida GIS texnologiyalaridan tizimli foydalanish o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi: sinfdan sinfga rivojlanib, u yanada kengroq, ko‘rgazmali va mavhum, lekin ayni paytda yanada mazmunli bo‘ladi [5].

Tahlil va natijalar. Bizning fikrimizcha, fazoviy fikrlashning yana bir muhim xususiyati talabaning shaxsiy ma’nolari va munosabatlari tizimini, geografik makonni o‘rganish, uni tashkil etishning turli darajalarida modellashtirish bilan bog‘liq sub’ektiv tajribasini aks ettiruvchi uning qiymat-semantik yuklanishidir. U yordamida o‘quvchining shaxsiy ma’nolari, munosabatlari tizimi bilan singib ketgan geografik bilimlari uning uchun dunyoning o‘ziga xos geografik tasvirini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsning mentalitetining shakllanishiga, yo‘nalishiga ta’sir qiladi, geografik makonda shaxsning ongi, xulq-atvori va faoliyatini tartibga soladi. Bundan kelib chiqadiki, geografiya o‘quv jarayoniga GIS texnologiyalarini kiritish geografik makonda va u haqidagi bilimlar tizimida insonning o‘zini o‘zi belgilash jarayonlarini rag‘batlantiradi, shaxsiy ta’lim natijalari to‘plamiga mos keladigan ma’noni aniqlash jarayonlarini yaratadi.

Talabalarning kognitiv rivojlanishi bilan bog‘liq GIS texnologiyalarining ta’lim imkoniyatlari o‘quvchilarning qidiruvga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ta’minlaydigan yangi ta’lim (meta-mavzu) natijalariga erishishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalish o‘quv faoliyatining turli usullarini (evristik, tartibga soluvchi, mavzuli geografik) birlashtirishga imkon beradi, masalan, muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish, sabab-natija munosabatlarini o‘rnatish, tahlilga asoslangan farazlarni ilgari surish, muammoli xarakterdagi geografik vaziyatlarni modellashtirish, bashorat qilish.

GIS texnologiyalarining bir xil darajada muhim ta’lim funksiyasi turli tarkibiy qismlarni va umuman geografiyani o‘qitish jarayonini faollashtirishdir. Birinchidan, bu o‘quv faoliyati motivatsiyasining ortishida namoyon bo‘ladi, masalan, o‘quv ma’lumotlarini kompьyuterda namoyish qilish, dars jarayonida animatsion videolardan foydalanish, prognozlash, jarayonlarni modellashtirish, boshqarish qobiliyati va o‘quv faoliyati rejimini tanlash. Eng qimmatlisi, bizning fikrimizcha, o‘quv geografik ma’lumotlarini kompьyuterda namoyish qilish geografik hodisalarni harakatda ko‘rsatish, o‘quvchilardan uzoqda bo‘lgan, ba’zan esa tabiatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish uchun noyob yoki erishib bo‘lmaydigan hodisalarni qayd etish imkonini beradi. Eng muhimi shundaki, GIS texnologiyalari geografik jarayonlarning rivojlanish tezligi, ularning fazoviy va vaqt dinamikasi va natijalarini aks ettirish imkonini beradi (1-rasm). Ba’zi geografik jarayonlar jadal sur’atlarda ko‘rsatilishi mumkin, masalan, Orol dengizi maydonining qisqarishi, boshqalari esa, aksincha, sekin ko‘rsatilishi mumkin, masalan, litosfera plitalarining yaqinlashishi, yopilishi, geotsinklinalь va uning oqibatlari. Zamonaviy o‘quvchining bilim olishga qiziqishi pastligi jiddiy muammo bo‘lib, GIS texnologiyalarini ularning namoyish qilinishi va tahlil qilish vositalariga joriy etish ma’lum darajada uning echimiga xizmat qilmoqda.

1-rasm. Orol dengizi-ko‘lining sayozlashuv jarayoni

Geografiya darslari jarayonida 1-rasmda ko‘rsatilgan o‘quv topshirig‘ini berish mumkin. U quyidagicha tuziladi:

Orol dengizi-ko‘lining geografik koordinatalarini aniqlang.

Turli yillardagi suv havzasining konturlarini solishtiring.

So‘nggi 40 yil ichida ko‘l qanday qurib qolganini aniqlang.

Qurish sabablarini ko‘rsating va xulosa chiqaring.

Ko‘lning keskin sayozlashishi mintaqa tabiati va odamlar uchun qanday ekologik oqibatlarga olib keladi?

Zamonaviy jamiyatda ular ushbu ekologik muammoni qanday hal qilishga harakat qilishayotganini ko‘rsating? Qiyinchilik tug‘ilsa, Internet manbalaridan foydalaning.

Orol dengizi tubidan qadimiy - taxminan 11-14-asrlarda qurilgan maqbara qoldiqlari topilganligini tushuntiring. Uning ko‘lning avvalgi tubida mavjudligi nimani anglatadi.

Ikkinchidan, GIS texnologiyalari turli fanlarning ta’lim mazmunini integratsiyalash jarayonida o‘quv-bilish muammolarini hal qilishda fanlararo aloqalarni chuqurlashtirishga imkon beradi. Masalan, maktab ta’limiga GIS texnologiyalarini joriy etish informatikani geografiya bilan birlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Geografiya o‘qitish metodikasida talabalarga adabiyot kabi boshqa fanlarni o‘rgatishda yaxlit o‘quv loyihasini yaratishda GIS texnologiyalaridan foydalanish misollari keltirilgan [6]. SHuni ham ta’kidlash kerakki, GIS texnologiyalaridan tizimli ravishda foydalanish talabalarning axborot kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. O‘quvchilarga geografiyani o‘qitishning innovatsion vositasi sifatida GIS texnologiyalarining ko‘rsatilgan ta’lim va rivojlanish imkoniyatlariga qo‘shimcha ravishda, biz hisoblash operatsiyalari va talabalar tomonidan kerakli geografik ma’lumotlarni topish jarayonlarining tezlashishini qayd etamiz. SHunday qilib, an’anaviy ta’limda xaritadagi masofalar va maydonlarni o‘lchash uchun maxsus asboblar - o‘lchagich, transportyor, kurvimetr, panjara yoki planimetr kerak bo‘ladi. GIS vositalaridan foydalanish bilan masofalar va maydonlarni o‘lchash jarayoni avtomatlashtiriladi, bu esa qiymatlarni topish, olingan natijalarning geografik mohiyatini izohlashda talabalarning e’tiborini keskinlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, agar o‘quv jarayonida geografiya fani muammolarni hal qilishda o‘quvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati tashkil qilinsa, GIS texnologiyalarining ta’lim salohiyati to‘liq amalga oshiriladi [7]. GIS texnologiyalari tizimli qo‘llanilishi bilan maktab geografiya fani mazmunini, o‘qitish usullarini yangilash uchun kuchli manba bo‘lib hizmat qiladi, shuning uchun butun geografiya o‘qitishning metodik tizimiga uning ishlash sifati va samaradorligini oshirish, diqqatni jamlash nuqtai nazaridan sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Юртаев А.А. Использование ГИС-технологий в подготовке будущих учителей географии // География в школе. – №6. – 2012. – С. 55-58
2. Чернобай Е.В., Методические основы подготовки учителей к проектированию учебного процесса в современной информационной образовательной среде. – автореф. дис… докт. пед. наук/Е.В. Чернобай. – М.: [б.и.], 2012. – 50 с.
3. Резник Н.А. Методические основы обучения математике в средней школе с использованием средств развития визуального мышления. – Дисс. на соискание уч. степени д-ра пед. наук. – Санкт-Петербург, 1997. – 500 с.
4. ДеМерс Майкл Н. Географические Информационные Системы. Основы.: Пер. с англ. – М. : Дата+, 1999. – 471с.
5. Петрова Н. Н. Методика преподавания географии в дифференцированной школе: методическое пособие для учителей географии [Текст]/ Н. Н. Петрова. – М.: ООО «Блик и Ко», 2000. – 334с., с.161
6. Хасаншина Н. З. Теория и методика использования учебных геоинформационных систем в профильной подготовке школьников : дис. … канд. пед. наук : 13.00.08 / Хасаншина Нафиса Закиевна. – Тольятти, 2004. – 180 с.
7. Орехова А.В., Поздняк С.Н. Формирование геоинформационной компетентности учащихся на основе применения ГИС-технологий // Педагогическое образование в России. – 2013. – №2. – С. 121-128.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 502.34 (575.1)

Juldizxan SABUROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: saburova_j@nuu.uz

F.f.d O‘.Tilavov taqrizi ostida

CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “ECOLOGICAL SECURITY”

Abstract
The article reveals the meaning of the concept of environmental security. The author emphasizes the fact that this concept was revived and revised at the end of the 20th century, and its definition differs from the approaches of analysts. The study points that concept of ecological security as an object of interdisciplinary research is open to discussion and it is emphasized that today it has become a determining factor in the foreign policy of states as a priority for national security.
Key words: Ecological security, environment, ecological danger, ecological disaster, state of protection, transnational problem, national security, vital human interests.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация
В статье раскрывается значение понятия экологической безопасности. Автор подчеркивает тот факт, что данное понятие было возрождено и пересмотрено в конце XX века, а подходы аналитиков по его определению различаются. В результате исследования отмечается дискуссионность экологической безопасности как объекта междисциплинарных исследований и подчеркивается, что сегодня она стала определяющим фактором внешней политики государств как приоритетное направление национальной безопасности.
Ключевые слова: Экологическая безопасность, природная среда, экологические угрозы, экологическая катастрофа, состояние защищенности, транснациональная проблема, национальная безопасность, жизненно важные интересы человека

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya
Maqolada ekologik xavsizlik tushunchasining mazmuni ochib beriladi. Muallif ushbu tushuncha XX asrning oxirlariga kelib jonlangani va qayta ko’rib chiqilayotgani, uni ta’riflashda tahlilchilarning yondoshuvlari turlicha ekaniga ahamiyat beradi. Tadqiqot natijasida ekologik xavfsizlik fanlararo tadqiqot obyekti sifatida munozarali ekanligini qayd etadi va bugungi kunda milliy xavfsizlikning ustuvor yo’nalishi sifatida davlatlar tashqi siyosatining belgilovchi omiliga aylanganini ta’kidlaydi.
Kalit so‘zlar: Ekologik xavfsizlik, atrof tabiiy muhit, ekologik xavf-xatarlar, ekologik falokat, himoyalanganlik holati, transmilliy muammo, milliy xavfsizlik, insonning hayotiy muhim manfaatlari.

Kirish. Insoniyat XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga avvalgi davrlarda bo‘lgani kabi global taraqqiyotning yangi ko‘rinishlarini eski muammolarning keskinlashuvi va kengayishi bilan birga qadam qo‘ydi. Uning faoliyati natijasida o‘zining qiyofasini har soniyada o‘zgartirib borayotgan Yer sayyorasi va uning tabiiy tizimlari qattiq bosimni ilgarigidan ham ko‘proq sezayotganini ilmiy va siyosiy doiralarda doimiy ravishda yangrayotgan “ekologik nutq”lardan ham bilishimiz mumkin. Bu haqida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda, deya qayd etdi[1]. Shunga qaramasdan, atrof tabiiy muhitning o‘z-o‘zini tiklash qobiliyatiga qattiq urg’u beradigan va shu tufayli tabiiy ne’matlarni tuganmas deb biladigan ko‘pchilik bunday nutqlarning asosli ekanligini tushunib yetganlaricha yo‘q.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik xavfsizlik ta’riflari ushbu masalani o’rganadigan fanlar va fan sohalari ko’pligi tufayli xilma-xildir. Ekolog olimlar bu tushunchaning atrof tabiiy muhit tarkibiy qismlarining barqarorligini saqlash jihatlariga ahamiyat bersalar, geosiyosatshunoslar davlatning tashqi siyosatining belgilovchi omiliga aylangan jarayon sifatida baholaydilar. G’arb olimlaridan ba’zilari ekologik o’zgarishlarni milliy xavfsizlikka tahdid deb qaralishini ta’kidlasalar [J. Barnett], boshqa olimlar ekologik xavfsizlikni harbiy strategiyaga kiritish zarurligi va natijada harbiylar mamlakatning ekologik xavfsizlik siyosatining muhim elementiga aylanishi kerakligi ta’kidlaydi [D. Jayaram]. Huddi shunga o’xshash konseptsiyani F. Galgano va E. Rouz ilgari surib, atrof muhit muammolari va mojarolar o’rtasida kauzal bog’liqlik mavjudligini, harbiy geofanlar bunday savollarga yechim topishi kerakligini ta’kidlaydi [F. Galgano, E. Rouz].

Yana bir muhim konseptsiya G. Zurlini va F. Myuller tomonidan taklif etilgan bo’lib, xavfsizlik yuklangan qiymat va bizning qadriyatlarimiz bugungi kunda ekotizim funktsiyalari va xizmatlari, uning yaxlitligi va barqarorligi insoniyatning omon qolishi va farovonligi uchun asosiy qadriyatlar sifatida tan oladigan normativ tizimlarimiz bilan bog'liq [G. Zurlini, F. Müller] deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ekologik xavfsizlik tushunchasining ta’rifi tizimli tahlil etiladi. Bunda bir nechta olimlarning ushbu tushuncha mazmunini ochib berishga qaratilgan nuqtai nazarlari sintez qilindi va analogiya usulidan foydalanib, ba’zi o’xshash jihatlri aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqida shunday yozgan:

“Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o’nglab bo’lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Bu xavfni ancha kech, 70-yillarning boshlaridagina anglay boshladik. O‘shanda mazkur masala dunyo miqyosidagi taraqqiyotga bag‘ishlangan dastlabki G‘arb modellarida keskin qilib qo’yilgan edi. Bu hol bamisoli "bomba portlaganday" ta’sir etdi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi”[2].

Bugungi kunda qamrov ko‘lami va mazmuni o‘zgarayotgan ekologik xavfsizlik tushuncha sifatida transformatsiyaga uchrashi o‘tgan asrning 90-yillarida jahonda ro‘y bergan siyosiy o‘zgarishlar, avvalo “sovuq urush”ning tugashi bilan boshlandi. Xavfsizlikni o‘zaro qarama-qarshi harbiy-siyosiy bloklar va qudratli davlatlarning ziddiyatlari (geosiyosiy) nuqtai nazaridan baholagan va amalga oshirgan tizimlar yangi reallik ta’sirida butunlay qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Bu sohada avvalgi ishonchsizliklar o‘rniga o‘zaro ta’sir va hamkorlik choralarini qo‘llash zarurat va obyektiv haqiqatga aylandi.

Ekologik xavfsizlik tushuncha sifatida uzoq davrlardan beri rivojlanib kelgan. Ammo bugungi kungacha shakllangan ilmiy konseptsiya va ko’plab ekologik va yondosh fanlar sohasi hamda masala sifatidagi turli qarashlarning ahamiyatini inkor etmagan holda bu tushunchani siyosiy fanlar hamda davlatning strategik maqsadlari nuqtai nazaridan ko’rib chiqamiz. Melburn universiteti geografiya maktabi professori Jon Barnett ushbu tushunchaning ikkita kuchli, ammo bir xil darajada noaniq tushunchalar - atrof-muhit va xavfsizlik kabi so’zlar birikmasidan iborat ekanligi va ularni o'rganishga hissa qo'shadigan turli xil fanlar hamda tafakkur maktablarining birlashishi natijasida yuzaga kelganiga ahamiyat beradi. U fikrini davom ettirib, “xavfsizlik ham noaniq tushunchadir. U juda ko'p turli xil qadrlanadigan narsalarga (qadriyatlarga-J.S) (ish joylari, salomatlik, davlat va hudud kabi tegishli ob'ektlar) va turli xil xavf-xatarlarga (ishsizlik, ochlik, hukumat o'zgarishi va bosqinchilik va hakozolar) tegishli bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, xavfsizlik to'g'risidagi eng kuchli diskurs milliy xavfsizlikka borib taqaladi va hududiy chegaralangan milliy davlatning tashqarisida va ichida yashovchi "boshqalar" dan kelib chiqadigan xavf-xatarlarga taaluqlidir”[3]. Ushbu qarash juda ko’pchilik olimlar tomonidan tan olingan bo’lib, ikkinchi jahon urushidan keyin yaratilgan aksaryat nazariyalar va xavsfizlik to’g’risidagi konseptsiyalarda o’z aksini topgan.

Ekologiya va zoologiya fanlari professori Nikolay Reymers (1931-1993) ekologik xavfsizlikni tushunishda quyidagi jihatlarga ahamiyatga berishga chaqiradi:

- insoniyat tabiatning ajralmas qismi, uning atrof-muhitga to'liq bog'liqligini anglash;

- Yer va uning alohida hududlari tabiiy resurs (ekologik) potentsialining cheklanganligi va tugashi mumkinligini, uni sifat va miqdoriy inventarizatsiya qilish zarurligini tan olish;

- tabiiy resurs (ekologik) potentsialni tabiiy tizim cheklovlaridan tashqari sun'iy ravishda kengaytirishning mumkin emasligi;

- yashash muhiti sifatida ekotizimlarning o'zgarishi va tabiiy resurslarning ruxsat etilgan maksimal miqdorini aniqlash;

- tabiiy resurslarning iqtisodiy tugashidan yoki ularni bilvosita yo'q qilinishidan ancha oldin profilaktik ekologik ta’qiqlarni ishlab chiqish zarurati;

- “Tabiat – tovar – pul – tabiat” tipidagi “inson – tabiat” tizimida gomeostazning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini yaratish majburiyati (“tovar – pul – tovar” mexanizmiga o‘xshash);

- aholi sonini, ularning tabiiy muhitga bosimini mahalliy, mintaqaviy va global darajada tartibga solishning shoshilinch va majburiy zarurat ekanligi;

- boshqaruvning barcha sohalarida faqat "ekologik jihatdan mos" texnologiyalar va uskunalarning maqbulligi;

- resurslarni tejaydigan texnologiyalar va mahsulotlarni miniatyuralashtirish, tabiat va odamlar uchun xavfsiz iqtisodiy usullarga o‘tish;

- optimallik qonunini tan olish, xo’jalik yuritishda esa - ma'lum bir makon va vaqt kesimida (ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy xavf omillarini cheklash) hayot ne'matlarini olish usullaridan foydalanishda oqilona yetarlilik printsipi;

- adekvat yashash muhitisiz (ekotizimlarning yaxlitligi) tirik organizmlarni, shu jumladan uning turlarini (xususan, odamlarni) va quyi darajadagi ierarxiyaning tabiiy tizimlarini saqlab qolish mumkin emasligini tushunish[4].

Ushbu fikr bilan hisoblashmaslikning iloji yo’q. Chunki ekologik xavf-xatarlar shunchaki e’tiborsizlik va ilmiy nazariyalarda qolib ketmasidan amaliy ishlar darajasiga, yuqori minbarlar, hatto Birlashgan Millatlar Tashkilotining kun taribidagi birinchi raqamli global masala darajasiga ko’tarilguniga qadar dunyoning turli burchaklarida, nafaqat, tabiat va uning tarkibiy qismlarining, balki inson va uning hayoti hamda kelajagini xavf ostiga qo’ygan keng ko’lamli falokatlarni keltirib chiqarganini bilamiz.

Xavfsizlikning geosiyosiy o’lchamlarini birlamchi deb tushunish kabi ekologik xavfsizlikni ta’riflashda ushbu jihatga (cheklangan resurslarni “boshqalar” hisobiga kengaytirish) urg’u berish hozirgi globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va axborot makoni nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqilmoqda. Xususan, ekologik xavfsizik va tanqidiy geosiyosat sohalari mutaxassisi Saymon Dolbining "Olov qudrati, geosiyosat va kelajak: ekologik xavfsizlikni qayta ko'rib chiqish" nomli va boshqa shunga o’xshash seriyali ma’ruzalarida yangicha yondoshuvlar ilgari surilgan[5].

Shu bilan birga, kelajakda bashorat qilinayotgan noan’anaviy mojarolarni (ekologik nizolar va to’qnashuvlar – S.J) keltirib chiqarishini va bu harbiy rejalashtirishda muhim ekanligini Frensis Galgano va Edvard Rouzning tadqiqotlarida keng yoritiladi. Ularning fikricha, “Sovuq urush” davrida mojarolar va ittifoqlar deyarli faqat siyosiy motivlar bo'yicha tuzilgan, ammo hozirda e’tibor asosiy resurslar kuchli raqobat va atrof-muhitning tanazzulga uchrashi sababli kelib chiqadigan muammolarga qaratilmoqda. Natijada, zamonaviy milliy xavfsizlik landshaftini idrok etishda o'zgarishlar yuz berdi. Milliy xavfsizlik masalalari va geofanlar bilan shug'ullanuvchilar asta-sekin atrof-muhitga salbiy ta'sirlar zaif jamiyatlarni beqarorlashtirishi mumkinligini qabul qila boshlashdi va bu endi global xavfsizlik landshaftini yangicha talqin qilish uchun asos bo'ldi” [6].

Tahlilchilarning fikricha, ekologik omillar beqarorlik keltirib chiqarishi mumkinligini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ta’rifida ham aks etganini, ya’ni ekologik xavfsizlik davlatning ekologik asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismlari va shuning uchun uning siyosiy barqarorligi asosi bo’lgan muhim ekologik omillar (masalan, suv, tuproq, havo, o'simliklar, biologik xilma-xillik, iqlim va boshqalar) xavfsizligini ta'minlash jarayoni sifatida belgilanganini ta’kidlaydi.

Ekologik xavfsizlik tushunchasiga ensiklopediya va ekologik lug’atlarda quyidagicha ta’riflar berilgan. Jumladan, ekologik xavfsizlik bu: 1) ekologik ahamiyatga ega bo'lgan ofatlar va baxtsiz hodisalarga bevosita yoki bilvosita olib kelmaydigan hamda shunday hodisalarning oldini olinishni kafolatlashga qaratilgan harakatlar, holatlar va jarayonlarning birligi; 2) mavjud yoki kutilayotgan (prognoz qilinayotgan)

atrof-muhit sharoitlarining aholi salomatligini saqlash va uning uzoq muddatli va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash vazifalariga muvofiqligi darajasi; 3) Yer yuzida va uning istalgan mintaqasida jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va siyosiy jihatdan tayyor bo'lgan darajada ekologik muvozanatni ta'minlaydigan holatlar, hodisalar va harakatlar majmuasi (insoniyatga jiddiy zarar yetkazmasdan moslasha oladigan holat) [7]. Yuqoridagi ta’riflardan ko’rinib turibdiki, ekologik xavfsizlik, birinchidan, bugungi kun va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashni (insonga qaratilgan), ikkinchidan, ekologik muvozanatni ta’minlaydigan (atrof tabiiy muhitga qaratilgan) holatlar va harakatlarni o’z ichiga oladi.

Bir guruh olimlar, jumladan Dj.Zurlini va F.Myuller ekologik xavfsizlikni ta’riflashda xalqaro tadqiqotlarning quyidagi qoidalariga e’tibor berishga chaqiradi:

atrof-muhit eng transmilliy muammo bo'lib, uning xavfsizligi tinchlik, milliy xavfsizlik va inson huquqlarining muhim o'lchovidir;

keyingi 100 yil ichida hozirgi global Yer qoplamining uchdan bir qismi o'zgaradi; shuning uchun insoniyat iste'mol qilish, ekotizimlarni qayta tiklash, saqlash yoki tanazzulga uchrashi jarayonida tobora qiyin tanlovlarga duch keladi;

va ekologik xavfsizlik inson va tabiiy resurslar o'rtasidagi dinamika va o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga olgan milliy xavfsizlikning markaziy qismidir [8].

Ushbu tahlil natijalari O’zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega, chunki Markaziy Osiyoda transmilliy ekologik muammolar borgan sayin mintaqa davlatlari o’rtasidagi munosabatlarni hal qiluvchi omiliga aylanib borayotganini guvohi bo’lmoqdamiz.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a’zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining 2003 yil 15 noyabrda bo‘lib o‘tgan yigirma ikkinchi yalpi majlisida qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida”gi namunaviy qonunda quyidagicha ta’rif beriladi: "ekologik xavfsizlik atrof-muhitni muhofaza qilish kafolatlarini va inson va fuqaroning hayotiy manfaatlarini xo’jalik va boshqa faoliyatning mumkin bo'lgan salbiy ta'siridan va hozirgi va kelajakdagi tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning tahdidlaridan himoya qilishga qaratilgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, texnologik hamda boshqa chora-tadbirlar tizimidir"[9].

Dunyo mamlakatlarining deyarli barchasi davlat (milliy) xavfsizligining bir qismi sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalasini yuridik normalari qatoriga, va hatto Konstititsiyalari moddalarida mustahkamlab qoyganligi ushbu masala strategik ahamiyatga ega bo’layotganidan dalolat beradi. Bu milliy xavfsizlikning ekologik o’lchami keng qamrovli ekanligini, dunyo davlatlari tashqi siyosati ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo’nalganligini bildiradi. O’z navbatida an’anaviy tahdidlardan farqli deb hisoblangan ekologik tahdidlar milliy chegaralarning geosiyosiy qiyofasiga yangi - ekologik paradigmalarni hisobga olishni kun tartibiga qo’yadi.

O’zbekistonda ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida tashqi siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Qonunchilikda ekologik xavfsizlikka quyidagicha ta’rif berilgan: ekologik xavfsizlik — tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining xo‘jalik va boshqa faoliyat, tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarining ehtimoliy salbiy ta’siridan himoyalanganlik holatidir [10]. Bundan ma’lum bo’ladiki, ekologik xavfsizlik ham tabiiy muhit, ham inson muhitining himoyalanganligini o’zida mujassam etadi. Yuqoridagi tahlillardan ko’rinadiki, ta’riflar turli xil, lekin bu ekologik xavfsizlikni ta’minlashdan ko’zlangan yakuniy maqsadlarga zid emas.

Xulosa va takliflar. Nazariy tahlil natijasida ma’lum bo’ldiki, ekologik xavfsizlik tushunchasining umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emas. Bu ushbu masalaning dolzarbligig ta’sir qilmaydi. Sababi ta’riflashda ekologiya fani sohasidan boshlab xalqaro munosabatlar obyektigacha, tirik organizmlar (jumladan, inson) ekologiyasidan global ekologik barqarorlikni ta’minlashgacha (hatto kosmos ekologiyasi) bo’lgan keng masalalarni o’z ichiga olishini anglaymiz. Ko’rib chiqilgan konseptual yondoshuvlarning barchasiga xos umumiy jihatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ekologik xavfsizlik insonning xo’jalik faoliyati davomida atrof tabiiy muhitning o’zgarishi holatini o’z ichiga oladi. Ikkinchidan, ekologiyaning salbiy tomonlama o’zgarishi milliy barqarorlikka tahdid deb baholanishi mumkin. Uchinchidan, ekologik xavfsizlik umumiydir, ya’ni inson va atrof tabiat muhitni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. To’rtinchidan, ekologik xavfsizlik inson faoliyatining barcha darajalarida (boshlang’ich bosqichdan yakungacha, oddiydan murakkab tuzilmalargacha) birdek ta’minlanib (tushunilishi) borilishi zarur. Beshinchidan, ekologik xavfsizlik inson-jamiyat-davlat manfaatlari nuqtai nazaridan siyosiy va strategik masaladir.

ADABIYOTLAR

1. Одамларимиз ҳатто ҳовлиси атрофини тозалашдан эринадиган бўлиб қолган». Мирзиёев ҳудудлардаги экологик ҳолат ҳақида. 2 феврал 2022. https://www.gazeta.uz/uz/2022/02/02/chiqindi/
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: 1997.112-113 betlar. -326 b
3. Barnett J., The Environment and Security. International Encyclopedia of Human Geography, 2009. https://www.sciencedirect.com/topics/earth-and-planetary-sciences/environmental-security#:~:text=Environmental%20security%20is%20protectedness%20of,ecosystems%2C%20and%20survival%20of%20humankind
4. Реймерс Н. Ф. Экология (теории, законы, правила принципы и гипотезы) — Москва.: Журнал «Россия Молодая», 1994 — 367 с.
5. Серия выдающихся лекций ISC: «Огневая мощь, геополитика и будущее: переосмысление экологической безопасности». https://council.science/ru/events/rethinking-environmental-security/
6. Francis A. Galgano, Edward P.F. Rose. “New Directions and Technologies–Environmental Security”, in Encyclopedia of Geology (Second Edition), 2021. https://www.sciencedirect.com/topics/earth-and-planetary-sciences/environmental-security#:~:text=Environmental%20security%20is%20protectedness%20of,ecosystems%2C%20and%20survival%20of%20humankind
7. Реймерс Н.Ф. Охрана природы и окружающей человека среды: Слов. Справ. -Москва. Просвещение, 1992. Стр.320. стр.30
8. Zurlini G., Müller F. Defining Environmental Security. in Encyclopedia of Ecology, 2008. https://www.sciencedirect.com/topics/earth-and-planetary-sciences/environmental-security#:~:text=Environmental%20security%20is%20protectedness%20of,ecosystems%2C%20and%20survival%20of%20humankind

9. Сарпеков М.Н. Экологическая безопасность как важнейший аспект обеспечения прав и свобод личности, общества и государства// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2017. – № 10-1. – с. 164-168 https://applied-research.ru/ru/article/view?id=11884
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi 95-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4739971#-4743975

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 159.96

Shoxsanam SAGATOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: sagatova_7227@gmail.com

O‘zMU dotsenti, p.f.d. D.I.Ilxomova taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SUPPORT TO FAMILIES RAISING A DISABLED CHILD

Abstract

The main theoretical and methodological aspects of providing psychological support to families of children with developmental disabilities are studied in this paper. Psychological assistance to such families is limited with finding solutions to problems in interpersonal, family and extra-family relationships in order to create optimal conditions for the development of child and his loved ones. There are several areas of providing psychological support to families: family psychodiagnosis, family psychoconsultation, psychological support, psychological guidance and family psychological correction. The main theoretical approaches used in working with families of children with developmental disabilities in foreign countries and in Uzbekistan are analyzed below. The principles of providing psychological support for family and the psychological correction of the family activity such as systematicity, the principle of individuality, the active approach, the hierarchical and integrative principles are offered.

Key words: Child with developmental disabilities, dysontogenesis, methodology, psychocorrection, psychoconsultation, principles, parents.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОКАЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ СЕМЬЯМ, ВОСПИТЫВАЮЩИХ РЕБЕНКА-ИНВАЛИДА

Аннотация

В статье рассматриваются основные теоретико-методологические аспекты оказания психологической помощи семьям детей с особенностями развития. Психологическая помощь таким семьям ограничивается расследованиями решения проблем в межличностных, семейных и внесемейных отношений с целью создания оптимальных условий для развития ребенка и его близких. Существует несколько направлений психологической помощи семье: семейная психодиагностика, семейная психоконсультация, психологическая поддержка, психологическое сопровождение и семейная психологическая коррекция. Ниже анализируются основные теоретические подходы, используемые в работе с семьями детей с особенностями развития в зарубежных странах и в Узбекистане. Предложены принципы оказания психологической помощи семье и являющейся ее основным звеном психологической коррекции деятельности семьи: системность, принцип индивидуальности, деятельностный подход, иерархический и интегративный принцип.

Ключевые слова: Ребенок с отклонениями в развитии, дизонтогенез, методика, психокоррекция, психоконсультация, принципы, родители.

NOGIRON FARZANDNI TARBIYALAYOTGA OILALARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO’RSATISHNING NAZARIY-METODOLOGIK TOMONLARI

Annotatsiya

Maqolada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning oilalariga psixologik yordam ko‘rsatishning asosiy nazariy-metodologik jihatlari o‘rganilgan. Bunday tipdagi oilalarga psixolog yordami bola rivojlanishi va uning yaqinlari uchun optimal sharoitlarni yaratish maqsadida ulardagi shaxslararo, oilaviy va oiladan tashqarida bo‘lgan munosabatlardagi muammolarga yechim topishga harakat qilish bilan chegaralanadi. Oilalarga psixologik yordam ko‘rsatishning bir nechta yo‘nalishlari mavjud: oilaviy psixodiagnostika, oilaviy psixokonsultatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, psixologik yo‘l ko‘rsatish va oilaviy psixologik korreksiya. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning oilalari bilan ishlashda xorijiy mamlakatlarda va O‘zbekistonda foydalanilayotgan asosiy nazariy yondashuvlar quyida tahlil qilinadi. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatishning tamoyillari va uning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila faoliyatini psixologik korreksiya qilish taklif etiladi: tizimlilik, individuallik tamoyili, faoliyatli yondashuv, iyerarxik va integrativ tamoyili.

Kalit so‘zlar: Rivolanishida nuqsoni bo‘lgan bola, dizontogenez, metodologiya, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya, tamoyillar, ota-ona.

Kirish. Nogiron farzandni tarbiyalayotgan oilalar hayotlarida ko‘pgina qiyinchiliklarga duch kelishadi va natijada ular yuqori darajadagi psixik zo‘riqishni boshdan kechiradilar. Z.Freydning ta’limotiga ko‘ra, qondirilmagan ehtiyojlar natijasida yuzaga kelgan zo‘riqishni kamaytirish uchun oila a’zolari tomonidan noto‘g‘ri harakatlar amalga oshiriladi. Bu esa, turli hil disfunksiyalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin, masalan: ota-onalar va bolalar psixologik farovonligining yetishmasligi, bola-ota-ona, er-hotin munosabatlaridagi uyg‘unlikning buzilishi, tarbiyadagi qarama-qarshiliklar, jamiyatdan ajralib qolish ko‘rinishidagi oiladan tashqaridagi munosabatlarning buzilishi, uni dushman sifatida baholash, u bilan kurashish.

Bu muammoning amaliy ahamiyati yuqori ekanligiga qaramasdan, kasbiy faoliyatlarning aynan shu sohasi psixolog-mutaxassislar tomonidan yetarlicha bajarilmayapti degan hulosaga kelish o‘rinlidir. Ular faoliyatidagi quyidagi kamchiliklarni keltirishimiz mumkin:

Mutaxassis psixolog o‘z faoliyati markaziga anomal bolaning muammolarini qo‘yib, oila bilan ishlashdan qochadi;

Psixolog o‘z faoliyatini psixodiagnostika va/yoki ota-onalarni psixologik konsultatsiya qilish bilan chegaralaydi;

Bola va uning oilasi bilan ishlashda aniq nazariy bazaga ega bo‘lmagan metod va texnikalar to‘plamidan foydalaniladi; ko‘rsatiladigan ta’sir tushunarsiz asosga ko‘ra mustaqil yo‘nalish maqomiga ko‘tarilgan yagona metod asosiga quriladi;

Oila a’zolarining psixologik hususiyatlari va oilaning yaxlit tizimini nazarda tutuvchi differensial yondashuvdan foydalanilmaydi.

Yuqorida keltirilgan ishning samaradorligini sezilarli darajada tushirib yuboruvchi kamchiliklar anomal bolalarning oilalariga psixologik yordamning nazariy-metodologik asoslarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liqdir. Alohida ehtiyojli oilaga psixologik yordam ko‘rsatishni funksional, tuzilmaviy va dinamik jihatdan o‘rganuvchi tadqiqot ishlari juda kamdir. Ushbu maqolaning maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning oilalariga psixologik yordam ko‘rsatishning nazariy va metodologik asoslarini yoritishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida ehtiyoji bo‘lgan bolaning oilasiga psixologik yordam berish faoliyati quyidagi sohalarni o‘z ichiga olishi lozim: oilaviy psixodiagnostika, psixokonsultatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, psixologik yo‘l ko‘rsatish va psixologik korreksiya.

Yordamning birinchi sohasi inson psixikasini oilaviy sharoitda o‘rganishga, shuningdek, oilaviy tizim komponentlarini yaxlit tadqiq qilishga yo‘naltirilgan, ya’ni funksiyalarini, tuzilishini, oilaviy hayotning kechishini, o‘zaro munosabatlarning hususiyatlari, oilaviy stressga harakat qilish va koping [1]. Oilaviy diagnostikada psixolog konkret oiladagi norma va individual o‘ziga hosliklarni buzilishlardan, farovonlikning yetishmasligidan ajratib olishi lozim.

Mazkur turdagi oilalarni psixologik tomondan qo‘llab-quvvatlashda informatsion yordam emotsional yordam bilan to‘ldiriladi, masalan: emotsional diskomfortni kamaytirish, sensitivlikni va qarindoshlarning bola muammosiga bo‘lgan munosabatdagi pozitsiyalari faolligini oshirish va hokazo. Bunda oilani maqsadi ota-onalar va bolalarning bir biri bilan tanishuviga, birgalikda vaqt o‘tkazishlariga va o‘zaro yordam ko‘rsatishlariga qaratilgan klublarlarga qo‘shilishi uchun motivatsiya berish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday assotsiatsiyalar doirasida ma’ruzalar va guruhiy muhokamalar orqali amalga oshiriluvchi ota-onalar uchun seminarlar tashkil qilinishi mumkin, ular oilaviy tarbiyaning uch jihatini shakllantirishga yordam beradi: kognitiv, emotsional va hulq-atvor [2].

Anomal farzandni tarbiyalayotgan oilaga yordam ko‘rsatishning asosiy bo‘g‘ini psixologik korreksiya hisoblanib, u oila a’zolarining shaxslararo, oila ichidagi va oiladan tashqarida bo‘lgan munosabatlari sohasidagi psixologik farovonlik buzilishini kamaytirish va bartaraf qilishga qaratilgan psixologik ta’sirlarning yig‘indisidir. Ota-onalar bolalari uchun ko‘p qayg‘urishlaridan, tezda yordam olishni hohlashdan noroziligi, mutaxassis bilan kechinma va o‘zaro munosabatlarning intim tomonlariga taalluqli munosabatga kirishishga tayyor emasliklari alohida ehtiyojli oilalardagi shaxslalaro munosabatlarda ko‘p uchraydigan holat bo‘lib, oilada va oiladan tashqaridagi psixologik farovonlikning buzilishini kamaytirish unga qaraganda nisbatan kam talab qilinadigan, uzoq kechadigan va chuqurroq yondashishni talab qiladigan jarayon.

Horij psixologiyasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga psixologik yordam ko‘rsatishning to‘rtta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin: psixoanalitik, hulq-atvor, kognitiv va tizimli.

Psixoanalitik konsepsiya ayollarning boladagi og‘ir buzilish haqida habar topganda hamda uzoq kutilgan sog‘lom farzandini yo‘qotganda yuzaga kelgan “narsissistik” jaroxati ortidagi kechinmalarini tushunishni birlashtirishga, aqli zaiflik va autizmga chalingan bolalarning onalariga psixoterapevtik ta’sir ko‘rsatishga doir qator ishlarning nazariy asosi bo‘lib hizmat qilgan [3-4]. Ota-ona emotsional yonishning bir nechta bosqichlarini bosib o‘tadi (inkor qilish, g‘azab, aybdorlik, depressiya, qabul qilish yoki moslashish). Psixoanalitikning maqsadi – ota-onalardagi yo‘qotilgan obyektda to‘planib qolgan o‘z “Men”ini ozod qilishga taalluqli bo‘lgan eng oxirgi bosqichga yordam berishdir.

Hulq-atvor yondashuvida bixevioral terapiya uchun an’anaviy bo‘lgan metodlar yordamida amalga oshiriluvchi ikki jabxani ajratib ko‘rsatish mumkin:

Ota-onalarda bola bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatdagi stressli vaziyatlarda o‘z o‘zini boshqarish usullarini shakllantirishni nazarda tutuvchi psixoterapevtik yo‘nalish [5];

Bolalarda kerakli malakalarni shakllantirish va moslashuvchan bo‘lmagan hulq-atvorni o‘zgartirish usullariga o‘rgatishga qaratilgan ota-ona ko‘nikmalarini shakllantirish treningi [6-7].

Bu yerda psixologning kuchi ota-onalarning hulq-atvoridagi muammolariga ko‘proq qaratilgan bo‘ladi, lekin kattalardagi psixologik farovon emaslikning ichki sabablari diqqat markazidan chetda qoladi.

Kognitiv-hulq-atvor yondashuvi bo‘yicha amalga oshirilgan qator ishlarda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning yaqin qarindoshlarida stress bilan kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati yuqori. Ratsional-emotsional hulq-atvor terapiyasi mutaxassislari quyidagi ro‘yhat asosida ish olib boradilar:

Boladagi nuqson o‘z o‘zidan ota-onalarda psixologik muammolarning yuzaga kelishining asl sababi hisoblanmaydi, lekin unda muhim ahamiyat kasb etadi;

Psixologik muammo ildizi bilan irratsional qarashlarga aylanadi, ularni yo‘qotishga erishilganda hulq-atvor va emotsiyalardagi destruktiv oqibatlar kamayadi [8].

Alohida ehtiyojli oilalariga psixologik yordamning vazifalariga korreksion hulq-atvor usullarini shakllantirish kiradi: bolani qabul qilish, bola uchun tashvishlanishdagi faollik, ratsional assertivlik va o‘z o‘zini qabul qilish.

Tizimli yondashuv tarafdorlarining fikricha, nogiron bolaning tug‘ilishi oilaviy hayotdagi katta o‘zgarishlarning boshlanishi bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlar oila a’zolarining ba’zi ehtiyoj va maqsadlari bloklanishida va natijada uning dinamik faoliyatida buzilishlar yuzaga kelishida aks etadi [1,7,8]. Alohida ehtiyojli oilalar bilan ishlashda quyidagi vazifalarni yechimi orqali maqsadga erishiladi:

Sog‘lom va nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun oiladan tashqarida mustaqillik va muloqotmandlik shakllanishi uchun ularning yosh hususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar bilan ta’minlash;

Ota-onalar ustunlik qiluvchi, bir yoqadan bosh chiqargan samarali iyerarxik oila tuzilishini yaratish;

Har bir bola aka va opalari bilan teng huquqga ega bo‘ladigan, bolalar quyi tizimi er-xotin va ota-ona tizimidan alohida tuzilgan oilani yaratish;

Kuch, nazorat, raqobat kabi munosabatlar o‘rniga, bir biri uchun qayg‘urish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq hissiyotlarni markazlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Rivojlanish resurslarini anglashga yordam berish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchilar tajribasi madaniy-tarixiy nazariya (L.S.Vigotskiy), munosabatlar konsepsiyasi (V.N.Myasishev), shaxsli-faoliyatli yondashuv (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev) g‘oyalariga, shuningdek, xorijiy psixoterapevtik maktablar metodlariga tayanadi. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan oila tipiga psixokorreksion

yordamni tizimli tahlil qilishga imkoniyat yaratuvchi ikki yondashuvga diqqatimizni qaratish o‘rinlidir.

Y.I.Levchenko va V.V.Tkachevalar alohida ehtiyojli oilalarga yordam ko‘rsatish tizimini taklif qilishdi va bu tizimning asosiy maqsadi oilada va oiladan tashqari munosabatlarda uyg‘unlikni, shaxsli rivojlanishini faollashtirish edi [6]. Ikki yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi: psixologo-pedagogik va psixokorreksion. Birinchi yo‘nalish onaning hayotiy qadriyatlari iyerarxiyasini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu esa, empatiyani namoyon qilish orqali qayta quriladi, boqichma-bosqich qurilgan, ijodiy boshlanishga ega bo‘lgan korreksion faoliyatga o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi yo‘nalish ota-onadagi psixik zo‘riqish holatlarini korreksiya qilishga, oiladagi shaxslararo munosabatlarini uyg‘unlashtirish va qayta qurishga qaratilgan bo‘lib, oilaviy tizimli kognitiv-hulq-atvor psixoterapiyasi elementlari bilan shaxsli-yo‘nalgan psixoterapiyaning metod va prinsiplarining birikmasi asosida amalga oshiriladi.

I.I.Maymachuk va I.I.Smirnovalarning ishlarida disgarmonik rivojlanishga ega bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni psixokorreksiya qilishga bo‘lgan tizimli-darajali yondashuv keltirilgan [8]. Bunda psixokorreksiyaning uch darajasi ajratiladi:

Umumiy daraja. Vazifasi: oilada psixologni ishtiroki orqali bola muammosi bilan bog‘liq emotsional noqulaylikni kamaytirish (ota-onalar uchun treninglar, baxs-munozaralar, maxsus ma’ruzalar olib borish);

Maxsus daraja. Vazifasi: oila doirasida kommunikatsion soha va o‘z o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan konkret psixokorreksion chora-tadbirlarni tashkil qilish (o‘yinli, guruhli, artterapevtik va h.k.);

Differensial daraja. Vazifasi: bolalardagi hulq-atvorning konkret buzilishlarini va oilaning barcha a’zolari hususiyatlarini hisobga olgan holda korreksiya qilish.

Tahlil va natijalar. Muammo bo‘yicha mahalliy va horijiy adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, o‘z tajribamiz alohida ehtiyojli oilaga psixologik yordam va psixokorreksiyaning quyidagi prinsiplarini ajratib ko‘rsatishga imkon yaratdi:

Tizimli prinsip. Oilaning konkret muammolari asosini oila a’zolarining tizimli ko‘rinishdagi shaxsli harakteristikalari, shuningdek, oilaning bir butunlik hususiyatlari tashkil qilishi psixokorreksiya uchun tizimli yondashuvning zarurligini belgilaydi.

Myasishevning shaxsli-yo‘naltirilgan psixoterapiyasini keltirib chiqaruvchi munosabatlar tizimi sifatida shaxs konsepsiyalari psixokorreksiya maktabida haddan ziyod talabgir hisoblanadi. Uning vazifalari rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning yaqin qarindoshlaridagi psixologik muammolar bilan ishlashni nazarda tutadi. Bunda psixologning ishi anomal bola qarindoshlari munosabatlarining uch jabxasini qamrab olishi kerak: kognitiv, emotsional va hulq-atvor [2,7].

Individuallashtirish prinsipi. Ushbu prinsip asosiy prinsiplardan bo‘lishiga qaramay, amalga oshirilishi eng qiyin bo‘lgan prinsipdir. Uning asosiy talabi – mutaxassis psixik nuqsonni murakkab tibbiy-psixologik tuzilishini hisobga olishi kerakligidir; demak, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillarning o‘zaro munosabatini yuqori darajadagi aniqlikda bilishi, dizontogenez psixologiyasi va uning tibbiy-biologik asoslari sohasida kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi. Bilimlarning yetarli emasligi, biologik tabiatga ega bo‘lgan buzilish adekvat bo‘lmagan psixologik ta’sirni belgilab beruvchi omil sifatida tushuntiriladi. Individuallashtirish prinsipini amalga oshirish uchun ahamiyatli bo‘lgan omillar: bolaning yaqin rivojlanish zonasi hususiyatlari; bola va qarindoshlarining individual tipologik hususiyatlari; oila tarixi; shaxslararo, oilaviy va oiladan tashqari bo‘lgan munosabatlar harakteri; oilaning asosiy funksiyalarini amalga oshirish hususiyatlari.

Faoliyatli yondashuv prinsipi. Leontev va Rubinshteyn g‘oyalaridan kelib chiquvchi bu yondashuvda faoliyat bolalarning psixik funksiyalari va kattalar ta’sir ko‘rsatish usullarini sodda mashqlantirish sifatida emas, balki ularning kundalik munosabatlarini organik jihatdan tizimlashtiruvchi, bola va katta odamning yaxlit, anglangan faoliyati sifatida qurilishi kerak. Psixolog turli ko‘rinishdagi faoliyatlarga (o‘yin, o‘quv, kommunikativ, ta’limiy, tarbiyaviy) modellashtiruvchi va shakllantiruvchi ta’sir ko‘rsatishi, ularning motivatsion shaxsli jihatini kuchaytirishi, ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirishi kerak [2,8].

Iyerarxik prinsip. Zamonaviy psixoterapiyaning talablariga to‘g‘ri keladigan mijozdagi o‘zgarish imkoniyatlarini chegaralariga amal qilinishi L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi bilan bog‘liqdir. Agar mijozning rivojlanish uzoq bo‘lgan tajribani taqdim etilsa, ko‘rsatilayotgan psixologik yordam foyda bermaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning ota-onasiga, akasiga, opasiga psixokorreksion yordam ko‘rsatishning vazifasi salbiy kechinmalarni to‘liq bartaraf qilish yoki himoya mehanizmlarini va egalik usullarini tubdan o‘zgartirish hisoblanmaydi. So‘z salbiy emotsiyalar intensivligini kamaytirish, adaptiv himoya va koping-mehanizmlarini kuchaytirish haqida ketyapti.

Integrativ prinsip. Psixokorreksion ishning kategorial apparatini, vazifalarini va metodlarini oldindan aniqlovchi konseptual manba bo‘lsada, ohir oqibat bir birlarini to‘ldiradilar, oila a’zolaridagi shaxslar aro va shaxs ichidagi munosabatlarning turli jihatlari va muammolarini o‘rganadilar. Munosabatlarning uch tomonlama tuzilishi psixokorreksiya vazifalarining keng qamrovliligini belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning oilasiga psixologik yordam ko‘rsatish bola rivojlanishi va uning yaqin qarindoshlari uchun optimal sharoit yaratish maqsadida shaxsli, oilaviy va oilaviy bo‘lmagan munosabatlardagi muammolarni yechimiga qaratilgan. Bola va uning yaqinlaridagi muammoli tomonlar faqatgina oila va jamiyat to‘qnashuvidagina tahlil qilinishi va ta’sirga yaroqli bo‘lishi mumkin.

Oilaga psixologik yordam ko‘rsatishning shunday prinsiplari taklif qilindiki, ularga tayanish kasbiy amaliyotda vazifalar va chegaralarni aniqlab olishga, psixokorreksiya metodlarini qo‘llash va takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Psixologik yordam va psixokorreksiya dasturlarini ishlab chiqishda alohida nazariy yondashuvga suyanib qolmaslik, balki turli yo‘nalishlardagi metod va texnikalardan unumli foydalanish kerak. Bu talab shaxsli va shaxslararo munosabatlarning ko‘p tomonlamaligi va ularning uch tomonlama tuzilishi bilan bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Эйдемиллер Э. Г., Добряков И. В., Никольская И. М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. СПб.: Речь, 2003. 336 с.
2. Мамайчук И. И. Помощь психолога детям с аутизмом. СПб.: Речь, 2007. 288 с.
3. Simpson D. Psychoanalytic perspectives on emotional problems facing parents of children with learning disabilities // Psychoanalytic Theory for Social Work Practice: Thinking Under Fire / ed. by M. Bower. London, New York: Routledge. 2005. P. 106-114.

4. Solnit A. J., Stark M. H. Mourning and the birth of a defective child // Psychoanalytic Study of the Child // New Haven. 1961. Vol. 16. P. 523-537.
5. Linares-Gonzales L. A Supportive Training Program for Parents of Autistic Children. Miami, Florida: C. A. U. (Carlos Albizu University), 2006. 110 p.
6. Behavioral intervention for young children with autism: a manual for parents and professional / ed. by C. Maurice. Austin, Texas: PRO-ED. An International Publisher, 1996. 400 p.
7. Sanders M. R., Markie-Dadds C., Turner K. M. T. Theoretical, Scientific and Clinical Foundations of the Triple P-Positive Parenting Program: A Population Approach to the Promotion of Parenting Competence. Brisbane, Qld, Australia: The Parenting and Family Support Centre, 2003. 24 p.
8. Shoxsanam SAGATOVA. (2022). The origin of children cerebral palcy and its psychological aspects. European Scholar Journal, 3(4), 104-106. Retrieved from https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2128

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 428

Jaxongir SAGDULLAYEV,
Samarqand viloyati IIB Axborot xizmati boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi
E-mail:ǝgabasagdul1222@gmail.com

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti dotsenti I. Mattiyev taqrizi asosida

YOSH AVLODDA JINOYATCHILIKKA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Annotasiya

Ushbu maqolada voyaga yetayotgan farzandlarga muqaddas urf - odatlar, an’analar g‘oyasini singdirish, ularda ongli va ijobiy muhitni shakllantirish, huquqiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi, jinoyatchilikka qarshi imunitetni hosil qilishga ko‘maklashuvchi davra suhbatlari, sahna ko‘rinishlari, qo‘shimcha maxsus fanlarni joriy etish masalalari borasida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: ijobiy muhitni shakllantirish, jinoyatchilikka qarshi, jinoyatchiligiga moyilligi, samaralarini ko‘payishi, ma’naviyatining asosi, voyaga yetayotgan, voyaga yetmaganlar, manbalar tahlili, faylasuflar, tarbiyaviy jarayon.

FORMATION OF IMMUNITY AGAINST CRIME IN THE YOUNG GENERATION

Abstract

In this article, inculcating the idea of sacred traditions, traditions, forming a conscious and positive environment in them, round talks, stage performances, which serve to increase legal literacy and help to create immunity against crime issues of introduction of special subjects were discussed.
Keywords: formation of a positive environment, anti-crime, propensity to crime, increasing its effects, basis of spirituality, adolescents, minors, analysis of sources, philosophers, educational process.

ФОРМИРОВАНИЕ ИММУНИТЕТА ПРОТИВ ПРЕСТУПНОСТИ У МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье обсуждалось, прививая представление о сакральных традициях, традициях, формируя в них сознательную и позитивную среду, круглые беседы, инсценировки, служащие повышению правовой грамотности и способствующие формированию иммунитета от преступности, были рассмотрены вопросы введения специальных предметов.
Ключевые слова: формирование положительного окружения, антикриминальность, склонность к преступности, усиление ее последствий, основы духовности, подростки, несовершеннолетние, анализ источников, философы, воспитательный процесс.

Kirish. Xalqimizda “Qush inida ko‘rganini qiladi” - degan ibratli falsafadan kelib chiqqan holda, oilada sog‘lom muhitni shakllantirish eng asosiy jihat hisoblanadi. Voyaga yetayotgan farzandlarga muqaddas urf-odatlar, an’analar, marosimlar, kattaga hurmatda kichikga izzatda bo‘lish g‘oyasini singdirish ularda ongli va ijobiy muhitni shakllantirishga olib keladi. Bu jarayonda oilalarda Yoshin ulug‘ kishilarning o‘rni katta. Oila boshliqlarining ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli jamiyatning turli jabxalarida shu bilan bandligi aynan shu mavzudagi axloqiy tarbiyani Yoshlar ongiga to‘liq yetib bormasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu vazifa bobolar va buvilar tomonidan singdirilmoqda. Shu sababdan ham sharq xalqlarida “Qarisi bor uyning parisi bor ” degan jumla paydo bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rta maktab, akademik letsiy tarbiyalanuvchilari o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi, jinoyatchilikka qarshi imunitetni hosil qilishga ko‘maklashuvchi davra suhbatlari, sahna ko‘rinishlari, qo‘shimcha maxsus fanlarni joriy etish ayni muddaodir. Statistik tadqiqotlarning sohaga oid qismlari tahlil qilinganda aynan shu jarayonlar Yoshlarning jinoyatchiligiga moyilligi so‘ndirish jarayonida muhim vosita bo‘lgani aniqlandi. Unga ko‘ra Yoshlar o‘rtasida 14%, voyaga yetmaganlar o‘rtasida 16% ga jinoyatchilik kamaygan. Ushbu tarbiyaviy mexanizmga qo‘shimcha ravishda Yoshlarning huquqbuzarlikka doir takliflarini, ko‘rgazmali vositalarini OAV vositasida targ‘ib qilish ularning tengdoshlari orasida kutilgan ijobiy samaralarini ko‘payishiga yordam berishi shubhasizdir.

Uchinchidan, Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy jarayonga Islomiy madaniyatni jalb qilish muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalar tahliliga ko‘ra O‘rta Osiyo hududida islom dini hukumron bo‘lgan vaqtlarda Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka doir ma’lumotlar uchramaydi. Rossiya imperiyasi hukumronligi davrining bizga bergan katta zarbalaridan biri xalqimiz ma’naviyatining asosi bo‘lib kelgan islom dini salbiy jihatlarini targ‘ib qilish bo‘ldi. Natijada komillikka yetaklaovchi muhim yo‘ldan xalq ajralib qoldi. XX asrning II-yarimida xalqning dinni to‘g‘ri tushunib yetmasligidan foydalanuvchi oqimlar paydo bo‘lib din vositasida stabilllashgan mentalitetlarga zarba berila boshlandi. Din tushunchasini soha muraxasislari emas balki muxolifat tomonidan xalq ongiga singdirilishi katta mafkuraviy kurashlarni keltirib chiqardi. Yoshlarning tushunmovchilik orqali diniy oqimlarga qo‘shilishi kuchaydi. Davlatning tushunmovchilik vositasida aralashib qolganlarni avf etish mazkur jarayonni ma’lum darajada to‘xtatdi. Shu boisdan tarbiyaviy jarayonga islomiy manbalarni soha mutaxassislari yordamida jalb qilish muhim vosita hisoblanadi.

To‘rtinchidan, o‘smir avlodni axloqiy tarbiyasiga milliylikka ta’sir qiluvchi ommaviy madaniyatni salbiy jihatlarini ko‘rsatib berish va uning ta’sirini salbiy darajada

ekanligini o‘zlari amal qiluvchi vositalar (asosan ijtimoiy tarmoq) orqali aks ettirib berish lozim.

Beshinchidan, qadimdan xalqimizda “bir bolaga yetti mahalla ota-ona” dir degan falsafiy fikrlar mavjud bo‘lgan va bunga qattiq amal qilingan. Shu boisdan “Yetimxona”, “Mehribonlik uylari” kabi milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan tushunchalar mavjud bo‘lmagan. Rossiya imperiyasi va sovet davrida milliy madaniyatimizga bu kabi tushunchalarni kirib kelishi oqibatida Yosh avlodni chetda qolishiga olib kelib, mehr- oqibat tushunchalaridan Yoshlarni yiroqlashuviga va bu tushunchalarni o‘zlari ma’qul deb topgan idealogiya bo‘yicha talqin qilinishiga olib keldi. Mehr – shavqat tuyg‘ularidan yiroqlashish bu insoniylikdan yiroqlashishdir. Joylardagi qarovsiz qolgan bolalarni qarindoshlar ko‘magida tarbiya jarayoniga tortish lozim. Tariximizdagi an’ana sifatida ko‘rilgan bu tarbiyaviy jarayonni bugungi kunda tarbiyaviy jarayonga mahalla vositasida jalb qilish Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik holatlarini oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, Yoshlar o‘rtasida bandlikni taminlash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kun voqeyliklaridan to‘g‘ri xulosa chiqarayotgan ko‘pchilik ota onalar farzandlarini fan , sport, musiqa to‘garaklariga jalb qilish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishga harakat qilishmoqda. Ijtimoiy tarmoq adresslarini muntazam nazorat qilib turmoqda, ijtimoiy tarmoqlardan unumli va kerakli ma’lumotlardangina foydalanishga jalb qilmoqda. Shu o‘rinda bir hayot falsafasini keltirish lozim. Bolaga nima taqiqlansa, unda shunga intilish kuchli bo‘ladi. Shu sababdan taqiqlanayotgan narsaning ijtimoiy xavflilik jihatini ota-onaning o‘zi hayotiy misollar vedioroliklar vositasida ko‘rsatib berish jarayonini ijobiy tarafga o‘zgarishiga ko‘maklashadi.

Muhokama va natijalar. Yettinchidan, voyaga yetayotgan o‘smirlarda voqeylikdan to‘g‘ri xulosa chiqarish harakterini to‘g‘ri shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Jarayonda farzand ota-ona, tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlarning ta’siri katta bo‘ladi. Ota-ona katta ahamiyatga ega bo‘lmagan muammolar to‘g‘risida farzandlar bilan fikr almashinishi orqali bu xarakterni shakillantirsa, tarbiyachi va pedagoglar sharqona va zamonaviy dedaktik vositalar orqali, psixologlar aqliy hujum, davra suhbati vositasida bu jarayonni amalga oshiradi.

Sakkizinchidan, Insonning shaxs sifatida kamolotga erishishida eng murakkab davr balog‘at Yoshiga yetish davri hisoblanadi. Bu Yoshda o‘smirlarda o‘z “Men” ining shakllanishi sababli, mag‘rurlik, bepisandlik, zo‘ravonlik, o‘zini tengsiz hisoblash kabi salbiy va illatli jihatlar shakllanadi. Behuda asabiylashish jarayonlari ko‘p kuzatiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra ayni shu sabablar tufayli balog‘at Yoshida jinoyatchilikka moyillik holatlari ko‘p kuzatilgan. O‘smirlarni bu davrda mavjud ruhiy holatdan chiqib ketishi bir talay qiyinchilikarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan maskur davrda farzandlarini e’tibordan chetda qoldirishi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mavjud salbiy vaziyatlarni betaraf etishda o‘smir Yoshlarni urf – odat islomiy an’analar bilan band etish ayni muddaodir. Yana bir vosita sifatida ularning muammolarini birgalikda hal qilish uchun kumaklashish, bilim olish jarayonlarini yanada kuchaytirish tarbiyaviy mavzularda suhbatlashish, ijtimoiy xavfli hatti- harakatlar va ularning kelgusidagi zararlari to‘g‘risida tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir.

To‘qqizinchidan, Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning samarali vositalaridan biri tegishli soxa xodimlari bilan davra suhbatlari tashkil etilib , soxaga doir ma’lumotlar vediolavxalar bilan ularni tanishtirib borishdir. Bugungi kungacha ta’lim maskanlarida o‘tkazilayotgan tadbirlar o‘z samarasini berib kelmoqda. Ushbu uchrashuvlarni tashkil etishda bugungi kun talabidagi mexanizmlarni amaliyotga tadbiq etish davriy zaruryatdir. Uchrashuvlar jarayonida g‘arb va sharq o‘smirlarining yutqlari va kamchiliklarini taqqoslash va bu kelgusida Yoshlarning fikr mulohazalari bilan o‘rtoqlashish ham muhim jihat hisoblanadi.

O‘ninchidan, “Namunali oila”, “Ibratli mahalla” nomli tadbirlarni uyushtirish va shu asosida Yosh avlod ongidagi ma’naviy bo‘shliqlarni to‘ldirish, mavjud g‘oyaviy zararlar, axborot xurujiga qarshi kuchli imunetetni xosil qilish maqsadga muvofiqdir. Tadbirlarning munozara shaklida uyushtirish muhim omil hisoblanadi. Chunki muhokama natijasida Yosh avlodda quydagi holatlarga qarshi kuchli immunitet hosil bo‘ladi.

O‘n birinchidan, jahonda va mamlakatimizdagi Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishga doir qonunchilik va ularning muhokamasi bilan muntazam tushuntirib borish. Shu yo‘nalish uchun ta’lim muassasalarida maxsus kunni belgilash.O‘smir avlodning barkamol holda voyaga yetishishini ta’minlash uchun nazariy asoslar yetarli darajada. Ularni amalga oshirish mexanizmlarini uyushgan holda amalga oshirish va bu maqsadda turli tashkilotlar bilan hamkorlik “yo‘l xaritasini” ishlab chiqish talab etiladi.

O‘n ikkinchidan, Voyaga yetayotgan o‘smirlarda ma’sulyat hissini paydo qilish va uni yanada rivojlantirish. Ma’sulyatlik qilishga javob berish hissi ham Yoshlarda ijtimoiy xavfli bo‘lgan hatti- harakatlarning yuzaga kelishini oldini olishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Xalqimizda kasallikni davolash emas uni oldini olish lozim degan falsafiy naql mavjud. Bu iboraning talqini Yosh avlodni jinoyatdan so‘ng jazolab ahvolini yengillashtirish emas, balki uning oldini olishni anglatadi. O‘smir Yoshlarning xarakteridan kelb chiqqan holda aytish mumkinki , tushuntirish, targ‘ibot ko‘pchiligiga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin. Bu moddiy javobgarlikka tortish, ogohlantirish o‘smir oldida jarimani to‘lasam bo‘ldi degan fikrlarni keltirib chiqaradi. Ta’lim muassasalridagi pedagoglarning jinoyatchilikka moyil talabalr bilan tushuntirish ishlari ayrim ota-onalar tomonidan salbiy qabul qilinishi ham voqealar rivojini salbiy ahamiyat kasb etishiga ham olib keladi. Maskur voqeyliklar sharq allomalari tomonidan keskin tanqidga olingan va hozir ham davom etmoqda. Biroq uning natijasi sezilarli darajada emas. Pedagogning jazo tariqasida o‘smirga belgilangan bahosi ham ijobiy qabul qilinmaydi yoki Yoshlarda jarayonga moslashib ketish holatlari kuchli. Shu jarayonda oddiy bir haqiqat ko‘zga tashlanadi. Pedagogik moslashuvni dastlab ota-ona biln olib borish lozim degan. Vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan ota-onalar vaziyatga to‘g‘ri baho bersa ayrim holatlarda buning aksi yuz beradi. Xuddi shu holat millat kelajagiga bolta urishi mumkin ekanligi mutaffakir olim Behbudiy tomonidan o‘tgan asr boshlarida aytib o‘tilgan edi. Olim farzandini savodli va tarbiyali qilish har qanday jaholatni oldini oladi degan g‘oyatda bir dono fikrni aytib o‘tgan edi. Darhaqiqat axloqiy tarbiyaga ega, ma’naviy olami mukammal, zamonaviy bilima ega Yoshlar bilan jaholatning har qanday shakliga qarshi kurashish mumkin. O‘smir Yoshdagi avlodning tarbiyaga muhtojligi, voqeylikni to‘g‘ri baholy olmasligi, balog‘atga yetish Yoshdagi ruhiy o‘zgarishlar o‘ziga nisbatdan kuchli e’tiborni talab qiladi. Shu boisdan aytish mumkinki, to‘g‘ri tarbiya milliy urf-odatlar vositasidagi rivojlanishi, islomiy an’analarni Yoshlar ongiga singdirish o‘smir avlodni komil shaklda voyaga yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Yoshlarning jinoyatchilikka moyiligini so‘ndirishda nafaqat oila, mahalla, ta’lim muassasalari, ichki ishlar organlari, diniy idoralarning balki keng jamaotchilikning ham o‘rni katta. Tadqiqot jarayonidan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘rganilayotgan masala yuzasidan yuqorida nomlari keltirilgan barcha tashkilotlarning sohaga doir ishlari va sa’yi – harakatlarini muvofiqlashtirish lozim. Ularning qonunchilik borasidagi tahlillarini bir xilashtirish va shu asosida Yoshlar tarbiyasiga joriy qilish eng ma’qul vosita hisoblanadi. Qolaversa, bu jarayon amaliy ahamiyatga ega

bo‘lib, tarbiya jarayoniga joriy etilayotgan zamonaviy mexanizmlarning ta’sirchanligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Bolalarni himoya qilish.Parlament a’zolari uchun qo‘llanma.-T.UNICEF,Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi.2006-B.163.
2. O’zbekiston Respublikasining Qonuni.Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to‘g‘risida. 2010 yil 12 avgust.Lex.uz
3. Plotnikov A.D. Yoshlar Rossiya jamiyatidagi ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim manbai va oila institutini shakllantirish uchun asos sifatida // http://www.mosgu.ru/nauchnaya/publications/professor.ru/Plotnikov/
4. Davitnidze I.L., Jerugov R.T. Huquqiy sotsializatsiya hayotga layoqatli avlodni shakllantirish omili sifatida // Rossiya yoshlari: hayotiy avlodlarni tarbiyalash. - M., 1996. - B. 90.
5. Kozlov A.A. Ta’lim fuqarolik burchining toifasi sifatida // Yoshlar asr boshlarida. Int. n.-amaliyot. konf. 1998 yil 20-21 oktyabr.-396 c.
6. "Yangi avlodni shakllantirish: ta’lim va tarbiya muammolari". - M.: Sotsium, 1998.-b. 19 - 21.
7. Klimova S.V. Sotsiologik ekspertiza oynasida o‘smirlar jinoyati.Sotsiologicheskie issledovanija. - 2006. - No 9. - S. 113.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.026

Nasiba SALIKHOVA,
Uzbekistan State World Languages University Senior teacher of the department of English in primary education
E-mail: nasitun@mail.ru

Recommendation given by Ahmedov O.S., the doctor of philology science at USWLU

THE SIGNIFICANCE OF CHALLENGES IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Abstract

This article describes the challenge of engaging educators in professional development that is timely and relevant to their work, and effective in stimulating instructional changes to improve student learning, and the role of analysis of the stages of professional development in the context of variety of resources like peer observations. The author considers her own experience in peer observation and its importance, effectiveness and the comfort of knowing that someone is available to help. Professional development opportunities should support teachers in identifying their own goals and how they plan to pursue them. When teachers work on improving their work together, they can make collective choices for their long-term professional development.
Key words: Professional developments, methods, improvements, facilitate, opportunities, support, collective choices.

ЗНАЧЕНИЕ ЗАДАЧ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Аннотация

В этой статье описывается проблема вовлечения педагогов в профессиональное развитие, которое является своевременным и актуальным для их работы и эффективным для стимулирования учебных изменений для улучшения обучения учащихся, а также посредством анализа этапов профессионального развития в контексте разнообразия ресурсов, таких как наблюдения уроков коллег. Автор рассматривает свои опыты работы и примерные цели посещения уроков; важность, эффективность и комфорт понимания, что кто-то готов тебе помочь. Возможности профессионального развития должны поддерживать учителей в определении их собственных целей и способов их достижения. Когда учителя вместе работают над улучшением своей работы, они могут сделать коллективный выбор для своего долгосрочного профессионального развития.
Ключевые слова: Профессиональное развитие, методические приёмы, улучшение, способствовать, поддержка, возможности, коллективный выбор.

KASBIY RIVOJLANISHDAGI QIYINCHILIKLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qituvchilarni o'z vaqtida va o'z ishiga mos keladigan va talabalarning bilimini yaxshilash uchun o'quv jarayonini o'zgarishini rag'batlantirishda samarali bo'lgan kasbiy rivojlanishga jalb qilish va o’zaro darslarni kuzatish kabi turli xil kontekstda kasbiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali tasvirlangan. Muallif kasbdoshlarni darslarini kuzatish tajribasini va uning ahamiyati, samaradorligi va kimdir yordam berishga tayyorligini bilish qulayligini ko'rib chiqadi. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari o'qituvchilarga o'z maqsadlari va ularga qanday erishishni rejalashtirishlarini aniqlashda yordam berishi kerak. O'qituvchilar birgalikda ishini yaxshilash ustida ishlaganlarida, ular uzoq muddatli kasbiy rivojlanishi uchun jamoaviy tanlov qilishlari mumkin.
Kalit so‘zlar: Kasbiy rivojlanish, metodik usullar, yahshilanish, osonlashtirish, imkoniyatlar, qo'llab-quvvatlash, kollektiv tanlov.

Leadership is the art of getting others to do something that you want done because they want to do it. [Dwight D. Eisenhower]

Education is a never-ending process. It doesn’t stop after earning a degree and starting a career. Through continuing education, career-minded individuals can constantly improve their skills and become more proficient at their jobs. Also, it is particularly important for school and higher education system administrators to encourage teachers to pursue professional development, not only to ensure the best learning outcomes for their students but also to be more effective and satisfied in various other aspects of their work.

This article may provide input to the professional development of number of teachers who work at schools and higher education systems in Uzbekistan. We need good international specialists to facilitate trainers in the country. Also, we need right people – those who received special training to deliver teacher training courses and they should be good models themselves. All trainers should take into consideration the fact, that their seminars should be organized according to the needs of teachers. Teacher trainers should create in class an atmosphere of building a good team relationship and being open to share and to learn.

Everyone who helped me become a better teacher played a great role in my teaching experience. I am also grateful for the efforts of my trainers in UK, Latvia and Uzbekistan, to my colleges whose observation feedbacks encouraged me most. The one thing that differentiates great educators, great principles, from others is the persistence of that every day we treat every learner with respect and dignity. This is the motto, the mission statement, of Todd Whitaker – educator and internationally recognized speaker – whose work focuses on relationships in the education community. We all communicate with teachers and students, maybe in supervisory role, sometimes we may argue, where respect between teachers is often lacking.

So the main thing we pay attention should be respect and dignity. Furthermore, Effective professional development

takes time, as the schools and universities will not achieve their goals with short-term, or one-off training for teachers, much like how touch-and-go lessons will not serve effective for students. Instead, connect teachers' learning with real-world classroom applications over longer periods of time. After undergoing training, teachers can apply their learnings in the classroom and evaluate how the application went. [1]

Similar to how gym-goers record themselves working out on their phone, teachers can record short clips of themselves in class to review their work, find recurring gaps in their "performance" and find ways to improve. Professional development is most effective when it supports teachers to develop practices specific to their areas of expertise – math, science, languages, arts – the nuances required to teach these subjects cannot be covered by non-differentiated training. Even within specific subjects, different teachers will have different needs depending on their prior experiences and character. To do this, professional development should require teachers to take charge of their own training by setting their own goals, defining their own problems of practice, or practicing making instructional plans. [2]

As a teacher trainer, I would like to share my experience of working with novice and experienced teachers during sessions in institutions on our country. And I came across with lot of problems and challenging in training courses, where participants spoke in Uzbek; where the same teachers participate and novice teachers are not open for learning new things. Sometimes I had ignorant teachers before, when I run the training seminars at college or another institution, they tried to test me on things never covered in programme, or there were bored with the material which I provided. Maybe I gave a workshop that put my colleges to sleep or maybe my fear of failure is keeping me away from teaching in the first place. Teaching teachers, especially teachers from your institution is very difficult process.

Once, when I came to the current session some of the students were absent, I was embarrassed, and I analyzed my previous lessons procedure and materials: What I did wrong? Where I made a mistake? In my attempts to improve my teaching practice, I have learned that there are few books about how to teach adults.

Actually, the teacher can evolve his teaching skills and practice by reading books, taking part in sessions, observing other teachers' lessons and especially taking feedback from his colleagues. And thereby he should work on himself and reflect on his experience. In this case I took a survey in order to find out my colleagues' needs, this collaboration with teachers and the book "How to Teach Adults" by Dan Spalding helped me much more in improving my teaching skills and classroom management. The book was about: how to design the course, how to run the class, how to develop teachers' personality, learning to reflect and the five principles of assessment, etc. [6]

According to Spalding, each teacher should start to teach himself and thinks how his/her learners learn best. Some people learn the quickest through reading, while others prefer visuals and hands-on experience. So, the trainer ought to incorporate his colleagues' learning style into whatever training aids he's giving them. They will learn quicker and should appreciate effort. [6]

Furthermore, you will not have problems with your participants if you allow your colleagues to observe as you complete the task, and explain what are you doing and encourage questions. Trainers always need to relate answers to information from his/her colleagues' interests. The novice teachers should be always encouraged to share the learning they have on 'Creative Education courses' with their peers back at their work places, as it's a great way to form common goals and it adds value to the day's training. Of course, the most important is to get feedback that teachers are not sure how best to engage their colleagues in training sessions, so I think it would be helpful to put together some ideas.[7]

Additionally, these kinds of guide books helped me too much in teaching ESL adults and exploring ways of dealing with challenging trainees. In my attempts to improve my teaching practice, I tried some experimental learning activities in training sessions, especially, how to design activities in dealing with resistance in training situations, to reflect on a decade of my own teaching practice.

This book will convince you that Teaching – is the best job in the world.

That's why I always try:

to make the teachers be active every time, by asking questions, encouraging reflection etc;

as Rod Bolitho said, to start where my participants were; to address teachers needs and styles;

to use more authentic materials (films, radio programmes, articles from magazines etc);

to implement new learned things in my classes; to provide "open door classes";

to become a resourceful person for other;

to share my new experience with other teachers;

to observe my colleagues classes and provide feedback (further I'll give an example from my feedbacks);

to design materials based on new things we learned;

to use alternative ways of assessments in integrated skills;

So, completing the questions: What we teach? And how we teach? The main point we must underline is to improve teaching quality through teacher education. And all those strategies will help teacher trainers confront challenges in their sessions. Teachers are the most important factors influence the quality of participants' learning. My experience is the result of taking part in professional development workshops held by experienced trainers at Conferences organized by UzTEA, by "Istedod" Foundation of the President of Uzbekistan and the British Council sessions, taking part in Webinar online courses "Shaping the Way We Teach: Successful Practices Around the World", and the most important, I studied full time at NILE (Norwich Institute of Language Education) Trainer Development in Autumn 2013. Where I could reflect and improve my language and methodology skills.

I completely agree with author's opinion that by observing teachers at work the person can reassess his own way of working. Observing his colleagues he mentioned: a) to let the trainees (teachers) voice their own concerns, asking real clarification questions in order to deepen their reflections; b) focus on the detail of the class and deal with issue which really absorbed in a single session.

Here are some activities which I held during sessions. The objective of it is to give participants an opportunity to discuss ways of dealing with challenging situations in their institutions.

Activity « I do not know what to do»

Procedure

The trainer will put the participants in groups of 3 or 4 and distribute the case study to discuss. Trainer asks them to write possible reasons for this behaviour and their suggestions of how to deal with it on the handout. After each member of the group has written their suggestions trainer regroup participants so that in each new group there is a representative of each of the four cases. In their new groups they should present their reasons and suggestions to other people in their group. The other participants should offer comments and ask questions.

As soon as they finish discussing, trainer asks participants to go back to their original groups and add or

change their suggestions on their handouts as a result of feedback received from different groups.

Case 1 Read the case study and discuss the questions in your groups.
Two of my trainees usually ignore me as a trainer. While I am delivering a session they keep talking about their personal problems and I cannot say anything to them as they are older than me. In my culture we respect older people. I do not know how to behave. 1. What could be the reasons for this behaviour? 2. How would you deal with it as a trainer?
Case 2 Read the case study and discuss the questions in your groups.
One of my participants repeatedly tries to catch me out with challenging questions about language and terminology. He does this in open sessions, in front of the whole group. Sometimes I can answer his questions but usually I can't. This frustrates me and I am worried about losing my credibility with the other participants. 1. What could be the reasons for this behaviour? 2. How would you deal with it as a trainer?
Case 3 Read the case study and discuss the questions in your groups.
I notice a participant who never says a word in open sessions and doesn't seem to contribute anything to group tasks and discussions. I am concerned about the extra burden this places on other participants, but I am also frustrated because her silence means that she reveals nothing about herself to me or the others. 1. What could be the reasons for this behaviour? 2. How would you deal with it as a trainer?
Case 4 Read the case study and discuss the questions in your groups.
There are 20 participants in my training room. Most of them are open to discuss different questions. The problem which worries me most of all is my two trainees who always dominate in discussions. They never give other participants a chance to talk. I don't know whether to stop them talking or let them continue talking non-stop. I might hurt their feelings. 1. What could be the reasons for this behaviour? 2. How would you deal with it as a trainer?

Summarizing the article, I would like to mention that attending professional development courses will increase our expertise in our field and, as a result, build confidence in the work we do. This confidence will carry over into the classroom when we come back to our students and share what we learned, the trainer shouldn't start the lesson without a set of clear aims and objectives in mind; you should be working together towards a shared goal, because by sharing goals at the beginning of the training session your colleagues will be able to work with you to make the session a success. And the second main point is giving peer feedbacks; their supportive comments help your colleagues to teach more effectively, motivate their assertiveness, and improve their performance consciously.

Thus, as a recommendation I would like to give some effective tips and strategies:
Much like planning a lesson, start with your target outcome. What problems at your school do you want to solve? What student learning outcomes need improvement? Focuses on too many goals, which are sometimes conflicting; Effective teacher professional development must be continual and ongoing. If you want your teachers to actually use a strategy and use it effectively, give them time; Does not involve ongoing support or feedback for teachers; When possible, group teachers by subject area. Research shows that PD is best delivered in the context of the teacher's subject area. Teachers don't find information on generic topics useful. However, they do benefit from analyzing how the skill or strategy applies to their content. This approach is well-received by teachers and has been shown to improve teacher practice and student learning; Teachers may like and understand a new strategy, but implementation is tricky. As teachers begin implementing new strategies, they need support. When some teachers pick up the new strategy more quickly than others. Assign them to mentor other teachers. Create opportunities for teachers to visit "model" classrooms and see the new strategies in action; Lectures aren't effective in the classroom, and they aren't effective for professional development either; Instead, provide hands-on opportunities for teachers to practice new strategies during PD sessions. Give teachers the chance to learn by doing; don't forget that you are in the position of knowing unique challenges faced by you and your colleagues and fully understand your priorities;

So instead of sharing the exact information you were taught, tailor your training session to highlight the most salient points which will best help your institution move forwards! However, collaborative learning has been shown to improve knowledge retention, develop higher-level thinking skills and greater ownership over one's learning. A recent study showed that such a model led to improvements in both teacher practice and student learning. With effective professional development potentially being a challenge, any aid possible in school would help them carry out their jobs a little better, and perhaps give them more time to focus on professional development. Aids such as school management systems - increasingly common in a digital-first world - would reduce time taken for tedious tasks and administrative matters, allowing teachers to, well, teach. [14]

"Respect – a little thing but, according to education guru Todd Whitaker – one of the most important ways to become a great principal!"

LITERATURE

1. Allen C. D., & Penuel, W. R. (2015). Studying teachers' sensemaking to investigate teachers' responses to professional development focused on new standards., pp 44-48.
2. Blank R. K., & de las Alas, N. (2009). Effects of teacher professional development on gains in student achievement: How meta-analysis provides scientific evidence useful to Society, 19(3), 237-256
3. Bolitho R. (1996) Some key issues in INSETT, INSETT Provision/Bolitho-Malderez-Pohl-Radai/ECML-Graz/30Apr-4May 1996/Final Report/26
4. Borko H., Jacobs, J., & Koellner, K. (2010). Contemporary approaches to teacher professional development. In P. L. Peterson, E. Baker, & B. McGaw (Vol. Eds.), Third ed.gov/fulltext/ED544700.pdf.
5. Brown M. (2009). The teacher-tool relationship: Theorizing the design and use of curriculum materials. In J. Remillard, B. A.
6. Dan Spalding. How to Teach Adults: Plan Your Class, Teach Your Students, Change the World, Expanded Edition (Jossey-Bass Higher and Adult Education (Paperback)) 1st Edition. ISBN-13: 978-1118841365, ISBN-10: 1118841360
7. Darling-Hammond L., & McLaughlin, M. W. (1995). Policies that support professional development in an era of reform. Phi Delta Kappan, 76(8), 597-604.
8. Guskey & M. Huberman (Eds.). Professional development in education: New paradigms and practices., pp. 151-170.
9. Lieberman, A., & Miller, L. (2014). Teachers as professionals: Evolving definitions of staff development.
10. Lillejord S., & Borte, K. (2016). Partnership in teacher education: A research mapping. European Journal of Teacher Education, 39(5), 550-563.
11. Mangin M. M.. Cecilia Martinez, M., & Polovsky, T. (2005). Leading coherent professional development: A comparison of three districts. Educational Aumnistration Quarterly, 42(3), 413 448.
12. Johan Bokdam. Teaching Teachers: Primary teacher training in Europe. European Union, 2014.
13. Jerry Conrath. Working with Discouraged or Defeated Learners. Article 1986.
14. Opfer V. D., & Pedder, D. (2011). Conceptualizing teacher professional learning. Review of Educational Research, 81(3), 376 407.
15. Woodward T., (1992) Ways of Training. Recipes for Teacher Training. UK: Longman., pp 23-24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:82

Мехрибону СЕРИМБЕТОВА,
Нукусский государственный педагогический институт
E-mail: серимбетова@mail.ru

По рецензии кандидат педагогических наук Н.Алимовой

THE USE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION DURING LABORATORY CLASSES IN THE COURSE OF PHYSICS AND AGROMETEOROLOGY

Abstract

The article reveals interdisciplinary connections during laboratory classes in the course of physics and agrometeorology. The effectiveness and influence of the integration nature of the lesson using interdisciplinary communication on improving the skills and abilities of students in many areas are indicated. In order to reveal the topic of the article, scientific research developments of foreign and domestic scientists were used.

Key words: Physics, agrometeorology, interdisciplinary communication, integration, laboratory activity, humidity, hygrograph.

FIZIKA VA AGROMETEOROLOGIYA KURSIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA FANLARARO ALOQADAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada fizika va agrometeorologiya kursida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda fanlararo aloqalar ochib berilgan. Fanlararo aloqadan foydalangan holda darsning integratsiya tabiatining samaradorligi va ta'siri ko'plab sohalarda talabalarda ko'nikma va malakalarni oshirishga qaratilgan.Maqola mavzusini ochib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: Fizika, agrometeorologiya, fanlararo aloqa, integratsiya, laboratoriya mashg'ulotlari, namlik, gigrograf.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ СВЯЗИ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО КУРСУ ФИЗИКИ И АГРОМЕТЕОРОЛОГИИ

Аннотация

В статье раскрыты межпредметные связи при проведении лабораторных занятии по курсу физики и агрометеорологии. Указаны эффективность и влияние интеграционного характера занятии с использованием межпредметной связи на повышение навыков и умений у обучающихся по многим направлениям. В целях раскрытия темы статьи использованы научно-исследовательские разработки зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова: Физика, агрометеорология, межпредметная связь, интеграция, лабораторное занятие, влажность, гигрограф.

Введение. Президента Республики Узбекистан 19 марта 2021 года "Физика меры по повышению качества образования и развитию научных исследований в системе высшего образования с 2021/2022 учебного года вопрос организации преподавания физических наук, адаптированных к отраслям определенный.

В нынешних условиях, когда достижения техники и технологии внедряются в жизнь до того, как проводят обучение по их использованию в системах образования, люди самостоятельно осваивают эти новшества и формируются новой взгляд и понимания окружающего мира. В фокусе которого находится личность человека, его интересы во взаимосвязи с его окружением, т.е. человек существует в тесной взаимосвязи с окружающим миром, как его органическая часть.

Изменения происходящие в обществе несомненно влияют и на систему образования. Достижения науки и техники, технологии успешно используются в данной отрасли. Все новшества, применяемые в системе образования, открывают широкие возможности педагогу в плане творческого подхода к своей деятельности, а свобода действий педагога при поиске оптимальных форм, методов и приемов обучения в несколько раз увеличивает эффективность обучения. Интеграционный подход в обучении является одним из таких путей.

Литературный обзор. Межпредметные связи, отражая естественные взаимосвязи процессов и явлений окружающего мира, играют существенную роль в развитии системного мышления, умении использовать знания при изучении одного предмета в процессе усвоения знаний по другому предмету. С точки зрения дидактики, реализация МПС значительно повышает научный уровень обучения, влияет на содержание учебного материала, на методы преподавания, которые использует учитель, а также на методы учения, самостоятельно осуществляемые учащимися.

Кроме того, активное использование МПС позволяет оптимизировать процесс преподавания предметов естественнонаучного цикла и, тем самым, уменьшить все возрастающую учебную нагрузку на учащихся. Теоретические основы межпредметных связей были заложены в исследованиях таких видных ученых-педагогов, как Я. Коменский, Д. Ушинский,Н.К. Крупская.

К зарубежным педагогам, активно работавшим в этой области, следует отнести Д. Локка, А. Дистервега. В настоящее время идеи МПС получили свое развитие в научных трудах М.Н. Берулавы, А.А. Боброва, Н.В. Груздевой, А.И. Гурьева, И.Д. Зверева, В.Р. Ильченко, В.Н. Максимовой, С.А. Старченко, Н.Н. Тулькибаевой, А.В. Усовой, В.Н. Федоровой, О.А. Яворука.

Осуществление синтеза знаний указывается и признается в трудах известных методистов - П.А. Знаменского, А.В. Перышкина.

Интеграция наук который используется на занятиях с использованием межпредметной связи ставит своей целью формирования у обучающегося целостного представления об окружающем мире, а средством достижения его является комплексное изучение дисциплин и осознание связей между ними. Данный процесс носит системный и последовательный характер, т.е. интеграция наук в наше время, когда необходимо осознанный анализа действии человечества, становиться еще более актуальным.

Целью настоящей работы является использование межпредметной связи в процессе лабораторных занятии по курсу физики и агрометеорологии, а также выявление его значимости.

Для достижения поставленных целей решались следующие задачи: выяснение теоретических основ использования принципа межпредметной связи; определение предметных областей которые могут соприкасаться с тематикой занятия, сбор материалов относящиеся к дисциплинам соприкасающихся с тематикой, т.е. законов, теорем, принципов или правил, используемые различными предметными областями объясняющие указанную тематику; выявления и применение эффективных способов и методов для наибольшего усвоения нового материала.

Иллюстрация и выявление значимости межпредметных связей нелегкая и сложная методическая задача. Сложность состоит в том, что на сегодняшний день у нас подготовка педагогического кадра до сих пор направлена на определенные дисциплины. Поэтому в основном как в школах, так и в ВУЗах занятия ведут предметники. Пока нет тех кадров которые бы смогли вести одновременно как физику, математику, информатику, биологию, химию, зоологию, технологию, т.е. различные предметы единолично. Естественно, мы можем говорит о введений занятия поэтапно разными предметниками или о введений совместно подготовленного занятия. Особого различия в этом нет, но есть нюансы, которых нужно учитывать. Одно из них, это доминирование одного предмета над другими, это естественно, как и с какого ракурса на это смотреть. Здесь мы не будем рассматривать данное доминирование.

Мы рассмотрим межпредметные связи в процессе проведения лабораторного занятия на тему: «Измерение влажности воздуха с помощью гигрографа». Подобные лабораторные занятия на сегодняшний день ведутся в институтах аграрного направления, т.е. физика объединена с агрометеорологией. Интегрированное содержание данного предмета создана на стыке разнохарактерных знаний и способов деятельности.

Для определения влажности воздуха с помощью волосного гигрографа проводиться непрерывное регистрация изменений относительной влажности. В основе принципа работы лежит зависимость изменений свойств или параметров прибора от влажности. Приемником влажности является пучок обезжиренных человеческих волос, где при изменений влажности воздуха меняется длина человеческих волос. Волосы натянуты на металлический крючок, и изменение его длины передается чувствительному часовому механизму, часовой механизм состоит из стрелки со шкалой деления, который фиксирует изменения относительной влажности воздуха. В зависимости от скорости вращения механизма, различают суточные и недельные гигрографы.

На данном примере необходимо использования законов физики, агротехники почвы, метеорологии, биологии, агрохимии, техники, информационной технологии, т.е. интеграция различных областей и взаимосвязь между указанными направлениями выявляет суть нашей методики. Необходимо отметить, что влажность воздуха это физический показатель, а его изменение это метеорология, изменение длины человеческих волос это биологический показатель, зависимость данного изменения с часовым механизмом это техника, обработка полученных данных это информационная технология. Конечно же изменение влажности воздуха влияет на плодородность почвы, а это агрономия, что включает в себя и агротехнику почвы и его агрохимию. Раскрытие межпредметной связи осуществляется в зависимости от выбранной темы и требуется находчивость, обширный кругозор, знание основ различных дисциплин, творческий потенциал педагога для того чтобы конкретно указывать те или иные сведения из разных областей деятельности человека. Значит необходимо заранее планировать, рационально отбирать учебный материал. Для проведения эффективного занятия по нашему мнению необходимо указать еще один фактор, относительно терминов. Подбор и способы подачи информации тоже влияет на эффективность занятии.

Первым шагом для проведения занятии с использованием межпредметной связи необходимо конкретно указать какие дисциплины соприкасаются с данной тематикой. Второй этап это сбор терминов по вышеуказанным дисциплинам и их иллюстрация. Иллюстрация терминов по нашему мнению один из самых важных этапов занятия. Третьим шагом в проведений данного занятия это теоретические сведения и проведение лабораторной работы. При укреплений пройденной темы исходя из условии и вида занятия возможны использования различных инновационных и педагогических технологии, которые повысят эффективность занятия еще больше. Здесь хотелось бы указать еще один немаловажный момент, самостоятельность обучающихся при проведении такого формата занятия обеспечивает сто процентный успех.

В заключении их построение в направлении учащихся к профессии с учетом специфики специализации в отрасли предложения и рекомендации по эффективной организации лабораторного обучения данный. А также профессиональная подготовка будущих строителей-инженеров его особенность заключается не только в получении новых знаний из физики, но и использовать полученные физические знания в своей будущей профессиональной деятельности это должно увеличить потребность через надлежащую организацию.

Анализы и результаты. По проведенным исследованиям и наблюдениям нами были сделаны следующие выводы: применение межпредметной связи при лабораторных занятиях расширяет не только кругозор слушателей, формируя научное мировоззрение, также способствует углублению мыслительных способностей, развивает навыки и умения комплексного применения знаний на практике. Интегрированное содержание межпредметной связи способствуют повышению у обучающихся заинтересованности к различным дисциплинам; развитию творческого подхода; формированию самостоятельной продуктивной деятельности; росту базовой и профессиональной компетентности; способности контролировать проблемные ситуации, умения анализировать находит необходимые сведения и продуктивного использования приобретенных знании.

Заключение.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ерофеева Г.В., Пескова Е.С., Малютин В.М. Влияние учета междисциплинарных связей дисциплин на профессиональную подготовку выпускников вузов. Современные проблемы науки и образования. 2016, №5.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdistsiplinarnye-svyazi-v-protsesse-prepodavaniya-estestvennonauchnyh-uchebnyh-distsiplin/viewer
3. https://gigabaza.ru/doc/551-pall.html

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 1751

Nilufar SULAYMANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Samarqand davlat chet tillar instituti professori Sh. Safarov taqrizi asosida

BAHO ME'YORLARINING DARAJALANISHI

Annotasiya
Maqola shaxslararo muloqot paytida sub'ekt fikr-mulohazalari ob'ektiv haqiqatga mos kelishi darajasini aniqlash, yuzaga keladigan muammolarni oqilona baholashda unga nisbatan “tanqidiy ko'z bilan qarash” muhimligini, tanqidiy munosabat ob'ektiv voqelik bilan bir qatorda, o'z hatti-harakatlarini ham baholashda namoyon bo'lishiga bag'ishlangan.
Kalit so'zlar: shaxslararo muloqot, baholash, mezon, ob'ekt, sub'ekt, estetik baho, sub'ektiv va ob'ektiv xususiyat, florionim.

ОЦЕНКА СТАНДАРТОВ КАЧЕСТВА

Аннотация
В статье подчеркивается важность «критического взгляда» на определение степени соответствия мнений субъекта объективной действительности при межличностном общении, при рациональной оценке возникающих проблем критическое отношение, наряду с объективной реальностью, посвящено проявление поведения в оценке.
Ключевые слова: межличностное общение, оценка, критерий, объект, субъект, эстетическая оценка, субъективно-объективный признак, флорионим.

GRADING OF ASSESSMENT CRITERIA

Abstract
The article emphasizes the importance of determining the degree to which the subject's opinions correspond to objective reality during interpersonal communication, the importance of "looking with a critical eye" in the rational assessment of the problems that arise, critical attitude along with objective reality, dedicated to the evaluation of actions.
Key words: interpersonal communication, evaluation, criterion, object, subject, aesthetic evaluation, subjective and objective feature, florionym.

Kirish. Baholash aslida ijtimoiy xarakterdagi hodisadir, chunki bunda jamiyatda e'tirof etilgan ma'naviy mezonlarga tayaniladi. Shu jumladan, muloqot ob'ekti, idrok etilayotgan voqea-hodisa umumiy va xususiy belgilariga ko'ra baholanadi. Ob'ektga xos belgi-xususiyatlar jamlanib, ularning yaxshi va yomon tushunchalariga muqobil sifatlari umumbaholovchilar hisoblanadi. Mazkur sifatlarni farqlash asosida albatta, ma'lum bir namuna turadi. R.O'.Madjidovaning qaydicha, insonning olamni bilish faoliyati natijasi bo'lgan baholash tavsiflanayotgan ob'ektning xususiyatlarini namuna bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Qiyoslash namunasi (etaloni) esa alohida shaxs yoki jamoa ongida saqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bundan tashqari, bahoning “yaxshi” va “yomon” darajalari oralig'ida “befarqlik” hududi ham o'rin oladi. Nutq yoki idrok ob'ekti til sohibi ongida baho ma'nosini qo'zg'atmagan taqdirda “befarqlik” namoyon bo'ladi. A.O. Vasilchenko baho mezonlarining bunday darajalanishini quyidagi chizmada izohlaydi.

Chizma. 1. Baho me'yorlarining darajalanishi.



Mazkur chizmada + ishorasiga ega baho ob'ektlari jamoa tomonidan me'yor talablariga mos, deb qabul qilinadi va ijobiy bahoni olsa, - ishorasi qanotidagilari esa me'yordan chekinishdan xabar beradi [13; 18].

N.D.Arutyunova baholarni sensor va ratsional turlariga ajratadi. Birinchi guruhdagilarining yuzaga kelishi sezgi, hissiy tajriba bilan bog'liq bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: 1) hissiy ta'm bildiruvchi yoki geodonistik baholar masalan, yoqimli, shirin, xushbo'y, jozibali; 2) ruhiy idrok bilan bog'liq intellektual (qiziqarli, bachkana) hamda emosional baholar (quvonchli, yoqimli). Ushbu guruhdagi baholar odatda dalillanmaydi, ularning asosida inson his etayotgan tuyg'ular yotadi.

Ikkinchi guruhdan amaliy faoliyat bilan bog'liq rasional baholar joy oladi. Jumladan, foydali, zararli, to'g'ri, me'yordagi, samarali, omadli, yaramas kabi baholarning asosiy mezoni jismoniy yoki ruhiy foyda olish, ma'lum bir vazifani bajarish hamda qabul qilingan andozaga muvofiqlikdan iboratdir [12].

Bahoning yuqorida sanab o'tilgan turlari ko'pincha estetik xususiyatga ega bo'lib, ular ma'naviy-axloqiy asosga ega. Ob'ektga baho berish sub'ekt mansub bo'lgan jamiyatda hukumron bo'lgan axloqiy me'yorlarga qay darajada amal qilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, axloqiy qonun-qoidalar xalqlar tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, silliqlangan va voqea-hodisalar, inson faoliyatining axloqiy mezonlariga mos kelishi-kelmasligiga binoan qat'iylashgan. Masalan:

She thought it the most beautiful and most elegantly furnished hous she had ever seen, but Phet said it was a nightmare. However, if it made her happy, she was welcome to it (Margaret Mitchell. Gone with the Wind);

Mrs. Forester was a very nice woman. Kindly people often say that of a woman when they can say notting about her, and it has come to be looked upon as cold praise. I do not

mean it as such. Mrs. Forestier was neither charming, beautiful nor intelligent; on the contrary she was absurd, homely and foolish, yet the more you knew her, the more you liked her, and when asked why, you found yourself forced to repeat that she was a very nice woman (Somerset Maugham. Rain).

Yo tavba! Bu ro'yi zamin, bu hududsiz koinot qanchalar fusunkor, qanchalar go'zal ekan, nechun odamlar bunday tuban,bunday rahm-shavqatsiz yaratilgandur! - Mavlono! Sipohlar uni holdan toydi deb o'ylashdi chamasi, yana qo'ltiqlab olishdi, lekin Ali Qushchi “o'zim!” dedi-da, oqsoqlana-oqsoqlana o'zi yurib ketdi (Odil Yoqubov).

Ravshanki, estetik baho sub'ektiv va ob'ektiv xususiyatga ega. Ulardan birinchisi shaxsning mulohaza, kechinma, qarashlari doirasida shakllansa, ikkinchisida esa narsa-hodisaning mohiyati aks etadi. Zotan, biron bir shaxs predmet hodisalarni estetik nuqtai nazardan baholar ekan, avvalo, ma'naviy mezonlarga asoslansa, so'ngra jamiyatda belgilab qo'yilgan me'yorlarga tayanadi. Masalan, “O'tkan kunlar” romanidan keltirilayotgan parchada sub'ektiv va ob'ektiv bahoning o'zaro uyg'unlashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi:

Uyning to'riga solingan atlas ko'rpa par yostiq quchog'ida sovuqdan erinibmi yo boshqa bir sabab bilanmi o'yg'oq yotgan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingilla kiprik ostidagi tim qora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi .... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi.... shu vaqt ko'rpani ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'lturdi.... Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi-Kumushbibi edi (Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar).

Estetik baho o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lish va boshqalardan farq qilishi bilan bir qatorda, turli ko'rinishga ega baholar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Shu sababli, baho kategoriyasida asosiy o'rinlarni egallaydigan go'zallik va xunuklik tushunchalarida insonning his qilish va ko'rish sezgisi orqali idrok etiladigan barcha ob'ektlarga xos xususiyatlar aks topadi. Tabiatan go'zal hisoblangan hamma narsaning ob'ektiv bahosini berish qiyin ekanligini faylasuf-donishmandlar qayd etishgan. Buyuk mutafakir Abu Ali Ibn Sino yozganidek, “Narsa hodisani bilish uning mohiyatining shaxs hissiyoti, ongida aks topishidir. Mazkur mohiyat yoki shaxsdan tashqarida mavjud bo'lgan narsaning mohiyati yoxud aslida mavjud bo'lmagan narsaniki.... Zero, narsaga tegishli mohiyat ramzi idrok etuvchi shaxsning qalbida aks topadi” [16]. Darhaqiqat, voqelikni idrok etayotgan shaxs unga bevosita baho bermasdan, balki ushbu voqelikning o'z ongida paydo bo'lgan ramzi haqida mushohada yuritadi. Qolaversa, tabiatda inson tafakkuri vositasida idrok qilish qiyin bo'lgan, tasavvurga sig'maydigan hodisalar mavjudki, ularni baholashga insonning kuchi etmay qolishi mumkin.

Bundan tashqari, biron bir narsa-hodisa faqat ma'lum kontekstda, ijtimoiy muhitda u yoki bu shaxsning qiziqishini uyg'otishi va baho ob'ektiga aylanishi mumkin. Masalan, qo'y yoki molning zoti chorvadorning diqqatini jalb qilsa, semizligi esa qasobni qiziqtiradi.

Atrof-muhitdagi o'zgarishlar inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Binobarin, qish mavsumida yalang'och bo'lib qolgan bog'lar, dalalar bahorda yam-yashil tus olib, gullarga burkanganida olam manzarasining bahosi ham o'zgacha mazmun olishi turgan gap. Bunda baho ob'ekti aslidagidek qolsa-da, lekin manbaga nisbatan sub'ektiv munosabat boshqacha yo'nalishda kechadi.

Bir milliy-madaniyatda ijobiy baholash ob'ekti hisoblangan narsa boshqa madaniyatda o'z vazifasidan uzoqlashadi. Jumladan, amerikalik yigit o'z suyuklisini “an ass” deb erkalatishi mumkin bo'lgan bir holda, o'zbek millati vakili birovni erkalayotganida “eshakcham” yoki “cho'chqacham” deyishini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi to be a log; to sleep like a log birikmalarini hech tortinmasdan “u - to'nka” va “to'nkadek qotib uxlamoq” tarzida tarjima qilish imkoniyati bor. Ammo insonni baholashdagi bunday universalikni barcha kontekstlarda bir xilda kuzatish qiyin masala. Masalan, to be a log birikmasi ingliz tilida “yordamga muhtoj inson” ma'nosini bersa, o'zbek tilidagi “u hali g'o'r (g'o'radek)” iborasi ta'riflanayotgan kishining “hayot tajribasi kamligidan” guvohlik beradi [5].

Bular nafaqat baho mezonlari, balki uning ob'ektining ham milliy madaniyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ma'lum bir madaniyatda kishiga zavq bag'ishlash vositasi bo'lgan ob'ekt ikkinchisida umuman e'tiborga tushmasligi mumkin.

Baho tizimi xususiyatlarini fanlararo kesimda o'rganuvchi aksiologiya shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish, boshqarish, rivojlanish hamda umuminsony fazilatlarining ijtimoiy madaniyat va jamiyatda hukumron bo'lgan qonuniyatlarga mos ravishda mukammalashuvini ta'minlovchi sohadir [19]. Olam va unda kechayotgan voqea-hodisalarga baho berishda insonning ruhiy holati, shaxsiyati muhim rolni o'ynashini hech kim inkor etolmaydi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, olam manzarasi-inson hayoti sharoitida shakllanadigan olam haqidagi tasavvurlar jamlamasi, uning obrazidir. Inson voqelikni his etadi, unga etishadi, o'rganadi, mushohada yuritadi, anglaydi, tavsiflaydi, xayolan tasavvur qiladi va nihoyat, ongida tasvirlaydi [20].

“Olamning manzarasi” voqelikning oddiy tasviri bo'lmasdan, balki voqelikning mohiyatini, uning borlig'ini aks ettiradi [21]. Bunday mohiyat ma'lum ijtimoiy - madaniy muhitda hayot kechirayotgan shaxslar mentalitetida yuzaga keladi va rivojlanadi. Ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraladigan mentalitet uchta asosiy qismdan iborat. Uning ijtimoiy-madaniy, psixologik va intellektual qismlari bir-birini to'ldiradi va o'zaro munosabat orqali olamning milliy manzarasi shakllanishiga ishtirok etadi [15].

Muhokama va natijalar. Olam bilan bo'lgan munosabatda shaxsning mentaliteti etakchi rolni o'taydi va uning manzarasi mental modellar ko'lamida tasvirlanadi [4]. Shaxslararo muloqot paytida sub'ekt fikr-mulohazalari ob'ektiv haqiqatga mos kelishi darajasini aniqlash, yuzaga keladigan muammolarni oqilona baholashda unga nisbatan “tanqidiy ko'z bilan qarash” muhimdir. Ular tanqidiy munosabat ob'ektiv voqelik bilan bir qatorda, o'z hatti-harakatlarini ham baholashda namoyon bo'ladi. Bahoning darajasi esa insonning shaxsiy tafakkur imkonitlariga bog'liq. Sub'ektning ruhiyati, his-tuyg'ulari ta'sirida hosil bo'ladigan psixologik holatlar baholash harakatiga olib keladi. Shu sabab ushbu harakat fanining ham tadqiq ob'ekti hisoblanadi. Psixologiyaga oid lug'atlarda voqelikning idrok etilishi ushbu voqelikning sub'ektiv obrazlar shaklida namoyon bo'lishi oqibati ekanligi ta'kidlanadi. Psixik-ruhiy harakat ongli ravishda bajarilishida til vosita rolini o'taydi. Nutq orqali ruhiy jarayonlar tashkillashtiriladi va nazorat qilinadi (Psixologiya lug`ati, 241). Eng muhimi, ushbu lug'atda baho berish jamoa tomonidan o'z a'zolari hatti-harakatlarini ma'qullash yoki inkor etish sifatida ta'riflanadi. Lug'atda qayd etilishicha, “ijtimoiy baho ko'p jihatdan shaxs muvaffaqiyatini uning emosional holatiga nisbatan belgilaydi va shu bois ijobiy bahoga intilish inson xulq-atvorining eng ahamiyatli tomonidir” (Psixologiya lug`ati, 242). Insonning xulq-atvori jamiyatda mavjud bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimi nazoratida bo'ladi. Qadriyatlar timsolidagi me'yorlar har bir shaxsni o'zi yashayotgan jamiyatga moslashishga undaydi.

Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan antropolingvistika sohasining asosiy ob'ekti “so'zlayotgan inson”, ya'ni lisoniy

shaxs ekanligi barchaga ma'lum. Antroposentrik yondashuvning markazini esa psixolingvistika tashkil qiladi. Tadqiq predmeti “individual-ruhiy jihatdan qaraladigan lisoniy shaxs” [14] bo'lgan ushbu yo'nalishning ob'ekti va predmeti ko'p jihatdan psixologiya fanida mavjud bo'lgan nutq psixologiyasi yo'nalishinikiga mos keladi. Tadqiqotchilar psixolingvistikaning ob'ekti sifatida quyidagi masalalarni ajratishga odatlanishgan: 1) nutqning yaratilish mexanizmlari; 2) bolalar nutqining shakllanish jarayonlari; 3) nutqiy faoliyatning suhbatdoshlar o'zaro munosabati va muloqot vaziyatlar bilan bog'liqligi; 4) nutqning insonning olamni idrok etish qobiliyati bilan bog'liqligi [3].

Psixolog olimlar baholash faoliyatining to'rt qismdan iborat tizim ekanligini qayd etadilar va bular quyidagilardir: sub'ekt, predmet, baholash xususiyati va asosi [17]. Ammo Sh.Safarov, ushbu tizimning ancha murakkabligini ta'kidlayotib, uni besh qismga taqsimlaydi: sub'ekt, ob'ekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisi. Olimning ta'biricha, baholash harakati ob'ektning muhimligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlashdan boshlanadi. Ushbu jarayonda sub'ekt ob'ektning xususiyatini me'yor yoki namunaga qiyoslaydi. Barcha “o'lchovlar” bosqichidan o'tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi. Baholash harakatining faollashuvi, o'z navbatida, mantiqiy asosni talab qiladi. Asossiz qiyos va bahoga ehtiyoj yo'q [8].

S.Boymirzaevaning qaydicha, baholash harakati strukturasining eng muhim qismlaridan biri baholash xususiyatidir. Ushbu qismning muhimligi ob'ektga berilayotgan baho mutlaq yoki qiyosiy bo'lishida ko'rinadi. Ammo olima baholashning bu ikki turini keskin farqlash tarafdori emas. Zero, baholash voqelikni idrok etishning ma'lum bosqichi. U voqelikdagi predmetlar, hodisalar haqida mantiqiy tushuncha, konseptning yaratilish jarayonida faollashadigan nutqiy-mantiqiy harakat va shu harakat nihoyasida tug'iladigan mazmun-ma'nodor [2, 126]. Darhaqiqat, baho bilish jarayonning ajralmas bosqichi bo'lgan qiyosiy idrok asosida paydo bo'ladi. Insonning fikrlash qobiliyati mahsuli sifatida qaraladigan xulosa qiyoslash amaliga asoslanadi. Qiyoslash bilish faoliyati va baholash harakatining asosini belgilaydi. Asosga nisbatan baho turlari va xususiyatlari farqlanadi. A.A. Ivin tanlangan asosga nisbatan baholash harakatini hissiy (shaxsning sub'ektiv his-tuyg'ulari, idrokiga asoslangan), me'yoriy (ma'lum nusxa, qolipga asoslangan) va amaliy-utilitar (biron manfaatni ko'zlab berilayotgan baho) turlarini farqlaydi [17].

Shunday qilib, narsa-hodisalarga berilayotgan baho har jihatdan inson ruhiyati, uning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bu tarzda shakllangan psixologik baho har qanday holatda ham lisoniy shakl oladi va nutqda voqelanadi. Inson ruhiy holatining nutqiy voqelanishida tilning turli sathlariga oid birliklar ishtirok etadi. Qiyoslang:

Alimardon qadim zamonlardan buyon xalq tilidan tushmay kelayotgan bu satrlarda o'zgacha bir joziba, yashirin, iboli tuyg'ular borligini darhol payqab olgan, o'zi bastalayotgan bu kuyda mana shu pokiza tuyg'ular butun go'zalligi bilan yarq etib ko'rinishini xohlar, yurak-yurakdan to'lqinlashib aytardi (O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari).

Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman, kuyib aytar, chunki sho'x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo'shtobroq, sho'xlik husnining pardozi bo'lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasi bo'lsa, ham, Zuhraning oldida uning istarsi so'niqroq edi (Abdulla Qahhor. Muhabbat).

It was Jem’s turn to cry. His face was steaked with angry tears as we made our way through the cheerful crowd…. Atticus was standing under the street light looking as though nothing had happened: his vest was buttoned, his color and tie were neatly in place, his watch – chain glistened, he was his impassive self again. (Harper Lee. To kill a mocking - bird).

I tried hard to stop him. But everything I said seemed to make him worse. I suppose it would when he was in that excited, abnormal state. Well, he talked about my repressions, and I pretended to laugh at him, he got more and more excited. And then he tried to show me some beastly foul drawings he had–horrible, obscene things by some mad Belgian artist (Priestly J.B. Dangerous Coner and other plays).

Xulosa. Keltirilgan misollardan ravshanki, insonning tashqi ko'rinishi, turli ta'sirlar tufayli qanday ahvolga tushib qolganligi turli lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi. Ushbu birliklar sub'ektning ichki dunyosini, ruhiy holatini tasvirlab psixologik baho yuzaga kelishini ta'minlaydi hamda baho ob'ektining obrazli qiyofasini aniq tasavvur qilishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 160 p.
2. Boymirzaeva S.U. Matn modalligi. - T.: Fan, 2010. - 151 b.
3. Harley T. The Psychology of Language. From Data to Theory. – New York: Psychology Press, 2004. – 528 p.
4. Johnson – Laird P.N. Mental models: Towards a cognitive science of language, in inference and consciousness. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1983.
5. Kuchkarova N.X. Inson tabiatini turli tillarda florionimlar yordamida ta'riflash // Linguistics - I. T.: UzDJTU, 2010. - B.128-134.
6. Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought. – Cambridge: CUP, 1993. www. ac.www. edu: market / semiotic / lkf. met. html.
7. Qo'ng'urov R. Sub'ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. - T.: Fan, 1980.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 300 b.
9. Stuart McLean. Mad Dog // Fusion. – L.: CCWC, 2015. – 239 p.
10. Анисимова С.Ф. Введение в аксиологию. – М.: Современные тетради, 2001. – 128 с.
11. Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1984. – С. 5-23.
12. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.
13. Васильченко А.О.Структурно–семантическая характеристика зевматических конструкций и их положение на оценочной шкале. Дисс… канд. филол. наук. – Белгород, 2004. – 142 с.
14. Горелев И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики. – М.: Лабиринт, 1998. – 256 с.
15. Дубов И.Г. Феномен менталитета: психологический анализ // Вопросы психологии, 1993. – С. 20-29.
16. Ибн Сино. Избранные философские произведения. – М.: Наука, 1980.
17. Ивин А.А. Основания логики оценок. – М.: Изд-во МГУ, 1970.
18. Маджидова Р.У. Аксиологическая оппозиция антропоцентрических пословиц узбекского и русского языков // Актуальные проблемы современной лингвистики. – Т., 2021. – С. 111-116.
19. Маджидова Р.У. Аксиологическое исследование антропологических пословиц. – Т.: VneshInvestprom, 2019. - 244 с.

20. Постовалова В. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке. – М.: Наука, 1988.
21. Хайдеггер М. Время и бытие. Статьи и выступления. – М.: Республика, 1993. – 447 с.

Badiiy adabiyotlar

22. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – T.: Ilm–ziyo–zakovat nashriyoti, 2019. – 320 b.
23. Harper Lee. To Kill a Mocking-bird. – Kiev: Dnipro Publishers, 1987.
24. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. - T.: Sharq, 2008. 400 b.
25. O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. - T.: O'zbekiston, 2018.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:378.1.46

Lobar SULTONOVA,
A.Avloniy nomidagi Milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: sinceresincere257@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori, dotsent F.E.Karimov taqrizi ostida

MANAGEMENT PERFORMANCE EVALUATION CRITERIAS OF EFFECTIVE SCHOOL PRINCIPALS

Abstract
In this article, the criteria for evaluating the management activity of general secondary school principals are considered, and foreign experiences evaluating the effectiveness of school principals are analyzed. Also, criteria for evaluating the performance of an effective school principal in terms of educational management are proposed.
Key words: School principal, management performance, evaluation, evaluation criterias.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКА УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭФФЕКТИВ ДИРЕКТОРА ШКОЛЫ

Аннотация
В данной статье рассмотрены критерии оценки управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ, а также проанализирован зарубежный опыт оценки эффективности директоров школ. Также предложены критерии оценки деятельности эффективного директора школы с точки зрения управления образованием.
Ключевые слова: Директор школы, управления деятелности, оценка, критерии оценки.

SAMARALI MAKTAB DIREKTORINING BOSHQARUV FAOLIYATINI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari ko‘rib chiqilgan, maktab direktorlarining samaradorligini baholovchi xorij tajribalari tahlil qilingan. Shuningdek, samarali maktab direktorining ta’limni boshqarish bo‘yicha faoliyatini baholash mezonlari taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: Maktab direktori, boshqaruv faoliyat, baholash, baholash mezonlari.

Kirish. Hozirgi vaqtda butun dunyoda maktab direktorlarining kasbiy faoliyatini baholashning turli usullari keng o‘rganilmoqda. Negaki, barkamol, mantiqiy va nazariy jihatdan asoslangan baholash tizimining mavjudligi ta’limda kadrlar rivojlanishini boshqarish, yashirin zaxiralarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Biroq, mamlakatimizda ham, xorijda ham ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini baholash masalasini hal etishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, professor-o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aksariyat mamlakatlarda boshqaruv xodimlariga birinchi va eng yuqori malaka toifalarini berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bu, asosan, ta’lim rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, hozirgi kunga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ilmiy asoslangan talablar qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq; ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy fazilatlari, boshqaruv malakasi va mehnat samaradorligini baholashning kompleks ko‘rsatkichlari, mezonlari va tartiblari tizimi ishlab chiqilmagan. Natijada ta’lim muassasalari rahbarlarining faoliyatini baholash turli hududlarda ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatining faqat ayrim jihatlarini qamrab oluvchi usullardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bu turli hududlarda bir xil rahbarlarning bahosi har xil bo‘lishi mumkinligiga olib keladi.

Shuning uchun ta’lim tashkilotlarining rahbar kadrlari-maktab direktorlari faoliyatini baholash, ularning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirib borish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 farmonida maktab direktorlari faoliyat samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligining ta’kidlanishi, [1] yurtboshimizning 2022-yil 11-maydagi PF-134 sonli “2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida ilg‘or maktab direktori mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar faoliyatini baholab borish kabi strategik yo‘nalishlarning belgilanishi [2] ham maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholab borish qanchalik dolzarb ekanligini asoslaydi.

Fikrimizcha, direktorlarni baholash - direktorlar faoliyatini yaxshilash, ularning salohiyatini ko‘tarish, o‘qituvchilar samaradorligi va o‘quvchilar taraqqiyoti uchun javobgarlikni oshirish hamda ularning o‘quvchilar va maktablarga umumiy ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlashda muhim sanaladi. Samarali maktab direktorlari va o‘quvchilarning yutuqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olgan holda, maktab direktorlarini baholash va rivojlantirish maktablarni takomillashtirish, o‘quvchilar muvaffaqiyatini oshirish va doimiy yutuqlardagi tafovutlarni qisqartirishning asosiy strategiyasi sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida Ch.Condon, M.Clifford, R.Heck, T.Larsen, G.Marcoulides, R.Vanderberghe, H.Ebmeier, J.Kouzes, B.Posner, K.Leithwood kabilarning ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganildi hamda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda nazariy darajada- tadqiqotning ilmiy muammosi bo‘yicha adabiyotlar, ilmiy –uslubiy qo‘llanmalarni tahlil qilish, emperik darajada esa pedagogik tajriba, kuzatuv usullari, intervyu, so‘rovnomalar, ma’lumotni qayta ishlashning statistik usullari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jahonda maktab ta’limini rivojlantirish uchun maktab direktorlari faoliyatini isloh qilib

borish bo‘yicha ko‘plab ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan, dunyo olimlari direktor faoliyatini baholash mezonlarini maktab direktorining ta’lim yetakchiligidagi standartlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqadilar.

Yevropada ISLLC standartlari Ta’limdagi yetakchilik siyosati standartlari 1996-yilda Davlatlararo maktab rahbarlari litsenziyalash konsortsiumi tomonidan ishlab chiqarilganidan buyon maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini yo‘naltirishga yordam berib kelmoqda.

ISLLC standartlari oltita standart ostida kuchli maktab boshqaruvini aniqlashga yordam beradigan funksiyalarni tashkil qiladi.[3]

1-standart: Maktab direktori maktab hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ta’limga oid qarashlarni ishlab chiqish, ifodalash, amalga oshirish va boshqarishga yordam berish orqali barcha o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ko‘maklashuvchi ta’lim rahbaridir.

2-standart: Maktab direktori har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini targ‘ib qilish, tarbiyalash va o‘quvchilarning bilim olishi va xodimlarning kasbiy o‘sishiga yordam beradigan maktab madaniyati va o‘quv dasturini qo‘llab-quvvatlaydigan ta’lim rahbari.

3-standart: maktab direktori xavfsiz va samarali ta’lim muhiti uchun muassasa, faoliyat va resurslarni boshqarishni ta’minlash orqali har bir o‘quvchining muvaffaqiyatiga yordam beradigan ta’lim rahbari.

4-standart: professor-o‘qituvchilari va jamoa a’zolari bilan hamkorlik qilish, jamiyatning turli manfaatlari va ehtiyojlariga javob berish hamda jamoat resurslarini safarbar qilish orqali har bir o‘quvchining muvaffaqiyatiga yordam beruvchi ta’lim rahbari.

5-standart: maktab direktori halol, adolatli va axloqiy me’yorlarga rioya qilgan holda har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini ta’minlovchi maktab rahbari.

6-standart: siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy kontekstni tushunish, ularga munosabat bildirish va unga ta’sir ko‘rsatish orqali har bir o‘quvchining muvaffaqiyatiga ko‘maklashuvchi ta’lim rahbari.

ISLLC standartlarining mazmun-mohiyatiga bog‘liq holda, jahon ilmiyhamjamiyati tomonidan maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholovchi shkalalar yaratilgan. Xususan quyidagi 8 ta baholash shkalasi Learning Point Associates xodimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda samarador deb topilgan:[10]

1. Change Facilitator Style Questionnaire - (o‘zgarishlarga yordam berish usuli so‘rovnomasi). Vandenberghe liderlar o‘zgarishlarga qanchalik yordam bera olishini baholash uchun o‘zgartirishga yordam beruvchi uslubi so‘rovnomasini (CFSQ) ishlab chiqdi. CFSQda o‘zgarishlarni osonlashtiruvchi uslublar sifatida uch xil yondashuv aniqlangan: tashabbuskor, menejer va javobgar. Ma’lumotlar uchta klasterga bo‘lingan, har bir klasterga ikkita o‘lchov kiritilgan:

1-klaster. Odamlar bilan aloqa (munosabat): 1-shkala (ijtimoiy/norasmiy) va 2-shkala (rasmiy/mazmunli)

2-klaster. Tashkiliy samaradorlik: 3-shkala (boshqalarga ishonish) va 4-shkala (ma’muriy samaradorlik)

3-klaster. Strategik idrok etish: 5-shkala (kundalik faoliyatni) va 6-shkala (kelgusidagi faoliyatni ko‘rish va rejalashtirish).[7]

2. Diagnostic Assessment of School and Principal Effectiveness-Maktab va direktor samaradorligini diagnostik baholash. Ebmeier ushbu chorani maktablar va maktab rahbarlarining kuchli tomonlarini aniqlash va maktabni takomillashtirish rejalari va asosiy kasbiy rivojlanish maqsadlaridan yaxshiroq xabardor bo‘lish uchun ishlab chiqdi. Baholashni yakunlash uchun o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va direktorlar tomonidan alohida so‘rovlar to‘ldiriladi. Ko‘rsatkichlar ushbu guruhlarning o‘zlariga, maktab rahbariyatiga va maktab faoliyatiga munosabatlari qandayligini ko‘rsatadi. Maktab yetakchisi xususiyatlari va maktab xususiyatlari o‘rtasidagi moslikni aniqlash uchun bir nechta tadbirlar bir nechta guruhlar tomonidan o‘tkaziladi. Ushbu chora-tadbirlar ularning maqsadiga qarab alohida ishlatilishi mumkin.[4]

3. Instructional Activity Questionnaire- Ta’lim faoliyati so‘rovnomasi. Ushbu baholash Larsen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u direktorlar ishining o‘quv yetakchilik jihatlarini ko‘rib chiqadi. Bu maktab direktorining samaradorligi bo‘yicha adabiyotlarni keng ko‘lamli ko‘rib chiqish orqali ishlab chiqilgan.[8]

4. Leadership Practices Inventory- (Boshqaruv amaliyotlari inventarizatsiyasi (ro‘yhatga olish). Kouzes va Posner yetakchilik amaliyotlari inventarini (LPI) eng yaxshi yetakchilik amaliyotlarini aniqlash uchun yetakchilar, jumladan, direktorlar bilan keng ko‘lamli intervyu va so‘rovlar o‘tkazish orqali ishlab chiqdilar. Shunday qilib, LPI yetakchilik amaliyotlarini professional turlarga o‘tkazilishi mumkin deb hisoblaydi. Biznes muhitida odamlarni ilhomlantiradigan narsa ta‘lim sharoitida ham ishlashi mumkin. LPI domenlari quyidagilardan iborat: (1) yo‘lni modellashtirish, (2) umumiy tasavvurni ilhomlantirish, (3) jarayonni qiyinlashtirish, (4) boshqalarga harakat qilish imkonini berish va (5) rag‘batlantirish. Ushbu shkala ko‘plab fanlar bo‘yicha keng tarqalgan. Shuningdek, LPIda onlayn yoki bosma so‘rov sifatida ham to‘ldirilish imkoniyati mavjud. [5]

5. Performance Review Analysis and Improvement System for Education- Ta’lim samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish tizimi. Ta’lim samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish tizimi (PRAISE) baholash tizimi maktab ma'muriyatining samaradorligi bo‘yicha adabiyotlarni keng ko‘lamda ko‘rib chiqish orqali Knoop va Kommon tomonidan ishlab chiqilgan. PRAISE baholash so‘rovnomasi 9 ta kichik mezonlarni o‘z ichiga oluvchi 81 ta baholash elementlaridan tashkil topgan bo‘lib, muammolarni hal qilish, o‘qituvchilar bilan munosabatlar, kasbiy fazilatlar va malakalar kabi 9 ta kichik mezonlarni o‘z ichiga oladi, ularga javob berish uchun esa 15-20 daqiqa vaqt belgilanadi. [11]

6. Principal Instructional Management Rating Scale-Direktorlarning ta’lim boshqaruvi reytingi shkalasi. Hallinger va Merfi (1985) direktorlarning ta’lim menejerlari sifatida xizmat qilish darajasini aniqlash uchun ta’limni boshqarish reyting shkalasini (PIMRS) ishlab chiqdilar. PIMRS, shuningdek, har bir konstruksiyaning namunalarini taqdim etadi, ular o‘zlarining yoki boshqalarning amaliyotidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun baholovchilar tomonidan ishlatilishi mumkin. PIMRS bir nechta tuzilmalarga, jumladan, ta‘limni takomillashtirish, o‘quv dasturini muvofiqlashtirish va ko‘rsatmalarni baholash uchun vaqtdan foydalanishga qaratilgan. [9]

7. Principal Profile-Direktor profili. Direktor profili keng qamrovli suhbat hamda direktorlar, o‘qituvchilar, inspektorlar va bo‘lim boshliqlari bilan maslahatlashuvlar orqali ishlab chiqilgan. Mualliflar haqiqiylik va ishonchlilikni aniqlash va baholash maktab/tuman sharoitida foydalanish uchun amaliy ekanligini ta’minlash uchun amaliyotchilar bilan maslahatlashishdi. U ikkita asosiy farazdan iborat: (1) o‘quvchilarning o‘sishi maktab rahbarining samaradorligi uchun mezon va ish faoliyatini baholashda omil bo‘lishi kerak va (2) maktab rahbarining samaradorligi harakatlar izchilligi bilan belgilanadi, chunki direktorlardan aniq belgilangan maqsadlar va ularga izchillik bilan erishish uchun malaka va bilim talab qilinadi. [6]

8. Vanderbilt Assessment of Leadership in Education-Vanderbiltning ta’limda yetakchilikni baholash shkalasi (VAL-ED) 2006 yilda ishlab chiqilganidan beri u maktab rahbariyati faoliyatini baholashning eng keng tarqalgan

mezonlaridan biriga aylandi. VAL-ED direktorlar, o‘qituvchilar va direktorlar rahbarlaridan ma’lumot to‘plash orqali direktor faoliyatini baholaydi. VAL-ED natijalari ISLLC standartlari bilan bog‘langan miqdoriy diagnostika profilini yaratadi. Shuningdek, VAL-ED har yili (yoki tez-tez) direktorlar samaradorligini baholashga, kasbiy takomillashtirishni yo‘naltirishga mo‘ljallangan. Respondentlardan direktorning o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yetakchilik tizimining asosiy tarkibiy qismlariga ta’sir qiluvchi aniq harakatlarda qanchalik samarali ekanligi so‘raladi. So‘rovnomadagi 72 ta mezonlarning har biri uchun samaradorlik reytinglari 1 (samarasiz) dan 5 (juda samarali) gacha belgilanadi. [12]

Tahlillarga ko‘ra, Yevropada direktorlik lavozimini isloh qilishda ajralib turadigan jihat shundaki, ular direktorlarni baholashda ham, reytingini aniqlashda ham va direktorning kasbiy portfoliolarini ishlab chiqishda ham ISSLC standartlariga tayanadi.

Xulosa va takliflar. Samarali maktablar bo‘yicha o‘rganilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jihatidan samarali maktablar direktorlari maktab ta’limining maqsadlari, texnologiyasi va natijalari o‘rtasida mustahkam bog‘lanishni saqlashga harakat qilishadi. Shundan kelib chiqib, samarali maktab direktorining ta’limni boshqarish rolini uchta umumiy mezonlarga bo‘lishni taklif etamiz: maktab missiyasini aniqlash, o‘quv jarayonini boshqarish va ijobiy ta’lim muhitini targ‘ib qilish.

Bular qo‘shimcha 10 ta ta’limni boshqarish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Maktab missiyasini aniqlash:

Maktab maqsadlarini shakllantirish

maktab maqsadlarini yetkazish

O‘quv (ta’lim) jarayonini boshqarish:

Yo‘riqnoma (maktab yo‘l xaritasi)ni nazorat qilish va baholash

O‘quv dasturini muvofiqlashtirish

O‘quvchilar rivojlanishini monitoring qilish

Maktabda ijobiy ta’lim muhitini targ‘ib qilish:

O‘quv vaqtini himoya qilish

Kasbiy rivojlanishni targ‘ib qilish

Yuqori ko‘rinishni (maktab imijini) saqlash

O‘qituvchilarni rag‘batlantirish

O‘qib-o‘rganishni rag‘batlantirish

Yuqoridagi mezonlardan kelib chiqib aytish mumkinki boshqaruvdagi kamchiliklarni vaqtida bartaraf etib, muammoning yechimini manzilli hal qilish bilan boshqaruv sifati orqali ta’lim sifatiga erishishish mumkin deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni.
3. Council of Chief State School Officers. (2008). Educational Leadership Policy Standards: ISLLC. 2008. Washington, DC: Author. Retrieved February 12, 2010.
4. Ebmeier H. (1992). Diagnostic assessment of school principal effectiveness: A reference manual. Topeka, KS, Kan LEAD Educational Consortium Technical Assistance Center.
5. Kouzes J., Posner, B. (2002). Leadership Practices Inventory: Theory and evidence behind the five practices of exemplary leaders. Unpublished document. Retrieved February 12, 2010.
6. Leithwood K.A., Montgomery, D. J. (1986). Improving principal effectiveness: The principal profile. Toronto: OISE Press.
7. Vanderberghe R. (1988, April). Development of the questionaire foe assessing principal change fasilitator style. Paper presented at the Annual Meeting of the American Educational Research Assosiation, New Orleans, LA.
8. Heck R. H., Larsen, T. J., & Marcoulides, G. A. (1990). Instructional leadership and school achievement: Validation of a causal model. Educational Administration Quarterly, 26(2), 94–125.
9. Philip Hallinger, Patchanee Taraseina, Jack Miller “Assessing the Instructional Leadership of Secondary School Principals in Thailand”. Article Published in 1994 School Effectiveness and School Improvement, 5(4), 321-348.
10. Christopher Condon, Ph.D. Matthew Clifford, Ph.D. Measuring Principal Performance How Rigorous Are Commonly Used Principal Performance Assessment Instruments? Revised January 2012
11. Knoop R., Common, R. W. (1985, May). A performance appraisal system for school principals. Paper presented at the Annual Meeting of the Canadian Society for the Study of Education, Montreal, Quebec, Canada.
12. Vanderbilt Peabody College. Development of the Vanderbilt Assessment of the Leadership in Education. (VAL-ED). Nashville, TN: Author. Retrieved February 12, 2010.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:796.42

Farxod TASHPULATOV,
Toshkent moliya instituti "Jismoniy madaniyat va sport faoliyati" kafedrasi mudiri, dotsent
E-mail: Tashpulatov.fa.@gmail.com

TMI dotsenti A.Muxametov taqrizi asosida

UCH HATLAB SAKRASH TEXNIKASI VA TAKTIKASI

Annotatsiya

Uch hatlab sakrash yengil atletikaning kam o`rganilgan sohalaridan biri hisoblanadi. Sportchi jarayonni amalga oshirish chog`ida bir qator texnik ko`rsatmalarni inobatga olish barobarida fiziologik balansni saqlashi muhimdir. Mazkur ilmiy maqolada uch hatlab sakrashning ayrim texnik va taktik jihatlari tahlil etiladi va tegishli ko`rsatmalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, sakrash, uch hatlab sakrash, texnika, qo‘nish bosqichi, taktika, yengil atletikachilarning texnik tayyorgarligi.

ТЕХНИКА И ТАКТИКА ТРОЙНОГО ПРЫЖКА

Аннотация

Тройной прыжок – один из малоизученных видов легкой атлетики. Спортсмену важно соблюдать физиологический баланс при соблюдении ряда технических указаний в процессе. В данной научной статье анализируются некоторые технические и тактические аспекты тройного прыжка и даются соответствующие указания.

Ключевые слова: Легкая атлетика, прыжки, тройной прыжок, техника, фаза приземления, тактика, техническая подготовка спортсменов.

TECHNIQUE AND TACTICS OF TRIPLE JUMP

Abstract

Triple jump is one of the less studied fields of athletics. It is important for the athlete to maintain physiological balance while taking into account a number of technical instructions during the process. In this scientific article, some technical and tactical aspects of triple jump are analyzed and relevant instructions are given.

Key words: Athletics, jumping, triple jump, technique, landing phase, tactics, technical training of athletes.

Kirish. Gorizontal sakrashga ixtisoslashgan yuqori malakali yengil atletikachilarning mashg'ulot jarayonini pedagogik kuzatish shuni ko'rsatdiki, texnik tayyorgarlikda sakrashning alohida bosqichlarini takomillashtirishda an'anaviy ravishda qo'nish bosqichini yaxshilashga eng kam e'tibor beriladi [1, 3]. Kompleks ilmiy guruh xodimlari tomonidan amalga oshirilgan sakrashlarining texnik tayyorgarligi bo'yicha mashqlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida sakrashning yakuniy bosqichini takomillashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar deyarli yo'q. Texnik tayyorgarlikda qo'nish har doim ham maksimal samaradorlik bilan emas, balki yaxlit raqobat mashqlarini bajarish jarayonida yaxshilanadi.

Adabiyotlar sharhi. Uch hatlab sakrash chog`ida, ma'lumki, jumper qo'l va oyoqlarning har qanday harakati bilan parabolik traektoriyani o'zgartira olmaydi. Ammo tananing alohida bo'g'inlari harakati bilan tananing o'ziga xos holatini o'zgartirish mumkin, bu gorizontal atletika sakrashlarida qo'nishda juda muhimdir. Qo'llarning massa markazlarining bir yo'nalishda harakatlanishi tananing boshqa qismlarining teskari yo'nalishda muvozanatlash (kompensator) harakatlariga olib keladi [1, 4, 5]. Misol uchun, qo'lning orqaga qarab harakatlari va tos bo'shlig'ining kompensatsion oldinga harakatlanishi, qo'nishdan oldin oyoqlarni bir vaqtning o'zida to'g'rilash raqobatga santimetr qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Tadqiqotning maqsadi erkaklar o'rtasida uch hatlab sakrashda qo'nish bosqichining samaradorligini monitoring qilish metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Dartfish dasturidan foydalangan holda video tahlili bilan video suratga olishni o'z ichiga oladi. Yuqori tezlikdagi kamera (tortishish chastotasi sekundiga 210 kadr) sakrash sektoridan 12 m masofada, taxmin qilingan qo'nish joyiga qarama-qarshi 0,7 m balandlikda joylashgan. Tadqiqot 2021-2022 yillarda Toshkent moliya instituti sport zalida o`tkazildi. Ularda malakali uch hatlab sakrashchilar ishtirok etishdi (16 ta sakrash, kvalifikatsiya: kms - msmk).

Gorizontal sakrashga ixtisoslashgan malakali sakrashchilarning qo'nish bosqichida texnik harakatlar bajarilishining video tahlili shuni ko'rsatdiki, ba'zi sportchilar, hatto MSMK darajasida raqobatbardosh natijalarga ega bo'lsalar ham, birinchi toifali sportchilar darajasida qo'nish texnikasi samaradorligi ko'rsatkichlariga ega. Sababi, texnik tayyorgarlikda sakrashning ushbu bosqichini takomillashtirishga etarlicha e'tibor berilmagan.

Sportchilarning texnik mahoratini oshirish jarayoni sport mashqlarining turli bosqichlarida texnik tayyorgarlikni baholash metodikasini ishlab chiqish bilan uzviy bog'liqdir. Qo'nish bosqichida jumperning texnik mahorat darajasini oshirish vazifasi ushbu bosqichni bajarish texnikasini joriy baholash bilan bog'liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun uch hatlab sakrashning video tahlili asosida sakrashning yakuniy bosqichida uch hatlab sakrashda sakrashchilarning texnik tayyorgarligini baholashning kompleks metodologiyasini tashkil etuvchi ikkita mezon ishlab chiqildi.

Natijalar. Birinchi mezon. Qo'nish samaradorligi koeffitsienti (Кэп). Gorizontal atletika sakrashlarida qo'nish bosqichining samaradorligi oyoqlarning qumga tegishi paytida sportchining bo'g'inlaridagi burchak parametrlari bilan tavsiflanadi (1-rasm).



1-rasm. Uch hatlab sakrashda qo‘nish fazasining burchak parametrlari:

burchak σ - sportchining qumga tegishi paytida tizza bo'g'imidagi burchak;

burchak b - sportchining qumga tegishi paytida kestirib, bo'g'imdagi burchak;

burchak g - tos suyagining pastki nuqtasini va oyoq bilan qum bilan aloqa qilish nuqtasini bog'laydigan chiziq orasidagi burchak va gorizontal (chuqurdagi qum yuzasi).

Ta'kidlanganidek, sakrashchilarning sport mahoratining o'sishi va sakrashning parvoz bosqichining gorizontal tezligining oshishi bilan son bo'g'imi va tizza bo'g'imidagi burchaklar ko'rsatkichlari pastki nuqtaning tushish burchagining pasayishi bilan ortadi.

Кэп = (b + σ) /g.

Raqobat faolligini tekshirish va qo'nish paytida tana holatining burchak ko'rsatkichlarini keyingi video tahlil qilish uch marta sakrashda natijaning burchak ko'rsatkichlariga va qo'nish samaradorligi koeffitsientiga bog'liqligi uchun regressiya tenglamalarini yaratishga imkon berdi.

Tos suyagining pastki nuqtasini bog'laydigan chiziq va oyoqning qumga tegishi va gorizontal (chuqurdagi qum yuzasi) orasidagi burchak g burchakdir.

Uch hatlab sakrashda natijaning qo'nishning burchak parametrlariga bog'liqligi uchun ishlab chiqilgan regressiya tenglamalari uchlikdagi ma'lum bir raqobatbardosh natija uchun qo'nish ko'rsatkichlarining (qo'nish samaradorligi koeffitsienti va burchak parametrlari) model xususiyatlarini ishlab chiqishga imkon berdi. 15,50–17,50 m oraliqda sakrash (1-jadval).

1-jadval

Erkaklar uchun uch hatlab sakrashda qo'nish parametrlarining namunaviy xususiyatlari

№	Parametr	Uch hatlab sakrash natijasi (m)				
		15,50	16,00	16,50	17,00	17,50
1	Qo'nish samaradorligi omili (Кэп)	7,3	8,1	8,9	9,7	10,5
2	Burchak g	30	27	24	21	18

Ikkinchi mezon. Oyoqlarning qo'nish nuqtalari va sportchining tanasi o'rtasidagi farq. Gorizontal sakrashda sportchining samarali qo'nishining mezonlaridan biri bu oyoq va torsonning deyarli bir chiziqqa tushishi. Shu asosda qo'nish bosqichida sakrashchilarning texnik tayyorgarligining ikkinchi mezoni shakllantirildi (2-jadval).

2-jadval

№	Indeks Ртул. – Рст. (см)*	Qo`nish varianti	Выводы
1	0-5	Model - oyoq va torsonning deyarli bir chiziqqa tushishi	Modelning qo'nish qiymatlari (Кэп bilan)
2	5 dan ortiq	Oyoqlar tanaga ancha yaqinroq tushdi	Qo'ngandan keyin oyoqlarning erta tushishi
3	0 dan kam	Torso to'xtashdan ko'ra yaqinroq qo'ndi	Oyoqning qumga tegishidan keyin oyoq fleksiyasining kechikishi

Ртул – Рст: oyoqlarning qo'nish nuqtalari va sportchining tanasi o'rtasidagi farq

Jadvaldagi birinchi variant, qumni tana va oyoq bilan tegizish nuqtalari orasidagi masofa (o'lchov chizig'iga eng yaqin) 5 sm ichida bo'lganda namuna sifatida tan olinadi. Katta qiymatlar (2-variant) yoki noldan past qiymatlar, tana sportchining oyoqlariga yaqinroq tushganda (3-variant) jamperning samarasiz texnik harakatlari sifatida tan olinadi.

Ikkinchi mezon samarali qo'nish uchun zarur shartdir, ammo yetarli emas. Bu mezon birinchi va asosiy mezonga qo'shimcha hisoblanadi. Qo'nish bosqichining samaradorligini monitoring qilish metodologiyasida ustuvorlik asosiy mezonga beriladi, ya'ni yuqori chegara qiymati.

Xulosa va munozara. 1. Malakali uch hatlab sakrashchilarning raqobat faolligini nazorat qilish amaliyotida qo‘nish samaradorligi koeffitsienti (asosiy mezon) ko‘rsatkichlari va o‘rtasidagi farq ko‘rsatkichlaridan tashkil topgan qo‘nish bosqichidagi texnik tayyorgarlikning kompleks mezoni ishlab chiqildi va eksperimental asoslandi. Bunda oyoq va tana bilan qumga tegish nuqtalari (qo'shimcha mezon) inobatga olindi.

2. Koeffitsientning namunaviy ko'rsatkichlari 15,50-17,50 m raqobatbardosh natija oralig'ida uch hatlab sakrashda ma'lum bir natija uchun qo'nish samaradorligi - uch hatlab sakrashning uchinchi bosqichi.

3. Qo'nish texnikasining qiyosiy tahlili uch hatlab sakrashda qo‘nish samaradorligi parametri uzunlikka sakrashchilarnikidan 22,7% past ekanligini ko‘rsatdi. Bu samarali qo'nish uchun uch hatlab sakrashda qiyinroq shartlar – qo'nish oldidan uch hatlab sakrashning past gorizontal tezligi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Mironenko I.N. Insonning sakrash lokomotsiyalarida motor harakatlarining evolyutsiyasi / I.N. Mironenko // Sportchilarni tayyorlashga zamonaviy nuqtai nazar: xalqaro konferentsiya materiallari. - M., 2016. - S. 127-147.
2. Ogandjonov, A.L. Malakali yengil atletikachilarni tayyorlashni boshqarish / A.L. Oganjonov. – M.: Jismoniy madaniyat, 2015. – 200 b.
3. Ogandjonov A.L. Innovatsion o'lchash tizimidan foydalangan holda yengil atletikachilarni tayyorlashni boshqarish texnologiyasi / A.L. Ogandjonov, E.S. Tsyplenkova, P.A. Ovchinnikov // Tula davlat universiteti materiallari. - 2016. - Nashr. 2. - b. 157-164.

4. Popov V.B. Yuqori malakali yengil atletikachilarni sportga tayyorlash tizimi: (nazariya, amaliyot, metodika): muallif. dis. ... Doktor ped. Fanlar / V.B. Popov. - M., 2018. - 51 b.
5. Tyupa V.V. Uzunlikka sakrash texnikasining biomexanik asoslari / V.V. Tyupa, E.E. Arakelyan, E.Ya. Gridasova, O.N. Muxin. – M.: TVT bo‘limi, 2011. – 128 b.
6. Mosina E.I. Oliy sport mahorati bosqichida sakrashchilarning texnik tayyorgarligini individuallashtirish: diss. … c.p.s. - M., 2015. - 132 b.
7. Burnett A. Sakrashning biomexanikasi: sportchilarning maydondagi tadbirlariga aloqadorligi. - 2011. - Murabbiylar axborot xizmati sayti. - Edinburg: Edinburg universiteti.
8. Shustin, B.N. Sportda modellashtirish (nazariy asoslar, amaliy tavsiyalar): t.f.n. dis. ... Doktor ped. Fanlar / B.N. Shustin. - M., 2015. - 48 b.
9. Tyupa V.V. Uzunlikka sakrash texnikasining biomexanik asoslari / V.V. Tyupa, E.E. Arakelyan, E.Ya. Gridasova, O.N. Muxin. – M.: TVT bo‘limi, 2011. – 128 b.
10. www.ziyonet.uz

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 37.01.34:378

Nabijon TEMIROV,
FarDU professori, p.f.d
E-mail: tns-53@mail.

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent R.Oripova taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO THE FORMATION OF LEGAL AWARENESS OF YOUNG PEOPLE IN REMOTE AREAS

Annotation

This article discusses:
1. Legal understanding is also carried out in everyday, professional and scientific processes. Everyday legal consciousness usually comes from the personal experience of a particular person with the law. Usually he does not go beyond the problems of life and manifests healthy thoughts in himself. 2. Understanding the law consists in the knowledge of legal norms of sufficient quality and the ability to apply them correctly. Knowledge of law at this level occurs in the sense of specially conducted legal research. The understanding of scientific law is based on a legal approach and presupposes the existence of a whole system of views and skills aimed at legal generalization and diagnostics.
Key words: Jurisprudence, culture, jurisprudence, law, society, legal knowledge, social, moral, legal ideology.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ НАВЫКОВ ПРАВОСОЗНАНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ОТДАЛЕННЫХ РАЙОНАХ

Аннотация

В этой статье обсуждается следующее:
1. Правопонимание осуществляется также в бытовом, профессиональном и научном процессах. Повседневное правосознание обычно возникает из личного жизненного опыта конкретного человека с правом. Обычно он не выходит за рамки жизненных проблем и проявляет в себе здоровые мысли. 2. Понимание права состоит из достаточно качественного знания правовых норм и умения их грамотно применять. Понимание права на этом уровне происходит в смысле специально проводимых правовых исследований. Понимание научного права основывается на юридическом подходе и предполагает наличие целой системы взглядов и умений, направленных на правовое обобщение и диагностику.
Ключевые слова: Правосознание, культура, правосознание, законодательство, общество, правовое знание, социальная, ценностная, правовая идеология.

CHEKKA HUDUDLARDA YOSHLARDA HUQUQNI ANGLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqola mazmunida quyidagilar haqida fikr yuritiladi:
1. Huquqni anglash kundalik, kasbiy va ilmiy jarayonlarda ham amalga oshiriladi. Kundalik huquqni anglash odatda muayyan odamning huquq bilan bog‘liq shaxsiy turmush tajribasidan yuzaga keladi. Odatda u turmush muammolari doirasidan tashqariga chiqmaydi va o‘zida sog‘lom fikrlarini namoyon etadi. 2. Huquqni anglash huquqiy meyorlarni yetarlicha sifatli bilishdan va ularni savodxonlarcha qo‘llash o‘quvidan iborat. Mazkur darajadagi huquqni anglash maxsus olib boriladigan yuridik o‘qish ma’nosida yuzaga keladi. Ilmiy huquqni anglash qonuniy yondashuvga asoslangan va huquqiy umumlashtiruvchi, tashxislashtirishga qaratilgan butun tizimli qarashlar va qobiliyatning mavjudligini ko‘zda tutadi.
Kalit so‘zlar: Huquqiy ong, madaniyat, hsquqni anglash, qonunchilik, jamiyat, huquqiy bilim, ijtimoiy, qadriyat, huquqiy mafkura.

Kirish. Bugun o‘zbek jamiyatida aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati qay darajada ekanligini baholashning o‘zi murakkab. Chunki jamiyatimiz turli qatlamlardan iborat. Masalan, oddiy aholi bor, shifokorlar, o‘qituvchilar va boshqa ziyoli qatlam bor. Biz aynan aholini emas, balki huquqni qo‘llaydiganlarning huquqiy madaniyat darajasiga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish bevosita huquqni anglash bilan bog‘liqdir. Bu atama yuridik, falsafiy, pedagogik adabiyotlarda ko‘proq uchraydi. Buning uchun avval boshdanoq «Huquqni anglash nima?» degan savolga javob topmoq zarur. Biz quyida aynan chekka hududlarda yoshlarda ta’lim-tarbiya jarayonida huquqni anglash masalasiga e’tibor qaratmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida huquqiy ong huquqqa, qonunchilikka va yuridik amaliyotga nisbatan ifoda etiluvchi bilimlar, baholar, kashfiyotlar, tuyg‘ular tizimini o‘zida namoyon etadi.

Bosqichma-bosqich shakllanib borayotgan fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyati, huquqiy ongi, ularning mazmun-mohiyati kompleks tahlil etilgan. F.Muhitdinova o‘zining tadqiqot ishida Forobiyning davlat va huquq haqidagi talimotini mustaqillik talablaridan kelib chiqib tadqiq qilgan. Unda Forobiy talimotidan milliy davlatchiligimiz rivojlanishida foydalanishning konseptual asoslari yaratilgan. Forobiyning ilmiy merosini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari davlat va huquq haqidagi qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari aniqlangan. Forobiyning davlat va jamiyat mohiyati, ularni boshqarish shakllari haqidagi ta’limoti o‘rganilgan. Forobiyning mukammal jamiyat va davlat tizimi haqidagi qarashlari tadqiq etilgan. O.A Karimova, Sh.O.

Eshonova, A.J. Rafiqovlarning o‘quvchi yoshlarni huquqiy tarbiyalashi qo‘llanmasida huquqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari va vositalari, huquqiy tarbiyalash faoliyati, huquqni o‘qitish, targ‘ibot qilish va huquqbuzarlik oldini olish shakl va metodlari yoritilgan. D.G‘ulomovaning «Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari»-risolasida «xar bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongini shakllantirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. M.A.Shoxodjayevning «Burhoniddin Marg‘inoniyning axloqiy- huquqiy tarbiyasiga oid qarashlari tadqiqot ishida Burhoniddin Marg‘inoniyning «Xidoya» asarining inson axloqiy-huquqiy ongini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Huquqni anglash odamlarning ijtimoiy hayotining huquqiy hodisalariga nisbatan munosabatini ifoda etuvchi qarashlar, tuyg‘ular, an’analar, kechinmalar yig‘indisini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Huquqni anglash mohiyati uning xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. U ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan xoli holda mavjud emas. Axloq, axloqlilik, siyosiy g‘oyalar va tasavvurlar, huquqni anglashni shakllantirishga faol ta’sir qiladi. Huquqni anglash faqat jamiyat hayotining huquqiy hodisalarini aks ettiradi. Huquqiy hodisalarni anglash esa yuridik tushunchalar va kategoriyalarni qullash yo‘li bilan ishlab chiqiladi («qonuniylik», «yuridik javobgarlik», «qonunbuzarlik» va h.k.). Huquqni anglash nafaqat turg‘unlikda balki harakatda ular rivojlanishining subyekti va yo‘nalishini aks ettirgan holda ijtimoiy munosabatlar holatini ko‘rsatadi. Huquqni anglash odamlarning ta’siri ostida shakllanadi va ma’lum vorisiylik bilan tavsiflanadi.

Huquqni anglashning asosiy xususiyatlari biri ijtimoiy ong bo‘lib, uning mazmunida turli subyektlar, g‘oyalar, nazariyalar, tuyg‘ular, hislar, kashfiyotlar kabilar o‘rin egallagan. Huquqiy subyektlar yuridik jihatdan ahamiyatga molik xulq-atvorni tanlashga, odamar faoliyatini boshqarishga xizmat qiladi.

Huquqni anglash huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya (ijtimoiy-psixologk, hissiy-irodaviy jihatlar) asosida rivojlanadi.

Huquqiy mafkura – huquqiy voqelik haqida yuqori darajada ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, har tomonlama o‘ylab ko‘rilgan tushunchalar, e’tiqodlar, nazariyalar, tasavvurlar, qarashlar, konsepsiyalardir. Ta’kidlash joizki, rivojlangan huquqiy davlatda huquqiy mafkura turli ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi ijtimoiy murosa, shaxs huquqi va erkning ustivorligi, hokimiyatlar, siyosiy madaniyat, sudning mustaqilligi haqidagi g‘oyalardan iborat mustahkam axloqiy poydevor asosida shakllanadi.

O‘z huquqini, majburiyatlarini ularni amalga oshirish chegaralarini bilmaydigan odam o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmaydi. «Nima mumkin», «Nima mumkin emas»ligini bilgan holda yuzaga kelgan huquqiy vaziyatda aniq yo‘lini topa oladi. O‘z huquq va erklarini himoya qila oladi. Ularga rioya qilishni talab eta oladi. O‘ziga nisbatan boshqa odamlar va davlat tomonidan qonunbuzarlik sodir etish oldini ola biladi. Muayyan huquqiy mayorlarda to‘g‘ri ish tutib, insonlarga to‘g‘ri baho beradi va o‘zi uchun huquq qayerda boshlanib, qayerda tugashini bilib oladi. Shu masalalarni bir yoqli qilib, u endi to‘g‘ri amaliy xulosalar chiqarishga va xulq-atvorning eng maqbul yo‘lini tanlashga qodir bo‘ladi.

Masalan, Buyuk Britaniya tajribasini oladigan bo‘lsak, bu mamlakatda huquqiy targ‘ibot ishlarini bosqichma-bosqich singdirib boriladi. Deylik, bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalarga yo‘ldan o‘tishda svetofor chiroqlariga amal qilish, yo‘lni faqat belgilangan joydan kesib o‘tish kerakligi singdiriladi. YA’ni ular kichik-kichik maqsadlarni qo‘yishadi, keyin shu bo‘yicha tanlov e’lon qilishadi. Buni adliya yoki ichki ishlar organlari amalga oshirmaydi. Maxsus dasturlar bor, mana bu vazifalarni bajarish kerak, buncha pul beriladi, deb grant e’lon qilingach, nodavlat notijorat tashkilotlar o‘z g‘oyalarini taqdim etishadi. Eng ma’qul taklif egasi g‘olib deb topiladi va u dasturda ko‘zda tutilgan muddat yakunida qilgan ishlari bo‘yicha hisob beradi.

Huquqni anglash mazmunida huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya bilan birga xulq-atvorni aloxida ajratib ko‘rsatish lozim. Chunqi, xulq- atvor huquq qadriyatlarini va huquqiy meyorlarga rioya qilishga asoslangan ruxiy holatlarda o‘z ifodasini topadi. Huquqiy qurilma quvvat beruvchi dvigatel, aqliy-hissiy-irodaviy ta’limdir. Qurilma deganda shaxsning axborotni, jarayonlarni, hodisalarni ularning shu bahoga muvofiq tarzda harakat qilishga tayyorligi muayyan tarzda qabul qilish va baholash tendensiyasi tushuniladi. O‘zining mujassamligida qurilmalar, e’tiqodlar tizimiga asoslanadi. Yetakchi qurilmalar shaxsning yo‘naluvchanligini, uning hayotda tutgan o‘rnini belgilaydi va mazmunli jihatlarini tavsiflaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, huquqni anglash faoliyat tuzilmasini quyidagicha tushuntirish mumkin.

Huquqni anglash faoliyatining tuzilishi

Huquqni aglashning asosiy vazifalari	Ruhiy tarkiblar	Faoliyat natijalari	Empirik ko‘rsatmalar
Bilish faoliyati	Aqliy– tuyg‘ularini rivojlantirish	Huquqiy tayyorgarlik	Yuridik bilimlarni egallash va foydalanish
Baholash faoliyati	Aqliy-hissiy tuyg‘ularni takomillashtirish	Huquq va amaliyotga qo‘llash munosabati	Baholash mulohazalari va fikrlarini rivojlantirish

Boshqaruv faoliyati

Irodani mustahkamlash va rivojlantitrish

Huquqiy qurilmalar va mo‘ljallar

Xulq – atvorni qaror toptirish

Huquqiy «qurilma» tushunchasi «huquqni anglash» tushunchasidan kengroqdir. Chunki qurilma o‘zida fikrni ham, tuyg‘ularni ham, rag‘batlarni ham harakatga chorlashni o‘z ichiga oladi. Huquqiy qurilma huquqni bilish va qo‘llash sohasida faollik ko‘rsatishga shaxsning tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi o‘ziga xos tuzilmani namoyon etadi. Bunda huquqiy qurilmaga quyidagilar kiradi:

huquqiy bilimlar darajasini ko‘rsatish;

meyoriy hujjatlarda yoshlarning maq’ul yoki nomaq’ulligini baholash;

shaxs huquqlariga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lish darajasini ko‘rsatish;

shaxs hisiyotlari bilan bog‘liq bo‘lgan omillarni ko‘rsatish;

harakat darajasini tavsiflash.

Huquqiy qurilma shaxs xulq-atvoriga ikki bosqichda o‘tadi: eng avvalo huquqiy axborot o‘zlashtiriladi (ichki, subyektiv bosqich), so‘ngra huquqiy qoidalarni amalga oshirish yo‘li bilan shaxs ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi (tashqi, obyektiv bosqich). Bunda shaxs huquqiy qurilmasi huquqiy meyorlar bilimi va ularni amalda ro‘yobga chiqarish o‘rtasida o‘ziga xos vositachilik vazifasini ado etadi. Ayni vaqtda huquqni anglashning harakatchan jihati va xulq-atvorning subyektiv boshqaruvchisi hisoblanadi. Har ikkala nuqtai nazar yetarli miqdorda yashash huquqiga egadek ko‘rinadi. Huquqiy qurilmalar huquqni anglashning alohida ustqurmasi hisoblanadi.

Shaxs ijobiy, salbiy va raqobatli qurilmalarga ega bo‘lishi mumkin. Ijobiy qurilmalar haqqoniy xulq-atvorni ma’qullashda, qonunga qarshi ishlarning oldini olishda, o‘z huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy qoidalarni amalga oshiradi. Salbiy qurilmalar shaxs qonunbuzarlikni yoqlashga, qonunchilik bilan murosa qilishga, faqat majbur qilgandagina huquq meyorlariga rioya qilishga tayyor bo‘lganida ish beradi. Raqobatli huquqiy qurilmalar jamiyat va qonuniy xulq-atvorni qo‘llab-qo‘riqlashdan, qonunni buzishga tayyorlashdan, kelishmovchilikni hal etish sifatida zo‘ravonlikdan foydalanishdan iborat.

Shaxs huquqiy madaniyat tuzilmasida uzviy yaxlitlikda ko‘rib chiqiladigan uch guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular g‘oyaviy-nazariy huquqiy tasavvurlar, ijobiy huquqiy tuyg‘ular va huquq sohasida individning ijodiy faoliyati. Bular shaxs huquqiy madaniyati modelini yaratadi va unga quyidagilar kiradi:

shaxsning huquqiy xulq-atvori;

shaxsning huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabati, ular qiymatini anglash, boshqa odam huquqlarini hurmat qilish;

haqqoniy xulq-atvor odati;

ijtimoiy-huquqiy faollik.

Shaxs huquqiy madaniyatining tuzilmaviy tarkiblari huquqni bilish va tushunish, huquqni hurmat qilish, qonunga muvofiq ish ko‘rish odati va huquqiy faollik kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Demak, shaxs huquqiy madaniyatining mohiyati huquqiy bilimlarning uzviy birligidan, huquq va huquqiy xulq-atvor munosabatlardan iborat. Shaxs huquqiy madaniyati tuzilmasi haqqoniy xulq-atvorni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xulq-atvorning mohiyati quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

Huquqiy tamoyillar va meyorlarni bilish;

Meyoriy hujjatlarni baholash idroki, oqilona va hissiy darajada ularga berilgan qiziqishning shakllanishi;

Meyorlarga ijobiy munosabatining shakllanishi, ularni aql va tuyg‘ular bilan qabul qilish;

Meyoriy qoidalarning shaxs ichki qadriyatiga (huquqiy e’tiqodlar) aylanishi;

Xulq-atvorda meyorning amalga oshirilishi natijasida ushbu qurilmani mustahkamlash.

Chekka hududlardagi yoshlar qonunchilik asosida (uning tamoyillari, meyorlari, muassasalari) atrofdagilarning huquqiy faoliyati (jinoyatkorlik, jinoyatlar, jinoyatchilar), huquq-targ‘ibot idoralari xodimlari faoliyati (prokuratura, advakatura, sud, adliya, ichki ishlar idoralari); huquqiy xulq-atvor (o‘z-o‘zini baholash) hqida ma’lumotlarga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatiga ega. Chunki, huquq-targ‘ibot sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishlari bilan birga ular atrofdagilarning huquqiy faoliyatini baholaydilar. Yoshlar qonunchilik, huquqiy faoliyat, qonunning maqsadga muvofiqligi, adolat kabi nuqtai nazarga ega bo‘lish bilan, uning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o‘rnini tushinib yetadilar. Shuning uchun ham qonunchilik va shaxs tarkibi ko‘rsatkichlarini amalga oshirishda uzviylikka erishish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Махмудов Р.М. Теория и методика правового воспитания рабочий молодёжи в клубных учреждениях: Автореферат. дисс…канд.пед.наук.-М., 1989.- 19 с.
2. Бекмуродов А. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон-Т.: «Ғофур Ғулом ном. нашриёт – матбаа бирлашмаси», 2010. - 148 б.
3. Примова Ф.А. Ёшлар ва миллий истиқлол ғояси: муаммолар, ечимлар- Т.: «Ўзбекистон» , 2010.- 230 б.
4. Турдибоева Р, Талаба ёшлар ҳуқуқий маданиятини шакллантиришнинг назарий ва амалий мауммолари.- Т.:- «Адолат», 2002.- 171 б.
5. Мухитдинова Ф.А. Абу Наср Форобийнинг давлат ва ҳуқуқ таьлимоти. юр.фан.ном.дисс. автореф.- Т.: 2001.- 28 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 158 E 94

Zilola TEMIROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistri

TerDPI dotsenti,psixologiya fanalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

THE STUDY STATUS OF “LYING” AND “CHEATING” IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Annatation

Lying can also be a defensive reaction of the innocent. The fear of false accusation and punishment often prompts the suspect to deny true facts and make false statements as a defense against false suspicion. Alie is a half-truth that leads a person to draw false conclusions. Aliar reports only part of the true information, while he withholds other important information needed to make a correct conclusion. The psychological characteristics of lies and deception in teenagers are discussed.

Key words: Lying, deception, personality behavior, psychology of lying, forms of lying, intentional lying, teenagers, environment.

ИЗУЧАЕМЫЙ СТАТУС «ЛЖИ» И «ОБМАНА» В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннатация

Ложь также может быть защитной реакцией невиновного. Страх ложного обвинения и наказания часто побуждает подозреваемого отрицать истинные факты и делать ложные заявления в качестве защиты от ложных подозрений. Ложь – это полуправда, которая приводит человека к ложным выводам. Лжец сообщает лишь часть правдивой информации, утаивая другую важную информацию, необходимую для правильного вывода. Обсуждаются психологические особенности лжи и обмана у подростков.

Ключевая слова: Ложь, обман, поведение личности, психология лжи, формы лжи, умышленная ложь, подростки, среда.

PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA “YOLG‘ON” VA “ALDOV” NING O’RGANILGANLIK HOLATI

Annotatsiya

Yolg‘on ham begunohning himoya reaktsiyasi bo'lishi mumkin. Noto‘g‘ri ayblov va jazodan qo'rqish gumonlanuvchini ko‘pincha haqiqiy faktlarni va yolg‘on bayonotlarni rad etishga undaydi, bunda u noto‘g‘ri shubhalardan himoya vositalarini qidiradi. Yolg‘on - bu odamni noto‘gr‘i xulosalar chiqarishga undaydigan yarim haqiqat. Yolg‘onchi haqiqiy ma‘lumotning faqat bir qismini xabar qiladi, shu bilan birga u to‘gri xulosa chiqarish uchun zarur bo'lgan muhim ma‘lumotlarning boshqa qismini yashiradi. O’smirlarda yolg‘on va aldovni psixologik xususiyatlari xaqida fikr mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yolg‘on, aldov, shaxs xulq-atvori, yolg‘on psixologiyasi, yolg‘on shakllari, qasddan yolg‘on gapirish, o’smirlar, muhit.

Kirish. Yolg‘on va aldov holatining shaxs xulq-atvorida aks etishi bo‘yicha g’arb davlatlarida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, mamlakatimizda bu mavzuda ilmiy tadqiqot manbalari yetarli bo‘lmay, shunga ko’ra o‘rganilishi jihatidan yangi va dolzarb mavzular qatorida turadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressga chidamliligi past, tashvish kuchaygan, nevrotizm va antisotsial harakatlarga moyil bo'lgan odamlar ko'proq yolg'on gapirishadi. Shu bilan birga, insonning aql-zakovati va bilim darajasi uning yolg'on gapirish chastotasiga ta'sir qilishi qayd etilmagan. Qizig'i shundaki, boshqalarga muvaffaqiyatli yolg'on gapirish qobiliyati kimdir sizga qachon yolg'on gapirayotganini aniqlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydi.

Mashhur amerikalik olim Pol Ekman o'zining "Yolg'on psixologiyasi" kitobida shunday yozadi: "Yolg'on gapirish shunchalik tabiiyki, uni bir ma'noda inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga oid bo’lishi mumkin. Ba‘zilar buni tog’ri qabul qila olmaydilar, chunki ular yolg'onga vaziyatdan kelib chiqib tabbiy hol sifatida qo’llanilishi bilishadi ammo tashqi tomondan buni qabul qila olmaydilar va har tomonlama qoralaydilar[1]. Darhaqiqat, yolg‘on inson mavjudligining ajralmas qismi ekanligini tan olish kerak. Yolg’on turli vaziyatlarda o'zini namoyon qilishi, shuning uchun bu hodisa juda xilma-xil tarzda namoyon bo’lishini ta’kidlashimiz lozim. Insonning yolg'onlari xudbin niyatlar bilan yuzaga kelishi mumkin. Masalan, boshqa odamlar hisobidan shaxsiy farovonlikka erishishga maqsadida. Bunday yolg‘on jamiyat tomonidan qoralanadi. Chunki, shaxsiy manfaatlar evaziga jamiyatga zarar yetishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Yolg‘on ezgu niyatlarga bog‘liq bo'lishi mumkin (masalan, shifokorning og‘ir kasal odamga yolg‘on gapirishi) va bunday vaziyatda axloqiy jihatdan asosli deb tan olinadi. Qanchalik paradoksal tuyulmasin, odamning yolg‘onsiz yashashi mumkin emasligi barchamizga ma’lum va buni butunlay cheklashning imkonsiz ekanligi barchamizga ma’lum. Ruhiy jihatdan sog‘lom, normal rivojlangan odamda yolg‘on, qoida tariqasida, haqiqiy motivlar bilan belgilanadi va aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan bo’ladi. Shu sababli, umuman yolg’on gapirmaslik amalda imkonsiz bo'lib qoladi va bunday holatda ruhiy patologiya sifatida yangicha ko'rib chiqilishi mumkin. Albatta, rostgo‘y odamlar yo'qligi sababli, yolg'onchi va rostgo‘y odam o'rtasidagi farq juda shartli va aniq vaziyatni aniqlashtirishni talab qiladi. Shuni esda tutish kerakki, yolg‘on har doim ham ma'lum bir shaxsning ma‘lum bir jinoyat sodir etganligi bilan bog‘liq emas. Yolg‘on ham begunohning himoya reaktsiyasi bo'lishi mumkin. Noto‘g‘ri ayblov va jazodan qo'rqish gumonlanuvchini ko‘pincha haqiqiy faktlarni va yolg‘on bayonotlarni rad etishga undaydi, bunda u noto‘g‘ri shubhalardan himoya vositalarini qidiradi[2].

Yolg‘on - bu odamni noto‘gr‘i xulosalar chiqarishga undaydigan yarim haqiqat. Yolg‘onchi haqiqiy ma‘lumotning faqat bir qismini xabar qiladi, shu bilan birga u to‘gri xulosa chiqarish uchun zarur bo'lgan muhim ma‘lumotlarning boshqa qismini yashiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yolg‘on va aldovni juda mazali qilib tayyorlangan taomga qiyoslash mumkin va suhbatdoshning uni ishtaha bilan tanovvul qilish yoki qilmasligi uni ishlab chiqaruvchining mahoratiga bog‘liq. So’z mulkining sultoni Alisher Navoiy ham o’zining “Mahbub ul-qulub” asarida ustomon yolg’onchini “ Yolg’onni chindek aytquchi suxanvar –kumushni oltin bila ro’kash qiluvchi zargar” ya’ni “Yolg’onni chindek gapiruvchi so’z ustomoni-kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar”ga qiyoslanadi.

Aldov ham yolg‘onga o‘xshab, kimningdir manfaati, axloqiy me‘yorlari to‘qnashganda, yolg‘onga murojaat qilgan odamning boshqa yo‘l bilan istalgan natijaga erishishi qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan hollarda yuzaga keladi. Yolg‘on bilan yolg‘onni birlashtirgan asosiy narsa - yolg‘onchining haqiqatni buzib ko‘rsatishga ongli istagi. Shuning barobarida o’smirlar xulq-atvorida ham yolg‘on va aldov holati aks etishini inkor etib bo’lmaydi. V.V Zenkovskiy yolg‘onga tanqidiy va nazariy jihatdan yondashib shuni ta‘kidlaydi: Biz qanchalik yolg‘on gapirishdan uzoqlashishni istasak-da, u bizning hayot tarzimizga kirib borgan, biz esa uni ishlatmasdan yashay olmaymiz. Biz hattoki yoshimiz ulg‘ayganida ham uning zararli ekanligini anglaab turib ham unga odatiy hol sifatida qaraymiz. Aslida esa, yolg‘onchilik ko‘proq bolalarda kuzatiladi[3]. Amaliy nuqtai nazardan aldashning tub ildizi, vazifasi va shartlarini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli tadqiqitchilarning ilmiy ishlarida yolg‘onga nisbatan turlicha munosabat bildirilgan: Qasddan yolg‘on gapirish. Jamiyatda insonga xos bo’lgan nomaqbul xatti-harakatlar va ularning natijasi bo’lgan ayb va uyat holatlarining ko’rinishi. (V.P.V. Alekseev, V. Znakov, Yu.V.Shcherbatyx, V. Stern); O’zga odamlarni yo’ldan ozdirish, ularga noo’rin takliflar berish. (J. Duprat); Jazodan qochish yoki imtiyozlarga erishish yo’lida. (D. I. Dubrovskiy, K. Melitan).

Ayrim zamonaviy psixologlar “yolg‘on” va “aldov” tushunchalarini alohida termin sifatida ko’rsatadilar. Amerikalik psixolog olim Pol Ekman yolg‘on va aldovni farqlab turishni ularning ta‘rif va funksiyalarini adashtirib yubormaslik lozimligini ta‘kidlaydi. Umuman olganda, yolg’on va aldov hayot faoliyatining ijtimoiy-tarkibiy qismlari ekanligi bizga ma’lum. “Yolg‘on” atamasiga “haqiqatni ataylab buzib ko’rsatish”–deb ta’rif berish mumkin.

Yolg'on - bu boshqa odamda so'zlovchi yolg'onni haqiqat deb hisoblaydigan ishonchni shakllantirish uchun ataylab qilingan, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz urinishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yolg'onni aniqlash usullari I. Vaginning kitobida yolg'onni aniqlash texnikasi keltirilgan bo’lib u yolg'ondan shubhalangan shaxsga uning gumonlari qanchalik asosli yoki asossiz ekanligiga aniqlik kiritish imkonini beradi. Kitobda yolg'onchining xatti-harakatlaridagi asosiy xatolar sanab o'tilgan va ular yordamida uni fosh qilish mumkin:

a) so'zlar

"Ba'zan kishilarning so'zlarini tinglashingiz kerak. Bunday kishilar so’zlar ekan o’zida qandaydir noqulaylik, ishonchsizlikni his qilishadi, xavotirli ko’rinishda bo’ladi.. So'zlarni adashtirish oddiy nutq xatosi bo'lmasligi mumkin. Buning sababi shundaki, yolg'on gapirganda, odam tashvishlanadi (ko'pincha) va hushyorlikni biroz yo'qotadi. Bu tufayli haqiqat yuzaga chiqishi hech gap emas. Biror kishi ataylab yolg'on gapirganda, uning so’zlash chog’ida to’xtalishlar, qisqa so’zlar, ikkilanishlar, duduqlanish holatlarini o'z ichiga oladi ... masalan: "Xo'sh ... yaxshi, menga ... m-men ... sizning yangi soch turmagingiz yoqdi!"

b) Ovoz

Tez-tez pauzalar - aldashning asosiy belgisi. Yolg'onchi so’zlar ekan salmoqlanib, uzoq to’xtaladi. Nimanidir aytishdan avval uzoq vaqt to’xtalib turadi. Ovoz ohangi ham keskin o'zgaradi. Odatda u ancha yuqori bo'ladi, lekin ta'sir qilishdan qo'rqib, ovozi bilan majburan o'ynashni boshlaydigan(tovoz ohangini o’zgartirib turuvchi) odamlarni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. U haddan tashqari g'ayritabiiy tarzda o'zini tuta oladigan, past bo'ladi. Qisqa yo'tal ham odamning qo'zg'aluvchanligini ko'rsatadi.

c) Tana harakatlari

Qo'llar odatda bir-biriga tegib turadi. Oyoqning asabiy chayqalishi yoki boshqa ritmik harakatlar boshlanadi. Qo'lning barmog'ini burun yoki quloqqa bir necha soniya tegizish. Faqat chalkashtirmang: odamning burni yoki qulog'i qichishi mumkin! Qoidaga ko'ra, burun tez va maqsadli ravishda tirnalgan, ammo bu harakat yetarlicha uzoq davom etsa, demak, odam aytmoqchi bo'lmagan narsani aytadi.

d) Mimika

Ko'pincha yolg’on gapirayotgan kishining yuzida xijolat chekish, qizarishga o’xshash ifodani ko’rish mumkin. E’tibor bilan kuzatsangiz suhbatdoshingizning u yolg’on gapirayotgan mavzuga uzoq vaqt to’xtalib, uni savolga tutganingizda savolingiz uni bir necha soniyaga bo’lsada to’xtatib qo’yadi. Yanglishib gapirib yuborgach,javobini tuzatishga urinish, o’zini yuqotib qo’yish holatiga guvoh bo’lasiz.

e) Ko'rish

Yolg’on gapirayotganda ko’zlarini olib qochadi. Ammo bu omillarning barchasi odamning hayajonini keltirib chiqaradi, lekin shunday odamlar borki, hayajonni o'zida saqlaydi va keyin kulgi yoki simulyatsiya qilingan va g'ayritabiiy xotirjamlik orqasiga yashirinadi.

Psixologiyada o'smirlarda yolg'onni tushunishning ikkita asosiy yondashuvi mavjud: biologizatsiya yo'nalishi va ijtimoiy yo'nalish. Biologizatsiya yo'nalishi tarafdorlari, rostgo'ylik va yolg'on kabi fazilatlar tug'ma bo'lishi mumkin. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan - yolg'on ijtimoiy hodisadir. Bola yolg'onchi bo'lib tug'ilmaydi, u ijtimoiy muhitda va eng avvalo, oilada yolg'onchi bo'lib qoladi. Farzand xulq-atvoridagi yolg’onchilikni yo’q qilishning eng samarali usuli ota-onalarning fe’l-atvoriga xos xususiyat ya’ni rostgo’yligi bilan belgilanadi. Ota-onalar farzandlari uchun halollik namunasi bo’lishlari lozim. Halollik oiladagi sog’lom muhitning zarur shartlaridan bo’lib, bunda oila muhitini ko’lmakdagi suvga qiyoslash mumkin bo’ladi. Ko’lmakdagi suv naqadar sof bo’lsa, baliqning yashovchanligi ortgani kabi, oiladagi sog’lom muhit ham bolaning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi[4].

O'smirning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga uning tashqi dunyo bilan muloqot qilish tajribasi, tengdoshlari va ota-onalari bilan munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar yolg'onlarining o'ziga xos xususiyatlari, turlari va motivlari mavjud.

Bolaning yolg’on gapirayotganligini quyidagi alomatlarda ko’rishimiz mumkin bo’ladi.

1.Nima qilayotganini o’zi bilmaydi. Haddan tashqari o’zgarish kuzatiladi.2. Noodatiy xatti-harakatlar. 3.Ko’zlar bilan aloqa qilmaydi. Agar siz unga qarasangiz ko’zlarini olib qochadi. 4. Suhbat mavzusini o’zgartirishga harakat qiladi. 5. Savollarni takroran beraveradi. 6 Turli qo’l harakatlarini amalga oshiradi. Boshining orqa qismini qashib, yuziga, sochiga teginaveradi. Kiyimlarini g’ijimlab, unda bezovtalik holati kuzatiladi. 7.Bolaning yuzi qizarib ketadi. 8. Gapirganda so’zlari dadil chiqmaydi. Duduqlanib gapirish kuzatiladi. 9. Og’zini kafti bilan yopadi.10. Tomog’ini qirib gapiradi. 11. Suhbat chog’ida o’zini olib qochadi.

Xulosa va takliflar. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, erta o'smirlik davrida, 13-14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar yolg'onga, ayniqsa kattalarga qaraganda juda salbiy munosabatda bo'lishadi, lekin ular o'zlarini kattalarning shaxsiy hayotiga aralashuvidan himoya qilish uchun yolg'ondan faol foydalanadilar. O'smirlar o'zlarini tengdoshlari

guruhida o’z o’rinlari bo’lishi istaganlarida ham yolg'on gapirishadi. O'smir yoshi ulg'aygan sari yolg'on, aldov,uydirma nima ekanligini tushunadi. Ularning bir-biridan farqlovchi jihatlarini bemalol ajrata bilishadi. Kishilarning yolg'onga munosabati yashirin shaklda ham, ochiq qoralash shaklida ham bo'lishi mumkin, shuning uchun yolg'on tan olinadimi yoki yo'qmi, xatti-harakatiga ko'ra har doim ham yolg’on sifatida qaralishi kerak emas. Qizlar ko'pincha yolg’onchilik haqida o’z munosabatlarini oshkora ifodalashdan bosh tortmaydilar, o'g'il bolalar esa o'z muhitida boshqalarning yolg'onlariga hech qanday munosabat bildirmaydilar. Inson biror insonning yolg’on gapirayotganligini sezib turib ham, unga ko’z yumishi va hech qanday reaksiya bildirmasligi ham mumkin. Shaxslararo o'zaro munosabatlardagi yolg'on, aslini olib qaraganda ochiqchasiga qoralanadi va bu hol odamni axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish sifatida tavsiflaydi. Har qanday yoshdagi odam yolg'on gapirish yomon ekanligini biladi va kutilgan va kutilmagan hollarda bu unga hissiy noqulaylik, zo'riqish, stress holatiga tushib qolilshiga olib keladi. Insonda kimga, qayerda va qanday yolg‘on gapirishidan qat’i nazar, yolg’on va aldovga xos axloqiy munosabat shakllanib boradi.

Shunday qilib, biz psixologik tomondan, aldov o'smir ongida voqelikning muayyan holatlari to'g'risida ataylab yolg'on g'oya yaratish bilan tavsiflanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ko'pincha o'smirlar jazodan, e’tiborsizlikdan, xo'rlanishdan, ishyoqmaslikdan va hokazolardan qo'rqib yolg'on gapirishadi. Yolg'onning haddan tashqari ko’payib ketishi tashvish, qo'zg'aluvchanlik, asabiy zo'riqish va ba'zan axloqiy buzilish darajasining oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Ильин Г.Л. Некоторые вопросы психологии общения // Вопросы психологии. - 2005. - №5. - С. 113-124.
2. Ильин Г.Л. Некоторые вопросы психологии общения // Вопросы психологии. - 2005. - №5. - С. 113-124.
3. Дубровский Д.И. Обман. Философски-психологический анализ. – М., РЭЙ, 2007.
4. Экман П. Психология лжи. – СПб.: Питер, 2009.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDC: 80.1751

Sanobar TO‘RAYEVA,
A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail:turayeva.sanobar@mail.ru

BuxDU dotsenti, f.f.n F. Safarovtaqrizi asosida

THE ROLE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN THE PRIMARY SCHOOL

Annotation

The article talks about the system of studying phraseological units within the updated curriculum of practical training. What is a phrase? How will the students understand this? The lack of vocabulary in the modern speech of the younger generation, at the same time, reduces the sensitivity to the language, which cannot use phrases in speech. Phrases make the speaker's speech lively and impressive. Clearly expresses thought. Although elementary school students often encounter expressions in everyday communication, they do not understand the meaning of the sentence and, as a result, imitate the content incorrectly. This is one of the problems in mastering the native language.

Key words: Phraseology, phraseology, task, questionnaire, teacher, 4K, reading, writing, listening and hearing.

РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

В статье говорится о системе изучения фразеологизмов в рамках обновленной учебной программы практического обучения. Что такое фраза? Как ученики это поймут? Отсутствие словарного запаса в современной речи молодого поколения, в то же время, снижает чувствительность к языку, который не может использовать в речи словосочетания. Фразы делают речь говорящего живой и впечатляющей. Ясно выражает мысль. Хотя учащиеся начальной школы часто сталкиваются с выражениями в повседневном общении, они не понимают смысла предложения и, как следствие, неправильно имитируют содержание. Это одна из проблем в овладении родным языком.

Ключевые слова: Фразеология, фразеология, задание, анкета, учитель, 4К, чтение, письмо, аудирование и слух.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA FRAZEOLOGIZMLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada yangilangan boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturi doirasida frazeologik birliklarni o‘qitish tizimi haqida gap boradi. Ibora nima? Uni o‘quvchilar qanday tushunadi? Yosh avlodning zamonaviy nutqida so‘z zahirasining kamligi, shu bilan birga nutqda deyarli iboralardan foydalanmasligi tilga bo‘lgan sezgirlikni pasaytiradi. Iboralar so‘zlovchi nutqini jonli va ta’sirchan qiladi. Fikrni aniq va obrazli ifodalash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kundalik muloqotda iboralarga juda ko‘p duch kelsada, ularning ma’nosini tushunmaydi va natijada mazmunini noto‘g‘ri taqlin qilishadi. Bu esa ona tilini o‘zlashtirishdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, frazema, topshiriq, anketa so‘rovi, o‘qituvchi, 4K, o‘qish, yozish, tinglash va eshitish.

Kirish. Til – bu insonlar o‘rtasidadigi asosiy mulqot vositasi. Shaxsga tafakkurdagi fikrni ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tar ta’biri bilan aytganda, “Til vositai robitai olamiyondir”, ya’ni til inson va olamni bog‘lab turuvchi vosita, ko‘prik hisoblanadi. Har bir tilning takomillashuvida frazeologizmlarning o‘rni juda beqiyos. Sababi, u har bir xalqning milliy xususiyatini o‘zida aks ettirib, faqat o‘sha xalqqa tegishli bo‘lgan madaniy qadryatning asosiy manbasi hisoblanadi. Iboralar orqali shaxs o‘z fikrini jonli va ta’sirli qilib bayon eta oladi. Adabiy til sifatida shakllangan har bir til iboraga juda boy hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida 25000ga yaqin frazeologizm va idiomalar borligi, rus tilida esa 30000ga yaqin ibora va idiomalar borligi aniqlangan. Iboralar o‘sha xalqning urf-odati, an’anasi va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha xalq madaniyati va tarixi haqida so‘zlab turadi. Iboralar – nutqimiz ko‘rki, undan samarali foydalanish nutq madaniyatining yuqori darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda tilshunoslikning “frazeologiya” va “frazeologizm” tushunchalari ustida turi xil bahslar olib borilmoqda. Ayrimlar ibora bir so‘zdan iborat bo‘lishi mukinligini aytsa, ayrim olimlar uni inkor etib ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan, ma’nosi bir so‘zga teng keladigan ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalar ekanligini ta’kidlashmoqda. Tilshunoslikda iboralarni – frazeologizm, frazeologik birlik, turg‘un birikma, frazema kabi ma’nodoshlaridan muntazam foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birlik yoki ibora kelib chiqishi jihatidan juda qadimiy bo‘lsa-da, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi ikki asrni o‘z ichiga oladi. Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysaruyalik fransuz tilshunos Sharl Balli (1865-1947) hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki”(1905) va “Fransuz stilistikasi” (1909-y) nomli asarlariga so‘z birlashmalari, ya’ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblarni kiritgan. U frazeologik birikmalarning tashqi va ichki belgilarini bir-biridan farqlab bergan [4, 4]. Frazeologik tadqiqotlarning ilk yo‘lga qo‘yilishi M. V. Lomonosov, V. I. Dal, A. A. Potebnya, F. F. Fortunatov, F. I. Buslayev, Sh. Balli, A. A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Qayd qilish o‘rinliki, bu davrda frazeologiya ko‘proq leksikografiya, ya’ni amaliy lug‘atshunoslik obyekti sifatida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrda o‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda

taraqqiyoti muammolarini tadqiq etishda bir qancha tadqiqotchilar o‘zbek frazeologiyasining xususiyatlari haqida bosh qotira boshlashdi. Bu yo‘nalishda shu kunga qadar 100ga yaqin ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

Turkiy tillar frazeologiyasining tadqiqi S. K. Kenesbayev va Sh. U. Rahmatullayevlar faoliyati bilan boshlangan. O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillar boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh. Rahmatullayev, Y. D. Pinxasov, A. Shomaqsudov, M. Husainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin. Tadqiqotlarda frazeologiya “keng” va “tor” doirada o‘rganilishi taklif etilgan.

Shu davr mobaynida frazeologiyaning tekshirish obyekti tilshunoslar tomonidan uzil-kesil belgilangan emas, uning doirasiga xalq maqol va matallari ham kiritib kelinmoqda. Hamdo‘stlik mamlakatlari tilshunosligida, jumladan o‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya doirasi hozirgi kunga qadar keng va tor ma’noda tushunilmoqda. Frazeologiyani keng ma’noda tushunuchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa tipdagi turg‘un birikmalarni kiritadi; tor ma’nodagi frazeologiya esa ter to‘kmoq, xamirdan qil sug‘urganday, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaslik kabi ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganish bilan cheklanadi [4].

Masalan, Sh. U. Rahmatullayev frazeologiya doirasini tor ma’noda tushunib, iboraga quyidagicha izoh bergan: “Ibora mustaqil turkumga mansub bittadan ortiq so‘zdan tarkib topgan bir butun semantik hamda grammatik birlik sifatida gavdalanadi. Ibora lug‘aviy ma’no anglatish uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra ibora lug‘aviy birlik hisoblanadi va u so‘z bilan qatorga qo‘yiladi. Masalan, ko‘nglidan o‘tkazmoq iborasi o‘ylamoq so‘zi anglatgan ma’noni, ko‘ngli joyiga tushdi iborasi esa tinchimoq so‘zi anglatgan ma’noni, eti suyagiga yopishgan iborasi esa ozg‘in, qotma so‘zlari anglatgan ma’noni bildiradi. Bu iboralarda bittadan ortiq so‘z o‘z ma’no mustaqilligini yo‘qotgani holda bir umumiy ma’no markaziga bo‘ysunadi, iboradan bir butun holda anglashiladigan ma’noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Iboradan anglashiladigan ma’no tarkibidagi so‘zlarga xos leksik ma’nolarning oddiy (arifmetik) yig‘indisi bo‘lmay, ustama ma’no sifatida, shu bilan bir vaqtda ko‘chma ma’no sifatida gavdalanadi”[1].

Shunisi muhimki, frazeologiya faniga doir yangicha ilmiy-nazariy qarashlar keyingi yillarda yaratilayotgan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan ham mustahkam o‘rin olmoqda. Masalan, prof. M. Mirtojiyevning fikricha, iboralar turg‘un birikma holidagi atamalar (milodiy yil, agrar masala, katta maslahatchi, ilmiy xodim kabi), parafrazalar (mo‘yqalam sohibi, ilm zahmatkashlari, zangori kema kapitani kabi) va frazemalar (ko‘ngli xira tortdi, kavushini to‘g‘rilab qo‘ydi kabi) dan iborat. [4, 39]. Prof. B. Mengliyev “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma” nomli darsligida iboraga quyidagicha ta’rif bergan, “Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi so‘z ma’no jihatidan uyg‘unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko‘pincha ma’nosi bir so‘zga teng va ko‘chma ma’noli bo‘ladi. So‘zning bunday barqaror bo‘glanmasi ibora (frazeologik birlik)dir [10. 176].

Qismi qat’iy bir qolipga solingan, barqarorlashgan, ko‘chma ma’no anglatib, gapda butunligicha bir bo‘lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma ibora deyiladi” [10, 176]. Bizningcha, berilgan ushbu ta’rif yuqoridagi fikrlarga tayansada, eng qulay va aniq tavsif hisoblanadi.

So‘z ham, ibora ham lug‘aviy birlik hisoblanadi. Tilimizning lug‘at boyligini tashkil etadi. Ibora so‘z birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil bo‘lmaydi, balki xuddi so‘z kabi tilda tayyor bo‘ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

Iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari:

Frazeologik birliklar eng kamida ikki sozdan iboratligi, bo‘linmas bitta ma’noni anglatib kelishi. Masalan, o‘g‘zi qulog‘ida – xursand, dumi xurjunda – chala, qo‘li egri – o‘g‘ri, qo‘li ochiq – saxiy, ko‘ngli tor – ziqna, tili shirin – xushmuomala va h.

Ibora tarkibidagi so‘zlarning turg‘unligi, ya’ni frazeologik birlik tarkibidagi so‘zlarni hatto ma’nodoshiga ham almashtirish mumkin emas. Aks holda ibora leksik mazmunini yo‘qotadi va til birligi sifatida boshqa tushunchani ifodalaydi. Osmonga chiqsa oyog‘idan, yerga kirsa qulog‘idan tortib olmoq, qovun tushirdi, dumini bosib oldi, burganing dumini ko‘rgan.

Ma’no yaxlitligi. Chunonchi, jahl otiga mindi – g‘azablandi, yeng ichida bajardi – xufya, bir yoqadan bosh chiqarib – ahil, tili kalimaga kelmay qoldi – gapirolmadi kabi iboralarda ma’noning bir so‘zga tengligi.

Bundan ko‘rinadiki, frazemalarning xususiyatlarini talqin qilishda yangi nashr etilgan darslik va qo‘llanmalarda ham aniq yaxlitlikka erishilganicha yo‘q. Bu muammoning bir tomoni bo‘lsa, iboralarni o‘qitish masalasi ikkinchi tomonidir. Hali tilshunoslikda frazeologizmlar nazariyasiga oid o‘z yechimini kutayotgan masalalar anchagina. Bundan tashqari, o‘zbek tili iboralarini o‘qitish usuliyoti esa deyarli isloh qilinmagan sohadir. To‘g‘ri, yuqori sinflarda iboralarni o‘qitish bo‘yicha ayrim metodik tavsiyalar berilgan, lekin bu tavsiyalar muammoga yechim bo‘la olmaydi. Ona tili darslarida iboralarni o‘qitish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ona tili ta’limining amaliyotga asoslangan holda qayta tashkil etish jarayonida tilni qoidalar asosida emas, uning o‘ziga xos badiiy vositalari (maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda, o‘xshatish, jonlantirish, vazifadoshlik, metafora, metonimiya) bilan o‘rgatish o‘quvchini tilga bo‘lgan sezgirligini oshiradi, unda nutqiy ko‘nikmani shakllantiradi, tilni organishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Bunday vaziyatda tilning ko‘rki bo‘lmish iboralarni o‘qitish metodikasi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Mazkur muammoning mavjudligini tajriba asosida aniqlab, uning naqadar dolzarb ekanligini ham isbotlash mumkin.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich ta’lim fanlarining 2021-yilda ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmasiga bo‘lgan talab butunlay takomillashtirildi. Endi o‘quvchi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida nazariy emas, balki amaliy bilimlar bilan qurollantiriladi. 4-sinf bitiruvchisi yosh xususiyatiga mos bo‘lgan har qanday axborot (matn, video, audio, animatsiya, rasm-tasvir, jadaval-diagrammalar)ni tahlil qila olishi, xulosalashi va umumlashtirishi kerak bo‘ladi. Mavjud yangi darsliklar avlodi ham aynan shu maqsadni ko‘zlagan holda yaratilmoqda. Biz 4-sinf O‘qish darslarida o‘quvchilarda matnni leksik-frazeologik jihatdan tahlil qila olish malakasining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida aniqlashtiruvchi anketa topshiriqlarini o‘tkazdik. Topshiriqlar 2020-yilda S. Matchov va boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan 4-sinf O‘qish darsligida berilgan matnlar yuzasidan tuzildi. Nega aynan 4-sinf yoki shu darslik tanlaganligining asosiy sababi shundaki, birinchidan, 4-sinf o‘quvchisida nutqiy ko‘nikma to‘liq shakllanganli bo‘lsa, ikkinchidan, 4-sinf O‘qish kitobi darsligiga kiritilgan badiiy asarlar (she’r, ertak, hikoya, rivoyat, ilmiy-ommabop maqolalar)da jami 200ga yaqin ibora ishtirok etganligi. Demak, kichik maktab yoshidagi o‘quvchining obrazli fikrlashida, tasavvurini rivojlantirishda, nutqini o‘stirishda iboralarning o‘rni beqiyos ekan.

Mazkur maqolani yaratishda darsliklardagi iboralarni konteksda tahlil qilish, aniqlashtiruvchi topshiriqlar, anketa so‘rovi, tasniflash metodidan foydalanildi.

Shu davr mobaynida boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish fani o‘quv dasturi va darsliklarida iboralarni o‘qitish bo‘yicha soat ajratilmagan, mavzu ham kiritilmagan.

Vaholanki, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga belgilangan malaka talablarida o‘quvchi ibora ma’nosini tushunishi, nutqida ulardan foydalana olishi belgilab qo‘yilgan. Metodik adabiyotlarda esa iboralarni o‘qitish usuliyoti to‘liq ishlab chiqilmagan, natijada o‘qituvchilar iborani o‘quvchi nutqida faollashtirishga oid aniq metodik tasavvurga ega bo‘lmay, ularni shunchaki matn tahlili jarayonida izohlash bilan cheklanib qoladi. Bu esa o‘quvchilarning nutq boyligini rivojlantirishga ta’sir qilmay qolmaydi.

Bizning fikrimizcha bu muammoni hal etishda avvalo muammoning mavjudligini aniqlash lozim. Shu sabab 4-sinf o‘quvchilarining iboralar ma’nosini tushuna olish darajasi qanday ekanligini aniqlash maqsadida 600 nafar boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilaridan anketa-so‘rov va topshiriqlar o‘tkazildi. Ishtirokchi sifatida respublikamizning beshta viloyati, Toshkent (Yakkasaroy tumani 26- va 118-maktab), Samarqand (Samarqand shahri 24- va 46-maktab), Buxoro (Buxoro shahri 13-, 23- va 38-maktablar, G‘ijduvon tumani 18- va 22-maktab), Xorazm (Urganch shahri 1- va 5-maktab) va Qashqadaryo (Qarshi shahri 1- va 20-maktab) viloyatidagi boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilari respondent sifatida tanlab olindi. Tajriba-sinov uchun topshiriqlar ayni damda o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan darslikdagi matnlar yuzasidan tuzildi. Tajriba o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘quvchilar ibora ma’nosini tushunish va kundalik hayotda ulardan nutqida foydalanadalanish darajasini aniqlashdan iborat.

Respondent-o‘quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar berildi:

IV SINF O‘QUVCHILARI UCHUN SO‘ROVNOMA

Iboralar haqida tasavvurga egamiz?

Ha; b) Yo‘q.

Berilgan gaplardagi iboralarni ajrating?

Ochdim-u, judayam tanish, mehribon chehraga ko‘zim tushdi.

Bu sirning tagiga yetolmay, Rasulning juda boshi qotdi.

Ha, xoh ishoning, xoh ishonmang, o‘lik quyonga jon kirdi!

To‘satdan yana paydo bo‘lgan kiyik halloslagancha Alisherning pinjiga bosh suqdi.

— Mayli, sizning aytganingiz bo‘lsin. Bu yerda qolsam, bir kun meni chaqirib, oyog‘imga bolta uradurlar.

Quyida berilgan iboralar qanday ma’no anglatishini yozing.

Masalan, kalavaning uchini topdi – muammoni hal qildi kabi

bir yoqadan bosh chiqarib – _____

hushi boshidan uchdi – _____

dami ichiga tushdi – _____

o‘pkasini qo‘ltiqlab – _____

gapini ichiga yutdi – _____

Gaplardagi iboraning mazmuniga mos qavs ichida berilgan so‘zni topib qo‘ying.

Bu sirning tagiga yetolmay Rasulning juda ……(qo‘li, beli, boshi) qotdi.

– Tushingizni ……. (menga, cho‘lga, suvga) ayting, – dedi rais o‘zining qovunini maqtab.

Qo‘ling el aro ……(bitta, uzun) bo‘lsa, sen o‘z fe’l-atvoringni ezgu tut.

Bir kuni kechasi uyqusi kelib, ko‘ziga …….. (qil, kiprik, qum) tiqila boshlaganda, uyqu qochiradigan dorisini ichib, hovliga tushdi.

Necha yuz yillab to‘plangan ilm-fan xazinasining kuli……. (dengizga, cho‘lga, ko‘kka) sovurilishi mumkin emas.

Berilan so‘zlar ma’nosiga mos iboralarni yozing.

Masalan, dahanaki janjallashdi – adi-badi aytishdi

to‘polon qildi – _____

quloqsizlik qildi – _____

lapashang – _____

sho‘x – _____

xushmuomala _____

Anketa va topshiriqlar natijasi. Topshiriqlar natijasini tahlil qilishda o‘quvchining iboralar haqidagi umumiy tasavvurini aniqlash imkoniga ega bo‘ldik. Anketaning birinchi so‘rovi, “Siz iboralar haqida eshitganmisiz?”savoliga 588 nafar (98%) boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilari “yo‘q” javobini belgilashgan. Faqat 12 nafar (2%) o‘quvchi iborani bilishini belgilagan. Tahlil natijasi shunu ko‘rsatadiki, o‘quvchilar nutqida iboradan foydalansada, uni ibora yoki frazeologizm ekanligini bilmaydi. O‘quvchiga maqol aytish topshirig‘i berilsa, u hech qiynalmay maqollarni sanab bera oladi. Chunki, bog‘cha yoshidan boshlab o‘quvchilarga maqollar o‘rgatiladi. Iborani esa ular ota-onasining, bobo-buvisining yoki o‘qituvchisining nutqidan o‘zlashtirib oladi. Lekin o‘quvchilar tilshunoslikda bu ko‘chma ma’nodagi so‘z birikmasi yoki gap ko‘rinishidagi turg‘un birikmalar ibora deb yuritilishini, aniqrog‘i umuman bu atama haqida deyarli tasavvurga ega emas.

Ikkinchi topshiriq berilgan gaplardagi iboralarni ajratish. Bunda o‘quvchilarga tanish badiiy matnlardan ibora ishtirokidagi quyidagi gaplar tanlab olindi. 1. Ochdim-u, judayam tanish, mehribon chehraga ko‘zim tushdi. 2. Bu sirning tagiga yetolmay, Rasulning juda boshi qotdi. 3. Ha, xoh ishoning, xoh ishonmang, o‘lik quyonga jon kirdi! 4. To‘satdan yana paydo bo‘lgan kiyik halloslagancha Alisherning pinjiga bosh suqdi. 5. — Mayli, sizning aytganingiz bo‘lsin. Bu yerda qolsam, bir kun meni chaqirib, oyog‘imga bolta uradurlar.

Berilgan gaplarni tahlil qilishda o‘quvchilarning 468 nafari (78%) topshiriqni to‘g‘ri bajargan. Qolgan 132 nafar (22%) o‘quvchi berilgan topshiriqni noto‘g‘ri bajargan. Ya’ni ular berilgan 5ta gap tarkibidagi iboralarni topa olmagan. Gaplardagi o‘ziga tanish bo‘lgan so‘z ostiga chizib qo‘ygan xolos. Demak, o‘quvchilarning 132 nafari iborani matn tarkibidan ajrata olmaydi. Ular iboralar haqida to‘liq tasavvurga ega emas.

Navbatdagi topshiriqda iboralarning: bir yoqadan bosh chiqarib (ahil), hushi boshidan uchdi (esankirab qoldi), dami ichiga tushdi (gapirolmadi), o‘pkasini qo‘ltiqlab (tez yugurib kelmoq), gapini ichiga yutdi (gapirmadi, indamadi), ma’nosini oddiy so‘zlar bilan ifodalash berilgan. O’quvchilar bu topshiriqni bajarishda deyarli qiyinchilikka duch kelishmadi. Sababi, ular bu kabi iboralarni kundalik hayotda juda ko‘p marotaba eshitgan, o‘qigan, kuzatgan. Topshiriqni 524 nafar (87%) o‘quvchi to‘liq bajargan, qolgan 76 nafar (12 %) o‘quvchi topshiriqni bajarishda turli xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Demak, darslarda iboralar tahliliga alohida to‘xtalib, uni o‘quvchilar nutqida faollashtirishga turli xil topshiriqlardan muntazam foydalanib turish zarur.

“Gaplardagi iboraning mazmuniga mos qavs ichida berilgan so‘zni topib qo‘ying” ko‘rinishidagi topshiriqni bajarishda o‘quvchilar quyidagi natijani qayd etdi: 457 nafar (76 %) o‘quvchi berilgan topshiriqni to‘liq bajargan, 143 nafar (14%) o‘quvchilar topshiriqni bajarishda turli xil xatoga yo‘l qo‘ygan. Topshiriq uchun badiiy asardan olingan misollar 4-sinf o‘qish darsligiga kiritilgan matnlardan tanlab olingan. Shu sabab ham aksariyat o‘quvchilarga topshiriqni bajarish qiyinlik qilmagan. Agar topshiriq noma’lum matndan olinganda edi, balki o‘quvchilar bunday natijalarni qayd etmasligi kunday ravshan.

Navbatdagi topshiriqda berilan so‘zlar ma’nosiga mos iboralarni yozish berilgan. Bunda o‘quvchilar to‘polon qildi

(boshiga ko‘tardi), quloqsizlik qildi (u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketadi), lapashang (og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadi), esladi (yodiga tushdi), xushmuomala (tilidan bol tomadi) so‘zlarini iboralar bilan ifodalashi kerak. Mazkur topshiriqni respondent-o‘quvchilarning aksariyati bajara olmagan. Ya’ni ular so‘z ma’nosiga teng bo‘lgan iborani topa olmagan. 600 nafar ishtirokchining faqat 118 nafari (19,7%) berilgan topshiriqni bajarishga muvaffaq bo‘ldi. Bunda ham biz avval o‘quvchilarga topshiriq yuzasidan to‘liq ko‘rsatma berdik. Aks holda, topshiriqni aksar o‘quvchilar bajara olmasligi mumkin edi. Bu topshiriq natijasidan shuni bilish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqiy faoliyatida iboralardan juda ham kam hollarda foydalanadi. O‘quvchilarda so‘zni ko‘chma ma’no orqali ifodalash ko‘nikmasi to‘liq shakllanmagan.

Xulosa va takliflar. Natijalar va tahlillar asosida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini iboralar bilan boyitish, ularda iboralardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish ona tili ta’limining bosh vazifasidir. Nutqning bejirimliji va chiroyliligi o‘sha tilning badiiy vositalaridan unumli foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Ona tili fani yangi o‘quv dasturining bosh vazifasi amaliyotdan nazariyaga qarab borish yo‘li orqali o‘quvchida tilga bo‘lgan sezgirlikni rivojlantirish, ona tilidan amaliy hayotda unumli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Yangi dastur, professor D. Yo‘ldosheva tili bilan aytganda “tilning grammatikaga yem bo‘lishi”ning oldini oladi, o‘quvchida tinglash, anglash, o‘qish va yozish (4K) ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu ko‘nikmani shakllantirishda esa ona tili ta’limini amaliy ravishda tashkil etish, darsda tilning bejirim vositalarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент:
2. Ўқитувчи, 1975. – Б. 7-8.
3. Mamatov A. E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1991. – B. 207-272;
4. O‘qish kitobi 4-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov [va boshq.]. - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan oltinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. - 216 b.
5. O‘qish kitobi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G‘ulomova [va boshq.]. - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashri. - Yangiyo‘l: Yangiyul Poligraph Service, 2020. - 160 b.
6. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашри. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2013. – 116 б.
7. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol. fanlari doktori... diss. avtoref. – Toshkent: 2000. – B.
8. Bozorboyev K.T. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Samarqand: 2001. – B. 14.
9. Ona tili fani Milliy o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi. 2022-2023-o‘quv yili. T. 2022.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, «Ўқитувчи», 1978. 407 б.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, «Қомуслар бош таҳририяти», 1992. 378 б.
12. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent, «Fan», 2007. 428 b.
13. Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Universitet”, 2004. – B. 183-186.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 373: 371

Sayyora TO‘RAYEVA,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

TDPU, pedagogik fanlari doktori, professor B.Abdullayeva taqrizi asosida

MAKTAB O‘QUVCHILARNING MOSLASHUVCHAN KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada maktab ta’limida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan. Maktab o‘quvchilarining moslashuvchan ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘zini–o‘zi belgilash o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish maqsadga muvofiq. Kompetentlik yondashuvining ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi o‘quvchilarining intellektual va shaxsiy rivojlanishining uzluksizligi, ijtimoiy muammolarni qabul qiluvchi bitiruvchilarning umuminsoniy ko‘nikmalarini shakllantirishda xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: Moslashuvchan ko'nikmalar, “yumshoq ko‘nikmalar” moslashuvchan, o‘zini–o‘zi belgilash, kompetentlik yondashuv, o‘quvchilarining intellektual va shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy muhit.

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ АДАПТИВНЫХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНИКОВ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена проблеме развития мягких навыков в школьном образовании. Желательно отслеживать связь между развитием гибких навыков школьников и самоопределением. Применение компетентностного подхода к образовательному процессу служит непрерывности интеллектуального и личностного развития студентов, формированию универсальных умений выпускников, принимающих социальные проблемы.
Ключевые слова: Адаптивные навыки, «мягкие навыки», адаптивность, самоопределение, компетентностный подход, интеллектуально–личностное развитие студентов, социальная среда.

COMPETENT APPROACH TO FORMING ADAPTIVE SKILLS OF SCHOOL STUDENTS

Annotation

The article is devoted to the problem of developing soft skills in school education. It is desirable to monitor the connection between the development of flexible skills of schoolchildren and self–determination. The application of the competence approach to the educational process serves the continuity of intellectual and personal development of students, the formation of universal skills of graduates who accept social problems.
Key words: Adaptive skills, "soft skills" adaptive, self–determination, competence approach, intellectual and personal development of students, social environment.

Kirish. Biz juda tez o'zgarib turadigan dinamik dunyoda yashayapmiz. Bu o'zgarishlar bizning mavjudligimizning barcha sohalariga ta'sir qiladi. Bizning hayotimiz uzluksiz moslashish jarayoniga aylandi va ko'p jihatdan ularning muvaffaqiyati va o'zini o'zi anglash imkoniyatlari shaxsning moslashish qobiliyatiga bog'liq. Bugungi kunda bolaga nafaqat bilim, balki o'ziga ishongan odam etarli darajada hayotiy kompetentsiya, uning hayotda o'z o'rnini topishga, qiziqish va xohishlarini aniqlashga, jamiyatning faol a'zosi va baxtli inson bo'lishga yordam beradigan shunday shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kerak.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim sharoitida "yumshoq ko'nikmalar"ni rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qoladi va hali ham o'rganish mavzusi bo'lib qolmoqda. “Soft Skills” tushunchasiga yondashuvlar, moslashuvchan malakalarni rivojlantirish shartlari, ularning mazmuni va tadqiqot istiqbollarini ko‘rib chiqamiz. Biz yumshoq ko'nikmalarni mehnat unumdorligini ta'minlaydigan ko'nikmalar majmuasini tushunamiz.

Soft Skills – инглиз тилидан мослашувчан ёки юмшоқ кўникмалар тушунчаси сифатида таржима қилинади. Ушбу тушунчалар касбий билимлардан кўра, ҳаётий билимлар каби ифодаланади. Бу тушунча замирида эса номутахассис фаолият шакли билан боғлиқ кўникмалар мажмуи билан бирга касбга оид сифатлар тушунилади[1]. Soft Skills инсоннинг тўғридан–тўғри иш ҳаракатлари билан боғлиқ эмас, лекин ушбу кўникмалар унга ўз касбида юқори маҳсулдорликка эришишга имкон беради ва ўз олдига қўйган вазифаларни нисбатан муваффақиятлироқ бажаришига ёрдам беради.

Zamonaviy jamiyatning ta’lim muassasasi bitiruvchisiga qo‘yiladigan asosiy talabi “mustaqil harakat qilish, tezkor qaror qabul qilish, shaxsiy ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish, harakatchan bo‘lish, tez o‘zgarib borayotgan va rivojlanayotgan hayot sharoitlariga moslashishdir”[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.Muslimov va boshqalarning ta’kidlashicha, "ta'lim jarayonining natijasi ta'lim jarayonida o'rganilgan ma'lumotlarning miqdori emas, balki inson faoliyatining turli sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'p qirrali vaziyatlarda shaxsning samarali harakat qilish qobiliyati va qobiliyatidir"[3].

"Yumshoq "moslashuvchanlik" bu stereotiplarning yo'qligi, o'zgarish qobiliyatini, sobit funksionallikni engib o'tishni va "mahorat" – shaxsning har qanday o'zgaruvchan vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligi, qobiliyati va imkoniyatini tavsiflaydi"[4].

Mamlakatimiz ta'limining zamonaviy voqeliklarida yumshoq ko'nikmalar masalasini o'rganish, yumshoq ko'nikmalarni o'rganishning asosiy tendentsiyalarini va ularni egallash imkoniyatlarini, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning umumiy va farqlarini, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida foydalanishning eng istiqbolli yo'nalishlari va texnologiyalarini aniqlash N.A.Muslimov, Sh.Q.Mardonov,

N.N.Azizxodjaeva, Sh.Urakov, M.Pardaevalar ilmiy–tadqiqot ishlarini olib borganlar[5].

Tadqiqotchilar "yumshoq ko'nikmalar"ni shakllantirish uchun uchta sohani ajratib ko'rsatishadi: kognitiv, faollik va shaxsiy, bu bizning umumta’lim maktab faoliyati vektorlarini tushunishimizga mos keladi, muassasa bitiruvchilarining kasbiy rivojlanishi istiqboliga yo'naltirilgan.

N.E.Timoshenkoning fikriga ko'ra, "jamiyat talablari va imkoniyatlariga muvofiq shakllangan shaxsning axloqiy va irodaviy fazilatlari, xulq–atvor usullari, kasblar, amaliy ko'nikma va qobiliyatlar to'g'risidagi bilimlar, o'zaro bog'liq va e'tiqodlar bilan birlashtirilgan murakkab tarkibiy yangi shakl. maktabdagi ta'lim jarayoni", kasbiy o'zini o'zi aniqlashning mohiyatidir [6].

Umumta’lim maktab o‘quvchilarining ilmiy–tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish kontekstida yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirishga oydinlik kiritishga qaratilgan tadqiqotlarni topmadik. Kasbiy tanlovni ongli ravishda amalga oshiradigan komil shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadigan tadqiqot ko'nikma va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktab ta’limida tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayonida moslashuvchan ko‘nikmalarning rivojlanishini o‘rganish va o‘quvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashida “yumshoq ko‘nikmalar”ning ahamiyatini asoslash va nazariy va empirik tahlil qilish.

Tahlil va natijalar. Umumta’lim maktabda “yumshoq ko‘nikma”ni rivojlantirish tizimi ta’limning yaxlit modeliga asoslanadi. Uning mazmuni umumiy o‘rta ta’limning davlat standartlarida belgilanadi. Maktabda o'quvchilarga shakllantirilgan qadriyatlar tizimi tanqidiy fikrlash, mas'uliyat, qiyinchiliklarni engish va muammolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladigan turli xil faoliyat turlariga tayyor bo'lishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim o'ziga xos uslubiy xususiyatga ega bo'lib, u o'quv va tadqiqot vazifalarini bajarishni ta'minlaydigan faoliyat usullariga asoslanadi. Ta'limning faollik tomoni alohida ahamiyatga ega. Bilimlarni o'zlashtirish ta'lim sub'ektlarining integratsiyalashuvi asosida sodir bo'ladi va sinergik tamoyil ustunlik qiladi. Aynan fanlar chorrahasida innovatsion g‘oyalar va ijodiy yechimlar paydo bo‘ladi.

Akademik bilimlarni egallash amaliy–faol, shaxsiy–emotsional komponentsiz o'z ma'nosini yo'qotadi. Innovatsiyalar odatda inson tajribasi, ehtiyojlari va muammolari bilan bog'liq. Ijodiy salohiyatning sinergiyasi va fan, madaniyat va san'atning o'zaro ta'siri nafaqat ob'ektiv, balki ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarlarga ega bo'lgan ko'p qirrali shaxs shakllanadigan pedagogik muhitni yaratishga yordam beradi. Tadqiqotga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tarkibiy qismi tadqiqotchilik kompetensiyasi bo'lganligi sababli, biz uni "shaxsning ajralmas sifati", tadqiqotchilik qobiliyatlari esa, "shaxsning mustaqil izlanish uchun zarur bo'lgan intellektual va amaliy ko'nikmalari" tizimi sifatida belgilaymiz.

“Tadqiqot ko‘nikmalari tadqiqot xarakteridagi faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan intellektual, amaliy va tashkilotchilik ko‘nikmalari yig‘indisidir” [5]. Ishonchimiz komilki, tadqiqot qobiliyatini shakllantirish nafaqat tadqiqot faoliyati, balki ilmiy, o'quv, intellektual va ijodiy vazifalarni mustaqil hal qilishga qodir bo'lgan o’quvchilarning qadriyatlari va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish bilan uyg'un bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, samarali tashkil etilgan ilmiy–tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim shartida o‘quvchilar turli ko‘rinishdagi ilmiy–tadqiqot, loyiha, loyiha–tadqiqot faoliyatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, ular asosida umuminsoniy ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Tadqiqot o'quv vazifalarini bajarishda ta'lim o’quvchilari muammoni, uni hal qilish imkoniyatlarini aniqlaydilar, o'quv topshirig'ini bajarish uchun taklif qilingan variantlarning darajasini baholashlari yoki ishlash mezonlarini belgilashlari mumkin.

O’quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyati ijtimoiy–gumanitar fanlar sohasida tadqiqotlar olib borish tufayli shakllanadi. Bu maqsadni qo'yish, vazifani belgilash, o'z faoliyatini rejalashtirish, tadqiqot uchun ma'lum mantiqni qurish, maqsadni amalga oshirish uchun faoliyat turlarini tanlash qobiliyatini talab qiladi.

Tadqiqotga asoslangan ta'lim jarayonida ijtimoiy va gumanitar profildagi o’quvchilar universal ko'nikmalarga ega bo'ladilar. An'anaviy ravishda ularni ijtimoiy, kommunikativ, kognitivga bo'lish mumkin. Ijtimoiy ko'nikmalar samarali muloqot va boshqalar bilan og'zaki va og'zaki bo'lmagan darajada samarali o'zaro munosabatlarni o'rnatish uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishni, munosabatlarni o'rnatish, jamoada ishlash va o'z pozitsiyasini ifoda etish, ishontirish, bahslashish, ishda ishlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. guruh mos ravishda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va etakchilikni boshlaydi. Jamoa a'zolarini tushunish, bag'rikenglik bilan idrok etish, ijtimoiy o'zaro ta'sir davomida o'zini va suhbatdoshning ovozini tushunish qobiliyati – bularning barchasi ijtimoiy intellektning rivojlanishiga yordam berad” [5, 22–bet].

O’quvchilarda shakllanadigan kommunikativ qobiliyatlar o'zaro malakali munosabatda bo'lish, xususan, ma'lumotni etkazish, his–tuyg'ularni ifodalash, xulosalar chiqarish qobiliyati bilan bog'liq. Rivojlangan ijtimoiylik shaxsiy rivojlanish uchun muhimdir. Hayotiy sohalarda – ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy sohalarda muvaffaqiyatli o'zini o'zi anglash kelajakda bunga bog'liq bo'ladi. Tanlangan bilim sohalariga mos ravishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida shakllanadigan kognitiv qobiliyatlarning mazmunini tanqidiy, innovatsion fikrlash, muammolarni hal qilish, o'z–o'zini tarbiyalash, o'z–o'zini rivojlantirish, o'z–o'zini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish (intellektual yukni tartibga solish, vaqtdan oqilona foydalanish, vaqtni boshqarishni o'zlashtirish), axborot ko'nikmalarini rivojlantirish ko'nikmalarini o’z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, amaliy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va tarbiyaviy maqsadlar bir vaqtda amalga oshishi sharti bilan ta’lim jarayoni uzviydir. Hissiy jihatdan qulay muhit va ichki erkinlikning rivojlanishi ta'minlangan taqdirda, shaxsiy erkinlik shakllanadi, o'z–o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi anglash va o'z–o'zini takomillashtirishga chuqur motivatsiya qilinadi.

Maktab o'qituvchilari hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarning shakllarini loyihalashda amaliy muammolarni hal qilishga asoslangan faol o'qitish usullari va usullaridan foydalanadilar. Turli rejimlarda tashkil etilgan jamoaviy ish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Maqsadlarni aniqlash va vazifalarni aniqlashtirish o’quvchining o'z–o'zini harakatining traektoriyasini qurishga imkon beradi va tanlov amaliyoti qaror qabul qilish va ular uchun mas'uliyatni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Loyiha–tadqiqot faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. Ta'lim loyihalarini (individual, jamoaviy) amalga oshirish qidiruv va tadqiqot ishlari jarayonida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, loyihani rejalashtirish bosqichisiz va tegishli vositalarni tanlamasdan amalga oshirish mumkin emas. O'z g'oyalarini ishlab chiqish qobiliyati loyihani amalga oshirishda muvaffaqiyatni ta'minlaydi va natijalarni taqdim etish uchun to'g'ri tanlangan vizualizatsiya vositalari bajarilgan ishlarning afzalliklarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Amaliy qo'llash ish samaradorligining eng yuqori mezoni hisoblanadi.

Loyihaning ta'lim maqsadlari universal ko'nikmalarni, xususan: tanqidiy fikrlashni, axborotni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati, dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, moslashuvchan fikrlash tarzini shakllantirish, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, o'z–o'zini tashkil etish, qidiruv qobiliyatlarini rivojlantirishni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ishni tashkil etishda konpetensiyaviy yondashuv adabiyot, tilshunoslik, bilan aloqani amalga oshirish imkonini berdi.

Keyinchalik, kasbiy muhitda bo'lgan holda, bitiruvchilar o'z fikrlarini to'g'ri va to'g'ri ifodalashlari, o'z pozitsiyalarini bag'rikenglik va dalillar bilan himoya qilishlari kerak.

Belgilangan maqsad o'quv predmetining ta'lim mazmunining ta'lim, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunga yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan samarali hamkorlik shaklini tanlash orqali erishish mumkin. Loyihaning vazifalari nafaqat turli xil hayotiy vaziyatlarda tildan foydalanishni kommunikativ asoslash uchun kompetentsiyalarni shakllantirish, balki qimmatli dunyoqarashlarni shakllantirish, o’zbek tilini o'rganishga ongli intilishni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida qo'llanilgan kommunikativ va funktsional yondashuv shaxsning estetik va axloqiy va axloqiy rivojlanishiga, jamiyatga uyg'un kirishiga hissa qo'shgan ijtimoiy–madaniy tarkib bilan chambarchas bog'liq.

Aytish joizki, umumta’lim maktabda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish o‘quvchilarning turli faoliyat turlarini, ayniqsa, tadqiqot va loyiha faoliyatini o‘zlashtirishga qaratilgan. Bu umuminsoniy kompetensiya va malakalarni rivojlantirishning asosiy shartidir. Albatta, biz yuqorida aytib o'tilgan faoliyat turlarining har birining o'ziga xos xususiyatlarini aniq ajratib turamiz, chunki o’quvchilar tomonidan tadqiqot vazifasini hal qilish ilmiy sohaga xos bo'lgan asosiy bosqichlarning mavjudligini talab qiladi:

muammoni shakllantirish, muammoga bag'ishlangan nazariyani o'rganish,

tadqiqot usullarini tanlash va ularni amaliy o'zlashtirish, o'z materialini to'plash, tahlil va xulosa, ilmiy sharh, o'z xulosalari.

Tadqiqot faoliyatidan farqli o'laroq, loyiha faoliyati biz tomonidan umumiy natijaga erishishga qaratilgan, shuningdek, o'z maqsadi, usullari va usullariga ega bo'lgan qo'shma o'quv–kognitiv, ijodiy, o'yin faoliyati sifatida talqin etiladi

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu faoliyat turlarining kombinatsiyasi nafaqat tadqiqot malakasini, balki keng doiradagi kasbiy tanlovga va turli kasbiy qiziqishlarni amalga oshirishga yordam beradigan moslashuvchan ko'nikmalarni rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqotga asoslangan ta'lim moslashuvchan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantiradi. Tadqiqot kompetensiyasini shakllantirish fanlararo xarakterdagi muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Jamoada ishlash ko'nikmalari, ishonch va hurmat madaniyati shakllanadi. O’quvchilar olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini egallaydi, o'z harakatlarini tanqidiy baholay oladi, o'z pozitsiyasini himoya qilishga, qiziqishlari, so'rovlari va qobiliyatiga muvofiq harakat qilish istagini shakllantiradi.

Intellektual, ijodiy, shaxsiy rivojlanish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning uzoq muddatli hayotiy istiqbollari uchun ta'lim maktabi tomonidan bajariladigan vazifadir. Kompetentlik yondashuvining amalga oshirilishini intellektual va shaxsiy rivojlanishning uzluksizligi, bitiruvchilarning universal ko'nikmalarini shakllantirish orqali kuzatish mumkin.

Umumta’lim maktabning pedagogik hujjatlari va faoliyatini tahlil qilish natijalari umumta’lim maktab ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv umuminsoniy ko’nikmalarga ega bo‘lgan yaxlit shaxsni kamol toptirishga xizmat qilishini ta’kidlash uchun asos bo‘ladi.

Tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv fanlari imkoniyatlaridan tadqiqot va qidiruv ishlari bilan uyg'unlikda foydalanish yondashuvi samaralidir. Ijtimoiy, kommunikativ va kognitiv ko'nikmalarni belgilab, biz "yumshoq ko'nikmalar" (ijtimoiy, kognitiv, shaxsiy, faoliyat) ni shakllantirish sohalarini ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar shakllarini tashkil etishda amaliy muammolarni, shu jumladan o'quv va ilmiy-tadqiqot masalalarini hal qilishga asoslangan faol ta'lim usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Jack Cohen. So You Want To Work at a Startup? Hone These 11 Soft Skills First. – Electronic resource: https:// medium.com/the–ascent/so–you–want–to–work–at–a–startup–hone–these–11–soft–skills–first–377e9f27dc45 Date of the application: April 5, 2020
2. Высотченко С.В. Современные проблемы конкурентоспособности студентов. "Soft Skills – неотъемлемые аспекты формирования конкурентоспособности студентов в XXI веке": тезисы межвузовского научно–методического семинара (г. Киев, 21 февраля 2020 г.). Киев, 2020. С. 12–14.
3. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: SANO–STANDART, 2015. – Б. 4–5
4. Головань М.С. Сущность и содержание понятия "исследовательская компетентность". Теория и методика обучения фундаментальным дисциплинам в высшей школе: сборник научных трудов. Выпуск VII. Кривой Рог: Издательский отдел НМетАУ, 2012. С. 55–62.
5. Умаров Б. Инновацион ёндашув асосида ўқувчиларнинг коммуникатив компетентлигини ривожлнтириш (10–11 синф ўқувчилари мисолида). 13.00.01 – Педагогика назарияси ва тарихи. Таълимда менежмент. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Термиз–2021
6. Тимошенко Н.Е. Профессиональное самоопределение личности как психолого педагогическая проблема. Научный журнал Национального педагогического университета им. М. П. Драгоманова. Серия 11. Социальная работа. Социальная педагогика. Выпуск 21: сборник научных трудов. –М: Изд–во НПУ им. М.П. Драгоманова, 2016. С. 109–112.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO’K:001.8:37.011.3

Bobur TURDALIYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o’qituvchisi
E-mail: ziyur@inbox.ru

DSc F.I.Ikromxonova taqrizi asosida

НАУЧНАЯ ДИСКУССИЯ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОЙ УСТНОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье актуализируется один из методов активного обучения (научная дискуссия). Ключевым основанием для анализа научных источников является поиск ответа на вопрос: «Чем отличается дискуссия от спора/диалога; научная дискуссия и простая дискуссия?». Отмечается важность использования активных методов обучения не только для детей, но и для взрослых на всех уровнях образования. Авторы статьи на основе анализа научных статей вывели принципы, параметры, критерии эффективного обсуждения. Однако в статье не рассматривается классификация дискуссий; это уже подробно изложено в научной литературе. Основная идея исследования – систематизация знаний о дискуссии, научной дискуссии, выявление принципов, параметров и критериев эффективной дискуссии.

Ключевые слова: Активные методы обучения, дискуссия, научная дискуссия, полемика, полемика.

ILMIY DISKUSSIYA TALABALARNING OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI OSHIRISHDA SAMARALI USUL SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim metodlaridan biri bo‘lgan ilmiy diskussiyaning dolzarbligi o‘rganiladi. O‘tkazilgan ilmiy tahlilning asosi sifatida “diskussiyaning baxs va muloqot hamda ilmiy duskissiyaning oddiy diskussiyadan farqlanishi” tanlab olingan. Undan tashqari, barcha yosh doirasida faol ta’lim metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, sohaga oid turli ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish asosida samarali diskussiyaning qo‘llanish mezonlari, ko‘rsatkichlari hamda qonun-qoidalari keltirilgan. Samarali dikussiya va ilmiy diskussiya borasidagi ilmiy qarashlarning tizimlanishi, qo‘llanish tamoyillari va mezonlarini aniqlash tadqiqotning asosi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Faol talim metodlari, diskussiya, ilmiy diskussiya, baxs, polemika.

SCIENTIFIC DISCUSSION AS AN EFFECTIVE METHOD OF IMPROVING ENGLISH SPEAKING SKILLS

Abstract

The article actualizes one of the methods of active learning (scientific discussion). A key basis for analyzing scholarly sources is to find an answer to the question, “What is the difference between a discussion and an argument/a dialogue; a scientific discussion and a simple discussion?”. The importance of using active teaching methods not only for children, but also for adults at all levels of education is noted. The authors of the article, based on the analysis of scientific articles, deduced the principles, parameters, criteria for effective discussion.

However, the article does not consider the classification of discussions; this is already spelled out in detail in the scientific literature. The main idea of the research is the systematization of knowledge about the discussion, scientific discussion, the identification of principles, parameters and criteria for effective discussion.

Key words: Active teaching methods, discussion, scientific discussion, controversy, polemics.

Kirish. Hozirgi kunda pedagogik amaliyotda “faol metodlar” atamasi o‘quv jarayonida ko‘plab muammolarga hamda ta’lim oluvchilarni ruxlantirish maqsadida keng miqyosida qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin. Ilmiy amaliyotda ko‘plab diskussiya, debat, baxs, gurux bo‘lib ishlash, modellash kabi “faol” usul va metodlarni uchratishimiz mumkin. Biroq, keng ko‘lamda qo‘llaniladiganlardan biri bu, diskussiyadir. Shu bilan bir qatorda, diskussiyaning ilmiy diskussiyadan qanday farq qilishini va uning samaradorligi borasida, ilmiy dikussiya metodining qanday tamoyil va mezonlarga ega bo‘lishi keraklini tushunish talab etiladi. Shuningdek, filologik talabalar ta’limi borasida so‘z yuritganimizda, aynan ilmiy diskussiya metodi yuqori dolzarblikka ega ekanligi namoyon bo‘ladi, ya’ni bunda, talabalar o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rgan, xayotga, tamoyillarga nisbatan o‘z qarashlariga ega bo‘lib ulgurgan bo‘ladilar. Shundan kelib chiqqan holda, filologik yo‘nalishdagi talabalarda motivatsiyani shakllantirish uchun eng samarali o‘qitish metodi sifatida faqat “faol metodlar”, xususan ilmiy dikussiya metodi hisoblanadi. Shuningdek, talabalar bilan eng muammoli masalalarni muhokamasi uchun ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish borasidagi eng samarali dikussiya hisoblanadi. Diskussiya doirasida kommunikativ kompetensiya ham yaxshilanib boradi, chunki, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barcha o‘qituvchilar ham o‘z qarashlarini asosli ravishda ifoda eta olmaydilar, lar fikrni og‘zaki shakllantira olmagan holda, ma’lumotlarni ham tanqidiy idrok eta olmaydilar. Ilmiy adabiyotlarda “dikussiya” tushunchasining asl mohiyatini nazariy jihatdan keng qamrovli tarzda ifodalab berilgan, bunda ko‘plab mualliflar “diskussiya” metodini “baxs” yoki, “polemika” atamalari bilan tenglashtiradilar. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish davomida, diskussiyaning samaradorligi borasidagi ko‘rsatkichlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan, biroq shu vaqtga qadar olib borilgan tadqiqotlarda filologik talabalarning ta’limida diskussiya metodlaridan foydalanish yo‘nalishlari o‘tkazib yuborilgan, samarali dikussiyani baholash mezonlari, parametrlari va ko‘rsatkichlari aniqlanmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Falsafa fanlari doktori, professor N.N.Vizitey [1] har qanday holatda ham ilmiy nuqtai nazarni himoya qilish sifatida ilmiy dikussiyaning joizligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, madaniy muloqot jamiyati madaniyat qarshi muloqot jamiyatga aylanib borayotgan zamonaviy xayotda diskussiyaning keng qo‘llanilishi mumkinligixaqida fikr yuritadi. Boshqa tomondan, zamonaviy jamiyatda madaniyat inqirozga uchrab borayotganligini tasdiqlashimiz mumkinmi? Madaniy o‘ziga xoslik inqirozi mavjudligini va universal kosmopolitizmning paydo bo‘lishini qanday isbotlashimiz mumkin? Bu kabi savollar diskussiyaga oidligicha qolmoqda. Bunday holatda talabalarning diskussiyani to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llay olish muammosi paydo bo‘ladi. Diskussiyaning ta’rifiga ko‘ra, u demokratik xarakterga ega bo‘lib, xar bir talaba o‘z fikr va qarashlarini o‘zaro almashinish xuquqiga ega. Shuningdek, “og‘zaki nutqdagi ziddiyatning tuzulishi hamda uning shakllari: baxs, dikussiya, polemika” mavzusidagi ilmiy tadqiqot mualliflari Ye.N.Dyachkov va N.R. Shves lar Suqrotning “Xaqiqat baxslar natijasida tug‘iladi” degan so‘zlariga asoslangan holda diskussiya, baxs va polemikalarning o‘xshashligi hamda farqlanishini muhokama qiladilar. Bu borada mualliflar qarashlariga qo‘shilgan holda, professional faoliyatda dikussiya metodini qo‘llaganimizda yuqorida keltirilgan fikr va muloxazani tez tez yodga olamiz. Biroq, ushbu qarashni qanchalik xaqiqatga yaqin ekanligini ilmiy tasdig‘ini topish talab etiladi. Bu borada, mualliflar baxs, dikussiya va polemika tushunchalarining o‘zaro kirishimliligi borasida fikr yuritadilar. Biroq, ushbu tushunchalarning samaradorligini oshirish maqsadida bir qator shartlarni belgilab ko‘rsatiladi.

O.P.Fisenko ilmiy diskussiyaning yuritishda o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqib, uni baxs metodini ritorikada baxsni yuritish bilan solishtiradi. Buning natijasida “diskussiya nutqi” atamasi bilan bir qatorda “dialektika” atamasi vujudga keladi. Mualliy diskussiyaning maqsadini aniqlashtiradi, bundan tashqari, ushbu metod qurilishidagi bir qator qonun-qoidalarini ajratib ko‘rsatadi. Ilmiy dikussiya janr sifatida ritorikada baxs turlarining biriga mansub bo‘ladi. Ilmiy diskussiya yuritishda eng muhim mahorat sifatida to‘liq, mantiqiy va obyektiv dalillash hisoblanadi.

Y.A.Volkov va T.G.Shirokogorovlar o‘zlarining “diskussiya – og‘zaki nutq muloqot shakllaridan biri” deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishida diskussiya metodini og‘zaki muloqot pozitsiyasi bilan birga tahlil qilib o‘tadilar. Diskussiya metodi jarayonini qurilishida, muallif ham yuqorida keltirilgan diskussiya metodining elementlarini ta’kidlash bilan bir qatorda, diskussiya metodini yuritish jarayonidagi negativ omillar ya’ni kutilmagan omillar borasida ham to‘xtalib o‘tadilar. Shuningdek, bir muammoli vaziyatga nisbatan tomonlarning turli xil qarashlari hamda mavjud turli ma’lumotlar diskussiyani baxs-munozaraga yoki ziddiyatli vaziyatga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarga duch kelmaslik hamda samarador og‘zaki muloqotni yaratish maqsadida mualliflar bir qator omillarni taklif etadilar. Turli mutaxassislik hamda turli professional darajaga ega mutaxassislarning o‘zaro munosabatida moderator tomonidan diskussiya jarayonidagi mavzuni erkin hamda keng qamrovli egallangan bo‘lishi, diskussiyada ishtirok etayotgan ishtirokchilarning umumiy dilim darajalari, tinglash hamda vaziyatni nazorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Bundan tashqari, muloqot jarayonini ham nazorat qilish zarur bo‘ladiki, unda xech bir ishtirokchi bir birining nutqini bo‘lmasligi talab etiladi. Bunday metodning doimiy tarzda qo‘llash jarayonning takomillashishiga hamda muammoli vaziyatlarning kamayishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, diskussiya metodini, I.N.Doronina, Ye.A.Volkovalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida tahlilini keltirib o‘tadilar. Muallif o‘z tadqiqotlarida diskussiyani, diskussiya – tadqiqot olib borish, diskussiya – muammoning yechimi, diskussiya – ishontira olish kabi turlarini belgilab ko‘rsatib o‘tadi. Bundan tashqari, mualliflar tadqiqot natijasida bir yagona fikrga, ya’ni xar qanday diskussiya turi uchun yagona maqsadli qurilma mavjudligi to‘g‘risida xulosa qiladilar.

A.R.Churdina esa o‘zining ilmiy tadqiqot ishida diskussiyaning “maqsadga yo‘naltirilgan, ma’lum bir muammo chegarasidagi va tartibli fikr va qarashlar almashinuvi hamda ta’lim jarayoning shakli” sifatida ko‘rib chiqadilar. Bundan tashqari, muallif diskussiyaning, ikki tomonlama maqsadni, har bir ishtirokchining kommunikativ rolini, muhokama vaqtida o‘z nutqiy faolligini namoyish etishga tayyorgarligi kabi o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, V.B. Veretennikova diskussiya metodi oraqali talabalar ta’lim jarayonida to‘g‘ri tashkil qilingan metodik borasidagi tajribani talqin qiladi. Shuningdek, muallif diskussiya metodining asosiy jihati, ishtirokchilarning malakasining darajasiga o‘z e’tiborini qaratadi. Shuningdek, diskussiya metodining ishtirokchilarning asosiy malakasi borasidagi samaradorligiga qaratiladi.

Yuqorida kelitirilganlar N.S.Batorovning, diskussiyaning masofadan ta’limdagi ta’lim shakli sifatida borasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Bundan tashqari, diskussiya jarayonini olib boradigan moderator - pedagogning muhimligi borasida so‘z yuritiladi. Shuningdek, mualli ta’lim oluvchilarning asosiy muammosi sifatida ularning sust darajadagi professional tayyorgarligida deb ko‘rsatadi. Ta’limda diskussiyaning qo‘llanilishi dalillash, o‘z qarash va farazlarini asoslash, ma’lumotlarni tahlil qila olish, muammoni to‘g‘ri muhokama qilish uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash kabi qobiliyatlarni takomillashtiradi.

L.Y.Zelenina o‘zining tadqiqot ishida ilmiy diskussiya samaradorligi borasida bir qator mezonlarini ya’ni taqdimot qila olish, dalillash, muhokama qila olish va tinglash qobiliyatlarini alohida belgilab ko‘rsatadi. Shuningdek, asosiy e’tiborni ilmiy diskussiyaning ma’daniy tarkibiga qaratiladi. Og‘zaki nutq madaniyati borasida diskussiyani jarayonida ishtirok etish uchun avvaldan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Asoslanmagan hamda aniq misollar bilan mustahkamlanmagan fikr va mulohazalar xech qanday ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Bu bilan birga yana bir marotaba ishtirokchilarning yuqori malakaga ega bo‘lishlari isbotlanadi. Muallif ilmiy diskussiyaga “jarayon davomidagi dolzarb muammoni muhokamasi orqali guruh qaroriga erishish samaradorligiga qaratilgan xamkorlikda faoliyat yuritish xususiyatini o‘zida aks ettiradi” degan ta’rifni keltirib o‘tadi. Ilmiy diskussiya esa ilmiy jarayon bo‘lib, o‘zida aniq belgilangan tizim hisoblanadi. Unda jarayon ishtirokchilari o‘rtasida, intervyu olib boruvchi, yangi fikr yaratuvchi hamda muloqot o‘rnatuvchi kabi rollarning oldindan bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirilgan fikrlar bir qatorda pedagog va psixologlar J.Piaje, G.A.Sukerman, Yu.K.Babanskiy, K.Levina va boshqalarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarini ham ilmiy asos sifatida hisoblash mumkin. Olimlar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida asosiy e’tiborni diskussiya metodining ta’lim oluvchilarning tarbiyaviy jihatiga bo‘lgan ta’sirini hamda guruxlar orasida diskusiya ishtirokchilarning ijtimoiy xayotidagi o‘rniga ta’sirini ham atroflicha o‘rganib chiqadilar. Shunga qaramay ilmiy diskussiya samaradorligining nazariy asosi sifatida ko‘p vaziyatlarda Yu.K.Babanskiy tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari nazarda tutiladi. Yu.K.Babanskiy diskussiyaga nisbatan ta’lim olishga motivatsiya hamda ma’lum bir muammoga, mavzuga va fanga yo‘naltirilgan qiziqishni uyg‘otuvchi metod

sifatida munosabat bildiradi. Hozirgi vaqtga kelib ushbu metodning keng tarqalganligi borasida so‘z yuritilganda, uning oliy ta’limda hamda boshqa qo‘shimcha ta’lim maskanlarida keng qo‘llanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar olib borilatyogan tadqiqot ishining hamda ilmiy diskussiya metodini oliy ta’limda keng miqyosda qo‘llanilish zaruriyatini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu metodning ta’lim jarayonida foydalanmaslik muammosi o‘z yechimi topmay qolmoqda. Shuningdek, tinglovchilarning qo‘shimcha ta’lim olishlariga bo‘lgan motivatsiya ham dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Doimiy charchoq, professional faoliyatdagi ilmiy charchoqlar, yangi metodlarni o‘zlashtirishdan qochish, texnologiyalarni o‘rganish hamda yangi faol metodlar jarayonlarida qatnashish, shuningdek, o‘z pedagogik tajriba bilan o‘rtoqlashish kabi amaliyotlar ilmiy diskussiyaning keng miqyosda qo‘llanilishiga bo‘lgan zaruratning oshishiga olib keladi. Ushbu metodning qanday qurilganligini hamda uning talabalar ta’lim jarayonida qo‘llanilishi zaruratining muhimligi borasida falsafa fanlar doktori N.S.Chernyakov yuqorida keltirilgan, “baxslar xaqiqatga olib keladi” degan qarashga nisbatan qarama-qarshi xolda erkin muloqot natijasi doimiy ravishda ham samarali qarorlar qabul qilish bilan yakunlanmasligi mumkinligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, muallif o‘z tadqiqot ishida xaqiqat xech qachon baxslar natijasida dunyoga kelmasligini, shuningdek, ilmiy diskussiya jarayoni mobaynida keltirilgan fikr va mulohazalar taxminiy qarashlarga emas balki to‘liq asoslangan va bilimlar bilan mustahkamlangan bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Shu tariqa, ilmiy diskussiyaning ta’lim jarayonida qo‘llanilishiga oid olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili o‘tkazildi. Mualliflar tomonidan, mazkur ilmiy tadqiqot mavzusi ilmiy diskussiyaning qo‘llanilish zarurati hamda uning samaradorligi borasida yanada chuqurroq tahlil olib borish kerakligini ta’kidlaydilar. Ilmiy diskussiya jarayoni davomida xar tomonlama puxta tayyorgarlik, jarayon o‘tkazish tartib va qoidalari, mezonlari, parametrlari, samaradorlik omillari hamda diskussiya metodining ta’sirchanligi borasidagi to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi. Diskussiya metodi va ilmiy diskussiya metodlarining tahlili ushbu metodlarning o‘zaro ahamiyatga ega bo‘lmagan tarzda farqlanishlari aniqlandi. Yuqorida keltirilgan mualliflarning fikrlariga binoan ilmiy diskussiya ko‘proq tartibga solingan va tuzilgan, asosiy rol esa moderatorga berilgan. Ilmiy tadqiqotlarda diskussiya turlari, diskussiya o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari aloxida belgilab ko‘rsatilgan. Shu tariqa, mazkur ilmiy tadqiqotda samarador diskussiyaning mezonlari, parametrlari va qonun-qoidalarini ishlab chiqishga aloxida e’tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Vizitey N. N. Ilmiy diskussiya metodlari va shakllari to‘g‘risida: muammoni to‘liq davo qilmagan holda yoritish // Jismoniy tarbiyaning nazariya va amaliyoti – 2011.
2. Dyachkova Ye. N. Og‘zaki nutqdagi ziddiyatlarning yaratilish shakllari va qurilishi: sport, diskussiya, polemika / Ye. N. Dyachkova N. R. Shves. – Matn: to‘g‘ridan-to‘g‘ri // Oliy ta’limdagi mavjud muammolar. Tinch okean davlat universiteti. – 2011.
3. Dobrenkov V. I. Sotsiologik tadqiqotlar metodlari: darslik / V. I. Dobrenkov, A. I. Kravchenko. – Moskva
4. Fisenko O. P. Diskussiya, ilmiy tadqiqot shakli sifatida / O. P. Fisenko. // Amaliy fanlarning zamonaviy muammolari: 2011-yil uchun moliyalashtirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plami. – Omsk : Omsk iqtisodiyot instituti, 2012.
5. Ivin A. A. Ritorika: ishontirish qobiliyati / A. A. Ivin. – Moskva : FAIR-PRESS, 2002.
6. Kuzmin N. V. Diskussiya, muammoli dars mashg‘ulotining shakli va metodi / N. V. Kuzmina. // VI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Cheboksar, 201.
7. Bochkova, N. V. Diskussiya qanday yuritaladi? / N. V. Bochkova – URL: http://festival.1september. ru/articles/58217
8. Volkova Ye. A. Diskussiya, og‘zaki muloqot shakli sifatida / Ye. A. Volkova,
9. Shirokogorova T. G. // Psixologiya va pedagogika: metodologiya va amaliy qo‘llash muammolari. – Novosibirsk: OOO “Ilmiy hamkorlikni rivojlantirish markazi”. – 2016. – № 53.
10. Doronina I. N. Og‘zaki muloqotning asosiy tarkibiy va funksional xususiyatlari / I. N. Doronina, Ye. A. Volkova.
11. Batorova N. S. Masofaviy ta’lim muhokamasi shaklida kasbiy kompetensiyalarni ashkllantirish vositasi sifatida / N. S. Batorova. // Ilmiy konferensiya to‘plami. – Tambov – 2018. – № 3–2 (31).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:378:745/749

Zuxra UMAROVA,
MRDI o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: zuxra.umarova87@mail.ru
Asomiddin RASHIDOV,
MRDI dotsenti
E-mail: asomiddin.rashidov.71@mail.ru

TDPU (PhD), dotsenti G.Sh.Sharipova taqrizi asosida

LIBOS DIZAYNI TA’LIMINING AN’ANA VA INNOVATSIYALAR KESIMIDAGI AKTUAL TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada so‘nggi yillar davomida dizayn ta’limiga kiritilayotgan innovatsiyalarning an’anaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unligi, ularning malakali dizayner kadrlar tayyorlashdagi ustuvor vazifalari atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, bugungi kunda libos dizayneri mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalariga qo‘yilayotgan talablar va ularning oliy ta’lim tizimlari hamda ish beruvchi korxonalar orasidagi samarali xamkorlikni ta’minlashdagi maqsad va vazifalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Konseptual asoslar, kasbiy qadriyat, professional kompetensiya, zamonaviy marketing talablari, moda tendensiyalari

АКТУАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ОБРАЗОВАНИЕ ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ В ПЕРЕСЕЧЕНИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ

Аннотация

В статье подробно исследуется интеграция инноваций, внедряемых в дизайнерское образование в последние годы, с традиционными методами обучения, их приоритетные задачи в подготовке квалифицированных дизайнерских кадров. Также анализируются современные требования к профессиональным компетенциям специалистов-дизайнеров одежды и их цели и задачи в обеспечении эффективного взаимодействия систем высшего образования и предприятий-работодателей.

Ключевые слова: Концептуальность, профессиональная ценность, профессиональная компетентность, тенденции современного маркетинга, модные тенденции.

CURRENT TRENDS EDUCATION OF CLOTHING DESIGN AT THE INTERCEPTION TRADITION AND INNOVATION

Annotation

The article examines in detail the integration of innovations introduced into design education in recent years with traditional teaching methods, their priority tasks in the preparation of qualified design personnel. It also analyzes the current requirements for the professional competencies of clothing designers and their goals and objectives in ensuring effective interaction between higher education systems and employers.

Key words: Conceptual framework, professional value, professional competence, modern marketing requirements, fashion trends

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ro‘y berayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar jamiyat hayotining ko‘plab sohalari, jumladan, ta’lim amaliyotini isloh qilish jarayonlarida ham ustuvorlik kasb etmoqda. Ma’lumki, dizayn hozirda – avvaldagi yillardan farqli ravishda, sifat jihatidan yangi turdagi (yangicha maqsad, yangicha natija yoki yangicha vositalar, ularga erishishning yangi usullari) mahsulotlarni yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat sohasidir.

Dizayn maxsulotlarini yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat ma’nosida, libos dizayni sohasi ham dizaynerlardan iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan amaliy mexanizmlar doirasida faoliyat yuritishini taqozo etmoqda, chunki u “moda sanoatiga kirib kelayotgan badiiylik qiymatlarning muqobil tarzdagi iqtisodiy almashinuvida” ishtirok etish orqali jamiyat a’zolarining go‘zal va aktual dizayn buyumlaridan foydalanish borasidagi ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi. Xususan, libos dizayni sohasining konseptual asoslari iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa ko‘plab turdagi innovatsion samaradorlikni ta’minlashda o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyorlarning tahlili. Har qanday jamiyatda, dizayn sohalari doirasidagi oliy ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarning ajralmas vositasi sifatida, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi fundamental innovatsion jarayonlarning vujudga kelishida poydevor bo‘lib hizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy xulosalar pedagogika, estetika, dizayn va san’at tarixi bo‘yicha K. Shverov, L. M. Xolmyanskiy, A. S. Shipanov, A.N.Lavrentev, L.Volpintesta, K.I.Rojdestvenskiy, N.S. Hasanovalar olib borgan tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda jamiyat ravnaqiga to‘sqinlik qilib kelayotgan omillardan biri har bir soha doirasida ularni rivojlantiruvchi malakali kadrlarning etishmasligidir. Malakali kadrlar etishmasligi mutaxassisliklar va ishlab chiqarish faoliyati oldida turgan ko‘plab vazifalarni hal etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu aktual muammoning echimi avvalo, oliygohlar bitiruvchilari va ish beruvchi korxonalar hamda ishlab chiqarish jarayonlarida kun sayin ortib borayotgan raqobat muhitiga adekvat javob bera oladigan samarali faoliyat mexanizmlarini shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aytish joizki, dizayner-kadrlarning ishlab chiqarish tarmoqlaridagi amaliy-ijodiy faoliyatlari oliy ta’lim tizimlarida olgan bilim va ko‘nikmalaridan ancha keng va murakkab hisoblanadi. Xususan, ish beruvchiga, bir tomondan, ma’lum bir mahsulot turini puxta biladigan va ishlab chiqilgan mahsulot loyihalarini amalga oshirish bosqichiga olib chiqish darajasidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar, ikkinchi tomondan, tarmoqlararo muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan universal mutaxassislar ishtirokini talab etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida ta’kidlash joizki, bugungi kunda zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh korxonalarning dizayn maxsulotlari ishlab chiqarish protsesslarida dizaynerlar oldiga qo‘yidagi talablar qo‘yilmoqda va aytish mumkinki, aynan mazkur talablar oliy ta’lim tizimlariga qo‘yiladigan talablar bilan xamoxang bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ularga:

o‘zgaruvchan iqtisodiy shart sharoitlarga moslasha oladigan;

maqsadlarni to‘g‘ri qo‘ya oladigan va ularga erisha oladigan;

mahsulotlar dizayn loyihalarini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelgan muammolarni hal etishda nostandart echimlarni topadigan;

zamonaviy marketing talablaridan etarli darajada xabardor va ularni so‘nggi moda tendensiyalari talablari bilan uyg‘un holda qo‘llay biladigan dizayner-kadrlarini tayyorlash vazifalarini kiritish mumkin.

Ammo, sanab o‘tilgan talablar asosida malakali kadrlar tayyorlash jarayonlariga to‘sqinlik qilayotgan bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularning echimi bir qancha murakkab hisoblanadi.

Birinchidan, bu yurtimiz dizaynidagi inqirozli vaziyat. Ya’ni, dizayn sohalarida mavjud bo‘lgan an’analar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda noaniq kasbiy mezonlar va maqsadlar atrofida tarqoq holda faoliyat yuritib kelmoqda va bu jarayonlar sababli, aksariyat hollarda u o‘zining asosiy vazifalarini to‘liq amalga oshirmay qolmoqda. Dizayndagi jarayonlari, ulardagi:

- bir necha davrlar mobaynida o‘z samarasini berib kelgan, hozirda amaliy faoliyat bosqichlarining zamondan ortda qolayotganligi;

- ishlab chiqarish prosesslarining konseptual asoslari va tuzilishining samarali strategiyalar tizimi asosida amaliyotga joriy etilmayotganligi;

- kasbiy qadriyatlar va me’yorlarning qadrsizlanishi;

- va eng asosiysi, investorlarning chet davlatlar loyiha kompaniyalarida ishlab chiqilgan tayyor mahsulot loyihalarini taklif etayotganlari, bu esa mamlakatimizning kostyum dizayni sohasida etakchi davlatlar qatoridan ijodiy jarayonlar jadallashuvi imkoniyatlarining pasayishiga olib kelayotgan jihatlarda ko‘zga tashlanmoqda.

Bu borada e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan yana bir jihat, mamlakatimizda dizaynning nazariy asoslari to‘liq shakllanmaganligi:

- uning samarali rivojlanish mexanizmlari, hamda jahondagi ilg‘or dizayn yutuqlarini tadqiq etish orqali ulardan mamlatimiz iqtisodiyoti va dizayn sohalarini rivojlanish tamoyillarida foydalanadigan ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida muammolar;

- mamlakatimizda tashkil etilayotgan ko‘plab "akademiyalar", "maktablar", "markazlar", onlayn kurslarda olib borilayotgan o‘qitish tizimlarining dizaynda mavjud bo‘lgan zamonaviy ishlab chiqarish talablari asosida emas, balki an’anaviy dizayn ta’limi talablari asosida olib borilmoqda ekanligidadir.

Bu borada, bugungi kunda O‘zbekistonda libos dizaynerlarini tayyorlash bilan shug‘ullanib kelayotgan 10 ortiq oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ularda olib borilayotgan o‘quv jarayonlari yagona ta’lim maydonini, yagona ta’lim darajasini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan “Davlat ta’lim standarti” mavjudligiga qaramay, deyarli har bir oliygoh standartlarning majburiy komponenti doirasidan tashqari bo‘lgan o‘zlarining individual ta’lim “konsepsiyasi” nuqtai nazaridan amalga oshirmoqda ekanligida.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlash o‘rinliki, dizayn ta’limi oldidagi bugungi kunda mavjud bo‘lgan asosiy talab bu – oliygohlarning o‘z faoliyatidagi turli xil ta’lim konsepsiyalari bilan bo‘lsada, malakali dizayner kadrlar tayyorlash yaxlitligini saqlab qolishini ta’minlashdir. Shu nuqtai nazardan, dizaynning asosiy xususiyatlarini, uning funksiyalarini, mazmunini, kasbiy fikrlashning o‘ziga xos tamoyillarini va dizaynerning kasbiy kompetensiyalarini tushunish, ularni keyinchalik oliygohlar tomonidan belgilangan professional kompetensiyalar formatiga “moslashtirish” ta’lim jarayonlarining samarasini belgilashdagi muhim omillardan biridir [1].

Dizaynerning kasbiy kompetensiyalari tizimini shakllantirishdagi asosiy talablar, ularning nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni his etishlari, bu jarayonda individual loyihalash konsepsiyalarini yarata olishlari sanaladi. Buning asosiy sababi, dizayner mutaxassislarining o‘z kostyum kolleksiyalarini shakllantirish jarayonlarida madaniyatning estetik, badiiy, ijtimoiy va moddiy qadriyatlarini o‘zlashtirish orqali atrof-muhitning qiymat xususiyatlarini oshirish maqsadlarini bajaradigan gumanitar ijtimoiy-madaniy faoliyatlar majmuini ta’minlay olishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bu esa o‘z navbatida libos dizaynerlari faoliyatining ko‘p qirraliligiga omil bo‘ladi, bo‘lajak dizaynerlarning o‘quv jarayonida nafaqat har tomonlama, balki ushbu jihatlarning har biri doirasida rivojlanishini nazarda tutadi. Bugungi kunda O‘zbek moda sanoati va xususan libos dizayni ta’lim tizimlarida bu borada bir qator muammolar mavjud.

Xususan, yurtimizda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar tufayli bozor va marketing munosabatlarining kengayishi libos dizayni sohasida etarli darajada bilimga ega bo‘lmagan havaskor-ijodkorlarning moda sanoatiga kirib kelishini rag‘batlantirdi. Xususan, istagan inson zamonaviy dasturiy ta’minot programmalarida ishlashni o‘rganish orqali dizaynerlik faoliyatini yuritishga imkon yaratadi.

Ammo, mazkur jarayonlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratish oqibatida, yaqin kelajakda o‘zbek modasining rivojlanish tamoyillariga mos keladigan, samarali strategiyalar tizimida emas, balki dizayn bo‘yicha yuzaki bilimlarga ega bo‘lgan “yosh” ijodkorlarning faoliyati doirasida klasterlar ehtiyojlariga mos darajada amalga oshirilishiga zamin hozirlaydi.

Vaholanki, libos dizayni bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat va magistratura ta’limini o‘tagan yosh dizaynerlar yangi g‘oyalar asosida izlanishlar olib borish vazifasiga oliygohlardagi bir necha yil davomida olgan bilim va ko‘nikmalari doirasida yondoshadilar va bu boradagi faoliyat ularning amaliy-ijodiy faoliyatlari asosini tashkil qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu jarayon birinchidan, libos dizayni bo‘yicha bakalavr yoki magistr mutaxassislarining zamon bilan hamnafas holda ijod qilishlari uchun muhim hisoblansa, ikkinchidan, ularning iste’molchilar e’tiborini qozona oladigan yangi turdagi dizayn buyumlarini yaratishlari uchun zarur jihatlardan sanaladi.

Bu borada ularning soha doirasida oliy ta’limni o‘tmagan havaskor ijodkorlardan farqli jihatlari ular faoliyatining dizayn sohalari doirasida shakllantirilgan samarali loyihalash metodlariga, evristik uslublarga (evristika - grek tilidan olingan bo‘lib, izlash, kashf etish ma’nolarini anglatadi) to‘laqonli yondoshuvlarida aks etadi.

Mazkur fan doirasidan kelib chiqadigan loyihalash madaniyati metodlari dizaynerlar faoliyatlari mobaynida murojaat etuvchi empirik asosga ega bo‘lgan an’anaviy prinsiplar asosida shakllantiriladi. Keyingi bosqich ular bilan bog‘liq tarzda shakllantiriladigan ijodiy konsepsiyalarda noan’anaviy texnologik aspektlarga xos innovatsion uslublarni qo‘llash orqali kelib chiqadigan spetsifik tamoyillarni amalga tadbiq etish vositasida loyihalangan dizayn buyumlarini yaratish vazifalarining echimi sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Bugungi kun o‘zbek moda sanoatidagi amaliy-ijodiy jarayonlarni yuqorida ta’kidlab o‘tilgan faoliyatlar nuqtai nazaridan tadqiq etar ekanmiz, bu borada yurtimiz modasini rivojlantirishda ahamiyatli bo‘lgan kostyum loyihalash metodlariga aniqliklar kiritishni lozim topdik. Ularga:

Birinchidan mamlakatimiz moda sohasida faoliyat olib borayotgan dizaynerlarning libos loyihalashning “assotsiatsiyalar metodi” asosida loyihalangan kostyum kolleksiyalari. Ushbu metod asosida ma’lum bir g‘oyalarni shakllantirish va bu borada yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun dizaynerlar o‘zlarini o‘rab turgan borliqdan turli xil yangi g‘oya va assotsiatsiyalar shakllantira olish hamda ulardan unumli foydalangan holda libos shakllarida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishlari zarur [2]. Bu metod D.Qosimova, I.Agzamxo‘ja, Sh.Muhammedova, A.Ansar brendlari kostyum kolleksiyalarida o‘z aksini topib kelmoqda.

- Ikkinchidan – yurtimizning yana bir e’tiborli dizaynerlari ijodining asosi bo‘lgan “analogiya metodi” doirasida yaratilgan kostyum to‘plamlari. Mazkur metod doirasidagi amaliy faoliyat davomida dizaynerlar milliy va etnografik kostyum namunalari, me’morlik inshootlari kabi ko‘plab maishiy xarakterga ega bo‘lgan vositalarning libos loyihalaridagi analoglarini shakllantirishni maqsad qiladilar [2]. Bunda dizaynerlar ijodiy manba sifatidagi biror bir ashyoning loyihalash jarayonlaridagi transformatsiyasini o‘z g‘oyalari asosidagi interpretatsiyalar orqali shakllantiradilar. O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan “Anor”, “Lali”, “Moel Bosh”, “Kanishka” brendlarining mazkur metod asosida yaratilgan kostyum kolleksiyalari nafaqat yurtimizda, balki, dunyoning ko‘plab davlatlari moda ixlosmandlari e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

- Uchinchidan – 2022 yilda o‘zbek moda sanoatining e’tiborli voqe’ligiga aylangan “B.Jeans” va “D.Kasimova” brendlarining kollakboratsiyalarida aks etgan kostyum loyihalashning “dekompozitsiya metodi” (dizaynerlar ijodiy jarayonlarida murakkab hisoblanuvchi vazifalarni bir necha bosqichlar asosida shakllantirish prinsiplarini ishlab chiqish va ular asosida faoliyat olib borishni taqozo etadi). Xususan, mazkur kollaboratsiya natijasida yaratilgan denim matosi va o‘zbek milliy kashta an’analarining sintezi asosida loyihalangan ayollar liboslarining loyihasi quyidagi ketma ketlikdagi amaliy faoliyatlarga doir bosqichlarni qamrab olganligi bilan e’tiborlidir:

- loyihalangan liboslarning shakl, mato va bezak berish jarayonlarining izchilligiga erisha olinganligi;

- to‘plamdagi assortiment turlarining optimal mutanosibligini belgilay olinganligi;

- sanoat va individual buyurtmaning har ikki turi uchun mos bo‘lgan kostyum modellarini shakllantira olinganligi;

- liboslardagi shakl, siluet va proporsiyalarning an’anaviy va innovatsion loyihalash talablariga birdek javob bera olishi;

- har bir libos namunasi uchun mos bo‘lgan bosh kiyimlar va akssesuarlar loyihasi ustida samarali faoliyat olib borilganligi mazkur to‘plamning yurtimiz moda sohasi rivojini yangi bosqichga olib chiqishga ahamiyatli ekanligini ta’kidlashimizga asos bo‘la oladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistondagi libos dizayni ta’limining an’ana va innovaitsyalar kesimidagi aktual tendensiyalari tahlilini aks ettirgan mazkur ilmiy tadqiqot xulosalari sifatida aytish joizki, yuqorida tahlil etilgan barcha loyihalash va modellashtirishga oid metod va tamoyillar xozirgi kunga qadar liboslar dizaynidagi eng ahamiyatli bo‘lgan ijodiy konsepsiyalarni o‘zida mujassamashtirganligi bilan yurtimiz dizaynerlari tomonidan ham ana shu yo‘nalish doirasidagi ijodiy izlanishlar qamrovini yanada kengaytirish imkoniyatini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu jarayonga ongli tarzda yondoshib, o‘z ijodiy uslublarini shakllantirish uchun esa yosh dizaynerlar uchun bu boradagi ilmiy va nazariy ahamiyatga ega tadqiqotlarni yanada jadallashtirish va ularni o‘quv jarayonlariga tadbiq etish masalasi echimini kutayotgan dolzarb muammolar sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Стрикелева К.А. К вопросу о развитии профессиональных компетенций дизайнера в вузе. [Электронный ресурс] http://elib.bsu.by/handle/123456789/239096
2. Шверова К. Концеция и методы проектирования в дизайне одежды [Электронный ресурс]/К.Шверова// www.taby27.ru: ежедн. интернет-изд.2007. –URL.
3. Лаврентьев А.Н., История дизайна. - М.: Гардарики, 2006.
4. Петров Л.В. Мода как общественное явление / Л.В. Петров. Л.: Знание, 1974 й., 32 б.
5. Ҳасанова Н.С. Ўзбекистон бадиий таълими –Т.: “Санъат”, 2014.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 159.9.01

Muqaddas UMAROVA,
Qo‘qon davlat pyedagogika instituti dosenti, PhD
SaidIslombek UMAROV,
Turkiya Respublikasi, Falsafa fanlari doktori
E-mail: asqarov.dm.94@gmail.com

TDIU professori, psix.f.d. Karimova Vasila Mamanosirovna taqrizi asosida

O‘SMIRLAR ONGIDA OILAVIY QADRIYATLAR TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHIDA OILA OMILINING O‘RGANILISHI

Annotasiya: ushbu maqolada o‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari, ularda milliy udumlar, qadriyatlar ta’siri, oila, undagi o‘zaro munosabatlar hamda er-xotin munosabatlarining oilaviy muhitga ta’siri, o‘smirdagi oilaviy qadriyatga oid ijtimoiy tasavvurlarga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar tahlili va metodologik tamoyillarni belgilash xususida so‘z yuritilgan
Kalit so‘zlar: Oilaviy qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlar, ijtimoiy xulq, ijtimoiy tasavvurlar, kognitiv stereotip, verbal reaksiyalar, etnopsixologik muammolar, oilaviy munosabatlar, psixologik tayyorgarlik.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФАКТОРА СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЯХ В МОЗГЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье рассмотрены этнопсихологические проблемы узбекской семьи, влияние национальных обычаев, ценностей, влияние семьи, взаимоотношения в ней и отношения супругов на семейную среду, социальные представления о обсуждаются ценности семьи у подростка, обсуждаются анализ исследования и методологические принципы
Ключевые слова: Семейные ценности, этнопсихологические особенности, социальное поведение, социальные представления, когнитивный стереотип, вербальные реакции, этнопсихологические проблемы, семейные отношения, психологическая подготовка.

THE STUDY OF THE FAMILY FACTOR IN THE FORMATION OF IDEAS ABOUT FAMILY VALUES IN THE MINDS OF TEENAGERS

Abstract

In this article, the ethnopsychological problems of the Uzbek family, the influence of national traditions, values, the influence of the family, its mutual relations and the relationship of husband and wife on the family environment, and social perceptions of family values in teenagers are presented. research analysis and methodological principles are discussed
Key words: Family values, ethnopsychological characteristics, social behavior, social perceptions, cognitive stereotype, verbal reactions, ethnopsychological problems, family relations, psychological preparation.

Kirish. Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o‘sib borishi, muayyan an’analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga yetkazilib turilishidan manfaatdor bo‘lgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leontyev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o‘rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo‘lmaganida, taraqqiyotning o‘zi ham mutloq bo‘lmas edi, deb ta’kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo‘lagi bo‘lmish oilaning roli kattadir.

Oila – eng avvalo rivojlanuvchi tuzilma bo‘lib, unga yoshga oid qonuniyatlar xosdir. CHunki oila a’zolari yillar o‘tgani sari rivojlanadi, yetuklikka erishadi, qariydi, shu bois ham oila doimiy o‘zgarish va rivojlanishlarni boshidan kechiradi.

Oilaning tarkibiy tuzilmasi ham ilmiy jihatdan muhim bo‘lib, uni eng avvalo alohida individlar tashkil etadi. Alohida individ o‘z xohish-istaklari, ehtiyojlari, motivastiyasi, hayotiy maqsad-muddaolariga ega dastlabki avtonom birlikdir. Oila a’zolari esa oilaga kirishib, qo‘shilib ketganligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Oilaning ayrim a’zolari butun vujudi, borlig‘i bilan oilaviy hayotga uyg‘unlashga ketgan bo‘lsa, boshqalari uning tarkibiga boshqa tashqi tuzilmalar hisobidan qo‘shiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yangi davr olimlari, xususan XX asr oxiri, XXI asr boshlarida ijod qilgan pedagog olimlar, etnograf tarixchilar qatorida psixologlar ham oila va oilaviy munosabatlarga oid masalalarni tadqiq etganlar. O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolarini, ularda milliy udumlar, qadriyatlar ta’siri muammosi M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, N.Sog‘inov, M.Rasuleva, M.Mamatov, N.Salayeva va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

V.M.Karimova oilada xotin- qizlarning mavqeini o‘rganib, o‘zbek ayollari tasavvuridagi o‘zgarishlar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik shart- sharoitlarini taxlil etgan. Uning ilmiy maqolalari va risolalari, shuningdek, Respublika “ Oila “ ilmiy- amaliy Markazidagi olimlar oilaviy o‘zaro munosabatlar M.Quronov, M.Iminova, M.Yakubbekova, M.Adilovalarning sosiologik tadqiqotlari natijasiga tayanib, shu narsani e’tirof etish mumkinki, oilaviy o‘zaro munosabatlarning xususiyati, oilada erkak va oilaning ijtimoiy- psixologik maqomi, ota- onaning, birinchi navbatda ayolning savodxonligi va bilim saviyasi, o‘z bolalarining ijtimoiy tasavvurlariga, ma’naviy qiyofasiga, oilaga psixologik tayyorgarligiga ta’sir etadi. Olimlarning

ta’kidlashicha, oilaviy udumlar, an’analar va rasm – rusumlarda bevosita ota- onaning savodxonligi darajasini belgilovchi mezonlarning mavjudligi, oilaviy kutubxona, undagi nashriy manbalarning yetarliligi, oilaviy gurunglarda ijtimoiy – iqtisodiy, jamiyat ravnaqi muhokamalarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, farzandlarda ushbu masalalar bo‘yicha xolisona dunyoqarash shakllanayotganligini kattalar tomonidan doimiy nazoratda tutilishi yoshlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissining rivojlanishi, sobit va mustahkam e’tiqodning tarkib topishidagi muhim shartlardandir.

Tahlil va natijalar. O‘zbek psixologlari oilaviy nizolar, er- xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar o‘smirga faqat salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ma’naviy to‘siq ekanligini ko‘plab ishlarida isbotlaganlar.(M.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, B.Qodirov, X.Karimov, F.Ro‘ziqulov va b) va bunday ta’sirni bugungi kundagi oilalarning ijtimoiy muammolaridan biri deb qaraydilar.

E.G‘oziyev boshchiligida O‘zbekiston Milliy Universitetida amalga oshirilgan qator ilmiy tadqiqotlarda oilada bola shakllanishining etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishga hamda oilaviy udumlar, rasm- rusumlar, bola ongiga ilk davrdanoq singdiriladigan qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilgan. “ O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni, uning kundalik va istiqbol rejalari : bolalarga ta’sir o‘tkazish vositalarini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki uning asosida xalq an’analari yotadi. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasidan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi”,- deb yozgan edi olim.

E.G‘oziyevning shogirdlari va hamkasblari bilan o‘tkazilgan etnopsixologik tadqiqotlarida o‘zbek oilasida bola tarbiyasini tashkil etishga qaratilgan konkret qonunlar ham ishlab chiqilgan. Masalan, E.G‘oziyev o‘zbek oilasida an’ana bo‘lib hisoblangan otaning mavqeini tushirmaslik, uning ta’sir kuchidan bolani shakllantirishda oqilona foydalanishga chaqiradi. Tekshirishlar natijasida u otasiz oilalardagi muammolarga diqqatni qaratadi. Biz o‘z tadqiqotimiz uchun E.G‘oziyevning xulosalaridan nazariy-metodologik manba sifatida foydalanamizki, zero, oilaviy udumlarning mohiyatini o‘smirga, birinchi navbatda, o‘g‘il bola ongiga singdirishda otaning ta’siri qudratlidir.

Yoshlarning tarbiyasiga o‘zbek oilasining ta’siri masalasi G‘.Shoumarov va Ye.Morshinalarning ishlarida ham o‘rganilgan. Ular yoshlarni oilaga tayyorlashda, yosh oilalarning paydo bo‘lishida hanuzgacha kattalarning roli sezilarli ekanligini, milliy psixologiya nuqtai nazaridan bu - qator ijobiy tomonlarga ega ekanligini isbotlagan, bunda rus oilalarini o‘zbek oilalariga taqqoslab tahlil etilgan.”...milliy oilalarda o‘g‘il va qiz burchini bajarishga qaratilgan qurilmalar (ustanovkalar – M.U) ham kuchli bo‘lishi an’anaviy tarbiya usullari bilan uzviy bog‘liqdir”.

M.Dadajonov “Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari” kitobida ota- ona uchun farzand tarbiyasining xususiyatlarini bilish qanchalik muhimligi, tarbiya masalalarini hal qilishda qo‘llaniladigan usullar, ularda axloqiy qobillik va ijobiy harakatlarni tarkib toptirish shart- sharoitlari, uni jazolash va rag‘batlantirishda ota- onalar bilishi lozim bo‘lgan dalillar keltirilgan.

O‘zbek oilalarida bolalarni ijtimoiy an’analarga so‘zsiz bo‘ysunish ruhida tarbiyalashda, tabiiyki keksa avlod vakillari o‘zlarini mas’ul, deb bilganlar. 13- 15 yoshli o‘smir shaxsi bu davrda mustaqil hayotga ancha tayyor bo‘lgan. Ota- onalar bolalarini 7- 10 yoshidan boshlab jamoa ishlari: hasharlarda, to‘y va motam marosimlarida ishtirok ettirishga intilganlar. Shuni alohida ta’kidlashimiz mumkinki, bu risola o‘zining maqsadiga ko‘ra, afsuski, xalqning noyob udumlari va an’analari ta’sirida ularda ijtimoiy tasavvurlar qanday shakllanishi masalalarini qamrab ololmagan.

L.M.Fridman va I.Yu. Kulaginalar “ O‘qituvchi uchun psixologik lug‘at” kitobida ko‘rsatishicha, o‘smirlik kattalikka o‘tishda eng murakkab kechadigan bosqich. O‘smirlar o‘zini o‘zi anglash davrida asosan, o‘zgalarga, o‘zidan kattalarga taqlid qiladilar. Ular kattalarning xatti – harakati, faoliyat maqsadlarini o‘zlari uchun mezon sifatida qabul qilgan holda qadam – baqadam singdirib boradilar. Xulqida kamchiligi bor o‘smirlarning ko‘pchiligida ma’naviy barkamollik mexanizmi bo‘lgan xohish- intilish sustdir.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar orasida ruhiy, asabiy va somatik kasallikka chalinganlari, jismoniy rivojlanishdan orqada qolganlari ko‘p uchraydi. Bularga oilaviy sharoitning noxushligi, tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatoliklar hamda tug‘ma anomalik holatlar sababdir.

Ota- onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi emosional munosabatlar ikki xil shaklda bo‘lishi mumkin. Birinchisida o‘zaro munosabatlarda yaqinlik, yaxshilik kabi ijobiy xislatlar yuqori darajada, ikkinchisida qattiqqo‘llik va jazolash.

Oila — bu maskanning ahamiyatini anglash uchun «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan maqolni tahlil qilishning o‘zi kifoya. Ya’ni har qanday bola o‘z oilasida o‘zlashtirgan tajribalaridan hayoti davomida foydalanadi va uni keyinchalik o‘z farzandlariga ham o‘rgatadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti shu jamiyatdagi sog‘lom oila muhitiga bog‘liqdir. Sog‘lom oila muhitida sog‘lom avlodlar tarbiyalanadi va kamol topadi. Ma’lumki, dunyoga kelgan go‘dakning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Aynan shu maskan quchog‘ida bola ijtimoiy muhitga moslashib, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Shular asosida ijtimoiy hayotga kirib boradi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila a’zolarining o‘zaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi. Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini o‘rganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqotda bo‘lishining usul va shakllarini o‘rganib boradi.

Aynan oila bag‘rida bola boshlang‘ich ijtimoiylashuvni oladi. Oila a’zolarining munosabatlari misolida u boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadi, xulq-atvori va munosabatlar shakllarini tushunib boradi va bu tushunchalari uning o‘smirlik va balog‘at yillarida ham saqlanib qoladi. Ota-onaning farzandini noto‘g‘ri xatti-harakatiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog‘at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi[1].

Oila qadriyatlari - bu barcha oila a'zolari hurmat qiladigan va ta'kidlaydigan va oilaviy munosabatlar uchun mustahkam poydevor bo'lgan fazilatlar, xususiyatlar, harakatlar. Yaqinlar bilan doimiy muloqot, do'st odamlarning yaqin qarindoshlari yaqin ekanligiga ishonch hissi odamda xotirjamlikni uyg'otadi. U har doim har qanday hayotiy vaziyatda ularning yordami va yordamiga umid qilishi mumkin.

Hatto xotiralar ham ilhom manbai bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda yolg'izlikning etishmasligi omili muhim rol o'ynaydi. O'zlarining yaqinlari bilan birgalikda har qanday qayg'u, qiyin hayotiy vaziyatni engish va kelajakda xato qilmaslik osonroq.

Oilaviy qadriyatlarga ega bo'lishning afzalliklari:

1. Aziz odamlar bilan muloqot qilish uchun doimiy imkoniyat. Bir odam uchun baxt, qarindoshlar bilan

uchrashish imkoniyatidan iborat bo'lib, uning oldida siz dam olishingiz mumkin, u aslida u kabi ko'rinishi kerak. Bugungi dunyoda erkin va oson his qilish qobiliyati juda qadrlanadi.

2. Jamiyatning yangi hujayrasini shakllantirish. Oldingi avlodlarning tajribasi sizning oilangizni yaratishda foydali bo'ladi. Ota-onalar yoki boshqa qarindoshlarning xulq-atvor modelini to'liq nusxalash kerak emas, lekin baxtli uyg'un hayotning asosiy jihatlari qabul qilinishi kerak.

3. Rejalashtirilgan ta'tillar. Odam umumiy bayram paytida yolg'iz qolmasligiga ishonadi. Yangi yilni oilangiz bilan birga o'tkazish, diniy bayramlarni nishonlash va bo'sh vaqtni birgalikda o'tkazish ajoyib an'analar mavjud.

4. Umumiy sevimli mashg'ulotlar. Ko'p oilalarda to'quvchilik, dehqonchilik va ijodkorlik bilan shug'ullanish odatiy holdir. Bu birgalikdagi biznes yoki o'zingiz uchun vaqt sarflashning oddiy usuli bo'lishi mumkin.

5. Moddiy yordam. To'y, tug'ilgan kun va boshqa muhim tadbirlar uchun umumiy qimmatbaho sovg'alar berish odati o'zaro yordamning o'ziga xos usulidir. U shuningdek baxtsiz hodisalar yoki fors-major holatlarida qo'llaniladi.

6. Axloqiy jihat. Oilaviy qadriyatlarning mavjudligi, yaqin oila a'zolariga adolatsizlik qilish yoki tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'ymaydi.

Oila qadriyatlarini o'rgatishning eng yaxshi usuli bu aniq va samimiy bo'lgan ota-onalarning o'zlari ko'rsatgan misollardir. Axir, faqat o'z misolim bilan oilada qanday yashashni ko'rsatib berish mumkin. Agar bolalar o'sadigan jamiyat hujayralarida sevgi, samimiylik, halollik, o'zaro tushunish, hamjihatlik, ishonch, hurmat hukmronlik qilsa, bu ularning kelajakdagi asosiy oilaviy qadriyatlari bo'ladi. Oila bolada xushmuomalalik, adolatlilik, mehr-oqibat, e'tiborlilik, rahm-shafqat, halollik va jamiyatdagi axloq qoidalari haqida fikrlarni rivojlantiradi. Agar oila do'stlik, sevgi, o'zaro ishonch munosabatlari bilan bog'liq bo'lsa, unda inson o'zining axloqiy rivojlanishi uchun juda katta ijobiy quvvat oladi. Barkamol oilalardagi ota-onalar farzandlariga o'zlarining axloqiy va axloqiy qadriyatlarini (o'z-o'zini bilishga intilish, ijodkorlik, o'zini takomillashtirish va bundan xursand bo'lish) berishadi va shu tariqa o'zlarining farzandlarida ijtimoiy ma'qullangan yo'nalishda mustaqil ravishda oldinga siljishlariga imkon beradigan tegishli qiymat yo'nalishlarini shakllantirishadi[2].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yuqorida tahlil etilgan manbalar va izlanishlarda oilaviy munosabatlar sharoitida o‘smir ma’naviy fazilatlar hamda insoniy sifatlar shakllanishida ota- onaning shaxsiy o‘rnak ko‘rsata olishlari masalasining to‘g‘ri qo‘yilganligini ijobiy baholash mumkin.

Oila muhitida o‘smirlarda oilaparvarlik sifatlari va oilaviy qadriyatlarga oid ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy- psixologik mexanizmlari va omillarini o‘rganish uchun o‘tkazgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi :

1. E’tirof etish lozimki, oilaviy munosabatlar ta’sirida farzandlarda oilaparvarlik ustanovkalari hamda tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy- psixologik shart-sharoitlari hamda mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus eksperimental va empirik tadqiqotlar yetarli emas.

2. Oila, undagi o‘zaro munosabatlar hamda er-xotin munosabatlarining oilaviy muhitga ta’siri, o‘smirdagi oilaviy qadriyatga oid ijtimoiy tasavvurlarga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarning mavjudligi metodologik tamoyillarni belgilashga yordam beradi.

3. Sog‘lom oilaviy munosabatlar, ota- onaning o‘smir ko‘z o‘ngidagi obro‘si shuning uchun kerakki, undagi e’tiqodlilik yoki ijobiy fikrga ergashish “ fikrlar lideri “ fenomeni orqali sodir bo‘ladi.

qadriyatlarni saqlash va ilg‘or oilaviy an’analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish bo‘lgani bois, aynan shu yo‘nalishda ilg‘or oilaviy an’analar, udumlar va rasm-rusumlarni xalq ichida keng targ‘ib etish maqsadga muvofiq, chunki bu tadbirlarda, albatta yoshlar ishtirokini ta’minlashga alohida e’tiborni qaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.- 66 b.
2. https://uz.hydroponicsbc.com/1546-family-values-in-the-life-of-every-person.html
3. Умарова М.М. Оила ва маънавият. Монография. Тошкент.” ФАН” нашриёти. 2011.
4. Умарова М.М. Д.М.Мирзажонова. “Оила анъаналари ва талаба –қизлар”. “Оила”илмий-маърифий, ижтимоий-психологик журнал. 2005.№ 3
5. Умарова М.М. “Оила ва унинг қадриятлари ёшлар тасаввурида” “Оила”илмий-маърифий,ижтимоий-психологик журнал.2005.№ 02
6. Умарова М.М. Мафкуравий тарбия ва инновацион таълим. “Халқ таълими”. 2001, 5-сон.
7. Умарова М.М. Ёшларда соғлом ғоялар ва янги билимларни шакллантиришда оила ва мактаб ҳамкорлигини такомиллаштириш. Замонавий технологияларни амалиётга татбиқ этишнинг назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2002.
8. Умарова М.М. Оилавий муносабатлар тизимида соғлом ғоя ва мафкуравий тасаввурларни шакллантирувчи психологик услуб ва омиллар. Педагогика ва психология соҳасидаги илмий ишлар танлови ғолибларининг мақолалари тўплами. Т.:2002.
9. Умарова М.М. Оилавий анъаналар таъсирида болаларни мафкуравий жиҳатдан тарбиялашда оиланинг роли. “Аёллар психологияси: анъанавийлик ва ўзгарувчанлик”. Республика илмий-амалий анжумани маърузалар тўплами. Т.:2002.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37; 371; 57;

Muhayyoxon USMONOVA,
Qo‘qon Davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)
E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com.
Nilufarxon YO‘LDASHALIYEVA,
Qo‘qon Davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com

TIPI dotsenti, p.f.f.d., (PhD) M.Isabayeva taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL ORIENTATION OF STUDENTS IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES

Annotation

The article describes the methodological features of teaching biology as a profession in general secondary education, the methodological structure of teaching biology based on an integrated approach, ways to effectively use the possibilities of professional pedagogical activity of biology in a secondary school.

Key words: Profession, specialty, motive, purpose of work, subject of work, purpose of the profession, motivation of the profession.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК

Аннотация

В статье описаны методические особенности обучения биологии как профессии в общем среднем образовании, методическая структура обучения биологии на основе комплексного подхода, способы эффективного использования возможностей профессиональной педагогической деятельности биологии в общеобразовательной школе.

Ключевые слова: Профессия, специальность, мотив, цель работы, предмет работы, цель профессии, мотивация профессии.

BIOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA TALABALARNING KASBIY YO‘NALISHINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o`rta ta’limda biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning metodik o`ziga xos xususiyatlari, integrativ yondashuv asosida biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning metodik tuzilmasi, umumiy o`rta ta’lim maktablarida biologiya fanini kasbga yo`naltirishning kasbiy pedagogik faoliyati imkoniyatidan samarali foydalanish yo`llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kasb, mutaxassislik, motiv, mehnat maqsadi, mehnat predmeti, kasb maqsadi, kasb motivatsiyasi.

Kirish. Respublikamizdagi umumiy o`rta ta’lim maktablarida kasbga yo`naltirish ishlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonning bir qismi bo`lib, undagi yetakchi rol fan o`qituvchisining zimmasiga tushadi. O`qituvchi kasb targ`ibotini o`quv fani tarkibi bilan uzviy va rejali asosda bog`laydi, shu bilan birga, zamonaviy kasblar dunyosining turli jihatlari haqida o`quvchining xabardor bo`lishiga ko`maklashadi.

Boshqa o`quv predmetlari singari biologiya fani tarkibida ham kasbga yo`naltirish sohasida katta imkoniyat mavjud. O`qituvchi o`quvchilarni turli kasb - farmatsevt, shifokor, injener, kabi mutaxassisliklar bilan, balki boshqa ko`plab kasblar bilan ham tanishishiga imkon yaratadi. Aynan mana shu sababli ham darslarda kasbga yo`naltirish ishlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida kasbiy ta’limni tilga olish mumkin. Biologiyani o`qitishda kasbga yo`nalitirish muammosi bilan metodist olimlardan J.O.Tolipova va boshqalarning ishlarini e’tirof etish mumkin. Ya’ni o`rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o`qituvchilari uchun metodik qo`llanmada “Biologiya” o`quv fanini o`qitishda kasbga yo`naltirish muammolariga to`xtalib o`tadi, shuningdek, u tomonidan biologiyani sohalarga yo`naltirib o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

G.S.Ergasheva tomonidan biologiyani o`qitishda kasbga yo`naltirishni tarbiya va ijtimoiylashtirish yo`nalishi sifatida tadqiq etildi, biroq umumiy o`rta ta’lim maktablarida biologiya darslarida kasbga yo`naltirish metodikasi e’tibordan chetda qolgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizda o`quvchilarni kasbga yo`naltirish, kasbga qiziqishini oshirishning psixologik-pedagogik asoslari D.Arziqulov, R.Asamova, U.Inoyatov, Sh.Ne’matov, X.Rashidov, Sh.Sharipov, biologiya o`qitish metodikasini takomillashtirish va biologiya darslarida o`quvchilarni kasbga yo`naltirishning tashkiliy-metodik asoslari I.Azimov, O.Mavlonov, S.Najimova, A.Raximov, J.Tolipova, N.Toshmanov, Sh.Xasanova, G.Ergashevalar tomonidan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi (MDH) mamlakatlarida o`quvchilarni kasbga yo`naltirish, kasb tanlash, kasbiy o`zi-o`zini belgilash, maslahat berish, kasbiy diagnostika masalalari L.Andreyeva, V.Belov, T.Dusь, E.Zeyer, YeKlimov, A.Melьnikova, N.Pryajnikov, Ye.Pryajnikova, I.Sazonov, V.Toporovskiy, S.Chistyakova, I.Sharshov; biologiya sohasida kasbga yo`naltirish muammolari Ye.Delarova, L.Dudina, N.Yeremeyeva, Ye.Kidyamkina, N.Malinovskaya va boshqalar tomonidan o`rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy o`rta ta’limda biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning metodik o`ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonni tashkil etish bilan aloqador tizimli-funktsional, kompleks, tabaqalashtirilgan yondashuvlarni kasb tanlashga doir “Men xohlayman”, “Men qila olishim kerak”, “Men qilaman” klassik uchlik tizimni

biologik ta’lim mazmuni bilan dialektik uyg`unlashuvga erishish imkoniyatini kengaytirish orqali aniqlashtirilgan.

Integrativ yondashuv asosida biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning metodik tuzilmasi sitologik, genetik, evolyutsion, ekologik soha bilan aloqador “odam-tabiat-jamiyat” turiga mansub kasblarni dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o`quvchilarga o`rgatib borishga mo`ljallangan tadqiqotchilik, loyihaviy faoliyatni jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish orqali ixtisos oldi tayyorgarlik bosqichiga “ko`chirib o`tkazish” usulidan maqbul foydalanish asosida aniqlashtirildi.

Shu bilan birga biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning didaktik modelinining amaliy komponenti biologik ta’limning dars, dars va sinfdan tashqari, uy ishlari, ekskursiya kabi shakllarini rivojlantiruvchi, individual, tabaqalashgan, modulli o`qitishning interfaol metodlari bilan bevosita uyg`unlashuviga yo`naltirilgan kasbiy faoliyatga jalb etish texnologiyasining biologik ta’lim bilan adaptivligini ta’minlash orqali takomillashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiya darslarida o`quvchilarni kasbga yo`naltirib o`qitishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari zamonaviy yondashuvlarini maqsadi, mazmuni, tashkiliy tasnifiga muvofiq holda ilmiy asoslanganligi, kompleks, tabaqalashtirilgan yondashuvlarni kasb tanlashga doir “Men xohlayman”, “Men qila olishim kerak”, “Men qilaman” klassik uchlik tizimni biologik ta’lim mazmuni bilan dialektik uyg`unlashuviga erishish imkoniyatining kengaytirilganligi, integrativ yondashuv asosida biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning metodik tuzilmasining aniqlashtirilganligi, sitologik, genetik, evolyutsion, ekologik soha bilan aloqador “odam-tabiat-jamiyat” turiga mansub kasblarni dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o`quvchilarga o`rgatib borish yo`llarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiya fanini kasbga yo`naltirib o`qitishning didaktik modelining ishlab chiqilganligi, umumiy o`rta ta’lim maktablari biologiya darslarida o`quvchilarni kasbga yo`naltirishning amaliy imkoniyatlari aniqlashtirilganligi, o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshirish, kasb tanlashga to`g`ri yo`naltirish, moyilligi va qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbiy qobiliyatini diagnostika qilish metodikalari modifikatsiyalangan variantlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Kasbiy yo`naltirish sohasidagi pedagogik, psixologik va metodik tadqiqotlar tahlili ushbu sohaning uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Diagnostik kontseptsiyaga muvofiq kasbga yo`naltirish ishlari maktab o`quvchilarining qobiliyati, kasbiy moyilligi, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan bog`liq holda shaxsiy qiziqishlarining o`zaro moslashishini taqozo etadi.

Kasbni ongli ravishda tanlash – inson shaxsi rivojining muhim shartlaridan biridir. To`g`ri tanlangan kasb jamiyatda o`z o`rnini topishga imkon beradi. Hozirgi davrda o`quvchilar o`z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasbni tanlashlarida aynan maktab ko`makchi bo`ladi. Shunday ekan, maktabda biologiya darslarida kasbga yo`naltirish ishlari ta’lim-tarbiyaviy jarayonning bir qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. O`RQ-637-son 23.09.2020 y. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. Tolipova J.O., G`ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. – T.: O`qituvchi, 2002. – 126 b.
3. Ergasheva G.S. Biologiyani o`qitishda kasbga yo`naltirish tarbiya va ijtimoiylashtirish yo`nalishi sifatida. // “Tabiiy fanlarni o`qitishdagi innovatsiyalar, ekologik havfsizlik, ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TDPU, Toshkent-2020 y. 14. 04.
4. Yuzlikayeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatelnosti: Avtoref. dis. doktora ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2012. – 42 s.
5. Yadgarova G.T. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish jaraèniga ta’sir etuvchi omillar. – T.: Maktab va xaèt, 2006.-B.13-16.
6. Usmonova M.S. Kasb bu-hayot // “Yosh tadqiqotchi”ilmiy jurnali. ISSN: 2181-3132 Volume 1 No 5 /2022.
7. Usmonova M.S., Usmonova X. Yu. O'smirlar uchun kelajak kasbini tanlashda individual mayllarini aniqlash// Ta'lim fidoyilari, 2022.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: И 37.02 И 378 Х-15

Dilorom KHAIRULLAYEVA,
Senior teacher of Uzbekistan State University of World Languages
Robiya MIRSALIKHOVA,
Student of Uzbekistan state world languages university,
Khayrullayeva84@mail.ru

Based on the review of PhD G. Otamurodov

APPROACHES TO AMELIORATE EXTENSIVE READING THROUGH ADAPTED BOOKS

Annotation
This article is devoted to provide the approaches that assist to uplift extensive reading of students. Additionally, it studies the impact of reading adapted books on learners other aspects, namely speaking, writing and lexical resource based on research done among students with B1+ level.
Key words: Reading comprehension, speaking, writing, vocabulary, adapted books.

ПОДХОДЫ К УЛУЧШЕНИЮ ЭКСТЕНСИВНОГО ЧТЕНИЯ ЧЕРЕЗ АДАПТИРОВАННЫЕ КНИГИ

Аннотация
Эта статья посвящена представлению подходов, которые помогают повысить уровень чтения учащихся. Кроме того, он изучает влияние чтения адаптированных книг на другие аспекты учащихся, а именно на разговорную речь, письмо и лексический ресурс, на основе исследований, проведенных среди учащихся с уровнем B1+.
Ключевые слова: Понимание прочитанного, говорение, письмо, словарный запас, адаптированные книги.

EKSTENSIV O‘QISHNI MAXSUS MOSLASHTIRILGAN ADABIYOTLAR ORQALI YAXSHILASH USULLARI

Annotatsiya
Ushbu maqola talabalarning o'qish ko’nikmasini yaxshilashga yordam beradigan yondashuvlarni taqdim etishdan iborat. Bundan tashqari, u B1+ darajasidagi talabalar o'rtasida olib borilgan tadqiqotlar asosida moslashtirilgan kitoblarni o'qishda o'quvchilarning boshqa jihatlariga, xususan, nutq, yozish va lug'atga ta'sirini o'rganadi.
Kalit so‘zlar: O‘qishni tushunish, gapirish, yozish, lug'at, moslashtirilgan kitoblar.

Introduction. Reading can involve much time in a person's relaxation and self-development, as well as in his instructive and proficient exercises[1]. As it is known, reading can be divided into two types, namely extensive and intensive. The role of extensive reading should not be neglected, as this type of reading is intended not only to develop reading skills overall, but also extensive reading can be a sort of motivation and pastime for students.

Reading comprehension, according to Oxford owl “the ability to read, catching meaning of the text”. In learning process, reading comprehension’ obvious benefit is serving as a gateway to absorb the information well, in order to the retell texts, do audio-exercises and write reflections or reviews, this in turns, impact on other 3 aspects of language such as speaking, listening and writing. Through enhancing reading skills, students simultaneously can elevate other aspects mentioned above. Naturally, when student understands the text accurately it would be easier for him or her to pass on the meaning of topic and answer the questions related to the text promptly or flexibly involve in discussions. Reading comprehension may guarantee qualitative and accurate writing of expositions, reflections, critical reviews to books and summaries. Additionally, lexical resource of a student can be enhanced through reading, as a proof, when learner collide with new words over and over while reading he or she not get to know about the meaning of word itself, but understands through context.

Literature review. Reading is the comprehension of the visually perceived text, mediated communication with the author of the statements and with oneself. The definition does not have many aspects of such a complex psychological and intellectual process as reading. The ability to read involves mastering the technique of reading, there is the possibility of voicing a written text and the ability to comprehend what is read. Reading comprehension is ability to absorb the information accurately while reading. Leveled reading comprehension described as the type of mental representation that is made of the written text. The reader creates a mental figure in which he can connect explicit and implicit data from the text, experiences, and background knowledge. (Kucer, 2016; van den Broek et al., 2016)[2]. According to Campton College there are 6 levels of comprehension, namely Campton College (n.d.) identifies six levels of comprehension: literal, inferential, appreciative, critique, evaluative and essential. Literal comprehension is deemed to be the most basic level of comprehension, it means absorbing simple text without implications. It is very helpful in finding keywords, core phrases in the text fairly fast, hence there is no need to plunge into whole topic. Inferential level, conversely refers to comprehending hints and not directly stated meaning of the text, so it aids to conceive deeper context. Evaluative comprehension requires a deeper understanding of the topic or event. It involves analyzing and weighing an event or an author’s intent, opinion, language, and style of presentation. It involves making extrapolations or conclusions on material or events. The evaluation can be positive, negative, or neutral. Critique comprehension is connected with examining, identifying whether the text is persuasive and well-written, additionally it comprise comparing the one text with another. Other researchers, such as Ofodu, Babalola and Dada (2010)and Lasisi (2003), identify literal, inferential, and critical or evaluative levels of comprehension[3]. Among all of these levels literal one is most common and constitute to highest number optimal performance in university students[4].

Research methodology. Based on questionnaire conducted in group of 15 students in intermediate level approximately 80% of responded to questions related to adapted books fairly positively. Students were given adapted version of book called "David Copperfield" by Charles Dickens and in each lesson they had to retell and answer the questions related to one chapter. At the time the students reached the half of the book, namely 15th Chapter they wrote advise letter for protagonist. When students had already finished the book they were provided with assignment to write review to book.



According to the results of conducted research among students with intermediate level, in the vicinity 45% of participants felt motivated. As long as students were able to understand majority part of book, it prompt them, giving sense of fulfillment and confidence to go on their reading. The second highest percent of students approximately 30% witnessed to elevate their speaking through discussions and retelling the plot of the book to their group-mates. Furthermore, as they collided with new words over and over they had learned them through context naturally without resorting to rote-learning and figure for this part account for 15%. Rest of the participants stated that reading of a book impacted on their writing, because they were able to incorporate the knowledge they got through reading into writing, as a proof, it assisted them to structure your writing more accurately.

Analysis and results. First of all, it is very important to determine the level of your students. Reading should not be too difficult for students to understand and benefit from it. If students do not understand most of the words on the page, the text is too difficult for them. On the other hand, if a student understands everything he reads, he is not motivated and does not learn anything new. Therefore, it is better to assess the level of students using short, many passages of varying difficulty. Before inviting students to the literary garden of new words and complex sentences, you need to choose the material that is suitable for them. Find out what interests them. There are often common topics that interest everyone: family, computers, cooking, travel, etc. Ask students how they got stuck in the first few days of class and choose the material accordingly. Learning to read through texts on these topics increases students' motivation, which means they actually read them and practice their skills.

Another great pre-read is a class or group discussion about the author of the material. You can use pictures and have students discuss what genre the author writes, where they are from, what they like to do, etc. Important terms from the reading material can also be shared and briefly discussed. This is how you give your students basic information about what is in the text. You may want your students to try to read the text quickly. Skimming means looking for certain types of words and information in a text without reading it[5]. What immediately catches your attention? Numbers, colors, familiar vocabulary, places and names are often things that we immediately see in a foreign text. The pre-chapter discussion helps build background knowledge and understanding of the text and gives the teacher an idea of what to pay more attention to.

Next, approach is “reading aloud plus discussion” How it works:

select the text to read;

read the passage aloud, the students are watching. Be sure to model the correct pronunciation and intonation;

check your understanding. Assuming that there are not too many new words, ask a few questions to understand the text and pay attention to any doubts about the text or the meanings of any words/expressions;

then the students take turns reading aloud. One student reads, for example, one paragraph. Pay attention to which words or phrases are particularly difficult for him to pronounce. When he finishes reading, ask him to repeat the words/phrases/sentences with which he/she had problems. Let the class or individual students also repeat the word/phrase/sentences until they pronounce them correctly. The next student reads the next paragraph, etc.

You can read aloud in several ways, but there should always be a moment when you simulate reading and another moment when your students repeat. This not only helps them to learn the correct pronunciation and intonation, but also to understand the text. Many students say that when reading something out loud for the first time, they understand half of what they read, because they pay attention to pronunciation. Others claim that the sound of their own voice distracts them. But these problems can be avoided if the teacher reads first: you model the correct pronunciation, and students are more likely to understand the text[6].

Connect reading with other disciplines, with the outside world, with other students. For example, act out scenes from what you read, or conduct excursions on this topic. Help students see the value of reading by connecting it to the outside world and showing its use there. Very often we read the text, and then we don't come back to it again. However, if you link the work on vocabulary, grammar, comprehension questions and discussions to it, then the chances of reading comprehension will increase and the learning process will be stimulated.

How to evaluate reading? Very often people think of "test" when they hear the word "evaluation". But in fact, the most valuable grades are less formal: for example, a teacher can walk and observe students who are discussing what they have read. Does the discussion show that they really understand the text? Other means of informal assessment may be short surveys or questionnaires. Do not stretch the reading too long in time — build classes so that your students can understand general and specific concepts in the text. Do it fun and with pleasure, then you will get more enthusiastic and confident novice students.

Conclusion. In learning process the role of reading and its comprehension cannot be neglected, as discussed above, one aspect can simultaneously can be a springboard to

rest of the aspects, and components of language. Reading comprehension can be improved in many ways, the core thing to determine level of students and their preferences. It is not only useful, when teacher can turn it into interactive, engaging and stimulating activity. Incorporating reading of adopted books had impacted positively on students mindset as well, as a proof, reading of suitable books matching their level stimulated further learning, because students were able to understand majority part of book. Hence the practice of extensive reading can be considered as the one of the way to encourage students and insert a belief that they all have a potential to be proficient in language that they are learning.

REFERENCES

1. Хайруллаева Д.С. Интегральный подход к изучению читательской мотивации / Д.С. Хайруллаева. — Текст : электронный // NovaInfo, 2022. — № 133. — С. 44-46. — URL: https://novainfo.ru/article/19296 (дата обращения: 14.02.2023).
2. Kucer S. B. (2016). Accuracy, miscues, and the comprehension of complex literary and scientific texts. Read. Psychol. 37, 1076–1095. doi: 10.1080/02702711.2016.1159632
3. Content analysis of levels and aspects of comprehension in West African senior secondary school examination. http://www.scielo.org.za/scielo.php?script=sci_arttext&pid=S2308-14222021000100004#:~:text=On%20the%20other%20hand%2C%20Campton,or%20evaluative%20levels%20of%20comprehension.
4. Levels of Reading Comprehension in Higher Educationhttps://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2021.712901/full#:~:text=The%20literal%20level%20is%20significantly,optimal%20performance%20in%20university%20students.
5. https://learningcenter.unc.edu/tips-and-tools/skimming/. Skimming - UNC Learning Center
6. Top ESL Reading Strategies. https://busyteacher.org/15927-top-esl-reading-strategies.html#:~:text=Many ESL students say that, paying attention to their pronunciation.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 37.013.78

Umid XALMONOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlunuvchisi
E-mail: umidxalmonov@gmail.com

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы достижения эффективности образования в условиях нового Узбекистана. В частности, даны рекомендации о современных инновационных требованиях, предъявляемых к системе управления педагогами и руководителями образовательных учреждений.

Ключевые слова: педагог, компетентность, инновация, лидерская компетентность, методическая, стратегическая, обновление, профессионализация.

DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF EDUCATIONAL INSTITUTION LEADERS IN CARRYING OUT MANAGEMENT ACTIVITIES.

Annotation

The article discusses the current issues of achieving educational efficiency in the conditions of new Uzbekistan. In particular, recommendations have been made about the modern innovative demands placed on the management system of teachers and heads of educational institutions.

Keywords: teacher, competence, innovation, leadership competence, methodical, strategic, renewal, professionalization.

TA’LIM MUASSASSI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI OLIB BORISHDA KASBIY KOMPETNETLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Annotatsiya

Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim samaradorligiga erishishning dolzarb masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Xususan, o‘qituvchilar faoliyati hamda ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv tizimiga qo‘yilgan zamonaviy innovatsion talablar to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kompetentlik, innovatsiya, rahbar kompetentligi, metodist, strategik, yangilanish, professionallashuv.

Kirish. Yangi O‘zbekiston va uning mustahkam poydevori ta’lim muassasalarida yaratilishini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanishi”ga urg‘u berdi.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri zamonaviy ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi. Zero, bunday ta’lim muhitining yaratilishi, istiqbolda yuqori intellektual salohiyatli kadrlar salmog‘ini o‘sishi, maktab o‘qituvchilarining kasbiy kompetenligi va dars sifatini yaxshilanishi hamda maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Bunday zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish va unga yangi texnologiyalarni tatbiq etish boshqaruvning zamonaviy usullarini amalda qo‘llay oladigan rahbarlarga bog‘liq.

Dunyo miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” asosiy vazifa sifatida belgilangan [1].

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Binobarin, 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori, 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni, 2019 yil 29 aprel-dagi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”, 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni, 2021 yil 25 yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan muhim vazifalar o‘qituvchi-pedagoglarni kasbiy rivojlantirishda, rahbarlarning innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkiliy-metodologik asoslar orqali tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, boshqaruv faoliyati sub’ektlar tomonidan lavozimi yo‘nalishidagi funktsiyalarini bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda maktab direktorlariinng boshqaruv funktsiyalarini integrativ sifatlarini tavsiflovchi xususiyatlar: maktab boshqaruvini ichki va tashqi o‘zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, pedagogik menejment printsinlarini o‘zlashtirish va qo‘llash, boshqaruvda maktab faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirish asosida belgilashni ko‘rsatadi [2].

Boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qat’it nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Rahbar o‘zining shaxsiy fazilatlari, mustahkam xarakteri, kuchli irodasi, barqaror xissiyoti barcha narsalarga va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyatlari bilan muayyan muassasani boshqara oladi. Fan va texnikaning rivoji, insonlarda onglilik darajasining yuksak ko‘rsatgichi, ijtimoiy tajribalarning ta’sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi rahbarning komil inson kamoloti pog‘onasiga ko‘tarilishini taqozo etadi.

Faoliyat maksadi ob’ektiv bo‘lib, o‘z o‘rnida shaxs tomonidan belgilanadi va u faoliyatning asosiy komponenti hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat sub’ektni ma’lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsad ifodalanadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ta’lim muassasasida o‘qituvchilarning barcha faoliyatlariga tegishli bo‘lgan jarayon bo‘lib, ko‘zlangan natijalarga erishishda o‘qituvchilar kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarini loyixalashtirish, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Rahbarning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetentsiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat.

Rahbar kompetentsiyasining shakllanishi bosqichlari:

- Qobiliyatni aniqlash;
- tarbiyalash va shakllantirish;
- chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- rahbarlik cho‘qqisi.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining asosiy funktsiyasi ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maksadlarga erishishda muassasaning hayotiy faoliyatini ta’minlash bo‘yicha boshqaruv yo‘nalishidagi masalalarning ijobiy echimini topish, hal etish hisoblanadi.

Har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasining rahbari, har bir o‘qituvchi yangi o‘quv dasturi va ayniqsa, ta’lim standarta asosida ishlayotganligini, o‘z fani bo‘yicha o‘quvchilarga bergan bilim va ko‘nikmalarni endilikda davlat ta’lim standartlari asosida belgilanishini anglashlari, bu jarayon har bir o‘qituvchi faoliyatiga katta mas’uliyat, javobgarlik yuklanishini unutmasliklari kerak [3].

Ta’lim muassasasi rahbarining kompetentligi bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ularni quyidagilardan iboratdir:

Bilimlilik, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunikativlilik, yuksak ma’naviyatlilik, nazoratni o‘z vaqtida o‘rnatish, o‘z hissiyotlarini jilovlay olish, pedagogik deontologiya (kasbiy odob-axloq), mehnatni ilmiy asosda tashkil etish istiqbolli, innovatsion fikrlash androgogik ma’lumot, pedagogik mahoratlilik, fidoyilik, rahbarlik, jarayonlarni loyihalashtirish, ijodkorlik, pedagogik, texnologiyadan xabardorlik, pedagogik kvalimetriyani bilish g‘oyaviy siyosiy etuklik talabchanlik dunyoqarashning kengligi o‘ziga ishonch uyg‘ota olish tashabbuskorlik, kreativlik, yuqori imidj, aktyorlik, notiqlik mahorati, innovatsion boshqaruvchanlik, qaror qabul qilish, qonun doirasida ishlash, mantiqiy fikrlash, jamoani ergashtira olish, sabr-taqotlilik, vatanparvarlik, printsipiallik, etakchilik qobiliyati, sadoqatlilik, kasbiy reflektsiya, mehnatga ijodiy munosabat, g‘oyalilik, bir so‘zlilik, yangiliklarni tez qabul qilish, natijani oldindan ko‘rish, mas’uliyatlilik, qattiyatlilik.

Tahlil va natijalar. Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti-harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida ta’lim muassasasi rahbarining maqsadga yo‘naltirilgan funktsiyalarining strukturasi boshqaruv predmetlari orkali belgilanadi. Demak, boshqaruv o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar o‘z-o‘zidan maqsadga ko‘ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali belgilanadi.

Boshqaruv yo‘nalishida zaruriy tushuncha va ko‘nikmalarni ta’lim muassasalari rahbarlari, pedagogik xodimlarda shakllantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatlarini takomillashtirish va o‘quv jarayonining natijaviyligi hisoblangan boshqaruv samaradorligini ta’minlashning eng asosiy shartlaridan biri hisoblangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini belgilaydi.

XX asrning 60-80 yillarida tizimli yondashuvning negizini tashkiliy xatti-harakatlar tashkil etgan. Xar qanday tashkilotning boshqarish ob’ekta va sub’ektini ayrim xodim va xodimlar guruhi tashkil etadi. Ularning harakatlari bir tomondan tashkilotning ichki va tashqi muhitiga, unga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan tashkilotning muvaffaqiyati ana shu ijtimoiy guruhring xatti-harakatiga bog‘liq bhladi.

Demak, tashkilotlarni boshqarishda faqat iqtisodiy omillarni nazarda tutib faoliyat olib borish bir tomonlama yondashishga olib kelgan.

Ya’ni, ijtimoiy omillarni hisobga olmaslik bir butunlik printsipini buzilishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ma’muriy boshqaruvda tashkiliy xatti-harakatlarni inobatga olish unga bir butun tizim sifatida qarashga olib kelgan. Ma’muriy boshkaruvda tizimli yondashuv birinchi bo‘lib AQShda shakllangan, so‘ngra Evropa davlatlariga tarqalgan. Ushbu yo‘nalishni tadqiq etgan olimlar qatoriga T.Levitt, Ch.Barnard, G.Saymon, F.Selznik, J.Koll, L.Bertalanfi va boshqalarni kiritish mumkin [4].

Ta’lim samaradorligining ta’minlanmaslik sabablaridan asosiysi – maktab rahbarlarining ta’lim muassasasini boshqarish malakasining etarli emasligi oqibatidadir. Bu bora hududiy ta’lim boshqaruv organlarining ishlari talablar darajasida tashkil etilmagan. Maktab o‘qituvchilariga metodik yordam berish maqsadida qabul qilingan metodistlar o‘z vazifa va yuklamalarini to‘la-to‘kis amalga oshirmayaptilar. Nomiga metodistu aslida esa mutlaqo boshqa topshiriqlarni bajarish bilan ovora.

Qolaversa, maktab rahbarlarining ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash yuzasidan qat’iy nazoratlari, ta’lim muassasasini zamonaviy boshqarishga qo‘yilgan talablar asosida faoliyat olib borishlari zarurligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va ta’lim sohasidagi islohotlar jarayonida amalga oshirilayotgan yangiliklarga maktab faolyatini muvofiqlashtirib borishda ta’lim muassasasi rahbarlari joriy rejalar bilan cheklanib qolmay, o‘z muassasalari kelajagi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda “strategik” uzoq (besh, o‘n va undan ko‘proq) muddatlarga mo‘ljallangan istiqbol rejalarni tuzish hamda ular asosida faoliyat olib borishlari zarur.

Amaliyotda “yangilik”, “yangilanish”, “yangilik kiritish” tushunchalari ko‘pincha tenglashtiriladi, lekin ularning o‘rtasida ba’zi bir farqlar mavjud. Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi asosan innovatsion jarayonlarda rivojlanadi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarning

samarali boshqarish, mazkur jarayonga o‘qituvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda innovatsion jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va bunga innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur bo‘ladi.

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi [5].

Bugun jamiyat uzluksiz ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari oldida yuksak kechiktirib bo‘lmaydigan talablarni qo‘ymoqda. Ana shunday talablarga javob bera oladigan kadrlarga sharoitlar yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlashni joriy etish lozim.

O‘qituvchilarni muammoga doir masala yuzasidan qisqa muddatlarda qayta tayyorlashni tashkil etish va rahbarlar tomonidan tizimli va uzluksiz nazorat o‘rnatish, talab qilish, zamonga mos ravishda yangilikni o‘zlashtirishni istamayotgan o‘qituvchilardan xalos bo‘lish vaqti etdi, deb o‘ylaymiz. Ta’lim muassasalari rahbarlarining pedagogik jamoani innovatsion talabalar asosida boshqara olish qobiliyatlarini aniqlash va bu sohadagi tashkiliypedagogik qarorlar qabul qilishni orqaga surmaslik muhimdir.

Jahonda ta’lim, jumladan, maktab rahbarlari boshqaruv faoliyati yo‘nalishlari, ularning kasbiy kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda maktab faoliyati boshqaruvining natijasi qay darajada samarador ekanligiga alohida urg‘u berilgan holda, asosiy e’tibor rahbarlarning boshqaruv faoliyati sifat va samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Ta’lim tashkilotini ilmiy-metodik boshqarish asoslari, faoliyatni ob’ektiv baholash, tashkilot reglamenti va uning ichki tartib-qoidalariga vazifalar taqsimotini muvofiqlashtirish, tashkilot rahbarlarining kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirib borish jarayonlarini innovatsion tuzilishga ega bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish va uning mazmunini takomillashtirish hamda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlariga strategik va tizimli yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar. Bugungi kundagi tadqiqotlar eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu izlanishlar zamonaviy rahbar kadrlarni shakllantirish orqali boshqaruv sohasini mukammallashtirishga qaratilgandir.

Jamiyatdagi kasblar va mehnat turlari ixtisoslashib borgan sari bugungi kun mutaxassislariga qo‘yilayotgan talablar ham o‘sib borayotgan bir paytda, zamonaviy rahbar professionallashuvining alohida mavzuga aylanishi tabiiy.

Zamonaviy rahbarning kompetentsiyalarni shakllantirish nafaqat an’analar bilan, balki yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish bilan birga, yangi faoliyatni samarali amalga oshirishni emas, balki uni loyihalashtirishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar, usul va vositalardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. Djo‘raev R.X., Turgunov S.T. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari”. - Toshkent: “Fan”, 2006. 29-32-bet.
3. Yo‘ldoshev J. F. “Ta’lim yangilanish yo‘lida”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000. 41-bet
4. To‘xtaboev A. “Ma’muriy menejment”. - Toshkent: ”Moliya”, 2003. 13-bet.
5. Azizxodjaeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003. – 139-b.
6. Slastenin. V.A.Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. M.,“Prosvesheniya” 2004.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 371.681.96

Jumagul XALMURATOVA,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti
E-mail:jumagulxolmurotova @gmail.com

TTYESI, f.f.d, professor G.K.Masharipova taqrizi asosi

THE ROLE OF THE FEEDBACK PRINCIPLE IN LESSON ANALYSIS IN HIGHER EDUCATION

Annotation

Based on scientific approaches, the article analyzes the completeness of the application of the principles of organization and development of higher education, the expediency of studying them on the basis of feedback, one of the important principles of lesson analysis.

Key words: Lesson analysis, feedback principle, didactic requirements, rule, continuous education, innovative technologies, development.

РОЛЬ ПРИНЦИПА ОБРАТНОЙ СВЯЗИ НА АНАЛИЗЕ УРОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье на основе научных подходов анализируется полнота применения принципов организации и развития высшего образования, целесообразность их изучения на основе обратной связи, одного из важных принципов анализа урока.

Ключевые слова: Анализ урока, принцип обратной связи, дидактические требования, правило, непрерывное образование, инновационные технологии, развитие.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA DARS TAHLILIDA QAYTAR ALOQA PRINSIPINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplarini to‘laqonli amal qilishi, ularni samaradorlik darajalari dars tahlilining muhim prinsiplaridan biri bo‘lgan qaytar aloqa asosida o‘rganilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy yondashuvlar asosida o‘z tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Dars tahlili, qaytar aloqa prinsipi, didaktik talab, qoida, uzluksiz ta’lim, innovatsion texnologiyalar, rivojlanish.

Kirish. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq eta oladigan professor-o‘qituvchilar interfaol metodlar tatbiqiga asosiy e’tiborni qaratgani holda, talabalarni qay darajada faollashtira olganliklari asosiy mezon hisoblandi. SHu bilan birgalikda o‘qituvchi o‘zini o‘quvchida ko‘ra olishi uchun kasbiy faoliyatni nechog‘liq texnologiyalashtira olganligini bilishi ehtiyoj darajasiga ko‘tarildi.

Ta’limning modernizatsiyalashgan mazmunini ifodalashda talabava talabani mustaqil fikr rivoji, aqliy qobiliyati, shaxsiy tajribasi hamda ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllanishi shaxs kamolotining asosiy omili hisoblanib, pedagogika fani va unga oid darslik, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalarda bosqichma-bosqich o‘rganilib kelinmoqda. Bu masalalar bir qator tadqiqotlarning ob’ekti bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim berishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholash muammosining ayrim nazariy jihatlarini o‘rganib chiqishga Q.X.Abdurahmonov [1], so‘nggi yillarda zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish masalalariga B.YU.Xodiev [2] inson resurslarini boshqarish, kadrlarni tayyorlash, oliy ta’lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalariga, personalni boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasi D.N. Raximova kabi O‘zbekistonlik etuk olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, asarlarida, maqolalarida o‘rganilgan va yoritilgan.

Yuqorida keltirilgan pedagogik adabiyotlarga o‘xshash muqobil manbalar boshqa ko‘plab mualliflar tomonidan tayyorlanganligini qayd etib o‘tish mumkin (I.T.Ogorodnikov, S.I.Arxangelskiy, T.A.Ilina, S.P.Baranov, L.R.Bolotina, V.A.Slastyonin va boshqalar).

Mustaqillik yillarida davr ruhi bilan hamohang ravishda ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borayotgan mamlakatimiz pedagog olimlaridan X.I.Ibragimov va SH.A. Abdullaevalarning hammuallifligida chop etilgan o‘quv qo‘llanma zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘zining mazmun-mohiyati bilan alohida ajralib turadi [3].

Innovatsion yondashuv asosida tayyorlangan ushbu qo‘llanma Davlat ta’lim standartlari (DTS) asosida tuzilgan o‘quv reja va namunali dasturlarga to‘liq mos keladi. Ayniqsa ta’lim-tarbiya nazariyasi bo‘yicha bosh, oraliq va harakatga teng maqsadlarni aniq qo‘yilishi hamda erishilgan natijani o‘lchash me’yorining ishlab chiqilganligi pedagogika kursini o‘rganish va amalga tatbiq etishda ko‘plab qulayliklarni tug‘dirish bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil fikr rivoji va ijtimoiy faollikni ta’min etishga qaratilgan.

Bundan tashqari pedagogika fanidan darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan mualliflardan I.T.Tursunov va U.N.Nishonaliev (birgalikda), A.Munavvarov, B. Ziyomuhammedov va boshqalarni qayd etib o‘tish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar tatbiqi asosida ta’lim mazmunini belgilashda xorij tajribalariga tayanish ham muhim o‘rin tutadi. Bu borada V.P.Bespalko, M.V.Klarin, G.K.Selevko [4] va boshqalarning ishlarini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir.

Pedagogik va axborot texnologiyalari tatbiqi asosida ta’lim jarayonini takomillashtirishga oid bir qator internet materiallarida o‘z aksini topgan. YUqorida ko‘rib o‘tilgan pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida dars tahlili va uning metodikasi maxsus mavzu ko‘rinishida yoki dissertatsion tadqiqot darajasida o‘rganilmagan.

Bu yo‘nalishda an’anaviy ta’limga asoslangan I. Mirzaevning «Dars tahlili» risolasini [4] va zamonaviy talablar darajasida tayyorlangan H.Abdukarimovning «Dars tahlili va uning metodikasi»ga bag‘ishlangan o‘quv metodik qo‘llanmasini qayd etib o‘tish mumkin [4]. Bu holat ilg‘or innovatsion tajribalarni o‘rganish, ommalashtirish va o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini aniqlash, tegishli tavsiyalar berish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’kidlovchi eksperiment yuzasidan kuzatilgan darslar tahlili bo‘yicha berilgan tavsiyalar ijrosiga ko‘ra ikkinchi va uchinchi marotaba qayta o‘rganilgan darslarda qisman ijobiy tomonga siljishlar bo‘lganligi aniqlandi. Ayniqsa, yosh va tajribasiz mutaxassislarni seminar-trening mashg‘ulotlarida bir muncha faol ishtirok etishlari ko‘zga tashlana boshladi. Bu jarayon kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning mazmun-mohiyatini ifodalab, asosan:

o‘z ustida ishlab, bilim va ko‘nikmalarini oshirish – 16%;

o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini o‘zi tahlil etish – 14,5%;

o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini o‘zi baholay olish – 12,0%. kabilarda ko‘rindi. Demak, dastlabki holat bilan qiyoslanganda professor-o‘qituvchilarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha kasbiy mas’uliyat bir muncha ortganligini kuzatish qiyin emas.

Shakllantiruvchi eksperimentga oid dastlabki kuzatuvlar jarayonida innovatsion yondashuvlarga xos quyidagi ko‘rsatgichlar aniqlandi. Bular:

innovatsion texnologiyalarni to‘liq qo‘llay oladi (2%);

o‘zining texnologik tajribasiga ega (2%);

talabalarda mustaqil fikr rivoji asosida ijtimoiy faollikni ta’min eta oladi (2%);

ilmiy-ijodiy yondashuvlar asosida darslik, qo‘llanma, metodik tavsiyalar ishlab chiqqan (1,5%);

taqdimot materiallari etarli darajada hamda ularni uzluksiz yangilab berish imkoniga ega (1,5%).

Qo‘lga kiritilgan ko‘rsatgichlarning hammasi uchun asosiy mezon talabalarda mustaqil fikr rivoji asosida ijtimoiy faollikni ta’min etish hisoblanadi. Ammo shakllantiruvchi ekmperimentning dastlabki holati bo‘yicha dars tahlillariga oid ma’lumotlarni foiz hisobidagi ko‘rsatgichining kamligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Ta’limning xarakteri, maqsadi hamda yo‘nalishi milliy va umuminsoniy tarbiyaning maqsadi hamda yo‘nalishiga muvofiq uyg‘un ravishda o‘zgarib hamda rivojlanib boradi. SHu jihatdan o‘rganilganda o‘qituvchi har bir prinsipga xos xsusiyatlarni to‘laqonli inobatga olmog‘i, uni tatbiq eta bilmog‘i lozim. Talaba har bir darsda yangi bilimlarni egallashi bilan bir qatorda o‘zida ma’naviy-axloqiy va egallayotgan kasbiga xos sifatlarni rivojlantirib bormog‘i lozim.

Talaba bo‘lajak o‘qituvchi sifatida yana shu narsani aniq bilishi lozimki, yuqoridagi tuzilma talabalarning darsga tayyorgarlik holati, kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi talabani darsga qiziqtirish, ularning diqqatini har xil holatda o‘ziga jalb qila bilish maqsadida so‘rash va baholashni yuqoriga ko‘tarish, tuzilma elementlarining joyini o‘zgartirib borishi ham mumkin. Ilmiy kuzatuvlarimiz, aksariyat holda o‘qituvchi qanday va nimadan dars boshlab, qanday yakun qilishigacha talababilib turishini ko‘rsatdi. Ijodkor o‘qituvchi bunday holatga yo‘l qo‘yishi mumkin emas. Navbatdagi darsni o‘qituvchi qanday va nimadan boshlashini talaba bilmay turgani ma’qul. Aks holda o‘quvchining fikrlash tarzi bir qolipga tushib qolishi mumkin.

Tahlil va natijalari. Kichik darslar talabani bir yoki bir nechta mavzu bo‘yicha tayyorgarligini muayyan dars tipi yuzasidan tahlil etishga tayyorlash bo‘lsa, uning izchil davomi sifatida yo‘nalish jihatdan dars turining ikkinchi takomillashgan varianti operativ (tezkor) darslar hisoblandi. Bunda:

2.1. Dars loyihasini tezkor ravishda ishlab chiqish

2.2. Mavzu yuzasidan maqsad va vazifalarning qo‘yilishini belgilash

2.3. Dars mazmunidagi innovatsion yondashuvlarni ilmiy-amaliy sharhlash

2.4. O‘quvchining kasbiy-didaktik qobiliyatini o‘rganish va baholash

2.5. Inklyuziv jarayonni tashkil etish hamda uning samaradorligini aniqlash.

2.6. Namunali deb topilgan darslarni tanlash va unga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ushbu tuzilma V. Okon metodikasiga asoslanildi [4].

Davr rivojlangani sari bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Tezkor darslar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talaba pedagogik hamda texnik-texnologik tafakkur asosida ta’lim-tarbiyaviy muammoli vaziyatlar, texnik va texnologik jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va munosabatlarni o‘rganadi, tahlil etadi hamda umumlashtiradi. Bu turli voqea, hodisa va ob’ektlarning o‘ziga xos tomonlari hamda xususiyatlarini aniqlashga olib keladi.

Pedagogika fanida “Qaytar aloqa” tushunchasi ilgaridan bor. Bu tushuncha ko‘pincha “teskari aloqa” deb ham yuritiladi. Ammo pedagogik nuqtai nazardan “teskari” so‘zining ishlatilishi maqsadga muvofiq emas. Qaytar aloqani prinsip darajasida o‘rganish bo‘lajak mutaxassisdagi refleksiya faoliyati bilan bog‘liq ekanligini ham ko‘rsatib berdi. Shaxs o‘zini o‘zi tahlil etmasa, o‘zining ichki imkoniyatlarini bilmasa, pedagogik refleksiyani sayoz bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Bu o‘rinda pedagogik jarayonning ishtirokchisi bo‘lish kamlik qiladi. Uning faol a’zosi bo‘lish, jamoaviylikni rivojlantirishga hissa qo‘shish talab etiladi.

Talabalarning fikr-mulohazalari qaytar aloqa prinsipining mazmunida o‘ziga xos pedagogik tolerantlik xususiyatlari borligini ko‘rsatdi.

Bu o‘rinda har bir talabaning bo‘lajak mutaxassis sifatidagi individualligi, mustaqil fikri, boshqalarning fikriga hamda qarashlariga munosabat, hurmat va e’tibor, ayni paytda tolerantlikni pedagogik voqelik va hodisa sifatida qaralishiga olib keladi. Yo‘nalish jihatdan dars turlarining uchinchisi taqdimot darslari deb olindi. Davr talabidan kelib chiqib, o‘quv-biluv faoliyatini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida takomillashib borishi, bevosita har bir darsning taqdimot asosida amalga oshuvini talab etadi.

Tadqiqot jarayonida ko‘rib o‘tilgan kichik, tezkor va taqdimot darslari mohiyatan talabani mustaqil fikr yuritishga, eng muhimi qilgan ishining natijasini ko‘ra bilishga yo‘naltirishi o‘rganildi. Dars tahlilining mazmun-mohiyati shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni takomillashtirishga qaratilganligi, qaytar aloqa prinsipi asosida o‘z e’tirofini topdi (1-jadval).

1-jadval

Qaytar aloqa prinsipining asosiy tarkibiy qismi



Ko‘rinib turibdiki, pedagogik g‘oya muayyan samaradorlikka aylansa, shaxsda qo‘lga kiritilgan natija asosida yana yangi g‘oya shakllanadi. Ma’lumki, pedagogik g‘oya uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari mazmunida yuzaga chiqadi. G‘oya asosida maqsadga erishish o‘z-o‘zidan nazariy-amaliy faoliyat metodlarga suyanadi.

Xulosa va takliflar.

1. O‘qituvchining ko‘z o‘ngida shakllanayotgan mutaxassis qaysi fan asoslarini ongi shuurida o‘zlashtirib, qayta ishlab, uni o‘zining dunyoqarashi hamda madaniyati nuqtai nazardan talqin qilayotganligini, ijtimoiy hayot rivojiga o‘z hissasini qo‘shayotganligini aynan qaytar aloqa prinsipi mexanizmlarini to‘liq ishga solgan holda bilib borishi talab etiladi. Qaytar aloqa prinsipining mexanizmiga ko‘ra: talabaning har bir darsga bo‘lgan qiziqishi uning kasbiy qiziqishlari bilan izchil bog‘liq holda ortib borishi; ta’limiy faollik yangi tashabbuslar bilan uyg‘unlashgan holda ijtimoiy faollikka aylanib borishi; o‘quv materialining mazmuni ilmiy-g‘oyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lishi; dars jarayoni “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlari rivojiga asoslangan ilmiy-ijodiy muhitni keltirib chiqarishi aniqlandi.

2. Taqdimot darslari mazmunidagi dars tahliliga oid izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayoniga xos didaktik talablar, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ta’limi va kasbiy tarbiyasini takomillashuviga qaratiladi. Bunda: dars jarayonida berilayotgan o‘quv materialining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari uyg‘unligi, ta’lim oluvchining egallayotgan kasbiga bo‘lgan munosabatini qaror toptirish, kasbiy bilimlarni egallash orqali dastlabki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, talabada mustaqil ta’limga, o‘z-o‘zini kasbiy tarbiyalash va o‘z-o‘zini namoyon eta olishga qaratish, talabani o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘ya bilishi hamda o‘zining faoliyatini o‘zi baholay olishi, uning ijtimoiy faolligini ta’minlashi ilmiy asoslab berildi.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimov X.I. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Канаржевский Ю.А. Анализ урока. - Москва, 2008.
3. Mirzaev I. Dars tahlili. - Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
4. Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. - Москва: НИИ школных технологий, 2005.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:130002

Nilufar XASANOVA,
EMU UNIVERSTY katta o‘qituvchi
Saida NIZAMOVA,
Turin PU akademik lisey o‘qituvchisi, p.f.d.
E-mail: nilufarxasanova@inbox.ru

O‘zMU dotsenti J.Todjiyev taqrizi asosida

CHEMISTRY IN OUR COUNTRY IN THE GERMAN STATE OF HAM

Absract
The article provides information about the educational system of the Federal Republic of Germany and the methodology of teaching chemistry. Specific characteristics of the German education system, similarities with the Uzbekistan education system, advantages and disadvantages are shown. Proposals and recommendations have been developed to study the advantages of the German educational system and the teaching of chemistry, to improve and implement them methodologically, and to introduce them to the educational system of Uzbekistan.
Key words: Primarstufe, sekundarstufe I, sekundarstufe II, real school, gymnasium, complex school, private school.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ В ГЕРМАНИЕ И В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация
В статье представлена информация о системе образования Федеративной Республики Германии и методике преподавания химии. Показаны особенности немецкой системы образования, сходство с системой образования Узбекистана, достоинства и недостатки. Разработаны предложения и рекомендации по изучению преимуществ немецкой системы образования и преподавания химии, их методическому совершенствованию и внедрению в систему образования Узбекистана.
Ключевые слова: Начальная школа, основная школа, реальная школа, гимназия, комплексная школа, частная школа.

GERMANIYA DAVLATI XAMDA MAMLAKATIMIZDA KIMYO FANINI O‘QITISHNING SOLISHTIRMA TAHLILI

Annotatsiya
Maqolada Germaniya Federativ Respublikasining ta'lim tizimi va kimyo fani o‘qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan. Germaniya ta'lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston ta'lim tizimi bilan o‘xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari ko‘rsatilgan. Germaniya ta'lim tizimi va kimyo fanini o‘qitishning afzallik tomonlarini o‘rganish ularni metodologik jihatdan takomillashtirish hamda O‘zbekiston ta'lim tizimiga joriy qilish bo‘yicha ham taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Boshlang'ich maktab, asosiy maktab, real maktab, gimnaziya, kompleks maktab, xususiy maktab.

Kirish. 2019 yil 29 apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijalarini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi PQ-637-son "ta'lim to‘g‘risida" gi qonun, "umum o‘rta ta'lim va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 187-son qarori ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, fanlarni o‘qitishni tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy hayotning jadal rivojlanishi natijasida , mamlakatimizda o‘rta ta'lim tizimini modernizasiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va pedogogik texnologiyalarini joriy etish, o’qituvchilarni malakasini oshirish, yangi darsliklar, o‘quv adabiyotlar tayyorlash bo‘yicha katta ishlar qilindi.

O‘zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirish uchun Buyuk Britaniya, Fillandiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va shu kabi boshqa davlatlarning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari o‘qitish tizimini o‘rganish va afzallik tomonlarini tadbiq etish kerak bo‘ladi. O‘zbekistonning shiddat bilan rivojlanishi xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy va siyosiy hamkorlligi mahsulidir.

Ta'limning takomillashuviga erishish maqsadida turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish zarurligi xozirgi kunning talabidir. XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya, Belgiya va Germaniyada qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirila boshlagan.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining deyarli barchasi o’sib kelayotgan yoshlarga sifatli ta’lim berish birinchi darajali ahamiyat kasb etishi, uning bilish faoliyati pedagog-tadqiqotchilar diqqat markazida bo’lib, o‘z ta'lim tizimlarini isloh qilish zarurligini anglab etganlar.

Hozirgi zamon jamiyatida ta'lim tizimlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari quyidagilardir: insonni bilimning turli sohalarida rang-barang mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali uning aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash.

Ta'limning takomillashuviga erishish maqsadida turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish zarur. XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya, Belgiya va Germaniyada qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirila boshlagan.

O‘zbekiston uchun turli sohalardagi o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, zarur holda yangi bilimlar va kasblarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan yoshlar etishib chiqishi muhimroqdir.

Qilingan adabiyotlar tahlili chet el pedagogik tajribasini, xorijiy ta'lim va tarbiya nazariyalarini qiyosiy o‘rganish o‘z mamlakatimizdagi ta'lim tizimlarini takomillashtirish va yanada oqilona ta'lim tizimlarini yaratish uchun andoza bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda kimyo fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, ta'lim jarayoniga ishlab chiqarish tehnologiyalarni o‘rganish, mavzularga bog‘lash , o‘quvchilarni kimyo sanoatiga qiziqtirish va yangi texnologiyalarni tatbiq etish, integrasiyalash, aralash ta'lim texnologiyasi (blended learning) imkoniyatlaridan foydalanish, o‘quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shu jumladan maqolada Germaniya Federativ Respublikasining ta'lim tizimi va kimyo fanini o‘qitish metodikasini o‘rganishga va tahlil qilishga harakat qililingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr boshida "Qiyosiy pedagogika" atamasini birinchi bor frantsuz olimi M. A. Julen qo‘llagan. Julen ta'limning uzluksiz takomillashuviga erishish uchun

turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish

kerakligini asoslab bergan. XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsiya, Belgiya va

Germaniyada qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilib, ilmiy asarlar nashr qilina boshlagan. 1898 yil AQShda talabalarga qiyosiy pedagogikadan darslar o‘tilgan (Kolumbiya universitetida).

Tadqiqot metodologiyasi. Germaniya ta'lim tizimiga xaqidagi ushbu maqolada Germaniya ta'lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston ta'lim tizimi o‘xshash jihatlari, kimyo fanini o‘qitish usullarini afzallik va kamchiliklari, metodologik jihatdan takomillashtirishga oid o‘z fikirlarimizni bildirganmiz. Unda tajriba-sinov, qiyosiy tahlil, kuzatish, ilmiy-tadqiqot, statistik tahlil, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan foydalanildi.

Germaniya – ta'lim va kasbga yo‘naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati. Ko‘plab Nobel mukofoti laureatlari, yuqori darajadagi ilmiy izlanishdagi yutuqlarga ega bo‘lgan, ko‘p loyihalarga moliyaviy yordam berib kelayotgan, har xil davlatlardan kelgan o‘quvchilarni o‘qitadigan davlatdir.

Germaniya Konstitusiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratida. Mamlakatda o‘n oltita federal er mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta'lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal erlarda maktab ta'limida ayrim farqlar bor.

Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart. Maktab ta'lim tizimi kuyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1. Bolalar bog‘chasi 2. Boshlang‘ich maktab 3. Asosiy maktab 4. Real maktab

5. Gimnaziya 6. Birlashgan maktab 7. Oliy ta'lim

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktabgacha ta'lim muassasalar kiradi: bolalar bog‘chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo‘lib, 3 yil davomida qatnashish ota-onalar xohishiga ko‘ra ixtiyoriydir.

2. Boshlang‘ich maktab (Primastufe) unga 6 yoshdan qabul qilinadi. O‘qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'limning birinchi bosqichi (Sekundastufe I) yo‘naltirilgan bosqich, unda o‘quvchilar iqtidoriga ko‘ra yo‘naltiriladi: asosiy maktablar, Real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O‘quvchilar ta'lim haqidagi attestatni Real va asosiy maktablarni bitirganda beriladi.

4. Ta'limning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "Dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o‘qishni tugatish o‘rta ta'limni tugatish bilan teng bo‘lib, yakunida faqat kasbiy sohada o‘qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o‘qib, o‘quvchilar umumiy shahodatnoma "etuklik attestati" – Abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o‘quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o‘quv yurtlari.

Germaniya baholash tizimi:

Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. 1 ball eng yuqori baho hisoblanadi. O‘quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o‘zlashtirishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o‘qitiladi.

Dastlabki 2 yil mobaynida o‘quvchilar baholanmaydi. O‘qituvchilar baho o‘rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o‘zlashtirish tavsifnomasi beriladi. O‘quvchilarga 3-sinfdan baho qo‘yila boshlanadi.

5-6 sinflar bolalarning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar keyingi ta'lim turiga yo‘naltirilishi uchun kuzatuvda bo‘ladi. Bolaning boshlang‘ich sinflardan keyin qaysi maktab turida o‘qishni davom ettirishi boshlang‘ich maktab tavsiyasi, uning o‘zlashtirishi hamda ota-onasining xohishlariga bog‘liq.

O‘quvchilar o‘rta ta'limning eng muhim bo‘g‘ini gimnaziyada (Gymnasium) to‘qqiz yil 5-13 sinfgacha ta'lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziyada 3 yil o‘qiydi. Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. O‘quvchilar 11 sinfdan tanlagan yo‘nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o‘rganishga sarflaydi.

Gimnaziya - oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi bo‘lib gimnaziyani tugatganlik to‘g‘risidagi etuklik shahodatnomasi (Abitur) universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi. Ammo etuklik shahodatnomasini olish oson emas. O‘quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o‘n uch yil davomidagi natijalari hamda 4 fan bo‘yicha yakuniy imtihon baholari inobatga olinadi.

Xususiy ta'lim

Germaniyada davlat maktablar bilan birga xususiy ta'lim muassasalari mavjud. Xususiy maktablar o‘rta ta'lim maskanlarining 2% foizini tashkil etadi. Xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. O‘quv dasturlari an'anaviy maktablardan birmuncha farq qiladi. Xususiy maktablar sanoat, sport, til, uy xo‘jaligi kabi ixtisoslashgan yo‘nalishlarda ta'lim beradi. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o‘quvchining o‘zi yo‘q, deb hisoblashadi. Ular o‘quvchilarni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. Pedagoglar birinchi navbatda o‘quvchining mustaqil fikri bo‘lishiga erishishni maqsad qiladi.

Universitetlarda bakalavr bosqichi to‘rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to‘rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o‘qish yakunida davlat imtihoni (Statspruefung) topshiradi va dissertasiya himoya qiladi. Talaba o‘qish uchun qishki yoki yozgi o‘quv mavsumini tanlash huquqiga ega.

Yozgi mavsum aprel-sentyabr, qishkisi esa oktyabr-mart oylarini o‘z ichiga oladi. Germaniya chet ellik talabalar soni bo‘yicha dunyoda AQSh va Buyuk Britaniyadan keyingi o‘rinda turadi.

Tahlil va natijalar.

Yo‘nalishlar	O‘zbekiston	Germaniya-Berlin
Kimyo fanini o‘qitishi	7-11 sinf - o‘rta maktab, 10-11 akademik lisey, kollej, OTM	5-13 sinf – gimnaziyalar 7-10 sinf - Real maktablar, 11-13 sinf - kollej OTM
Fanga oid dasturlar	standart talablari asosida ishlab chiqiladi	maktab talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladi
Fanning nomi	umumiy kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo	umumiy kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo
Fanga ajratilgan soatlar	xaftasiga 2 soat	xaftasiga 2 soat 1 - semestr ximiya 2-semestr fizika
Darsliklar	har bir sinflar buyicha darsliklar mavjud	darslik va o‘quv qo‘llanmalar Internet materiallari asosida
Texnik ta'minot	laboratoriya xonalari bor, kimyoviy jixozlar va moddalar etishmovchiligi mavjud.	Har bir maktab bazasidan kelib chiqqan holda 3-6 sinflar mavjud
Didaktik materiallar	darslik, o‘quv qo‘llanma, tarqatma materiallar, texnik vositalar, kompyuter taqdimotlari	Internet materiallari va unda foydalaniladigan platformalar
Baholash usullari	umumta'lim maktablarida chorak va yakuniy akademik litsey va kollejda joriy, oraliq va yakuniy nazorat	yillik baholash va imtihon (6 balli tizim)

Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar. Germaniya o‘quv tizimida turli xil interaktiv metodlardan foydalaniladi: jamoali o‘qish, hamkorlikda o‘qitish, guruhli ishlash, intervyu, fidbek, mustaqil o‘qish, svetofor kabiklar . Bu usullar kimyo fanini o‘qitishda keng qo‘llaniladi.

Germaniya ta’lim tizimining yutug‘ tomonlari ko‘p, masalan: qiyosiy tahlili mavjudligi, sifatni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabat o‘rnatilganligi; ijodiy muhit yaratilganligi; ishlab chiqarish korxonalarda o‘quvchilar uchun shartnoma asosida ishlash imkoniyati yaratilganligi; har bir o‘quvchiga tarqatma material kelgusi dars uchun berib yuborilishi; javob bera olmagan o‘quvchilarni ham o‘qituvchi xushmuomalalik bilan to‘g‘ri yo‘naltira olishi; ta'lim maqsadi individuallashganligidir..

O‘rganilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilib quyidagilarni O‘zbekiston ta'lim tizimiga ham joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Germaniyadagi kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirishni ta'minlovchi metodlarni mamlakatimiz ta'lim tizimiga tatbiq etish;
2. Kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv dastur va o‘quv reja, dars soatlarini xorij davlatlari asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish;
3. Kimyo fanini ishlab chikarish bilan bog‘lab o‘qitish
4. Mamlakatimizda xususiy maktablarni ko‘paytirish;
5. Ishlab chiqarish korxonalarda o‘quvchilar uchun shartnoma asosida ishlash imkoniyati yaratish;

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oli ta'lim berdi tizimin yanada rebohlanting chorasi-samarali chora" gi PK-2909-sonli qarori. 2017 yil, aprel 20.
2. Qiyosiy Ta'lim.Sohail Naqvi.Jurnal-srpnember No. 6. 2012yil / sahifa 55/
3. Miralieva D. Jahon tizimidan dars beradi. Vinkvu uslubi majmua. T.: Iqtisodiyot., 2016 y, 30-darajasi
4. Qiyosiy Ta'lim. Sohail Naqvi. Jurnal-srpnemberatakliflar 6. 2012yil / sahifa 56
5. Fayzullayeva N. Jahon tizimidan dars beradi. T.: TDIU. Onkuv kulanma. "Iqtisodiyot"., 2016 y
6. Fayzullayeva D. zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Bin uslubidagi majmua. T.: TDIU., "Iqtisodiyot"., 2017 y
7. Miralieva D. Jahon tizimidan dars beradi. Bin uslubidagi majmua., T.: Ekonomika., 2016 y
8. Mamadjonov I. T. D., "Iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar" elektron fan jurnali. # 6, noyabr-dekabr, 2017 yil

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:3703

Feruza XILOLIDDINOVA,
Jizzax politexnika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail:hiloliddinovaferuza@gmail.com

Farg‘ona politexnika instituti “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” kafedrasi dotsenti J.Z. Madaminov taqrizi ostida

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILINI TALABALARGA O‘RGATISHNING ZARURATI

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda butun dunyoga keng yoyilgan tilingliz tilini kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarga ingliz tilini o‘rgatish va o’qitishda kommunikativ kompetensiyasi, o’rganilayotgan chet tilida so’zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: Kategoriya, nutqiy ravonlik, nutqiy strategiya, kompetensiyaviy ta’lim, shaxsning uquvi, interfaol usullar, motivasiya, kompetenylik.

АНГЛИЙСКИЙ ДЛЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье речь идет о коммуникативной компетентности в преподавании и изучении английского языка студентам на основе компетентностного подхода лингвистического языка, получившего сегодня широкое распространение во всем мире, и умения общаться с иностранными носителями изучаемого языка.

Ключевые слова: Категория, беглость речи, речевая стратегия, компетентностное образование, индивидуальное обучение, интерактивные методы, мотивация, компетентность.

ENGLISH FOR STUDENTS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH THE IMPORTANCE OF LEARNING

Annotation

This article deals with communicative competence in teaching and learning English to students based on the competence-based approach of the linguistic language, which has become widespread throughout the world today, and the ability to communicate with foreign native speakers of the language being studied.

Key words: Category, fluency, speech strategy, competence-based education, individual learning, interactive methods, motivation, competence.

Respublikamizda oliy ta’lim tizimida bo’lajak kadrlarni tayyorlash va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo’lgan axborotni topish jarayonida mutaxasislik bo’yicha original adabiyotni o’qish, xorijiy tildagi og’zaki muloqotda ishtirok etish ko’nikmasini shakllantirish maqsadida ingliz tili darslari o’tilmoqda. O’z sohasini mutahassisi o’z kasbiga oid ingliz tilidagi adabiyotlarni asl nusxasini o’qiy olishi, o’qilgan matnni tushunishi va uni o’z kasbida qo’llay olishi lozim. Bundan tashqari, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak.

Tilga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalarda ingliz tilini interfaol usullar orqali o’rgatish yaxshi samara beradi, bu orqali talabalarning tafakkurini yanada o’stirish, ingliz tilidan ma’lumot olish va berish, ingliz tili haqidagi yangi bilimlar, o’z sohasidagi ilmiy o’zgarishlarni kuzatib borish va yangiliklardan bexabar qolmaslik imkonini beradi va bu talabalar dunoyoqarashini kengaytiradi. Talabalarning o’z kasbida tegishli material ya’ni mavzularda ishlash ular uchun qiziq va foydalidir. Buning uchun avvalo matnda ishtirok etayotgan yangi so’z yoki atamalarni ma’nosi, talaffuzi va ishlatilishini talaba bilishi kerak.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi, o’rganilayotgan chet tilida so’zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligi, shunuingdek, o’rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishish, o’z mamlakati madaniyatini yanada yaxshiroq anglash, uni muloqot jarayonida taqdim eta olishni nazarda tutadi.

Kompetensiya (lot.: competentia – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) termini ma'lum sohaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalar, tajribani anglatadi. Kommunikativ kompetensiya–shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir. “Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so‘zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, etika va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo‘lish usullari ifodalanadi” (T.V. Matveeva). 2006 yil 18 dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z ona tilida muloqot qila olish.
2. Chet tilida muloqot qila olish.
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar.
4. Raqamli kompetentlik.
5. O‘qishni o‘rganish.
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi.
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi.
8. Madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalash.

Hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar quyidagilar:

O‘rganishi kerak: tajribadan ahamiyatga ega xulosa chiqarish; egallagan bilimlarini o‘zaro bog‘lay olish, ularni

tartiblashtirish; o‘ziga mos keladigan o‘rganish usullarini aniqlash; muammolarni yecha olish.

Izlash: mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish;
turli ma'lumotlar bazasini izlash;
tevarak-atrofdan surishtirish;
ekspertdan maslahat olish;
axborot olish;
hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash.

Mulohaza yuritish: o‘tgan va hozirgi voqealar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topish;

jamiyat rivojlanishining u yoki bu jihatlariga tanqidiy yondashish; murakkablik va o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolishiga qarshi turmoq; bahslashuvlarda o‘z pozisiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo‘lish;

o‘qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;

salomatlik, iste'mol qilish, tasviriy san'at va adabiy asarlarni baholay bilish.

Hamkorlik qilish: guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;

qarorlar qabul qilish –anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;

kelisha olish;

shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Faoliyatga kirishish: loyihada qatnashish;

javobgarlikni zimmasiga olish;

guruhga yoki jamoaga kirish hamda o‘z hissasini qo‘shish;

hamkor ekanligini isbotlash;

o‘z ishini tashkil qila bilish;

hisoblash va modellashtirish texnikalaridan foydalana bilish.

Ko‘nikish: yangi axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana olish;

tez o‘zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;

yangi yechimlarni topa bilish [145].

Niderlandiyada o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim tizimi yaratilgan:

-kelajakka intilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni mo‘ljal qiladigan strategik kompetensiya;

- o‘rganilayotgan o‘quv fani xususiyatiga doir bo‘lgan bilim va malakalar bilan bog‘liq predmet kompetensiyalari; mazmuni jihatidan boshqarish malakalaridan iborat bo‘lgan metodik kompetensiya;

- asosiy tarkibi hamkorlik malakalari, tanqidni qabul qilish, qayta aloqa o‘rnatish; axloqiy-madaniy kompetensiya bo‘lgan ijtimoiy-kompetensiya.

Ular kasbiy muloqotlar, motivasiya, natijaga erishish uchun tayyor bo‘lish va o‘quv malakalari, refleksiyani rivojlantirishni belgilaydigan o‘quv kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, fanda sinonimik ma'noda qo‘llanadigan “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini o‘zaro farqlash lozim. Ushbu tushunchalar o‘zbek pedagogik maktabi uchun yangilik emas, biroq shunga qaramay, ularni turlicha tushunish kerakligiga e'tibor qaratish kerak.

“kompetentlilik”, “kompetensiya” tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuining amalda qo‘llanilishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o‘lchovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo‘lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko‘nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o‘quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan emosional iroda kuchi» [145, 8.b].

Shunday qilib: “kompetensiya” – o‘z ichiga shaxsga oid o‘zaro bog‘liq sifatlarning barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, ularning predmet va jarayonlarning ma'lum kategoriyalariga aloqasi, insonning ularga nisbatan sifatli va sermahsul faoliyati uchun alohida ehtiyoj bor;

-“kompetentlilik” shaxs tomonidan o‘ziga xos kompetensiyaga egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli muloqotni anglatadi.

Shundan kelib chiqqan xolatda transport sohasi bo‘lajak mutaxasislariga ingliz tilini o‘rgatishda malaka talablarida alohida qilib umumiy kompetrensiyalar ishlab chiqilgan va u yerda bo’lajak muhandislarning boshqa sohalarni mukammal o’rganishlaridan tashqari xorijiy tillarda kasbiy faoliyatiga ta’luqli bo’lgan atamalarni bilishlari kerakligi haqida yozib qo’yilgan:

Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar quyidagilar;

Umumiy kompetensiyalar:

-davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosida kasb faoliyatida foydalana bilish;

Ingliz tilini o‘rgatishda turli hil yondashuvlar mavjud. Quyida shulardan bir nechtasini tahlil qilib chiqamiz:

Umuman olganda xorijiy tillarni o‘qitishda quyidagi jadvalda sanab o‘tilgan yondoshuvlar mavjud (1-rasm):

1-rasm. Talabalarga ingliz tilini o‘rgatishda zaruriy yondashuvlar

Tizimli yondashuv umumiy metodologik tamoyil sifatida fan va inson faoliyatining turli sohalarida ob’ekt va hodisalarni o‘rganish uchun ishlatiladi, uning mohiyati tadqiqot ob’ektini tizim sifatida tushunish va ob’ektni mantiq va ishlatiladigan vositalar sifatida o‘rganish jarayonini tushunish deganidir

Integrativ yondashuv – bu natijada yangi xususiyat yuzaga keladigan, ob’ekt, hodisa, jarayon, umumiylikni birlashtiradigan minimum sifatidagi majmuaning yaxlit tasviri hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv – gpammatik mashq, matnlarni o‘qish va tarjima qilish kabi kitob orqali o‘qitish metodi yuqori texnologiyali odatiy usullari rivojlanishi bilan sekin-asta muomaladan chiqib bormoqda. Gumanistik yondashuv oxir-oqibat butun prosseduraga asoslangan kommunikativ yondashuvning shakllanishiga olib keldi.

Kulturologik yondashuv – agap chet tilini o‘qitish uslubiy tizimini yaratilca, ko‘pincha kulturologik yondashuv inobatga olinadi. Uning asosiy maqsadi madaniyatlarapo kompetensiyani shakllantirishdip. Bunga o‘rganish va asosiy

tamoyillari asoslangan. Mutaxassis vazifani hisobga olgan holda mashqlar to‘plamini tanlashi mumkin.

Muammoli yondashuv – doimiy ravishda o‘tkaziladigan o‘quv mashg’ulotlarining samaradorligini oshirish ilgari suriladi. Asosiy yo‘nalishlardan biri – bu bir muammoga asoslangan ta’lim bo‘lib, bu esa chet tilida turli aspektlarni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Mutaxassislar kognitiv faoliyat, jumladan, barcha ong kuchlari, simulyativ ijodiyot va mustaqil tarzda muammoli topshipiqlarni yechish uchun vositalarni qidirishadi.

Texnologik yondashuv – talabalarning o‘zaro munosabatlarga kirishish, boshqarish va ta’sir etish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq kommunikativ ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi. Bu belgilab qo‘yilgan texnologik namunalarga va intizomga rioya etish, muloqot va uning turli shakllari, texnologiyasi va texnikasi, samarali muloqotning verbal va noverbal vositalarini bilish va amalda qo‘llash, zamonaviy psixologik treninglar tashkil etish, muloqot sohasida o‘z-o‘zini baholay olish va takomillashtirish ko‘nikamalaridir.

Oliy ta’limda Xorijiy til(ingliz) darslarida yuqoridagi yondashuvlarni e’tiborga olgan holda tashkillashtirilayotgan darslarni innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan holda ingliz tilida qurilish sohasidagi terminlarni talabalarga o‘rgatish mazmuniga qaratilgan ta’limni tashkil etishning mavjud holatini o‘rganish natijasida ma’lum bo‘ldiki, aksariyat «Xorijiy til(ingliz)» fani mutaxassislarida pedagogik texnologiyalar, ularning mohiyati va amaliyotda qo‘llash borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikma, malakalarning shakllanmaganligi innovatsion ta’lim samaradorligini ta’minlashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Khiloliddinova F.R. Offer types and their classification. Science and Education, Scientific journal. The scientific journal “Science and Education” is an open-access journal and the main task of the journal is to highlight the achievements, problems, and prospects of science and education. 2022. №7. p. 104.
2. Бойко М.В. Технологии как основное средство формирования иноязычной коммуникативной успешности студентов управленческих профилей педагогические чтения Современная методика обучения иностранным языкам: Пособия для учителя. – 2-е издание перераб. и доп. / Н. Д. Гальскова // – М.: Аркти, 2003, - 342 с.
3. Хилолиддинова Ф.Р. Использование интерактивных технологий при обучении студентов-заочников английскому языку. Центр научных публикаций. Ежемесячный аналитический научно-правовой журнал «Образование и право» посвящен актуальным вопросам применения законодательства в сфере образования, правовому мониторингу, инновационным технологиям. 2021.-323с.
4. Khiloliddinova F.R. “Современные методические технологии в обучении иностранному языку.” Til va adabiyot ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2022-yil. 3-son. 102-бет.
5. Khiloliddinova F.R. “Language social networks in teaching English” Til va adabiyot ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2022-yil. 11-son. 98-бет.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.013.(42)

Sardor XODJANIYAZOV,
Urganch davlat universiteti dotsenti, p.f.d
E-mail: sardor@urdu.uz

Urganch davlat universiteti professori, f.f.d M.Xajiyeva taqrizi asosida

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ASPECTS OF THE TEACHING OF SULEYMAN BOQIRGHANI

Abstract
This article provides information on the life and creative works of Sulayman Bakirghani, his books "The Book of the Virgin Mary", "The Story of Ibrahim Halil", "The Book of the End Times" and other poems and epics, creating many spiritual-moral wisdoms, as well as the priceless spiritual and moral legacy left by the respected figure and his cultural heritage being one of the great sages.
Key words: Islamic enlightenment, spiritual and moral process, love, tolerance, way of tariqat, perfect person, socio-political reality, inequality, injustice, oppression, negative situations.

ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ УЧЕНИЯ СУЛЕЙМАНА БОКИРГАНИ

Аннотация
В данной статье представлена информация о жизни и творчестве Сулеймана Бакиргани, его книгах «Книга Девы Марии», «История Ибрагима Халила», «Книга последних времен» и других поэмах и эпосах, создавших множество духовных - нравственные мудрости, а также бесценное духовно-нравственное наследие, оставленное уважаемым деятелем, и его культурное наследие как одного из великих мудрецов.
Ключевые слова: Исламское просвещение, духовно-нравственный процесс, любовь, толерантность, путь тариката, совершенный человек, социально-политическая реальность, неравенство, несправедливость, угнетение, негативные ситуации.

SULAYMON BOQIRG‘ONIY TA’LIMOTINING MA’NAVIY-MA’RIFIY JIHATLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada, Allomani hayoti va ijodi, Sulaymon Boqirg‘oniyni “Bibi Maryam kitobi”, “Qissasi Ibrohim Halil”, “Oxir zamon kitobi” va boshqa she’r va dostonlarida ko‘plab ma’naviy-ahloqiy xikmatlar va lirik she’rlarni yaratganligi hamda mu’tabar siymo tomonidan qoldirilgan bebaxo ma’naviy-axloqiy va madaniy merosi u kishining buyuk donishmandlardan biri ekanligi borasida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Islom ma’rifati, ma’naviy-axloqiy jarayon, mehr-muhabbat, islom ma’rifatparvarligi, bag‘rikenglik, tariqat yo‘li, komil inson, ijtimoiy-siyosiy voqelik, tengsizlik, nohaklik, jabrlilik, adolatsizlik, salbiy xolatlar.

Kirish. Jahonda ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hodisalar inson hayoti va dunyo hamjamiyati mazmuni tubdan o‘zgarayotganligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu hodisalarning ta’siri, xususan, axloq, tarbiya, o‘zaro muloqot, madaniyat va din sohalarida ko‘zga tashlanib, asrlar davomida Islom sivilizatsiyasi rivoji va ta’siri ostida xalqlar dunyoqarashi, olamni aqliy va ruhiy his qilish shakllangan bo‘lsada, bugungi kunda ma’naviy transformatsiya va modernizatsiya jarayonida yangicha mazmunga ega bo‘lmoqda. Madaniy hayotning o‘zgarishi, egotsentrizm, ma’naviy qashshoqlik, moddiyatparastlik, oilaviy qadriyatlarning yemirilishi, milliy an’ana va urf-odatlarning inkor etilishi hamda avlodlar o‘rtasidagi aloqaning uzilishi kabi illatlarga qarshi kurashda Sulaymon Boqirg‘oniy ta’limotining pedagogika fanlar taraqqiyotidagi o‘rni va roli hamda nazariy-metodologik, g‘oyaviy mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sulaymon Boqirg‘oniy (1091-1186) - turkiy “avliyo” (avliyo), afsonaviy so‘fiy shayxi, islomning O‘rta Osiyodagi yirik targ‘ibotchisi hamda yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili hisoblanadi. U Qiyomatning islomiy versiyasi bo‘lgan “Oxir zamon kitobi” asarining muallifidir. “Boqirg‘oniy ko‘nglida “ishqi ilohiy va zavqi ilohiy” tug‘yon qilgan shoir murabbiydir. Uning she’rlari bu dunyoni do‘zaxga aylantirmaslik, nafsu havoga berilib, xalq boshiga qiyomat azoblarini solmaslik, ong qulligidan xalos bo‘lish, din qudratini ulug‘lash kabi ma’naviy-axloqiy ehtiyojlarni ifodalaydi” [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Sulaymon Boqirg‘oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma’lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o‘rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug‘diradi. Turk mifologiyasida va xalq orasida “Hakim ota” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan valiy inson Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z iqtidori va she’riy iste’dodi bilan Xoja Ahmad Yassaviyning e’tiborini qozongan. “1911-yilda yozilgan Jo‘yborzoda qalamiga mansub “Manoqib”da aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) Qur’oni karimga o‘zgacha hurmat ko‘rsatib, darsga borayotib Mus'hafni boshi uzra ko‘tarib olar ekan. Buni ko‘rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota uzotning qo‘lida ta’lim olib, o‘n besh yoshida muridlikni qabul qiladi” [2].

Tahlil va natijalar. Alloma o‘z ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib sodda, ravon uslubda keng xalq ommasiga yetkazgan. U o‘z manbalarida islom dinini, shariat va tariqat bosqichlari asosida targ‘ib qilib, kishilarni o‘z nafsini quliga aylanishdan qaytargan hamda kishilarni ilmli bo‘lishga, u dunyoni o‘ylab yashashga, Allohning karamidan hammisha bahramand olib yashashga undaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “Hakim otaning dunyoga kelgan

shahri Baqirg‘oniyning aniq joylashgan o‘rini hozircha ilmda noma’lum. Xiva xonligi yozma manbalarida uchraydigan Xavand shahri akademik Y.G. Gulyamovning fikricha Qo‘ng‘irot shahri bilan Hakim ota Baqirg‘oniy qabristonligi oralig‘idagi Bograxan shahri. Shuningdek, bu shahar X asrlarda sharq yozma manbalarida uchraydigan Madmine shahriga mos keladi. XIX asrning boshida K.Y. Zelman yozib olgan manbalarda Baqirg‘ondagi Hakim ota mozoriga Sayid Axmadning g‘amxorlik qilganligi aytiladi. Xalqning orasida Bograxan nomi bilan bog‘liq afsona, qo‘rg‘on va qabiriston saqlangan” [1].

Sulaymon Boqirg‘oniy “Oxir zamon kitobi” nomli mashhur va pand-nasihat o‘gitlariga xos bo‘lgan hikmatlar to‘plamini yozib qoldirgan. Ko‘plab tarixchi va tadqiqotchilarning fikricha, Sulaymon Boqirg‘oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma’lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o‘rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug‘diradi. Hakim ota tasavvufiy tarbiya uslubini yassaviylik asosida olib borib, g‘oyalarini insonlar ongi va qalbiga singdirishda ham, asarlarini yozish uslubida ham o‘ziga xos oddiylik va xalqchillikka katta e’tibor qaratgan.

Sulaymon Boqirg‘oniy o‘zining “Bibi Maryam kitobi”, “Qissasi Ibrohim Halil”, “Oxir zamon kitobi” va boshqa she’r va dostonlarida ko‘plab ma’naviy-ahloqiy xikmatlar va lirik she’rlarni yaratgan. Bu ijod namunalari esa o‘lkamiz xalqlarining ko‘plab madaniyati va ma’naviyatining yuksalishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu mu’tabar siymo tomonidan qoldirilgan bebaxo ma’naviy-axloqiy va madaniy meros u kishining buyuk donishmandlardan bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham O.J.Hamroyeva “Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlariga keng o‘rin ajratgan. Olim Yassaviy hikmatlari matnidan parchalar berishda Istanbul nashriga, Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlari matnini berishda “Hikmatlar kulliyoti” sarlavhali Turkiston qo‘lyozmasiga tayangan. Majmuada keltirilgan namunalar “Boqirg‘oniyning yo‘qolgan bolasi uchun aytg‘oni” sarlavhasi ostida yetti to‘rtlikdan iborat. Tadqiqot ishida mavjud qo‘lyozma, toshbosma va mavjud nusxalar o‘rtasidagi matniy tafovutlar tahlilga tortilgan” [3] deb yozadi.

Sulaymon Boqirg‘oniy islom ma’rifatini Allohni tanish, uning nazariga tushishdan iborat ma’naviy-axloqiy jarayon sifatida talqin qiladi. Oliy muhabbatni Allohga bo‘lgan muhabbat, deb uni keyingi darajasi boshqa insonlarga mehr-muhabbatda bo‘lish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tadi [4]. Sulaymon Boqirg‘oniy islom ma’rifatparvarligi va bag‘rikengligini yorqin ifodasi bo‘lgan tariqat yo‘li va uni bosqichlari komil insonni tarbiyalash yo‘li, jannatga eltuvchi yo‘l, deb biladi. Alloma xikmatlarida yashab utgan davriga xos ijtimoiy-siyosiy voqelik, tengsizlik, nohaklik, jabrlilik, adolatsizlik va boshqa kabi salbiy xolatlar uchun javobgar odamlarni u narigi dunyo azob-uqibatlarini eslatish bilan tarbiyalashga harakat qiladi. Vijdonsiz, imonni yo‘q amaldorlar, salbiy illatlarga xos ishlar bilan mashhur bo‘luvchi, talonchi kishilarni keskin tanqid qiladi. Sulaymon Boqirg‘oniyning she’rlari o‘z davrida “Boqirg‘on kitobi” (bu asar 19-20-asr boshlarida Qozonda 3 marta nashr etilgan) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Shuningdek, allomaning “Bibi Maryam kitobi”, “Oxir zamon kitobi” kabi dostonlari xalq orasida mashhur bo‘lgan. Bu asarlarda alloma o‘zining tasavvufiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy va estetik qarashlarini batafsil bayon etadi [5].

Allomaning asosiy va taniqli “Oxir zamon kitobi” asari axloq, hulq, xallolik va poklik, inson qalbining go‘zallik bilan o‘zaro uyg‘unligi masalalariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, abadiy go‘zallik - bu Xudo. Xudo sof mutlaq mavjudotdir. Xudo dunyoni to‘rt qismga (olov, suv, yer, havo) bo‘lib yaratdi. Keyin u o‘simliklar, hasharotlar, hayvonlar va odamlarni yaratdi, ularni boshqaradigan to‘rt a’zo (oyoq, qo‘l, bosh va tanadan) iborat. Boqirg‘oniy fikriga ko‘ra, Xudoning go‘zalligini har qanday odam tan olmaydi, chunki oddiy odam va Xudo o‘rtasida ko‘rinmas “parda” mavjud. Ushbu “pardani” olib tashlamoqchi bo‘lgan va Xudo bilan tanishishni, unga chuqur e’tiqod qilishni istagan kishi, avvalo, tasavvuf yo‘lidan borishi va uning asosiy bosqichlaridan (shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat yo‘lidan) o‘tishi kerak. Natijada, “ichki ko‘z” ochilib, ruhan poklangan kishi Xudoga yanada yaqinlashadi. Xudoni aql bilan emas, balki sevgi-muhabbat bilan bilish mumkin. Sevgi - bu yuksak tuyg‘u. “Nega Xudoni sevish kerak?” Savolga Qur’oni Karimning 61-oyatida shunday javob berilgan. Xudoning go‘zalligi Uning rahm-shafqatida, mag‘firatida va bandalariga cheksiz yaxshilikdadir. Uning ezguligi maxluqotlarga bo‘lgan sevgisida. Faqat saxiy, sabrli va bilimdon odamgina Xudoga yaqinlasha oladi. Xudo inson va uning yuragi o‘rtasidadir. Bir kun uning xukumi ostiga odamlar to‘planishadi. Tabiat va insoniyat qonunlari o‘zaro bog‘liqdir. Inson Xudoni faqat o‘zini o‘zi bilish orqali bilishi mumkin. Mag‘rurlik, ochko‘zlik, hasad, ochko‘zlik va janjaldan xoli bo‘lgan odamgina to‘liq ma’naviy-axloqiy erkinlikka ega bo‘ladi. Bu haqida Sulaymon Boqirg‘oniy shunday yozadi:

Sani darding mango darmondin ortuq,
Sanga qul bo‘lg‘onim sultondin ortuq.
Saning yodingni aysam cho‘l ichinda,
Bo‘lur ul cho‘l bo‘stondin ortiq [6].

Umuman olganda, komillik imkoniyatlarining barchasi insonda go‘zal axloq vositasida namoyon bo‘ladi. Zero islom dinining asosiy mazmun-mohiyati go‘zal axloqdan iboratdir. “Niso” surasining 149-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: “(Ey mo‘minlar), xoh oshkora, xoh yashirincha biron yaxshilik qilsangiz yoki biron yomonlikni avf qilib yuborsangiz (Olloh suygan bandalardan bo‘lursiz)”. Umuman olganda, xulqiy go‘zallik bu olamni go‘zal axloq vositasida anglashdir. Payg‘ambarimiz buyuradilar: “Yaxshi mavzuda bir soat mulohaza qilmoq, bir yillik ibodatdan yaxshiroqdir”. Inson hayoti faqat moddiylikdan iborat emas, u umri davomida haqiqatni ma’rifatdan izlasagina, o‘z nafsini yo‘q qilishga erishadi. Zero, o‘qib o‘rganmay, ilmli bo‘lmasdan turib toat-ibodat vazifalarini egallay olmaydi. Ilm shunday narsaki, u insonni adashganida to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi va qalbiga ziyo tarqatadi. Qur’oni Karimda ham tafakkur, ya’ni fikr, qiling deya xitob qilinadi. Payg‘ambarimiz o‘z Hadislarida: Ummatim ikki narsadadan halok bo‘lishi mumkin: 1) ilmni tark etishdan 2) mol yig‘ishdan.

Inson avvalam bor o‘zligini anglaydi va o‘zligini anglashi bilan bu dunyoga nega kelganini tushunadi. So‘ngra saodati nimadaligi haqida o‘ylaydi va anglaydiki uning saodati o‘zida go‘zal axloqni tarbiyalab, insoniyatga nafi tekkan holda Alloh rizoligiga erishishda ekanligini ko‘radi va shu orqali ikki dunyo saodatiga erishishga harakat qiladi. Kimki go‘zal axloqdan mahrum bo‘lsa, ilmu-ma’rifatni anglamasa, Allohga va insoniyatga muhabbatini topa olmasa, hayotiy maqsadini tushuna olmasa, u holda uning hayvondan nima farqi qoladi, inson hayotining mazmuni o‘z aqli-zakovatini qalbi bilan birlashtirish emasmi? Albatta shunday.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, uni amalga oshirishda Islom madaniyatining pedagogik, ma’naviy va ilmiy merosi, shuningdek, tasavvufiy-irfoniy ta’limotlari bilan umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan mutafakkirlarning qarashlarini hayotga tadbiq etishga alohida e’tibor qaratiishimiz zarur. Ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash bugungi islohotlarimizning eng muhim vazifalaridan biri ekan bu borada Sulaymon Boqirg‘oniyning pedagogika, falsafa, mantiq, axloq ilmlaridagi o‘rnini

aniqlash, ushbu masala yuzasidan tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Кыдырбаева М., Турдыбаев А. Ҳаким ота Сулаймон Боқирғоний ва унинг даври. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. (1) Z 40 Zbiór artykułów naukowych z Konferencji Miedzynarodowej NaukowoPraktycznej (on-line) zorganizowanej dla pracowników naukowych uczelni, jednostek naukowo-badawczych oraz badawczych z państw obszaru byłego Związku Radzieckiego oraz byłej Jugosławii. (30.03.2020) - Warszawa, 2020. - 12 p. http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/files/add8_iv_2020_v_2.pdf
2. https://hidoyat.uz/23902
3. Ҳамроева О.Ж. XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018. –Б.16.
4. Тарикат Ясавийа и Крым. Сулейман Бакыргани: дастаны и хикматы [Текст] / М-во культуры Российской Федерации, Гос. республиканский центр русского фольклора, Крымский центр этнокультурных ценностей ; вступ. очерк, пер. и коммент. Л. В. Бахревского. - Москва : Гос. республиканский центр русского фольклора, 2015. - 207 с.
5. Родная литература : учебник / сост. Р. Р. Валиуллина, Д. Д. Гурьянова, К. М. Тухбатуллина [и др.] ; Казанский инновационный университет имени В. Г. Тимирясова. - Казань : Познание, 2020. - 153 с.
6. Mustafa Sever. Hakîm Süleymân Ata. Hikmetler ve kissalar. Baski tarihi.Arahk. 2017.195.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:172.4:34(575.1)

Muhabbat XOLBOYEVA,
O‘zMU magistranti
E-mail: xolboevamuxabbat@gmail.com

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) U.Ravshanov taqrizi asosida

REFLECTION OF SOCIAL AND POLITICAL PROCESSES IN ETHICS AND LAW

Annotation
This article analyzes issues such as the processes that occur in social relations, their characteristics, their influence on morality, and their reflection in legal norms. Morality and law are analyzed as the main regulators of interpersonal relations in society. Also, the role and importance of morality and law in the political life of the society, as two important factors in the establishment of a legal state and civil society, are highlighted.
Key words: Ethics, law, politics, codes of ethics, civil society, legal state, law.

ОТРАЖЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЭТИКЕ И ПРАВЕ

Аннотация
В данной статье анализируются такие вопросы, как процессы, происходящие в общественных отношениях, их характеристика, влияние на нравственность, отражение в правовых нормах. Мораль и право анализируются как основные регуляторы межличностных отношений в обществе. Также выделены роль и значение нравственности и права в политической жизни общества, как двух важных факторов становления правового государства и гражданского общества.
Ключевые слова: Этика, право, политика, этические кодексы, гражданское общество, правовое государство, право.

IJTIMOIY – SIYOSIY JARAYONLARNING AXLOQ VA HUQUQDA AKS ETISHI

Annotatsiya
Ushbu maqolada ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan jarayonlar, ularning xususiyatlari, axloqqa ta’siri hamda huquqiy normalarda aks etishi kabi masalalar tahlil qilingan. Axloq va huquq jamiyatda kishilararo munosabatlarda asosiy tartibga soluvchilar sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyat siyosiy hayotida axloq va huquqning o’rni va ahamiyati, huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishda ikki muhim omil sifatida yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Axloq, huquq, siyosat, axloq kodekslari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, qonun.

Kirish. Jamiyat rivojlanib borar ekan ijtimoiy munosabatlar ham Shunga mos tarzda taraqqiy etib boraveradi. Ijtimoiy munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi bo’lgan axloq va huquq me’yorlari ham yangilanib turadi. Masalan, hozirgi katta avlod vakillari yoshligining ajralmas qismi, asosiy tartibga soluvchisi bo’lgan “communist axloqi”, “kommunistik nizom”, “kommunistik tarbiya” kabi tushunchalar kommunistik imperiya inqirozga uchraShi bilan o’z kuchi va ahamiyatini yo’qotdi. Yoki 90 – yillarda umuman bo’lmagan media madaniyat, netiket, global tarmoqda muloqot madaniyati, Shaxsiy profillar daxlsizligi, electron yoziShmalar daxlsizligi, elekton baza, electron hukumat kabi tuShunchalar bugungi hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi deb bemalol aytiSh mumkin. O’z navbatida kommustik tuzum uchun xos bo’lgan axloq va huquq me’yorlari muomaladan chiqib ketgan bo’lsa, texno – informatsion munosabatlarga oid me’yorlar hayotimizda tobora chuqurroq o’rnaShib, o’ziga xos axloqiy me’yorlarga va Shunga mos tarzda yuridik normalarda aks etib bormoqda.

Davlatimiz mustaqilligining ilk yillarida, Ittifoq parchalangan bo’lsada odamlarda kommunistik kayfiyat, fe’l – atvor o’z kuchini yo’qotmagan paytlarda mustaqil O’zbekistonning huquq tizimini – davlat va jamiyat boShqaruviga oid qonunlar to’plamini yaratiSh zarurati yuzaga keldi. Shu davrda xususiy mulk, biznes, fermer, demokratiya, referendum, so’z erkinligi, vijdon va diniy e’tiqod erkinligi, yagona fuqarolik, gender tengligi kabi yangi yuridik tuShunchalar milliy qonunchiligimizga kirib kela boShladi. Matbuot va televideniyeda tez – tez tilga olina boShlandi. Mustaqillik, hurfikrlilik sabab odamlar dunyoqaraShida ham o’zgariShlar boShlandi. Ammo yuqoridagi tuShunchalarni o’zicha, noto’g’ri talqin qiluvchilar ham paydo bo’la boShladi. Eng avval, din va e’tiqod erkinligidan foydalaniSh huquqini ro’yobga chiqariSh uchun diniy ta’lim niqobi ostida ayrim ekstremistik g’oyalar targ’iboti keng tarqala boShladi. Natijada asl diniy bilimlardan behabar sohta Shiorlarni yodlab olgan va siyosiy tuzumga qarshi faoliyat bilan Shug’ullanadigan ekstremistik harakat a'zolari ko’paya boshladi. Bunga qarshi kurash maqsadida yoshlarda haqiqiy diniy bilimlar berish, ularda sog’lom dunyoqarashni shakllantirish maqsadida umumta’lim fanlari tizimiga konstitutsiya savodxonligi hamda millliy g’oya va ma’naviyatga oid o’quv dasturlari kiritildi. Ko’plab me’yoriy – huququiy hujjatlar qabul qilindi. Bundan asosiy ko’zlangan maqsad – yosh mustaqil davlatning kelajagi bo’lgan yosh avlodni tarbiyalash edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nazariy jihatdan olib qaraganda, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni axloq ezgulik va yovuzlik, to’g’ri yoki noto’g’ri, adolatli yoki adolatsiz kabi mezonlar orqali huquq esa, qonuniy (huquqqa mos) yoki g’ayriqonuniy (huquqqa zid) kabi mezonlar bilan baholaydi. Axloq, qadimgi yunonlardan boshlab, insonning o'zi, o'zi ustidan hukmronligi o'lchovi, insonning o'zi uchun, qilgan ishlari uchun qanchalik mas'ul ekanligining ko'rsatkichi sifatida tushunilgan. [1]Amal qilish davriyligiga ko’ra, huquq axloqqa nisbatan tezroq o’zgarishlarni qabul qiladi. Chunki, huquqning amal qilish yoki to’xtatilishi ma’lum huquq normalari majmui (qonun)ning kuchga kirishi yoki o’z kuchini yo’qotishi bilan amaliyotga kirib ketaveradi. Axloq normalaridagi o’zgarish esa, ijtimoiy ong bilan bog’liqligi

sababli, sekinlik bilan kishilararo munosabatlarda qaror topishi mumkin. Bunga misol sifatida Turkiston o’lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi, sovet hokimiyatining o’rnatilishidan Ikkinchi jahon urushigacha bo’lgan davr , urushdan keyin mustaqillikkacha bo’lgan davr hamda mustaqillikdan to bugungi kungacha jamiyatda qabul qilingan qonunlar amaliyoti bilan ushbu qonunlar o’rnatgan normalarning ijtimoiy munosabatlarga kirib kelishidagi vaqt nisbati o’zaro bir – biridan farqlanadi. Sovet hukumati XX asrning yigirmanchi yillarida qaror topgan bo’lsada, kummunistlar talab qilgan xulq- atvor normlari Ikkinchi jahon urushi davriga kelibgina to’la – to’kis qaror topdi. Chunki urush sababli kishilarda hamdardlik va birdamlik tuyg’ulari kuchaydi. Qolaversa, sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan qatag’on va tozalashlar ham o’z kuchini ko’rsatdi. Huquqning axloqdan tubdan farqlovchi jihatlaridan yana biri shundaki, g’ayriqonuniy hatti – harakatlar huquqqa zidligi isbotlangandagina huquqiy munosabat bildiriladi. Ya’ni kishi sodir etgan qilmishi ijtimoiy havfli deb topilib, mavjud huquq normalarjga zid kelsa va aybi isbotlansagina unga nisbatan jazo tayinlash mumkin. Masalan, ota yoki onaning o’z bolasiga jismoniy yoki axloqiy zarar yetkazishi qonunga zid holat hisoblanadi, lekin ushbu holat bo’yicha asosli shikoyat keltirilmaguncha unga nisbatan huquqiy munosabat bildirilmaydi. Bunda huquq normasining buzilgan yoki buzilmaganligi vakolatli davlat organi tomonidan ko’rib chiqilib, huququiy adolat tamoyili asosida davlat nomidan jazo tayinlanadi. Axloq esa, yaxshi – yomon to’g’ri yoki noto’g’ri xatto adolatli yoki yo’qligini vijdonga tayanib belgilaydi. Aytish mumkinki, sodir etgan qilmishining bahosini avvalo inson o’zi, o’z vijdoniga tayanib belgilaydi. Hatti – harakati boshqalarga oshkor bo’lish bo’lmasligidan qat’iy nazar axloqiy jazo – vijdoni bilan yuzlashadi. Ustoz Abdulla Sher ta’biri bilan aytganda: “Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba’zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon obyektga qaratilmaydi, u subyektning xatti-harakatlarini baholaydi, ya’ni unda subyekt o‘zi uchun ichki obyekt vazifasini o'taydi. Ba’zan jamiyat talablari bilan vijdon o‘rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o‘tkinchilik xususiyati, ma’lum ma’noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko‘zga ko‘rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.” [2]. Mavjud axloq normalariga zid hatti – harakati uchun jamiyat a'zolarining munosabati: sharmanda bo’lishi, obro’sizlanishi, hurmatini yo’qotishi ijtimoiy axloqiy jazo hisoblanadi. Bu o’rinda bildiriladigan munosabat insonning adolat haqidagi tushunchasiga ham bog’liq. Jamiyatda kishilar “qonunni bajarib, yaxshilikka yaxshilik bilan qaytganlarni adolatli, o‘zboshimchalik qilib, odamlarning haq-huquqini poymol qilgan (erkinlik va mulkdan mahrum qilib), qilingan yaxshilikni eslamaydiganlarni esa nohaq, deb biladilar. Har kimni xizmatlariga ko'ra mukofotlash adolatli va shunga mos ravishda adolatsiz - noloyiq sharaf va jazo sifatida tan olinadi. Jumladan, birovning manfaati evaziga ba'zi imtiyozlarni olish va o'z burchlarini boshqalarga yuklash adolatsizlikdir. Adolatli - bu nafaqat aniq ifodalangan, balki nazarda tutilgan (o'rnatilgan tartib yoki oldingi munosabatlar bo'yicha) majburiyatlarni (shartnoma yoki va'da bilan) va majburiyatlarni bajarishdir. Ob'ektiv qarorlar adolatli, noxolis qarorlar esa adolatsizdir.”[3] Axloq qilmishning mohiyatiga ichgi va tashqi jihatlariga birdek e’tibor qaratadi. Huquq esa asosan tashqi belgilarga ko’ra hukm chiqaradi. Fe’li yomon yaramas inson bo’lsa ham, qonun me’yorlarini buzmasa, bu hech qanday huquqiy ta’sir yoki oqibat keltirib chiqarmaydi. Axloqiy jihatdan esa xulqiga yarasha hurmat va munosabatda bo’linadi. Axloq va huquq kishining yosh xususiyatiga ko’ra deyarli bir xil amal qilsada, huquq keksa yoshli (oltmish yoshdan oshgan) shaxslarga nisbatan ayrim jazolarni qo’llamaydi.(Majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum etish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish)[4] Axloq esa aksincha insonning yoshi qanchalik ulug’ bo’lsa, shunchalik qat’iyroq talablarni qo’yadi. Bunda huquq yosh xususiyatlari va sog’ligining holatini hisobga olsa, axloq hayotiy tajriba va tarbiya va keyingi avlodga o’rnak bo’lishi kabi jihatlarni hisobga oladi. Shaxsdagi axloqiy xususiyat ikki shaklda namoyon bo’ladi: ichki va tashqi.

Shaxs axloqining tashqi namoyon bo’lishi ijtimoiy munosabatlarda aks etadi. Ya’ni, mavjud axloq me’yorlariga amal qilishi, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishiga qarab belgilanadi. Ushbu xususiyatlarga ega bo’lgan inson, o’z- o’zidan huquq normalarini ham hurmat qiladi. Huquqiy madaniyatli va yetuk axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan fuqarolar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxs axloqining ichgi xususiyatlari axloq normalarini fe’l – atvoriga singdirganligi, kundalik hatti – harakatining asosiga aylantirganligi, o’z-o’ziga, qilmishlariga qolaversa boshqalarning hatti – harakatiga munosabatida ifodalanadi. Yuqoridagi misolga qaytsak, ota yoki onaning o’z farzandiga nisbatan kuch ishlatishi kim uchundir tarbiyaning bir usuli, bolaning qilmishiga yarasha jazo, yana kim uchundir shafqatsizlik yoki bemehrlik deb baholanishi mumkin. Bunda inson bahoni o’z vijdoniga tayanib beradi. Inson axloqi fe’l – atvori shakllanishida nasliy xususiyatlar, tarbiya va atrof – muhit kabi omillar ta’sir ko’rsatadi. Ularning ichida albatta tarbiya hal qiluvchi vazifani bajaradi. Chunki xulq, fe’l -atvor har bir insonda mavjud. Faqat u tarbiyalangan – fazilatlar jamlanmasi sifatida ishlov berilgan, yoki tarbiyalanmagan – illat holiga kelib qolgan bo’ladi. Nasliy omillar asosan ma’lum bir psixologik holatda, tuyg’ular ta’sirida yuzaga chiqishi mumkin. Atrof – muhit ta’siri esa, insonni o’rab turgan muhit, insonlar, shart – sharoitning inson xulq – atvoriga ta’siri bo’lib, insonda asosan tashqi tomonlama ko’zga tashlanadi. Ya’ni muomalasi, o’zini tutishi, hatti – harakatlarida u yashaydigan muhit belgilari sezilib turadi. Siyosat uchun axloqning ahamiyati ham shundaki, jamiyatda fazilatli insonlar ko’pchilikni tashkil etsa, bu huquqiy madaniyatli, siyosiy faol fuqarolarga ega bo’lishni anglatadi. Siyosiy jarayonlarni to’g’ri tushunib, tahlil qilib unga nisbatan munosabat bildira oladigan fuqarolar jamiyatning har sohada rivojlanishiga sabab bo’ladilar.

Tahlil va natijalar. Axloq huquq va siyosatni adolat tushunchasida o’zaro birlashadi. Bu muammoga bag‘ishlangan eng ko‘zga ko‘ringan “Adolat nazariyasi” zamonaviy asari muallifi J.Rols adolatni haqiqat bilan qiyoslaydi: haqiqat fikrning asosiy fazilati bo‘lgani kabi, adolat ham ijtimoiy institutlarning birinchi fazilatidir. Shu sababli, falsafa tarixi davomida adolat umumiy manfaatni targ'ib qiluvchi narsadir, degan g'oya mavjud[5].

Axloq va huquq bugungi kungacha insoniyat madaniy taraqqiyotida erishgan eng katta yutuqlardandir. Har ikkalasi shaxs erkinligining mustahkam chegarasini o’rnatib, insondagi tubanliklarga qarshi “oltin kaltak” bo’lib xizmat qilib kelgan. Davlat boshqaruvidagi mansabdor shaxslarning axloqqa muvofiq hatti – harakatlari olib borilayotgan siyosatining axloqiyligini belgilab bergan.

Axloq va huquq umumiy asosda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchilar bo’lsada, manbaiga va ijtimoiy munosabatlarning ayrim xususiyatlariga ko’ra farqlanadi. Masalan, huquq jamiayatdagi munosabatlar va holatlarning eng muhimlarini(taratibga solinmasa tartibsizlik keltirib chiqaradiganlarini) hamda nazorat qilish mumkin bo’lganlarini tartibga soladi. (Shuning uchun huquqbuzarliklarga ijtimoiy havflilik darajasiga ko’ra jazo beriladi: intizomiy, ma’muriy, jinoiy). Axloq esa, insonlar ishtirok etadigan barcha munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, do’stlik, mehr -oqibat, moda, urf va shu kabilar.

Bundan tashqari axloq normalari umuminsoniy xususiyatlarni o’zida ko’proq namoyon etadi. Mehr – muruvvat, sahovat, adolat, do’stlik, hamdardlik kabi tushunchalar millat, davlat, din yoki til tanlamaydi. Insoniyat paydo bo’lganidan beri uzluksiz amal qilib kelmoqda. Shu o’rinda A.B. Kulichenkoning quyidagi fikrlari o’rinlidir: “Axloqning eng muhim uch xususuiyatini qayd etish lozim: keng tarqalganlik, axloqning oltin qoidalar va axloq talablarining hammaga – har kimga qaratilganligi”[6].

Xalqaro huquq normalarining amaliyotga joriy etilganligiga esa hali bir asr ham bo’lmagan. Qolaversa, xalqaro huquq normalari davlatlar tomonidan e’tirof etilganidagina ichgi va tashqi munosabatlarda amal qilishi qilishi mumkin. (Ma’lumot uchun: Yer yuzidagi 220 dan oshiq davlatdan 196 davlat BMT a'zosi hisoblanib, xalqaro huquq me’yorlarini e’tirof etgan. Qolgan davlatlar uchun ushbu normalar majburiy emas. Qolaversa ayrim davlatlar hali to’liq davlat sifatida tan olinmagan.) Huquqning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri qaysidir davlatda huquqqa mos – qonuniy hisoblanadigan munosabatlar boshqa bir davlatda huquqbuzarlik deb topilishi mumkin. Masalan, evtanaziya dunyoning ko’plab davlatlarida taqiqlangan. Faqatgina Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Shveysariya, Kanada, Kolumbiya va AQShning ayrim shtatlaridagina(Oregon, Vashington, Montana, Vermont va Kaliforniya) ruxsat etilgan.

Xulosa va takliflar. Hozirgi davrda milliy huquq tizimlari asosan, konstitutsiyaviy, ma’muriy, oilaviy, mehnatga oid, huquqbuzarliklar, protsessual huquq, iqtisodiyot, moliya, bojxona va xo’jalik boshqaruviga oid turli munosabatlarni tartibga soladi. Bunda, amal qiladigan munosabtlar huquq belgilab bergan chegarada amal qilishi kerak. Yuqorida sanab o’tilgan sohalarning har birida axloq ham mahsus shaklda amal qiladi. Oxirgi paytlarda xalqaro munosabatlarda ham milliy huquq tizimlarida ham axloqqa oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga harakat qilinmoqda bunga misol sifatida kasbiy etiket qoidalari hamda axloq kodekslarini misol qilib keltirish mumkin. Kasbiy etiket qoidalari yozilmagan, lekin umumqabul qilingan qoidalar bo’lib ma’lum soha mutaxassisining ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Axloq kodeksi esa, ayrim soha mutaxassislariga qo’yilgan, bo’ysunilishi majburiy bo’lgan, tegishli organ tomonidan qabul qilingan hamda ijrosi nazorat qilinadigan yozib qo’yilgan axloq qoidalaridir. Misol sifatida Sudyalarning odob – axloq kodeksi, Tibbiyot hodimlarining odob – axloq kodeksi, Umumiy o’rta ta’lim muassasalarining ichgi tartib va odob – axloq qoidalari kabilarni keltirish mumkin.

Taraqqiyot ilgarilab brogan sari zamon talablari o’zgarib boradi. Yuqorida aytganimizdek, axloq o’zgarishlarni sekinlik bilan qabul qiladi. Huquqda esa bu o’zgarishlar islohotlar orqali amalga oshiriladi. Ya’ni ko’plab yangilanishlarga uchragan sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlari qisman yoki to’liq yangilanadi, zamon talablariga moslashtiriladi. Bu o’zgarishlar huquqiy tartibga solishni osonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayni kunlarda mamlakatimizda 1992-yilda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko’plab o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish masalasi muhokamasi ketyapti. Konstitutsiya mamalakatning asosiy qonuni sifatida kelajakda uzoq yillar davomida huquqiy tartibotning asosi bo’lib xizmat qiladi. O’tgan yillar davomida vaqti – vaqti bilan turli qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritib borildi. Endilikda O’zbekiston yosh mustaqil davlat emas, rivojlanayotgan davlat sifatida o’z oldiga ulkan marralarni qo’ymoqda. Shunga mos tarzda davlat siyosatining tamal toshi bo’lgan Konstitutsiyani zamonga moslashtirish davr talabi bo’lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Gusseynov A.A.,Apressyan R.G. Etika. Darslik. M:. Gardariki,2000. 6-bet.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik, O’zbekiston faylasuflari millliy jamiyati nashriyoti. T.-2010,254-bet.
3. Gusseynov A.A.,Apressyan R.G. Etika. Darslik. M:. Gardariki,2000. 267-bet.
4. http//:www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil qabul qilingan, 4-bo’lim, X bob. 45',46,50,51-moddalar.
5. Gusseynov A.A.,Apressyan R.G. Etika. Darslik. M:. Gardariki,2000. 267-bet.
6. Кулинченко В.А. Политика и мораль: особенности И проблемы взаимодействия.// Социология власти. № 1. 2012, 74-bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.03

Anvar XURRAMOV,
ChDPU v.v.b. dotsenti
E-mail: anvar7277@gmail.com

ChDPU dotsenti, p.f.d D.M.Maxmudova taqrizi asosida

OLIY TA’LIM TIZIMINIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA DAVRIDA O‘QITUVCHINING O‘RNI

Annotatsiya

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning erishilishi ijtimoiy faoliyatning barcha sohalari va sohalarida, xususan, ta'limda raqamlashtirishni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Bu butun ta'lim tizimi uchun ham, har qanday ta'lim tashkilotining har bir o'qituvchisi uchun ham tubdan yangi vazifalarni qo'yadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish o'qituvchidan o'z kasbiy mahoratining ajralmas qismi sifatida ma'lum darajadagi axborot kompetentsiyasini shakllantirishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta'lim tizimi, o'qituvchi shaxsi, raqamlashtirish, raqamli ta'lim muhiti, axborot kompetensiyasi.

РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Развитие современного общества и достижения научно-технологического прогресса высвечивает необходимость внедрения цифровизации во все отрасли и сферы жизнедеятельности общества и, в частности, в образование. Это ставит принципиально новые задачи как перед системой образования в целом, так и перед каждым преподавателем любой образовательной организации. Реализация заявленных задач требует от преподавателя определенного уровня сформированности информационной компетентности как составляюшей части его профессионализма.

Ключевые слова: Система высшего образования, личность преподавателя, цифровизация, цифровая образовательная среда, информационная компетентность.

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE AGE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

Abstract

The Development of modem society and the achievement of scientific and technological progress highlights the need to implement digitalization in all sectors and spheres of society's life, and in particular in education. This poses fundamentally new challenges for the education system as a whole, as well as for every teacher in any educational organization. The implementation of the stated tasks requires the teacher to have a certain level of information competence as a component of his professionalism.

Key words: Higher education system, teacher personality, digitalization, digital educational environment, information competence.

Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash samaradorligini ta’minlashda oliy ta’lim tizimi o‘qituvchisi asosiy o‘rin tutadi. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat katta hajmdagi ma'lumotlarning tashuvchisi va o'rganish sub'ekti, balki o'quvchilarning intellektual, aqliy va ijodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatining tashkilotchisi sifatida ham ishlaydi. kelajakda o'z kasbiy burchlarini yuqori saviyada bajarish, mustaqil va faol harakat qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik va h.k. O'qituvchi shaxsini o'rganishga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilib, uning nafaqat shaxsiy va kasbiy fazilatlari, balki uning kasbiy faoliyati samaradorligini belgilaydigan boshqa xususiyatlarning ko'p sonli ro'yxatini ko'rish mumkin. Shunday qilib, S.I. Arxangelskiy ta'kidlaganidek, oliy ta'lim tizimi o'qituvchisi ikkita shunday atamani birlashtirishi kerak: ma'lum bir ilmiy sohadagi mutaxassis va o'qituvchi. Birinchi atama, muallifning fikriga ko'ra, o'qituvchiga ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari holatini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan maxsus va pedagogik bilimlarni va keng bilimlarni o'z ichiga oladi, bu esa asoslashning eng muhim shartidir. Ikkinchi davraga kelsak, shuni aytish kerakki, oliy ta'lim tizimi o'qituvchisi o'quv jarayonini qurishning uslubiy xususiyatlari va qonuniyatlarini, talabalarning psixologik va yosh xususiyatlarini, ularni ochish va rivojlantirish xususiyatlarini bilishi kerak. salohiyati, ularning ongiga ichki dunyosi orqali ta’sir qilish yo‘llari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari va ehtiyojlari.

Raqamli iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar hayotning turli jabhalariga joriy etilganda bo‘lajak mutaxassisning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga alohida talablar qo‘yiladi. Oliy ta’lim muassasalari uchun iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bitiruvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi muhim ahamiyatga ega [1]. Ayni paytda raqamli iqtisodiyotda talab katta bo‘lgan matematika, informatika va axborot texnologiyalari (IT) yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lgan matematika, informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha malakali va raqobatbardosh o‘qituvchilarni tayyorlash zarur.

Kasbiy ta'lim va ta'limning raqamli ta'lim jarayonini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradigan omillar raqamli jamiyatning uchta tarkibiy qismidir:

– raqamli avlod (alohida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega o'quvchilarning yangi avlodi);

– raqamli muhitni shakllantiruvchi yangi raqamli texnologiyalar

va unda rivojlanish;

– raqamli iqtisodiyot va u tomonidan yaratilgan kadrlarga qo'yiladigan yangi talablar.

Ishlab chiqarishning tez o'sishi va bilimlarni yangilash sharoitida umrbod ta'lim va raqamli ta'lim jadal texnologik va ijtimoiy rivojlanish bilan hamqadam bo'lish uchun kalit so'zlardir. Bunday vaziyatda universitetlar mutlaqo yangi va murakkabroq muammolarga duch kelmoqda va ular raqamli transformatsiya bilan belgilanadigan jamiyatda muhim rol o'ynashga chaqiriladi. Ta'lim doimiy o'zgarishlar holatida, chunki dunyo doimo o'zgarib turadi. Raqamlashtirish nafaqat ta’lim mazmuniga, balki uni tashkil etishga ham ta’sir qiladi. Bu jarayonlar universitetlarning ham, professor-o‘qituvchilarning ham joylashuvi uchun turli xil oqibatlarga olib keladi. Kerakli kompetensiyalar ko'pincha ta'lim muassasalari devorlaridan tashqarida olinadi, chunki ta'lim dasturlari ko'pincha texnologiya dinamikasiga mos kelmaydi. Onlayn ta'lim bozori universitet darajasiga oid savollarni tug'diradi. O'qituvchi uzatilgan bilim va ko'nikmalarni tashuvchidan bilim bazalarida harakatlanishga yordam beradigan navigatorga aylanadi. Raqamli texnologiyalar o‘qitiladigan fanlarning mazmuni va ularni taqdim etish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu shunchaki oddiy elektron taqdimotlar yoki videolardan foydalanish emas. Elektron ma'lumotlar bazalariga, yangiliklarga, doimiy forumlarga to'g'ridan-to'g'ri ulanish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mumkin. Skype, messenjerlardan foydalanib, yetakchi mutaxassis, ekspertning darsida qatnashish mumkin. O‘quv adabiyotlariga ixtisoslashgan nashriyotlar darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining elektron versiyalariga tobora ko‘proq o‘tmoqda.

Ta’limni raqamli ta'lim muhitiga (RTM) o'tkazish zamonaviy ta'limning asosiy tendentsiyalaridan biridir. Ushbu siljish o'qituvchilar uchun ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar tug'diradi. Bir tomondan, "raqamli" ga o'tish sizga ta'lim dasturlari doirasini sezilarli darajada kengaytirish, ularni yanada ko'proq qilish imkonini beradi.

Bir tomondan, "raqamli" ga o'tish sizga ta'lim dasturlari doirasini sezilarli darajada kengaytirish, ularni yanada ko'proq qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, raqamli ta'lim muhitining turli resurslaridan samarali foydalanishga ushbu sohadagi ko'plab amaliyot va tushunchalarning shakllanish bosqichida bo'lganligi to'sqinlik qilmoqda. Bu qoidani haqli ravishda ta'limga ham bog'lash mumkin. Ushbu soha uchun asosiy tushunchalarga ("raqamli ta'lim muhiti", "raqamli ta'lim resursi", "onlayn ta'lim", "aralashtirilgan ta'lim") investitsiya qilingan ma'nolarning nomutanosibligi ushbu sohaning asosiy parametrlari bo'yicha umumiy tasavvurning yo'qligiga olib keladi.

Bugungi kunda butun dunyoda “raqamli savodxonlik”, “raqamli ta’lim”, “raqamli ta’lim muhiti”, “raqamli didaktika” kabi tushunchalarga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Hozirda raqamlashtirish inson hayotining barcha sohalarini ishonchli qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar sohasida professional kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash zarurligi haqida savol tug'iladi. Shu munosabat bilan ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga qodir pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda.

Ta'limni axborotlashtirish - bu o'quv jarayoniga, o'quvchilarning kognitiv faoliyatini qayta qurish va intellektual qobiliyatlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratish maqsadida kompyuter texnologiyalari asosida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, uzatish va saqlash usullarini, ma'lumotlarni uzatish vositalarini joriy etishdir. Raqamli iqtisodiyot uchun malakali, malakali kadrlar tayyorlash ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun o'qituvchilar qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak va ta'lim muassasasida raqamli ta'lim muhitini yaratish va ta'lim faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi keng ko'lamli yangi texnologiyalarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchilar uchun raqamli kompetentsiyalarning Evropa modeli Pedagoglarning raqamli kompetentsiyasi (DigCompEdu) 22 kompetentsiyani o'z ichiga oladi va raqamli kompetentsiyalarni shakllantirishning olti yo'nalishini belgilaydi.

Mashhur nemis olimi Klaus Dering sinfda o’quvchilarning o’quv va kognitiv ishlarini tashkil etish, birinchi navbatda, bu jarayonda o’qituvchining tutgan o’rniga bog’liqligini ta’kidlab, “o’qituvchi malakasining uch tekisligi”ni belgilaydi:

- mavzu tekisligi: o'qituvchi mutaxassis (materialga shunday egalik qiladiki, asosiy, asosiysi muhim bo'lmagandan farqlanadi; tafsilotlar uchun ma'no va kontekst yaratadi; amaliy va soddaga mos keladi);

- uslubiy va didaktik tekislik: o'qituvchi - o'qituvchi (strukturaviy va xilma-xil o'qitishni amalga oshiradi; aniq gapiradi;

materialni taklif qiladi va optimal o'quv tadbirini tashkil qiladi (vositalar, usullar va shakllar to'plami);

- shaxslararo tekislik: o'qituvchi o'quv sherigi (o'quvchilarning o'quv ehtiyojlari va qiyinchiliklari haqida qayg'uradi; guruhda integratsiya va barqarorlikka yordam beradi). Muallif ta'kidlaganidek, bu samolyotlar doimo bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilishi kerak.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishish, xususan, jamiyat hayotining barcha soha va sohalarida (iqtisodiyot, ishlab chiqarish, tibbiyot, ta’lim, fan, madaniyat va boshqalar) raqamlashtirishni joriy etish prinsipial jihatdan umuman ta’lim tizimi, xususan oliy ta’lim uchun yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Qonunchilik darajasida zamonaviy ta’lim tizimida raqamlashtirishdan foydalanishni tartibga soluvchi qator qonunlar, qonunosti hujjatlari va boshqa me’yoriy-uslubiy hujjatlar ishlab chiqildi. Raqamli ta'lim maydonini yaratish, onlayn ta'limning mavjudligi orqali amalga oshirilishi kerak va aralash ta'limni tashkil etish, individual ta'lim yo'nalishlarini qurish, o'z-o'zini tarbiyalash, oilaviy va norasmiy ta'limni tashkil etish imkoniyatiga qaratilgan.

Raqamlashtirish hayotimizga ijobiy yangiliklar olib keladi. Ko'pgina o'quv materiallari, jurnallar, kundaliklar onlayn versiyalar toifasiga o'tmoqda. Talaba uydan chiqmasdan o‘qishi mumkin bo‘ladi. Zero, elektron resurslar ham maktab o‘quvchilari, ham talabalar uchun kerakli ma’lumotlarni topishga yordam beradi. Ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni o'quv jarayonini o'zgartirish, o'qituvchilarni ta'limning yangi texnologiyalari, usullari va shakllarini o'zlashtirishga undash zarurligini ta'kidlamaydi. Raqamlashtirish ishqibozlari, ular ta'limning etakchi yo'nalishi talabalar tomonidan materialni mustaqil o'rganish bo'lishiga ishonishadi. Ya'ni, bolalikdan bola o'zi kerakli bilimlarni egallashi kerakligiga e'tibor qaratadi. Va bu holda, o'qituvchi faqat yordamchi sifatida ishlaydi, unga talaba kerak bo'lganda murojaat qilishi mumkin.

Raqamlashtirish o'qituvchi ishini soddalashtirishga olib keladi, deb hisoblashadi, chunki raqamli tizimda uning ishi faqat yordam va maslahatlar, bahsli ishlarni tahlil qilish va hokazolarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi butun insoniyat tarixidagi ta'lim tizimining markaziy shaxsidir. Bugungi kungacha shundayligicha qolmoqda”. Ta'lim tizimidagi barcha joriy tendentsiyalar o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini, uning umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish va shakllantirish darajasiga tubdan yangi, yanada yuqori talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar oliy ta'lim tizimi o'qituvchisida uning kasbiy kompetentsiyasining ajralmas qismi sifatida axborot kompetentsiyasini rivojlantirish zarurati masalasini ko'tarmoqda.

Mualliflar ta’kidlaganidek, raqamlashtirish o‘qituvchilardan o‘zgacha mentalitet, dunyo manzarasini idrok etish, talabalar bilan ishlashda mutlaqo boshqacha yondashuv va shakllarga ega bo‘lishni talab qiladi. Ularning fikricha, bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat talabalar bilan baham ko‘radigan bilim egasi, balki raqamli dunyoda yo‘l ko‘rsatuvchiga ham aylanadi. Va shu nuqtai nazardan, o'qituvchi raqamli savodxonlikka, raqamli texnologiyalar orqali kontent yaratish va qo'llash qobiliyatiga, jumladan, ma'lumotlarni qidirish va almashish, kompyuterda dasturlash va modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

I.V. Lukashina ta'kidlaganidek, raqamli jamiyat o'qituvchidan "moslashuvchan" bo'lishni, ya'ni o'quv jarayonini tashkil etishda tajriba qilishdan qo'rqmaslikni va talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob beradigan, yangi uslub va texnologiyalarni jalb qilishni talab qiladi va ko'proq tanlash erkinligi. Shu bilan birga, muallifning fikriga ko'ra, o'qituvchining roli o'zini ta'lim faoliyati tashkilotchisi, maslahatchi, repetitor, fikrlash tashkilotchisi, ekspert va sherik sifatida ko'rsatishga qisqartirilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish davrida o‘qituvchi quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak:

elektron shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

zamonaviy axborot massivlarida axborotni qidirish, tizimlashtirish va tizimlashtirishning oqilona usullaridan foydalanish qobiliyati;

professional veb-saytlarda (vazirliklar, ilmiy birlashmalar va ta'lim tashkilotlarining veb-saytlari) ishlash qobiliyati;

turli raqamli ta'lim resurslari bilan ishlash qobiliyati;

Internetda o'z ma'lumotlaringizni joylashtirish imkoniyati (ularga kerakli ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatini beradigan ko'plab serverlar mavjud);

Internet texnologiyalari orqali talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati;

kompyuter va multimedia texnologiyalariga ega bo‘lish va o‘qitilayotgan fanning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida ulardan foydalana olish;

talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda tajribaga ega bo'lish va boshqalar.

Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilar raqamli ta'lim muhitida ishlashda hali ham qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Va ko'pincha, bular etarli nazariy tayyorgarlik va zarur amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ega bo'lmaganlardir. "BelGU" NIU o'z o'qituvchilari uchun o'quv jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ichki treninglar o'tkazadigan kam sonli oliy o'quv yurtlaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Лукашина И.В. Информационная компетентность, как составная часть профессиональной компетентности учителя. Режим доступа: https://www.informio.ru/publications/id4897i (дата обращения: 06.04.2020).
2. Никулина Т.В., Стариченко Е.Б. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление // Педагогическое образование в России. - 2018. - № 8. - С. 107-113.
3. Doring K.W. Lehren in der Weiterbildung. Weinheim, 1990. - 152 p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:091.2

Jo‘rabek HAYITOV,
Milliy gvardiya Farg‘ona viloyati bo‘yicha boshqarmasi katta ofitseri, katta leytenant
E-mail: jasurhamrayev996@mail.ru

PhD F.Qilichev taqrizi asosida

SOME APPROACHES TO ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY IN SOCIETY

Abstract
The article discusses the theoretical and practical areas of environmental security, which is recognized as an integral part of national security, and puts forward arguments to ensure environmental security in society.
Key words: Security, national security, environmental risk, environmental sustainability, environmental protection, environmental safety.

НЕКОТОРЫЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация
В статье рассматриваются теоретические и практические направления экологической безопасности, которая признается составной частью националной безопасности, и выдвигаются рассуждения по обеспечению экологической безопасности в обществе.
Ключевые слова: Безопасност, националная безопасност, экологический риск, экологическая устойчивост, охрана окружающей среды, экологическая безопасност.

JAMIYATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHGA DOIR AYRIM YONDASHUVLAR

Annotatsiya
Maqolada milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida tan olinuvchi ekologik xavfsizlikning nazariy va amaliy tendensiyalari o‘rganilib, jamiyatda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga doir mulohazalar ilgari suriladi.
Kalit so‘zlar: Xavfsizlik, milliy xavfsizlik, ekologik xavf-xatar, ekologik barqarorlik, atrof-muhit muhofazasi, ekologik xavfsizlik.

Kirish. Hozirgi davrda barqaror rivojlanishga erishish har bir davlatdan tizimli va aniq reja hamda dasturlarni qabul qilish va amalga oshirishni talab etmoqda. Taraqqiyotning asosiy va eng muhim shartlaridan biri esa shubhasiz, jamiyatda xavfsizlikning ta’minlashi bilan bog‘liqdir. Xavfsizlik – bu tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi har qanday xavfning mavjud emasligi yoki uni bartaraf etish layoqatining mavjudligi deb hisoblash mumkin. Boshqacha aytganda, xavfsizlikni ta’minlashdan ko‘zlangan bosh maqsad mavjud tahdidlar yoki paydo bo‘lishi kutilgan (kutilayotgan) turli tahdid va xavflarni o‘z vaqtida, kechiktirmasdan zararsizlantirish yoki bartaraf etishdir.

Xavfsizlik atamasining turli davrlarda turlicha talqin qilinishi o‘sha davrning holati va voqeligidan kelib chiqib, ya’ni xavf holatining yo‘nalishiga mos holda tilga olinganligi ma’lum. Vaqt o‘tishi, texnogen inqilobning kuchayib borishi esa xavf ko‘lami va ta’sir imkoniyatlarini oshirib boradi. Ishlab chiqarishning keskin ortishi, iste’mol imkoniyatlarining kengayishi ekologik xavf ko‘lamining oshishini ta’minlamoqda. Bu asosan, yirik sanoat ob’ektlaridan chiqadigan chiqindilarning ko‘payishi, gazlarning atmosferaga chiqarilishi va boshqa inson omiliga bevosita bog‘liq bo‘lgan turli texnogen hodisalar bilan bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. AQShlik taniqli olim E.Toffler tomonidan qayd etilgan “sanoat inqilobi” o‘tgan asrning katta yutug‘i sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, uning aks ta’siri ham uning nazaridan chetda qolgani yo‘q. Toffler ta’kidlagan sivilizatsiyaning ikkinchi to‘lqini nafaqat insoniyatni yangi marralar sari yetakladi, balki, turli ijtimoiy muammolarni, shu jumladan ekologik xavf-xatarlarni ham vujudga keltira boshladi. Voqelikni olimning qarashlari bilan bayon qilsak, “Ikkinchi to‘lqinning hukumatlari butun dunyo bo‘yicha yalpi milliy mahsulotni istagan yo‘l bilan ko‘paytirish bobida bir-birlari bilan ko‘r-ko‘rona musobaqalashib yotishadi. Buning uchun ular hatto ekologik va ijtimoiy halokatlar xatari borligiga qaramay, yalpi milliy mahsulotni «oshirish» ketidan quvishdan to‘xtamaydilar”[1]. Darhaqiqat, iqtisodiy foyda olish harakatida bo‘lgan yirik korxonalar atrof-muhitga ko‘rsatuvchi salbiy ta’sir haqida bosh qotirishlari kam kuzatiladi. Shu bois, turli sohalarda faoliyat yurituvchi nazariyotchilar ekologik xavfsizlik masalasiga jiddiy e’tibor qarata boshlashgan. Shunday nazariyotchilardan biri Elin Jonson Sporring o‘zining “Ekologik xavfsizlik: konseptual surishtiruv tadqiqi” asarida ekologik xavfsizlik umumiy xavfsizlikning tarkibiy qismiga aylanishi o‘tgan asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelishini va mazkur muammo asrimizning boshlariga kelibgina davlatlar va xalqaro tashkilotlar darajasida ko‘rib chiqila boshlanganini ta’kidlaydi. Mutaxassisga ko‘ra, mazkur holat (ekologik vaziyatning yomonlashuvi nazarda tutilmoqda) yer yuzida iqlim o‘zgarishlariga olib kelgani anglab yetilganidan so‘nggina ekologik xavfsizlikka alohida e’tibor qaratilganini ta’kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutaxassislarning qayd etishicha, ekologik xavfsizlik global xavfsizlikning ajralmas bo‘lagi sifatida ilk bor xalqaro darajada tan olingan forum – bu Rim klubidir. Italiyalik davlat va jamoat arbobi Aurelio Pechchei tomonidan 1968 yilda asos solingan mazkur klub jahonning global muammolari qatorida iqlim o‘zgarishlarini alohida e’tirof etishi ushbu masalaga davlatlar va keng jamoatchilik e’tiborini qaratishini ta’minladi. Rim klubi a’zolari nafaqat ekologik inqirozning kelib chiqishi, unga sabab bo‘luvchi omil va vositalar balki, mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan aniq takliflarni ishlab chiqishgani e’tiborga sazovor. Rim klubi tomonidan e’lon qilingan ekologik muammolarning jahonda chuqur ildiz otib

borayotgani haqidagi chaqiriqlar ortidan turli mamlakatlarning nazariyotchi olimlari, davlat rahbarlari, mutaxassislar, siyosatshunoslar, faylasuf va ekologlar ekologik vaziyat izdan chiqib borayotganini ta’kidlay boshladilar. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Asardagi quyidagi fikrlarni keltirib o‘tish joiz: “Bizning nazarimizda, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e’tiborni talab qiladi. Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e’tiborga molikdir”[2].

Tahlil va natijalar. Aslida har qanday xavfsizlik muayyan yo‘nalishdagi inqirozni oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan vositalarning mavjudligidir. Jumladan ekologik inqiroz jahonda va mintaqamizda mavjud bo‘lgani holda uni to‘laqonli bartaraf etish ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi. O‘z navbatida ekologik inqiroz tushunchasining umumiy mazmunini ko‘rsatib o‘tish ehtiyoji tug‘iladi. Mualliflar S.Gazinazarova, I.Axmedov, B.Muxamedgaliev, A.Hojievlar tomonidan nashr etilgan Ekologik xavfsizlik nomli o‘quv qo‘llanmada “Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muvozanatining barqaror buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatining yomonlashib borishi, davlat boshqaruv va huquqni muxofaza kiluvchi organlarning yuzaga kelgan holatdan chiqa olmasliklari hamda ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo‘qolishi, ya’ni tabiiy muhitning inqirozga, ijtimoiy muhitning esa falokatga olib kelinishi”[3] deb ta’riflangan. Mualliflar Ekologik inqirozning bir qator ko‘rinishlarini ko‘rsatib, yorqin misol sifatida Orol dengizining halokatli manzarasini ko‘rsatib berishgan. “Qachonlardir dunyoda eng katta ko‘llar toifasiga kirgan Orol dengizi 30-40 yil ichida eng sho‘r, ifloslangan va xalq xo‘jaligi ahamiyatiga deyarli ega bo‘lmagan o‘rtacha ko‘llar toifasiga kirib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri - Amudaryo va Sirdaryo suv rejimining keskin o‘zgarishidir”[3]. O‘zbekistonlik faylasuf olim, professor S Mamashokirov ekologik inqiroz haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Insoniyat uzoq-yaqin tarixida boshidan qancha ekologik falokat, kulfat, kasofat, inqirozni boshidan kechirgan bo‘lsa, insonning o‘z hayoti asosi – tabiiy muhitga, kelajak avlodlari taqdiriga loqaydligi, beparvoligi asosiy sabab bo‘lgan”[4]. Darhaqiqat, aksariyat ekologik inqirozlarning sodir bo‘lishi tabiatga inson aralashuvi natijasida sodir bo‘lishi ko‘pchilik mualliflar tomonidan ta’kidlangan.

Ekologik xavfsizlik hodisasi o‘z mohiyati va ta’sir ko‘lamiga ko‘ra xavfsizlikning boshqa turlari va ko‘rinishlaridan farq qilmaydi. Insoniyatning kelajakda yashab qolishiga real tahdid bo‘lgan ekologiya muammolari bir qarashda tabiiy holat, go‘yoki shunday bo‘lishi kerakdek bo‘lib ko‘rinishi bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari vaqt o‘tgani sayin o‘zining ta’sirini o‘tkaza boshlaydi. Ya’ni, siyosiy xavf, iqtisodiy va boshqa xavf-xatarlar aniq vaqt tartibida namoyon bo‘lsa, ekologik xavf birmuncha yashirin qiyofa kasb etadi. Rossiyalik olim Martinovskiy “Ekologik xavfsizlik tadqiqining mumtoz talqini” nomli maqolasida ekologik xavfsizlik xavfsizlikning boshqa ko‘rinishlariga qaraganda davriylik xususiyatini o‘zida aks ettirishini, bu esa e’tiborni kam tortishi bilan alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Yana bir rus tadqiqotchisi A Kirsa “Ekologik xavfsizlik konsepsiyasi” nomli maqolasida ekologik xavfsizlikning quyidagi konsepsiyalarini ilgari surgan:

– “Cheklangan o‘sish konsepsiyasi;

– Global atrof-muhitni boshqarish konsepsiyasi;

– Ekologik inqilob tushunchasi;

– Himoya va rivojlanish konsepsiyasi va boshqalar”[5].

Keltirilgan to‘rt yondashuvning o‘zi mutaxassislar o‘rtasida yakdil qarashning mavjud emasligini ko‘rsatadi. Birinchi yondashuvga ko‘ra, yer sayyorasida aholi sonining o‘sib borishi ekologik xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatadi. Bunda tabiiy resurslar uchun kurash, ishlab chiqarishning keskin ortishi, chiqindilar miqdorining keskin ko‘payishi va boshqa omillar sabab sifatida keltiriladi. E’tiborli tomoni, ayrim liberal fikrlovchi mutaxassislar mazkur jarayonni boshqarish, ekologik vaziyatni izdan chiqishini oldini olish uchun aholi ko‘payishini cheklash ham samara beradi deb hisoblashadi. Biroq bunday fikrlovchi mutaxassislar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Asosiy olimlar kontingenti ekologik xavfsizlikni ta’minlash – bu aholining ekologik savodxonligi, ongi, saviyasi va madaniyatini oshirish bilan natijaga erishish mumkin deb hisoblovchilardir. Shu o‘rinda ekologik xavfsizlik hodisasiga aniq ta’rif berish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Fikrimizcha, ekologik xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning tabiiy va inson omili natijasida yuzaga keladigan ekologik salbiy ta’sirlardan muhofaza qilishdir.

Tabiiyki, ekologik xavfsizlik tushunchasiga bo‘lgan qarashlar, unga berilgan ta’riflar ham turlicha bo‘lib ular o‘rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Masalan, ba’zi olimlar ekologik xavfsizlik deganda, tabiiy muhitni inson omili vositasida ifloslanishini oldini olish deb hisoblashsa, ayrimlari atrof-muhitni barcha tabiiy texnogen va inson aralashuvidan himoya qilish deb talqin qilishadi. Kirsaga ko‘ra, Ekologik xavfsizlik muammolari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida, uzoq muddatli maqsadlarga erishish va strategik formatdagi vazifalarni bajarish orqali uning hal etilishini belgilab beradi. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash tabiatni muhofaza qilish, inson va uning atrofidagi dunyoning uyg‘un mavjudligini ta’minlashga qaratilgan maqsadlar, tamoyillar, vazifalar va aniq chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan aniq ekologik siyosatni ishlab chiqishni talab qiladi[5].

Ekologik xavfsizlik tushunchasiga nafaqat ekologlar balki, turli soha vakillarining e’tibor qaratishi, o‘zlarining qarashlari hamda mualliflik ta’riflarining berishi vaziyatning o‘ta murakkab va halokatli ta’siridan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur yo‘nalishda turli risolalar, dissertatsiyalar, dolzarb maqolalarning e’lon qilinishidan ham muammoning chuqur ildiz otib borayotganini anglash mumkin. O. Bashlakovaning qayd etishiga ko‘ra, so‘nggi yillarda yozilgan ikki yuzdan ortiq o‘quv qo‘llanmalar, olti mingga yaqin dissertatsiya va monografiyalar jahondagi umumiy ekologik vaziyatni tushunish imkonini beradi. Olimaning fikricha, “Mazkur masala insoniyat uchun hayot-mamot masalasidir. Agar jahon hamjamiyati rivojlanishning yangi modeliga o‘ta olmasa, asrimizning o‘rtalarida sayyora miqyosida ekologik falokat yuz beradi. Shu munosabat bilan ekologik xavfsizlikni har tomonlama ta’minlash jahon hamjamiyatining ustuvor vazifasiga aylanib bormoqda”[6].

Nazariyotchilarning bir-birini to‘ldiruvchi va o‘z navbatida turfa qarashlarni o‘zida jamlagan ta’riflari ekologik xavfsizlikni yaxlit anglash imkonini beradi. Shu o‘rinda ayrim ta’riflarni keltirib o‘tamiz:

Rossiyada nashr qilingan “Atrof-muhit va mehnat muhofazasi” ensiklopediyasida ekologik xavfsizlik “atrof-muhitni va inson va fuqarolarning hayotiy manfaatlarini iqtisodiy va boshqa faoliyatning mumkin bo‘lgan salbiy ta’siridan va favqulodda tabiiy va texnogen tahdidlardan himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, texnologik va boshqa chora-tadbirlar tizimi”[7] deb tushuntirilgan. Muallif S. Rusinning ta’rificha, “Shaxs, jamiyat va davlatni atrof-muhitning kundalik ifloslanishi natijasida yuzaga keladigan atrof-muhitga zararli ta’sir oqibatlaridan kelib chiqadigan potensial yoki real tahdidlardan himoya qilish holati”[8]ga aytiladi. G. Feraruga ko‘ra, “Yer sayyorasining istalgan mintaqasida ekologik muvozanatni

ta’minlovchi holatlar, hodisalar va harakatlar majmuidir”[9]. Britaniyalik olim Dj. Barnetning bergan ta’rifiga ko‘ra, “Inson faoliyatining tabiiy muhit jarayonlariga optimal integratsiyalashuvi tufayli erishilgan ijtimoiy-texnogen va tabiiy tizimning barqaror holati”[10] deb tushuntirilgan. Tabiiy fanlar lug‘atida “Yer yuzida insoniyat jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va siyosiy jihatdan yashashi uchun lozim bo‘lgan darajada ekologik muvozanatni ta’minlaydigan holatlar, hodisalar va harakatlar majmui”[11] deb ko‘rsatilgan.

Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida fikr yuritgan ko‘pchilik mutaxassislar eng avvalo mazkur yo‘nalishdagi xavf-xatarni anglash, baholash va tahlil qilish masalaning yechimini ta’minlashga yordam beradi deb hisoblashadi. Fikrimizcha hozirgi davrda ekologik xavf-xatarni vujudga keltiryotgan quyidagi jihatlar mavjud:

Mavjud tabiiy boylik va resurslardan foydalanishdagi ekstensiv usullarning ortib borishi;

Insoniyatning tabiiy resurslarga tuganmas vosita sifatidagi qarashlarining kuchayishi, boshqacha aytganda tabiatda mavjud qonuniyatlarga rioya qilmaslik;

Urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, tabiiy boyliklar mavjud bo‘lgan mintaqalarda aholi sonining keskin ortishi va o‘sha hududlarning keskin ifloslanishi;

Qurollanish poygasining to‘xtovsiz davom etishi, turli mintaqalarda zamonaviy qurollar sinovining muntazam o‘tkazilishi, qurolli to‘qnashuvlarning doimiy davom etishi hamda yalpi qirg‘in qurollarini ishlab chiqarish.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni mamlakatimizning birinchi prezidenti I. Karimov ta’kidlagan quyidagi jumlalar ham tasdiqlaydi: “Beto‘xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kimyoviy qurollar va ommaviy qirg‘in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaytidan muhit uchun juda katta xavfdir”[2]. E’tiborli tomoni shundaki, ko‘rsatib o‘tilgan xavf-xatarlarni bartaraf etish insoniyatning o‘z qo‘lida va izmida bo‘lgani holda, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga to‘laqonli e’tibor qaratilmayotgani tashvishli holdir. Zero, bugungi avlod yo‘l qo‘ygan xatolar kelajak avlod uchun real xavf ko‘lamini yaratishi shubhasizdir.

Darhaqiqat zamonaviy jamiyatda mavjud turli muammolarni tizimli hal etish davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining o‘zaro hamkoriligiga bevosita bog‘liqdir. Shu jumladan, jamiyat a’zolarini ekologik xavfsizlikni ta’minlashga keng jalb etish ularni ekologik ong va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan faoliyatga ehtiyoj sezadi. Bunday ehtiyoj esa ekologik ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yish zaruratini paydo qiladi. Fikrimizcha, aholi ekologik ongining yuksalishi ekota’limning bosh vazifasi bo‘lib, jamiyatda atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal etilishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar ekologik xavfsizlikni ta’minlashning siyosiy yo‘nalishi sifatida davlat hokimiyati organlarida ekologiya sohasi mutaxassislarining faoliyat yuritishi lozimligini ko‘rsatishadi. Hattoki, siyosiy hokimiyat uchun kurashda ekologik harakatlar va partiyalarning mavjud bo‘lishi ham masalaning ijobiy yechimi sifatida keng talqin qilinadi. Mazkur tajriba Yevropa davlatlarida allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan. Aksariyat Yevropa davlatlarida ekologik harakat va partiyalar hokimiyat sub’ekti sifatidagi maqomini mustahkamlab ulgurgan. Bunday tajriba O‘zbekiston amaliyotida ham so‘nggi yillarda o‘z aksini topib borayotganini ko‘rish mumkin. Dastlab, siyosiy harakat sifatida o‘z faoliyatini boshlagan “O‘zbekiston ekologik harakati” keyinchalik siyosiy partiya maqomini olgani ham ekologik siyosat takomilidagi muhim bosqich deb qarash mumkin.

Fikrimizcha davlatning ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan siyosatida quyidagi ustuvor va hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar mavjud:

Inson omili natijasida vujudga keladigan ekologik muammolarni oqibatlari bilan emas balki, sabablari bilan kurashish, tabiatga munosabatni gumanistik tamoyillar asosida olib borish;

Milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish, ekologik xavf-xatarni vujudga keltiruvchi holatlarga qarshi keskin kurashish tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish;

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, ekotizim barqarorligini saqlab qolish va iqtisodiy farovonlik o‘rtasidagi jarayonlarning muvozanatiga erishish, boshqacha aytganda, ekologik manfaatlarni iqtisodiy manfaatlardan ustuvorligini e’tirof etish va amaliyotda tatbiq qilish;

Ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayonini davlat va jamiyat boshqaruvining barcha sohalarida amalga oshirilishini ta’minlash;

Jamiyat a’zolari ongini “ekologiyalashtirish”, mavjud qadriyatlar tizimini ekologik barqarorlik vazifalaridan kelib chiqib o‘zgartirish, fuqarolarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan faoliyatni rag‘batlantirish;

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida boshqaruvni takomillashtirish va boshqa vazifalarni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR

1. Toffler E. Tretya volna. Moskva. AST 2010. S-172.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston. 1999. B-503.
3. Gazinazarova S., Axmedov I., Muxamedgaliev B., Hojiev A. Ekologik xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2009. B-43.
4. Мамашокиров Саидмурод. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Т.: “Иқтисод-молия” 2012. Б-28.
5. Кирса А.С. Консепсия экологической безопасности. Молодой ученый. 2022. №38 (433). С-124.
6. Башлакова О.И. Проблемы экологической безопасности России. Мировая политика. С. 112-118.
7. Российская энциклопедия по охране труда. // Яндекс. Словари. URL : http://slovari.yandex.ru/dict/trud.
8. Русин С.Н. Консептуалные проблемы экологической безопасности и государственная экологическая политика (правовой аспект) // Экологическое право. 2010. № 5. С. 12–18.
9. Ферару Г.С. Методические подходы к формированию и реализатсии региональной экологической политики // Вопросы государственного и мунитсипалного управления. 2011. № 1. С. 28–29.
10. Barnett J. 2001. The Meaning of Environmental Security: Ecological Politics and Policy in the New Security Era. – London : Zed Books. Rp.184.
11. Словар по естественным наукам. // Glossariy.ru. URL : http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_sch2.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO‘T: 159.99:316.46.058

Anjim SHAMSHETOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, p.f.n
E-mail: anjim.shamshetova.1974@mail.ru

TDPU professor v.b, p.f.d N.Umarova taqrizi asosida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE POPULATION OF THE ARAL SEA REGION

Annotation
The article gives an interpretation of the psychology of the population of the Aral Sea region, environmental problems and human psychology, nature conservation, psychological services to the population, environmental behavior, environmental consciousness.
Key words: Ecological problem, man, nature, population, ecological consciousness.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ

Аннотация
В статье дается толкование психологии населения Приаралья, экологических проблем и психологии человека, охраны природы, психологического обслуживания населения, экологического поведения, экологического сознания.
Ключевые слова: Экологическая проблема, человек, природа, население, экологическое сознание.

OROLBO‘YI AHOLISINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya
Maqolada Orolbo‘yi mintaqasidagi aholi psixologiyasi, ekologik muammolar va inson psixologiyasi, tabiatni asrash, aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish, ekologik xulq-atvor, ekologik ong haqida talqin qilingan.
Kalit so‘zlar: Ekologik muammo, inson, tabiat, aholi, ekologik ong.

Kirish. Qachonlardir jahondagi eng katta ko‘llarning to‘rtinchisi bo‘lgan Orol dengizini qurishi dunyodagi eng yirik ekologik fojialardan biridir. Orol dengizining qurib borishi natijasida bir qator salbiy holatlar yuzaga keldi, jumladan, Orol hududida paydo bo‘lgan zaharli tuz uyumlarining zarralari har yili Orol dengizidan 75 million tonnadan ortiq chang va zaharli tuzlar ko‘tarilishi, ichimlik suvni yetarli emasligi, xavfli kasalliklarning tarqalishi, yashash sharoitlarining og‘irlashuvi natijasida Orolbo‘yi hududidan aholi migratsiyasi borgan sari ortib borishi ijtimoiy ham psixologik muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Mavjud ekologik tanglik o‘z-o‘zidan Orolbo‘yi mintaqasidagi aholisida yashovchi shaxslarni psixik rivojlanishiga salbiy ta’siri, ya’ni tabiatning zarur obyektlariga diqqatni o‘zgarib borishi, shaxs xulq-atvorida keskin agressivlikni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur mavjud ekologik muammolarga bog‘liq atrof-muhit tabiatiga bo‘lgan munosabatlari o‘rganilib va ularni qiyosiy tahlili keltirildi. Ekologik tanglik ta’siridagi aholiga psixologik aholining yashash tarzidan qoniqish hislari, atrof-muhit tabiatiga bo‘lgan kognitiv, estetik munosabatlari juda past ko‘rsatkichlarni belgilab berdi. Aholi o‘rtasida tabiatni idrok etishidagi psixologik muammolari sodir bo‘layotgani, ularni shaxs xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani bilan izohlandi. Mavjud ekologik muammolarga kurashib yashash uchun shaxsda kuchli iroda kuch talab qilinadi. Shaxs o‘zidan ekologiyasi qiyin shariotlarda yashash uchun iroda topishi mumkin, lekin o‘zida shaxs xususiyatlarida namoyon bo‘layotgan ayrim sifatlarni yuqori darajadagi agressivlik bilan javob qaytarishi har qanday psixolog olimlarni uylandirib quysa kerak.

Orolbo‘yi mintaqasidagi global xarakterdagi ekologik muammolarga bog‘liq bir qator muammolarni ko‘rsatib o‘tamiz, aholiga ichimlik suvining yetishmasligi, dehqonchilik uchun ham sug‘orma suvni tanqisligi, suv zahiralarining kamayishi va sho‘rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo‘ladigan o‘simliklar turi va sifati kamayib, o‘tloqlar maydoni deyarli uch martaga qisqarishi, iqlimning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsizligi katta muammolardan biri. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning o‘zgaruvchanligi, tabiiy ofatlar va ekologik muammolarning ko‘payishi natijasida ayrim xududlarda aholining ma’lum qismida ertangi kunga ishonchsizlikning yuzaga kelishi ehtimoli, hayotdagi ekstremal sharoitlarga psixologik tayyorgarlikning zaifligi dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qoraqalpoqlarning kelib chiqish tarixi uzoq davrlarni o‘z ichiga oladi. Qoraqalpoqlar kuchmanchi xalqlar sirasiga kiradi. Lekin ular kuchib yursada doim daryo va Orol dengizi buylab kuchib yurgan. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, qoraqalpoq xalqi tabiat bilan azzaldan hamnafas bo‘lgan. Tabiatni ko‘p sir-asrorlarini bilgan va tabiatni sevgan. Biz aynan xalqni bu fazilatlarini og‘zaki yetib kelgan xalq naqllari va aforizmlarida uchratamiz. Xalq ichida shu tarzdagi iboralar doim takrorlanadi “Uch oy qovunim, uch oy qovog‘im, uch oy sovunim, uch oy shabag‘im”, bu o‘z navbatida Orolbuyi mintaqasida yashovchi xalqni ovqatlanish tartibi va unga amal qilishni ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Orolbo‘yi hududlarida yashovchi xalqlarni etnopsixologik xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz lozim. Qoraqalpoq xalqining milliy xarakterida ishonchlilik, qat’iyatlilik va sabrlilikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Qoraqalpoq xalqining milliy xarakterini avvalo, ularni ijtimoiy-madaniy meyorlari qadimdan yashash tarzi asosida shakllanib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Qoraqalpoq xalqining milliy o‘zlikni saqlashi etnik xususiyatlarga ega stereotiplardan ham iborat.

Qoraqalpoqlarda mehnatsevarlik, har bir ishning ko‘zini biladigan, tezda ilg‘ab olish qobiliyati, aql-idroki o‘tkir, milliy an’analariga sodiq va mag‘rurligi bilan ajralib

turadigan yaxshi rivojlangan fazilatlar mavjud. Qoraqalpoq xalqida oldindan atrof-muhit tabiatiga bo‘lgan munosabat subyektiv tarzda bo‘lganligi, mardlik, mas’uliyatlilik va qat’iylik fazilatlari tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, hazil-mutoyibaga moilligi, shaxslararo munosabatlarda faolligi, ijodiy fikrlashga moilligi, yaratuvchanglik tasavvurlarga ega ekanligi, har qanday vaziyatlarga ko‘nikuvchangligi, og‘zaki nutqni rivojlanganligini ko‘plab ularni yashash tarzidan tortib milliy an’analarida aks ettirilganining guvohi bo‘lamiz.

Respublikaning ma’muriy-hududiy tuzilmasi 15 ta tuman va 1 ta shahardan iborat. Bular Amudaryo, Beruniy, Qorao‘zak, Kegeyli, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Mo‘ynoq, Nukus, Taxtako‘pir, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Taxiatosh, Chimboy, SHo‘manoy, Ellikqal’a tumanlari va Nukus shahridir[6].

Bugungi kunda ushbu hududlarda ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlarining jadal sho‘rlanib borayotganligi, chang-to‘zonli cho‘l havosi ta’siri ostida aholi o‘ta fojiali holatta tushib qolganligi va turli ekologik noxush hodisalar yuzaga kelayotganligi hozirda keng jamoatchilikka ma’lum.

2020-yilning noyabr oyida Jahon banki Orol dengizining qurishining asosiy sababini shunday izohlaydi, qariyb 30 yil davomida suv resurslaridan turli xil suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlar, jumladan, paxta va sholi yetishtirishda foydalanish natijasida deyarli butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Bu atrof-muhit va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti uchun halokatli oqibatlarga olib keldi, shuningdek, ushbu mintaqada yashovchi millionlab odamlarning farovonligi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatdi", dedi o‘sha paytda tadqiqotchilar. Har yili Orolqumning qum va chang bo‘ronlari O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga 15 milliondan 75 million tonnagacha qum, chang va tuz olib keladi. Natijada tuproq eroziyasi va havoning ifloslanishi atrof-muhitga, inson salomatligi va farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [7].

Ekologik qiyin vaziyatlardan kelib chiqib N.B.Bisaliyev «Qoraqalpog‘istonda tug‘ilayotgan har bir bolaning nafaqat jismoniy salomatligiga e’tibor berish, balki nerv-psixik holatlariga ham ijtimoiy va tibbiy reabilitatsiyani amalga oshirish kerak», deb ta’kidlaydi [4].

Bir qator mualliflarning fikricha, Orolbo‘yi mintaqasida so‘nggi 20 yil ichida go‘daklar va umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarining ko‘payishi tufayli demografik ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yomonlashgan. Ushbu mintaqada o‘limning asosiy sabablari qon aylanish tizimi, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimlarining kasalliklaridir [8]. Aholi salomatligi davlatning eng muhim resurslaridan biri ekanligini inobatga olib, tibbiy-demografik holat va bu sohadagi kasallanish darajasini doimiy nazorat qilib borish zarur.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun “Orolbuyi mintaqisidagi aholini atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish” maqsadida savolnomalarni respondentlarning tabiatga munosabatlari qaysi sohalarda va qay darajada namoyon bo‘lishiga oid tajriba materiallari olindi. Ularda respondentlarning tabiat obyektlariga subyektiv munosabatlari jadalligi, atrof-muhit tabiatiga munosabatlari o‘rganildi.

O‘tkazilgan tadqiqot ishimizda olingan natijalar shundan dalolat beradiki, respondentlarimizning 71,6% i tabiatning yomonligi, atmosferada tuzli changning ko‘pligi, suv tarkibining yomonlashgani, bu holatlarning deqonchilikka salbiy ta’sir qilganligini qayd etganlar. Bu holat jamiyatimizga katta xavf-xatarni tug‘dirib, ekologik ahvolning yomonlashuvi nafaqat iqtisodiy hayot, balki odamlarning ruhiy olamiga ham jiddiy zarar keltirishi haqida fikr bildirganlar. Savolnomadagi “Ekologik vaziyatni yaxshilash” borasida qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishni ma’qullaysiz?-bu savolga javoban aholining 69,2 %i ekologik ahvolni yaxshilash choralardan biri bo‘lgan daraxt ekish masalasiga to‘xtalishdi. 15,4 % zararli chiqindilarni uzoqqa tashlash, 15,2% suvni tejash kerakligini ma’lum qilishgan. Katta yoshdagilar atrof-muhitni tozalash, ko‘kalamzorlashtirish ishlariga alohida e’tibor qaratishlari, biroq ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng ishlarning 80-90 % i kutilgan natijani bermasligini ham afsus bilan ta’kidlashgan. Buning sababi hududdagi ekologik vaziyatning o‘ta qaltisligi bilan bog‘liq. Chunki yerlarni sho‘r bosganligi, tuproqning tabiiy tarkibining buzilganligi, suv tanqisligi tufayli ekologiyaning muhim ko‘rinishlaridan biri ko‘kalamzorlashtirish borasida hududda amalga oshirilayotgan tadbirlar kutilgan samara bermaydi. Yangi ekilgan daraxtlar ko‘karmaydi, eskilari esa qurib boraveradi-degan fikrlarida kishilarni atrof-muhit tabiatidan qoniqmaslik hissini ko‘rsatib berdi.

Tadqiqotimiz natijalari bo‘yicha kuzatuvlarda aholining ruhiy holatidagi emotsionallik yuqori giperbolizatsiyalashgan ekologik ong shakli hamda xulq-atvorida o‘zlariga yoqmaydigan kungilsiz sifatlarni aks etayotganligi ma’lum bo‘ldi.

“Orolbuyi mintaqisidagi aholini atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish” maqsadida savolnomani dastlab ekologiyasi og‘ir bo‘lgan joylardan biri Muynoq tumani aholisida olib borildi. Bu savolnoma aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash va atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv estetik, axloqiy hamda strategik munosabatlariga aniqlik kiritish maqsadida qullanildi. Mazkur savolnoma 50 ta savollardan tuzilgan va savollar atrof-muhitga bo‘lgan munosabatni 5 ta yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib o‘tganmiz.
Aholining yosh xususiyatlarini ham hisobga olib respontendlarni 2 ta guruhga bo‘ldik. 1 guruh respondentlari 15-25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar, 2 guruh respondentlari 25 yoshdan 60 yoshdagi yetuk shaxslar.

Orolbuyi mintaqisidagi aholisi Muynoq tumanida tashkil etilgan 2 ta guruh respondentlari savollariga bergan javoblari quyidagicha

	Savolnoma yo‘nalishlari	Aholi munosabati (% hisobida)					
		Yuqori		O‘rta		past	
		15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar	15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar	15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar
1	Aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash	18,9	21,8	35,9	37,8	45,2	39,9
2	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv munosabati	36,7	32,4	39,6	46,5	23,7	21,9
3	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan estetik munosabati	19,6	23,7	34,7	37,3	45,7	38,1
4	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan axloqiy munosabati	27,8	34,2	36,7	39,8	35,5	24,2
5	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan strategik munosabati	24,9	23,8	34,7	37,8	58,5	38,8

Aholining birinchi guruh respondentlari 15-25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar “Aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash” birinchi yo‘nalish bo‘yicha qoniqish hislari juda past (39,9%) ko‘rsatkichni tashkil etdi, bu o‘z o‘rnida yashash sharoitlari mavjud ekologik muammolarga bog‘liq qiyin ahvolda ekanligini ta’kidlab o‘tgan hamda kelgusi maqsadli ishlarda strategik munosabat bilidirishga ishonch yo‘qligini bildirdi. Yoshlar “Aholining atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv munosabati” yo‘nalishidagi savollarda, ekologik muammolarni kelib chiqish sabablarini va

muammolarga qarshi kurashishga bo‘lgan bilimlarni olishga intilishi yuqori (36,7%) ko‘rsatkichda. Suhbat jarayonida esa, ular “Orol dengizi”ni qurib borishining hozirgi holatini saqlab qolishga fikrlarini bildirgan. Ammo, ularni fikrlari umumiy xarakterga ega. “Ekologik muammoga o‘z ulushingizni qo‘sha olasizmi?” degan savolga “Ha” deb javob berganlar. Ekologiyaga oid ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan va televideniye ko‘rsatuvlaridan olamiz, aynan kitob, jurnallarni deyarli o‘qimaganligini ko‘pchilik ta’kidladi. Ularni fikrida, har bir faoliyatida ertangi kundan xavotirlanishi, tashvishlanishi, ruhan tez-tez tushkunliklar bo‘lib turishini kuzatdik. Ularni bu javoblarida psixologik motivatsiyalarni yetarli emasligi, tajribalarni yetishmasligini ko‘rish mumkin. Shu sababli bo‘lsa kerak “Aholining atrof-muhitga bo‘lgan estetik munosabati” yo‘nalishidagi savollarda “foydasi yo‘q”-degan javobni ham ko‘ramiz. Birinchi guruh respondentlar tabiat obyektlariga bo‘lgan munosabatlari ikki xil qarashlarni tashkil qilganligini ko‘rish mumkin. Birinchisi atrof muhitdagi tabiat obyektlarni subyektiv idrok etishning ustunligi bilan tavsiflansa, ularga nisbatan "subektiv munosabat" ning mavjudligini ham ko‘ramiz. Ammo “Aholining atrof-muhitga bo‘lgan estetik munosabati” dagi javoblari atrof muhitdagi ekologik tanglik mavjud munosabatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Bu o‘z o‘rnida keyingi davrlarda tabiat obyektlariga “obyektiv idrok etish” ustunligini beradi. Suhbat jarayonida yoshlar o‘rtasida tabiat obyektlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda atrof muhitga kognitiv munosabatlarda bo‘lishi yetakchilik qilganligi, ular kognitiv motivatsiyani o‘zidan emas tashqaridan olishni kutishi ya’ni qullab quvvatlovchi, rahbatlantiruvchi omillarni so‘zlab berdilar. Har qanday shaxsni rivojlanishida shaxsiy o‘zini-o‘zi faollashtirish stimuli bo‘lishi kerak, ya’ni turli xil muammolar bilan kurashish uchun dastlab o‘zi anglab, tushunib harakat qilishlari maqsadga muvofiqdir. Atrof muhitdagi tabiat obyektlariga subyektiv munosabatlari bo‘la turib uni harakatga keltirmaslik bizni tashvishga soldi. Yoshlarga ijtimoiy ichki faollikni oshirib beruvchi, «jamoaviy ekologik ong»ni shakllantirib beruvchi “sog‘lom ekologik muhit”, “ta’limni ekologiyalashtirish” ya’ni ularga nisbatan tabiat obyektlari bilan o‘zaro munosabatda yetakchi motivatsiyalarni aniqlash zaruriyati tug‘ildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni bildirish mumkin, ekologik muammolarning insonga salbiy ruhiy ta’sirini bartaraf etish uchun aholi o‘rtasida psixologik xizmatning maxsus yo‘nalishini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ekologik ta’lim-tarbiyani alohida tadbirlar, mashg‘ulotlar orqali emas, har bir fanga ekologiyani singdirish asosida amalga oshirish lozim. Ta’limda olib boriladyotgan ustuvor vazifalarning biri sifatida atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni, olingan bilimlardan nafaqat samarali qaror qabul qilish, uning ijrosini ta’minlanishi maqsadga muvofiq. Atrof-muhitdagi tang ekologik stresslarga (koping stress) o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda antropomorfizmni saqlab qolishi, tabiatga gnoseologik yondashuvlarni kuchaytirishni nazarda tutishi lozim. Aholiga psixolog mutaxassislarni kumagi juda muhim. Aholining ekologik ongi rivojlanishini, mavjud etnik yoki milliy streotiplarni o‘rganishda kompleks tarzdagi psixologik yondashuvlar maqsadga muvofiqdir. Ekologik ta’lim-tarbiya masalalarida psixologik bilimlardan foydalanish samaradorligini oshirib borishni talab qilmoqda. Psixologik xizmatlar ekologik ongni rivojlantirish, ekologik vaziyatlarga psixologik bilimlarni oshirish uchun ekopsixologik treninglar, psixodiagnostik va psixokorreksion mashg‘ulotlarni bosqichma bosqich olib boruvchi konkret strukturaviy tizim yaratilishi lozim.Ekologik qiyin sharoitdagi aholiga psixokorreksion ishlarinin taqdim eta olishimiz kerak. Mashg‘ulotlar mazmunli va kelajakda deyarli barqaror fazilatlarni rivojlantiruvchi omil sifatida xizmat ko‘rsatish lozim. Psixokorreksiya mashg‘ulotlari tarkibga ko‘ra, kognitiv soha, shaxs xususiyatlari, emotsional soha, xulq-atvor sifatlarini, shaxslararo munosabatlar, guruh ichidagi munosabatlar (oilaviy, jamoaviy), bola-ota-ona munosabatlarini o‘z ichiga qamrab olgan umumiy kopleks tarzda ishlab chiqilishi zarur. Qolaversa, individual, jamoaviy va rasmiy jamoalar bilan ishlash dasturlarini ham alohida ko‘rib chiqish kerak. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar yordamida ekologik psixologiya muammolari bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish, ekologik psixologiya bo‘yicha adabiyotlar, o‘quv metodik tavsiyalarni ishlab chiqish lozim. Ekologik qiyin vaziyatda yashovchi insonlarga psixologik tashxis quyish, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarini uzluksizligini ta’minlash zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическая педагогика и психология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 483 с.
2. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Методологические проблемы становления и развития экологической психологии. //Психологический журнал, 1996, -№ 6, -С. 4 -18.
3. Панов В.И. Введение в экологическую психологию: /Учебное пособие. -М.: НИИ школьных технологий, 2006. – 184 с.
4. Аральский кризиси медико-социальные проблемы Каракалпакстана /Атаниязова О., Константинова Л.Г., Ешанов Т Б., Курбанов А.Б. – Нукус: Билим, 2001.-43с.
5. Джуманов С А. К вопросу о влиянии Аралской трагедии на здоровье населения Узбекистана и ликвидации ее последствий III меж.науч.конф.(г Санкт-Петербург, декабрь 2015г) 2015.-С.12-18
6. https://moluch.ru/conf/hist/archive/168/9212/ (дата обращения: 13.07.2022).
7. Qoraqalpog’iston respublikasining konstitutsiyasi. T. 1993y
8. Qaraqalpaq folklori mnogotomnik tom I. Nukus-1977
9. Qaraqalpaq folklor Ko’p tomli 43-56-tomlar.
10. Davqaraev N. Revolyutsiyaga shekemgi qaraqalpaq adebiyati tariyxinin ocherkleri, Nokis, 1961, str. 62
11. Koshanov B.A.″Qoraqalpog’iston tarixi ″ fani bo’yicha ma’ruzalar.2008y

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: № 796.332

Aziz SHERMUXAMEDOV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsent v.b.
E-mail: shermuxamedov.azizjon@mail.ru

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, ilmiy kotib p.f.b.f.d.(PhD) N.M Yusupov taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO THE STUDY OF TEAMS FOR THE 22-WORLD FOOTBALL CUP 2022

Abstract
Modern approaches to the analysis of football matches conducted by FIFA at the 22nd World Cup in 2022 in the Asian country of Qatar are given in this article. In particular, the study data and their content in the analysis of football matches according to 11 parameters are disclosed.
Key words: Football competition, competition activity, football world championship, parameters, statistical indicators, actions, offensive actions, defensive actions, news.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В ИССЛЕДОВАНИИ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ КОМАНД В 22-ЧЕМПИОНАТЕ МИРА ПО ФУТБОЛУ 2022 ГОДА

Аннотация
В статье отражены современные подходы к анализу футбольных матчей, проведенных ФИФА на 22-м чемпионате мира по футболу в 2022 году в Азиатской стране Катар. В частности, по 11 параметрам раскрыты данные исследования и их содержание при анализе футбольных матчей.
Ключевые слова: Футбольный турнир, соревновательная деятельность, чемпионат мира по футболу, параметр, статистика, действия, атакующие действия, защитные действия, новизна.

2022 YILGI FUTBOL BO‘YICHA 22-JAHON CHEMPIONATI MUSOBAQASIDA JAMOALAR TAYYORGARLIKLARINI TADQIQ ETISHDAGI ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Annotasiya
Maqolada 2022-yilda Osiyoning Qatar mamlakatida bo‘lib o‘tgan futbol bo‘yicha 22-Jahon chempionatida FIFA tomonidan amalga oshirilgan futbol uchrashuvlarini tahlil etishdagi zamonaviy yondashuvlar o‘z aksini topgan. Xususan, futbol uchrashuvlarini 11 ta parametr bo‘yicha tahlil etishdagi o‘rganish ma’lumotlari va ularning mazmuni ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Futbol musobaqasi, musobaqa faoliyati, futbol bo‘yicha Jahon chempionati, parametr, statistik ko‘rsatkichlar, harakatlar, hujum harakatlari, himoya harakatlari, yangilik.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 4-dekabr sanasidagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887-sonli Farmoni doirasida 2030-yilga qadar o‘zbek futbolini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishning aniq vazifalari va ko‘rsatkichlari belgilab berilgan [1]. Bu borada futbolchilarimizning tayyorgarliklarini zamon talablariga mosligi ta’minlash masalalari, asosiy e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Bunga erishishning yo‘llaridan biri sifatida, zamonaviy futbolning rivojlanish tomonlarini bilish asosida, tayyorgarliklarni shunga mosligini ta’minlash hisoblanadi [2,9]. Jahon chempionatlarining tahlilini amalga oshirish, o‘z navbatida sport turining rivojlanish tendensiyalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatlarini yaratadi [3,6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga kelib sport amaliyotida sportchilarning tayyorgarlik tomonlarini o‘rganish ishlari bilan bog‘liq ko‘pgina tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada L.P.Matveyev, V.P.Platonov, N.G.Ozolin, M.A.Godik kabi yetuk mutaxassislar tomonidan sportchilarni musobaqa faoliyatini nazorat qilish; tayyorgarlik turlari bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni to‘plash; musobaqa faoliyati tizimini aks ettiruvchilarini tadqiq etish va shular asosida sportchilarning tayyorgarliklarini tashkil etish bo‘yicha asoslangan nazariyalarni shakllantirilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi yillarda futbolning musobaqa faoliyati tizimini tadqiq etish, unda sportchilarning tayyorgarliklarini M.A.Godik (2010, 2016, 2018), B.G.Chirva (2014, 2016), V.M.Kostyukevich (2020), V.M.Shamardin (2013, 2014, 2016) D.L.Korzunlar (2018) tomonidan chuqur o‘rganishlar amalga oshirishgan. Mahalliy mutaxassislarimizdan R.I.Nurimov (2006, 2008), Sh.T.Iseyev (2014, 2016, 2018), N.M.Yusupov (2018), A.A.Artiqovlarning (2018) olib borgan izlanishlari ham, shu yo‘nalishdagi muammoli masalalarni qaysidir ma’noda hal etishga qaratilgan. Ta’kidlash kerakki, zamonaviy texnologiyalarni tobora kirib kelishi natijasida, musobaqa faoliyati tizimini tadqiq etishni yanada chiqurroq amalga oshirishning imkoniyatlari ko‘paymoqda. To‘planayotgan ma’lumotlar o‘z navbatida sohadagi muammolarni aniqroq anglashga, uning yechimlarini topishdagi asoslangan vositalar sifatida qaralib, futbolchilarni tayyorgarliklarini yanada samarali boshqarishga hizmat qilishi mumkin [7].

Tahlil va natijalar. Futbol bo‘yicha o‘tkaziladigan yirik musobaqalarda jumladan, jahon va yevropa chempionati musobaqalari doirasida FIFA va UYEFA tomonidan musobaqalarni tahlil qilish uchun mutaxassislarni jalb etish, tegishli faoliyatni amalga oshirish hamda turnirlardan so‘ng texnik hisobotlarni mutahassislar hukmiga havola etish ishlari amalga oshirilib kelinadi. 2022-yilda Osiyoning Qatar mamlakatida bo‘lib o‘tgan futbol bo‘yicha 22-jahon chempionati musobaqalari doirasida ham bu kabi ishlar amalga oshirildi. Chempionatda jamoalar tayyorgarliklarini o‘rganishda avvalgi yillarga qaraganda bir qator o‘zgarishlar qayd etilib, bu birinchi navbatda futbol mutaxassislarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Jahon chempionatida taniqli futbol mutaxassisi A.Venger boshchiligida faoliyat ko‘rsatgan o‘rganish jamoasi (statistlar) tomonidan avvalda statistik ma’lumotlar tariqasida qayd etilmagan bir qator ko‘rsatkichlar, parametrlar bo‘yicha musobaqalarda o‘rganish ishlari olib borildi. Yangi statistika «The 11 EFI metrics» (futbol intelektining chuqurlashtirilgan metrikasi) deb nomlandi [10]. Statistik ma’lumotlar uchrashuvlar namoishining ma’lum vaqtlarida (asosan 15, 30, 60, 80 daqiqalar atrofida) oynai jahon orqali teletomoshabinlar hukmiga ham havola etib borildi. Lekin shu o‘rinda to‘planib borilgan hamma statistik ma’lumotlarni televideniye telenamoishlarida havola etib borilmaganligini ham ta’kidlash kerak. Bunga ma’lum sabablar to‘sqinlik qildi. Gap shundaki, o‘rganib borilgan musobaqaning ayrim parametrlari katta hajmdagi statistik ma’lumotlar bilan ifoda etilishini talab etgan va ularning yaxlitligicha oynai jahon orqali namoish etishning iloji bo‘lmaganligidadir. Olib borilgan ishlar yakunida, to‘plangan ma’lumotlar texnik ekspertlarning tahlillari asosida futbolni chuqurroq, mazmunan tushunishda, yangi darajani paydo qilish imkonini berishini, tahlillarni amalga oshirgan guruhning rahbari A.Venger ta’kidlaydi. Quyida bu jahon chempionatida tahlil etib borilgan 11 ta parametr bo‘yicha ko‘rsatkichlarning mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz.

To’pni boshqarish. Shu kungacha futbol bo‘yicha musobaqalarni pedagogik tahlil etishda “jamoalar tomonidan to’pni egallash” ko‘rsatkichi ikki ko‘rinishdagi statistik ko‘rsatkichlari, ya’ni ikki jamoa tomonidan to‘pni egallashga sarflangan vaqt foiz nisbatlarida taqdim etib kelinar edi. So‘ngi bo‘lib o‘tgan jahon chempionatida bu ko‘rsatkichlar ikki emas uch ko‘rsatkich bilan izohlana boshlandi. Bular “jamoa 1” va “jamoa 2” tomonidan to‘pni boshqarishga sarflangan vaqt hamda uchinchi ko‘rsatkich “to‘p uchun kurash” harakatlariga uchun sarflangan vaqt ko‘rsatkichlarini tashkil etdi. Oxirgisi - bu shunday vaziyatki, har ikki jamoa ham bunda to‘pga egalik qilmagan holat bo‘lib, lekin bunday vaziyatda to‘p o‘yinda bo‘lganligi hisoblangan. Misol uchun, bunday vaziyatlarga jamoa o‘yinchisi uzoq masofaga to‘pni yo‘llagan vaqtda to‘pni havoda bo‘lishi, to‘p uchun havodagi yakkakurash baxslari, to‘pni “podbor” harakati orqali egallash kabi harakatlarga sarflangan vaqtlar hisoblab borilgan. Bu kabi harakatlarga sarflangan vaqtlar yangi, uchinchi ko‘rsatkich uchun ajratilgan vaqt ko‘rsatkichlariga kiritib borilgan.

To‘pni jamoaga qaytarish (ball recovery time). Taklif etilgan yangiliklardan yana biri - bu jamoalar tomonidan “to‘pni jamoaga tasarrufiga qaytarish” ko‘rsatkichini aniqlashni joriy etish bo‘ldi. Bunda jamoa futbolchilari tomonidan turli harakatlardan foydalangan holda, raqib tomonidan boshqarilayotgan to‘pni o‘z jamoasiga qaytarishga sarflangan vaqt ko‘rsatkichlari tadqiq etib borildi. Shuni ta’kidlash kerakki, oynai jahon orqali futbol musobaqalarini ko‘rib borayotgan futbol muxlislariga bu kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlarni vaqti-vaqti bilan taqdim etib borilishi, ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi. Ayniqsa, bu kabi ma’lumotlarni ko‘rsatib borilishi, soha mutaxassislarida katta qiziqish uyg‘otdi. Chunki, bu ko‘rsatkich jamoaning va xususan futbolchilarning tayyorgarliklari haqida xulosa chiqarishga ishonchli ko’rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Raqib jamoasi chiziqlarini yorib o‘tish (line breaks). Jamoalarning musobaqa faoliyatini tadqiq etishga joriy etilgan yana bir yangilik - bu “raqib jamoasi chiziqlarini yorib o‘tish” ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash hisoblanadi. Bu tasnifga kiruvchi harakatlarga hujum harakatlarini tashkil etib borishda himoyalanayotgan jamoaning ma’lum bir chizig‘ini (misol uchun yarimhimoya chizig‘ini) tashkil etuvchi ikki futbolchi orasidan to’pni oldinga bexato uzatish amalga oshirilgan va hujum harakati jamoa futbolchilari tomonidan davom ettirilayotgan bo‘lsa bu urinishni “raqib jamoasi chiziqlarini yorib o‘tish”ni muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblandi. Raqib jamoasi chizig‘ini “to‘p uzatish” texnik-taktik harakatidan foydalanish orqali yorib o’tishdan tashqari, “to‘pni olib yurish” texnik-taktik harakatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan samarali harakatlar ham hisobga olinib, shu ko‘rsatgichga tegishlisi sifatida baholandi.

Himoya chizig’ining yuqoriligi va jamoaning kompakt joylashuvi (defensive line height and team length). Chempionat davomida amalga oshirilgan o‘rganishlarning yaqqol yangicha ko‘rinishlaridan biri sifatida aynan shu o‘rganilgan ko‘rsatkichni keltirib o‘tish mumkin. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha keltirib borilgan va to‘plangan ma’lumotlar yakunda terma jamoalarning himoya harakatlarini tashkil etishdagi o‘ziga hos jihatlari bo‘yicha xulosalarni chiqarishga zamin yaratdi. Nazorat qilish davomida avtomatik tarzda musobaqa sharoitida jamoa tomonidan to‘pni boshqarish va himoyalanish fazalaridagi himoya harakatlarini tashkil etuvchi futbolchilarning (bunda himoyachi, yarimhimoyachi yoki hujumchilar bu chiziqlarni tashkil etishi mumkin) tashkil etayotgan chizig‘ining o‘rtacha yuqoriligi metrlarda o‘lchanib borildi. Harakatlarning kompaktligini aniqlashda esa, o‘yin sxemasi bo‘yicha harakatlanayotgan eng pastki va eng yuqoridagi o‘yinchining orasini tashkil etayotgan masofalar o‘lchanib borilgan (metrlarda).

1-rasm. Himoya chizig‘ining yuqoriligi va jamoaning kompakt joylashuvini

Raqib maydoniga kirib borish (final third entries).

To’pni bosim natijasida boshqa jamoa tasarrufiga o‘tishi (forced turnovers).

Bunda shunday vaziyatlar farqlanganki, unda jamoaning ma’lum bir faol harakatlari, bosimi natijasida to‘pni boshqa jamoadan tortib olish, jamoa tasarrufiga o‘tkazish vaziyatlari bo‘lgan. Bunda to’pni boshqarayotgan jamoaga qarshi bosimni o’tkazgan futbolchi bu harakatni samarali amalga oshirgan bo‘lsa, uning statistikasiga samarali harakatni qayd etilganligi qo‘shib borilgan. Agarda, ma’lum gurux futbolchilari bosim qilish natijasida to‘pni jamoaga qaytarishga muvaffaq bo‘lishgan bo‘lsa, u holda harakatlarda ishtirok etgan har bir futbolchiga ball berib borish bilan statistika amalga oshirilgan.

Pressing harakatlar (pressure on the ball). Yuqoridagi ko‘rsatkichdan farqli ravishda, bu o‘rganish statistikasida barcha turdagi qo‘llanilgan bosimlar hisoblab borilgan. Bunda samarasiz amalga oshirilgan harakatlar ham qayd etib borilgan ya’ni, bosim natijasida to‘pni jamoaga qaytarishga muvaffaq bo‘lmagan harakatlar ham qayd etilgan.

Zamonaviy futbolda tobora dolzarb bo‘lib borayotgan tushunchalardan biri sifatida, shubxasiz raqib boshqaruvi va nazoratidagi to‘pni jamoaga qaytarishda, jamoaning ma’lum guruhlari yoki yakkatartibda futbolchi tomonidan foydalaniladigan pressing harakatlaridan foydalanish omilini ko‘rsatib o‘tish joiz [8].

Kutilayotgan gollar (expected goals). Bu ko‘rsatkich jamoaning darvoza tomon zarba beriladigan vaziyatlar kontekstini hisobga olgan holda, vaziyatlarning shiddatlarini belgilab beruvchi ko‘rsatkich hisoblangan.

Jamoaning sxemasi (team shape). Bu jamoada harakatlanayotgan o‘yinchilarning musobaqa fazalari vaqtida maydonda egallagan o‘rtacha pozitsiyalariga asoslangan ko‘rsatkichlar bo‘lgan. Tahlil natijalariga ko‘ra jamoaning to‘pni boshqarishda ya’ni, hujum harakatlarini tashkil etishdagi futbolchilarning joylashuvlari yoki to‘psiz harakatlanishda ya’ni, himoya harakatlarini tashkil etishdagi futbolchilarning maydondagi joylashuvlari aniqlab borilgan.

To‘pni raqibning himoya va yarimhimoya chiziqlari ortida qabul qilish (receptions behind midfield and defensive lines). Bu shunday harakatlarki, unda raqib himoya chizig‘ini tashkil etuvchi sxema ortida yoki chiziqlar orasidan qabul qilib olingan, samarali amalga oshirilgan to‘p uzatishlardir. Ko‘rsatkich, chiziqlarni yorib beruvchi to‘p uzatishlar bilan chambarchas bog‘liq lekin, bu o‘rinda asosiy figura bu – to‘pni qabul qilib olayotgan futbolchining harakatlari hisoblanadi. Bu futbolchining samarali harakatlari asosiy qayd etilayotgan ko‘rsatkich sifatida baholandi.

O‘yin fazalari (phases of play). Yana bir joriy etilgan ko‘rsatkichlardan biri – bu “o‘yin fazalari”ni tadqiq etish va aniqlash bo‘ldi. Buning uchun musobaqa faoliyati jarayonini tadqiq etishda uchrashuvda qayd etiladigan vaziyatlar 15 ta turli fazalarga tasniflangan holda o’rganildi. Bunda 9 ta faza jamoaning himoya harakatlarini tashkil etishda va 6 ta faza hujum harakatlarini tashkil etish jarayonlarida qayd etildi. Xususan, himoya harakatlarini tashkil etishda “pastki blok”, “o‘rta pressing”, “himoyalanish sxemasiga o‘tish” fazalari farqlandi. Hujum harakatlarini tashkil etishda “qarshi hujum”, “bildap”, “uzoq to‘p uzatishlar” kabi fazalarga bo‘lingan holda uchrashuvlar tadqiq etib borildi. Bunda har bir faza uchun sarflanib borayotgan vaqtlarning hisobi amalga oshirildi va natijalar foiz ko‘rsatkichli nisbatlarda havola etib borildi.

2-rasm. Jamoa hujum harakatlarini tashkil etishda o‘yin fazalari
(% nisbatlarida keltirilgan)

3-rasm. Jamoa himoya harakatlarini tashkil etishda o‘yin fadalari (% nisbatlarida keltirilgan)

Ta’kidlanganidek, barcha statistik ma’lumotlar telenamoishlar orqali havola etilmadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, yuqorida ko‘rib chiqilgan statistik ma’lumotlarning ba’zilari rejissyorlar tomonidan asosan namoish etib borildi. Birinchi galdagi ommalashgan ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, bu – “to‘pni boshqarish” bo‘yicha qayd etilayotgan ma’lumotlar hisoblandi. Misol tariqasida 4-rasmda chempionat doirasidagi Argentina – Avstraliya jamoalari o‘rtasidagi uchrashuv davomida to‘pni boshqarishdagi ko‘rsatkichlar keltirilgan (rasmning pastki o‘ng burchagida). Ko‘rinib turibdiki uchrashuvning 12-daqiqasiga kelib, Argentina terma jamoasi to‘pni boshqarish bo‘yicha 73%, Avstraliya jamoasi esa, 19% ko‘rsatkichlarga ega va qolgan 8% vaqt esa, “to‘p uchun kurash” harakatlariga sarflangan vaqtni tashkil etgan.

4-rasm. “To‘pni boshqarish” ko‘rsatkichlari bo‘yicha jamoalarning natijalari

Mutaxassislarda katta qiziqish uyg‘otganlar ichida shubhasiz “to‘pni jamoaga qaytarish” ko‘rsatkichlari hisoblandi. Bu ko‘rsatkich jamoaning bir qator tayyorgarliklari haqida ishonchli ma’lumot beruvchi ko‘rsatkich sifatida baholanishi mumkin. Xususan, bu ko‘rsatkich jamoa futbolchilarining funksional, jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklari haqida xulosa chiqarishga asos bo‘lishi mumkin. Bunda jamoa qanchalik raqib boshqaruvidagi to‘plarni o‘z tasarruviga qaytarishdagi faolliklari yuqori bo‘lsa, harakatlarni qisqa fursatlarda samarali tarzda amalga oshirsa, shunchalik jamoaning jismoniy, funksional hamda texnik-taktik tayyorgarliklari ham yuqori ekanligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Birinchi galda ta’kidlash joizki, yirik musobaqalarda jamoalarning tayyorgarliklarini tadqiq etish natijalari, bugungi kundagi sport turidagi rivojlanish tendensiyalari haqida fikr yuritishga imkon yaratuvchi muhim omillardan biri ekanligini anglash joiz.

Futbol bo‘yicha 22-Jahon chempionati musobaqalarida FIFA tomonidan olib borilgan musobaqa faoliyatlarini tadqiq etish, avvalda olib borilgan ishlarga nisbatan bir qator yangiliklari bilan farqlandi. Jamoalar tayyorgarliklarini o‘rganishda bir qator, avvalda o‘rganilmagan parametrlarni tadqiq etishga qaratilgan, keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib borildi. Katarda FIFA tomonidan amalga oshirilgan ishlar – bu futbolni anglashdagi, uni professional faoliyat sifatida o‘rganishdagi oldinga tashlangan katta qadam hisoblanadi. Yakunda olingan natijalar esa, jamoalarni tayyorlash tizimida foydalanib, rivojlanishdagi tendensiyalarga mos tarzda tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Masalaning ikkinchi tarafi sifatida bu – to‘planib borilayotgan ma’lumotlarni teletomoshabinlar hukmiga havola etib borishdagi xususiyatlar hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, to‘planib borilayotgan katta ko‘lamdagi, jamoalar va futbolchilar tayyorgarlik turlarini aks ettiruvchi statistik ma’lumotlarning barchasini oddiy tomoshabinlar hukmiga havola etish imkoni bo‘lmagan. Chuqurlashtirib tahlil qilingan ko‘rsatkichlarning katta qismini translasiyalar davomida teletomoshabinlar va mutaxassislar hukmiga namoish etilmadi. Translasiya rejissyorlari tomonidan o‘rganilgan 11 parametr bo‘yicha faqatgina 3-5 tasini namoish etishning imkoni bo‘ldi xolos. Ulardan ham 2 tasiga (“to‘pni boshqarish” va “to‘pni jamoaga qaytarish”) asosiy urg‘u berildi va uchrashuvlar vaqtida jamoalar qayd etayotgan ko‘rsatkichlar namoish etib borildi.

Jamoalarning musobaqa faoliyati tizimlarini aks ettiruvchi to‘plangan ma’lumotlar, futbol mutaxassislariga katta “xazina” sifatida xizmat qilishi mumkin. Natijalar bugunki kun futbolini rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsatib beradi. Jamoalarning hujum yoki himoyadagi taktik harakatlarini tashkil etish borasida, ma’lum texnik-taktik harakatlardan foydalanishda, futbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarliklari borasida muhim ma’lumotlarni ko‘rsatadi. Bu jamoalarni tayyorlashdagi keyingi rejalashtirish ishlarini yanada maqsadli, ratsional tarzda amalga oshirishga, zamon talablariga mosligini ta’minlashda qo‘l keladigan manba sifatida hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5887-sonli Farmoni. 2019 yil 4 dekabr.
2. Давидов А.Э. Анализ технико-тактических действий футболе. Международный научный журнал “Актуальные исследования”. № 14 (17) 2020.
3. Антоненко О.В. Все, что вы хотели знать об английском футболе [Электронный ресурс] // Корр. Олег Антоненко, Виктор Нехезин и Александр Баранов. 2016.
4. Матвеев Л.П. К теории построения спортивной тренировки. Теория и практика физической культуры. 1991. № 12. С. 11–20.
5. Лисенчук Г.А. Управление подготовкой футболистов / Г.А. Лисенчук. – Киев: Олимпийская литература, 2003. – 271 с.
6. Костюкевич В.М. Управление тренировочным процессом футболистов в годичном цикле подготовки: монография. 2-е изд. Киев: КНТ, 2016. 683 с
7. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория ее практические приложения: учеб. для тренеров. Кн. 1. Киев: Олимпийская литература, 2015. 680 с
8. Чирва Б. Г. Футбол. Концепция технической и тактической подготовки футболистов. Москва: ТВТ Дивизион, 2008. 336 с.
9. Shermuxamedov A.T. Maxsus o‘yin chidamliligini futbolchilarda aniqlash va baxolashdagi o‘ziga xos xususiyatlar. T.: Fan-sportga. – 2022. - № 8. – s. 28-30.
10. https://www.fifatrainingcentre.com/en/fwc2022/post-match-summaries/post-match-summary-reports.php

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.03

Zamira SHIRNAZAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: zamira@cspi.uz

F.f.f.d., dotsent Z.Sanakulov taqrizi asosida

ABOUT THE INTRODUCTION OF THE SCIENCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION INTO THE CURRICULA OF HIGER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

Abstract
This article discusses the introduction of the subject "Intercultural communication" taught as a separate subject in the teaching of foreign languages into the curricula of higher educational institutions of Uzbekistan.
Key words: Science of intercultural communication, foreign languages, country studies, factual and statistical data.

О ВНЕДРЕНИИ НАУКИ МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ В УЧЕБНЫЕ ПРОГРАММЫ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация
В данной статье рассматривается введение предмета «Межкультурная коммуникация», преподаваемого как отдельного предмета при обучении иностранным языкам, в учебные планы высших учебных заведений Узбекистана.
Ключевые слова: Наука о межкультурной коммуникации, иностранные языки, страноведение, фактические и статистические данные.

MADANIYATLARARO MULOQAT FANINING O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QUV DASTURLARIGA KIRIB KELISHI HAQIDA

Annotatsiya
Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda alohida fan sifatida o‘qitiladigan “Madaniyatlararo muloqot” fanining O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kirib kelishi haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Madaniyatlararo muloqot fani, xorijiy tillar, mamlakatshunoslik, faktik va statistik ma’lumotlar.

Kirish. Xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish uzoq tarixga ega ekanligi, insoniyat o‘zi yashab turgan hududiy chegaralarini kesib o‘tgach, xorijiy tillarni o‘rganishni boshlagini barchamizga ma’lum. Chunki boshqa jamiyat vakillari bilan muloqot qilish uchun til bilish zarurat edi. Taraqqiyot davomida xorijiy tillar tezda o‘zlashtirila boshlandi. “Dastlab chet tilni o‘rganish pragmatik va kosmopolit maqsadlarni ko‘zlagan”. Til bilan parallel ravishda begona madaniyatga moslashuv jarayonida yordam beradigan mamlakat haqidagi bilimlar ham o‘zlashtirildi.

Madaniyatlararo muloqotni fan sifatida shakllanish tarixini o‘rgangan YE.V.Kolyanikovaning yozishicha, “XVIII asrgacha ta’lim muassasalarida asosan qadimgi yoki “o‘lik” til deb atalgan tillar, xususan, lotin va yunon tillari o‘qitilgan. Ushbu tillarni o‘zlashtirish boshqa fanlar, masalan, falsafa, adabiyot, din yoki tibbiyotni o‘rganish uchun asos bo‘lgan. Zamonaviy tillar o‘quv dasturiga kiritilmagan. Zamonaviy chet tillari chet elda bo‘lish yoki shaxsiy aloqalar orqali o‘rganilgan. Chet tillarini o‘rganishda realistik yondashuv XIX asrning oxiriga qadar Yevropada ta’lim islohotlari amalga oshirilib, zamonaviy xorijiy tillar maktab ta’lim dasturiga kiritilgunga qadar davom etdi. O‘sha davrda zamonaviy chet tillarini o‘qitish an’analari va o‘qitish metodikasi mavjud emas edi. Shu sababdan “o‘lik” tillarni o‘qitish didaktikasi, ya’ni ma’lum sohaga oid yozma matnni qo‘llash, zamonaviy tillarni o‘rganishga o‘tkazildi. Lekin zamonaviy tillarni o‘zlashtirish jonli muloqotga asoslangan bo‘lishi kerak”.

Asosiy qism. Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi o‘tgan asrning 50-yillarida amerikalik antropolog Edvard T. Xoll tomonidan kiritilgan. Xoll olimlar orasida birinchi bo‘lib madaniyatni o‘rgatish kerak degan xulosaga keldi. Shundan so‘ng madaniyatlararo muloqot nazariyasi rasman eng muhim ilmiy va ta’lim fanlaridan biriga aylandi.

Madaniyatlararo muloqot xorijiy tillarni o‘qitishda alohida fan sifatida o‘zlashtiriladi. [Eckerth, 2003,15b.] Bunda o‘rganuvchilarda faqat til materiallarini o‘zlashtirib qolmasdan, turli madaniyat vakillari bilan muloqotga kirisha olish kompetensiyasi ham shakllanadi. “Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e’tibor bergan holda tahlil qilishdan , farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiya ya’ni muloqotni osonlashtirish va to‘qnashuvlarning oldini olishdan iborat. . [Usmanova 2017,5 b.] O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari xorijiy tillar yo‘nalishlarida shu jumladan Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha), Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (tillar bo‘yicha), Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha) ,Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo‘yicha) “Madaniyatlararo muloqot” alohida fan sifatida o‘qitiladi. Fan maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda turli ta’lim yo‘nalishlarida turlicha nomlanadi:

Madaniyatlararo muloqot

Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish

Madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik

O‘tgan asrning 80-yillarida xorijiy tillarni o‘qitishning dunyo tajribasida paydo bo‘lgan yangicha yondashuv madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan edi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xorijiy til yo‘nalishlarida “Mamlakatshunoslik” fani o‘qitilar va bunda tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi faktik va statistik ma’lumotlar berilar edi. Masalan tili o‘rganilayotgan mamlakatning geografik joylashuvi, hududiy bo‘linishi, aholisi va boshqalar.

2012 yilga kelib ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv dasturlarida Madaniyatlararo muloqot tushunchasi alohida fan sifatida o‘qitila boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchilardan bo‘lib 2012 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “Nemis tili o‘qitish metodikasi”kafedrasi mudiri filologiya fanlari nomzodi, professor Raximov Xurram Raximovich tomonidan tuzilgan Xorijiy tillar va adabiyoti (Nemis tili va adabiyoti) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun O‘quv dasturi (O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2012 yil 14-martdagi 107-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan) “Mamlakatshunoslik va madaniyatlararo muloqot” deb nomlangan. O‘quv dasturining kirish qismida “Mamlakatshunoslik va madaniyatlararo muloqot fanida talabalar Germaniya madaniyati, tarixi, adabiyoti, urf-odatlari va an’analaridan voqif bo‘lishadi. [Raximov 2012, 3b.] kabi jumlalar keltirilganligi Xorijiy tilllarni o‘qitishdagi yangicha yondashuv paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Germaniya va nemiszabonlar o‘zbeklar nigohida. O‘zbeklar nemiszabonlar nigohida. Nemiszabon mamlakatlik muxojirlar. O‘zbeklar nemiszabon mamlakatlarda.

Nemiszabon mamlakatlarning davlat sifatida tarkib topishi va rivojlanishi. Turli tarixiy davrlarda nemiszabon mamlakatlar.

Germaniya geografiyasi. Germaniya iqlimi va tabiati. Germaniya tog‘lari, o‘rmonlari, vodiy va tekisliklari, daryo va ko‘llari. Nemiszabon mamlakatlarning administrativ-territorial joylashuvi. Siyosiy va tabiiy xarita yordamida mashg‘ulot.

Germaniya saylov tizimi. Sudlar. Gazeta va internet xabarlari misolida.

Nemiszabon mamlakatlarda dinlar. Nemiszabon mamlakatlarda Islom dini. Nemis musulmonlari.

Nemis adabiyotining muxtasar tarixi. Nemiszabon mamlakatlarda tasviriy san’at. Ko‘rgazmalar va muzeylar. Klassik va zamonaviy teatr.

Nemis jamg‘armalari. Akademik hayot. Nemiszabon mamlakatlarda maorif va ta’lim. Maktablar, kollejlar va litseylar. Nemis oliy o‘quv yurtlari tizimi.

Nemiszabon mamlakatlarda siyosiy hayot. Tashqi va ichki siyosat. Nemiszabon mamlakatlarning Yevropadagi va jahondagi o‘rni.

Nemiszabon mamlakatlarda ijtimoiy hayot. Nikoh va oila. Nikoh tartibotlari va shartnomalari. Oilani rejalashtirish. Oila turlari. Oilasimon tuzilmalar. Qariyalar turmush tarzi. Qariyalarga munosabat.

Ish va ishsizlik. Kasbga va mehnatga munosabat. Ijtimoiy yordam.

Nemiszabon mamlakatlardagi kundalik hayot. Ish – umr garovi. Dam olish. Bo‘sh vaqt va uni band qilish. Yegulik va ichguliklar. Uyda va ko‘cha-ko‘yda ovqatlanish.

Nemis, shveytsar va avstriya mentaliteti. Tipik nemischa voqea-hodisa va urf-odatlar. Nemischa fazilat va nuqsonlar. Nemiszabonlar – chet ellik va muhojirlar nigohida. Germaniya bayram va tantanalari. Nimasi bilan o‘rtacha nemis, rus va o‘zbeklardan farq qiladi? Nemiszabon mamlakatlarda sog‘liqni saqlash va sog‘liqqa munosabat, Cport.

Nemiszabon mamlakatlarda matbuot. Nemis gazeta va jurnallari. Televideniye va internet. [Raximov 2012, 3b.] kabi mavzular kiritilgan bo‘lib, shu orqali til o‘rganuvchilari tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga xos bo‘lgan aniq hayotiy vaziyat,haqiqiy an’analar,mentalitet, shuningdek kundalik xatti-harakatlar, noverbal muloqot shakllarini o‘zlashtirishlari uchun imkon yaratildi.

To‘g‘ri keyinchalik yaratilgan o‘quv dasturlarida “Madaniyatlararo muloqot” fani “Mamlakatshunoslik” dan alohida fan sifatida ajratildi va mavzular berilishi ham takomillashtirildi.Professor Raximov tomonidan tuzilgan o‘quv dasturi esa fanning O‘zbekistonga kirib kelishida va xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvning paydo bo‘lishidagi ilk qadam bo‘lgan.

ADABIYOTLAR

1. Brislin R., Yoshida T. Intercultural Communication Training: an Introduction. London/ New Delhi: Sage Publications. 1994.
2. Борисова Е.Н. Историко-педагогический анализ формирования компетенций студентов вузов (на опыте иноязычной подготовки) // Вестник московского института государственного управления и права. 2015, № 10.
3. Hall E.T., Hall M.R. Understanding Cultural Differences: keys to success inWest Germany, France and the United States. Yarmouth: Intercultural Press. 1989.
4. Hofstede G. Interkulturelle Zusammenarbeit. Wiesbaden: Gabler. 1993.
5. Киреева И.А. Социально-культурные условия формирования компетенции межкультурного общения студенческой молодежи: диссертация ... кандидата педагогических наук. – Тамбов, 2009.
6. Raximov X. Xorijiy tillar va adabiyoti (Nemis tili va adabiyoti) ta’lim yo’nalishi talabalati uchun O’quv dasturi (O’zbekiston respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2012 yil 14-martdagi 107-sonli buyrug’I bilan tasdiqlangan)
7. Schwabe E. Interkulturelle Kommunikation. Springer: Fachmedien Wiesbaden GmbH, 2017.-P.31

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK 796.1 .011

Po‘lat SHOKIROV,
Toshkent davlat texnika universiteti «Jismoniy tarbiya va sport» kafedrasi mudiri
E-mail:PulatK@mail.ru

TDTU katta o‘qituvchisi Tashtayev SH.D taqrizi asosida

GOING IN FOR SPORTS WITH ANEMIA (ANEMIA)

Annotation
The article tells about what sports can be practiced with anemia, methods for determining the state of anemia and prevention. The research work was carried out among 1st and 2nd year students of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov. The results obtained were analyzed and recommendations were developed.
Keywords: Students, sports, anemia, hypoxia, physical culture.

ЗАНЯТИЕ СПОРТОМ ПРИ МАЛОКРОВИИ (АНЕМИЯ)

Аннотация
В статье рассказывается о том, какими видами спорта можно заниматься при анемии, методах определения состояния анемии и профилактики. Исследовательская работа проводилась среди студентов 1 и 2 курсов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова. Полученные результаты были проанализированы и разработаны рекомендации.
Ключевые слова: Студенты, спорт, анемия, гипоксия, физическая культура.

KAMQONLIK(ANEMIYA) HOLATIDA SPORT BILAN SHUG‘ULLANISH

Annotatsiya
Maqolada anemiya kasalligi holatida qanday sport turlari bilan shug‘ullanish mumkin ekanligi, anemiya holatini aniqlash usullari va profilaktikasi haqida so‘z boradi. Tadqiqot ishi Islom Karimov nomli Toshkent davlat texnika universitetida 1,2- kurs talabalari orasida o‘tkazildi. Olingan natijalar tahlil qilinib tavsiyalar ishlab chiqildi.
Kalit so‘zlar: Talabalar, sport, anemiya, gipoksiya, jismoniy tarbiya.

Kirish. Jismoniy tarbiya har bir insonning hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Jismoniy faollik insonni jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashda eng muxim omillardan hisoblanadi. Ammo tanada temir moddasining tanqisligi anemiya, ya’ni kamqonlikni keltirirb chiqaradi va bunday holatda sport bilan shug‘ullanganda kuchli toliqish, bosh aylanishi, og‘rishi kuzatiladi. Bu holat tanada kislorod tanqisligi(gipoksiya) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ho‘sh anemiyasi bor inson sport bilan shug‘ullansa bo‘ladimi? Anemiya holatini qanday aniqlash mumkin?

Zamonaviy manbalarga ko‘ra, anemiya patologik holat bo‘lib, unda eritrotsitlar - qizil qon tanachalari va gemoglobin darajasining pasayishi kuzatiladi. Natijada to‘qimalarga kislorod etkazib berish azoblanadi, bu esa to‘qimalarning gipoksiyasini keltirib chiqaradi.

Anemiya nima? Har bir katta yoshli odamning tanasida taxminan 5 litr qon mavjud. Agar siz o‘z tanangizda qancha qon borligini bilmoqchi bo‘lsangiz, unda eslab qoling — bu tana vaznining 7 foizini tashkil qiladi. Qon o‘zining asosi bo‘yicha tarkibida tuzlar bo‘lgan suvdir, ammo uning eng muhim tarkibiy qismi qon ichida aylanib yuradigan hujayralardir. Ushbu hujayralar suyak iligida hosil bo‘ladi va ularning qiymatini ortiqcha baholash qiyin. Eritrotsitlar, ya‘ni qizil qon tanachalarining o‘zigina o‘pkadan chiqadigan kislorodni tanamizning barcha to‘qimalariga yetkazadi va shu bilan nafas olishda qatnashadi. Aynan ular qonni qizil rangga kiritadi. Boshqalari, masalan oq qon hujayralari bizni mikrob va viruslardan himoya qiladi. Va nihoyat, uchinchi xil hujayralar — trombotsitlar, shikastlanganimizda qon ketishini to‘xtatadi. Agar qaysidir hujayra miqdori juda kamayib ketsa yoki o‘z funksiyasini bajarishdan to‘xtasa, sog‘ligimiz yomonlashadi.

Yaxshiyamki, tanamiz mukammal moslashish qobiliyatiga ega va vaqt o‘tishi bilan eritrotsitlar yoki gemoglobinning yetishmasligi o‘rnini qoplay oladi (Tog‘li hududlarda yashaydigan insonlarning kislorod bosimi kam bo‘lgan siyrak havoga qanday moslashganini eslash kifoya). Biroq, ertami-kechmi, organizm kamqonlikka qarshi turish va uning oqibatlarini yashirish uchun sarf etiladigan kuchini yo‘qotadi. Bunday holda, kamqonlik belgilari paydo bo‘lishni boshlaydi.

Anemiya odatda turli patologiyalar natijasida yuzaga keladi, u turli kasalliklarning namoyon bo‘lishidan biri hisoblanadi. Erkaklarda gemoglobinning 120 g/l dan, ayollarda 110 g/l dan kam kamayishi kamqonlik deb hisoblanadi.

Anemiya ko‘p sabablarga ko‘ra rivojlanishi mumkin:
Kasallik
Noto‘g‘ri ovqatlanish
Fiziologik muammolar (ayollarda)

Ovqat hazm qilish tizimi tufayli anemiya xavfi ortishi mumkin. Bunga gastrit, buyrak yetishmovchiligi, oshqozon yarasi, siroz kiradi.

Bundan tashqari, endokrin tizimi patologik holatlari ham anemiyaga olib kelishi mumkin. Qandli diabet, qalqonsimon bez muammolari va hipotiroidizm temir tanqisligi sabablaridan biridir.

Anemiyaning sababi oddiy, noto‘g‘ri ovqatlanish bo‘lishi mumkin. Qonda gemoglobinning kam bo‘lishi B6 va B12 vitaminlarini o‘z ichiga olgan oziq-ovqat yetishmasligi tufayli yuzaga keladi. Qonda temir moddasini ko‘tarish uchun pevzner bo‘yicha 4-parxez stoli bo‘yicha ovqatlanish zarur. Bu parxez soli tarkibida temirga boy maxsulotlar(go‘sht, tuxum, baliq, lavlagi noxot, grechka, anor) kiritilgan. Mol go‘shti bunday vitaminlarni olish uchun eng muhim

komponent hisoblanadi, anor temirni qonga yaxshi singdiradi, grechka ham inson tanasida gemoglobinni saqlashga va oshirishga yordam beradi.

Anemiya belgilari. Kamqonlikning asosiy belgisi — doimiy charchoq hissi. Buning ajablanarli joyi yo‘q: hujayralar kam kislorod olgach, uni tejaydi va avvalgidan kamroq faol ishlay boshlaydi. Ammo, agar siz charchagan bo‘lsangiz, sizda anemiya bor deb qat‘iy aytib bo‘lmaydi — charchashning boshqa sabablari ham bo‘lishi mumkin.

Anemiyaning boshqa belgilari orasida nafas qisishi, ishchanlik va diqqat pasayishi, serjahllik mavjud. Kishi o‘zini «begona sayyorada» his qila boshlaydi: bu ajablanarli emas, chunki tana to‘qimalari ular uchun juda zarur bo‘lgan darajada kislorod qabul qilmayapti! Anemiya kuchaygani sayin terining rangi oqarib ketadi hamda qo‘llar va oyoqlar sovuq bo‘lib, doimiy muzlaydi.

Yana bir belgi -bu yurak urishi tezlashishi: yurak hech bo‘lmasa shu yo‘l bilan to‘qimalarga ko‘proq qon yetkazib berishga va kislorod yetishmasligini sifat orqali emas, miqdor orqali qoplashga harakat qiladi. Uning fonida bosh aylanishi va og‘rig‘i paydo bo‘lishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, barchamiz kamida bir marta kamqonlikning qaysidir belgisini boshdan kechirganmiz. Ular ajablanarli darajada o‘ziga xos emas — tezlashgan puls, nafas qisilishi, charchoq va hatto yengil bosh aylanishi oddiy yugurishdan keyin ham paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu alomatlar mavjudligi faqatgina anemiyadan shubhalanishga yordam beradi, ammo ularning yordami bilan tashxis qo‘yish mumkin emas.

Agar bu alomatlar mavjud bo‘lsa, kelajakdagi muammolarni oldini olish uchun shifokor bilan maslahatlashib, umumiy qon tahlilini o‘tkazish kerak, chunki anemiya insonni yanada jiddiy kasalliklariga olib keladigan holat hisoblanadi.

Anemiyaning 3 bosqichi mavjud:

yengil - qondagi temir darajasi 90-109 g / l;

o‘rtacha darajada - 70-89 g / l;

og‘ir - 70 g / l dan kam.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Anemiya va sport mavzusida ko‘pgina tadqiqot ishlari o‘tkazilgan. Sport bilan shug‘ullanadigan talabalarda temir zahiralarining kamayishi qondagi jismoniy ko‘rsatkichlarning pasayishiga sut kislotasining ko‘payishi (chunki sutkislotasidan xalos qilishda qonning asosiy buferi gemoglobindir) kislorod va karbonat angidridning qondagi gaz gradientlari o‘zgartiradi, va bu o‘z navbatida haddan tashqari mashq qilish va ortiqcha kuchlanish va zo‘riqish salbiy oqibatlarga olib keladi. Og‘ir holatlarda temir tanqisligi mushaklarning atoniya va miyoglobin yetishmovchiligi, kardiopatiya va turli visseropatiya rivojlanishiga olib keladi.[1]

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). TDTU turli fakultetlari, 2- kurs talabalarining suvda suzishga bo‘lgan munosabatini o‘rganish.

Qoy‘ilgan vazifalar:

1. Talabalar orasida anemiya holatlarini aniqlash;

2. Anemiyasi bor talabalar uchun alohida mo‘ljallangan jismoniy mashqlar turini o‘rganish;

3. Anemiya holatidagi talabalar bilan maxsus ishlash.

Tadqiqot usullari: maxsus adabiyotlarni o‘rganish, tibbiy na pedagogik nazorat o‘tkazish, matematik ma‘lumotlarni qayta ishlash. O‘quv obyekti: TDTU energetika, Mexanika va Geologiya qidiruv, kon-metallurgiya fakultetlarining 1, 2-kurs talabalari. Tadqiqot ishida 18-27 yoshli 21 nafar talaba yoshlar ishtirok etdi.

Texnika oliy o‘quv yurtida harbiy kafedra mavjud bo‘lib, unda o‘qishga talabgorlar talaygina. Ammo xarbiy kafedraga jismoniy holati, salomatligi talab darajada ekanligini aniqlash uchun saralab, imtixin qilib olinadi. Ana shu tekshiruvlar natijasida ko‘pgina yoshlarda anemiya aniqlanadi. Bu esa xarbiy kafedrada og‘ir jismoniy yuklamalarni bajarishga to‘sqinlik qiladi.

-Tahlil va natijalar. Ma‘lum bo‘lishicha, tadqiqot ishtirokchilarining 18 % mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin ham kamqonlik bilan kasallangan. Olti oylik intensiv mashg‘ulotlardan so‘ng ularning ulushi deyarli uch baravar ko‘payib, 50% dan oshdi. Temir tanqisligi bilan og‘rigan yoshlar ulushi 15% dan 27% gacha ko‘tarildi. Biroq, tadqiqot ishtirokchilarida mashqlardan oldin anemiya alomatlari bor-yo‘qligi haqida xabar bermagan.

- Xulosalar va tavsiyalar. Har bir inson sport bilan shug‘ullanadi: maktabda, universitetda, bo‘sh vaqtlarida. Ammo anemiya bilan jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish mumkinmi? Keling, ushbu masalani batafsil tahlil qilaylik.

Tabiiyki, kuchli jismoniy yuklamalar past gemoglobinli odamning sog‘lig‘ining yomonlashishiga olib keladi. Anemiya holatidagilar uchun turli xil sport turlari mavjud, masalan, yoga. Temir tanqisligi bilan og‘rigan odam ko‘p chidamlilikni talab qilmaydigan yengil mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi mumkin. Jismoniy mashqlar uzoq davom etmasligi va tez-tez tanaffus qilish lozim bo‘ladi.

Kuchli sport mashg‘ulotlari inson tanasida kislorodni ko‘proq iste’mol qilish tufayli tezda kamqonlikni qo‘zg‘atishi mumkin.

Jismoniy mashqlar paytida doimo tanani tinglash kerak, sog‘liqga zarar keltirmaydigan individual sport bilan shug‘ullanish kerak.

Shifokorlar temir tanqisligi kamqonligi mavjud bo‘lganlarga bilan sport shug‘ullanishni maslahat bermaydilar, chunki yurak va to‘qimalarga gipoksiya kuchli zo‘riqish bo‘lib, bu gipertenziya va kelajakda yurak xurujiga olib keladi.

Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, kamqonlik kabi kasallikka duchor bo‘lgan odamlar sport bilan shug‘ullanish huquqiga ega, ammo salomatlikka zarar yetkazmaydigan darajada. Bu shuni anglatadiki, jismoniy faoliyat davomida salomatlik ko‘rsatkichlari holatingizni kuzatib borilishi kerak. Agar biror kishi professional sportchi bo‘lsa, unda gemoglobinni kuzatish uchun oyiga bir marta qon topshirish majburiydir.

To‘g‘ri tanlangan va shifokor ko‘rsatmalariga muvofiq qat‘iy dozalangan jismoniy mashqlar turli yurak-qon tomir kasalliklari va qon kasalliklari, jumladan, kamqonlikning oldini olishda juda samarali vositadir. Quyidagi oddiy mashqlar vaziyatni yaxshilashga yordam beradi. Bu mashqlar to‘g‘ri ta‘sir qilish uchun muntazam va bir vaqtda bajarilishi kerak.

Mashqlar to‘plami

1. Orqa tarafingizda yoting, qo‘llaringizni boshingiz orqasiga cho‘zing, oyoqlar birga. Cho‘zing, tizzalaringizni, oyoqlaringizni va qo‘llaringizni qattiq torting. Keyin dam oling. 2-3 marta takrorlang.

2. Orqa tarafingizda yotib, tirsaklaringizni buking, barmoqlaringizni mushtga mahkamlang. Nafas olayotganda qo‘llaringizni yuqoriga ko‘taring. Nafas olayotganda qo‘llaringizni boshlang‘ich holatiga qaytaring. 5-7 marta takrorlang.

3. Qo‘llaringizni tizzangizga qo‘yib o‘tiring. Tirsaklarda egilgan qo‘llaringizni birma-bir kuchlanish bilan ko‘taring. Keyin dam oling va qo‘llaringizni pastga tushiring. 2-4 marta takrorlang. Agar mashq paytida siz esnamoqchi bo‘lsangiz, esnangiz. Bu sizning o‘pkangiz qonni kislorod bilan ta‘minlab, intensivroq ishlay boshlaganini anglatadi.

4. O‘tirgan holat. Yelka bo‘g‘imlarida aylana harakatlarni maksimal amplituda bilan bajaring. O‘rtacha tezlikda oldinga va bir xil orqaga 5-7 aylanish harakatini bajaring. Orqangizni tekis tuting.

5. Mashq o‘tirgan holatda, oyoqlari yelkalarining kengligida amalga oshiriladi. Nafas olayotganda, o‘ng oyog‘ingizning tizzasini ikkala qo‘lingiz bilan ushlang va sekin, butun tanangizni tarang, ko‘kragingizga torting. Nafas olayotganda, boshlang‘ich holatga qayting. Xuddi shunday mashqni chap oyoq bilan bajaring, chap tizzangizni qo‘llaringiz bilan ushlang. 2-4 marta takrorlang.

6. Oyoqlaringizni yelkangiz kengligida, qo‘llaringizni pastga tushiring. Dam oling, keyin qorin, dumba mushaklarini torting, elkangizni to‘g‘rilang, boshingizni ko‘taring. Bu holatda 7-10 soniya turing, keyin yana dam oling. 3-5 marta takrorlang. Jismoniy mashqlar xona bo‘ylab musiqa ostida harakat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

7. Mashqni tik turgan holda bajaring. Nafas olayotganda, o‘ng oyog‘ingizning cho‘zilgan barmog‘ini bir chetga qo‘ying va orqaga torting, chap qo‘lingizni yuqoriga ko‘taring, o‘ng qo‘lingizni oldinga cho‘zing, bir oz orqaga egilib turing. Nafas olayotganda, boshlang‘ich holatga qayting. Mashqni chap oyog‘ingizni yon va orqaga siljitib, o‘ng qo‘lingizni ko‘tarib bajaring. 4-6 marta takrorlang.

8. Turing, qo‘llaringizni kamaringizga qo‘ying. Nafas olayotganda, yelkangizni tekislang, sekin ko‘taring va chap oyog‘ingizni yon tomonga siljiting. Nafas olayotganda, boshlang‘ich holatga qayting. Orqangizni tekis tuting. 4-6 marta takrorlang.

ADABIYOTLAR

1. file:///C:/Users/User/Downloads/anemiya-v-sporte.pdf
2. Гращенкова А.Н. Лечебная физическая культура при заболеваниях сердечно-сосудистых заболеваниях. Ч. I. Учебное пособие / А.Н. Гращенкова, О.Г. Осипова. – М.: МГУПС (МИИТ), 2016. – С. 12–38.
3. file:///C:/Users/User/Downloads/Gromova_Zhelezodefitsit_16.pdf
4. Дурманов Н.Д.Анемия у профессиональных спортсменов, стр 1,3. 2. Кулиненков О.С.Фармакотерапия в спортивной медицине. - Москва-2003г- стр 86, 169,173. 3.
5. Макарова Г.А.Фармакологическое обеспечение в системе подготовки спортсмена. - Москва-2004гстр54,57, 60.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 811.1

Turamurot ELMURATOV,
Qarshi davlat universetiti o’qituvchisi

Qarshi davlat universiteti dotsenti v.b. f.f.f.d (PhD) Z.O.Amirova taqrizi asosida.

OLIY TA’LIM MASKANLARIDA FRANSUZ TILINI O'QITISH METODIKASI HAMDA O'QITUVCHINING SHAKLLANISHI.

Annotation

Significant research and ongoing inquiry highlight the importance of understanding and recognizing the development of identities and beliefs among teachers. These studies use techniques of reflection on the past or present to elucidate the developmental process of teacher identities and beliefs and their impact on the profession. The development of teacher identities and beliefs commence during childhood. A dearth of research exists that addresses the emerging developments of teacher identities and beliefs from the perspective of young children. This study uses qualitative methods through focus groups and individual interviews to examine the identities and beliefs held by fifth-grade students who plan to become teachers. Revealing the early developing identities of future teachers provides necessary insight into the emerging curricular needs of teacher education programs.

Keywords: teacher identity, teacher beliefs, vocation, emerging identity, young children, qualitative research, focus group, teacher education.

METHODOLOGY OF TEACHING THE FRENCH LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND TEACHER TRAINING.

Annotatsiya

Muhim tadqiqotlar va davom etayotgan so'rovlarni tushunish o'qituvchilar orasida shaxsiyat va e'tiqodlarning rivojlantiradi. Ushbu tadqiqotlar o'qituvchining rivojlanish jarayonini yoritish uchun o'tmish yoki hozirgi kun haqida fikr yuritish usullari o'ziga xoslik va e'tiqodlar va ularning kasbga ta'siri. O'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirish va e'tiqodlar bolalikdan boshlanadi. Yangi paydo bo'lganlarga qaratilgan tadqiqotlar kamligi mavjud yosh bolalar nuqtai nazaridan o'qituvchilarning shaxsiyati va e'tiqodlarining rivojlanishidir. Ushbu tadqiqotni tekshirish uchun fokus-guruhlar va individual suhbatlar orqali sifatli usullardan foydalanadi o'qituvchi bo'lishni rejalashtirgan beshinchi sinf o'quvchilarining shaxsiyatlari va e'tiqodlarini oshkor qilish bo'lajak o'qituvchilarning erta rivojlanayotgan shaxsiyatlari paydo bo'lganlar haqida zarur tushuncha beradi o'qituvchilar ta'limi dasturlarining o'quv ehtiyojlari keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchining shaxsiyati, o'qituvchining e'tiqodi, kasbi, rivojlanayotgan shaxs, yosh bolalar, sifatli tadqiqot, fokus-guruh, o'qituvchi ta'lim

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ.

Аннотация

Значительные исследования и постоянные исследования подчеркивают важность понимания и признание развития идентичности и убеждений среди учителей. Эти исследования используют техники размышления о прошлом или настоящем для выяснения процесса развития учителя и убеждения и их влияние на профессию. Развитие личности учителя а убеждения зарождаются в детстве. Существует нехватка исследований, касающихся возникающих развитие идентичности и убеждений учителей с точки зрения детей младшего возраста. Эта учеба использует качественные методы через фокус-группы и индивидуальные интервью для изучения идентичности и убеждения учеников пятого класса, планирующих стать учителями. Выявление раннее развитие личности будущих учителей дает необходимое понимание возникающих учебные потребности программ педагогического образования.

Ключевые слова: идентичность учителя, убеждения учителя, призвание, формирующаяся идентичность, маленькие дети, качественное исследование, фокус-группа, педагогическое образование.

Kirish. O'qituvchilarga o'z amaliyotlarini o'zgartirishga yordam berish ta'limdagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi (Britzman, 2012; Hoban, 2007; ten Dam & Blom, 2006). Bullough (2005) ta'kidlashicha, bugungi sinf xonalari va bugungi o'qitish amaliyoti 100 yil avvalgidan unchalik farq qilmaydi. Bu talabalarning ta'lim olishi, savodxonligi va hisob-kitoblarini rivojlantirish bo'yicha yuzlab tadqiqotlar sharoitida yuzaga keladi, bu hozirgi tadqiqotga asoslangan sinfni tashkil etish va o'qitish amaliyoti talabalarning ta'lim maqsadlari sari izchil rivojlanishiga olib keladi (Hoban, 2007). Ko'p yillar davomida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'z amaliyotlarini tadqiqotga asoslangan amaliyotga o'zgartirmasliklarining eng kuchli sabablaridan biri ularning o'qitish va o'rganishga bo'lgan e'tiqodlaridir (Cota Grijalva & Ruiz-Esparza Barajas, 2013). O'qituvchi bo'lgan ko'plab odamlar o'z hayotlarida o'qituvchi rolini bajarishni boshlaydilar (Young & Erikson, 2011). Shunga qaramay, o'qituvchi shaxsini shakllantirishga qaratilgan ishlarning aksariyati bu odamlar yosh kattalar sifatida dars berishga tayyorlanayotgan paytda amalga oshiriladi. Bu meni hayron qoldirdi: o'qituvchilarning shaxsiyati va e'tiqodlari qachon boshlanadi? Young va Erikson (2011) o'qituvchi va o'qituvchi sifatidagi yillar davomida o'qituvchilar, o'qitish va o'qituvchi bo'lish haqidagi dastlabki tasavvurlarining uzoq muddatli ta'sirini ko'rib chiqdilar. Bu ikki amaliyotchi o'zlarining yoshliklarida o'zlarini "o'qituvchi" sifatida tasavvur qilganliklariga nazar tashlaganlarida, ular bu tasavvurlar va

ularning dastlabki e'tiqodlari ularning umri davomida o'qituvchi shaxsini shakllantirishda davom etganligini aniqladilar. Ikki talabaning o'qitish dasturlari haqidagi tasavvurlarini o'rganishda, eng erta yoshda boshlangan o'qituvchilik shogirdligi bu shaxslarga kelgusi yillar davomida ta'sir qilganini tasdiqlang va shunday dedi: "O'qituvchilik talabalari o'zlarining rasmiy o'qishlariga kuchli, shaxsiy, yaxshi amaliyot haqida tarixga asoslangan oddiy nazariyalar" (326-bet).

Adabiyot tahlili. Xuddi Young va Erikson (2011) taklif qilganidek, men to'la vaqtli kasb sifatida o'qituvchilik bilan shug'ullanar ekanman, men rejalashtirish, o'qitish va mulohaza yuritishimga ta'sir qiladigan o'qituvchi shaxsiyatim va e'tiqodlarimning aks-sadolarini topdim. O'quvchi sifatida o'tkazgan tajribalarim o'qituvchi bo'lishim uchun qattiq shogirdlik vazifasini o'tadi (Lortie, 1975). Bu shogirdlik kuchaytirilgan yoki aniqlangan bo'lishi mumkin, chunki men yoshligimda o'qituvchi bo'lishni tanlagan edim. Darhaqiqat, men o'z amaliyotim va uning boshlanishi haqida fikr yuritganimdek, hozirgi amaliyotni uning embrion formulasidan ajratish qiyin. O'qituvchilar ta'limi sohasida o'qituvchilarning o'qitish haqidagi e'tiqodlari va taxminlarining ta'siri yaxshi ma'lum; ammo, bu tan olingan va, ehtimol, ularni tayyorlashning boshida o'rgatilgan yoki o'rganilgandan so'ng, u asosan e'tiborga olinmaydi. Odatda, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari o'qituvchilarga o'zlari bilan olib keladigan e'tiqod va bilimlarga asoslanishdan ko'ra, o'qitish haqida bilim olishga yordam berishga qaratilgan (Clandinin, 2010). Bundan farqli o'laroq, Klandinin o'qituvchilar ta'limiga ikkita yondashuv bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Yondashuvlardan biri o‘qituvchi o‘qituvchilari o‘qitish haqidagi bilimlar deb belgilagan narsaga qaratilgan. Ushbu e'tibor ostida o'qituvchilar o'qituvchilari o'qituvchilarga nimalarni o'rgatishlari kerakligi ro'yxatini tuzadilar va keyin bu qismlarni o'qituvchilar ta'limi kurslari bo'ylab tarqatadilar. Klandinin "o'qituvchilar bilimiga" asoslangan boshqa yondashuvni ta'kidlaydi[1]. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi ta'limi o'qituvchilarning bilimlarini oldinga tortadi, kengaytiradi va asoslaydi - o'qituvchilar o'z tajribalari va tasavvurlaridan kelib chiqadigan bilimlarga asoslanadi. Keyinchalik bu bilimlar o'qituvchi ta'limida o'qitiladigan va o'rganiladigan narsalarni shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot o'qituvchi bo'lishni rejalashtirayotgan bolalarning yangi o'qituvchi shaxsi va e'tiqodlarini tushunishga harakat qilganligi sababli, sifatli usullar eng mos keladi. Franso’z tilini o’qititishda, sifatli usullar kichik bir guruh shaxslarning istiqbollarini chuqur va boy tushunishga intiladigan tadqiqotlar uchun juda mos keladi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda o'qituvchi bo'lish istagini bildirayotgan bolalarning e'tiqodlari va shaxsiyatlarini ochish uchun ideal boshlanish nuqtasi bo'lib tuyuldi. Ushbu tadqiqot bolalardan o'qituvchi shaxsini tushunishga intiladigan birinchilardan biri bo'lganligi sababli, so'rovlar kabi asboblar hali yaratilmagan. Ushbu loyiha uchun ma'lumotlar fokus-guruhlar va individual suhbatlar orqali to'plangan. Keyingi bo'limlarda tadqiqotning protsessual jihatlari ko'rsatilgan. Tadqiqot bolalarning tajribasi va fikrlashiga e'tibor qaratganligi sababli, tadqiqotchi ushbu tadqiqotda foydalanilgan dizayn, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda etika va ishonchlilikka diqqat bilan qaradi va ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun aniq, axloqiy rejalar va tartiblarni taqdim etdi.

Jadval 1. Ishtirokchilarning demografiyasi

Moniker	Age	Gender	Race	Description
Giraffe	10	Female	Caucasian	Excited, polite, aware
Lilly	10	Female	Latinx	Quiet, kind, friendly
Monkey	11	Female	Caucasian	Bubbly and friendly
Marvel	10	Female	Caucasian	Quiet, thoughtful, musically talented
Sue	10	Female	Caucasian	Kind, determined, creative
Unicorn	9	Female	Mixed Race	Bubbly, kind, determined

Mening tajribamga ko’ra, men so‘nggi 2 yil ishlagan maktab saytida to‘rtinchi sinf o‘qituvchisi sifatida hozirda beshinchi sinfda o‘qiyotgan o‘quvchilarning 26 nafariga dars berdim. Men bu talabalar bilan muntazam, norasmiy muloqotda bo'ldim, chunki ular maktab kunidan keyin tez suhbatlashish yoki menga sinfdagi vazifalarni bajarishda yordam berish uchun sinfimga kelganlarida, men ularni koridorlarda, tanaffuslarda va yig'ilishlarda ko'rdim, lekin men hozir ularni o'rgatmaydi. Bundan tashqari, bu talabalarning aksariyati bilan munosabatlarim ijobiy va ochiq edi. Boshqa to'rtinchi sinflardan kelgan, sinfda aka-uka, amakivachchalar yoki do'stlarim bo'lgan yoki qayta o'qitish va tanaffus uchun sinfimga tashrif buyurgan beshinchi sinf o'quvchilari bilan ham ko'proq yuzma-yuz munosabatda bo'ldim.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot uchun oltita 1-bosqich talabalari boshqa o'qituvchilari yordamida tanlangan. Fokus-guruhning protseduralari va protokoli nusxasi va 30 ta intervyu oldindan o'qituvchilarga berildi (B, C, D ilovalariga qarang). Har bir o'qituvchi talabalarga yopishqoq qog'ozlarni tarqatdi va ularga o'z ismlarini orqasiga yozishni buyurdi, shunda qog'ozning old qismi ular xohlagancha katta hajmda yozishlari uchun butunlay bepul bo'ladi. Yopishqoq eslatmalar, mening tajribamga ko'ra, talabalar uchun qiziqarli va tanish bo'lib, talabalar ishtirok etishlari va qog'ozni topshirishlari ehtimolini oshirdi. Keyin yordamchi o'qituvchilar: "Iltimos, bakalavr bosqichidan kiyinda bo'lishni xohlagan uchta asosiy narsani yozing", dedilar. Keyin talabalar eslatmalarni yig'ib, menga berishdi. Nihoyat, men quyidagi mezonlarga ko'ra mumkin bo'lgan ishtirokchilarni topish uchun javoblarni saraladim:

1. Agar yopishqoq qog'ozda "o'qituvchi", "o'qituvchi" yoki ekvivalenti yozilgan bo'lsa, u mumkin bo'lgan ishtirokchidan kelgan deb belgilandi. Turli xil qiziqishlarni ko'rsatadigan har qanday eslatma, ularning hech biri "o'qituvchi" bo'lmagan, parchalanib tashlandi va ishtirok etish uchun ko'rib chiqilmadi, chunki tadqiqot faqat o'qituvchi bo'lishni xohlaydiganlarga qaratilgan.

2. Javoblar erkak va ayolga guruhlangan. O'qitish, ayniqsa boshlang'ich sinflarda gender sohasidir (Murrey va Maguire, 2007). Ushbu tadqiqot boshlang'ich yoki o'rta darajadagi o'qituvchi bo'lish istagini bildirgan har qanday talabani ishtirokchi sifatida ko'rib chiqdi - bu erda gender tafovuti sezilarli darajada bo'lmasa ham kamayadi (Murrey va Maguire, 2007). Gender sohasi va ushbu tadqiqotning ko'lami kichik bo'lgani uchun (faqat olti ishtirokchi) men ishtirokchilar sifatida qizlarga ustunlik berdim. Bu tanlov o'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari bo'lajak bo'lish istagida jins muhim rol o'ynashini tan oldi. Talabalar faqat bitta jinsni o'z ichiga olgan guruhda bo'lishishga ko'proq tayyor bo'lishi mumkin (Morgan va boshq., 2002).

3. Agar olti nafardan kam ishtirokchi bo'lsa, men boshqa beshinchi sinf ishtirokchilariga kirishni qidirardim. Buning uchun men maktabimga yaqin boshqa maktab saytlarida dars beradigan hamkasblarim bilan maslahatlashardim. Men ushbu yangi maktab saytida o'qishni tanishtiraman va norasmiy tanlash tartib-qoidalarini olaman.

4. Mumkin bo'lgan noto'g'rilikni kamaytirish uchun o'qituvchi yoki o'qituvchini yopishtiruvchi qog'ozga yozib qo'ygan barcha talabalarni o'z ichiga olgan javoblar to'plami qo'shimcha tayyorgarlikdan o'tdi. Ranglar yoki nomlar ko'rinmasligi uchun barcha yopishqoq qog'ozlar katlanmış va

o'qituvchiga minnatdorchilik faoliyati davomida tadqiqotchiga sovg'a qilingan ko'plab sopol krujkalardan biriga solingan. Beshinchi sinf o'qituvchilaridan biri tasodifiy ravishda oltita o'quvchining yopishqoq qog'ozlarini tanladi. Agar dastlabki tasodifiy tanlovda mening sobiq talabalarimdan ikkitadan ko'proq tanlangan bo'lsa, o'qituvchi qo'shimcha talabalar nomini chizib, ishtirokchilar guruhi tanlanmaguncha ikkitadan ko'p bo'lmagan tanlov mening sobiq talabalarim edi.

5. O'qituvchilardan ishtirokchilar to'g'risida so'rashdi va ular ishtirokchining ishtirok etish uchun vaqti va istagi borligiga ishonishlari, shuningdek, tibbiy sharoitlar, o'qish yoki gapirish qiyinligi yoki vaqt cheklovlari kabi engillashtiruvchi holatlar mavjudmi yoki yo'qmi - ular talaba haqida bilishdan oldin so'ralgan. yaqinlashdilar. Agar bu ishtirokchilar pulidagi sonni kamaytirsa, mendan boshqa o'qituvchi tasodifiy ravishda qo'shimcha nomlar chizadi va bu qo'shimcha talabalarni tekshirish tartibi kuchga kiradi. Rejada oltita ishtirokchidan iborat guruh tanlanmaguncha ushbu jarayonni davom ettirish ko'zda tutilgan. (Tanlovdan so'ng, Covid-19 pandemiyasi ijtimoiy uzoqlashtirish protokollari kuchga kirdi.). Shaxsan uchrashishdan ko'ra, men ota-onalarga o'qishda qatnashish va Zoom orqali talabalar bilan uchrashish uchun ruxsat so'rash uchun SMS yubordim. Ota-ona ruxsatini olganimdan so'ng, men talabalar va ularning ota-onalari bilan umumiy telefon qo'ng'irog'i orqali o'qishdagi o'zgarishlarni, ishtirok etish uchun yangi talablarni tasvirlab berdim va tadqiqotda ishtirok etish uchun ota-onaning roziligi va talabaning roziligini so'radim. Ota-onalar ruxsatnoma blankalari onlayn xizmat orqali ota-onalar va ishtirokchilar tomonidan taqdim etildi va imzolandi. Ota-onalar va ishtirokchilar, agar tashvish tug'ilsa, tadqiqotchini telefon qo'ng'irog'iga jalb qilishlari va agar ular juda noqulay bo'lsa, rad etishlari mumkinligi eslatildi. Ba'zi ota-onalar va o'quvchilar, agar xohlasa, keyinroq shakllarga imzo qo'yish, ba'zilari esa buni qilish imkoniga ega edi. Fokus-guruhlar uchun barcha uchrashuvlar va individual suhbatlar matnli xabarlar orqali tashkil etilgan va ijtimoiy masofani saqlash uchun Zoom orqali o'tkazildi. Har bir ishtirokchi rozilik varaqasini imzoladi va ularning ota-onalari tadqiqotda ishtirok etish istagini bildirgan ota-ona ruxsatnomasini imzoladilar. Ushbu shakllar tadqiqotning tartiblari va umumiy mohiyatini, tadqiqotda ishtirok etishning mumkin bo'lgan zarari va foydalarini hamda ishtirok etish uchun rag'batlarni belgilab berdi. Ushbu tezisni yakunlashdan oldin ma'lumotlar va topilmalarning to'g'riligini ta'minlash uchun tadqiqot ishtirokchilar va ularning ota-onalari tomonidan ko'rib chiqildi. Ma'lumotlar manbalari va to'plash Ushbu tadqiqotda men ikki turdagi ma'lumotlarni to'pladim. Birinchi ma'lumotlar to'plami har bir ishtirokchi bilan individual suhbatdan iborat ikkinchi ma'lumotlar to'plamini ma'lum qilgan fokus-guruh suhbatidan olingan. Fokus-guruh suhbatida muhokamani yo'naltirish uchun stsenariy ishlatilgan. Qo‘llanma, shuningdek, ishtirokchilarga tadqiqotchi bilan ko‘proq tanishish, baham ko‘rish istagi va muhokama mavzusini aloqa o‘rnatishga yordam beradigan asosiy g‘oyaga yo‘naltirish imkoniyatini berdi. Shaxsiy suhbatlar bolalarning shaxsiy e'tiqodlari va shaxsiyatlarini yuzaga chiqarish uchun maxsus savollar bilan fokus-guruh ma'lumotlarini chuqurroq o'rganishni o'z ichiga oldi. Fokus-guruh to'rt-besh ishtirokchidan iborat fokus-guruhni ideal deb hisoblaydi va olti kishidan iborat guruh tezda itoatsiz bo'lib qoladi va hatto malakali suhbatdosh uchun ham tushunish qiyin bo'ladi. Shu sababli, ishtirokchilar har birida uchta boladan iborat ikki guruhga bo'lingan. Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar bolalar muhokama qilishlari mumkin bo'lgan stsenariy berilmasa, uchta ishtirokchi ko'proq individual suhbatga o'xshash bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarga muhokama qilish uchun stsenariy berildi. Stsenariyning aniq yo'nalishi bolalarga o'z tushunchalarini jamlashga va ichki his-tuyg'ularini ularga tanish bo'lgan narsadan, bu holda hikoyadan foydalanib tushuntirishga yordam berdi.

Men fokus-guruh stsenariysini bolalarning e'tiqodini uyg'otishi mumkin bo'lgan stsenariyni yaratdim:

1. Diqqatni aniq bir fikrga qaratish, shunda ishtirokchilar munosabat bildirishlari, rozi bo‘lishlari yoki rozi bo‘lmasliklari uchun asosga ega bo‘lishlari hamda suhbatni kontekstga moslashtirishlari mumkin.

2. Talabalar stsenariyda o'qituvchi nima yaxshi yoki yomon ishlayotganini tushuntirish orqali o'z e'tiqodlari va shaxsiyatlarini ochib berishlari mumkin bo'lgan o'rtacha mahorat ko'rsatadigan o'qituvchining stsenariysini taqdim etish (o'qituvchilik sohasidagi shaxsiy tajribam asosida). Talabalar, agar ular o'qituvchi rolida bo'lganlarida, nima o'zgargan bo'lardi, ularning shaxsiyatlari va e'tiqodlari haqida tushuncha berib, chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin edi.

3. Bolalarga o'z izlanishlarini boshlashlari uchun ertak berish orqali o'zlarini bo'lajak o'qituvchi sifatida qulay fikrlash va muhokama qilishlariga yordam berish, ayniqsa, shaxsiyat rivoyat orqali qurilgan degan g'oyaga tayanish va keyingi ichki voqealarni keltirib chiqaradigan asosiy hikoyani taqdim etish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'qituvchi bo'lishni xohlaydigan 1- bosqich talabalarining o'qituvchilik e'tiqodlari va shaxsiyatlarini o'rganishga qaratilgan. O'qituvchining e'tiqodi va shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, bu tadqiqotlar o'qituvchilarni o'qituvchilar tayyorlash yoki OTMda o'qitish paytida o'z hayotlari yoki shaxsiyati va e'tiqodlarini rivojlantirish haqida fikr yuritish amaliyotiga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati ta'lim berish haqidagi e'tiqodlar va o'qituvchi o'qituvchi sifatida kim bo'lishni xohlashi ularning dastlabki tajribalarida ildiz otganligini ko'rsatdi. Bundan farqli o'laroq, ushbu tadqiqot katta bo'lganida o'qituvchi bo'lish istagini bildirgan odamlarda shakllanayotgan e'tiqod va o'ziga xosliklarni ochishga harakat qildi. Guruh va individual suhbatlar orqali olti nafar ishtirokchi ayol o'qitish borasida o'z fikrlarini bildirdi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi bo'lishni xohlaydigan beshinchi sinf o'quvchilari allaqachon o'qituvchi shaxsini shakllantirgan. Ular qarama-qarshi e'tiqodlarni yo'lga qo'yishdi va o'qitish va o'qituvchi sifatida qanday bo'lishlari haqida taxminlarni shakllantirishdi va ular o'zliklari va e'tiqodlarini amalga oshirishda tajriba yaratdilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilar sinfda boshqa o'quvchilarga yordam berish, o'quv faoliyati va sinfni tashkil etish usullarini taklif qilish kabi o'qituvchilarning vazifalarini ham bajaradilar.

Ushbu tadqiqotim muhimligi shundaki. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi bo'lishni xohlaydigan shaxslar o'qish dasturiga kirishdan oldin o'qitishga bo'lgan chuqur o'ziga xoslik va e'tiqodlarni rivojlantiradi. O'qitish dasturiga kirgan bo'lajak o'qituvchilar ko'pincha o'qituvchilar sifatida kimligini bilishlari kutilmaydi. Bo'lajak o'qituvchilar va o'qituvchilar ta'lim dasturlari talabalarning dasturga kiradigan yangi o'qituvchilarning e'tiqodlari va shaxsiyatlarini o'rganishga vaqt ajratishi va bu bilimlarni dastur maqsadlari va ushbu bo'lajak o'qituvchilarning ehtiyojlari uchun moslashuvchan asos sifatida ishlatishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarga o'zlarining ta'lim shogirdlari haqida xabardor qilish orqali ular o'zlarining o'qituvchilari bilimlarini o'qituvchilar amaliyotining muhim va zarur elementi sifatida tan olishlari va bu o'qituvchi bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishda yaxshiroq ishtirok etishlari mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari o'qituvchilarning shaxsiyati va e'tiqodlari uchun yangi tadqiqot yo'lini taqdim etadi. Amaliy o'qituvchilarning fikrlashiga tayanmasdan, o'qituvchi bo'lishni xohlaydigan bolalarga e'tibor qaratish orqali o'qituvchining shaxsiyati va e'tiqodini shakllantirish jarayoni

haqida ko'proq tushunchaga erishish mumkin. Ushbu tadqiqot, shuningdek, o'qituvchilarning shaxsiyati va e'tiqodlari haqidagi umumiy bilimlarga hissa qo'shadi va amaliyotchi o'qituvchilar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda yoshlarning o'qituvchilari va e'tiqodlarini kuzatish mumkinligini tushunadi.

REFERENCES

1. Teaching English methods. M.T.Irisqulov. 2011.
2. Akkerman, S. F., & Meijer, P. C. (2011). A dialogical approach to conceptualizing teacher identity. *Teaching and Teacher Education*, 27(2), 308-319.
3. Alsup, J. (2006). *Teacher identity discourses:* Negotiating personal and professional spaces. Routledge.
4. Antonek, J. L., McCormick, D. E., & Donato, R. (1997). The student teacher portfolio as autobiography: *Developing a professional identity.*
5. The Modern Language Journal, 81(1), 15-27. https://doi.org/10.1111/0362-6784.00120 Arnot, M., & Dillabough, J. A. (1999). Feminist politics and democratic values in education. Curriculum Inquiry, 29(2), 159–189. https://doi.org/10.1111/0362- 6784.00120 Beauchamp, C., & Thomas, L. (2009). *Understanding teacher identity*: An overview of issues in the literature and implications for teacher education.
6. Cambridge Journal of Education, 39(2), 175-189. https://doi.org/10/1080/03057640902902252
7. Dalland, O. (2015). Metode og Oppgaveskriving. Oslo: Gyldendal Akademisk. Grønmo, S. (2016). Samfunnsvitenskapelige Metoder. Bergen: Fagbokforlaget. Harmer, J. (2007).
8. The Practice of English Language Teaching. Harlow: Pearson Education Limited. Howatt, A. P., & Smith, R. (2014). The history of teaching English as a foreign language, from a British and European perspective. Language & History, 57(1), 75-95. Johnson, K., & Morrow, K. (1981).
9. Communication in the classroom: applications and methods for a communicative approach. Harlow: Longman. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011).
10. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press. Ministry of Education and Research. (2011). The Quality Framework. Retrieved from
11. Nizomova Mohinur Baratboyevna. Current research journal of philological sciences 2(12): 21-25, “Polysemantic features of pedagogical terms in english and uzbek translation”
12. Nizomova Mohinur Baratboyevna. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES 2(12): 21-25, December 2021.Master Journals. “Polysemantic features of pedagogical terms in english and uzbek translation”

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:37.026

Nazokat ERGASHEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: 1ergashevanazokatxon@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, pedagogika kafedrasi dotsenti, M.M.Isabayeva taqrizi ostida

DIDACTIC FUNCTIONS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Annotasiya

The article reveals the didactic basics of preparing future biology teachers for professional-pedagogical activity. The introduction in the educational process of future biology teachers on the basis of the principle of individualization and democratization of the preparation process for professional-pedagogical activity, using the peculiarities of the integration of pedagogical knowledge in biology education, the content of innovative technologies, types of professional activities that allow improving the content, methods, tools and forms of training future biology teachers for professional-pedagogical.

Key words: Didactic foundations of teaching of biological educational subjects, vitagenic, constructive, didactic factor, forms of teaching, methods, tools, professional pedagogical activity, self-development of teachers as individuals.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье раскрыты дидактические основы подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности. Внедрение в учебно-воспитательный процесс инновационных технологий, видов профессиональной деятельности, позволяющих совершенствовать содержание, методы, средства и формы подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности, используя специфику интеграции педагогических знаний в биологическое образование, реализовать инновационную программу подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности содержание освещено.

Ключевые слова: Дидактические основы преподавания учебных дисциплин биология, витагенные, конструктивные, дидактический фактор, формы, методы, средства обучения, профессиональная педагогическая деятельность, саморазвитие педагога как личности.

TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik asoslari ochib berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida bo’lajak biologiya o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini individuallashtirish va demokratlashtirish tamoyili asosida joriy etish, biologiya ta’limida pedagogik bilimlar integrasiyasining o’ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish imkonini beradigan innovasion texnologiyalar, kasbiy faoliyat turlarini mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Biologiya o’quv fanlarining o’qitishning didaktik asoslari, vitagen, konstruktiv, didaktik omil, o’qitish shakllari, metodlari, vositalari, kasbiy pedagogik faoliyat, o’qituvchilarining shaxs sifatida o’z-o’zini rivojlantirish.

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar zamirida salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, zamonaviy tendensiyalarni joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etilishi, ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda takomillashtirilgan o’quv dasturlarini ishlab chiqilishi, bo’lajak kadrlarni tayyorlashda xorijiy tajribalarga integrasion va innovasion ravishda tayanishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-son farmoni hamda “Ta‘lim - tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qabul qarorida ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Jamiyatimizda barqaror raqobatbardoshlikni ta’minlashda “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”[1], bo’lajak biologiya o’qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida “biologiya yo’nalishlarida samarali o’quv jarayonini tashkil etish”[2] muammosi kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim dolzarblikni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hoziri kunda ko’pgina pedagog olimlarimiz .SH.Begimqulov, R.X.Djuraev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, F.M.Zakirova, M.H.Lutfillaev, N.I.Taylaqov tomonidan bo’lajak pedagoglarni integrativ ta’lim asosida o’qituvchilik faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish, pedagogik bilimlar va texnologiyalar, ularning ilmiy asoslari, olimlardan A.Azizxodjaeva, R.Axliddinov, J.Tolipova va boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan. Fanlararo aloqadorlikdan ta’lim jarayonida foydalanish B.Abdullaeva, Z.E.Azimova, G.R.Alimatova, S.Alixonov, X.B.Norbo’taev, A.A.Salomov, A.CH.Choriev, A.V.Usovalar, bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammolari M.O.Ochilov, X.I.Ibragimov, U.N.Nishonaliev, D.X.Nasriddinova va boshqa bir qancha tadqiqotchilar ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Jahon Pedagogikasining buyuk namoyondasi Ya.A.Komenskiy shunday ta’kidlagan edi: “O’zaro bog’liqlikda bo’lgan hamma narsani xuddi shunday mazmunan o’zaro bog’liqlikda o’qitilish kerakki, bu jarayon barcha o’zlashtirishi muhim bo’lgan bilimlarni tizimli shakllantirishda juda muhim ahamiyatga egadir [3]. Fanlararo bog’lanishlar muammosining rivojlanishining tarixiy-pedagogik tahlili tadqiqotning asosiy yo’nalishlarini aniqlash imkonini berdi va ular quyidagilardan iborat: ijtimoiy-pedagogik bu yo’nalish talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalasini hal qilishda fanlararo bog’lanishlarning ahamiyatini ko’rsatadi, falsafiy bu yo’nalish o’quv fani tizimida mazmun tuzilmasini va o’qitish javrayonini qurishdagi, turli o’quv fanlaridan olingan ma’lumotlarni sintezlash asosida uning yaxlitligini ta’minlashda fanlararo bog’lanishlarning rolini ochib beradi. Fanlararo bog’lanishlar funksiyalarining to’plami o’qituvchi ularning barcha qirralarini amalga oshirgandagina bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi [4]. Bo‘lajak o‘qituvchining chuqur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma‘lum fan asoslari borasida unda etarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta‘lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalashish malakasining nechog‘lik shakllanganiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ta‘lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va undan unumli foydalanishning metodik hamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko‘lamda ko‘llash jahon taraqqiyotining global yo‘nalishi hisoblanadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, asarlarida o'qituvchilar, ularni tayyorlash, oliy ta'limni takomillashtirish haqidagi bayon qilingan fikrlari bo’lajak biologiya o’qituvchisini faoliyati haqidagi yondashuvlari kadrlar tayyorlashning milliy modelida shaxs muhim o’rin tutadi va uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs, fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi. Oliy ta‘lim muassasalari va ulardagi o‘quv - tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat - monitoringini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani, hamda pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. Pedagogika Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak biologiya o’qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda “Biologiya o’qitish metodikasi”, “Biologiya o’qitish texnologiyalari va loyiha” fanlari muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Mazkur fanlarni o’qitishda talabalarda kasbiy o’quv bilish faoliyatni rivojlantirish, biologik ta’lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Biologiya fan asoslari bilan bog’liq bo’lgan o’quv, jarayonlar, o’qitishning pedagogik tamoyillar va qonuniyatlarni bilish, o’qituvchiga maktab biologiya kursi mazmunida o’quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bo’lajak biologiyadan o’quvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar sifatida quyidacha belgilandi: ya’ni; pedagogik-psixologik bilimlar integrasiyasining o’ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish; kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy yo’nalishlarini asoslash orqali bo’lajak biologiya o’qituvchisini metodik tayyorlashning tarkibiy va funksional modelini shakllantirishdan iborat.

Didaktik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar sifatida esa quyidagilar belgilandi:

bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatdan o’zlashtirganlik darajasini aniqlash, kamchiliklarni oldini olishga oid korreksion metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; innovasion va integratsion muhitda bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning o’quv-uslubiy ta’minotini ishlab chiqish; biologiya o’qitish metodikasini o’qitishda egallashga imkon beradigan o’quv materiallarini saralanganligi, shu asosda fan mazmunida mustaqil ta’lim shaklida zamonaviy o’qituvchi partfoliosi tayyorlash; bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning maxsus kursi, “Pedagogik amaliyot metodikasi” dasturi va “Biologiya o’qitish metodikasi” kabi o’quv majmualarni mazmunan yangilash va samarali foydalanish bilan asoslanildi. Ushbu pedagogik shart-sharoitlar biologiya o’qitish metodikasining o’qitish qonuniyatlari va tamoyillariga tayangan holda talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning quyidagicha kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini aniqlash zaruratini vujudga keltiradi. Biologiya o’qituvchisining pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish maqsad qilib olindi va quyidagi didaktik funksiyalar asosida amalga oshirildi: kasbiy pedagogik bilimlarni tiklash zarurati-biologik ta’lim mazmunida ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda talabalarning fan yuzasidan olgan bilimlarini tiklash, tahliliy, mantiqiy, mustaqil va taqqoslovchi fikrlashga o’rgatish; kasbiy pedagogik bilimlarni yangilash-talabalarda integratsion va innovasion vaziyatda pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va metodikasi, biologiya o’qitish metodikasi va loyihalash yuzasidan o’zlashtirgan bilimlarini kengaytirish, kreativlik, motivasion, intuitivlik asosida rivojlantirish;

kasbiy pedagogik bilimlarni korreksiyalash-talabalarda kasbiy faoliyatga tayyorlashga asoslangan fanlar (pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va metodikasi, biologiya o’qitish metodikasi va loyihalash) yuzasidan o’zlashtirgan bilimlarini tahlil qilish va yo’l qo’yilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish; bilimlarga amal qilish-talabalarda biologiya o’qitish metodikasi va loyihalash yuzasidan o’zlashtirgan bilimlariga kasbiy faoliyati davomida amal qilish orqali shaxsiy e’tiqodga aylantirishdan iborat bo’ldi.

Tahlil va natijalar. Bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishda fanlarning kombinatsiyasi, o'qituvchi va talaba xatti-harakatlarining kombinatsiyasi va ularning yoshini hisobga olgan holda tarkib va usullarni tanlashni talab etadi. O'qituvchi faoliyatining ijodiy yo'nalishlari va bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy ishlashga tayyorlash muammolari va metodik tavsiyalari R.Adizov [1], R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov, A.Pardaev [2] tomonidan berib o’tilgan. Shuningdek, pedagog olimlardan N.Saidaxmedov, F.Yuzlikayev, N.Azizxojayeva, O’.Tolipov, N. Ochilova ilmiy izlanishlarida esa o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning pedagogik mahorati, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammolari yoritilgan. Yuqoridagi tadqiqotlar mualliflari aniq dalillaridan kelib chiqib, pedagogika oliy o'quv yurtini tugatgan talabalarning kelajakda o'qitadigan maxsus fanlarni chuqur o'zlashtirganliklarini, ular pedagogik vaziyatlar, o'qitish metodlari bilan yaxshi tanish ekanliklarini, ayni paytda amaliyotni to'liq egallab olmaganliklarini e'tirof etganlar. Tadqiqot rivojida integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari metodik, faktik, tushunchaviy, emperik, refleksiv yondashuvning uzviylik va izchillik tamoyilga asoslangan didaktik funksiyalari tizimlashtiriladi.

Kasbiy kompetensiyaviy ko’nikma va malakalarni shakllantirish: kasbiy foliyatni shakllantirishga oid ishlab chiqilgan muammoli masala va mashqlar echish; reproduktiv, adaptiv va produktiv topshiriqlar ustida mustaqil ishlash va fikrlarini bayon etish; metodik jadval, sxemalarni tahlil etish va xulosalash; muammoli vaziyatli topshiriqlarni echish; dars amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari uchun innovatsion dars loyihalarini shakllantirish; pedagogik amaliyot jarayonida tajriba sinov ishlarini bajarish; kasbiy-pedagogik faoliyatga oid muammoli vaziyatlar echimini tahlil qilish, kasbiy layoqatini shakllantiruvchi innovasion g’oyalarini bayon etishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ikki komponentdan-nazariy bilimlarni egallash va pedagogik amaliyotdan iborat. Bu strategik reja bo‘lib, har ikki bosqich o‘ziga xos taktikani bildiradi, ya’ni nazariy bilimlar egallab bo‘lingach, amaliyotni o‘taydi. Oliy ta‘lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalni, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani, hamda pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 августдаги ПҚ-4805-сон «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.
3. Adizov R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss... Avtoref. – T.: 2003. - 44 b.
4. Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog - o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste‘dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.
5. Izbrannыe pedagogicheskie proizvedeniya. – M., 1987. – 175 b
6. Tolipova J.O. Biologiya o’qitish metodikasi. Nizomiy nomli TDPU. -T.:– 2012. – 214 b.
7. Yusupova N.V. Fanlararo aloqadorlik vositasida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. P.f.f.diss.:T.- 2021y., -140b
8. Yuldashov U. Yu. Bo‘lajak pedagog-kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron tarbiya resurslarining o‘rni va roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.: 2021, -532p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

O‘DK 91(575.1):371.3

Bekzod ERKAYEV,
TDPU magistranti
E-mail: bekzoderkaev1985@gmail.com

TDPU dotsenti v/b., p.f.f.d (PhD) D.N.Abdullayeva taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF USING PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY

Annotation

This article provides information about the use of personalized educational technologies in geography education, the content and types of personalized technologies. Also, the use of modern teaching technologies, the concept and ideas of pedagogical activities of person-oriented education, and the introduction of person-oriented education in geography lessons have been revealed.

Key words: Person-oriented education, modern educational technologies, teaching geography, use of geographical maps, educational efficiency, innovative education, intellectual and emotional-motivational development of students, independent and creative thinking.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЗОВАНИЯ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В данной стате представлена информatsiя об исползовании персонализированных образовательных технологий в географическом образовании, содержании и видах персонализированных технологий. Также раскрыто исползование современных технологий обучения, концепция и идеи педагогической деятелности личностно-ориентированного обучения, внедрение личностно-ориентированного обучения на уроках географии.

Ключевые слова: Личностно-ориентированное образование, современные образовательные технологии, преподавание географии, исползование географических карт, эффективност обучения, инноватsионное образование, интеллектуалное и эмоционално-мотиватсионное развитие учащихся, самостоятелное и творческое мышление.

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada geografiya ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining mazmun-mohiyati va turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo’llash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning pedagogik faoliyat konsepsiyasi va g‘oyalari, geografiya darslariga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishning o‘quvchilar uchun ijobiy imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, zamonaviy ta’lim texnolgiyalari, geografiya fanini o‘qitish, geografik xaritalardan foydalanish, ta’lim samaradorligi, innovatsion ta’lim, o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, mustaqil va ijodiy fikrlash.

Kirish. XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etilib, aksariyat mamlakatlar tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” jarayoni dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda respublikamizda o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovatsion texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya, Shotlandiya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda ta’limning mavjud shakllarini o‘rganish, ularning ilg‘or tajribasi asosida, davr va ta’limning murakkab talablariga javob beradigan metodikalarini ishlab chiqish, o‘qitishning eng zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

O‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo’llash, o’qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Bu borada shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarning bugungi kunda dolzarb bo’lib borayotganligi, mazkur texnologiyalar ta’limning hozirgi kuni, kelajagi bo’lib qolganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Adolatli ijtimoiy siyosatyuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish vazifasi qo‘yilgan [2]. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Ta’lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda pedagogic faoliyatni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish va unga tizimli yondoshuv masalalari dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning pedagogik faoliyat konsepsiyasi va g‘oyalari yuzasidan mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.Bagaeva, A.Baxmutskiy, I.Belevseva, Ye.V.Bondarevskaya, I.Galmukova, S.V.Kulnevich, A.Makarov, A.Mayorov, S.Xoxlova,

F.T.Fomenko, I.S.Yakimanskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida joriy etish muammolari tadqiq etilgan.

Uzoq xorij mamlakatlari olimlaridan S.Anderson, B.Blum, N.Gronlud, L.Hoffmann, L.Kronbach, R.Linn, R.Stigtins H.Yulek va boshqalarning tadqiqotlarida ta’lim sifatini boshqarish, baholash va nazorat qilish masalalari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘zini rivojlantirishni tashkil etish monitoringini amalga oshirish yuzasidan B.R.Adizov, B.Ma’murov, S.Nishanova, R.G‘.Safarova, E.A.Seytxalilov, K.Hoshimov, F.R.Yuzlikayev, E.Yuzlikayeva va boshqalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning chuqur bilim salohiyatiga ega bo‘lishlari va etuk shaxs bo‘lib etishishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Xususan, geografiya ta’limida ushbu faoliyat orqali o‘quvchilarning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tushunib etishlariga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatlarini shakllantirishga hamda tabiiy geografik voqea va hodisalarni tahlil qila olishlariga yordam beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonlarida geografiya ta’limini samarali tashkil etish bo‘yicha geograf olimlar X.Vaxobov, N.R.Alimkulov., N.B.Sultonovalarning fikriga ko‘ra geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatni tarkib toptirish o‘quvchilar bilan birgalikda va o‘quvchilar mustaqil bajaradigan ishlar: darslik, yozuvsiz xarita, rasm, jadval, statistik ma’lumotlar va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash hamda amaliy mashg’ulotlarni bajarish katta ahamiyatga ega [3].

Geograf-olim S.N.Abduvoxidov o‘qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish va unda kreativlik darajalari to‘g‘risida o‘zlarining “Geografiya ta’limi metodikasi” nomli o‘quv qo‘lanmasida geografiya fanini natijali o‘qitish masalalariga alohida to‘xtalib, shunday yozadi: geografiya o‘qituvchisi ta’lim oluvchilarning psixologiyasini hisobga ola bilishi, pedagogika qonuniyatlarini tushunib etishi, ta’lim-tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana olishi va hayotga tatbiq eta bilishi zarur [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, geografiya ta’limida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo’llash juda samarali natija beradi.

Shu sabali geografiya darslarida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, kreativ va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Bu ta’lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta’minlash, uning tafakkuri, izlanuvchanligi va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Geografiya ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishning o‘ziga xos jihatlaridan biri ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir.

Geografiya ta’limi jarayonlarida bu turdagi ta’lim o‘quvchilarda geografik xaritalar, globuslar bilan mustaqil ishlash, kreativlik, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, Vatanparvarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda geografiya o‘qituvchisidan har bir o‘quvchi nisbatan imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo qiladi. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o‘quvchi yoki o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchilar guruhi, o‘quvchi - o‘quvchilar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Shaxsga yo’naltirilgan texnologiya asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Geografiya fani o‘qituvchisi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

- har bir o‘quvchinini alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;
- o‘quvchini hurmat qilishi;
- o‘quvchilarda bir-biriga hurmat hissini uyg‘otishi;
- o‘quvchining ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;
- har bir o‘quvchiga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lishi;
- o‘quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- geografiya fanini puxta o‘zlashtishlari uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;
- o‘quvchilarning geografik topshiriqlarni bajarish hamda mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- o‘quvchilarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish;
- ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaligi;
- alohida o‘quvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi;
- o‘quvchi tomonidan fanni yaxshi o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab, aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, g‘ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- o‘quvchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir o‘quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.

Tahlil va natijalar. Geografiya darslarida o‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi. Xususan, geografiya fanini o‘qitishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatlarini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Bunda geografik ma’lumotlar bilan ishlash, geografik xaritalar va globuslardan foydalanish, tabiiy-geografik voqea va hodisalarga doir amaliy mashg‘ulotlarni samarali bajarish kabi faoliyatlarida e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ✓ ijodiy topshiriqlar;
- ✓ kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- ✓ muammo va muammoli vaziyatlar;
- ✓ didaktik, rolli, va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- ✓ bahs-munozara, debat;
- ✓ musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar va boshqalar.

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan talimning quyidagi asosiy turlari mavjud: innovatsion ta’lim, hamkorlik ta’limi, interfaol ta’lim, masofaviy ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha ta’limi, kompyuterli ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, modul ta’limi, individual ta’lim, mustaqil ta’lim, dasturiy ta’lim, o‘yin texnologiyalari.

Ushbu shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlarining barcha turlarini geografiya darslarida to‘g‘ri va samarali foydalanish orqali ta’lim-tarbiya jarayonlari muvaffaqqiyatli amalga oshiriladi. Zero, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlaridan interfaol talim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish hozirgi zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘llaridan biri deb hisoblanmoqda [5]. Zero, pedagog olimlar R.Ishmuhamedov A.Abduqodirov, A.Pardayevlarning ta’kidlashicha, ta’lim muassasasi o‘qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo‘lishi kerak va u har doim: “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?” degan savollarga javob topishi, ta’lim-tarbiya xususiyatlari e’tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerak [8].

Demak, geografiya fanini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish, interfaol jarayonni yaratish o‘quvchilarning o‘quv materiallarini mukammal va puxta o‘zlashtirishlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

Geografiya fanini o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanishni talab etadi:

- insonparvarlik - ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;

- hamkorlik - ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, mustaqil faoliyat, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi. Demak, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - bu ta’lim oluvchining shaxsiyati, uning o‘ziga xosligi, ichki hissiyoti va qadr-qimmatini e’tiborga olish, bunda har bir o‘quvchining individual qobiliyati, tajribasi rivojlantiriladi, so‘ngra u ta’lim mazmuni bilan muvofiqlashtiriladi. Ushbu yondashuvni amalga oshirishda o‘quv va bilish jarayonlari o‘quvchilarning bilish mexanizmlari, aqliy va xulq-atvor xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro muvofiqlashtiriladi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari hamkorlik va tanlov erkinligi tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi ham takomillashtirildi [1].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, geografiya ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga, tabiat va insoniyat munosabatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga imkoniyat yaratadi [6]. Zero, geograf olim Baranskiy ta’kidlaganidek, hech qaysi fan geografiya fanidek go‘zallika, maroqlilikka va ko‘rgazmalikka muhtoj emas [9].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2020 y., 23-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi., Toshkent: - “Nodirabegim” nashriyoti. 2021 yil. 69-70-b.
4. Abduvoxidov A.S., Z.A.Ganiyev. “Geografiya ta’limi metodikasi”. Samarqand.: 2021 yil. 49-52 b.
5. Vaxobov X. Geografiya o‘qitish metodikasi., Toshkent.: Universitet, 2000. – 38-b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste’dod – 2008. 87 bet.
7. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. / B.Yu.Xodiyev tahriri ostida. – T.: «Iqtisodiyot», 2009.
8. D.N.Abdullayeva. Maktab geografik ta’limi orqali geoekologik madaniyatni shakllantirish masalalari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2022-yil, 12-son. B-36-42.
9. Обжанидзе А.А., Баринова И.И., Профессионалная компетентност учителя географии. в журнале География и экология в школе XXИ века, № 6, 2011. с. 6-12.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 158 Э 94

Olmosbek ESHMURADOV,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti v/b, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

TDPU professori ps.f.d B.S.Abdullayeva taqrizi asosida

SPIRITUAL-EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF ENSURING FAMILY STRENGTH

Annatation
By training young people, Uarning's fate seeks to provide the Syrians with ability and intelligence, faith, and health. The traditions and customs of the Uzbek family inherited from their descendants, the traditions and customs of the young generation are widely respected in the community
Key words: Marriage-family relations, family etiquette, love, love family happiness, protection of marriage and family relations, preparing young people for family life

ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЧНОСТИ СЕМЬИ

Аннатация
Обучая молодежь, судьба направлена на то, чтобы обеспечить сирийцев способностями, интеллектом, верой и здоровьем. Традиции и обычаи узбекской семьи, унаследованные от их потомков, традиции и обычаи молодого поколения широко уважаются в общине.
Ключевая слова: Брачно-семейные отношения, семейная этика, любовь, семейное счастье, охрана брака и семейного отношения, подготовка к семейной жизни.

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya
Qobiliyat, aql, ishonch va sog‘liq bilan ta’minlashga qaratilgan. Yoshlarga muomilani o‘rgatish, ularning avlodlaridan meros bo‘lib qolgan o‘zbek oilasining urf-odatlari, yosh avlodning urf-odatlari va qadriyatlari jamiyatda katta xurmatga sazovar
Kalit so‘zlar: Oila odobi, sevgi, muhabbat oila baxti, nikoh va oila munosabatlarni himoyalash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh-oila munosabatlari.

Kirish. Ta’lim tarbiya orqali shaxsning hayot faoliyatiga e’tibor qaratish, shaxs tarbiyasining asoiy omillaridan biridir. Jamiyat hayotining o‘zgarishi, ma’lum jihatdan oilaga, uning a’zolariga bog‘liq bo‘lganligi bois, bu muammoni o‘rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Har bir millat oila va u bilan bog‘liq jarayonga alohida e’tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar.

Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a’zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o‘rganiladi.

Oiladagi muhitning sog‘lomligi avvalo ayolga bog‘liq bo‘lganidek, jamiyatdagi ma’naviy muhitning sog‘lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma’sul bo‘lgan onaga bog‘liqdir[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning “Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go‘zal axloqqa o‘rgating” degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo‘lsa, oiladaga muhit ham sog‘lom va oila mustahkam, farovon bo‘ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma’naviy-psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir.

Insonning psixologik yetukligi bu o‘z oldiga erishishi muqarrar bo‘lgan va imkoniyatlari yetarli bo‘lgan maqsadlarni qo‘yishi, turli yashash sharoitlariga moslashish, turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishidir. Albatta, bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oilada qizlarga berilgan tarbiya ta’sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi.

Qiz bola turmush qurgandan so‘ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqiye tubdan o‘zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosati o‘zgarishi kuzatiladi. Mazkur o‘zgarishga nisbatan o‘zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o‘z o‘rniga ega bo‘la oladi. Oila qurishga o‘zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o‘ynovchi omillardan biri bu - o‘z-o‘ziga yo‘riqnoma berishi ya’ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o‘stirish hisoblaniladi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko‘ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o‘zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o‘zi kelin bo‘lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o‘zbek qizlarida oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning oila mustahkamligini ta’minlashdagi o‘rnini o‘rganish maqsadida Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida 240 dan ortiq respondentlarda “Qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o‘rganish” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnoma o‘zbek qizlarining oila qurishga ma’naviy jihatdan tayyorlik darajalarini aniqlashga qaratilgan 22 ta savollardan iborat bo‘lib, statistik tahlil qilish jarayonida eng asosiy ko‘rsatkichlar aniqlangan savollar natijalari tadqiqot natijalari sifatida tahliliy ma’lumotga kiritildi[2]. So‘rovnoma natijalari qizlarning oila haqidagi tasavvurlari oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta’sir etuvchi nikoh oldi

omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning o‘z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari qanchalik reallikka yaqin bo‘lishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi ekanligini ko‘rsatdi. Quyida tadqiqot natijalarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Respondentlarning “Ayol va erkak oilaviy munosabatlarda teng huquqli deb hisoblaysizmi?” degan savolga berilgan javoblardan ko‘rinadiki, qizlarning bo‘lajak turmush o‘rtoq haqidagi tasavvurlariga ko‘ra ularning 40 foizi “oilada erkak doimo ustun bo‘lishi kerak degan javoblarni berishganligi ma’lum bo‘ldi.

Ushbu ko‘rsatgichlar o‘zbek qizlarining oilada erkakning mavqei haqidagi tasavvurlarida milliy qadriyatlarimizning ta’siri ustunlik qilishini ko‘rsatadi. Respondent qizlar tasavvurlarida erkaklik maqomi oilada ustun bo‘lishi kerak ekanligi, oilaning muhim qarorlarini erkaklar qabul qilishi kerakligi haqidagi fikrlari ustunlik bo‘lishini ko‘rsatadi.

“Er-xotinlar bir-birlari bilan qancha kam muloqot qilsalar shuncha nizolar kam bo‘ladi” degan ta’kid bilan murojaat etilganda, bu ta’kidni noto‘g‘ri deb hisoblaydigan qizlar 43 foizni, to‘g‘ri va haqiqatga yaqin tomoni ham bor deb biluvchilar esa 57 foizni ko‘rsatdi. Qizlar tomonidan berilgan bunday javoblar ularning tasavvurlari bo‘yicha er-xotin munosabatida muloqot qilish va oilada sog‘lom muhit yarata olish masalasida xavotirlanish borligini ko‘rsatadi.

“Siz o‘zingizning turmush o‘rtoq rolini bajarishga to‘laqonli tayor deb hisoblaysizmi?” deb berilgan savolga 16 yoshdan oshgan qizlarning 11 % gina turmush o‘rtoq rolini bajarishga to‘laqonli tayyor deb hisoblashliklari ma’lum bo‘ladi. Bu esa qizlar tasavvurlarida kelajakdagi er-xotin munosabatida nizoli holatlar vujudga kelganda katta xavotirlanish borligidan dalolat beradi. Bunday holat ma’lum bir vaziyatga nisbatan xavotirlanish va o‘ziga ishonch darajasi sust bo‘lgan shaxslarning oilaviy munosabatlardagi ayrim vaziyatlarning yechimini topishda qiyinichiliklarga sabab bo‘lishi mumkin[3]. Chunki, ulardagi shaxsiy ma’naviy-psixologik yetuklik fazilatlari va vaziyatni ijobiy hal qilishda psixologik ko‘nikmalarning yetarli emasligi shaxsiy xavotirlanishning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi ko‘rsatgichlarga ko‘ra, respondent qizlarning oilaviy hayotda er-xotin munosabatlaridagi nizoli vaziyatlarni yengib o‘tishda o‘zlariga nisbatan ishonchlari darajasi past ekanligi kuzatiladi. Shuning uchun qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oiladagi sog‘lom muhitni yaratishda er-xotin munosabatlarining o‘rni, er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va ularning oldini olish malakalarini, sabr-toqat, iroda bir-birini tushunish, mehr va sadoqatli bo‘la olish xislatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Qolaversa, respondentlardan olingan natijalardan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pgina holatlarda ayrim hududlarda qizlarni juda erta turmushga uzatilishi ularning oilaviy hayotga har tomonlama tayyor bo‘lib shakllanmasliklariga va natijada turli xil oilaviy hayot vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutishlari malakasining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmayotganligi kuzatiladi[4]. Shuning uchun qizlarni erta turmushga uzatish holatlarining oldini olish choralarini ko‘rish talab etiladi. Afsuski, jamiyatimizda qizlarning istaklari va xohishlari bilan xisoblashmaydigan va erta turmushga uzatib yuboradigan ota-onalarimiz ham ba’zan uchrab turadi. Bunday holatlarning oldini olishda ta’lim muassasalarida, mahallalarda ota-onalar bilan uchrashuvlarni tashkil etish va aholi orasida erta nikohning oldini olish targ‘ibotini olib borish yaxshi natija berishi mumkin.

So‘rovnomada qatnashgan qizlarga “Siz o‘zingizni oila qurgandan so‘ng onalik mas’uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?”- degan savol bilan murojaat etilganda, 12 foiz qizlar “ha, to‘liq tayyorman” javobini tanlaganliklari, qolgan 88 foiz qizlarimiz esa oilaviy hayotga to‘liq tayyor emasliklarini, o‘zlarini tayyor deb hisoblamasliklarini hamda bu borada bilimlari kamlik qilishini ta’kidlashganliklari kuzatildi.

Ushbu ko‘rsatgich qizlarda onalik mas’uliyatining katta ekanligini anglagan holda, bunga tayyor bo‘lish uchun bilimlari va tasavvurlari kamlik qilishini, o‘zlarida onalik mas’uliyatiga nisbatan to‘liq ishonch bo‘lishi uchun yanada ko‘p izlanishlari va aniq bilimlarni olishga nisbatan yuqori istaklari mavjudligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida birinchidan, qizlarning tasavvurlarida reproduktiv salomatlik; homiladorlik va tug‘ruq; onalik mas’uliyati; komil insonni tarbiyalashda oilaning va onaning o‘rni; farzand tarbiyalashda yosh xususiyatlarini inobatga olish; onalikka tayyorlashda ma’naviy-psixologik bilimlarini shakllantirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, erta tug‘ruqning oldini olish zarurligini taqoza qiladi. Chunki, 16 yoshdan oshgan qizlar tasavvurlarida onalik roliga nisbatan xavotirlanish borligi kelajak avlodni sog‘lom tarbiyalashda bilimlari va o‘zlarida ishonchning yetarli emasligi kuzatiladi[5].

Respondentlarga “Siz kelin sifatida qaynona bilan samimiy va beg‘araz munosabatlarga kirishishga tayyormisiz?” - degan savol bilan murojaat etilganda, 24 foiz qizlar “to‘liq tayyorman” deb javob berishgan.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pchilik qizlarimiz tasavvurlarida “qaynona” obrazi salbiy tasavvur sifatida shaklangan va ular shuning hisobidan qaynonalar bilan munosabatga kirishishga qiynaladilar. Bunday tasavvurlarni o‘zgartirish “qaynonalar” haqidagi afsonalarni kamaytirish, nikoh oldi tasavvurlarda qaynonalarga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantirishda zarur choralarni ko‘rish zaruriyatini taqoza qiladi. Bundan tashqari olingan natijalar qizlarning oilaga tayyorlik holatlari bilan ham bog‘liq jarayon bo‘lib, qizlarga qaynona-kelin munosabatlarida ijobiy muhitni yaratishga oid milliy qadriyatlarimizga asoslangan hamda ma’naviy-psixologik bilimlarni targ‘ib qilishimiz kerakligi talab etiladi.

Qizlarning oilaga ma’naviy-psixologik tomondan tayyorlik holatlarini aniqlash maqsadida qizlar bilan o‘tkazilgan tadqiqot savolnomasi tarkibida xalqimiz dunyoqarashiga singib qolgan lekin asl oilaviy hayot haqidagi to‘g‘ri tasavvurlardan farq qiluvchi tushunchalar bilan belgilanuvchi ta’kidlardan ham foydalandik. Sababi, bunday steriotiplar yoshlar ongida hayot davomida orttirilgan bo‘ladi va ular bunga moslashib qoladilar. Lekin aslida oilaviy hayot haqidagi to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirishda ular to‘sqinlik qilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizda “Salbiy odatlarga ega bo‘lgan yoshlar turmushga chiqsa yoki uylansa quyilib qoladi, ya’ni ijobiy tomonga o‘zgaradi” kabi tasdiqlarni kiritdik va qizlarga “qo‘shilmayman”, “haqiqatga yaqin tomoni ham bor” va “qo‘shilaman” savol variantlari berildi. Natijaga ko‘ra, “qo‘shilmayman” 22%, “haqiqatga yaqin tomoni ham bor” 45 % va “qo‘shilaman 32% ni ko‘rsatadi. Bu esa ko‘pchilik qizlarning qarashlarida turmushga chiqishdan oldin salbiy odatlari bo‘lgan yoshlar oila qurishda qiyinchiliklarga uchramaydilar degan tasavvurning mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimizda 45 % qizlar ham bu ta’kidning haqiqatga yaqin tomoni bor deb belgilashgan. 22 % qizlar esa bu ta’kidga qo‘shilmaganliklarini bildirishgan. Qizlarimizning bu ta’kidga qo‘shilmaganliklari oilaviy hayot mas’uliyatini anglab yetganliklaridan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, bunday qarash va tasavvur bilan oila qurgan qizlarimiz kelajakda turmush qurganlarida qaynona, er va yaqin qarindoshlar orasida ijobiy fikrlarni uyg‘otishlarida qiyinchiliklarga uchramaydilar deb ayta olmaymiz. Sababi, qizlarning eng asosiy ziynatlari hisoblangan bekalik hislatlari ularning oilaviy hayotga tayyor ekanliklarini ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Sog‘lom, farovon va mustahkam turmushni

shakllantirishda oila bekasining rolini chuqur anglab yetgan qiz bolagina ruhan oila qurishga tayyor bo‘ladi[6]. Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning axloqiy va estetik madaniyatini oshirishda bekalik san’atiga o‘rgatuvchi uy-ro‘zg‘or ishlari, mehmon kutish san’ati, ozodalik, etiket qoidalari va madaniyat belgilarini ochib beruvchi bilimlar bilan qurollantirish muhim hisoblanadi.

Berilgan javoblarni tahlil qilish jarayonida tadqiqotimizda yana bir muhim jihat ma’lum bo‘ldi. Unga ko‘ra, “Sizningcha, oilani mustahkamligida qanday omillar muhim? Savoliga berilgan javoblarga respondentlarning 2 foizi “Moliyaviy ta’minlanganlik” omilini belgilashgan. Bundan ko‘rinadiki, “Moliyaviy ta’minlanganlik” omili oilaning mustahkamligida asosiy o‘rinni egallamas ekan. Bu qizlarda oila mustahkamligiga moliyaviy barqarorlikdan ko‘ra, bir-birini tushunish, o‘zaro mehr,ishonch va sadoqat muhimligi haqidagi tasavvurlarning yetakchiligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib ta’kidlash mumkinki, yoshlarning va ayniqsa, qizlarning oila haqidagi tasavvurlari oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta’sir etuvchi nikoh oldi omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning o‘z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari qanchalik reallikka yaqin bo‘lishi, shu oila mustahkamligini ta’minlashning garovi ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Акрамова Ф.А. Оилада соғлом психологик муҳитни таркиб топтиришнинг ижтимоий-психологик асослари. ўқув-услубий қўлланма.Т., 2014. 185 б.
2. Ходаков Н.М. Ёшкелин-куёвларга. 3-нашр. – Тошкент, 1990.
3. Оила психологияси: Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма. / Ғ.Б. Шоумаров таҳрири остида / – Тошкент: “Шарқ”, 2008. – 296 б.
4. Умаров Б. Болалар тарбияси бузилиши ва унинг олдини олиш юзасидан ота-оналарга маслаҳатлар. / Ота-оналар, ўзини ўзи бошқариш маҳалла фуқаролар йиғини ходимлари, маҳалла посбонлари учун услубий қўлланма.– Т.: “TURON-IQBOL”, 2012. - 44 б
5. О. Э. Эшмурадов. Оила мустаҳкамлигини таъминлашнинг ижтимоий-психологик омиллари мавзусидаги психология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. ТДПУ хузуридаги илмий кенгаш 2022
6. О. Э. Эшмурадов “Оилавий муносабатларда шахс мослашувчанлиги хусусиятининг оила мустаҳкамлигига таъсири” «Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илмий-методик журнали
7. DOI: https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012 (2021 йил Махсус сон) 378 б

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 195 H 107

Xosiyat YO‘LDOSHEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

TerDPI dotsenti,psixologiya fanalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

IMPACT OF DEFENSE MECHANISMS ON PSYCHOLOGICAL HEALTH IN PRESCHOOL CHILDREN

Annatation

This article explains the impact of protective mechanisms on psychological health in a preschool child, and also, provides information about the child's mental processes, the development of intuition and perception that is gradually developing in child. The purpose of the article is to clarify the consequences, effects and types of psychological defense mechanisms. Various manuals, articles and opinions of industry representatives were taken as sources for the article.

Key words: Research method, experiment, protection mechanism, types of protection, regression, protection, rationalization.

ВЛИЯНИЕ ЗАЩИТНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В данной статье разъясняется влияние защитных механизмов на психологическое здоровье детей дошкольного возраста, а также приводятся сведения о психических процессах ребенка, постепенно развивающейся интуиции и восприятии. Цель статьи - уточнить последствия, эффекты и виды механизмов психологической защиты. В качестве источника для статьи были взяты различные пособия, статьи и мнения представителей отрасли.

Ключевые слова: Метод исследования, эксперимент, механизм защиты, виды защиты, регрессия, защита, patsionalizatsia.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA HIMOYA MEXANIZMLARINING PSIXOLOGIK SALOMATLIKKA BO‘LGAN TA’SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolada himoya mexanizmlarining psixologik salomatlikka bo`lgan ta`sirini asoslab beradi, shuningdek bolaning psixik jarayonlar, unda asta-sekin rivojlanayotgan sezgi va idrokning rivojlanishi haqida ma`lumot beradi. Maqoladan ko`zlangan maqsad psixologik himoya mexanizmlarining oqibatlarini, ta`sirini va turlarini yoritib berishdan iborat. Maqola uchun manba sifatida turli xil qo`llanmalar, maqolalar va soha vakillari fikrlari olingan.

Kalit so‘zlar: Tadqiq qilish usuli, eksperiment, himoya mexanizmi, himoya turlari, regressiya, proteksiya, ratsionalizatsiya

Kirish. Mustaqillikka erishilgandan keyin O‘zbekistonda psixologiya faniga ko‘proq e’tibor berila boshlandi. Mamlakat oliy o‘quv yurtlaridagi psixologiya fakulteti va yo‘nalishlariga har yili 800ga yaqin talaba qabul qilinmoqda. Bu sobiq ittifoq davriga qaraganda 30 baravardan ortiqroqni tashkil qiladi. Shuningdek psixologiya tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, o‘rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko‘rinishdagi g‘ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba’zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg‘a qadam qo‘yildi. Inson xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qadimgi qo‘lyozmalar, yodgorliklarda o‘z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan. Psixologiya taraqqiyotida, umuman, XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o‘rganish uchun metodlar majmuasi qo‘llana boshlandi. O‘zbekistonda psixologiya 1928-yildan e’tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o‘qitila boshlandi. 1929-yil Xalq maorifi komissarligi qoshida psixologiya laboratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida psixologiyaning bir necha sohalari bo‘yicha talabalarga bilim berila boshlandi.

Psixologiya - inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari - psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi[1]. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik meros sifatida tarixda ham hozirgi kunda ham ko`plab olimlarimiz o`z kashfiyotlarini, qarashlarini va kitoblarini yosh avlodga ulashib kelmoqda. Asosan, bugungi muhokama mavzumiz psixologiya bilan bevosita bog`liqligi sababli, psixologiya rivojiga hissa qo`shgan olimlar haqida so`z ochish maqsadga muvofiq bo`ladi. Psixologiyaning rivojiga I. M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiati), I. Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta’limotlari muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Rossiyada V. M. Bexterev eksperimental laboratoriya (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N. N. Langening Odessadagi labaratoriyasi, G.Chelpanovning Kiyevdagi, S. Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V. M. Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdagi, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixologiya taraqqiyotiga alohida ta’sir o‘tkazdi. 1912-yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I. A. Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asrning 1-yarmida

Rossiyada K. N. Kornilov, Blonskiy va boshqalar dialektikaga asoslangan ilmiy psixologiyani yaratishga kirishdilar. Hozirgi davrda psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G‘oziyev, B. Qodirov, G‘. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar psixologiyaning umumiy psixologiya, pedagogik va yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Undan tashqari, psixologik himoya mexanizmlari to`g`risida ko`plab ishlarni amalga oshirgan va shu soha bo`yicha olimlarimiz Z. Freyd, E. From, K. Xorni, R.M. Granovskaya, F.V. Bassin, F. Kramerlarning o`rni katta[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Bolalar psixologiyasining predmeti - shaxsning individual rivojlanishi yoki ontogenez, har doim ma'lum bir tarixiy va madaniy vaziyatda, filogenezning ma'lum bir bosqichida sodir bo'ladigan (tarixiy va madaniy rivojlanish.) Barcha bolalar o'zlarining rivojlanishida muayyan bosqichlarni yoki ularning ruhiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan bosqichlarni o'tkazadilar. Bolaning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bolalar psixologiyasining asosiy predmeti hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi har bir yosh bosqichida bolaning ruhiy hayotining xususiyatlarini tavsiflash va tushuntirishdir. Shuning uchun ham bolalar psixologiyasi rivojlanish psixologiyasining tarkibiy qismi, ya’ni inson psixik rivojlanishining yoshga bog’liq qonuniyatlarini o’rganuvchi fandir. Maktabgacha yoshdagi psixologiyani tadqiq qilish usullarini o`rganish ham katta ahamiyat kasb etadi. Usul - tadqiqotning vazifasi va predmeti hamda tadqiqotchining nazariy fikrlari bilan belgilanadigan umumiy strategiya, faktlarni olishning umumiy usulidir. Kuzatish bolalar bilan ishlashda (ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar) asosiy usul hisoblanadi, chunki testlar, eksperimentlar, so'rovlar bolaning xatti-harakatlarini o'rganish qiyin. Kuzatishni maqsadni belgilash, kuzatish dasturini tuzish va harakat rejasini ishlab chiqishdan boshlash kerak. Kuzatishning maqsadi nima uchun ekanligini va oxirida qanday natijalarni kutish mumkinligini aniqlashdir. Ishonchli natijalarga erishish uchun kuzatuv muntazam ravishda o'tkazilishi kerak. Buning sababi shundaki, bolalar juda tez o'sadi va bolaning xatti-harakati va ruhiyatidagi o'zgarishlar xuddi o'tkinchidir. Masalan, chaqaloqning xatti-harakati bizning ko'z o'ngimizda o'zgaradi, shuning uchun bir oyni o'tkazib yuborgan tadqiqotchi ushbu davrda uning rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bolalar bilan ishlashda kuzatish usuli, bir tomondan, boshqalarga qaraganda samaraliroqdir, chunki ular o'zlarini to'g'ridan-to'g'ri tutadilar va kattalarga xos ijtimoiy rollarni o'ynamaydilar. Boshqa tomondan, bolalar (ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar) doimiy e'tiborga ega emaslar va ko'pincha o'z ishlaridan chalg'itishi mumkin. Shuning uchun, iloji bo'lsa, bolalar kuzatuvchini ko'rmasligi uchun yashirin kuzatuv o'tkazilishi kerak.

Psixologik himoya - bular salbiy tajribalarning ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan psixikada paydo bo'ladigan ongsiz jarayonlar. Himoya vositalari qarshilik jarayonlarining asosidir. Psixologik himoya, Freyd tomonidan birinchi navbatda e'lon qilingan, birinchi navbatda, boshqa joyga ko'chirish (faol, nimadir ongning ongini rag'batlantirish). Psixologik himoya qilish funksiyalari Shaxsiyatning yoki ijtimoiy hamkorlik tufayli paydo bo'lgan atrof-muhitga qarshi kurashish va qabul qilingan atrof-muhit talablarining qarama-qarshilikning kuchlanishini kamaytirishdir. Bunday nizo, xavfsizlik mexanizmlarini minimallashtirish insonning xatti-harakatlarini tartibga soladi, uning moslashuv qobiliyatini oshirish. Psixologik himoya, 1894-yilda, taniqli psixoanalyst Sigmundning taniqli psixoanalystining taniqli psixoanalystining taniqli psixalanalysti tufayli nohaqning noxush holatlarga ikki xil javobni namoyish qilishi mumkinligi sababli paydo bo'ldi. U ularni ongli holatda kechiktirishi yoki boshqa yo'nalishda pasayish yoki rad etish uchun bunday holatlarni buzishi mumkin. Barcha oldini olish mexanizmlari ularning xususiyatlarini ikki marta bog'laydigan. Avvalo, ular hushidan ketadilar. Ikkinchidan, himoya vositalarining asosiy vazifasi haqiqatni yoki uning mutlaqini rad etish, uni tashvishga soladigan yoki xavfli deb hisoblash uchun uni rad etish. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pincha insonlar bir vaqtning o'zida o'z shaxslarini yoqimsiz va tahdidli hodisalardan himoya qilishning dastlabki profilaktik mexanizmlaridan foydalanishadi. Biroq, bunday buzilishni qasddan yoki mubolag'a qilish mumkin emas. Shu bilan birga, mavjud himoya harakatlari inson psixikasining ustuniga kelib, uning o'rnashmasligini oldini olish, stressli ta'sirni o'tkazishda yordam beradi, ular ko'pincha zararli. Insonning kirish qismi atrof-muhitni o'z muammolariga va o'z muammolariga qarshi kurashda doimiy ravishda yo'q bo'lib, uni o'chirib tashlagan egri rasmning haqiqatini almashtirishi mumkin emas. Psixologik himoya, Bundan tashqari, odamning rivojlanishiga xalaqit berishi mumkin. Bu muvaffaqiyat drenajida to'siq bo'lishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan hodisaning salbiy oqibatlari, ayrim tadbirlarda ma'lum bir himoya mexanizmini barqaror ravishda takrorlash bilan bog'liq bo'lgan salbiy oqibatlarga qaramay, shu kabi, shu paytgacha Mavzuni ongli ravishda muammoni hal qilishga undaydi. Shuningdek, himoya mexanizmlari bir vaqtning o'zida ularni qo'llasa, vayronagarchilik kuchga aylanadi. Ko'pincha himoya mexanizmlariga murojaat qilish, yutqazadi. Shaxsni psixologik himoya qilish tug'ma mahorat emas. Bolani o'tish paytida sotib olinadi. Ichki himoya mexanizmlari va ulardan foydalanishning asosiy manbai ota-onalardir, ular o'zlarining farzandlarini himoya qilishning namunasi[3].

Manbalarga ko`ra, Freyd, psixika qurilmasining uch qismli modelidan foydalanib, bolalar asr bosqichida individual mexanizmlar paydo bo'lishini taklif qildi. Hayotda uning hayotidagi psixologik himoya qilish umuman topilgan. Ko'pincha xo'jayinga g'azabni to'ldirmaslik uchun, xodimlarga salbiy ma'lumotlarni quying, chunki ular buning uchun ahamiyatsiz narsalarga ega. Ko'pincha himoyalangan mexanizmlar noto'g'ri ishlay boshlaydi. Ushbu muvaffaqiyatsizlikning sababi shaxsning tinchlanish istagidadir. Bu yerdan psixologik qulaylik istak dunyoni anglash istagidan boshlanganda, odatiy holga kelmaslik xavfini minimallashtirish, odatdagidek himoya mexanizmlari etarli darajada funktsiya qilishni to'xtatadi. Himoya mexanizmlarini himoya qilish shaxsiyatning xavfsizlik kompleksi, ammo bir vaqtning o'zida uni parchalanishiga olib kelishi mumkin. Har bir shaxsning eng sevimli variantlari mavjud. Juda kulgili xatti-harakatlarga hatto oqilona tushuntirishni topish istagining psixologik himoya qilishning misollari. Shunday qilib, ratsionalizatsiya tendentsiyasi namoyon bo'ladi. Ilmiy tan olingan va tez-tez topilgan ichki "qalqonlar" qatorida 50 ga yaqin psixologik himoya qilish ajralib turadi. Quyida ishlatilgan himoya usullarining asosiy qismi. Birinchi navbatda, sublimatsiya, freydni aniqlagan kontseptsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. U buni Libidoni intilish va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o'zgartirish jarayoni deb hisobladi. Freyd kontseptsiyasining so'zlariga ko'ra, bu shaxsning kamolotida samarali himoya mexanizmi. Sublimulyatsiyaning asosiy strategiyasi sifatida aqliy kamolotga va shaxsiyatni shakllantirishni anglatadi. Himoya mexanizmi yordamida moslashmagan shaxs ikkinchi darajali shaklni kesib o'tishi mumkin. Keyingi, tez-tez ishlatiladigan qabulxona, ongsiz harakatsiz niyatlar yoki fikrlarning majburiy harakatida topilgan. Oddiy qilib aytganda, boshqa joyga ko'chirish unutiladi. Ushbu mexanizmning funktsiyasi tashvishni kamaytirish uchun etarli emasligi sababli, boshqa himoya texnikasi ulangan, ko'chirilgan ma'lumotlarning

buzilgan nurda ko'rinadigan ma'lumotni targ'ib qiladi. Regressiya - bu istaklarning istaklarini qondirishga imkon beradigan armatura bosqichida ongsiz "miltillovchi". Bu ramziy, qisman yoki to'liq. Ko'plab hissiy muammolar regressiv belgilar mavjud. Oddiy namoyon bo'lishda, regressiya o'yin jarayonlarida, kasalliklar bilan aniqlash mumkin (masalan, kasal shaxs ko'proq e'tibor va vasiylik talab etiladi). Proektsiya boshqa shaxsni yoki xohishchilar, his-tuyg'ular, fikrlar ongli ravishda rad etgan fikrlarning ob'ekti hisoblanadi. Alohida proektsion tafovutlar kundalik mavjudotda osongina aniqlanadi. Aksariyat insoniy sub'ektlar shaxsiy kamchiliklar bilan mutlaqo juda yaxshi, ammo ular ularni atrof-muhitda osongina sezishadi. Odamlar atrofdagi jamiyatni qayg'ularida ayblashadi. Shu bilan birga, proektsiya zarar etkazishi mumkin, chunki bu ko'pincha haqiqatning noto'g'ri talqinini keltirib chiqaradi. Ushbu mexanizm, asosan, yaroqsiz shaxslar va etuklik shaxsiyatlari tomonidan qo'zg'atiladi. Ratsionalizatsiya - bu shaxslarning xatti-harakatlarining, ularning fikrlari, aslida nomaqbul bo'lgan hissiyotlarni oqlaydigan mexanizmdir. Ushbu usul psixologik himoya qilishning eng keng tarqalgan mexanizmi hisoblanadi[4].

Himoya qilish mexanizmlari asosan maktabgacha yoshdagi bolalarda salomatlikka katta ta`sir ko`rsatishi mumkin. Chunki himoyaning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud. Himoya qilishning usullaridan biri - bu ko'chmas mulk - bu shaxsiyat uchun nomaqbul degan mexanizm: istaklar, fikrlar, hissiyotlar tashvish tug'diradi. Biror kishi ba'zi narsalarni osongina unutishi mumkin, ayniqsa o'z qadriyatlarini inson sifatida kamaytiradiganlarni. Hamma ongdan ongsiz ravishda o'chib, insonning xatti-harakatlariga ma'lum bir ta'sir ko'rsatmaydi. Vaqti-vaqti bilan orzular, noto'g'ri harakatlar, rezervasyon shaklida amalga oshiriladigan ong darajasiga o'z-o'zidan "ko'chirilgan" ni o'z-o'zidan "ko'chirishning qaytishi" mavjud. Ko'pincha bu mexanizm "men" ga ega bo'lgan odamlarga, xarakterning xastalik xususiyatlari, bolalarda xastalik xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar bola salomatligiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar sirasiga kiradi. Salbiy his-tuyg'ularni targ'ib qiladigan usullardan biri "shamol o'zgarishi". Eng og'riqli intonatsiyaga olib keladigan barcha so'z va intonatsiyalarni yodda tutish kerakki, tuproqni taqillatish, muvozanatdan chiqish yoki tushkunlikka tushirish kafolatlanganligini tushunish mumkin. Kasallik ma'lum bir so'zlar, intonatsiya yoki yuz ifodalariga nisbatan g'azablanishni istagan holatlarni eslash va yoritish tavsiya etiladi. Shuningdek, eng ta'sirlangan so'zlarni gapiradigan narsa. Siz raqibning yuz ilmi, e'lon qilingan so'zlarni tasavvur qilishingiz mumkin. Bu kuchliroq g'azabning holati yoki aksincha, yo'qolgan, ichkarisiga kirib, ajratish va alohida hissiyotlarni his qilish kerak. Tadqiqotimiz davomida

“UY, DARAXT, ODAM” (UDO) TESTIdan foydalandik UDO testini qo’llash orqali bolani maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik darajasini baholash qiyin. Bir necha bor qo’llash, qaytadan qo’llash, masalan, test maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni ilk marotaba maktabga qadam qo’yishida va kelgusida boshlang’ich sinfni davom ettirishida bola shaxsi shakllanishi haqida har tomonlama, batafsil ma’lumotlarni beradi. Biz R.Bens, S.Kaufman, B. Guddinaf, S.R. Reynolds, G. Xomentaustkas va R.F.Belyauskayte(1983)ishlanmasiga asoslangan tahlillar tizimini taqdim etamiz. UDO testini miqdoriy baholash uchun sifat ko’rsatkichlari belgilar to’plami bilan guruhlashtiriladi:

Xulosa va takliflar. Har bir belgi to’plami ballar bilan baholanuvchi bir qator ko’rsatkichlardan iborat. Agar ko’rsatkich qatnashmasa, u holda nol ko’yiladi. Belgilar ishtiroki 1 ball bilan baholanadi. Har bir belgilar to’plami bo’yicha yuqori ball 8-10 ballni tashkil etadi. Ballar hisobi uchta rasmni o’z tarkibiga oladi. Masalan, agar bolaning rasmida shtrixlar ishtirok etsa, shu belgilar to’plamda muhim bo’lgan shtrixlar uchui ballar hisoblab chiqiladi. Shunday qilib, har bir belgilar |to’plami bo’yicha aniq ballar miqdori yig’iladi.”Uy- daraxt- odam”testining belgilar to’plami. Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, psixologik himoya mexanizmi natijasida ko`plab salbiy va ijobiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Asosan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu ba`zi salbiy natijalarga olib keladi. Shuningdek, nafaqat ularning psixologiyasiga balki salomatligiga ham katta ta`sir ko`rsatishi mumkin. Maqolada asosan shu kabi mavzular Freyd streotiplariga asoslanib ochib berilgan va o`quvchi anglashi uchun mavzuga oid ba`zi terminlar izohlab berilgan.

ADABIYOTLAR

1. Norbosheva M.O. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi, o’quv qo’llanma// T.2020 yil ADAST-POLIGRAF nashriyoti.
2. Adizova T.M-Psixokorreksiya.Toshkent-2006 yil. o‘quv qo‘llanma.
3. Norbosheva M.O. Bolalar bogchalarida psixoprofilaktik ishlarni tashkil etish. Maktab va hayot jurnali, 2003 y, 4-son,10-11 b.
4. Norbosheva M.O. Bolalar psixologiyasi . T., 2003